O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI

mavzusidagi

II XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

2025-yil 13-14 iyun

1-kitob

Namangan – 2025

Mazkur to‘plamda “O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaiy anjuman materiallari jamlangan. To‘plamdan respublikamiz va xorij olimlarining matnshunoslik va manbashunoslik muammolariga bag‘ishlangan maqolalari, shuningdek, yosh tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning ilk tadqiqotlari ham o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir:
Faridaxon KARIMOVA, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muharrirlar:
Mo‘minjon Sulaymonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Abbos Rohataliyev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Saboxon Jo‘raboyeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Mahmuda Otaxonova, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Gulnavoz Mamadaliyeva, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Shamsiya Egamberdiyeva, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi doktoranti

Taqrizchilar:
Maqsudbek Asadov, filologiya fanlari doktori, professor
Nosirjon Uluqov, filologiya fanlari doktori, professor

NamDU ilmiy-texnik kengashi yig‘ilishining 2025-yil 10-iyundagi 6- sonli qaroriga muvofiq nashr etishga tavsiya qilingan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Namangan davlat universiteti rektori, siyosiy fanlar doktori, professor A.K.Kirgizbayevning anjuman ishtirokchilariga

TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum, qadrli anjuman ishtirokchilari! Hurmatli mehmonlar!

Boborahim Mashrab, Usmon Nosir, So‘fizoda, Ishoqxon Ibrat, Nodim Namongoniy, Rafiq Mo‘min, Zafar Diyor, Chustiy. Habib Sa’dulla singari ulug‘ shoir va yozuvchilar yurti bo‘lgan go‘zal Namaganga xush kelibsizlar.

Bugungi anjuman O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi bayrami nishonlanadigan yilda hamda Namanganda 64-Xalqaro gullar festivali davom etayotgan shukuhli lahzalarda o‘tayotganligi bilan ham qadrlidir.

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlariimizni tiklashga, qadim tarixga ega bo‘lgan boy madaniy merosisimizni o‘rganishga, tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan 34 yil ichida ulug‘ ajdodlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, keyingi 10 yilda muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan mumtoz adabiyotimizni xalqimizga yanada yaqinlashtirish, bu noyob merosni ma’naviyatimizning hayotbaxsh manbaiga aylantirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy samarasini berayotganligi barchamizga faxr va g‘urur bag‘ishlaydi.

Namanganda o‘tayotgan bugungi anjuman Davlatimiz rahbarining 2017 yil 24 maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2995-sonli qarorini amalga oshirish borasida tashlangan dadil qadam desak hech bir mubolag‘a bo‘lmaydi.

Elimizning Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Nodira kabi o‘nlab benazir shoirlari kelajak avlod uchun katta adabiy meros qoldirgan ekanlar, adabiyotshunoslik va tilshunoslik ilmi to‘xtab qolmaydi. Ularning shaxsi, ijod olami, mahorat sirlarini o‘rganish, tadqiq etish davom etadi. O‘ylymanki, bugungi anjumanda ham shu maqsadga qaratilgann ma’ruzalar o‘qiladi, o‘zaro fikr almashinadi, kelgusidagi vazifalar belgilab olinadi.

Men shuni alohida e’tirof etishni istardimki, universitetimizda keyingi yillarda filologiya sohasida maqtovga arzirli qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Jumladan, dissertatsiyalar himoyasiga ixtisoslashgan Ilmiy kengashning faoliyat ko‘rsatayotganligi, filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori, professorlarning yosh tadqiqotchilar ilmiy ishlariga rahbarlik qilayotganligi, ilmiy darajali yoshlar safi kengayayotganligi, bir so‘z bilan aytganda, filologiya bo‘yicha ilmiy maktab yaratilganligi fikrimiz dalilidir.

Bugungi anjumanga yuborilgan maqolalar orasida xorij hamda o‘zbek matnshunos va manbashunos olimlari hamda respublikamizdagi barcha oliy o‘quv yurtlari tadqiqotchilari, magistr va talabalarining ham borligi,ularning tadqiqotlarida adabiy merosimizga matshunoslik va manbashunoslik ilmi nuqtai nazaridan o‘ziga xos yondashuvlari mavjudligi, mazkur soha rivojida yoshlarning ham muayyan darajada o‘rni borligi bizni behad mamnun qiladi.

Konferensiya ishida nafaqat o‘zbek, balki Amerika, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi davlatlarning yetakchi olimlari ham ishtirok etayotganliklari uning nufuzi qanchalik ulug‘vor ekanligidan dalolat beradi.

Men bugun bu dargohda o‘qiladigan ma’ruzalar va muhokama qilinadigan masalalar filologiya sohasida yangi tadqiqotlarning yaratilishiga turtki bo‘lishiga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, bugungi anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI

O‘ZBEK MATNSHUNOSLIGI: YECHIMINI KUTAYOTGAN MUAMMOLAR

Nurboy Jabborov,
ToshDO‘ TAU professori, filologiya fanlari doktori
E- mail: jabborov-nurboy@rambler.ru
Tel*: +998974021594*

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek matnshunosligida erishilgan yutuqlar, shuning bilan birga, yechimini kutayotgan dolzarb ilmiy-nazariy masalalar xususida mulohaza yuritilgan. Jumladan, hanuzgacha matnshunoslikning tizimli yaxlit nazariyasi ishlab chiqilmagani, adabiyot tarixida o‘ziga xos mavqega ega har bir ijodkor asarlari yuzasidan keng qamrovli tekstologik tadqiqotlarni amalga oshirish masalasi kun tartibida turgani ilmiy asoslangan. Matnshunoslikdagi ilmiy bahslar aksar mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdil qilinishidagi xatolarga oid ekani, sohaning fundamental masalalari e’tibordan chetda qolayotgani muammolarning asosiy ildizi ekani isbotlangan. Hanuzgacha mumtoz adabiy merosimiz namunalarini tabdil qilish tamoyillari ishlab chiqilmagani, turfaxilliklar, xatoliklar negizi shunga borib taqalishi haqida fikr yuritilgan.

Bundan tashqari, atoqli shoir-u adiblar asarlarining matn tarixini o‘rganish, matn tahriri borasidagi izlanishlarni takomillashtirish, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Munis, Amiriy, Nodira, Nishotiy, Furqat, Muqimiy va boshqa adiblar asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilishi ular adabiy merosiga oid ko‘pgina munozarali masalalarni oydinlashtirishi, asarlarining asliyatga asoslangan ilmiy nashrlarini amalga oshirish zarurati dalillangan. “Matnshunoslik” fani o‘qitilishini zamon talablari darajasiga ko‘tarish yuzasidan tahliliy fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: matnshunoslik, matnshunoslik nazariyasi, matn tarixi, ilmiy-tanqidiy matn, qo‘lyozmalar genealogiyasi, matn tahriri, ilmiy nashr.

Annotation: The article discusses the achievements attained in Uzbek textology, as well as pressing theoretical and scientific issues that

remain unresolved. In particular, it is scientifically substantiated that a comprehensive and systematic theory of textology has not yet been developed, and that there is a pressing need for extensive textological studies of works by individual authors who hold a unique place in the history of literature. The article emphasizes that ongoing scholarly debates in textology are often linked to errors in the transliteration of classical literary texts into modern orthography, and that the neglect of fundamental issues in the field lies at the root of these problems. It is argued that the lack of established principles for transliterating classical literary heritage texts has resulted in inconsistencies and errors.

In addition, the necessity of researching the textual history of prominent poets and writers, improving editorial studies, and producing scholarly-critical editions of works by figures such as Babur, Mashrab, Ogahi, Munis, Amiri, Nodira, Nishatiy, Furqat, Muqimiy, and others is substantiated. Such efforts are essential for clarifying many disputed aspects of their literary legacy and for publishing scientifically grounded editions based on authentic sources. The article also offers an analytical discussion on bringing the teaching of the subject “Textology” in line with contemporary academic standards.

Keywords: textology, theory of textology, textual history, scholarly-critical text, manuscript genealogy, text editing, scientific publication.

XX asr ikkinchi yarmi – XXI yuzyillik avvalida o‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligi, shubhasiz, e’tiborga molik ilmiy natijalarga erishdi. Bu yutuqlar Porso Shamsiyevning doktorlik dissertatsiyasi [Шамсиев 1969] va matnshunoslikka oid kitobida [Шамсиев 1986], Hamid Sulaymonнинг “Xazoyinu-l-maoniy” matniga doir tadqiqotida [Сулаймон 1959], G‘ulom Karimovнинг “Layli va Majnun” tanqidiy matni bo‘yicha monografiyasida [Каримов 1944], Aziz Qayumovning “Xamsa”ga oid izlanishlarida [Qayumov 2008], Suyuma G‘anievанинг “Majolisu-n-nafoiy” ilmiy-tanqidiy matniga doir tadqiqotida [Ғаниева 1961] hamda Shuhrat Sirojiddinovning Alisher Navoiy ilmiy biografiyasini yaratish bo‘yicha monografiyasida [Sirojiddinov 2015], ayniqsa, yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. “Xamsa”, “Xazoyinu-l-maoniy”, “Majolisu-n-nafois”, “Muhokamatu-l-lug‘atayn” kabi benazir asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilgani, buyuk shoir hayotiga oid manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tadqiqi amalga oshirilgani navoiyshunoslikni yangi rivojlanish bosqichiga yuksaltirdi. Matnshunoslikda erishilgan bu kabi yutuqlar keyingi davrda Bobur,

Ogahiy, Furqat, Muqimiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy va boshqa mumtoz shoirlar nazmiy merosi misolida izchil davom ettirilmoqda.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan ikki tadqiqot matnshunoslikdagi muhim yutuq bo‘ldi. Birinchisi, Shahobiddin Nuriddinovning “Komil Xorazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidi muammosi” [Нуриддинов 2022], ikkinchisi, Shermuhammad Amonovning “Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi” [Амонов 2023] mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalaridir. Ushbu tadqiqotlar muayyan ijodkor devoni manbalari va asarlarining matn tarixi teran o‘rganilgani bilangina emas, matnshunoslikning bir qator nazariy-metodologik masalalari hal etilgani bilan ham ahamiyatlidir. Mazkur dissertatsiyalarda qo‘lyozmalar genealogiyasi, matn tarixi hamda matn tahririga doir yangi kuzatishlar, she’riy matnni o‘rganish tamoyillari singari muammo-larning nazariy asosda ishlangani fikrimizni tasdiqlaydi.

Bu singari muvaffaqiyatlar, shubhasiz, e’tirofga loyiq. Biroq soha oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar ham talaygina. Xo‘sh, bu muammolar nimalarda ko‘rinadi? **Birinchidan, dunyoda fanning bu jabhasi zamon talablari darajasida rivojlangan bugungi kunda biz hanuzgacha matnshunoslikning tizimli yaxlit nazariyasini ishlab chiqa olganimiz yo‘q.** To‘g‘ri, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu boradagi izlanishlarni rejali va tizimli ravishda amalga oshirish, muvofiqlashtirish hamda bugungi davr talablari darajasiga ko‘tarish zarurati kun tartibida turibdi. Holbuki, jahonning bir qator mamlakatlari fan va ta’lim markazlarida matnshunoslik nazariyasiga oid yirik hajmli tadqiqotlar yaratilgan. Matnshunoslikning barcha ijtimoiy fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy tilshunoslik singari sohalar bilan munosabati masalasi ancha chuqur o‘rganilgan. Bu fanga oid muammolarni hal etishda dunyo olimlari paleografiya, germenevtika, mumtoz poetika va stilistikada erishilgan yutuqlardan samarali foydalanmoqda. Modomiki sohani rivojlantirmoqchi ekanmiz, bu tajribalarni tanqidiy o‘rganishimiz zarur. Biroq bu degani xorijiy matnshunoslik qoliplarini ko‘r-ko‘rona amaliyotga tatbiq etaverish kerak degani emas, albatta. O‘zbek matnshunosligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Matnshunoslik nazariyasini ishlashda ana shu o‘ziga xoslik e’tiborga olinishi shart.

Ikkinchidan, matnshunoslik taraqqiy etgan ayrim mamlakatlarda muayyan milliy adabiyot tarixida o‘ziga xos mavqega ega har bir ijodkor asarlari yuzasidan keng qamrovli tekstologik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bizda esa, navoiyshunoslikni istisno

qilganda (holbuki, bu borada ham hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolar yetarli), ahvol maqtanarli emas. Ko‘proq bahslarimiz mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdil qilinishidagi xatolarga oid ekani, matnshunoslikning fundamental masalalari e’tibordan chetda qolayotgani ham buning isbotidir. Hanuzgacha mumtoz adabiy merosimiz namunalarini tabdil qilishning ilmiy tamoyillari ishlab chiqilgani yo‘q. Turfaxilliklar va xatoliklar negizi shunga ham borib taqaladi. Eski o‘zbek yozuvini o‘zlashtirgan ba’zi mutaxassislarimiz arab, fors tillaridan bexabar. Bularni bilganlarda adabiy idrok yetishmaydi. Bunga layoqatli bo‘lsa, mumtoz ijodkorlarimiz e’tiqodining asosi bo‘lgan islom arkonlari va tasavvuf bo‘yicha tasavvuri chala. Xullas, muammo ko‘p. Ularni hal etish uchun ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlarini ana shu talablarga muvofiqlashtirish, matnshunos kadrlar tayyorlashda buni e’tiborga olish taqozo etiladi.

Uchinchidan, adabiyotimizning har bir yirik namoyandasi asarlari matnshunoslikning asosiy nazariy muammosi sanalgan *matn tarixi* yuzasidan tadqiq etilishi zarur. Busiz matnshunoslik rivojini tasavvur ham etib bo‘lmaydi. Mashhur matnshunos D.S.Lixachev fikricha: “*Matn tarixi* tushunchasi muayyan asarning **barcha** masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarni faqat to‘liq (yoki imkon darajasida to‘liq) o‘rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma’noda kashf etish imkonini beradi” [Лихачев 2001: 34]. Taassuflar bo‘lsinki, biz hali ana shu tarzdagi ko‘lamli tadqiqotlar yarata olganimizcha yo‘q.

Matnshunoslikka oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, *matn tarixi* ushbu sohaning eng asosiy nazariy tushunchalaridan. Bu tushuncha matnni kompleks o‘rganish zaruratini taqozo qiladi. Bunda matnga oid bevosita va bilvosita ma’lumotlar tadqiq qilinishi zarur. “Hech bir yodgorlik tanholikda mavjud emas”ligi [Лихачев 2001: 64], ma’lum bir aloqador omillar qurshovida yuzaga kelishi, uni o‘rganishda ana shu omillar e’tiborga olinishi kerakligi tadqiqotchining diqqat markazida turishi lozim. Yana bir muhim jihati, matn tarixi uning tashqi, tasodifiy o‘zgarishlarinigina qamrab olmaydi. Balki u matn muallifi rejasi va mo‘ljalining amalga oshishi jarayonini to‘laqonli aks ettiradi. Bu esa, matn tarixini kompleks o‘rganmay turib, muayyan asar haqida aytilgan har qanday xulosaning nisbiy ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, matnshunoslikning yana bir e’tiborga molik nazariy masalasi – matn tahriri borasida ko‘lamli izlanishlar olib borilishi kerak. Rus matnshunosi V.M.Istrinning aniqlashicha, tahrir “anglangan holda” (“сознательно”), “muayyan maqsad bilan” (“c

определенной целью”) amalga oshiriladi [Истрин 1922]. Matn tahriri muayyan maqsad bilan amalga oshirilganda, olim aytganidek: 1) ijtimoiy voqelik talabi hamda 2) adabiy ehtiyoj katta rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda “adabiy ehtiyoj”, bizningcha, ijod jarayonidagi tahrirni ham e’tiborda tutadi. Bu – asarni mukammallashtirish bilan bog‘liq muallif tahriridir. Matn tahririning bu turi, ta’kidlanganidek, ayni ijod jarayoni bilan bog‘liq. Qanday maqsad bilan amalga oshirilgan bo‘lmasin, asarni o‘rganish niyatidagi tadqiqotchi matnning muallif tahrir qilgan nusxasini tayanch manba sifatida olishga majbur. Matnning muallif ishtirokisiz amalga oshirilgan har qanday tahriri asar mohiyatiga zarar yetkazishi jihatidan maqsadga muvofiq emas.

D.S.Lixachev tahrirning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: 1) g‘oyaviy tahrir; 2) uslubiy tahrir; 3) asardagi faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir; 4) bir necha turni o‘zida mujassam etgan qorishiq tahrir [Лихачев 2001: 116-122]. Adabiyotimizning har bir durdona namunasini matn tahriri nuqtai nazaridan ana shunday ilmiy tasniflar asosida tadqiq etish zarur. Avvalgi tadqiqotlarimizdan birida g‘oyaviy tahrir natijasida Furqat va Zavqiy qarashlari butunlay teskari tomonga burib yuborilgani misollar asosida keltirilgan edi [Жабборов 2014: 28-32].

Adabiyotimiz tarixiga oid manbalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bizda nainki muallif fikrlarini teskari talqin etish, hatto keyingi davrlarda boshqa qalamkashlar tomonidan to‘qilgan she’rlarni ularga nisbat berishdek nojoiz faktlar ham uchraydi. Fikrimiz isboti uchun ikkita misol keltirish bilan cheklanamiz. Birinchi misol. Zokirjon Furqat “Tanlangan asarlar”ining barcha nashrlarida Rusiya-Xitoy munosabatlariga bag‘ishlangan quyidagi to‘rtlik uchraydi:

Muazzam Rusu Chin hamkoru hamdast,
Azaldin yerlari bir-birg‘a payvast.
Alar ijmoidin osoyish o‘lg‘ay,
Shukuhi dunyog‘a oroyish o‘lg‘ay.

Holbuki, bu to‘rtlik matni Furqat asarlariga oid na yurtimizdagi birorta ham manbada uchraydi va na undan tashqaridagi. Ijodkor asarlari manbalari ustida jiddiy ilmiy izlanish olib borgan ikki olim Sharif Yusupov va Ahmadjon Madaminovlarning guvohlik berishicha, sho‘rolar davridagi mashhur shoirlardan biri bu to‘rtlikni badihatan to‘qigan va Furqat “Tanlangan asarlar”ini nashrga tayyorlayotgan mutaxassisga aytib turib yozdirgan. Shu tariqa g‘alati mashhur to‘rtlik shoir adabiy merosiga qo‘shilib qolgan. Taassufki, bu to‘rtlik hatto shoirning mamlakatimizda

chop etilgan “Tanlangan asarlar”i asosida tayyorlangan Shinjong nashriga ham kirgan. Bundan ham yomoni, nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslari, hatto Edvard Ollvort, Yanosh Ekman singari chet ellik olimlarning Furqat ijodiga oid tadqiqotlarida ham mazkur to‘rtlik haqidagi talqinlarga duch kelamiz.

Ikkinchi misol. Shoir “Tanlangan asarlar”ining 1958-yilgi nashrida “Tuf” radifli she’r uchraydi. G‘azal janridagi bu she’r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Ey Qo‘qon boyonlari, sizlardek insonlarga tuf!
Taltayib faytunda surgan davr-u davronlarga tuf!

Ta’kidlash joizki, ushbu she’r Sayfiyning Furqat haqidagi dostonida shoir va hukmron doiralar o‘rtasidagi sinfiy ziddiyatni ifodalash maqsadida doston muallifi tomonidan to‘qilgan. Uning Furqat ijodiyotiga mutlaqo aloqasi yo‘q. She’rning ijodkor to‘plamlariga kiritilishi, nazarimizda, shoirning hajviy asarlar ham yozganini “isbot etish”ga nojoiz urinish natijasi bo‘lgan. She’r matni Furqat “Tanlangan asarlar”ining keyingi nisbatan to‘laroq nashrlariga kiritilmagani ham ushbu fikrni quvvatlaydi. Qolaversa, bu she’r Furqat asarlarining bizga ma’lum bo‘lgan qo‘lyozma va toshbosma manbalaridan birortasida ham uchramaydi. “O‘zni to‘xtatgil hijolardin” deya hajviy she’rlar yozish bilan mashhur bo‘lgan zamondoshi Muqimiyni hajvdan qalam tortishga chaqirgan, o‘zi birorta ham hajviy asar ijod qilmagan Furqatning bunday g‘azal bitishi, tabiiyki, mumkin emas edi. Taassuflar bo‘lsinki, “Tanlangan asarlar” manba asosida tayyorlanganiga ishongan xorijlik tadqiqotchilar, jumladan, major olimi Yanosh Ekman shoir ijodiyotiga baho berishda mazkur she’r tahliliga ham murojaat etadi.

Yuqorida keltirilgan ikki misol sho‘rolar siyosati milliy adabiyotimiz va adabiyotshunosligimizni qaytarzda boshi berk ko‘chaga olib kirganini ko‘rsatuvchi hujjatdir, dalildir. Adabiy merosimiz sahifalaridagi bunday g‘uborlarni tozalash, ushbu bebaho merosni zamondoshlarimizga asliyatga muvofiq tarzda taqdim etish, tabiiyki, zahmat chekishni, qo‘lyozmalar changini yutishni, halovatdan kechib muttasil izlanish olib borishni taqozo etadi. Bu hali birgina ijodkor merosidan keltirilgan juz’iy misollar. Boshqa adib-u shoirlar ijodida ham bunday misollar ko‘plab uchrashi tabiiy. O‘z navbatida, bu hol matnshunos olimlar zimmasida qanchalik muhim va mashaqqatli vazifalar turganidan dalolat beradi.

Beshinchidan, mumtoz shoirlarimiz va zamondosh ijodkorlar asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish ishini muntazam davom ettirish zarur. Bobur, Mashrab, Ogahiy, Munis, Amiriy, Nodira,

Nishotiy, Furqat, Muqimiy va boshqa adiblar asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilishi ular adabiy merosiga oid koʻpgina munozarali masalalarni oydinlashtirish, asarlarining asliyatga asoslangan ilmiy nashrlarini amalga oshirish imkonini bergan boʻlar edi. Zamondosh ijodkorlar asarlari ustida ham matnshunoslik tadqiqotlari olib borilishi soha rivojida muhim oʻrin tutishi shubhasizdir.

Oltinchidan, bugungi kunda jahonda "Matnshunoslik" fanini zamonaviy asoslarda oʻqitish borasida salmoqli yutuqlarga erishilayotir. Nutaraqqiy davlatlar ta'lim tizimida ushbu sohaga oid elektron darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari, ensiklopediyalar, onlayn kutubxonalar, medialoyihalar, matn tadqiqining yangicha metodlari yaratilayotgani buning isbotidir. Biz esa bu borada ancha orqada qolayotganimizni tan olishimiz kerak.

Bu kabi dolzarb muammolarni hal etish, birinchi navbatda, malakali mutaxassislar yetishtirish bilan bogʻliq. Zero, mutafakkir ajdodlardan meros qoʻlyozma manbalar ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib bora oladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlamay turib, bu sohada bir qadam ham oldinga siljish imkonsizdir. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti hamda bir necha oliy ta'lim muassasalari huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengashga matnshunoslik va adabiy manbashunoslik boʻyicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasini oʻtkazish huquqi berilgani, bu sohada tayanch doktorantura va DSc doktorantura mavjudligi, iqtidorli yosh mutaxassislar avlodi yetishib kelayotgani yaqin orada muayyan samaralar berishidan umid qilish mumkin.

Matnshunoslikning nazariy asoslariga oid darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari yaratilishi bugungi kun taqozosidir. Oʻquv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish kerak.

Bundan tashqari, bizningcha, boshqa turli sohalarda boʻlgani singari matnshunoslar jamiyatini tashkil etish, sohaga oid barcha muammolarni muvofiqlashtirish, oʻzaro fikrlashib hal etish kutilgan samarani bergan boʻlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qoʻlyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filol. fan. dok... diss. – Toshkent, 2023.

2. Жабборов Н. Бадиий матн таҳрининг хос хусусиятлари. /Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари (Илмий-назарий анжуман материаллари). – Тошкент, 2014.

3. Истрин В.М. Очерк истории древнерусской литературы до московского периода (XI-XIII вв.). Пгр., 1922.

4. Каримов Г. Исследование по установлению критического текста “Лейли и Меджнун” Навои. – Ташкент, 1944.

5. Лихачев Д.С. при участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – С-Петербург: «Алетейя», 2001.

6. Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси: филол. фан. док... дисс.– Қарши, 2022.

7. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.

8. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Тошкент: Akademnashr, 2015.

9. Сулаймон Ҳ. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1959.

10. Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 1969.

11. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1986.

12. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Тошкент: Фан, 2009.

13. Қаюмов А. Асарлар. I жилд, 1-2-китоблар. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008.

14. Ғаниева С. Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис” асарининг илмий-танқидий матни. – Тошкент: Фан, 1961.

CHUSTIYNING MUXAMMASNAVISLIK MAHORATI

Maqsud Asadov,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari, filologiya fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida muxammas janri taraqqiyoti, xususan, Chustiy muxammaslarining o‘ziga xos xususiyatlari, qolaversa, shoirning badiiy mahorati xususida atroflicha bahs yuritilgan.

Kalit so‘zlar: muxammas, taxmis, mumtoz adabiyot, janr, poetika

Annotation: This article provides a detailed examination of the evolution of the *muhammas* genre in contemporary Uzbek literature, focusing especially on the unique characteristics of Chustiy's *muhammas* works and the poet's literary craftsmanship.

Key words: mukhammas, tahmis, classical literature, genre, poetics

Zamonaviy she'riyatda mumtoz adabiy an'analarni mahorat bilan davom ettirgan Nabixon Xo'jayev – Chustiy ijodi nafaqat ohang va ifoda usuli, balki badiiyati bilan ham o'ziga xosdir. To'g'ri, adabiyotning mavjud an'analari zamirida bir qadar qat'iylashgan poetik talablar, adabiy mezonlarning o'zgarmas tamoyillari asosida yashab kelayotgan ijodiy tendensiyalar yotadi. Masalan, mavjud she'riy janrlar tabiatiga xos poetik qonuniyatlar bilan to'la hisoblashmasdan turib ijodiy jarayonda yetarlicha muvaffaqiyatga erishish qiyin. Shuni unutmaslik kerakki, an'ana qotib qolgan qoidalar yig'indisi ham emas. Ijodkor dunyoqarashi, iqtidori va olamni badiiy idrok qilish qobiliyati ta'sirida adabiy an'analar ham yangilanib, jumladan, mumtoz she'riy janrlar va an'anaviy obrazlar mohiyati u yoki bu darajada boyib boraveradi. Biz buni Chustiy muxammaslari misolida o'rganishga jazm etdik.

Shoir Chustiy muxammasning har ikki turi: taxmis va ta'bi xud – mustaqil muxammasda barakali qalam tebratgan. Shoirning taxmislari orasida o'zbek adabiyotida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan bir o'ziga xoslik mavjud: bu "Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi" Ahmad Yassaviy she'riga bog'langan muxammasdir. Unga «O'zga damni dam dema» deya sarlavha qo'yilgan. Mumtoz adabiyotda, xususan, irfoniy adabiyotda dam, nafas, vaqt, fursat, lahzaning teran ma'nolari bor. Tasavvufda vaqt Haq yo'liga kirgan solikning faqat muayyan fursat, ya'ni ayni damdagi ruhiy kechinmalarini anglatadi. Vaqt Hol sohibining qalbidagi ilohiy surur demakdir. Solikning aqlu shuuri, his-tuyg'ulari bu dunyo va uning tashvishlari bilan bog'liq bo'lsa, vaqt ana shu – dunyodir. U g'am-anduh cheksa, vaqt ham g'am-anduh, shodlansa, vaqt – shodlikdir. Vaqt – solikning ma'naviy olamida g'olib va hokim bo'lgan tuyg'u va tushunchalar. Barcha ma'naviy fazilatlar va ruhiy kamolot sirlari vaqt bilan qozoniladi [2, 114]. Muxammasdagi «Jomi davring keldi, jomi jam dema, Dam bu damdir, o'zga damni dam dema, Sudi yo'q dunyo g'amini, g'am yema» misralari Ahmad Yassaviy she'riyatidagi ana shunday mazmunlar bilan nihoyat darajada yaqin.

Odamlik maslagi – ulug' va mo'tabar maslak. Uning talablariga sidq ila umr kechirish hamisha ham oson kechavermaydi. Bu dunyoning

o‘tkinchi hoyu havaslari yo‘lida o‘zligini boy bergan riyokor, munofiq va qalban majruh kimsalar borki, o‘tayotgan fursatlarini g‘animat bilmoqqa, insonga ne’mat o‘laroq berilgan bu hayotning har lahzasini qadrlab yashash lozimligini anglamoqqa ularning tafakkuri ojizlik qiladi, kibr-u manmanlik, xudparastlig-u xudnamolik bu toifaning irodasini butkul yengib qo‘yadi. Bundaylar odamlik sifatidan ham yiroqdir, deydi shoir:

Guldan oqmaydi gulob, to so‘lmasa,
Dema komil, kimki nafsi o‘lmasa,
Dona puch, albata, mag‘zi to‘lmasa,
Odamida zarra ma’ni bo‘lmasa,
Sen ani surat ko‘rib odam dema. [1, 259]

Chustiyning yana bir muxammasi ulug‘ shoir Alisher Navoiyning «Meni sargashta jismim dog‘ ila qon lolazor etmish» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan. E’tiborlisi, buyuk mutafakkirning aynan mazkur g‘azaliga bitilgan taxmis o‘zbek adabiyotida faqatgina Chustiy ijodida uchraydi, xolos. «Quyosh yuzlik meni o‘z tal’atiga intizor etmish» satri bilan boshlanuvchi muxammas yor vasliga intilgan lirik qahramon, ya’ni oshiqning ma’naviy qiyofasi nihoyatda ta’sirchan va jonli gavdalantirilgani, qolaversa, mazmun va ifodada o‘z salafi «panjasiga panja ura olgani» bilan muhim ahamiyatga ega:

Quyosh yuzlik meni o‘z tal’atiga intizor etmish,
Dilimni dardu hijron iztirobi beqaror etmish,
Nazar tashlab raqib qalbin misoli navbahor etmish,
Meni sargashta jismim dog‘ ila qon lolazor etmish,
Quyun yoxud to‘kilgan lolazor ichra gulzor etmish. [1, 260]

Gap shundaki, she’rdan Navoiy satrlari va Chustiy misralari chegarasini ajratib olish g‘oyatda mushkul: biri ikkinchisini to‘ldirib, rivojlantirib, fikran uyg‘unlik, mazmunan mushtaraklikni yuzaga keltirgan. Ehtimol, shu sababli Chustiy ijodiy merosida taxmis muxammaslar mustaqil muxammaslarga nisbatan kamroq uchrar. Nazarimizda, bu she’rlar uzoq tayyorgarlik, taxmis muxammasga asos g‘azalni atroflicha o‘rganish va salaflarining ijodiy maqsadlarini teran mushohada qilish natijasida yozilgandek tasavvur uyg‘otadi.

Shoirning mustaqil tarzda yaratilgan muxammaslariga munosabatimiz esa biroz boshqacha: ular jo‘shqin hayot quchog‘ida erkinlik epkinlarini tuygan beg‘ubor qalb iqrorlaridir. Bu she’rlarni mavzusiga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Maishiy turmush manzaralari tasviriga bag‘ishlangan muxammaslar.

2. Ishqiy mavzudagi muxammaslar.
3. Pand-nasihat xarakteridagi muxammaslar.
4. Marsiya muxammaslar.

Dastlabki guruh she’rlarida vatan mavzusi ustunlik qiladi. Darhaqiqat, o‘zbek she’riyatida vatan yoki yurt madhiga bag‘ishlab yozilgan she’rlarlar talaygina. Ammo ular orasida badiiy jihatdan mukammal, mazmunan teran, deya baholash mumkin bo‘lganlari baribir barmoq bilan sanarli. Chustiy muxammaslari esa samimiy, tabiiy, ortiqcha chiranish, zo‘rakilik va yuzakilikdan xoli, to‘pori, sodda dil izhorlari, desak aslo xato bo‘lmaydi. Jumladan, «Gulistonim muqaddas» she’riga e’tibor qaratamiz. Muxammasda tadrij badiiy san’ati asosida misra misrani, obraz obrazni, badiiy tasvir o‘zga bir poetik ifodani talab qilib keladi. Fikrni o‘zaro zidlantirish, ya’ni tazod san’ati vositasida masalaning asl mohiyati, ijodkorning maqsad-muddaosi birin-ketin ochilib, aniqlashib borar ekan, tasvirning o‘ziga xosligi o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi:

Dilimning daftariga hech qachon afsona sig‘maydur,
Shukim, do‘stlarga to‘lgan uyga begona sig‘maydur,
Gulistonim muqaddas, bunga vahshiyxona sig‘maydur,
Rayohindona sepgan joyga kurmakdona sig‘maydur,
Hamisha tozalikda asragayman lolazorimni...

Lirik qahramon nazdida Vatan – “dil daftari”, “do‘stlar to‘la koshona”, “muqaddas guliston”, “rayohindona” va “toza lolazor”dir. Uni “begona”ga bermaydigan, o‘zgalar “vahshiyxona”, “kurmakdona”ga aylantirishlariga sira yo‘l qo‘ymaydigan chinakam vatanparvar, qat’iyatu metin sabot sohibining keskin iqrori she’r mazmunini bandning oxirgi misrasida umumlashtirgan: Ya’ni «Hamisha tozalikda asragayman lolazorimni».

Chustiyning ijtimoiy mavzulardagi muxammaslari qamrovi keng: ular orasida onalarni ulug‘lash mazmunidagi, ulfatlar bilan o‘zaro qadrdonlikni yanada mustahkamlash haqidagi, Farhod GESi qurilishida qatnashgan Qo‘qon polvonlarini ulug‘lab yoki qalam sovg‘a qilgan kishiga minnatdorchilik bildirib yozilgan she’rlar ham mavjud. Xarakterlisi shundaki, bu she’rlarni o‘qib shoir mansub bo‘lgan davr manzarasi, odamlarning kayfiyati, bunyodkorlik ishlarining miqyosini kengroq tasavvur etish, hatto shoirga yaqin dehqonu hunarmandu polvonlarning ismlarini ham bilib olish mumkin. Ya’ni Chustiy tarjimayi holini bilishda shoir muxammaslari o‘ziga xos ma’lumotnoma ham bo‘la oladi.

To‘g‘ri, bu she’rlarning barchasini badiiy ifodada kamolot kasb etgan asarlar sifatida tavsiflashimiz, faqatgina yutuqlarini e’tirof etishimiz

o‘quvchilarga bir qadar erish tuyular. Ayrim muxammaslarda fikriy saktalik, ma’no kemtikligi, shunchaki qofiya tizishga urinish bilan bog‘liq kamchiliklar mavjudligidan ham sira ko‘z yumib bo‘lmaydi, albatta. Jumladan, dongdor Farg‘ona kanalining qurilishidan zavqqa to‘lgan shoir muxammas shaklidan unumli foydalanib, bunday yozadi:

Suv ichmagan chanqoq yerlar qolmaydi,
Kolxozchilar suv axtarib tolmaydi,
Endi suvni pulga sotib olmaydi,
Sug‘oradur shirin obi zilolim,
Farg‘onada qazgan dongdor kanolim. [1,278]

Biri ikkinchisiga mantiqan to‘la bog‘lanavermaydigan, ohang va ifoda kuchi zaif, sun’iy yoki yasama tarzda talaffuzi o‘zgartirilgan “kanolim” qofiyadoshi qo‘llangan misralarni tizib so‘zni ovora qilish va qalamni qiynash shartmikan, degan fikr xayoldan kechishi mumkin. Aslida ham shunday. Ammo she’rga, birinchidan, o‘z davri yangiliklariga hozirjavoblik talab qilingan shoirning ulkan voqelik bo‘lgan kanal qurilishiga munosabati, ikkinchidan, yurtdoshlarining suv kelgani tufayli ko‘ngilda aks etgan xursandchilik kayfiyatini keng ommaga xos yengil, sodda va oddiy ruhda ifoda etgan ijodkor kechinmalari deb qarasak, masala ancha ravshanlashadi.

Chustiy – xalqona ohanglarni mumtoz adabiy an’analar bilan uyg‘unlashtira olgan dilbar shoir. Unda lug‘at titib, izlab tushuniladigan so‘zlarni, mazmuni anchayin o‘yga toldiradigan irfoniy timsol yoki ramzlarni, anglash qiyin bo‘lgan murakkab ifodayu poetik tasvirlarni deyarli uchratavermaymiz. Chustiy davr bilan hamnafas, zamon bilan hamqadam shoir. U ko‘nglida borini boricha, ammo badiiy zavq bilan ifodalaydi. Shuning uchun hamma vaqt o‘z nomiga, mustahkam o‘rniga ega. Buni shoirning ishqiy, pandnoma va boshqa turli mavzularda yaratilgan muxammaslari tahlili misolida ham aytish mumkin.

Jumladan, 33 band – 165 misradan iborat hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan «Muhabbatnoma» she’ri ham badiiy jozibasi bilan alohida ajralib turadi. Muxammas kompozitsiyasida anafora – muhabbat so‘zining misralar boshidagi takrori ustunlik qiladi – she’rda 85 misra muhabbat so‘zi bilan boshlagan. Bu esa ta’kid ohangini kuchaytirib, mantiqiy urg‘u tushayotgan so‘zning she’rdagi muhim ahamiyatini yaqqol ko‘z-ko‘z etib turadi. «Yer-u osmon muqova ishq daftar, Quyoshu oyu yulduz unda xatlar» singari Chustiy badiiy tafakuriga xos ohorli tashbehlar esa she’rning badiiy qimmatini oshirgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, she’r ijtimoiy ruh, hayotiy manzaralar tasviridan xoli emas.

Muxammasning so‘nggi uch bandidan mazkur she’r shoirning tanishi, do‘sti, zamondoshi hunarmand bir inson Abdullohga bag‘ishlab yozilgani ayon bo‘ladi. Masalan:

Muhabbat qalbida iymoncha hamroh,
Hunarmand, kamtarin insonu ogoh,
Muhabbat shohiga loyiqi dargoh,
Uning ismiyu jismi Abdu-olloh,
Fazilat sidqu odobu hayodur... [1,251]

Shu tariqa, Chustiyning ikki marsiya-muxammaslari ham xalq va millat taqdiriga aloqador, shoirning cheksiz izzat-ehtiromiga sazovor bo‘lgan kishilarga atab yozilgan. Umuman, Chustiy muxammaslarini o‘rganish shoirning iqtidori, adabiy an’analarga munosabati va badiiy tafakkur imkoniyatlarini bilishga imkon yaratadi. Qolaversa, hayotiylik, aniqlik, muayyan shaxs va voqelik bilan bog‘liqlik tamoyillariga ko‘proq asoslangan mazkur muxammaslar o‘zbek adabiyoti tarixida muxammas adabiy shakli taraqqiyotining yorqin jihatlarini yanada teranroq muhokama qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чустий. Садоқат гуллари. Девон. – Тошкент, 1992. – 344 б.
2. Uludağ S. Tasavvuf terımlerı sözlüğü. – Istanbul,1995. – 604 s.
3. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.: Аспект пресс, 1999. – 204 с.
4. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.
5. Ҳаққул И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – 64 б.

SHAYBONIY VA UNING DEVONI XUSUSIDA

Nafas Shodmonov,
Turon universiteti professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: nafasxonshodmonov@gmail.com
Tel: +998973110626

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida Shayboniyxon lirik merosining to‘liq holda iste’molga kiritilishi bosh masala sifatida tanlangan. Shuningdek, endi shakllana boshlagan shayboniyshunoslik masalalari obyekt qilib olingan. XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshi o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutgan Shayboniyxon adabiy faoliyati keng yoritilib, uning devoni tadqiqqa tortilgan. Bunda hukmdor

shoirning shaxsiyati, e’tiqodi, uning adabiy muhiti, yaratgan badiiy asarlari, ko‘proq, devoniga diqqat qaratiladi. Shoirning hali o‘rganilmagan asarlari haqida ham ma’lumot beriladi. Shayboniyxon devonining manbasi, uning saqlanish joyi, holati va ilmiy tavsifi bayon qilingan, devon ustida Turkiya va O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil etilgan.

Ishda shoir lirik merosi Xoja Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy she’rlari asosida shakllangani, ularning sintezi sifatida namoyon bo‘lgani asoslangan. Devonning tuzilishi, janrlar tarkibi va ularning joriy yozuvda nashr qilinishi asosiy muammolar sifatida tadqiqqa torilgan. Devon she’rlarining joriy yozuvga o‘girilishi bilan bog‘liq prinsiplar tavsiya etilgan. Qo‘lyozma shogird kotib tomonidan ko‘chirilgani, unda jiddiy tahrirga muhtoj o‘rinlar borligi, nashrda ularni tuzatish bilan bog‘liq yo‘riqlar namunalari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shayboniy, Shohbaxtxon, Shayboniyshunoslik, devon, turkiy, janr.

Annotation: In this article the comprehensive inclusion of Shaybani Khan’s lyrical legacy into Uzbek literary is studied as a main issue. The emerging issues related to the Shaybanid studies are the major object of this article. Shaybani Khan’s literary activity, which played a significant role in the history of Uzbek literature in the second half of the 15th and the early 16th centuries, is extensively analyzed, and his divan is investigated. The ruler-poet’s personality, his beliefs, his literary environment, and his created works are particularly paid great attention in his divan. Information about some of his previously unexplored works is also provided. The source of Shaybani Khan’s divan, its place of preservation, its current state, and scholarly description are detailed, along with an analysis of research conducted in Turkey and Uzbekistan on the divan.

The article substantiates that Shaybani Khan’s lyrical heritage was formed based on the poetry of Khoja Ahmad Yasawi and Alisher Navoi, emerging as a synthesis of their traditions. The structure of the divan, the range of genres which includes, and its publication in modern writing are treated as key issues. The principles for transcribing the poems into the modern Uzbek writing are recommended. It is noted that the manuscript was copied by a follower-scribe and that there are sections in need of serious editorial correction; examples of editorial guidelines for such revisions in publication are provided.

Keywords: Shaybani, Shahbakht Khan, Shaybanid studies, divan, Turkic, genre.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgandan keyin tarixda yurt so‘ragan hukmdorlarga munosabat o‘zgarib, ularning fazilatlariga ham diqqat qaratila boshladi. Ayniqsa, badiiy ijod bilan shug‘ullangan hukmdor ajdodlarimiz ardoqlanib, ularga nisbatan “shoh va shoir” iborasini qo‘llash rasm tusiga kirdi. Shu rusumga ko‘ra, XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshida yashagan, oltmish yoshga yetib-yetmay fojiali halok bo‘lgan, shu qisqa umrida juda ko‘p jangu jadallar bilan birga salmoqli badiiy ijod qilgan Shohbaxtxon – Muhammad Shayboniyxon nomini ham zikr etish o‘rinlidir.

Biz bu yerda Shayboniyxon davri, unga doir tarixiy ma’lumotlarni atroflicha tahlil qilishni maqsad qilmaymiz, xonning biografiyasiga oid ayrim kuzatishlar va, asosan, uning ijodi, xususan, devoni hamda uning joriy yozuvda nashrga tayyorlanishi borasida qisqacha to‘xtalamiz.

O‘zbek xonligi, o‘zbek ulusi tarixida O‘zbekxon (taxminan 1283 – 1341), Abulxayrxon (1412-1468) va Shayboniyxon (1451 – 1510)lar nomi o‘chmas iz qoldirgan. O‘zbekxon davlatining dovrug‘i yetti iqlimga tarqalgan bo‘lsa-da, bu xon davlati uning vafotidan keyin parchalanib ketdi. Abulxayrxon asos solgan davlat g‘arbi Ural daryosidan sharqi Balxash ko‘ligacha, shimoli Toboli, Irtish daryosidan janubi Orol dengizi va quyi Sirdaryogacha bo‘lgan hududni egallagan bo‘lsa, Shayboniyxon davrida u Movarounnahr va Xuroson, boshqacha aytganda, butun O‘rta Osiyodan kengroq hududlarni qamrab olgani bilan tarix sahifasida buyuk davlatchilik namunasi bo‘lib qoldi. Binobarin, Shayboniyxonning hukmdor sifatida Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston tarixidagi o‘rni o‘zaro tinimsiz xusumat va kurashlar natijasida inqirozga mahkum bo‘lgan, parokandalikka yuz tutgan temuriylar davlati o‘rnida markazlashgan yirik turkiylar davlatini barpo etgani bilan belgilanadi.

Hozirgi davr avlodlari nuqtai nazarida “mo‘g‘ul bosqinchisi” bo‘lgan Chingizxon sulolasidan bo‘lgan bu xonlar faoliyatining o‘zbek davlatchiligi bilan bog‘lab o‘rganish, ehtimol, g‘alat tuyular? Chingizxonning turkiyligi haqida gapirilsa, haddan oshish bo‘lib ko‘rinar? Lekin bular allaqachon bir necha olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlardir.

Manbalarda Chingizxonning 1206-yili o‘zini xon deb e’lon qilgan buyuk qurultoyda qo‘ng‘irot, nayman, jaloyir, kerayit urug‘lari, qavmlari qatnashib, uni qo‘llab-quvvatlaganlari yoziladi. Hozirgi mongol xalqini tashkil qiladigan oyrot, xalxa, choras, durbet, xoshimiut qabilalari deyarli tilga olinmaydi. Bu mongol urug‘larining Chingizxon yurishlarida qatnashmagani ham xonning mongol ekanini shubha ostiga qoldiradi.

Filologiya fanlari doktori Erkin Musurmanovning ta’kidlashicha, Chingizxon va uning avlodlari turkcha xon (xoqon, qog‘on, qoon) deb atalgan. Chingizxongacha faqat Alp er Tung‘a avlodlari – Qoraxoniylargina bu unvon bilan atalish huquqiga ega bo‘lishgan. Hozirgi mongollarning ajdodlari esa xon unvoniga ega bo‘lmagan. Ularning podshohi “xuntayji” deb atalgan [12]. Shugina faktlarning o‘ziyoq Shayboniyxonning asli nasli turkiyligiga dalil bo‘lishi mumkin.

Shayboniyxon o‘z kunyasini Chingizxonning beshinchi o‘g‘li Jo‘jixonning farzandi bo‘lgan Shibon (Sibon) ismidan olgan. U Qrim, Ukraina, Rossiya va Yevropaning bir qancha hududlariga qilingan harbiy yurishlarda faol ishtirok etgani bilan mashhur edi. Keyinchalik uning kasallikka chalingani sababli Shibon ulusi nomi bilan ataluvchi katta guruh hozirgi Qozog‘iston hududiga kelib joylashgan va ulardan o‘zbek deb atalgan qavm katta kuchga aylanib siyosiy maydonda paydo bo‘ldi.

Shibon ismi chingiziylar tilida Sibon ko‘rinishida bo‘lgani ham manbalarda qayd etiladi. Bu ismning mahalliy tilga muvofiqlashgan ko‘rinishi Shibon edi. Sibon qadimgi mo‘g‘ulchada “sibak”–“sevikli”, “sevgili”, “ishonchli” ma’nolarini ifodalagan. Shohbaxtxonga bu ma’nolar ham yoqqan bo‘lishi tabiiy. Shayboniyxon devoni ustida tadqiqot olib borgan Munira Sharipova tegishli manba va tadqiqotlarning juda ko‘pini ko‘rib chiqib, tahlillar natijasida Shayboniyning asl ismi Muhammad, Shohbaxt esa laqabi ekanini ta’kidlaydi. Haqiqatan, ko‘pchilik tadqiqotchilar Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on boshlab ko‘rsatgan Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Fazlulloh al-Amin bin Ro‘zbehon Isfahoniy, Zayniddin Vosifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar Rashidiy, Gulbadanbegim, Hasanxo‘ja Nisoriy, Mutribiy Samarqandiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Abulg‘oziy Bahodirxon kabi ko‘plab mualliflar asarlariga ko‘ra shunday xulosaga keladilar. Lekin bu yerda boshqa nuqtai nazarlar ham bor. Xususan, turk olimi Mustafo Kafali va rus sharqshunosi V.V.Bartold kabi olimlar fikricha, mo‘g‘ulcha Shibonning arab qabilasi nomi bo‘lgan Shaybonga hech qanday aloqasi yo‘q [Бартольд, 1964: 237].

Lekin taxallus borasida bizda ba’zi mulohazalar bor.

Og‘zaki nutqda yoki ilmda Shayboniy deb yuritilsa-da, ijodda u, bizningcha, ko‘proq “Shiboniy” taxallusini qo‘llagan. Turk olimi Yakub Karaso‘yning hisobiga ko‘ra, devonda Shiboniy taxallusi 266 marta (Bizningcha, 230 marta), Shibon 65 (M.Sharipova 66 marta deb ko‘rsatadi. Bizningcha, 51 marta), Shohbaxtxon (M.Sharipova 7 marta deb ko‘rsatadi. Bizningcha, Shohbaxtxon ismi devonda taxallus sifatida kelmaydi. Bu ism

faqat sarlavhalarda qo‘llangan.) va uning qisqa ko‘rinishi Shohbaxt 1 martadan qo‘llangan [Karasoy, 1989: 23]. Bulardan tashqari, M.Sharipovaga ko‘ra 4 ta she’rda vazn talabiga ko‘ra Shayboniy taxallusi qo‘llangan. Bizningcha, Shiboniy (ba’zan vazn talabi bilan Shiboni) 10 o‘rinda, Shibon shakli 5 o‘rinda qo‘llangan.

Shayboniy taxallusi tanlanishi uch sababdandir. Birinchisi, shahzoda tug‘ilganda unga, bizningcha, Shohbaxt deb ism qo‘yilgan bo‘lib, u ko‘p vaqt birga bo‘lgan qipchoqlar talaffuzida buzilib aytilishi (Shaybaq, Shayboq, Shaybek) forsiy va qarluq hamda o‘g‘uz shevali xalqlar orasida bir oz noqulay, qo‘pol eshitilishi sababli uni nozikroq, munosib ko‘rinishga keltirishni taqozo qilgan bo‘lishi kerak. Hozir ham ba’zi qipchoq shevalarida “bechora”, “baxtsiz” ma’nolaridagi “bebaxt” so‘zining “bebaq” deb ishlatilishini uchratamiz. “Boburnoma”ning ba’zi o‘rinlarida u Shayboqxon deb eslanishi ham shundan dalolat beradi. Aniqrog‘i Bobur Shayboniyxondan g‘azablangan o‘rinlarda uni shunday ataydi [Бобур, 1990, 76]. Binobarin, Shohbaxtni Shaybaq deb qo‘llashda bir oz kamsitish ottenkasi bor. Mashhur “Tarixi Rashidiy” muallifi ham o‘z asarida ismning shunday shakllari ta’sirida uni Shohibekxon deya zikr etadi [Ҳайдар мирзо, 2010: 242]. Ikkinchisi, Shohbaxtxonning bobolaridan biri, Jo‘chining kichik o‘g‘li Shaybon emas, aynan Shibon ismli bo‘lgani aytib o‘tildi. A.A.Semenov yanada oydinlashtirib, uning ismini ruschada “Shiban” deb yozadi [11]. Shularni asos qilib, xonning she’riyatdagi taxallusi xususida ham xulosaga kelish mumkin. Qolaversa, Shayboq talaffuzini Shaybonga o‘zgartirish oson edi. Uchinchisi, Shayboniyxon yashagan davrda ham Movarounnahrda mazhablar, ayniqsa hanafiylar va shialar o‘rtasidagi kurash juda keskin tus olgan edi. Buni A.A.Semenovning “К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана” deb nomlangan maqolasida keltirgan “Mehmonnomai Buxoro” asarining muallifi Fazlulloh al-Amin bin Ro‘zbehon Isfahoniyning avval shofeiy, keyin shia, keyin esa Shayboniyxon ta’sirida hanafiy bo‘lgani haqidagi ma’lumot dalil bo‘la oladi. Hanafiy mazhabining ulug‘ namoyandalaridan, Imomi A’zam No‘mon ibn Sobit – Abu Hanifaning eng ishonchli shogirdlaridan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy (749 – 805) bo‘lib [13], uning ta’limotiga xon jiddiy e’tibor qaratgan ko‘rinadi. Xonning ismi Shohbaxt bilan bir vaqtda Muhammad ham bo‘lishi Shayboniy nisbasini ham olishga turtki bo‘lgan deyish mumkin. Albatta, bu nisbaning tanlanishiga mazhab ulamolarining ham ta’siri bo‘lgan. Baribir, avvalroq ta’kidlanganidek, xonni bu nisba bilan atash asosan davlat mulozimlari va musulmon ulamolari orasida odat

tusiga kirgan hamda keyinchalik ommaviy ravishda qo‘llana boshlagan. Demak, xulosa qilish mumkinki, Shayboniyxonning she’riyatdagi taxallusi Shiboniy. Shuning uchun devonni nashrga tayyorlashda biz taxallusni shunday qo‘llashni ma’qul ko‘ramiz.

Shayboniyxonning she’riyat bilan maxsus shug‘ullangani, turkiy va fors tillarida she’rlar yozgani haqida manbalarda dalillar ko‘p [Маллаев, 1976: 613]. Jumladan, Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Shayboniyxonni ixlosli din homiysi bo‘lishi bilan birga ijodkorlik salohiyatini ham munosib baholaydi [Нисорий, 1993: 17]. Uning devonidan tashqari, “Risoliyi maorifi Shayboniy” (1507), “Bahru-l-hudo” (1508) nomli asarlar yozgani ham ma’lum. XVI asrga mansub “Tavorixi Guzidayi Nusratnoma” nomli tarixiy asar muallifi ham Shayboniy degan qarashlar mavjud. Biz bularga mazkur asrda yaratilib, hozirda Olmoniyada saqlanayotgan muallifi ham, nomi ham ma’lum bo‘lmagan bir qissani ham Shayboniyxon qalamiga mansub degan taxminlar borligini qo‘shimcha qilamiz. Qissa nasr va nazmda yozilgan. Tili va yozuv uslubi sodda. Sahifalar zarhal hoshiyali. Sarlavhalar qizil, oyatlar zarhal siyohda bitilgan. U Oysha Sulton degan malikaga bag‘ishlab yozilgani uchun shartli ravishda “Oysha Sulton qissasi” deb atalishi mumkin. Ma’lumki, Shayboniyxonning Mo‘g‘ul xonim nomi bilan mashhur bo‘lgan, badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan sevimli xotini Sulton Mahmudxon qizining ismi Oysha Sulton edi. Bu ayol Shayboniyxon hayotida katta rol o‘ynagan. Mana shu holat qissaning Shayboniyxon qalamiga mansubligi taxminini keltirib chiqargan.

Shayboniyxonning ijod namunalari, asosan, Turkiya va Angliyada saqlanadi. Ularni o‘rganish ham XX asrda eng avval usmonli turk olimlari hissasiga to‘g‘ri keldi. M. F. Ko‘prulu, K. Eraslon, M. Kafali kabi qator usmonli turk olimlari Shayboniyxon ijtimoiy va adabiy faoliyatining turli qirralarini yoritganlar, «Devon»dan ayrim namunalarni matbuotda chop ettirganlar, ijodini ilmiy tahlil-tadqiq qilganlar. Hozircha fanda Shayboniy devonining yagona qo‘lyozmasi ma’lum. U Istanbuldagi To‘pqopi saroyi kutubxonasi qo‘lyozmalar xazinasida 2436 raqami bilan saqlanadi. U 192 sahifadan iborat. Devon qo‘lyozmasi to‘q jigarrang teri muqava bilan jildlangan. Jildda o‘ymakor bezaklar berilgan. Varaqlar 22x32 sm, yozuvi 14x20,1 sm hajmda. Ohorli va zarafshon qog‘ozda yozilgan. Go‘zal bir shaklda tazhib etilgan unvon sahifalarga ega. Juda yaxshi ko‘rinishda, tushgan varaqlari yo‘q. 2-b sahifada Sulton Ahmad III ning muhri bosilgan. Sahifalarda zarhal jadval chizilgan, sarlavhalar qizil rangda, ularni yozishda ochiq va to‘q ko‘k ranglardan ham foydalanilgan. Yaxshi

nasta’liq xatida bitilgan. Har bir sahifada 13 satrdan yozuv joylashtirilgan. Ba’zi sahifalarda 16, 17, 18, 20, 22 va 24 satr joylashtirilishini ham ko‘rish mumkin. Matn 2-a sahifadan boshlanadi. Boshi: “Andin o‘ldi jumla olam barqaror”. 192-a sahifada tugaydi. Oxiri: “Ul yilonning hasratindin qon yutar”. Devonning bir necha o‘rnida yozilmagan varaqlar, sahifalar bor. Oxirida ham bo‘sh varaqlar qolgan.

Ta’kidlash lozimki, qo‘lyozmani ko‘chirgan kotibni juda salohiyatli xattot bo‘lgan deyish qiyin. Bitiklar umumiy holatda qanchalik chiroyli bo‘lmasin, ularda xatolar, chalkash o‘rinlar nihoyat darajada ko‘p. Oddiygina bir misol, “Har bir yuzum ul turra yuz fitna qilur paydo”, misrasida “yuzum”, “yuz” va “paydo” so‘zlarining nuqtalari yozilmagan. Bir necha so‘zlarda harflar tushib qolgan. She’rlar tilida uyg‘urcha yoki tatarchaga o‘xshash elementlar mavjudligi kotibning o‘zbekligiga ham shubha paydo qiladi. Nusxaning bezaklari yaxshiligi uning saroyda ko‘chirilganini, xato va chalkashliklarning ko‘pligi bu ishni shogird amalga oshirganini anglatadi.

Devon haqida ma’lumotlarni dastlab Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on o‘tgan asrning 20 – 30-yillarida e’lon qilgan. Shayboniy ijodi yuzasidan dastlabki dissertatsiyani 1968-yilda Akbiyik O‘zay himoya qilgan. 1989 yil Koniyada, G‘oziy universitetining Ijtimoiy fanlar institutida Yakub Karaso‘y tomonidan himoya qilingan dissertatsiya fundamental tadqiqot sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Sho‘ro hukumati tasarrufida bo‘lgan, uning mafkurasiga mos kelmagan ishlardan huquqlari mutlaqo cheklangan mamlakatimizda bu ishlar aks sado bermadi. Mustaqillik yillarida Shayboniyxon merosi bo‘yicha O‘zbekistonda ikkita dissertatsiya himoya qilindi. Ulardan asosiysi Munira Sharipovaning tadqiqoti bo‘lib, u haqiqiy ma’noda yurtimizda shayboniyshunoslikni boshlab berdi deyish mumkin. U 2004 yilda nashr qildirgan “Muhammad Shayboniyxon” risolasi va unga ilova qilingan shoirning yuzdan ziyod she’rlari kitobxonlarda yaxshi taassurot uyg‘otdi. Biroq oradan yigirma yil o‘tsa-da, “Devon” to‘liq holda nashr qilinmadi. Muso Tojiboyevning shoir she’rlari tilining leksik-semantik xususiyatlari yuzasidan bajargan tilshunoslik ishini istisno qilganda, boshqa tadqiqot ham amalga oshirilmadi. Holbuki, “Devon” adabiyotshunoslikning bir necha sathlarida tadqiqotlar olib borish uchun material bo‘la oladi.

Misol tariqasida birgina mavzu: temuriylar va shayboniylarning o‘zaro siyosiy, harbiy, madaniy, adabiy, ilmiy, diniy, ijtimoiy va oilaviy munosabatlari bilan bog‘liq masalalar chuqurroq tadqiq qilinishi kerak. Bu

yerda, ya’ni “Devon” misolida shuni kuzatish mumkinki, Shayboniyxon she’rlarida Sohibqiron Amir Temurga qarshi fikrlar bildirmaydi, balki toj-taxt talashib mamlakatni parokanda qilgan, taxt ilinjida turli tabaqalar, masalan, mahalliy xalqning turmush tarziga, ma’naviy hayotiga yot mafkuradagi qizilboshlar bilan ham ittifoq tuzgan temuriylarga nisbatan salbiy munosabatini bildiradi. Keyingi temuriyzodalarni Amir Temur yoqib ketgan zaif chiroq-sham’larga mengzaydi. Ular o‘zining birgina harakatiga bardosh bera olmay o‘chib qolishlarini masxaralab tilga oladi. Shayboniyxonning salafi Sohibqironga hurmati va havasi kuchli bo‘lgan. Buni uning o‘z farzandiga Muhammad Temur ismini qo‘yishida ham ko‘rinsh mumkin. Qolaversa, keyinchalik ham Shayboniyxon avlodlari, masalan, ikkinchi Abdullaxon toj kiyish marosimini Amir Temur Shahrisabzda qurdirgan Oq saroy poyida tashkil qilgan edi.

Shayboniyxon she’riyatida lirik qahramon xarakterini o‘rganish ham qiziqarli mavzu bo‘la oladi. Uning qalbi Dashti qipchoq, Turkiston, Turon kengliklari, dashtliklarida shakllangan. Biror bir shahardagi siqiq hayotga moslashmagan. Qisqasi shuki, Shayboniyxon ijodi Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy she’riyatining sintezidan iborat. Bunga o‘xshash o‘nlab mavzular borki, ularni tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz rivojini ta’minlashga xizmat qiladi.

Devondagi she’rlar miqdori tadqiqotlarda bir-biridan bir oz farq qiladi. Yakub Karaso‘y ularni 415 ta degan ma’lumotni aytsa, Munira Sharipova 416 deydi. Bizning hisobimizda ular 417 ta. Devondagi she’rlarni Y.Karaso‘y janrlari bo‘yicha quyidagicha tasniflaydi:

1. Tavhid – jami 7 ta.
2. Na’t – jami 10 ta.
3. G‘azal – jami 304 ta.
4. Murassa’noma – 1 ta.
5. Ruboiy – 27 ta.
6. Tuyuq – 12 ta.
7. Ta’rix – 5 ta.
8. Muammo – 48 ta.
9. Musarra’ bayt – 1 ta.
10. Mansur parchalar – jami 8 ta.

M.Sharipovaning hisobidagi farqli o‘rinlar: g‘azal 306 ta, ruboiy 25 ta, tuyuq 13 ta, nasriy parchalar 6 ta; boshqa janrlar ko‘rsatilganidek. Olimlar Tavhid va Na’tlar sonini g‘azallar orasida kelgan shu mazmundagi she’rlarni qo‘shish orqali ko‘proq ko‘rsatganlar. Ularni g‘azallar mazmuni va talqinidan kelib chiqib yanada oshirish mumkin. Shuning uchun bu masalaga uzoq to‘xtalish maqsadimizga kirmaydi, degan fikrdamiz. Bu xususda keyingi tadqiqotlarda, albatta, fikrlar aytiladi. Hozircha devon tuzilishini qisqacha tavsif qilib, nashrga tayyorlashda belgilab olinishi lozim deb hisoblangan tutumlarimiz haqida davom etamiz.

Devondagi she’rlar muqaddima qismida va har bir harf bilan yakunlanuvchi qismlar hamda janrlar sarlavhalar bilan, boshqa joylar “va lahu ayzan”, “va ayzan lahu”, “va lahu” kabi qaydlar bilan ajratiladi.

Qo‘lyozmada 1-a va b sahifalar yo‘q. Devonning muqaddima qismida 8 ta she’r berilgan bo‘lib, ulardan yettitasi g‘azal, bittasi masnaviy (3-she’r) yo‘lida yozilgan. Birinchi va ikkinchi she’rlar sarlavhasiz. Uchinchi, oltinchi va yettinchi she’rlarga “Tavhidi Boriy taolo”, to‘rtinchi, oltinchi va sakkizinchi she’rlarga “Na’ti nabiy alayhi-s-salom” degan sarlavhalar qo‘yilgan. Ulardan keyin so‘nggi harf tartibiga ko‘ra g‘azallar tizimli keltirilgan.

Murassa’noma, mansur parchalar va bayt g‘azallar orasida vaqti-vaqti bilan berib borilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, ular muallifning hasbi holi yoki ma’lum bir g‘azalning yozilish tarixi haqida bo‘lgani ularning ma’lum o‘rinlarda joylashtirilishini oqlaydi. Masalan, “SHOHBAXTXON xallada mulkahu aytur” sarlavhasi bilan berilgan kichikkina mansur parchada Shayboniyxonning Mirzo Boburning opasi Xonzodabegimga uylangani shunday bayon qilinadi: “Basa Yunusxonning ulug‘ qizini taloq solib, singlining qizini olganda bu baytni aytib yuborildi:

Kim, azaldin buyla bo‘ldi, buyla taqdir naylayin,

Qudratin Haq buyla qildi, o‘zga tadbir naylayin?

Biz bu bayt asl nusxada bir oz tahrirga muhtoj edi. Baytning birinchi misrasi qo‘lyozmada “Kim azaldin buyla taqdir buyla bo‘ldi naylayin” tarzida kitobat qilingan. Bu yerda kotibning e’tiborsizligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Hech bir shoir bayt bitar ekan, unda radif qo‘llar ekan, qofiya tayyor turar ekan, qoidalarga xilof qilib qofiyadosh so‘zlarni boshqa-boshqa joyda keltirmaydi. Shoir ekspromt yo‘sinida baytni og‘zaki aytganda ham, kotib uni tahrir qilib sayqallashga haqli.

Bunday nuqsonlar ba’zi g‘azallarda ham uchraydi. Xususan, Shayboniyning Alisher Navoiy g‘azallaridan biriga javobida (111-she’r) taxallus oxirgidan oldingi baytda qo‘llangani shubhali edi. Javob uchun tanlangan g‘azal Alisher Navoiyning “Navodiru-sh-shabob” devonida 235-o‘rinda keladi. Matla’i:

Tong emas, gar chin yuzinda, qahrdin mavjud emas,

Ko‘zguning chunkim ko‘runmak javhari ma’hud emas.

Oltinchi bayti:

Mayda aksingdur ko‘z andin olmasam, soqiy, ne tong,

Toki diydor o‘lsa mandin mastliq maqsud emas.

Yettinchi bayti:

Zarbi ishqidin muzayyandur yuzumning oltuni,

Ey Navoiy, demagilkim sikkai behbud emas. [Навоий, 2011, II: 240]

Shayboniy devonidagi unga javob g‘azalning oltinchi va yettinchi baytlar ham ularga muvofiq bitilganiga shubha yo‘q. Ammo kotib ularning o‘rnini almashtirib yuborgani ma’lum bo‘lgach, javob baytlari ham aslga muvofiqlashtirilishi lozim deb hisoblaymiz:

Yor aksin ko‘rar ermish ul musaffo bolda,
Boldin ber, soqiyokim, o‘zgasi maqsud emas.
Yor ishqindin bilinodur ko‘ngulnung javhari,
Ey Shiboniy, ishqdin o‘zga bori behbud emas.

Ko‘rinib turganidek, javobda, hatto, qofiyadosh so‘zlarning o‘rni ham saqlangan. Boshqa bir o‘rinda (147-she’r):

Lolatek ruxsorini ko‘rgach ko‘zumdin qon oqar,
Ko‘rgil ul gul rangini qildi qizil qonim mening.

Baytidagi “qonim” so‘zi o‘rnida kotib “yoshim” deb yozadi. Bizningcha, birinchidan, bu so‘zning “qonim” bo‘lishi g‘azaldagi qofiyaga moslik talabi. Chunki unda qofiya marjonim, xirmonim, afg‘onim, mohi tobonim, bo‘stonim va davronim so‘zlaridan tashkil topgan. Orada “yoshim” so‘zi kelishi mumkin emas. Ikkinchidan, birinchi misrada loladek ruxsorni ko‘rgan oshiq ko‘zidan qon oqishi aytilgandan so‘ng ikkinchi misrada gul rangini o‘sha qon qizil qilishi ta’kidlanishi mantiqli bo‘ladi. Devonda bunday tuzatishlarni taqozo qiladigan o‘rinlar ko‘p bo‘lmasa-da, mavjuddir.

G‘azallardan so‘ng ruboiylar, tuyuqlar, ta’rixlar, muammolar va chistonlar garchi ba’zi chalkashliklar bilan bo‘lsa-da, o‘ziga xos tizimda beriladi. Nashrga tayyorlash jarayonida biz bu tartiblarga daxl qilmadik. Buning uchun ham jiddiy tadqiq joiz. Shoir tuyuqlari, dubaytiylari va muammolarining o‘zi alohida tadqiqni taqozo qiladi. Shayboniyshunoslikda hali bunday tadqiqotlar nihoyasiga yetkazilmagan. Devonni nashr qilish ana shunday tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Ч. 2. – Москва: Наука, 1964. – 661 с.

2. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча.1990. – 368 б.

3. Karasoy, Yakup. Şiban Han Divanı (İncelema – Metin). Gazi Üniversitesi Sosyal billimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Eğitimi bölümü Türk dili bilim dalı Doktora Tezi. – Konya,1989. – 862 b.

4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи (Биринчи китоб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 664 б.

5. Алишер Навоий . Танланган асарлар тўплами. X жилдлик, II ж. Наводир уш-шабоб. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги, Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011, – 772 б.

6. Навоий, Алишер. Танланган асарлар тўплами. X жилдлик, IV ж. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги, Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011, - 840 б.

7. Нисорий, Ҳасанхожа. Музаккири аҳбоб. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 344 бет.

9. Қораев Ш. Шайбоний султонлар тазкираси. – Қарши: Intellekt, 2023. – 206 б.

10. Ҳайдар мирзо, Муҳаммад. Тарихи Рашидий. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 7

«TAZKIRAT USH-SHUARO» – ADABIYOTSHUNOSLIKNING NODIR MANBASI

Boqijon To‘xliev,
O‘zFAO‘zbek tili, adabiyoti va fol'klori instituti professori, filologiya fanlari doktori

Annotasiya: Maqolada Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan. Asosiy e'tibor mazkur tazkiraning adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishiga oid yirik va nodir manba ekani ochiqlangan. Asar tabiatiga ko‘ra qomusiy qamrovga ega. Undagi ma'lumotlar arab, fors hamda turkiy xalqlar tarixidagi eng muhim tarixiy hamda adabiy hodisalarning tavsifiga bag‘ishlangan. Muallifning ana shu hodisalarning bevosita ishtirokchi sifatidagi mavqei asarning ishonchlilik darajasini ham, uning ijtimoiy-estetik ahamiyatini ham bir necha martaba oshirib yuborgan. Muallifning ijodkor adib sifatidagi mavqei esa tanlangan va sharhlangan adabiy parchalarning yuksak adabiy hodisalarning go‘zal namunalari sifatida qabul qilinishida bosh omil vazifasini ado etgan. Tazkirada adabiyot tarixi, adabiy jarayon, adabiyot nazariyasiga oid ko‘plab fakt va materillarning yaxlit bir tizimi bugungi kitobxon va mutaxassislar uchun tengsiz manbalar sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, temuriylar, buyuk ijodkorlar, ayniqsa, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro singari buyukelar bilan bog‘liq qaydlar juda katta ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: Davlatshoh Samarqandiy, tazkira, adabiy manba, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi.

Abstract: The article presents some observations on the work of Davlatshah Samarkandi “Tazkirat ush-shuaro”. The main attention is paid to the fact that this tazkir is a large and rare source in the field of literary source studies and textual studies. By its nature, the work has an encyclopedic scope. The information in it is devoted to the description of the most important historical and literary events in the history of the Arab, Persian and Turkic peoples. The author's position as a direct participant in these events increased the level of reliability of the work and its socio-aesthetic significance by several orders of magnitude. The author's position as a creative writer played a major role in the acceptance of the selected and commented literary fragments as beautiful examples of high literary phenomena. The tazkir presents a holistic system of many facts and materials on the history of literature, the literary process, and literary theory, which are incomparable sources for today's readers and specialists. In particular, the records related to the Timurids, great creators, especially Abdurakhmon Jami, Alisher Navoi and Husayn Boykaro, have acquired great scientific and theoretical significance.

Keywords: Davlatshah Samarkand, tazkira, literary source, literary history, literary theory.

Davlatshoh Samarqandiy O‘rta asrlar tarixida favqulodda katta mavqega ega bo‘lgan mutafakkir adiblardan biridir. U temuriylar davridagi davlat va jamoat arbobi, yirik tarixchi, iste'dodli filolog hamda nozik qalbli shoir va yozuvchi sifatida shuhrat qozongan. Uning “Tazkirat ush-shuaro” nomi bilan dovruq topgan asari rasman mazkur janrining barcha talablariga mukammal darajada javob bera olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Asar fanning ko‘plab sohalari, xususan, tarix, etnografiya, madaniyat va san'at tarixi uchun ham boy materiallarni jamlagan. Uning adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik nazariyasi, sharq mumtoz poetikasi, adabiyot nazariyasi, tarixiy poetika, adabiy va tarixiy manbashunoslik, matnshunoslik sohalari uchun ham juda nodir manba va materilarni ifoda etib turganini ham alohida qayd etish lozim.

Tazkirada muallif alohida qayd etganidek, “Shubhasiz, fasohat-u balog‘at arablarning haqqi va ajam ahli bu borada ularga tobedir. Xususan, ilmi bade’da arablarning mahorati komildir. Islomdan oldinroq va

keyinroq o‘tgan, o‘zlari-yu devonlarining zikri dunyoda shuhrat tutgan, fozillar orasida tilga tushgan arab shoirlari ancha”[1] (22).

Davlatshoh muqaddimada she'r yozishning ilk davrini Odam Atoning o‘zidan boshlanganiga ishora qiladi va bunga oid dalillarni keltiradi. Muhammad payg‘ambar (s.a.s.)ning she'rga munosabati borasidagi qaydlar ham e'tiborga molik. Muqaddimaning ichida maxsus “Shoirlarning fasohat-u balog‘at ahli orasida ajralib turishi xususida” degan band mavjud.

Oriflar-u fozillar yangi ma‘no va xushohang ma’rifatni kelinchakdek tasavvur qiladilar hamda ularning nazmga solinishini fikrning bokira kelinchaklari uchun bir ziynat deb biladilar. Garchi mahbubaning husn-u latofati ziynatsiz [ham qanchalik] to‘kis hisoblanmasin, baribir, udning fazilati cho‘g‘donsiz bilinmaydi.

Qit’a:

Ishq mashshotaest rangomez,
Ki haqiqat kunad ba rangi majoz.
To ba dom ovarad dili Mahmud,
Bitarozad ba shona zulfi Ayoz.

Ma’nosi: Ishq – majoz rangi bilan haqiqatni ko‘rsatadigan pardozchidir,
U haqiqatni majoz tarzida ko‘rsatadi. Zero,
Mahmud dilini tuzoqqa tushirgunga qadar
Ayoz zulfini taroq bilan chiroyli qilib tarashda davom etaveradi. (22)

Davlatshoh Nizomiyning bir baytini keltiradi. Unda she'rning ijtimoiy mavqei ta'kidlangan:

Arsh-u shar’-u she’r az ham xostand,
Kori olam z-in se pas orastand.
Ma’nosi: Arshni, shariat-u she’rni teng yaratdilar,
so‘ng bu uchovi bilan olamni bezatdilar. (23)

Boshqa bir bayt esa badiiy so‘z tabiati haqida:

Gar budi gavhare varoyi suxan,
On furud omadi ba joyi suxan.
Ma’nosi: Gar so‘zdan yuksakroq bir gavhar bo‘lsa edi,
u so‘zning o‘rniga indirilar edi. (23)

Buning izohi yanada e'tiborga molikroqdir: “So‘zni bunday cho‘zishdan maqsad fasohat-u balog‘atning martabasi yuksak va mustahkam ekanini ta’kidlashdir. Ulug‘ payg‘ambar (a.s.) hazratlari

[1] Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. Таҳияи М.Нуруллдоева. Муҳаррири масъул. Ф. Насриддинов. – Хужанд, 2015, саҳ. 22. Бундан кейинги кўчирмаларда китобнинг саҳифалари кўрсатиб кетилади.

hamisha islom shoirlarini aziz-u mukarram tutdi va hazratning muborak tilidan “Inna mina-sh-she’ri lahikmatan” (Sherda, shubhasiz, hikmat bor) so‘zi chiqdi. Ulamoning aksari Rasul (a.s.) va ulug‘ sahobalari huzuridagi majlislarida shoirlarning she’r aytgani, madhlar o‘qigani va ehson-u tarbiyat topganlari borasida ittifoq qiladilar. (23)

Arablar o‘rtasida so‘zga chechanlik, so‘zamollik, so‘zdagi balog‘at va nafosatni to‘la va chuqur his etishning ahamiyati shu qadar bo‘lganki, qabila boshliqlari ham ayni mana shu fazilatlarining ustunlik darajasiga ko‘ra saylangan . “Masalan, shoirlarning ustodlaridan biri bo‘lgan Imruulqays Yamomaning podshohi bo‘lgan va laqabi “Mo us-samo” edi. “Sharaf un-nabiy” kitobining sohibi keltirishicha, Hasson ibni Sobit, roziyollohu anhu, hazrati Rasul alayhissalomning shoirlaridan biri edi, hamisha Rasul (a.s.) ni madh qilardi va kofirlar shoirlarining (payg‘ambarimiz haqidagi) she’rlariga javob aytar edi. Shom maliki Rasul alayhissalom huzuriga hadya sifatida Moriyayi Qibtiya va uning Shirin ismli singlisini yuborganda Rasul (a.s.) Moriyani o‘z xizmatiga qabul qilgan, Payg‘ambar alayhissalomning farzandi Ibrohim shu joriyadan tug‘ilgan. Hazrat Rasul (a.s.) Xandaq g‘azoti kuni o‘zi haqida aytgan she’ri uchun Hassonga Shirinni in’om etgan. Shuningdek, amirulmo‘minin va imomulmuttaqiyn, Allohning g‘olib she’ri Ali ibni Abutolib, karamallohu vajhohu va aimmayi ma’sumin, alayhissalom, tobein, tariqat shayxlari-yu davr sultonlarining aksari she’r aytishga intilganlar” (23-24-betlar).

Boshqa bir fakt she'r va shoirning o‘sha davrdani qadru qimmatini tasavvur qilish imkonini beradi:

Ahnaf: “She’r uchun uch ming qo‘yni bag‘ishladim, ming tuyani dushman nazaridan meni himoya qilishi uchun bag‘ishladim va yana ming tuya bu nasihat uchun berdim, chunki ushbu nasihat, nazdimda, ulkan ganjdan ko‘ra yaxshiroqdir”, – dedi. O‘sha kuniyoq uch ming qo‘y va ikki ming tuyani A’shoga topshirdi. A’sho, uning oilasi-yu zurriyoti arab diyorida boyligi bilan mashhur bo‘ldilar. Anvariy bu haqda aytadi:

Bayt:

Charo ba she’ri mujarrad mufoxarat nakunam,

Zi shoiriy chi beh omad Jarir-u A’shoro?!

Ma’nosi: Nega benazir she’r bilan faxr etmayin, axir,

shoirlikdan Jarir-u A’shoga qanday iqbol nasib etdi?! .

Badiiy adabiyotning, xususan, yaxshi she'rning ijtimoiy ahamiyati va qadru qimmati haqtdagi mana bu fakt ham e'tiborga loyiq:

Hikoyat. “Tarjumon ul-balog‘a” muallifining qayd etishicha, Sohib Said Mukarram ibn al-Alo sulton Mahmud G‘aznaviy zamonida

Kirmonning karamli kishilaridan edi va har ishda musatqil fikrga ega vazir edi. Fozillar va shoirlarning ulug‘laridan biri bo‘lgan Shibluddavla bu zotning saxovat-u karami ovozasini eshitib Nishopurdan Kirmonga safar qildi va vazir madhida bir qasida insho qildi, matlasi budir:

Da’i-l-’isa tazra’u ‘arza-l-‘ulo,

Ilabni-l-Aloi va illo falo.

Ma’nosi: Tuyalari yo‘rtib borsin ul olijanob al-Aloga,

yo‘qsa turgan joylarida qolsin.

Sohib “Bu qasida necha bayt bo‘ldi?” deb so‘radi. Shoir “Qirq baytdan ziyoda” deb javob berdi. Vazir bir xodimga buyurib, zar to‘la xaltani shoirga topshirdi va yana “qasidangning har baytiga bir hamyon zar ehson qilmoq vojib, ammo xazinamda qirq xalta zar yo‘q”, – deya uzr so‘radi” .

Agar ulug‘lar-u sultonlarning shoirlarga bergan in’omlari zikri tilga olinsa, bayonda ortiqchalik yuz berib, sergaplikka bois bo‘ladi. Xullas, shoirlar toifasi hamisha baxtiyor sultonlar, zamona a’yonlari nazdida muhtaram va maqbul bo‘lganlar” .

Mana bu fakt va materiallar ham shu silsilani davom ettiradi: “Shuningdek, amir Nasr ibni Ahmad Somoniy Ajam shoirlaridan ustod Rudakiyga “Kalila va Dimna” kitobini nazm qilgani uchun 80 000 kumush diram in’om etgan. Amir Unsuriy Sulton Mahmud G‘aznaviy davrida amirlikka ko‘tarildi. Sulton Jaloliddin Malikshoh Amir Muizziyga xos majlisning ishtirokchisi mansabini bag‘ishladi”[1].

Oqibatda u azizlar menga uch cho‘pon bilan uch ming qo‘yni hamroh qildilar. Shundan so‘ng Horun ar-Rashid majlisida u mukarram qavmning ehson-u ne’matlari, karam-u fazlini so‘zlab berdim. Horun: “Nima uchun bunday fozil qavm mening falaksifat dargohim xizmatidan xoli qoldilar?!” – deb so‘radi. O‘sha zahoti farmon yuborib, u qavmga e’tibor qaratishni buyurdi, natijada ular suyurg‘ol, amirlik martaba-yu lavozimlariga ega bo‘ldilar. Shu bois ular har safar meni ko‘rganlarida “biz sendan bir qancha oriq qo‘ylar evaziga ulug‘likni sotib oldik”, – der edilar”[2].

Bularning barchasi badiiy-estetik hodisallarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tasavvur etish uchun yaqindan yordam beradi.

Ayni paytda she'rni oddiy ermak deb biladiganlar faqat tinglovchilar orasida emas, ushbu sohaning butun zahmat va burchlarini to‘la tasavvur

[1] Ўша китоб, 17-бет.

[2] Ўша китоб, 25-бет.

eta olmaydiganlar, ya'ni iste'dodsizlar ham har doim bo‘lgan. Yana Davlatshohga murojaat etish o‘rinli ko‘rinadi:

“Ammo bugunga kelib noloyiq va iste’dodsizlar bu ishga da’vogar bo‘lgani sababli shoirlarning qadri shikast topdi, tanazzulga yuz tutdi. Qay tomon quloq tutsang, shoirning ovozi, har yerga nazar solsang, bir latiftab, zarif yoki qo‘riqchi, biroq she’rni sha’ir (arpa) dan, ridf (orqa) ni radifdan farqlay olmaydi. “Nima bisyor bo‘lsa, xor bo‘ladi” deganlaridek ular she’rdan maqsad faqat nazm, boshqasi emas, deya yanglish xayol qiladilar, shu bois bu hayo hijobida sir bokiralari va bu hujra ichida fikr masturalari borligini bilmadilar. Sodda nazmning soddadil bechoralari yosh bolalar ko‘ngli uchun lof uradilar. Fozil hakim Avhaduddin Anvariy bu toifaning ranj-u g‘ussasi tufayli ushbu baytni aytgan:

Bayt: She’r dar nafsi xeshtan bad nest,
Nolayi man zi xissati shurakost.

Ma’nosi: She’r aslida yomon (narsa) emas, (lekin) mening shikoyatim ayrim qobilyatsizlarning beodobligi (she’riyatga burun suqishi)dandir.

Orif shayx Ozariy so‘zlaridan bo‘lgan bir qit’a bilan bu arz-u shikoyatni bartaraf qilamiz va bu jamoatning iste’dodlilari-yu qobilyatilaridan uzrli bo‘lamiz.

Nazm:

Agarchi shoiron az ro‘yi ash’or,
Zi yak jomand dar bazmi suxan mast.
Vale bo bodai ba’ze harifon,
Firebi chashmi soqiy niz payvast.
Zaboni ma’nii eshon gahi nazm,
Dahon az guftai surat furo‘ bast.
Hama g‘avvosi daryoi kamoland,
Kiy dar bahri haqiqat afkanad shast?
Mabin yakson, ki dar ash’ori in qavm,
Varoi shoiriy chize digar hast.

Ma’nosi: Garchi shoirlar she’r aytish uchun tuziladigan so‘z bazmida bir jomdan mast bo‘lsalar-da, lekin ba’zi bir do‘stlar bodasiga soqiy ko‘zlarining firibi ham qo‘shilgan.

Ulardagi ma’no (botin) tili she’r aytish chog‘ida og‘izni surat (shakl) haqida gapirishdan tiyadi.

Bularning bari kamolot daryosining g‘avvoslari, chunki ular haqiqat dengizida qarmoq otadilar.

Bularni avvalgi toifa bilan birdek ko‘rma, zotan, bu qavm she’rlarida shoirlikdan boshqa narsa ham bor”.

Adabiyot nazariyasi uchun “Muallif hasbi holi va bu asar yozilishining sababi” deyilgan bob alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, unda:

1) Ijodiy biografiya muammolari;
2) Badiiy ijod psixodlogiyasi;
3) Adabyot tarixidagi favulodda hodisalar mohiyatiga bir nazar;
4) Ayrim asarlarning yuzaga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy muhit va ijodkor munosabatlari muammolari haqida ham bahs yuritilgan.

Tazkirada 150dan ortiq ijodkorlar haqidagi a'lumotlar jamlangan. Ular orasida Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, ayniqsa, Alisher Navoiy haqidagi kuzatishlar alohida ilmiy ahamiyatga molik. “Buyuk va ulug‘ amir, rahmli va adolatli noyib, insof va karam bayroqlarini yuksaltiruvchi, hokimlar va amirlar amiri, zamona valiylarining valiysi, xoqon-u maliklar devonining tartibchisi, tuproq va suvdan yaratilganlarning odili, mamlakatlar ishini yo‘lga qo‘yuvchi, zaiflarni tahlikalar xavfidan qutqaruvchi, faxrlanishga arziydigan va go‘zal asarlar sohibi, oldin va keyin kelganlar kamolini yo‘qqa chiqargan, karam imoratlari quruvchisi, buyuklar va ulug‘lar odatini yangilagan, olimlarni qo‘llovchi, fozillar murabbiysi, faqirlar madadkori, ulug‘ amirlarning afzali, buyuk ne’mat va lutflar sohibi, solim tabining o‘lchovi bilan barcha ilmlarni saralashga qodir, solih zehnining tarozusi bilan ko‘plab ilmlarni biluvchi

Ba haq molikriqobi kilk-u shamsher,
Nizomu-l-millati va-d-din Alisher.
Ya’ni, Qalam-u qilichning haqiqiy xojasi,
din-u millat nizomi Alisherdir” (31).

Kitobda Davlatshohning o‘zi haqidagi ma'lumotlar ham bu jihatdan alohida e'tiborga molik. Adib uzoq muddatlar davomida turli ijtimoiy-siyosiy vazifalar ichida yashagan. Uning “amir” degan unvon egasi bo‘lishining o‘ziyoq bu borada yaxshigina axborot bera oladi. Qolaversa, uning bir qator haorbiy yurishlarning bevosita ishtirokchisi ekani ham o‘ziga xos biografik faktlar silsilasini boyitib turadi.

Endi ayrim istilohlar to‘g‘risida. Davlatshoht o‘sha davr adabiyoti uchun muhim va faol iste'molda bo‘lgan ko‘plab atamalarni qo‘llagan. Misra, bayt, band, matla, maqta, aruz, qofiya, balog‘at, fasohat, majoz, haqiqat, shoir, roviy, hukamo, she'r, ash'or, masnaviy, munozara, g‘azal, qit'a, ruboiy... singari so‘zlar shu turkumni tashkil etadi. Ayni paytda mazkur atamalarning iste'moldagi holatini izohlovchi izoh va shparhlar, eng muhimi, munosib namunalar ham ilova etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 224b.
2. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan)// Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. –Б.14-20.

XƏLİL YUSİFLİNİN “ŞAH İSMAYIL XƏTAYİNİN HƏYATI VƏ SƏNƏT DÜNYASI” ARAŞDIRMASININ TƏHLİLİ

Almaz ÜLVİ BİNNƏTOVA
Filologiya elmləri doktoru, professor
AMEA Nizami Gəncəvi adınaƏdəbiyyat İnstitutunun
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr”
şöbəsinin müdiri, Bakı. **E-mail:**
almazulvi1960@mail.ru
Tel: +994 50 382 74 59 orcid iD – 0000-0001-7991-3969

Xülasə: Məqalədə XVI əsr Azərbaycan ədəbiyyatının böyük siması Şah İsmayıl Xətayinin poetik irsi və onun elmi tədqiqi məsələləri araşdırılır. Müəllif Bəkir Çobanzadənin “Xətayinin dili və bədii yaradıcılığı haqqında” əsəri ilə yanaşı, professor Xəlil Yusiflinin “Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və sənət dünyası” adlı fundamental tədqiqatını təhlil edir. Bu əsərin Xətayinin yalnız şairlik fəaliyyətini deyil, həm də onun siyasi şəxsiyyətini, sufizmə bağlı poetikasını və dövrün ictimai-siyasi şəraitini necə əks etdirdiyini araşdırır. Professor Yusiflinin əsəri həm arxiv sənədləri, həm də elmi təhlillərə əsaslanaraq, Xətayinin mədəni irsini çoxşaxəli kontekstdə təqdim edir. Əsərdə Xətayinin klassik və xalq poeziyasını birləşdirən, fəlsəfi və ideoloji baxımdan zəngin yaradıcılığı ön plana çəkilir.

Açar sözlər: Şah İsmayıl Xətayi, Xəlil Yusifli, Azərbaycan ədəbiyyatı, sufizm, klassik poeziya, ideologiya, XVI əsr, siyasi şəxsiyyət, bədii irs An Analysis of Khalil Yusifli’s study "The Life and Artistic World of Shah Ismail Khatai"

Abstract: This article explores the poetic legacy of Shah Ismail Khatai, a prominent figure in 16th-century Azerbaijani literature, and examines scholarly perspectives on his work. It particularly focuses on Professor Khalil Yusifli’s extensive study “The Life and Artistic World of

Shah Ismail Khatai," which provides a multifaceted analysis of Khatai as both a poet and a political figure. The article highlights the uniqueness of Yusifli's approach, emphasizing his use of archival materials and comprehensive literary analysis. Khatai's poetry is discussed in terms of its connection to Sufi thought, its philosophical and ideological themes, and its synthesis of classical and folk traditions. The study affirms Khatai's enduring influence on Azerbaijani culture and literature.

Keywords: Shah Ismail Khatai, Khalil Yusifli, Azerbaijani literature, Sufism, classical poetry, ideology, 16th century, political figure, literary heritage

XVI əsr Azərbaycan ədəbiyyatının, dilçiliyinin, xüsusən milli tarixinin qızıl səhifələrində Şah İsmayıl Xətayinin adı yazılır. Onun poetik yaradıcılığı yeni bir ədəbi epoxanın yarandığına sübutdur. Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və yaradıcılığı ilə bağlı bəlkə də yüzlərlə tədqiqatlar, bədii kitablar yazılıb, yazılır. Bu əsərlər bəzən bir-birinin təsiri ilə, bəziləri isə konkret arxiv materialları əsasında araya-ərsəyə gəlmişdir. Təbii ki, hamısını oxuyub ümumi bir nəticə əldə etmək, hansının hansından daha üstün, elmli və dolğun olmasını mütəxəssislər o dəqiqə anlayır və üstünlüyü ona verir, ciddi tədqiqatlarda məhz həmin əsərə istinad edilir.

Bu sıradan illər öncə Bəkir Çobanzadənin yazdığı "Xətayinin dili və bədii yaradıcılığı haqqında" (1935) tədqiqat əsəri haqqında fikir və düşüncələrimi qələmə almışdım. "XVI əsrdəki Azərbaycan türk ədəbiyyatının bədii yüksəkliyi, vertikalı Füzuli ilə ölçülərsə, dil və yaradıcılıq ünsürləri vasitəsilə və içərisinə aldığı bədii və insani komponentlərin genişliyi, horizontal meyarı Xətai ilə təmsil olunur. ... Füzulinin açdığı cərəyan ilə Xətainin başladığı cərəyan gah birləşərək, gah da biri-birinin üstündə yerləşərək hər halda eyni feodal ədəbiyyatı çərçivəsi daxilində inkişaf etmişdir" [4, s.332]. Bəkir Çobanzadə daha çox dilçi alim olduğu üçün Xətai yaradıcılığının dili və dilçiliyi üzərinə diqqət yetirmişdir.

Sonralar Şah İsmayıl Xətayı haqqında ikinci bir araşdırma əsəri – professor Xəlil Yusiflinin "Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və sənət dünyası" adlı tədqiqatını oxudum, özlüyümdə, "Əməkdar elm xadimi, professor Xəlil Yusiflinin 90 illik yubileyinə həsr edilmiş "Azərbaycan və dünya nizamişünaslığının aktual problemləri" mövzusunda beynəlxalq elmi konfransın verdiyi fürsətdən istifadə edərək, fikir və düşüncələrimi bildirmək ehtiyacını duydum.

Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığının ən görkəmli alimlərindən biri, görkəmli nizamişünas alim kimi tanınan, sevilən Xəlil Həmid oğlu Yusiflinin Şah İsmayıl Xətayinin də yaradıcılığına həsr etdiyi qiymətli tədqiqat əsəri tədqiqatçılar üçün etibarlı mənbədir. Professorun bu mövzudakı tədqiqatı, müəllifin bu mövzuya – milli tarixə, milli ədəbiyyat tarixinə olan diqqətinin nəticəsidir və ədəbiyyatşünaslıq sahəsindəki əhəmiyyətli əsərlərdən biridir. Bu tədqiqatda Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və ədəbi fəaliyyəti detallı şəkildə tədqiq olunmuş, onun dövrünə, hökmdarlıq fəaliyyətinə və müasirlərinə təsiri ilə bağlı yeni elmi fikirlər irəli sürülmüşdür..

Professor Xəlil Yusifli Şah İsmayıl Xətayinin poeziyasının zənginliyini və poetik dilinin çoxşaxəliliyini vurğulayır. Əsərdə Şah İsmayıl Xətayinin şair kimi ucalığını, həm də İsmayıl Xətayinin siyasi şəxsiyyət olaraq mühafizəkar hakimiyyət strukturlarına qarşı mübarizəsini nəzərdən keçirilir. Müəllif, Şah İsmayıl Xətayinin şeirlərindəki mənəvi və ideoloji ziddiyyətləri və bu şeirlərin həm dövrünə, həm də sonrakı zamanlara təsirini təhlil edərək onun mədəni irsini daha geniş bir çərçivədə göstərir.

Xəlil Yusifli, Şah İsmayıl Xətayinin yaradıcılığını dərindən təhlil edərkən, həm də şairin Azərbaycan mədəniyyəti və ədəbiyyatındakı yerini müəyyənləşdirməyə çalışmışdır. O, Şah İsmayıl Xətayinin əsərlərindəki bir çox fəlsəfi və ideoloji temaları, həm də Sufi düşüncəsinin izlərini göstərir. Bu əsər, Şah İsmayıl Xətayinin yalnız bir şair kimi deyil, həm də dövrün sosial, siyasi və mədəni vəziyyətini əks etdirən bir şəxsiyyət olduğunu nümayiş etdirir. “Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və sənət dünyası” əsəri, Xəlil Yusiflinin ədəbiyyatşünaslıq sahəsindəki dərindən düşünülmüş və elmi cəhətdən zəngin işlərindən biridir və onun Şah İsmayıl Xətayi haqqında olan fikir və yanaşmalarını əks etdirir. Bu əsər həm də onun Azərbaycan ədəbiyyatına verdiyi böyük töhfənin bir nümunəsidir.

Tədqiqatda, elmi-ədəbi kontekstdə əlavə oluna biləcək bir məqam Şah İsmayıl Xətayinin poeziyasının sufizmlə əlaqəsidir. Onun şeirlərində sufizm və dini-mistik elementlər mühüm yer tutur. Şairin həyatın gözəlliyini, təbiətin rəmzi olaraq sevinc və ümidi göstərməsi, onun bir çox şeirlərində görürük. "*Bahar oldu ki, aləm gülşən oldu*" misrası da bunun bariz nümunəsidir.

Bahar oldu ki, aləm gülşən oldu,
Gözün aç, gör cahan nə rövşən oldu.
Bəzəndi hər bir ağac bir gül ilə,
Ağaclar cümlə gül pirahən oldu.

Açıldı yazlar, bitdi çiçəklər,
Gül ilə şol bənövşə susən oldu. [2, s.332]

Bu şeirdə Xətayi təbiətin dövranını – dəyişməsini sevinc və yenilənmə simvolu kimi təqdim edir. Şairin məhəbbət şeirlərindəki bu nikbinlik, onun bütün şeir fəaliyyətinə hakim olan optimist bir yanaşmanın təzahürüdür. Tədqiqatda, Ana dilində poeziyanın inkişafına verdiyi töhfə – Şah İsmayılın klassik və xalq şeirini birləşdirən əsərlər yaratdığı qeyd edilir. Onun poeziyasında "həyata bağlılıq", "mənəvi saflıq" və "şərə nifrət" kimi motivlər əsas xüsusiyyətlər kimi göstərilir. Ozan-aşıq sənətinə bağlılığı isə Xətayi poeziyasının xalq ruhuna yaxın olduğunu göstərir.

Xəlil Yusiflinin "Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və sənət dünyası" əsəri, Xətayi haqqında yazılmış digər əsərlərdən bir neçə cəhətdən orijinal fərqlərə malikdir:

- Əsərdə Xətayinin yalnız şairlik tərəfini deyil, həm də onun həyatını və dövrünü geniş bir kontekstdə incələyir.
- Ş.İ.Xətayinin yaradıcılığı sosial və siyasi şəraitlə bağlı olduğu üçün şairin yaradıcılığını onun şəxsi dünyası və dövrün siyasi çərçivəsində təqdim edir. Bu yanaşma, Xətayi haqqında yazılmış digər əsərlərə nisbətən daha müfəssəl və elmi səviyyədədir.
- Şah İsmayılın Heratda alimləri və sənətkarları himayə etməsi, onların bir hissəsini İran və Azərbaycana gətirməsi Səfəvi sarayının intellektual və mədəni mərkəzə çevrilməsinə səbəb olmuşdur. Bu proses, həm də Şeybani xan dövründə Orta Asiyada baş verən siyasi və mədəni durğunluğun əksi kimi qiymətləndirilə bilər.
- Əsər əsasən arxiv sənədləri, təhlillər və müasir ədəbiyyat tədqiqatları ilə zənginləşdirilmişdir. Bu baxımdan, Xətayi haqqında yazılmış əvvəlki əsərlərdən fərqli olaraq, Xəlil Yusifli özünün hərtərəfli elmi yanaşması ilə diqqət çəkir. O, dövrün ənənələrinə və Xətayinin əsərlərinin yazıldığı şəraitə dair daha çox məlumat təqdim edir.
- Ş.İ.Xətayinin şeirindəki fəlsəfi və ideoloji mövzulara xüsusi diqqət yetirilməsi, bu əsərin fərqli bir cəhətidir.
- Professor Xəlil Yusifli, Xətayinin şeirlərinin yalnız lirik və estetik deyil, həm də ideoloji və siyasi tərəflərini dərin təhlil edir. Şah İsmayılın hakimiyyətinə olan münasibətini, Sufi düşüncəsinin təsirini və onun siyasi mövqeyini daha ətraflı şəkildə açır. Bu, Xətayinin yaradıcılığını yalnız poetik müstəvidə deyil, həm də dövrün ideoloji mühitində qiymətləndirmək baxımından özünəməxsus bir yanaşmadır. Şah İsmayılın yalnız siyasi lider deyil, həm də şair kimi təqdim olunması əsərdə önəmli yer tutur.

Xəlil Yusifli, Xətayinin yaradıcılığını yalnız onun dövrü ilə məhdudlaşdırmır, həm də şairin müasir dövrümüzə və gələcək nəsillərə necə təsir etdiyini göstərməyə çalışır. O, Xətayinin poetikasının mədəniyyətlərarası təsirlərini və bu günə qədər olan əhəmiyyətini də əks etdirir. Əsərdə Xətayinin həyatını, onun sənətini və təsirini geniş bir miqyasda qiymətləndirərək, şairin irsinin zənginliyini və aktualığını vurğulayır. Əsərdə qeyd olunur ki, Səfəvilərin yüksəlişi yalnız hərbi zəfərlərlə deyil, həm də ideoloji mübarizələrlə bağlı idi. Şah İsmayılın qızılbaş ideologiyasını yayması, Osmanlı daxilində tərəfdarlarının artması Sultan Səlimin ona düşmən münasibət bəsləməsinə səbəb olmuşdur. Osmanlı-Səfəvi münasibətləri baxımından Çaldıran döyüşü xüsusi əhəmiyyət daşıyır. Mənbələrdə Şah İsmayılın müharibə tərəfdarı olmadığı qeyd edilsə də, bu, Osmanlı imperiyası daxilində qızılbaşların güclənməsinin yaratdığı təhlükə ilə izah edilir. tarixi ciddi vərəqləyib dərindən düşünsək, bu iki türk qardaşın savaşı yox, sərhədlərini günişləndirməyə cəhd edən – torpaq davası uğrunda gedən şahların savaşı – müharibəsidir. Çünki o zamanlar mən, sən, o türk qardaşlarıq düşüncəsindən çox-çox uzaq olan bir hakimiyət məsələsi vardı. Səfəvi – Osmanlı savaşı da məhz bu məsələ – nəfs məsələsi kontekstində baş vermişdi.

Xəlil Yusifli tədqiqaatında, Şah İsmayıl Xətayinin Sufi poeziyasını və onun dini elementlərini də dərindən təhlil edir. Xətayinin yaradıcılığında Eşq və İlahi məhəbbət anlayışları ilə bağlı məqamlara xüsusi diqqət yetirilir. Bu, əsərin daha çox dini fəlsəfi aspektləri üzərində qurulmuş tərəfini təşkil edir. Xətayinin şeirlərində mistik fəlsəfi düşüncələrə, xüsusən də panteist yanaşmalara rast gəlirik. Şair, Allah ilə birliyə vurğu edərək, təbiət və insanın Allahın bir parçası olduğunu bildirir. Bu fəlsəfi yanaşma şairin dövrünə görə cəsarətli və müasirdir. “Gəldim imdi” kimi şeirlərində, Xətayi özünü təkcə insan deyil, təbiətin və kainatın bir hissəsi olaraq görür.

Mən ol məsti-liqayəm, gəldim imdi,
Həmişə ba xudayəm, gəldim imdi.
Cəhan içində bir aqil məni bil,
Mən ol sidqü səfayəm, gəldim imdi.
Məni zinhar sən bir ğeyr bilmə,
Haman ol dilrubayəm, gəldim imdi.
Münafiq caninə ba zərbi-şəmşir
Bu gün həqdən bəlayəm, gəldim imdi.
Zi ğeyri-həq məni biganə bilgil,

Behəzrət aşinayəm, gəldim imdi.
Məni bilgil həmişə vasili-həq,
Zi ğeyri-həq cüdayəm, gəldim imdi.
Məğarib əhliçün övci-fələkdən
Bemə'ni çün hümayəm, gəldim imdi.
Öküş canlar içün can almağa mən
Xətayi can fədayəm, gəldim imdi. [2, s.189]

Bu yanaşma onun təbiətə və insanın daxili dünyasına olan dərindən bağlılığını göstərir.

Məlumdur ki, Azərbaycan ədəbiyyatının klassiklərindən olan "Dəhnamə" məsnəvisi Şah Xətayinin ən məşhur əsərlərindən biridir. Əsər, aşiq və sevgilisi arasında yazılan on məktubdan ibarət olub, 1532 beytdən ibarətdir. Xətayi sufizmə uyğun şəkildə məhəbbət və eşqi tərənnüm edir. "Dəhnamə" əsərindəki sufizm və panteizm, insanın Allah ilə birləşməsini və dünyanın təbiətindəki mövcudiyyətini ifadə edir. Burada Eşq, Allah ilə birliyi təmin edən bir vasitə kimi göstərilir. Sufi panteist məhəbbət, əsərdə hər şeyin birliyi və məhəbbətin təbiətindəki təzahürləri kimi ön plana çıxır. "Dəhnamə" əsərinin Şah Xətayi tərəfindən yazılması, yalnız Azərbaycan ədəbiyyatının deyil, həm də Orta Asiya və Yaxın Şərq ədəbiyyatının tarixində əhəmiyyətli bir hadisədir. Şah İsmayıl Xətayi Hümam Təbrizinin və Əvhəd Marağalının "Dəhnamə"lərindən ilham alaraq, bu ənənəni yeni bir məzmun və formaya salmışdır. Onun əsəri, eyni zamanda, bu janrın daxilində yenilikçi yanaşmalar təqdim edir, xüsusi ilə də qəzəl və digər lirik elementlərin inteqrasiyası ilə. Xətayinin "Dəhnamə"si, həmçinin dövrünün mürəkkəb siyasi vəziyyətini və şairin öz daxili mübarizələrini əks etdirir. Gənc yaşlarında bu əsəri yazaraq, Xətayi həm ədəbiyyatda, həm də tarixi proseslərdə mühüm iz qoymuşdur. Xəlil Yusifli tədqiqatında bu əsərin – "Dəhnamə"nin üzərində dayanaraq geniş və elmi-nəzəri müstəvidə şərhlər vermiş, təhlillər aparmışdır.

Xətayinin qəzəlləri və qəsidələri, onun lirizm və təsvir gücünü nümayiş etdirən şeirləridir. Bu əsərlərdə sevgi, təbiət və dini mövzular ön plana çıxır. Xətayinin şeirində qəzəllərin rolu böyükdür. Onun əsərlərində, xüsusən "Dəhnamə"də, Aşiqin ruh halı çox müxtəlif vəziyyətlərdə – kədərdən sevincə, həsrətdən vüsala qədər – əks olunur. Xətayi bu emosiyaları qəzəllərin məharətlə qurulmuş dilində çox canlı şəkildə təqdim edir. Aşiqin sevgi və həsrətini ifadə edərkən istifadə etdiyi dil həm sadə, həm də dərin mənalıdır, bu da onun əsərlərini daha təsirli edir.

Yüzün gördüm sənin, ey yari-məhru,
Könüllər afəti, ya yüzmüdür bu?

Dodağın həsrətindən xəstə haləm,
Axıtdı gözlərim yaşı bəhər su.
Həbəşdir kim, müsafir Rumə düşmüş
Yüzün səfhindəki ol xali-hindu.
Gözündən ahu tək dağlara düşdüm,
Nə sehr etdi mənə ol iki cadu?
Xətayi dər yüzün xurşidə nisbət,
Sözü rövşən dedim yüzünə qarşu. [2,s.169]

Xətayinin "Nəsihətnamə" əsəri, onun hikmətli düşüncələrini və həyat fəlsəfəsini əks etdirən bir məsnəvidir. Xətayinin fəlsəfi dünyası əsasən vəhdət-i vücuda, yəni bütün varlığın birliyi anlayışına əsaslanır. Şairin "Nəsihətnamə" əsərində bu fəlsəfi əsaslar çox aydın şəkildə nəzərə çarpır – o, dünyanı bir bütöv və ya təbii aləmin zərrələri kimi görür və insanın bu aləmdəki yeri barədə fikirlərini vurğulayır. Belə bir dünyagörüşü onun poeziyasında insanın əzəmətini və onun Allah ilə əlaqəsini təbliğ edir. Bu, təkcə bir dini və metafizik mövzu olmayıb, həm də humanist düşüncələri ifadə edən bir fəlsəfi yanaşmadır.

Gəl imdi bir dəxi söhbəti dinlə,
Qulax dut bu sözün mə'nisin anlə.
Edərsən mundan axır seyran onda,
Nə köşkü təxt yaparsan yə'ni munda?
Yükün zülm isə arxandan buraxgil,
Təfərrüc eyləyib didarə baxgil.
Irəsən mənzilə oynayə, gülə
Ki, şəklin bənzəyə gülşəndə gülə.
Bu dünya möhnətin vəhdətə dəgşür,
Özüni sidq ilə sən şaha dapşur. [2, s.230-231]

Şah Xətayinin "Nəsihətnamə" və "Dəhnamə" əsərləri arasında epik və lirik elementlərin qarışımı mövcuddur. Epik əsərlərdən istifadə etməklə şair, insan həyatının əsas fəlsəfi məsələlərini, xüsusən də dünya, həyat və insanın mənəvi dəyərlərini müzakirə edir. Digər tərəfdən, "Dəhnamə"nin məzmununda həm də klassik ədəbiyyatın nağıl və dastanlardan götürülən təsvirləri ilə bədii təsir artırılır. Bu, şairin bədii dərinliyi və müxtəlif formalardan istifadə edərək fikirlərini zənginləşdirməsinə şərait yaradır.

Bəli, professor Xəlil Yusifli bütün əsər boyu izlədiyi bir xətt danılmazdır. Bu, Şah İsmayıl Xətayi, həm şair, həm də dövlət xadimi olaraq zəngin bir ədəbi irsə malik olmasını əsərlərini təhlil edərək vurğulamışdır. Onun əsərləri Azərbaycan ədəbiyyatının incilərindən sayılır. Xüsusən, xalq ədəbiyyatına söykənməsi, qoşma, gəraylı və s. bu

kimi el arasında, aşıq yaradıcılığında önəmli yer yutan şeir növlərindən bəhrələnməsidir

Şah Xətayi "Kərəm eylə" gəraylısı ilə öz poetik dünyasını əks etdirir.

Gördünsə bir yerdə rəqib,
Neylərsən yüzünə baxıb,
Münkiri qatara çəkib
Getmə, qardaş, kərəm eylə.
Xətayim çağırır, ərə,
Dünya belə gəlmiş zira,
Arif oxun əbəs yerə,
Atma, qardaş, kərəm eylə. [2, s.346]

Şah Xətayi klassik ədəbiyyatı ehtiva edən əruz vəznində yazdığı şeirləri ilə də tanınır. Bu şeirlər, onun ədəbi bacarığını və dövrünün poetik ənənələrini əks etdirir.

Köynəyindən çıx dedim şol sərvi-gül xəndanıma,
Zərrəcə qayınmadı, göstərdi əndami mana.
Ey Xətayi, zülfinin zəncirinə qeyd etmə dil,
Danədir xali anın, həm zülfidir dami mana [2,s.32]

Professor Xəlil Yusifli, Şah İsmayıl Xətayi haqqında yazmaqla, Azərbaycanın tarixində və ədəbiyyatında mühüm yer tutan bu böyük şəxsiyyətin irsinin daha dərindən öyrənilməsinə böyük töhfə vermək məqsədini önə çəkmişdir. Professor, Şah İsmayıl Xətayinin ədəbi yaradıcılığı, xüsusilə onun poetikası, fəlsəfi baxışlarını, humanist ideyalarını dərindən araşdırmışdır. Bu tədqiqatla müəllif Şah İsmayıl Xətayinin həm bir siyasi lider, həm də bir sənətkar olaraq ədəbiyyat tarixindəki mövqeyini daha dərindən başa düşmək üçün əhəmiyyətli bir mənbədir.

Ədəbiyyat:

1. Şah İsmayıl Xətayi. Keçmə namərd körpüsündən. Şeirlər və poemalar". – Bakı, Yazıçı, 1988
2. Şah İsmayıl Xətayi. Əsərləri. Tərtib edənlər: Ə.Səfərli, X.Yusifli (ön sözün müəllifi). – Bakı, "Şərq-Qərb", 2005, 384 səh. (https://anl.az/el/x/shix_e.pdf)
3. Xəlil Yusifli. Şah İsmayıl Xətayinin həyatı və sənət dünyası. – Bakı, 2022, 40 səh.
4. Bəkir Çobanzadə. Seçilmiş əsərləri. Beş cilddə. I cild. – Bakı, "Şərq-Qərb", 2007, 336 səh.

MARG‘UB SHE’RIYAT

Adizova Iqboloy Istamovna,
Tosh DO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: ataullo98@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola, “Мажолис ун-нафоис” асосида, Навоий ва Ҳусайнийнинг ўзаро адабий таъсири, адабий ҳамкорлик ва маслакдошлик мақомини ёритишга бағишланган. Дўстона муносабатларнинг ижодий shakllanish va takomillashuvdagi ahamiyati belgilanган. Ижодкорларнинг тафаккур ва ифода уйғунлиги ҳамда ўзига хослиги талқин этилган. Маҳорат қирралари аниқланган. Қўйилган масала уларнинг назира ҳамда татаббулари орқали очиб берилган.

Kalit so‘zlar: назира, ирфонийлик, tasavvuf, таржеҳ, анъана ва янгиланиш, adabiy jarayon, равий, қофия, бадиий санъатлар.

Abstract: This article, based on "Majolis un-nafois," is dedicated to highlighting the mutual literary influence of Navoi and Husayni, the status of literary cooperation and friendship. The significance of friendly relationships in creative formation and improvement has been determined. The harmony of thought and expression, as well as the originality of the creators, are interpreted. The limits of mastery have been identified. The question raised was revealed through their observations and observations.

Keywords: nazira, irfan, tasawwuf, tarjeh, tradition and renewal, literary process, rawi, qafiya, artistic arts.

“Majolis un-nafois” XV asr adabiy jarayonining ko‘zgusidir. Unda, Navoiy davrining 459 allomasi qatorida, Husayniy ijodiga ham alohida e’tibor qaratgan. Asar tarkibidagi sakkiz majlisdan so‘nggisi to‘liqligicha unga bag‘ishlangan. Asarning yaratilish maqsadidan kelib chiqib, majlisda Husayniyning, asosan, ijodkorligi bilan bog‘liq masalalar yoritiladi. Muallif qo‘yilgan muammoni keng qamrovda, adabiyotshunos olim sifatida nazardan o‘tkazadi. Qadrdon do‘sti ijodiy faoliyatining o‘ziga xos, noyob xususiyatlarini, betakror g‘aroyibliklarini ochib beradi.

Sharq mumtoz adabiyoti an’anaviy adabiyot. Uning muhtashamligi ham shunda. Chunki ildizdan uzilmay turib, yangilik yaratish mahorat talab etadi. Ulug‘ shoirlarimizning asarlaridagi kashfiyotlar ana shu an’anaviylik zaminida namoyon bo‘lgani bilan ham qadrlidir. Ular ma’no, obraz, badiiy tasvir va so‘zlarning jilolantirilishi vositasida yuzaga chiqadi.

Bu borada, ayniqsa, taxmis, tasdis, nazira, tatabbu', tazminlarning ahamiyati katta.

Navoiy "Majolis un-nafois"da Husayniy mahoratini ana shu mezon asosida baholab, barcha yutuqlarini dalillab beradi. Uning ko'plab shoirlarga, jumladan, o'zining ham bir nechta g'azaliga naziralar bog'laganini ta'kidlaydi. Ulardan biri,

Tig' ila ko'ksimni qilding zaxm, ey siymin badan,

Qoni turmaydur deb ul zaxm uzra kuydurdung tugan [Alisher Navoiy, 1997: 192].

bayti bilan boshlanuvchi g'azaldir. U haqda Navoiy katta mehr bilan so'zlaydi: *"Bu matla' faqirning bir matlai muqobalasida tushubturkim, agar burunroq aytilmish bo'lsa erdi, faqir hargiz o'z matlaimni aytmag'ay erdim. Aytmish bo'lsam ham, bitmagay erdim" [Alisher Navoiy, 1997: 192].*

Navoiy "mening" radifli g'azaliga javob tarzida yozilgan asarning ham yuksak mahorat bilan yaratilganini tan oladi: *"Bu faqirning bir g'azaliga bu g'azal javob voqe' bo'lubturkim, o'zum insof yuzidin mu'tarifmankim, andin yuz martaba ortuqroq tushubturkim:*

Tushgali hajringda, ey sarvi gulandomim mening,

Ne ko'zumda uyqu bor, ne jonda oromim mening" [Alisher Navoiy, 1997: 186].

Navoiy "Majolis un-nafois"da Husayniy ijodiga ob'ektiv baho berish yo'lidan borganini his qilamiz. Bunday xulosaga kelishimizga asos beruvchi dalillarni asarda ko'plab uchratamiz. Jumladan, muallif,

Hijronning o'ti jismi zorim qildi kul, ey yor, bil,

Gar bino qilsang mazorim, tarhin ul kul birla qil [Alisher Navoiy, 1997: 189].

bayti haqida so'zlab, hayratlanarli voqeani eslaydi: *"Bu g'arib xayoldurkim, Sulton Sohibqironning xotirlarig'a kelibdur va nazm ahliga zohir qilib erdilarkim, aytsunlar, barcha ayttilar. Ammo hech qaysi ul hazratcha ayta olmadilar"*

[Alisher Navoiy, 1997: 188].

Mumtoz adabiyotda hijron iztirobi turli obrazlar, rang-barang ifoda usullari va badiiy vositalar yordamida tasvirlanadi. Ammo Husayniy qo'llagan "kul" obrazi mazkur ruhiy holatni mukammal, chuqur va yangicha ifodalab bera oladi. Unda tashqi manzaradan tashqari, oshiq tuyg'ularining botiniy sarhadlari ham yoritiladi. Bu esa U haqdagi Navoiy fikrlari asosli ekanligini ko'rsatadi.

Kiprik mumtoz adabiyotda keng qamrovli ma’nolarni ifodalaydi. U majoziy va irfoniy mohiyatni yoritishga xizmat qiluvchi obraz. Husayniy mazkur an’anaviy obrazga o‘ziga xos yondashuv orqali, go‘zal va noyob mantiqni yuzaga chiqarishga erishadi:

Kirpikimdin, ey ko‘ngul, har dam qanotlar soz qil,

Hajr dashtidin visoli ko‘yiga parvoz qil [Alisher Navoiy, 1997: 189].

Ko‘ringanidek, kiprikka bunday nuqtai nazardan yondashish Husayniyning nodir badiiy xayolot olamidan dalolat beradi. Navoiy bejiz shoir do‘stining “g‘arib xayolot”iga e’tiborni qaratmaganini anglaymiz. Yuqoridagi baytlarning noyob topilma tarzida aytilgani, obrazlarga yangicha nuqtai nazardan yondashilganidan ko‘rinib turibdiki, Navoiyning bahosida zarracha ham mubolag‘a yo‘q.

“Majolis”da Husayniyning Hofiz Sheroziy, Yaqiniy, Lutfiy kabi ko‘plab shoirlarning asarlariga naziralar bog‘lagani haqida ham ma’lumotlar bor. Xususan, Lutfiy XV asr adabiyotida alohida o‘rin tutgan. Uni barcha shoirlar, Navoiy ham o‘ziga ijod yo‘lida ustoz deb bilgan. Shoirlik iste’dodi tan olinib, buyuk ehtirom bilan unga “malik ul-kalom” maqomi berilgan.

Navoiy “Majolis”da Lutfiy ijodi bilan bog‘liq ko‘plab jarayonlarni oydinlashtirgan. Ayrim g‘azallarining yaratilish tarixi haqida ma’lumot bergan. Asardan Husayniyning Lutfiy ijodiga munosabati, uning asarlariga bog‘lagan naziralari, ijodiy takomilida ustozning tutgan o‘rni borasida ham xulosalarga ega bo‘lamiz. Ayniqsa, “ustina” radifli g‘azalning yaratilish tarixi davr adabiy jarayoni, ijodkorlarning o‘zaro munosabati, adabiy ta’sir va ijodiy takomil masalalarini yoritishga xizmat qilgan. Navoiy ustozi Lutfiy mahoratini yuksak baholagani holda, “ustina”g‘azalining,

Ey qading to‘biyi jannat xaddi gulgun ustina,

Ko‘rmadi davron seningdek oy gardun ustina [Lutfiy, 1965: 233]

deb boshlanuvchi matla’ bayti haqida ayrim tanqidiy mulohazalarini ham bayon etadi: *“Nechunkim, Mavlono yuzni jannatg‘a tashbih qilibdur va ani to‘bi ustiga e’tibor qilibdur va bu bag‘oyat yiroqtur. Bovujud bu ikki misrai bir-biriga marbut emas” [Alisher Navoiy, 1997: 198].*

Husayniy ham ustozning betakror va noyob ijodini qadrlaydi. Unga ehtirom ramzi sifatida mazkur g‘azalga nazira bog‘laydi. Asarni qayta ishlaydi. Yanada takomillashtiradi. Navoiy nuqson sifatida ko‘rsatgan matladagi holatlarga o‘zgacha yondashadi:

Aytqoy, sarv uzra gul payvand qilmish bog‘bon,
Kimki ko‘rsa orazing, ul qaddi mavzun ustina [Husayniy, 2016: 131].

Husayniy tasvirni hayotga yaqinlashtiradi. Mahbuba qaddi va yuzini bog‘bonning sarvga gulni payvand qilish holati bilan bog‘laydi. Shoir mahorati shunda ko‘rinadiki, u asarga bog‘bon obrazini olib kirishi bilan uni ham hayotga yaqinlashtiradi, ham teran botiniy ma’no bag‘ishlaydi. Bunda u mumtoz adabiyotning ramziylik xarakteridan foydalanib, bog‘bon obrazining ramziy ma’nosini ham nazarda tutadi. Mahbubaning go‘zalligini Azal yaratuvchi mahoratiga, uning qudrati mahsuli ekanligiga ishora qiladi. Husayniy Navoiy fikrini inobatga olib, Lutfiy qo‘llagan obrazning yangi va mukammal talqinini yaratadi.

Lutfiy g‘azalining maqta’ bayti shoirning timsol qo‘llashdagi o‘ziga xosligini namoyon etadi:

Gar vatan Lutfiy ko‘zunda tutmading, yo‘qtur ajab,
Ev qo‘pormog‘liq erur dushvor Jayhun ustina [Lutfiy, 196:, 233].

Hajr ko‘yida oshiq ko‘z yoshining Jayhun kabi daryo bo‘lishi ma’lum tasvir. Ammo, Lutfiy mahbubaning oshiq ko‘zi mardumida makon tutmasligini Jayhun ustida vatan qurishning ilojsizligi bilan bog‘laydi. Bu esa an’anaviy ifodaning yangilanishiga asos bo‘ladi. Shoir tasvirida manzara kengayadi. Tasvir ob’ektining kengayishi o‘z-o‘zidan asar qahramonlarining ruhiy holati tasvirini ham teranlashtiradi.

Husayniy yaratgan maqta’ bayt ham noyobligi bilan ajralib turadi. Unda shoirning ijodiy laboratoriyasi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

Seli ashk ichra Husayniy chun ko‘runmas istamang,
Kim ko‘rungay tushsa bir xoshok Jayhun ustina [Husayniy, 2016: 131].

Lutfiy maqtasida oshiqning vaslga etolmasligini hayotiy asos bilan dalillagan. Husayniy esa maqsadga erisholmaslikni mahbubaning oshiqni nazarga ilmasligi bilan bog‘laydi. Lirik qahramon xokisor, nazarnogir. Uning, hatto xas-xashakchalik ham qadri yo‘q. Jayhun ustiga tushgan xas ham ko‘rinadi. Ammo oshiq nazardan chetda. U o‘z maqomidan qanoatlanmaydi. Ko‘rinadiki, Lutfiyning hayotiy zaminga asoslangan g‘azali Husayniy qalamida yanada charxlanadi. Hayotiylik bilan parallel ravishda irfoniy ma’nolarga ishoralar ham etakchi mavqega ko‘tarila boshlaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida barcha yangilik va taraqqiyot an’ana zamiridan o‘sib chiqqan. Hatto, turkiy adabiyotga xos qofiyalanish tizimi, qofiya uchun qo‘llangan so‘zlar ko‘lamida ham an’anaviylikka amal qilingan. Qofiya asosini tashkil etuvchi asosiy – raviy harfining

qo‘llanishida ham o‘ziga xos an’ana ustuvorlik qilgan. Noan’anaviy so‘zlar yoki harflar tizimidan foydalanish ham ijodkorning o‘ziga xosligi va yangiligini belgilashga xizmat qilgan. Shu sababli ham, Navoiy Husayniy mahoratini baholar ekan, turkiy adabiyotda she’r aytilmagan yoki kam aytilgan harflar qo‘llanilgan qofiyalar tizimining olib kirilishini ham, shoirning yangiligi, ijoddagi kashfiyoti sifatida baholaganining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, Navoiy “Sod” harfi bilan yakunlangan qofiya tizimi borasida quyidagicha so‘zlaydi: *“bu harfda dag‘i turkigo‘y fasohatshiorlar varaq yuziga qalam surmaydurlar va hech nav’ nazm arog‘a kelturmaydurlar:*

Ey ko‘ngul, bo‘lsang vafosiz dilrabolardin xalos,

Shukr qil, bo‘lg‘on kishi yanglig‘ balolardin xalos” [Alisher Navoiy, 1997: 183].

“Turkigo‘y balog‘atosorlar bu harfning (“Zod” –I.A.) ham tarkin tutubturlar va hech nav’ nazmg‘a jilvai zuhur bermay o‘tubturlar”, “Turk kalomining malik ul-kalomlari bu harfda (“To – I.A.) dag‘i takallum tuzmaydurlar va kalima nazm haysiyatidin varaqda ko‘rguzmaydurlar”, “Bu harf (“Zo” – I.A.) hamul jumladindurkim, turk tilining shirinash’or va shakarguftorlari dushvorlig‘i jihatidin mutlaq taarruz qilmaydurlar”, deya turkiy she’riyatda qo‘llanilmagan yoki kam ishlatilgan ayrim harflar raviy vazifasini bajarib kelgan, Husayniy she’riyatidagi yangicha qofiya tizimiga alohida e’tibor qaratadi. Ungacha qo‘llanilmagan qofiyalarga urg‘u beradi. Xususan, Husayniyning “nihon” radifli 3 ta g‘azal yozgani va ularning har biri yuksak mahorat namunasi ekanligini ta’kidlaydi: *“Manzurning xat va zulfida bu uch matladurkim, bir-biriga javob voqe’ bo‘lubtur. Qofiya va radifi ul hazratning bu fanda mujtahid tab’ining ixtiroidur” [Alisher Navoiy, 1997: 194].*

Matlalar bilan tanishganimizda, haqiqatan ham, betakror va go‘zal ixtironing guvohi bo‘lamiz:

Zulfi ichra bel, xat ichra la’li xandondur nihon,

O‘ylakim, jondur nihon, ham rishtai jondur nihon [Alisher Navoiy, 1997: 195].

Baytda zulf, bel, xat, lab (la’l) an’anaviy obrazlari ishtirok etgan. Bular yangi obrazlar emas. Ammo ularga yondashuvning o‘zgachaligi obrazlarning yangilanishiga xizmat qilgan. Ijodkorning butun diqqati bel va labga qaratilgan. Labning jonga, belning ingichkaligi ipga qiyoslanishi an’ana. Ammo shoir mavjud fikrni o‘zgacha ifoda yo‘sinini qo‘llash orqali yangilaydi. O‘quvchini hayratlantira oladi. Buni tanosub, tashbeh, laff va nashr san’atlarini qo‘llash orqali amalga oshiradi. Labning jonga, belning

ingichkaligini jonning tomiriga o‘xshatar ekan, kitobat san’atini ham qo‘llaydi. Ya’ni “jon” so‘zining yozilishida, o‘rtada keluvchi “alif” ham nazarda tutiladiki, bu Husayniyning so‘zlarni tanlash, anglash va qo‘llash mahoratining noyobligidan, betakrorligidan dalolatdir.

Ayniqsa, “nav’” so‘zi radif sifatida qo‘llanilgan g‘azalini Navoiy yuqori baholaydi: *“Bu qofiya va radif hazrat Sulton Sohibqironning ixtiroidurkim, hech nazm aytilmaydur va hech devonda bitilmaydur:*

Ohkim, hijron o‘tidin kuydi jonim o‘zga nav’,

O‘rtadi ofoqni o‘tluq fig‘onim o‘zga nav’” [Alisher Navoiy, 1997: 184].

Bu kabi misollar Husayniy she’riyatda kashfiyotlar qilish yo‘lidan borganligini ko‘rsatadi. U o‘zining mazkur yo‘li bilan adabiy muhitdagi ijodkorlarga ibrat bo‘ladi. Navoiy uning bu xizmatini alohida ta’kidlaydi: *“Bu she’rning qofiyasidin so‘ngra “atv vovin” kalimaning asli harfi o‘rnig‘a tutulub g‘arib ixtiro‘ qilibdur:*

Ey jafo tig‘i, kelib majruh ko‘ksumni yoru,

Qo‘l yalang aylab solib haryon ichimni axtaru” [Alisher Navoiy, 1997: 196].

Navoiy Husayniyning mazkur o‘ziga xosligini “ixtiro” deb ataydi. Keyinchalik o‘zi ham undan ta’sirlanib, xuddi shunday usulni o‘z ijodida qo‘llab bir g‘azal yozadi. Mazkur g‘azal shoirning “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan. U saboga murojaat etib, sargardon, ovvorayu sarson ko‘nglini topishni iltijo etayotgan oshiq tilidan yozilgan quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

“Ey sabo, ovvora ko‘nglum istayu har yon boru,

Vodiyu tog‘u biyobonlarni bir-bir axtaru [Alisher Navoiy,1989: 192].

Bu holat Navoiy va Husayniyning ijod olamida bir-biri bilan qanchalik mushtarak ekanligini, bir-biridan ilhomlanib turkiy adabiyot takomiliga hissa qo‘shganini ko‘rsatadi.

Navoiy Husayniy she’riyatiga baho berar ekan, badiiy san’atlardan foydalanish mahoratiga ham alohida e’tibor qaratadi. Husayniy she’riyatida ko‘plab badiiy san’atlardan mahorat va o‘rnida foydalanganini misollar bilan dalillab beradi. Mukarrar, tashbeh, takrir, tamsil, tajohil ul-orifona, tajnis kabi san’atlar qo‘llanilgan nodir matlalarni tahlil etadi va yuqori baholaydi. Husayniy ijodida qo‘llanilgan so‘zlarning rang-barang jilolarini kashf etadi.

Navoiy ma’lumotlaridan Husayniyning badiiy san’at qo‘llash uslubi o‘ziga xosliklarga ega ekanligini anglaymiz. Shoir ulardan foydalanib,

noyob va yangi obrazlar yaratadi. Mavjud obrazlarga o‘zgacha nuqtai nazardan qarab, yangiliklar topadi. O‘zga shoirlarda uchramagan topilmalarni kashf etadi. Mazmunni o‘zgacha mantiq va rakurs asosida ifodalaydi. Oddiy an’anaviy qoliplardan foydalanmaydi. Jumladan, bir g‘azalida qo‘llangan tajnisni talqin etar ekan, Navoiy o‘z hayratini izhor etib, shoir iste’dodiga tan beradi: “Yuz davrida “qiron” ta’rifida... voqe’ bo‘lubtur, tajnis rioyat qililibdurkim, bu nav’ shirin va rangin va xush tartib oz voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay:

Ul quyoshkim, oy yuzining davrida qilmish qiron,

Barcha mahvashlar arosida erur sohibqiron” [Alisher Navoiy, 1997: 192].

Ma’lumki, mumtoz adabiyotda mahbuba yuzi ba’zan quyoshga, ba’zan oyga qiyosan ta’riflanadi. Husayniy esa, mazkur baytda adabiyotni ilm-fan bilan uyg‘unlashtiradi. O‘zining ilmiy bilimlarini adabiyot bilan birlashtiradi. Va chuqur mantiqqa ega, yangicha tasvirni yaratadi. Lug‘atlarda “qiron” so‘zi “ikki sayyora yulduzning bir burjda to‘qnashuvi, birlashish, yaqinlashish, to‘qnashish” ma’nolarida izohlanadi. Ya’ni, birinchi misrada mahbuba yuzi ham quyosh, ham oyning go‘zalligini o‘zida mavjlantirganini va buning sababini shoir tabiiy hodisa bilan izohlaganini ko‘ramiz. Ikkinchi misrada esa shoir obrazga yanada yangicha yondashadi. Yangilikni “sohibqiron” so‘zi orqali namoyon etadi. Lug‘atlarda uning ma’nosi “jahongir va ilmi nujumda ikki sayyora bir-biriga to‘qnashgan paytda tug‘ilgan bola” ma’nolarida izohlangan. Shoir “Qiron va sohibqiron” so‘zlari bilan tajnis san’atini yaratib, majoziy ma’noga chuqur irfoniy ma’noni ham singdirib ifodalashga erishadi. Navoiy bejiz o‘z fikrida baytning ranginligiga e’tibor qaratmagan. Rangin so‘zi “tovlanib turuvchi, rangdor” ma’nolariga ega. Bu faqat, she’rdagi shakliy go‘zallik emas, balki ma’no bilan bog‘liq rangdorlikni ham ifodalashga xizmat qilgan. Haqiqatan ham, Husayniy she’riyatida majoz va haqiqat hamisha uyg‘un tasvirlangan. Bu borada Navoiy ham quyidagi bayt tahlili jarayonida e’tiborli fikrlarni bayon etgan: *“Ul olam ahli sultoni himmati qoshida baski sultonlig‘i muhaqqir ko‘rinur va faqrni filhaqiqat saltanatqa tarjih qilur. Bu baytdakim, haqiqat ma’nisi majoz suratida ado topibdur. Umid ulkim, ul hazratning tariyqida ham necha majozi bo‘lsa haqiqatda mubaddal bo‘lg‘ay va majoz ahlig‘a ehson va haqiqat ahlig‘a mustahsan voqe’ bo‘lubtur:*

Kim gadoying bo‘lsa olamdin kechib, ey dilrabo,

Faqr ahli ichra ul sultoni olamdur bukun” [Alisher Navoiy, 1997: 206].

Husayniy mazmunni betakror shaklda va chuqur mantiq bilan ifodalashga alohida e’tibor qaratgan. Bu maqsad yo‘lida butun iste’dodini ishga soladi. Turli usullardan foydalanadi. Navoiy quyidagi baytda tashbeh qo‘llanganini va u tajohul ul-orif san’ati bilan muzayyan tarzda voqelanganini ta’kidlaydi: *“Manzurning labi tabassumini va o‘zini qonalg‘on dog‘ini g‘unchai xandon va lolai No‘mong‘a tashbih qilibdur va ma’nisi she’r sanoeidin “tajohul ul-orif” uslubida xush voqe’ bo‘lubtur:*

Ayladi la’li tabassum, g‘unchai xandon emas,

Dog‘ini ko‘nglum qonatti, lolai no‘mon emas” [Alisher Navoiy, 1997: 183].

Navoiy quyidagi baytni keltirib, unda tarjeh san’ati qo‘llanganini ta’kidlaydi: *“Nargis ko‘zluk va g‘uncha og‘izlig‘ guluzori ko‘zu og‘zin nargis bila g‘unchag‘a tarjeh qilg‘oni ajib nav’ voqe’ bo‘lubtur:*

Nargis olmas erdin ul fatton ko‘zung ollida ko‘z,

Og‘zing ollida tutulmish g‘unchaning og‘zida so‘z” [Alisher Navoiy, 1997:182].

Tarjeh san’ati juda noyob san’atlardan bo‘lgan. Atoulloh Husayniy talqinicha, tarjeh, *“... bir nav’ kalomni boshlag‘anda bir nimaga nazar solurlarkim, ani keltirmak bila ul ma’noni zikr qilmoq mumkin bo‘lur va ul nima topilg‘ach, ul ma’noni zikr qilurlar va o‘shal tariqa ani yana istagancha takrorlarlar. Bu arab fusahosining urfidur” [9, Atoullo Husayniy, 1981: 174].*

Ko‘rinadiki, mazkur san’at ancha murakkab va turkiy adabiyotda noyob hisoblangan. Atoulloh ham buning arab adabiyotiga xos, arab shoirlari tomonidan ko‘p ishlatilgan badiiy san’at ekanligini ta’kidlaydi. Turkiy she’riyatda esa tarjeh boshqacha xarkterga ega, tarje’band xususiyati bilan aloqadorlikda talqin etiladi. Ammo ko‘rinadiki, Husayniy mazkur noyob san’atning go‘zal namunasini yaratib, turkiy she’riyat balog‘atiga munosib hissa qo‘shadi.

Navoiy Husayniy mahoratini izohlar ekan, ma’no nodirligiga ham e’tibor qaratadi: *“...manzurni ko‘rmak muyassar bo‘lmasa, anga nazar tushgon yerni ko‘rmak orzu qilibdur. Bu nodir ma’nidur:*

Bir nafas ul oyni ko‘rmak chun emasdur dastras,

Oni ko‘rgan yerin, vah, borib ko‘royin bir nafas” [Alisher Navoiy, 1997: 182].

Navoiy Husayniy ijodidagi noyob topilmalarga to‘xtaladi. Jumladan, quyidagi bayt talqini ham xuddi shunday nodirlikni namoyon etadi:

“Gulro‘yning g‘unchadek og‘zi va ruxsori uzra ko‘rganin zarra xurshed yuzida paydo bo‘lg‘onga xo‘b tashbih qilibdur:

O‘ylakim, xurshedi tobi zarrani paydo qilur,

G‘uncha og‘zing sirrini ham gul yuzung go‘yo qilur” [Alisher Navoiy, 1997: 180].

Navoiy Husayniyning she’riyatni nozik anglashini, adabiy jarayonni sinchkovlik bilan kuzatib, tanqidiy va ijobiy fikrlarini samimiy bayon etganini ta’kidlaydi. Husayniy shoir sifatida she’r badiiyatiga juda e’tiborli bo‘lishi bilan birga, har bir asarda aytilgan fikrning mantiqiy mukammal bo‘lishini ham nazardan qochirmagan. Aslo ma’no va mantiqni san’atpardozlik soyasida qoldirmagan. Buni Xusrav Dehlaviyning g‘azaliga “Majolis”da keltirilgan munosabati yaqqol ko‘rsatadi.

Xusrav, go‘zal mahbuba yomg‘irda sirg‘alib yiqilayotganda, yomg‘ir torlarini ushlab, nozikligidan yiqilmay qolganini tasvirlaydi. Husayniy buni eshitib, mantiqqa zid ekanligini sezadi. Ammo Navoiy xotirlashicha, she’rga munosabatini darrov emas, balki do‘stini ayab, boshqalar oldida noqulay vaziyatga tushmasligi uchun, ertasiga, o‘shandayam, shoir o‘zi sababini so‘raganda, nimtabassum va iltifot bilan mantiq buzulganini, yomg‘ir torining pastga qarab tushayotgani sababli u mahbubani yiqilishdan saqlayolmasligini so‘zlaydi va noyob hamda mantiqqa asoslangan, mahorat bilan aytilgan bir baytini keltiradi. Bayt ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Husayniy devonidagi g‘azallarning barchasi shu vaznda. Bu, mazkur bayt Husayniy qalamiga mansub, degan xulosaga kelishimizga asos beradi:

Za’fdin kulbamda qo‘pmoq istasam aylar madad,

Ankabute rishta osqon bo‘lsa har devorg‘a [Alisher Navoiy, 1997: 208].

Shu voqea bayonida, uning insonlar bilan muomala munosabatda nihoyatda iltifotli va madaniyatli bo‘lganini kuzatamiz. Bu voqea Husayniyning shoirlik iste’dodi, did va tab’ining yuksakligi hamda axloqiy komilligidan dalolat beradi. Navoiy shu kabi ayrim voqealar tafsiloti orqali Husayniyning insoniylik fazilatlarini ham ochib berishga erishadi.

Ko‘rinadiki, Navoiy Husayniy she’riyatini yuksak qadrlagan. Uni, she’riyatni nozik idrok etuvchi adabiyotshunos olim sifatida, ob’ektiv baholagan. Uning fikr-mulohazalari bilan tanishib, Husayniy faqat podshoh bo‘lgani uchungina, to‘liq bir majlisni unga bag‘ishlamaganini anglaymiz. U shoir sifatida ham shunga munosib mahoratga, ijodiy mukammallikka egaligini his etamiz. Husayniy she’riyati va iste’dodi Lutfiy, Navoiy, Jomiylardan qolishmasligiga amin bo‘lamiz. Bu holat

o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga katta vazifalarni qo‘yadi. Kelajakda uning badiiy mahoratini maxsus o‘rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. - Тошкент: Фан, 1997. – б. 281

2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 3-том. - Тошкент: Фан, 1988. – б. 613.

3. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 1-том. - Тошкент: Фан, 1987. – б. 722.

4. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Бадойиъ ул-васат. МАТ. 4-том. - Тошкент: Фан, 1989. – б. 540.

5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. МАТ. 5-том. - Тошкент: Фан, 1989. – б. 558.

6. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – б. 350.

7. Адизова, И. (2021). An overview of cyber-crimes and its impact on economy Uvaysi’s role in Epic writing. *Academia: An International Multidissiplinary Research Journal, 11*(10), 2293-2302.

8. Адизова, И. (2019). The Genre of musallas in Uzbek Classical literature. Theoretical *& Applied Sciense*, (12), 648-651.

9. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – б. 395.

10. Девони Султон Ҳусайн Бойқаро. Йиғма-қиёсий матн. Нашрга тайёрловчи Ҳуснигул Жўраева. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – б. 168.

11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.

12. Лутфий. Девон. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965.

12. Шамсиев П., Ибрагимов С. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – б. 782.

13. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. Қайта нашр. – Тошкент: Академнашр, 2013. – б. 406.

14. Жумахўжа, Н. (2019). Талқинларда шоирона шуур ва илмий тафаккур. *Олтин битиглар–Голден Ссриптс*, *2*(2).

15. ЖУМАХЎЖА, Н. (2024). НАВОИЙНИНГ МУСАЛСАЛ ҒАЗАЛЛАР ЯРАТИШ МАҲОРАТИ. *Алишер Навоий анд 21 ст сентурй*, *1*(1).

FURQAT MUSABBA'SINING JANR XUSUSIYATLARI

Dilnavoz YUSUPOVA,
Tosh DO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: mumtoza_dil@mail.ru **Tel:** +97 7066725

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek ma’rifatparvar adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning adabiyotshunosligimizda nisbatan kam o‘rganilgan musabba'sining janr xususiyatlari tahlilga tortilgan. Maqola muallifi musabba'ning mazmun mohiyati va badiiy jihatlariga e'tibor qaratib, ushbu she'r qofiyalanish tizimiga ko‘ra mumtoz poetikada yangi hodisa ekanligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: musammat, musabba', raviy, murdaf, tasavvuf, tariqat, ijod konsepsiyasi

Abstract: This article analyzes the thoughts related to the relatively little-studied genre of musabba’ by Zakirjan Halmuhammad Furkat in our literary studies. The author of the article focuses on the content and artistic aspect of musabba’ and proves that this poem is a new phenomenon in classical poetics in terms of rhyme system.

Keywords: musammat, musabba’, ravi, murdaf, sufism, tarikat, concept of creativity.

Kirish

O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodi ma'naviyatimiz tarixida o‘ziga xos hodisa hisoblanadi. Bolalikdan mumtoz adabiyot namoyandalari: Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, So‘fi Olloyor asarlariga oshno bo‘lib ulg‘aygan shoir 9 yoshida Navoiyning “Chor devon”, ya'ni “Xazoyin ul-maoniy” asarini o‘qishga kirishadi. Shoirning o‘zi bu haqda shunday yozadi: “Chun umrim shohidi to‘qquz parda orqasidin chehra ko‘rguzdi, Amir Alisherning turkiy devonlarikim, Navoiy laqabdur, zabonim qushi ul xirmandin donachin o‘ldi”. Xuddi shu davrda Alisher Navoiyni tush ko‘rganligi, undan she'r yozishga oq fotiha olganligi va buyuk shoirga uvays shogird bo‘lganligi haqida manbalarda ma'lumotlar bor [Жабборов (1), 2004: 75].

Zokirjon Furqat yozgan she'rlarini bir majmuaga to‘plab, devon tuzgan. Lekin afsuski bu devon saqlanib qolmagan yoki hanuz topilmagan. Shoir she'rlari bizgacha asosan qo‘lyozma va toshbosma bayozlar, “Turkiston viloyatining gazeti” orqali yetib kelgan. Olimlarning ta'kidlashicha, shoir lirik turning g‘azal, mustazod, murabba', muxammas,

musaddas, musabba', tarji'band, masnaviy, qasida, tuyuq, fard kabi janrlarida ijod qilgan bo‘lib, she'riy merosi 8800 misradan oshadi [Расул, 1988: 26]. Ushbu janrlar orasida shoirning “Mo‘tabar ko‘z yoshi...” deb boshlanuvchi musabba'si she'rshunoslik nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilmaganligi bilan alohida ajralib turadi.

Mumtoz adabiyot tarixida musabba' janri

Musabba' (arab. – yettilik) musammat usulidagi bandli she'r shakli bo‘lib, har bir bandi 7 misradan tarkib topadi. Odatda, uning birinchi bandidagi barcha misralar o‘zaro uyg‘un tarzda qofiyalanadi, keyingi bandlarning esa 6, ba'zan 5 misrasi o‘zaro qofiyalanib, so‘nggi misralar birinchi banddagi misralarga ohangdosh bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, musabba' janrining qofiyalanish tizimini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a...
a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-a-a...

Fors-tojik, ozarbayjon klassik adabiyoti tadqiqotchilari bu adabiyotlarda musabba’lar umuman yaratilmaganligini qayd etadilar [Orzibekov, 2006: 101]. Ammo izlanishlarimiz jarayonida Fuzuliyning forsiy devonida bir musabba' borligi ma'lum bo‘ldi [https://ganjoor.net/fozooli/divan/ezafat/sh2]. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan fors-tojik shoiri Muxlis Badaxshoniy devonida ham musabba' janriga doir she'r uchraydi[1].

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida musabba' yozgan shoirlar barmoq bilan sanarli. Mashrab, Huvaydo, Komil, Miriy, Tabibiy kabi ijodkorlar she'riyatida ushbu janrning ayrim namunalarini uchratish mumkin. Musabba'larda ba'zan so‘nggi ikki misraning tarje' sifatida takrorlanishi ham ko‘zga tashlanadi. Bu janrdagi she'rlar asosan tab'i xud, ya'ni mustaqil tarzda yozilib, ularning tazmin asosida yaratilgan namunalari kuzatilmaydi. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” (1436/1437) asarida she'r nav'lari haqida so‘z yuritar ekan, musammatlarning besh turi: *murabba', muxammas, musaddas, musamman* va *muashshar*ni keltirib o‘tadi, musabba' haqida ma'lumot bermaydi [Тарозий, 1996: 54-57]. “Aftidan, musabba' bandlarida yetti misraning bo‘lishi, har bandda qariyb o‘xshash, bir-biriga ohangdosh so‘zlarni topib ishlatishning qiyinchiligi, shoirlarning bu shaklga kamroq murojaat qilinishlariga sabab bo‘lgandir” [Orzibekov, 2006: 102].

Furqat musabba'sining mazmun-mohiyati haqida

[1] Ushbu ma'lumotlarga diqqatimizni qaratgan olim, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent U.Mahmudovga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Furqat lirik merosini tahlil qilish mumtoz adabiyotimiz tarixida musabba' yozgan shoirlar ro‘yxatini bittaga ko‘paytirish imkonini beradi, zero, mumtoz poetikaga doir tadqiqotlarda Furqatning nomi musabba'navis shoirlar qatorida tilga olinmagan. Shoirning ijod konsepsiyasi, hayot falsafasini teranroq anglashda uning ushbu janrdagi she'ri muhim ahamiyatga ega. Musabba' tasavvufiy-falsafiy mavzuda bitilgan bo‘lib, unda tariqatdan yaxshi xabardor bo‘lgan va muayyan ma'noda uni hayot tarziga uyg‘unlashtirgan shoirning zamondoshlariga xitobi o‘z ifodasini topgan. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosini maxsus tadqiq etgan olim, professor N.Jabborovning ma'lumotiga ko‘ra, mazkur musabba' arab mamlakatlarida yozilgan. “Agar Furqatning 1892-yil fevral oyining oxirida Makkai mukarramaga borganligi, shoir Bo‘mbayga kelgan muharram oyi 1892-yil avgustiga to‘g‘ri kelishi hisobga olinsa, shoir arab mamlakatlarida olti oydan ko‘proq bo‘lgan, deb hisoblash mumkin. Bu muddat davomida Furqat qizg‘in ijodiy faoliyat bilan shug‘ullandi. 216 misradan iborat “Hajnoma”si, musabba' janridagi falsafiy she'ri, diniy-ma'rifiy mavzudagi ko‘plab g‘azallari shoirning arab mamlakatlaridagi ijodi samarali bo‘lganligini ko‘rsatadi” [Жабборов (2), 2004: 98]. Demak, aytish mumkinki, bu davrda shoirning tasavvuf haqidagi qarashlari kamolot kasb etgan, muayyan tizimga solingan, ta'bir joiz bo‘lsa, ijodiy konsepsiya darajasiga ko‘tarilgan edi.

Musabba' quyidagi band bilan boshlanadi:

Mo‘tabar ko‘z yosh Haq nazdida durri nobdin,
Ham libosi faqr behtar shol ila sinjobdin,
Bistari qolinda rohat birla ko‘rgan xobdin
Ko‘yi uzlat bo‘ryosi xo‘bdur har bobdin,
Bor emish bir kun azobi, vahm qil Vahhobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yalog‘i ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq [Furqat, 2021: 118].

Unga ko‘ra, Haq nazdida to‘kilgan ko‘z yosh har qanday qimmatbaho, sof durdan ko‘ra mo‘tabarroq. Faqrlik libosi shol (yungdan to‘qilgan kiyim) va sinjob (silovsin terisidan tikilgan po‘stin)dan yaxshiroqdir. Qalin ko‘rpa-to‘shakda rohatlanib yotib ko‘rilgan tushdan ko‘ra uzlat ko‘chasining bo‘yrasi har jihatdan a'lo. Bu olamda rohat-farog‘atda yashashning bir kun alamli azobi ham borki, banda buni har onda anglashi, Vahhob (olihimmat) bo‘lgan Zotdan andisha qilmog‘i lozim. “... shoir nazdida, ahli dunyo, ya'ni dunyoparastlar suhbatida sharobi nob-qizil may ichgandan ko‘ra it yalog‘idan qon ichgan afzalroq! (It, yaloq, qon so‘zlari hosil qilgan tanosib badiiyatni ta'minlashda alohida

o‘rin tutgan). Chunki ahli dunyodin vafo kutib bo‘lmaydi. Ular dunyo matohiga egalik qilish uchun har qanday tubanlikdan-da qaytmaydi. Mana Furqat nazarda tutgan hayot falsafasi. Bu yerda “sharobi nob” va “qip-qizil qon” – istiora. Shuning uchun ham ularni faqat zohiriy ma'nodagina tushunish to‘g‘ri emas. Jumladan, “sharobi nob”da umuman dunyoparastlik, hirs-u havas ma'nolari ham mavjud” [Жабборов (2), 2004: 176].

Ushbu band mazmun-mohiyati bilan Alisher Navoiyning

Har gadokim bo‘riyoi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidan hojat emas xil'at anga,

deb boshlanuvchi g‘azalini yodga soladi. Bu tasodifiy emas, albatta, chunki Furqat yuqorida aytganimizdek, ijod bobida Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan, uning ko‘p g‘azallariga nazira va taxmislar bog‘lagan. Mazkur musabba' ham Navoiy g‘azali singari tazod-zidlash usuli asosida yozilgan. Agar Navoiy g‘azalida shoh va darvesh obrazlari o‘zaro qarshilantirilgan bo‘lsa, Furqat musabba'sida dunyo va tariqat ahli bir-biriga zid qo‘yiladi. “Navoiy uchun darvesh ideal, mahbub va ma'shuqdir. Shu bois shoir shoh va darvesh orasidagi tubsiz jarlikday ko‘ringan tafovutni bir-birini rad etuvchi dalil-misollar bilan ajoyib tarzda, hayajon, shavq bilan qiyoslab ko‘rsatar ekan, tasavvufning jasoratbaxsh g‘oyalaridan biri – darvesh shohdan afzal va ulug‘, shuning uchun darvesh shohga emas, shoh darveshga muhtoj, demak shohlar darveshlarga xizmat qilishi kerak, degan fikrni ehtirosini yashirmay, qizg‘in ma'qullaydi” [Комилов, 2012: 125] . Furqat ham o‘z musabba'sida bu dunyoning hoy-u havaslariga mahliyo bo‘lgan insondan ko‘ra “dunyoni istamaydigan”, “go‘shai mehrobdan chiqmaydigan”, “xotiri mahzun”, “yemishi laxti jigar, ichmishi xunob” bo‘lgan solikni afzal ko‘radi, zero “Furqat tariqat ahlidan bo‘lgan. Sakkiz yoshidanoq Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”ini asliyatda mutolaa qilgan, tasavvuf ta'limotining inson kamolotida tutgan muhim ahamiyatini bolaligidanoq anglagan” [Жабборов (2), 2004: 114] .

Ikkinchi bandda shoirning so‘fiyona qarashlari yanada kuchayib boradi:

Mardi Haqsan, chiq aloyiq nomliq girdobdin,
Gardaning xam qil ibodatqa rahi odobdin,
Qil ajal yodini ketmasdin burunroq tobdin,
Och ko‘zingni ravzaning g‘aflatga to‘lmay xobdin,
Chiqti bo‘yla fole neku naqshi usturlobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yalog‘i ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq [Furqat, 2021: 118].

Shoir *nido* san'ati vositasida muxotab (tinglovchi)ga murojaat qilar ekan, dunyo aloqasidan qutulishga, ya'ni dunyo mol-u matosiga mayl qilmaslikka chaqiradi, zero bu mayl insonni girdob qa'riga yetaklaydi. Solik bo‘ynini ibodat qilish uchun egishi, toki tanida jon bor ekan, g‘aflat uyqusi uni domiga tortmasdan burun ajalni eslashi, aniqrog‘i, o‘lmasdan burun o‘lmog‘i lozim. "O‘lmasdan burun o‘lmoq" – tirik turib nafsni o‘ldirishdir, zero, nafsning yomonligini anglagan banda unga qarshi kurashadi va shu kurash uning o‘z Yaratganini tanishiga ko‘maklashadi. Dunyo aloqasidan qutulgan oshiq inson tariqat bosqichlarini o‘tayotib, o‘zidagi yomon xislatlarini tark eta boradi va yaxshi sifatlarni kasb etadi. Natijada boylik tarki, nafs tarki yomon xulq-atvor, zolimlik va shafqatsizlikni tark etish bilan baravar davom etadi [Комилов, 2009: 227]. Zero, shoir takror ta'kidlaganidek, dunyo ahli bilan suhbat qurmoqdan ko‘ra it yalog‘idan qon ichgan afzalroq!

Keyingi bandlarda shoir haqiqiy solik kavsar suvini oltin qadahda tutilgan gulobga almashtirmasligi kerakligi, zero, chin baqoga mahzun ko‘ngil orqali erishilishini ta'kidlar ekan, bu dunyoning o‘tkinchiligini bilagining kuchiga ishongan Rustam-u Suhroblar, Iskandar-u Dorolarning hayot deb atalmish changakning bir eshigidan kirib, boshqasidan chiqib ketganlari bilan dalillaydi:

Bu raboti ko‘hnadur qolgan necha arbobdin,
Zo‘ri bozuga ishongan Rustam-u Suhrobdin,
Bahman-u Jamshid ila Iskandar-u Dorobdin,
Chiqmadi hargiz alar bu g‘amkada qullobdin.
Chiqtilar bir bobi digardin, kirib bir bobdin.
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yalog‘i ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq [Furqat, 2021: 118].

She'r shu tariqa dunyo va tariqat ahliga xos xususiyatlar qiyosi yo‘sinida davom etadi. Musabba'ning so‘nggi bandida shoir bu nayrangboz, hiylagar falak ko‘p insonlarni o‘z domiga ilintirib, sargardon qilishi va oxir-oqibat “tashnalar” bu teskari aylanuvchi falakning ko‘zasidan bir tomchi ham icholmay, noumid o‘tkanlari bilan bog‘liq qarashlarini bayon qilar ekan, endi musabba'dagi tarje' bayt yakuniy xulosa – hukmday jaranglaydi:

Qildi sargardon falak ko‘p elni log‘-u lobdin,
Shu'lai kavkabni o‘tkargum debon mahtobdin,
Qatra topmay tashnalar bu ko‘zai do‘lobdin,
Fol aylab, bu nechuk deb, Furqatiy, dastlobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,

It yalog‘i ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq [Furqat, 2021: 119].

Musabba' poetikasiga doir ayrim kuzatishlar

Furqatning ushbu musabba'si 7 band, 49 misradan iborat. Har band so‘ngidagi ikki misra o‘zaro takrorlanib keladi, shu ma'noda ushbu musabba'ni *mutakarrir* (tarje' – naqorat baytga ega) musabba' deb atash mumkin. Musabba'ning 7 banddan iborat bo‘lishida ham muayyan ma'no bor, ya'ni shoir birinchi bandning har misrasida bayon etgan fikrlarini keyingi bandlarda ketma-ket ochib, sharhlab boradi. Musabba'ning qofiyalanish tizimi ham o‘ziga xos. Shoir 7 bandning deyarli har bir misrasida (so‘nggi misradan tashqari) ayni raviy bilan yakunlanuvchi murdaf qofiyani qo‘llagan, ya'ni musabba' boshdan-oxirigacha bir xil qofiya tizimiga bo‘ysundiriladi, boshqacha aytganda, ushbu she'r *musabba'i zebqofiya* hisoblanadi. Biz manbalarimiz doirasida bunday qofiyalanishga ega bo‘lgan musammat turidagi boshqa she'rni uchratmadik[1]. Tasavvur hosil bo‘lishi uchun musabba'ning qofiya tizimini jadvalda keltiramiz:

1-jadval

1-band	2-band	3-band	4-band	5-band	6-band	7-band
a	a	a	a	a	a	a
a	a	a	a	a	a	a
a	a	a	a	a	a	a
a	a	a	a	a	a	a
a	a	a	a	a	a	a
a	a	a	a	a	a	a
b	b	b	b	b	b	b

Endi musabba' misralarida keluvchi qofiyadosh so‘zlarning o‘zini ham ko‘zdan kechirsak:

2-jadval

1-band	2-band	3-band	4-band	5-band	6-band	7-band
nobdin	girdobdin	unnobdin	arbobdin	shobdin	noyobdin	lobdin
sinjobdin	odobdin	jullobdin	Suhrobdi	mehrobdi	kimxobdi	mahtobdi
xobdin	tobdin	ardobdin	n	n	n	n
bobdin	xobdin	tavvobdi	Dorobdin	xunobdin	asbobdin	do‘lobdin
Vahhobdi	usturlobdi	n	Qullobdin	ijobdin	mizrobdin	dastlobdin
n	n	ahbobdin	bobdin	shodobdin	zardobdin	dastlobdin
nobdin	nobdin	nobdin	nobdin	nobdin	nobdin	nobdin
yaxshiroq	*yaxshiroq*	*yaxshiroq*	*yaxshiroq*	*yaxshiroq*	*yaxshiroq*	*yaxshiroq*

[1] Mumtoz adabiyotimiz tarixida g‘azali zebqofiya degan g‘azal turi mavjud bo‘lib, Sayfi Saroyining “erur” radifli g‘azali shunday usulda yozilgan edi.

E'tibor qaratilsa, musabba' misralarida *nobdin, xobdin, bobdin* qofiyalari ikki martadan qo‘llangan. Bu qofiya takrori emas, balki raddul qofiya san'atining namoyishidir. Ma'lumki, raddul qofiya g‘azal yoki qasida matla'idagi qofiyaning undan keyingi baytlardan birida yoki maqta'da takrorlanishiga asoslangan badiiy san'at bo‘lib, XVI asrgacha yaratilgan poetikaga doir manbalarda “*iyto*” deb yuritilgan. Ularning deyarli barchasida *iyto* qofiya nuqsonlaridan biri sifatida e'tirof etilib, agar takrorlanuvchi qofiyalar orasida muayyan masofa bo‘lsa (g‘azal va qit'ada 7 baytdan keyin, qasidada esa 14-20 baytdan keyin) yoki she'r ikki matla'ga ega bo‘lsa (she'r o‘rtasida yana bir qo‘sh qofiyalanuvchi bayt kelsa), *iyto*dan foydalanish mumkin degan umumiy xulosa aytiladi. Alisher Navoiy she'riyatida esa radd ul-qofiya shoirning maqsadi, tasvir jarayoni bilan aloqador san'at sifatida qo‘llanilib, Navoiy qofiyaga shunchaki shakl bilan bog‘liq hodisa sifatida qaramaydi, balki ma'noni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita sifatida yondashadi [Yusupova, 2022:219]. Aynan shu holatni biz Furqatning tahlil qilayotganimiz musabba'sida ham uchratamiz. Furqat Navoiyning uvays shogirdi sifatida bir qofiyani ikki marta qo‘llash orqali muayyan fikrning takrorini emas, balki yangi nutqiy jarayon doirasida yangicha uslubiy ko‘rinishlar ifodasini vujudga keltiradi. Fikrimizni asoslash uchun ikki marta qo‘llanilgan qofiyalarni misralar kesimida qiyoslasak:

1-band, 1-misra: Mo‘tabar ko‘z yosh Haq nazdida durri nobdin,

1-band, 6-misra: Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin.

Bunda birinchi bandning 1-misrasida qo‘llanilgan *nob* qimmatbaho dur ma'nosini o‘zida mujassam etsa, 6-misradagi *nob* tiniq, sof ma'nosini aks ettiradi. Yoki

1-bandda: Bistari qolinda rohat birla ko‘rgan xobdin

2-bandda: Och ko‘zingni ravzaning g‘aflatga to‘lmay xobdin.

Bunda birinchi banddagi xob so‘zi tush, ikkinchi bandda esa uyqu ma'nolarini ifodalab kelgan.

Keyingi misollarda esa qofiyadosh so‘zlar o‘zaro tajnis san'atini hosil qilgan:

1-bandda: Ko‘yi uzlat bo‘ryosi xo‘bdur har bobdin (har jihatdan)

4-bandda: Chiqtilar bir bobi digardin, kirib bir bobdin (eshikdan)

Ko‘rinadiki, Furqat jami 42 misrada “b” raviysidan yasalgan murdaf qofiyani qo‘llagan. Bu shoirning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi, chunki bir raviydan yasalgan qofiyadosh so‘zlarning o‘ndan ortig‘ini

topish va she'rda istifoda etish uchun yetarlicha so‘z boyligiga ega bo‘lmoq lozim.

Xulosa

Furqatning mumtoz adabiyotimiz tarixida kam qo‘llanilgan musabba' janridagi she'ri shoirning dunyoqarashi, hayot falsafasi, ijod konsepsiyasini ifodalash bilan bir qatorda badiiy mahorati va salohiyatini namoyon qiluvchi ijod namunasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma'rifatparvar adibning tasavvuf ahlidan bo‘lganligini yana bir karra asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жабборов Н. Фурқат / Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти (дарслик). – Тошкент: Маънавият, 2004.
2. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филология фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2004.
3. Расул Х. Фурқат асарларининг йиғма илмий-танқидий матни ҳақида / Фурқат ижодиёти. Тошкент: Фан, 1990.
4. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун-ул балоға. Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов. – Тошкент: Хазина. 1996.
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014.
7. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
8. Furqat Zokirjon. Ishqingda kuyib, jono… (Nashrga tayyorlovchi N.Jabborov). – Toshkent: Adabiyot, 2021.
9. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009.
10. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: Tamaddun, 2012.
11. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Tamaddun, 2022.

FORSIY DEBOCHALAR VA ULARNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Karimova Farida Isakovna,
NamDU professori v.b., filologiya fanlari doktori
E-mail: faridakhank@mail.ru
Tel: +998902144108

Annotatsiya: Maqolada fors-tojik she’riyatidagi devonchilik tarixi va shu jarayonda debochanavislik an’analarining yuzaga kelishi hamda uning rivoji xususida fikr yuritilgan. Ma’lumki, debochalar shoir hayoti va ijodini o‘rganishda eng ishonchli manbadir. Shu bois debochalardagi shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar, devonning yaratilish tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari, shoirning adabiy-estetik qarashlari kabi masalalarni o‘rganish dolzarblik kasb etadi. Sharq adabiyotida yaratilgan Hakim Sanoyi, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Fuzuliy, Ahmad Tabibiy, Tog‘aymurod Mirzo Siddiq Fano kabi ijodkorlarning forsiy debochalarini tadqiq etish debochanavislik taraqqiyotini o‘rganishga yordam beradi.

Annotation: The article discusses the history of devanism in Persian-Tajik poetry and the reconciliation of debochanavis traditions in this process and its development. As is known, debochanavis are the most reliable source for studying the life and work of a poet. Therefore, information about the life and work of a poet in debochanavis, the history of creating the specific features of the devan, the creation of its own characteristics, the ability to study issues such as the poet's equity and aesthetic views, etc. The study of Persian debochanavis by such creators as Hakim Sanoyi, Khusrav Dehlavi, Abdurakhmon Jomi, Muhammad Fuzuliy, Ahmad Tabibiy, Togaimurad Mirzo Siddiq Fano helps to change the development of debochanavis.

Kalit so‘zlar: devon, devonchilik tarixi, debocha, hamd, na’t, devonning yaratilish tarixi, debocha yozish an’anasi.

Keywords: divan, history of divanism, debocha, hamd, nat, history of the emergence of divanism, tradition of writing prefaces.

Sharq adabiyoti tarixida shoir hayoti va ijodini o’rganishda muhim adabiy manbalardan biri hisoblangan debochalar uzoq tarixiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tdi. Debochalar devonlarga boshlanma manba – bir ochqich sifatida bitiladi va boshqa asarlardan masalalarning qo’yilishi va mazmuni, kompozitsiyasi, bayon uslubi kabi ko’pgina jihatlari bilan tubdan farq

qiladi. Ayniqsa, debochalar shoirning tarjimai holiga oid ma’lumotlar, adabiy faoliyati, asarlarining yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Debochalar eng avvalo o’ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo’lib, hamdu na’t bilan boshlanadi. Shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar, davr hukmdori madhi, shoirning o’z ustozlariga bo’lgan muhabbati, devon mundarijasi bilan tanishtirish kabi qator masalalar debocha kompozitsiyasida muhim o’rin egallaydi. Shuningdek, saxvu xatolar uchun uzrxohlik bilan yakunlanadi.

Fikrlar bayonidagi jimjimadorlik, obrazlilik, ya’ni dabdabali sharqona uslubning hukmronligi , nazm bilan nasrning qorishiq holda istifoda etilishi, ijodiy-biografik xarakterda bo’lishi, devonning o’ziga xos xususiyatlari, uning tuzilish tarixini bayon qilishga intilish, badiiy tasvir vositalarining qo’llanish doirasi kengligi va xilma-xilligi, xususan, saj’ san’atidan keng foydalanish kabi masalalar debochalarning muhim xususiyatlaridir.

Debochalar shakliy - poetik jihatdan ikki xil bo’ladi: nasriy va nazmiy debochalar. O’tmishda yaratilgan debochalarning aksariyati nasriy uslubda bitilgan. Nasriy debochalar tarkibida yuqorida ta’kidlaganimizdek, turli janrdagi she’riy parchalar ko’plab keltiriladi. Nazmiy debochalar esa kam uchraydi. O’zbek adabiyoti tarixida Shavqiy, Uzlat kabi shoirlar o’z debochalarini she’riy uslubda bitganlar. Debochalar shoir yo kotib, shuningdek, devonni tuzuvchi shaxs tomonidan yoziladi. Shuni ta’kidlash kerakki, dastlab kotib yoki devonni tuzuvchi shaxs tomonidan yozilgan debochalarda turli manbalarga asoslangan holda shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar keltiriladi, devonning tuzilishi va ko’chirilish sabablari izohlanadi, shu bois ularni so’zboshi deb atash ma’qul, degan fikrda edik. Debochalarni tadqiq etish jarayonida kotib yoki devonni tuzuvchi shaxslar tomonidan yozilgan debochalarda ham shoir tomonidan yozilgan debocha qonuniyatlariga amal qilish holatlarini kuzatdik . Bu jihatdan Hofiz Sheroziy devoniga do’sti Muhammad Gulandom tomonidan yozilgan debocha xarakterli. Muhammad Gulandom shoir o’limidan so’ng uning she’rlarini to’plab devon tuzgan va unga debocha yozgan. Yoki huddi shu devonga Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan Navoiyning zamondoshi Xoja Abdulloh Marvarid Bayoniy ham go’zal debocha yozgan. Shuningdek, XVIII asr oxiri va XIX asrning 60-yillarida Hoqon taxallusi bilan ijod qilgan Fathalishoh Qojorning topshirig’i bilan uning devoniga kotibi Muhammad Marvaziy tomonidan ko’tarinki uslubda debocha yozilgan.

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida devonlarga yozilgan ilk debochalar fors-tojik adabiyotida uchraydi. Ma’lumki, devon tuzish , asosan, X-XI asrlardan boshlangan. Ye.E.Bertelьs “Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturы” asarida XI asr shoirlari Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Mas’ud Sa’di Salmon, Sanoiy kabi shoirlarning to’liq yohud noto’liq nusxada bizgacha yetib kelgan devonlari haqida atroflicha ma’lumot beradi [3]. Bu davrda yaratilgan devonlarning boshida devon va uning muallifi, devonning yaratilishi haqidagi ma’lumotlarni berish an’anasi shakllana boshladi. Xususan, Anvariy, Xojui Kirmoniy, Salmon Sovajiy, Qosim Anvor kabi zabardast shoirlar devonlariga debocha yozdi.O’zR FA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida Anvariy devoni(inv. №238/1)ning 7b-8a, Xojui Kirmoniy devoni(inv.№ 159/IX)ning 93b-94b, Salmon Sovajiy devoni(inv.№ 2130)ning 1-a, Qosim Anvor devoni(inv.№ 926/III) 396b-398a sahifalarida debocha mavjud. Bu debochalar nazm va nasr aralash uslubda yozilgan. Hajman qisqa bo’lib, ularda ,asosan, shoirlar tarjimai holi va devonlarning yaratilishi haqidagi ayrim ma’lumotlar aks etgan.

Ye.E.Bertelьs Eron Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Sanoiy devonining qadimgi qo’lyozma nusxasida shoir tomonidan yozilgan nasriy debocha mavjudligi haqida xabar beradi[Бертелс,1960:438] . XI asr oxiri va XII asrning 1-yarmida yashab ijod etgan mashhur fors-tojik shoiri Hakim Sanoiy devoni nusxasi O’zRFA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida 760 inventarь raqami bilan saqlanadi.Murakkab va jimjimador nasriy uslub bilan yozilgan debochada shoir butun adabiy faoliyati davomida umidsizlikka tushganligi, do’sti va homiysi Ahmad ibn Mas’ud Mustavfiy unga taskin berganligi va tarqoq she’rlarini to’plab, devon tuzishga da’vat qilganligi haqida so’zlaydi.

Amir Xusrav Dehlaviyning lirik she’rlari jamlangan “Tuhfatus-sig’ar” (”Yoshlik tuhfasi”), “Vasatul-hayot” (”Hayot o’rtasi”), “G’urratul-kamol” (”Kamolotning boshlanishi”), “Baqiyaun-naqiya” (“Saralarning sarasi”)” “Nihoyat ul-kamol” (“Kamolot cho’qqisi”) nomli besh devoni mavjud. Bu devonlar Hindiston, Britaniya, Eron kutubxonalari, shuningdek, hamdo’stlik mamlakatlari kutubxonalari fondlarida saqlanadi. Adabiyotshunos olimlar Sh.Shomuhamedov va B.Musaevlar shoirning har bir devoniga nasriy debocha yozganligini ta’kidlaydilar[Шомуҳамедов,1971:36]. Lekin O’zRFA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondidagi qo’lyozmalarni o’rganish jarayonida “Tuhfatus-sig’ar” (O’zRFAShI, qo’lyozma, №9661/I), “Vasatul-hayot” (O’zRFAShI, qo’lyozma, № 9661/III), “G’urratul-kamol” (O’zRFAShI,

qo’lyozma, № 9661/VI, №178) devonlarining debochali nusxalari mavjudligi aniqlandi. Xusrav Dehlaviy hayoti va ijodini o’rganishda bu debochalarning ahamiyati kattadir.

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida Xusrav Dehlaviyning uchinchi devoni – “G’urrat ul-kamol” devonining nodir qo’lyozma nusxasi saqlanadi. Devonning 1a-60 b varaqlarida katta hajmda debocha berilgan. Shoir debochaning yozilish sababini shunday izohlaydi: “Bu debochani bezab tayyorladim va bu kitob kitobatida yashirin va mahfiy bo’lgan kayfiyat va kifoyatini sharh qildim” [Хусрав Деҳлавий, қўлёзма, 178:31a]. Bundan ko’rinadiki, Dehlaviy devonning o’ziga xos xususiyatlarini bayon qiladi va uni o’qiguvchilarga bir ochqich sifatida taqdim qiladi.

Debocha hamdu sano bilan boshlanadi, so’ng Muhammad pay\ambar va xalifalar madhi beriladi. Shoir hamdu na’tdan so’ng o’zining adabiy-estetik qarashlarini keng bayon qiladi. Ya’ni, so’z va she’r, nazm va nasr, til va uslub, san’atlar haqida atroflicha fikr yuritadi. Shuningdek, ustoz va shogirdlik munosabati, o’z ustozlariga muhabbati, asarlarining yaratilish tarixi, devon mundarijasi kabi masalalar ham debochada o’z ifodasini topgan.

Xusrav Dehlaviy debochasinint o’ziga xos xususiyatlaridan biri bayondagi jimjimadorlik, obrazlilik bo’lib, har bir fikrni turli xil o’xshatishlar, taqqoslashlar orqali ifodalashga intilish xarakterlidir. Ikkinchidan, debochalarda qo’yilgan har bir masala, ayniqsa, shoirning she’r, til, uslub va san’atlar haqidagi qarashlari juda keng va batafsil bayon etiladi. Uchinchidan esa, nazm va nasr qorishiq holda beriladi. Shoirning fikricha, “... nasrga dohil bo’lgan har bir nazm nasrga oroyish bo’ladi va nasr go’zalligini oshiradi” [Хусрав Деҳлавий, қўлёзма, 178:9a]. Umuman, “G’urrat ul-kamol” debochasini ilmiy va badiiy xarakterdagi katta bir asar deyish mumkin. Shoir birinchi va ikkinchi devon debochalarida ko’proq ijodiy-biografik ma’lumotlarni bayon qilishga e’tibor qaratsa, uchinchi devon debochasida, asosan, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etadi.

Fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy ham 1491 yilda Navoiyning taklifi bilan uch devonini “bir po’st ichida uch mag’iz yetishgani kabi” bir jildga jamlaydi va ularga debocha yozadi.

«Xamsat ul-mutahayyirin»da hikoya qilinishicha, Navoiy safardan qaytayotib Jomiy ziyoratiga tushadi. Jomiy unga o’z qo’li bilan bitilgan uchinchi devonini taqdim qiladi. Shunda Navoiy Mir Xusravdan boshqa hech kim o’z she’rlaridan “mutaaddid” devonlar tuzmaganligi va ularga

alohida nomlar qo’ymaganligini aytib, ustoddan o’z devonlariga munosib ot qo’yishni iltimos qiladi. Oradan ikki kun o’tgach, Navoiy yana Jomiy huzuriga boradi. Jomiy shoirning qo’liga devonlariga yozilgan debochani tutqazadi. Unda Jomiy Navoiyning taklifi bilan devonlarining har birini alohida nomlaganligini ham eslatgan edi.

Shuningdek, Jomiy ham Navoiyga o’zbekcha she’rlaridan alohida devonlar tuzib, ularni maxsus nomlar bilan atashni tavsiya qiladi: “Sen dag’i nazming turkcha alfozda chun mutaaddid bo’lubtur, sendag’i har birini bir ism bila mumtoz qil va har qaysini bir laqab bilan jilvasoz etgil” [Алишер Навоий,1999:69] .

Jomiy «Fotihat ush-shabob» debochasida bu voqeaning sodir bo’lgan vaqtini 897/1491 yil, deb ko’rsatadi. Demak, Jomiy turli yillarda tuzilgan uchala devoniga 1491 yilda debocha yozgan. Shunisi xarakterliki, debochalarda ta’rix sanъatini qo’llaydi va devonlarining tuzilgan yillarini aniq ko’rsatadi.

Jomiyning birinchi devoni «Fotihat ush-shabob»ga debocha yozilgan. Debocha hamdu na’t bilan boshlanadi. So’ngra shoir yillar davomida risola va masnaviy kitoblari, ijod daftarlari, qasida va g’azallardan tarqoq devonlar jamlaganligi to’g’risida so’zlaydi. Payg’ambar hijratiga 900 yil to’lishiga uch yilcha vaqt qolganda, ya’ni 897/1491 yilda Navoiyning taklifi bilan uch devonini bir jildga jamlaganligi va birgalikda ularni “Fotihat ush-shabob” (“Yoshlikning boshlanishi”), “Vositatul iqd” (“Dur shodasi o’rtalig’i”), “Xotimat ul-hayot” (“Hayot yakunlari”) deb atalganligi haqida ma’lumot beradi.

So’ngra Jomiy o’zining she’riyat, shoirlarning jamiyatda tutgan o’rni haqida adabiy-estetik qarashlarini bayon qiladi. Bu fikrlarini shoir ko’proq Xusrav Dehlaviy kabi Qur’on oyatlari bilan izohlashga, dalillashga intiladi. Keyingi o’rinlarda o’z taxallusining ikki jihati haqida gapiradi. Ya’ni shoir o’zining Jom viloyatida tavallud topganligi va Jom viloyatining shayxulislomi Ahmadi Jom tufayli o’z she’rlarida Jomiy taxallusini qo’llaganligini so’zlaydi.

Yuqoridagilardan ko’rinadiki, Abdurahmon Jomiy debochalari Xusrav Dehlaviy debochalaridan hajman qisqaligi va masalalarning qo’yilishi bilan bir muncha farq qiladi. Jomiy debochalarda, asosan, devonlarining yaratilishi tarixi, ularning nomlanishi va qachon tartib berilganligi, adabiy-tanqidiy qarashlari kabi masalalarni bayon etishga intiladi. Qisqa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiy debochalari Xusrav Dehlaviyning devonga debocha yozish sohasidagi an’analarining davomi edi.

Sharq adabiyotida zullisonaynlik, ya’ni ikki tilda ijod qilish an’anasi XV asrning 2-yarmi va XVI asrning 1-yarmida rivoj topdi. Bu an’ana keyingi asrlarda ham davom etdi. Turkigo’y shoirlar o’zbek va fors-tojik tillarida ijod qildilar, she’rlaridan devon tuzdilar hamda unga debocha yozdilar. Xususan, buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliy ikki emas, balki uch tilda – turkiy, fors-tojik va arab tillarida devon tuzgan. Turkiy[Фузулий,1968:17-24] va forsiy[Muhammet Nur Do’g‘an,1989:68-77] devoniga debocha bitgan. Har ikki debocha kompozitsiya va uslub jihatidan Alisher Navoiy yaratgan mumtoz debocha uslubiga juda yaqin. Fuzuliyning forsiy devoniga yozgan debochasi xuddi Navoiyning debochalari singari nasr va nazm uyg’unligi uslubida yozilgan. Debocha Navoiy debochalaridagi singari Ollohga hamd, Payg’ambar Muhammad (s.a.v.)ga na’t, shoirning hasbi holi tasviri hamda adabiy-estetik qarashlarining badiiy tasviridan tashkil topgan. Fuzuliyning turkiy va forsiy devonlariga yozgan debochalari shoirni anglash sohasida ham, adabiyotshunoslikning nozik qirralarini ochishda ham qimmatli ma’lumotlarga ega noyob adabiy manba hisoblanadi..

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab, ijod etgan Xorazm adabiy muhiti vakillaridan biri Ahmad Tabibiydir. U talantli lirik shoir bo’lsa-da, hozirgacha, asosan, “Majmuai si shuaro shohi payravi Firuz” nomli tazkirasi o’rganib kelindi. Ahmad Tabibiy sermahsul shoir bo’lib, o’zbek va tojik tillarida ijod qilgan. She’rlaridan besh devon tuzgan. Shoir devonlari tadqiqi masalasiga adabiyotshunosligimizda endi e’tibor qaratilmoqda. Devonlarning 3 tasi o’zbekcha, 2 tasi tojikchadir. Shoir O’zFAShI qo’lyozmalar fondida saqlanayotgan 7118-inventarь raqamli “Tuhfatus-sulton”devonida forsiy debocha,6226-inventarь nomerli “Munis ul-ushshoq” devonida esa turkiy debocha mavjud. Lekin har ikki debochaning mazmun-mohiyati bir-biriga yaqin. Shu bois shoir dastlab turkiy devonga debocha yozgan, so’ngra uni forsiyga o’girib, devonga kiritgan yoki aksincha bo’lishi mumkin.

Tog’aymurod Mirzo Siddiq Fano XVIII asrning oxiri XIX asrning 60 yillarida yashagan shoirdir. U uch tilda – o’zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. U Sharq adabiyotining Abdulqodir Bedil, Alisher Navoiy kabi buyuk salaflari va zamondosh shoirlar ijodidan bahramand bo’lgan, ilg’or an’analarni ijodiy davom ettirgan iste’dodli zullisonayn shoirdir. Lekin shoirning nomi, uning adabiy merosi ko’pchilikka tanish emas. Shoir devonlari O’zRFAShI va Tojikiston RFAShI qo’lyozmalar fondlarida saqlanadi.

O’zRFAShI qo’lyozmalar fondida 1030/II raqami ostida qo’lyozma mavjud. Qo’lyozmaning 255b-284a varaqlarida Fanoning turkiy devoni, 442b-480a varaqlarida esa forsiy devoni joylashgan. Qo’lyozmada Fano devonlari Soib Tabriziy, Tahsin, Kirmoniy devonlari, Vahshiyning “Nodir va Manzur”, “Xuldi barin”, “Farhod va Shirin” dostonlari bilan birgalikda kitobat qilingan. Fano forsiy devoniga debocha yozgan, lekin turkiy devonda debocha mavjud emas. Forsiy devon ko’tarinki va dabdabali uslubda bitilgan, zanjirband tashbehlaru saj’ bilan ziynatlangan debocha bilan boshlanadi. Debochada shoir o’zining tarjimai holi, she’riyat sohasiga kirib kelishi, unga homiylik qilgan shaxslar, devonning yaratilish tarixi, undagi she’rlarning mavzu doirasi, adabiy-estetik qarashlarini bayon qiladi.

Alisher Navoiy, asosan, turkiy devonlariga debocha yozganligi ma’lum. “Devoni Foniy”ga esa maxsus debocha yozmagan. Lekin devon tarkibidagi qasidalar to’plami – “Sittai zaruriya”ga qisqa debocha yozilgan. Debocha an’anaviy hamdu na’t bilan boshlanadi. Debochaninig mazmunidan ma’lum bo’lishicha, ustozi Abdurahmon Jomiy uni forsiyda yozishga chog’lagan: “...kaminai kamtaringa gohida so’z jilovini turkiy vodiydan forsiy tomonga o’zgartirishni va nazm tizginini turkona bayondan fors tiliga burishni amr qilardilar”. Lekin shoirning e’tirof etishicha,”...u hazratning tirikliklarida taqdir taqozosiga ko’ra u amrlarni ado etishga kirishilmadi” [Алишер Навоий, 2003:195]. Shoir Abdurahmon Jomiy vafotidan keyin Husayn Boyqaroning amri bilan bu ishga kirishganligini ta’kidlar ekan, qisqa muddatda bir necha qasidalarni qoralaganligini bayon qiladi. Shu o’rinda “Sittai zaruriya”ning tarkibiy tuzilishi xususida batafsil ma’lumot beradi. Debochadagi ma’lumotlarga ko’ra, mazkur turkum hijriy 902 milodiy 1497 yilda tartib berilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, “Sittai zaruriya” tarkibidagi “Ruh ul-quds” qasidasida keltirilgan ta’rixga ko’ra 1491 yilda yozilgan, “Tuhfat ul-afkor” esa 1476 yilda yozilganligi manbalardan ma’lum.. Debocha saxvu xatolar uchun uzrxohlik bilan yakunlanadi. Ko’rinadiki, “Sittai zaruriya” qasidalar to’plami bo’lganligi uchun ham debochada uning qonuniyatlariga to’la rioya qilishni o’z oldiga qo’ymagan. Debocha Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o’rtasidagi ijodiy hamkorlik munosabatlarini yoritishda, “Sittai zaruriya” tarkibidagi qasidalar haqida umumiy ma’lumot beruvchi manba vazifasini bajaradi.

Fors adabiyoti tarixida yaratilgan o’nlab debochalar mualliflarning hayoti va ijodi, ular yashagan davr tarixini to’laroq o’rganishda va yoritishda adabiy manbalardan biri sifatida muhimdir. Ayniqsa, ular

yashagan davr adabiy muhiti, ijodkor evolyutsiyasi va adabiy- estetik qarashlarini har tomonlama va qiyosiy o'rganish adabiyot tarixini qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitadi. Shuningdek, Sharq adabiyotidagi debochanavislik an'anasining yuzaga kelishi va rivoji masalasini o'rganishda ahamiyatlidir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Девони Фоний. МАТ. 20 жилдлик, 20-жилд. – Тошкент: Фан, 2003.
2. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1999.
3. Е.Э.Бертельс. Избраннные труды. История персидско-таджикской литературы. ИВЛ, М., 1960.
4. Фузулий. Девон. Асарлар. 2жилдлик, 1-жилд. – Тошкент:1968.
5. Muhammet Nur Do'g'an. Fuzulinin Poetikasi. – Anqara, 1989.
6. Ш.Шомуҳамедов, Б.Мусаев. Амир Хусрав Деҳлавий. – Тошкент: Фан, 1971.
7. Хусрав Деҳлавий. "Ғуррат ул-камол" дебочаси, ЎзРФАШИ, қўлёзма, инв. № 178.
8. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni ("Tazkirat ush shuaro"dan). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 224b.
9. Karimova F. Histori of divan introductions in the Eastern literature. Asian journal of Research № 10,2017. Japan, Osaka. Page. 93-104.
10. Karimova F. Praises about Hussein Boykaro in Alisher Navoi's "Khazoin ul-maoniy" collection. The American Journal of Interdisciplinary Innovations ans Research. Volume: 2 / Issue 12/ December 2020 // Impact Factor: 5.498 / Page: 122-127. ISSN 2642-7478.

"DEVON-U LUG'OT" SO'ZLARI UCHUN FIHRIST"NING YARATILISHI VA ASOS MANBASI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna,
Tosh DO'TAU professori v.b., filologiya fanlari doktori
E-mail: *hamroyevaorzigul@navoiy_uni.uz*

Annotatsiya: Abdurauf Fitrat ilmiy labaratoriyasini adabiyotshunoslik, tilshunoslikning turli sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi. Olimning tilshunoslikning leksikografiya yo'nalishidagi izlanishlari nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, adabiyotshunoslikning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, tarixiy poetika yo'nalishilari bilan uzviy bog'liq. Xususan, olimning

“Devon-u lug‘otit turk” asari tadqiqiga bag‘ishlangan ikki yirik asari: “Eng eski turk adabiyoti namunalari” va “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” garchi ikki turli janrdagi asarlar bo‘lsa-da, ularni lug‘at ilmi birlashtirib turadi. Olimning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi XX asr boshlarida yaratilgan ilk majmua bo‘lsa, “Devon-u lug‘ot” sozlari uchun fihrist” asar “Devon-u lug‘otit turk” asari uchun tuzilgan ilk indeks lug‘at sanaladi. Maqolada Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasidagi lug‘at qism “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” so‘zliklari bilan qiyosiy o‘rganiladi. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asarining yaratilishi, tarkibiy tuzilishi borasida to‘xtalinadi. Shu asosda olimning lug‘at tuzish printsipi, borasida ilmiy xulosalar taqdim etiladi. Tadqiq davomida statistik, sharhlash, komparativistik tahlil usul va metodlaridan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: majmua, lug‘at, lug‘atshunoslik, fihrist, indeks, adabiy parcha.

Annotation: Abdurauf Fitrat's scientific laboratory is organized by scientific research in various fields of literary studies and linguistics. The scientist's research in the field of lexicography of linguistics is inextricably linked not only with linguistics, but also with literary studies, literary theory of literary studies, literary history, literary criticism, and historical poetics. In particular, the scientist's two major works dedicated to the study of the work "Devon-u lug'otit turk": "Eng eski turk adabiyaty sampales" and "Devon-u lug'otit sozlari kun fihrist", although they are works of two different genres, they are united by lexicology. The scientist's complex "Eng eski turk adabiyaty sampales" is the first complex created at the beginning of the 20th century, while the work "Devon-u lug'otit sozlari kun fihrist" is considered the first index dictionary compiled for the work "Devon-u lug'otit sozlari kun fihrist". The article studies the dictionary section of Fitrat's "Examples of the Oldest Turkish Literature" in comparison with the dictionaries "Index for the Words of the Devon Dictionary". The creation and structural structure of the work "Index for the Words of the Devon Dictionary" are discussed. On this basis, scientific conclusions are presented regarding the scientist's principle of compiling a dictionary. During the study, statistical, interpretative, and comparative analysis methods and techniques are used.

Keywords: complex, dictionary, lexicography, index, literary fragment.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari turkiy dunyoning, tilshunoslik, adabiyotshunoslikning muhim birlamchi manbalaridan sanaladi. Shu bois necha asrlardan beri ayni asar adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, geografiya, tarix kabi turli fan sohalarining bir qancha tarmoqlari kesimida o‘rganilmoqda, tadqiq etilmoqda.

XX asr boshlarida davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatining o‘zgarishi, adabiy, ilmiy-madaniy sohalardagi tub burilishlar “Devon-u lug‘otit turk” asarining yangi tamoyil va uslublar asosida o‘rganish ehtiyojin tug‘dirdi. Bu davrning yirik olimlaridan biri Abdurauf Fitrat tadqiqotlarining asosi ham turkiy lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan – “Devon-u lug‘otit” turk asarining o‘rganilishi bilan bog‘liq. Abduraf Fitratning “Devon-u lug‘otit turk” asaridagi manzum parchalar tasnifiga bag‘ishlangan “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari turkiy adabiyotshunoslikdagi muhim voqealardan biri bo’ldi . Fitrat “Devon-u lug‘otit turk” asarining qachon va qayerda topilgani haqidagi dastlabki ma’lumotni asarning birinchi noshiri va ilk tarjimoni Rifat Kilislining “Yangi tong” gazetasida e’lon qilingan maqolasi orqali bayon qilgan .

Kilisli Rifat “Devon-u lug‘otit turk”ni nashrga tayyorlashda, Basim Atalay tarjima qilishda matndagi ayrim chalkash o‘rinlarni tuzatishga harakat qilganlar.

OzR FASHIda “Devon-u lug‘otit turk” asarining bir qancha toshbosma nusxalari mavjud bo‘lib, matbaa va nashr ishlari endi shakllana boshlayotgan bir davrda o‘zbek olimlarining “Devon”ni chuqurroq o‘rganishlariga zamin yaratgan. Toshbosmalarning aksariyati Istanbul nashri bo‘lib, Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasidagi parchalarni ayni shu toshbosmalarga asoslanib, taqdim qilgan. Inventar raqami 5201-3 bo‘lgan, 1914 –1916-yillarda nashr qilingan, 1106 sahifadan iborat toshbosma, 5206-3, 5204-5, 14345-47, 8999, 9000, 5206-8 inventar raqamli toshbosmalar, 20927 inventar raqamli hijriy 1333 yilda nashr qilingan, 20929 inventar raqamli hijriy 1335 yilda nashr qilingan litografiyalar Fitrat kabi olimlarni mumtoz namunalarni kitobxonga yetkazishga ilhomlantirgan. Fitrat “Devon-u lug‘otit turk” asari xususida, nazmiy parchalar va ularni tizimlashtirish borasida tadqiqotlar olib borar ekan, nazmiy parchalarning nasriy bayoni va parchalar uchun ishlab chiqilgan lug‘at qism olimning chin ma’nodagi adabiyotshunos ekanligidan dalolat beradi.

Olimning lug‘at ilmiga oid yana bir muhim asari “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” bo‘lib, asar OzR FASHIning Qo‘lyozmalar fondida

5046/1 inventar raqamli “Devon-u lug‘ot” sozlari uchun fihrist” sarlavhasi ostida saqlanadi.

Har bir so‘z qaysi jildda, sahifada ekanligi ko‘rsatilgan. Arabcha nashrning birinchi jildidagi so‘zlar daftarning 1–57, ikkinchi jilddagi so‘zlar 59–62, 74–83 sahifalarda, uchinchi jilddagi so‘zlar esa 62 –66, 83 sahifalardan keyingi betlarda berilgan[1]. “Devon” tadqiqotchilaridan H.Hasanovning fikricha, bu ko‘rsatkich 1924–1925-yillarda tuzilgan. Agar shu sana ilmda e’tirof etiladigan bo‘lsa, bu qo‘lyozma adabiyotshunoslikda “Devon” bo‘yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug‘at hisoblanadi. Qo‘lyozma 3 ta yirik asarni o‘z tarkibiga olgan, 190 sahifadan iborat matn ichida berilgan.

Qo‘lyozmadagi keyingi ikki asar Alisher Navoiyning “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari bo‘lib, bir-biridan farqli siyohlarda ko‘chirilgan. Tadqiqotchi Abdulla Nosirov qo‘lyozmaning so‘nggi qismida “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist”ni o‘rtoq Hanif 1963-yilda nashr qildirganini keltirib o‘tgan. Olim bu lug‘at Fitrat tomonidan tuzilgan deb taxmin qiladi, biroq noshir bu haqda hech qanday ma’lumot bermaganini keltirib o‘tadi. Qo‘lyozmaning 119-sahifasiga qadar qismi “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asari bo‘lib, lug‘at “Devon-u lug‘otit turk”ning har uch jildi uchun tuzilgan so‘zliklardan iborat. Lug‘atdagi so‘zlar alifbo tartibida keltirilgan bo‘lib, so‘zlar “Devon...”ning nechanchi jild va qaysi sahifada ishlatilgan alohida qayd etib borilgan. Lug‘atdagi tartib 1-, so’ng 2- va 3-jildda ishlatilgan so‘zlardan iborat. Qo‘lyozma oq muqova bilan qayta ta’mirlangan. “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari ko‘chirilgan sahifalarning qo‘lyozmaga biriktirilgani sezilib turadi. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asari ikki xil siyohda: asarning boshlang‘ich qismidan tortib “lom” harfigacha bo‘lgan sahifalar qora siyohda, keyingi sahifalardagi lug‘at so‘zlar to‘q pushti siyohda ko‘chirilgan. Sahifa ikki qismga ajratilib, so‘zlar ustun shaklida nechanchi sahifada keltirilganlik raqami bilan tartiblangan. Hatto bir sahifaning o‘zida bir necha marotaba ishlatilgan so‘zlar ham alohida-alohida ko‘chirilgan.

Kub [kub] كُب85
Kib [kib] كِب85
Kib [kib] كِب85
Kuj [kuj] كُج86
Kuj [kuj] كُج86

[1] Lug‘atdagi so‘zlar arab alifbosi asosidagi taqsimlangan. Bir harf bilan boshlanuvchi so‘zlarning uchala jilddagi ishlatilgan o‘rinlari keltirilib, keyin keyingi harfga o‘tilgan.

Kuj [kuj] كُج86
Kij [kij] 86 كِج

Lug‘atda so‘zlarning ma’nosi keltirilmagan, ular shunchaki sanab o‘tilgan, xolos. Qo‘lyozma o‘zbekcha nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo‘lib, qo‘lyozmaning ba’zi o‘rinlarida bo‘sh sahifalar keltirilgan. Ana shunday sahifalarda lotin yozuvida “fitrat” so’zining yozilishi mashq qilingan. Bu esa ushbu lug‘atning lotin yozuvi qabul qilinish arafasida tuzilgan, degan taxminni keltirib chiqaradi.

Lug‘at *be* harfidagi so‘zlarni keltirish bilan boshlanadi. ب*(Be)*, ت*(te)*, ج*(jim)*, خ*(xe)*, د*(dol)*, *zol*, س*(sin)*, ش*(shin)*, غ*(g‘e)*, ق*(qof)*,ك *(kof)*, ل *(lom)*, م*(mim)*, ه*(hoye havvaz)*, ا*(alif)*, ئ*(yo)* kabi harflar tartibida keltirilgan. Har bir harf alohida ajratilib, boshlanuvchi so‘zlar avval 1-, so‘ng 2- va 3-jildlarda ishlatilishiga qarab taqsimlangan. Lug‘at:

[1]ب*(Be)*, *1-جلد*
Bat [bät] بَت 26
Bit [bit] -بِت 269
Bir [bır] -بِر 271
Bis [bis] -بِس 275
Biz [bız] -بِز 273
Bush haliq [buş haliq] بُش حَلِق277
Bush [buş] بُش277
Bakxank [bakxank] بَكحَنك277
Buk [buk] - بُك279
Buk [buk] بُك279
Bul ot [böl āt] -بُل ات281
Ban [bän] - بَن283
Bart [bart] - بَرت286
Bart [bart] بَرت286
Burt tutti [börtt töttı] بُرت تُتّي286

tarzida boshlangan. Qora siyohda ko‘chirilgan so‘zlarga to‘q pushti siyohda ba’zi o‘rinlarda qo‘shimchalar kiritilgan. Ba’zi so‘zlarning usti o‘chirilgan, tuzatilgan. 2-jildda ishlatilgan *be* harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarga ushbu qo‘shimchalar kiritilgan:

Biltindi [biltindı] (?) بِلتِندي202
Bilmindi [bilmindı] بِلمِندي208
Burqimoq [börkimāq] بُرقِماق272
Bilkazmoq [bılkazmāq] بِلگَزماق274

[1] Bugungi alifbo va transkripsiya shakli qo‘shildi. Lug‘atdagi so‘zlar faqat arab yozuvi va betlardan iborat shaklda berilgan.

Bo’ynatmoq [bθynatmāq] بُيِنَتماق *287*
Buzmunhuq [bözmunhuq] بُزمُنحُق *287*

Bu kabi qo‘shimchalar kiritish holati juda ko‘p uchraydi. *ت(te),* harfiga oid so’zlar keltirilgan o‘rinlarda quyidagi so‘zlar qo‘shimcha tarzda alohida ustunda kiritilgan:

Talimsandi [talımsandı] - تَلِمسَندي *206*
Turumsandi [turumsandı] تُرُمسَندي
Tilimsindi [tılımsandı] تِلِمسِندي *208*
Tuzg‘urumsindi [tuzg‘urumsındi] تُزغُرُمسِندي *209*
Titru [tıtru] تِتِرُ *235*
Tasg‘anmoq [tasg‘anmāq] تَسغَنماق *272*
Tilqatmoq [tılqatmāq] تِلقَتماق

Lug‘atning ba’zi o’rinlarida esa so’zlar qalamda o’chirilgan.

Natak [natak] نتك *287*
Najuk [najuk] نجوك *329*
Nalun [nalun] نلون *329*
Narak [narak]- نرك *329*

Mim harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar keltirilgan o‘rinlarda sahifa 4 ustunga bo‘lingan va juda qisqa masofalarda so‘zlar joylashtirilgan.

Lug‘atda so‘zlar jildlar asosida tartib bilan taqsimlanish bilan birga, ularning joylashishida turkumlari ham e’tiborga olingan. Avval ot, sifat, ravish, olmosh turkumiga mansub so‘zlar keltirilsa, keyin fe’lga oid so‘zlar joylashtirilgan.

Mom [mām] مام *83*
Mam [mam] مم *84*
Mun [mun] مون *102*
Manqishlarig‘ [manqışlarıg‘] منقشلرغ *118*
Manyashlig‘ qo’y [manyaşlig‘] منيشلغ قؤي *118*
Mayaq [mayaq] ميق *125.....*
minkar [minkar] منكر *278*
mankku [mankku] منكؤ *280*
munklug‘ or [munklug‘ ār] منكلوغ ار *283*
munkiz kak [munkiz kak] منكز كك *287*
munkmak [munkmak] منكمك *290*
munkuqmoq [munkuqmāq] منكوقماق *292*
munkqarmoq [munkqarmāq] منكقرماق *294*
mankdashmak [mankdaşmak] منكدشماق *295*
mankashmak [mankaşmak] منكشماق *295*

tarzida keltiriladi. Bu tartib lug‘atning oxiriga qadar saqlangan.

Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning joylashishi, ishlatilishi, tanlanishi uslubi lug‘at Fitrat tomonidan tuzilganligidan dalolat beradi. Bu holat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining lug‘at qismini ushbu qo‘lyozma bilan solishtirganimizda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini 3 qismga ajratgan bo‘lib, majmuaning 3-qismi maxsus lug‘atdan iborat. Fitrat lug‘at qismda keltirilgan so‘zlarni “Devon-u lug‘otit turk” bilan yaqin davrlarda yaratilgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlardagi variantdoshlari misolida “Muqadimmat ul-adab” kabi lug‘atlardan foydalangan holda ma’nosini izohlashga harakat qilgan. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari nashrini amalga oshirgan Najib Osim yo‘l qo‘ygan xatoliklarni “Devon-u lug‘otit turk” asari tarkibidagi so‘zlar misolida isbotlagan.

Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi garchi “Devon-u lug‘otit turk” asari tarkibidagi manzum parchalarning tizimlashitirilishi, tasniflanishi bilan bog‘liq majmua bo‘lsa-da, bu majmua to‘la ma’noda lug‘atshunoslikka oid asar sifatida ham e’tirof etilishga haqli asoslar mavjud.

Majmuadagi so‘zlar izohi ikki o‘rinda keladi:

1. Parchalar, ularning nasriy bayoni keltirilganda, maxsus lug‘at qismi ham keltiriladi.
2. Majmuaning 3-qismi maxsus “Lug‘at” qismidan iborat.

1. Bugun o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz shoirlar lirik asarlarining sharhi bilan bog‘liq jiddiy tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy g‘ azallarining sharhi bilan bog‘liq 10dan ortiq professor olimlarning sharh-kitoblari nashr qilindi. Najmiddin Komilovning “Ma’nolar olamiga safar” asaridagi tizim va uslub, tuzilish bugungi sharhlar uchun asos bo’lmoqda. Bu xususiyat boshqa shoirlar she’rlari sharhiga bag‘ishlangan manbalarga ham tegishli. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, aslida bu uslub va tizimning asoschisi Abdurauf Fitrat sanaladi. Olimning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi tarkibidagi manzum parchalar sharhi ayni tamoyilni asos qilib olgan. Ya’ni Fitrat bu sharhni 3 bosqich asosida amalga oshiradi:

- dastlab she’r matni keltiriladi;
- nasriy bayoni taqdim etiladi;
- lug‘at keltiriladi.

Olim taqdim etgan uchinchi bosqich – lug‘at qismining keltirilishi haqiqiy tadqiqot bosqichi sanaladi. Chunki Fitrat bu bosqichda so‘zlar ma’nosini shunchaki keltirmaydi. Dastlab so‘zning tub, leksik ma’nosini keltirib, so’ng bayt, misra zamiridagi mazmuni bilan tanishtiradi, so‘zning

bosh tomirini aniqlashga harakat qiladi. Adabiy parchalar tarkibidagi so‘zlar mazmunining tushunarli bo‘lishi, izohlanish talabidan kelib chiqib, lug‘at sifatida keltirilgan so‘zlarning miqdori turlicha. Lug‘at tarkibida so’zlarning qo‘llanishi miqdoriga ko‘ra eng kam miqdor 2 so‘zdan iborat bo‘lsa, eng ko‘p miqdor 37 ta so‘z izohidan iborat.

O‘zlak yarog‘ kuzatdi,
O‘g‘ri tuzaq uzatdi.
Baklar bakin azitti,
Qachsa qali qurtulur. (J.2, b.269.)

“Alb ErTo‘nga marsiyasi” tarkibida keltirilgan ushbu parcha matni uchun 3 so‘zning izohi keltirilgan: *yarog‘* – fursat, yararli vaqt; *azitmoq* – adashtirmoq, yo‘ldan chiqarmoq; *qali* – qalay, qanday.

Fitrat manzum parchalar izohi uchun keltirilgan lug‘at qismi va majmua so‘ngining uchinchi qismi – Lug‘at qismida bir xil uslub va tamoyilga amal qilgan. Har ikkala qismda ham so’zlarning bosh mazmuni, etimologiyasi, bayt va misradagi mazmuni tadqiq etiladi.

“*Yurlamoq* – buni topolmadim. “Devon-u lug‘ot”da shu misra “ashulachilar kabi nola qiladir” deb tarjima qiling‘an. Ashula ma’nosida “yir” so‘zi bor. To‘g‘risi “yirlamoq” bo‘lsa kerak”. Ko‘rinib turibdiki, Fitrat tushunarsiz so‘zlarning mazmunini berishda unga aloqador so‘zlar bilan izohlaydi. Matnni butun bir sistema sifatida tadqiq etadi.

Abdurauf Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasida 3-qismning boshlang‘ich qismida “O‘tkan iki qismda ko‘rganimiz manzumalarda izohka muhtoj ko‘b lug‘atlar bor. Ularni o‘z o‘rnida izoh qilish o‘qu(v)chilarni maqsaddan uzoqlashtiradir. Shuning uchun kitobka uchinchi qism orttirib, mazkur lug‘atlarni izoh qilish munosib ko‘rildi” izohi bilan “Devon-u lug‘otit turk” asari tarkibidagi manzum parchalar nasriy bayonini keltirish chog‘ida so‘z ma’nolari bilan bog‘liq muammolarga duch kelingani sababidan bu qismning qo‘shilgani aytiladi.

Fitrat majmuaning “Lug‘at” qismida *asiz, ardam, arig‘, ugrayuk, azin, uzumoq, ajun, ukur, uzurmak, uqimoq, armoq, ilarmak, urushmak, urlanmak, urmak, amitmak, ukush, ukrimak, anunmoq, ayiq, atyin, uzunmak, ulinmak, alqashmoq, esh, angitmoq, ivriq, urpashmoq, ush, uzurmoq, umul, ushklmaoq, o‘las ko‘z, igramak, alimlig‘, adash, umunj, urkushmak, arij, urung, ut, inj, aqrun, uza, bilka, buku, baliq, budun, bo’qoqlanmoq, bash, butmak, baliklamak, bo‘lnamoq, bijg‘as, to‘nga, tavramoq, tushnamak, tabaru, tubilamak, to’zunlik, tutchi, tuzg‘urmoq, tusun, to‘ru, to‘ksin, takma, talim, tum, tulum, jarkashmak, jig‘moq, jalmak, jash, jav, daqi, savamoq, siqirmoq, sig‘tamoq, savuk, singak, su,*

suchulmak, saqinj, so‘kmak, savulmoq, saran, sag‘moq, qali, qaniqi, qaliq, qaymoq, qingri, qarshi, qazash, qartamoq, qag‘rulmoq, qirchatmoq, qiqirmoq, qamug‘, gavramak, kartmak, kuvaz, kukshin, kedin, kak, kuk, kuyurmak, kislinmak, kuzmak, yarog‘, yima, yunchig‘, yanchimoq, yalinguq, yavlaq, yushulmoq, yazim, yin, yuduzmak, yumutmoq, yaqishmoq, yatika, yiramoq, yulaq, yula so’zlarining izohini keltirgan.

Asarning “Lug‘at” qismi *“asiz”* so’zining izohi bilan boshlanadi. Fitrat bu so‘zni “*esiz*” ma’nosidagi so‘z ekanligini asoslaydi. Olim bu so‘z “Devon-u lug‘otit turk”da “yomon” so’ziga sinonim bo‘lganini ta’kidlar ekan, so‘zlar ma’nolarini taqdim qilishda birgina manba bilan kifoyalanib qolmaydi. Fitratning matn ustida ishlash printsipi shuni ko‘rsatadiki, u bir so‘z ma’nosini keltirishda so‘z etimologiyasini, ma’noviy tadrijini, semantik xususiyatini, turli shakllarini ham o‘rganib chiqadi. Masalan, Najib Osimbek “Hibat ul-haqoyiq”ni nashr qilganida, Fitrat bu nashrdagi so‘zlar o‘qilishidagi kamchiliklarni ko‘rsatar ekan, Najib Osimbekning bu kamchilikka yo‘l qo‘yganining asosiy sababi sifatida “Hibat ul-haqoyiq”ga til va davr nuqtayi nazaridan yaqin bo‘lgan “Devon-u lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” kabi asarlar matni va undagi so‘zlar bilan qiyoslanmaganligini ko‘rsatadi . Bu tahrir tamoyili olimning barcha ilmiy tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Yuqoridagi “asiz” so‘zi izohida ham Fitrat shu tamoyil asosida bu so‘zning ma’noni keltirishda, “Devon-u lug‘otit turk”dan keyin yaratilgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq” asarlarida ham “ezgu” so’zining zid ma’noda ishlatilishini ma’lum qilib “Qutadg‘u bilig”dan bayt keltiradi:

Tushi ezib, bo’lsa sevinsa turub,
Asiz ko‘rsa “rab” qosig‘insa turub...

Olim bu bilan cheklanmay, “Hibat ul-haqoyiq” asariga ham murojaat etadi. Najib Osimbek tomonidan nashr qilingan ushbu asarga olim tomonidan lug‘at qismi qo‘shilgan. Fitrat asarning ana shu nashriga ilova qilingan lug‘at qismiga e’tibor qaratib, so‘z tomiri, asli “osig‘iz(foydasiz)” so‘zi ekanligini keltiradi. Demakki, Fitrat bu o‘rinda Najib Osimbek fikriga qo‘shiladi. Olim so‘z ma’no tomirini aniqlashda davom etadi, usmonlilarning “yaxshi” ma’nosidagi “ayi” so‘zi bevosita “asiz” so’zi o‘zagi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi: *asiz – ayisiz – yaxshiliksiz – yomon.* Ko‘rinib turibdiki, Fitrat har bir so‘z ma’nosini berishda, kichik tadqiqot o‘tkazadi. Ularning bosh tomirlarini aniqlaydi. Semantik xususiyatlarini ishlab chiqadi.

“Savamoq – Tamom bolmoq, sob bolmak. Bitmak. Buning tomuri “savdirkim: masal, hikoyat, so‘z, xabar manolaridadir. Xabar, so‘z,

hikoyatning tarqalib turishi munosabati bilan bo‘lsa kerak, “tarqalib bitmak” manolarida savranmoq, savramoq; “bitirmak” manosida savritmoq so‘zlari bolgani kabi

Balak ettim ani shahmga manunk
Havodorligimni tugal bilsutib (bilsun deb)
(“Hibat ul-haqoyiq” birinchi qism, 30 nchi bet)

Bundagi “balak” so‘zini Najib Osimbek “alomat, nishon” deb tarjima qiladir, yanglishadur. “Tarqalmoq” manosida *savrulmoq* so‘zi bordir. Bukun bizda bo‘lgan “savirmoq” ham “sovchi” so‘zi-da shu tomirdandir”.

Lug‘at ilmi, so‘zlar ma’nolarining o‘zgarishini aniqlash, so‘zlar bosh tomiri va kelib chiqishi bilan bog‘liq masalalar tadqiqi olimdan adabiyotshunoslik ilmi bilan birgalikda tilshunoslik, tilshunoslikning deyarli barcha bo‘limlarini chuqur bilishni taqozo qiladi. Chunki so‘zlar etimologiyasi va ma’nosi yuzasidan chiqariladigan yanglish xulosalar tilning leksik qatlami bilan birgalikda til tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun lug‘at tuzish, lug‘at yaratish mas’uliyatli vazifadir. Lug‘at tuzishdagi muhim shartlardan biri so‘zlarni bir-biriga qiyoslash va bu qiyos natijasida ularning bog‘liqligi, ma’noviy imkoniyatlarini ko‘rsatib berishdir. Fitrat “qartamoq” so‘zini izohlar ekan, bu so‘zning ma’nosi “davolamoq” ekanligini ta’kidlab, “qartamoq” so‘zini “o‘tlamoq” so‘zi bilan qiyoslaydi. “O‘tlamoq”ning ma’nosi o‘simlik ma’nosidagi “o‘t” so‘zi bo‘lsa, ikkinchisi, ya’ni “qartamoq”ning tomiri “qor” ekanligiga ishora qiladi. Ikki so‘z ma’nosidagi qiyos asosida esa, “burung‘i zamonlarda o‘sumliklar bilan davolashka o‘xshab, qor bilan davolash ham bor ekan” degan xulosaviy hukmni beradi.

Fitrat so‘zlar ma’nosini izohlashda Alisher Navoiyga bir necha marotaba murojaat etadi. Xususan, Navoiyning tilshunoslikka oid “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari tarkibidagi fe’llar ma’nolariga to‘xtaladi. Olim “sig‘tamoq” so‘zini izohlar ekan, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bu so‘zni “siqtamoq” shaklida ishlatganini va o‘z ijodidan namuna keltirganini ta’kidlaydi:

Ul oyki, kula-kula qir og‘latti meni,
Yig‘latti meni demaki siqtatti meni.

Bayt matnida ham biroz o‘zgarish mavjud. Bu holat bu ikki asar ustida matnshunoslikka oid tadqiqot olib borilishi kerakligini taqozo qiladi.

Majmuaning lug‘at qismida 126 ta so‘z keltirilgan bo‘lib, olim har bir so‘zning etimologiyasini keltirish bilan birga ayni shu so‘zlar qollangan misralardan namunalar ham keltiradi. Ba’zi orinlarda so‘zlarning morfem

tahlilini ham amalga oshiradi. *“Kislinmak – kis+il+in+mak. Oz-ozidan kesilmak”.* Majmuadagi “Lug‘at” qism izohli lug‘at shaklida bo‘lib, so‘zlarning ma’nosini ochib berishga xizmat qilgan. “Devon” so‘zlari uchun fihrist” lug‘at esa indeks lug‘at shaklida bo‘lib, “Devon”da ishlatilgan so‘zlar keltirilgan, xolos. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini tuzgandan so‘ng “Devon-u lug‘otit turk” asari uchun maxsus fihrist tuzishni maqsad qilgan. So‘zlarning o‘qilishi, yozilishi, ayniqsa, fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarning keltirilish uslubi, -*mak* va -*moq* qo‘shimchalarining so‘zlarning o‘zagiga qarab taqsimlanishi Fitratning ishlash uslubini eslatadi. Undan tashqari, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asaridagi lug‘at qismidagi so‘zlarning tartibi “Devon-u lug‘ot” sozlari uchun fihrist”dagi tartibga mos tushadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarida barcha so‘zlarni keltirmay, ularning ba’zilarinigina saralab olgan. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist”da esa 8 mingtaga yaqin so‘z keltirilgan. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “Devon” so‘zlari uchun fihrist” Fitrat tomonidan 1928–1929-yillar oralig‘ida, lotin yozuviga o‘tish arafasida, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi yaratilganidan so‘ng tuzilgan. Bu lug‘at olimning jiddiy tadqiqotlaridan biri bo‘lib, “Devon-u lug‘otit turk” tarkibidagi parchalar davri, so‘zlarning etimologiyasini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. (2005). Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: Yangi asr avlodi..
2. Atalay B. (1939-1941). Divanu lugatit turk tercimesi. 1-3 cild. Ankara.
3. Brokelmann.C. (1921). Mahmud al-Kasghari uber lie Sprachen un die Stamme der Turlen in X1 Jahrh (Korosi Csama – Archivum).
4. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist. O’zR FASHI Qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 5046/I.
5. Hamroyeva, O. (2023). Fitratning aruz va milliy she’r tizimi xususidagi mulohazalari. *Uzbekistan: Language and Culture*, *4*(4).
6. Koshg‘ariy M. (1960, 1961, 1963). “Devonu lug‘atit turk”. 3 tomlik. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov). – T.: O’zbekiston FA nashriyoti.
7. Mahmud al Husayn binni Muhammad al-Koshg‘ariy: kitobi Devon-u lug‘atit turk (O‘ngso’z) (1933). – Istanbul. (arab yozuvida)
8. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5201-3.

9. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O’zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5206-3.
10. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5204-5.
11. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. –Istanbul, I-II jild – 1914; III jild - 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5206-8.
12. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 8999.
13. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 9000.
14. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, Hijr. 1333. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 20927.
15. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, Hijr. 1335. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 20928.
16. Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. 1-3 jild. (Nashrga tayyorlovchilar: A.Rustamov, H. Boltaboyev, B.Isabekov) – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – 442 b.
17. Koshg‘ariy M. (2017). Devon-u lug‘otit turk (Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
18. Kuprulu F. Turk adabiyotining manshai // Milliy tatabbular majmuasi. 2-jild, 4-son (turk tilida).
19. Radloff W. (1882). Phonetik der nordichen turk sprehen/ Leipzig.
20. Stebleva I.V. (1971). Razvitie tyurkskix poeticheskix form XI veke. – Москва.
21. Seyhan, T., & Jalolovna, H. O. (2023). FITRAT-TEXTOLOGIST (Based on the complex" Examples of Uzbek literature"). Academia Science Repository, 4(5), 1083-1087.
22. Fitrat. (2008). Eng eski turk adabiyoti namunalari. Toshkent-Samarqand. 1927. // Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O.) – Toshkent.
23. Fitrat. (2013). O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. – Toshkent-Samarqand: O‘znashr, 1928 // Fitrat. O’zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O.) – Toshkent.

“DURRUL MAJOLISI TURKIY” ASARIDA KAMTARLIK TALQINI

Amonova Zilola Qodirovna,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori
Boqiyev Azizbek Abdullajon o‘g‘li,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotidagi qissayi anbiyo xarakteridagi asarlardan biri bo‘lgan “Durrul majolisi turkiy” asaridagi kamtarlik bilan bog‘liq hikoyatlar tahlilga tortilgan. Mazkur asar toshbosma bo‘lib, bosma nashri amalga oshirilmagan. Ushbu kitob Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat qo‘lyozmalar fondida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 240 sahifadan iborat. Asarda payg‘ambarlar qissasiga alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, Qur’oni Karimda zikri kelgan 13 payg‘ambar hamda ko‘plab sahobalar va ayrim shayxlar haqidagi hikoyatlardan tashkil topgan. Alohida e’tiborli jihati shundaki, asarda har bir payg‘ambar haqidagi qissa alohida sarlavha ostida berilgan bo‘lsa-da, ma’lum masala bayoni uchun bir hikoyatda bir necha payg‘ambar haqidagi ayrim kichik voqealar ham bayon etilgan. Shuningdek, asarda didaktik hikoyatlar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: toshbosma, Saif Zafari Buxoriy, “Durrul majolisi turkiy”, qissayi anbiyo, an’ana, payg‘ambar, Qur’oni Karim, kamtarlik, badiiy mahorat, tarjima

Abstract: The article analyzes the stories related to humility in the work "Durrul Majolisi Turkiy", one of the works of the story of the prophets in the Uzbek classical literature. This work is a lithograph and has not been published. This book is stored in the Bukhara regional manuscript fund named after Abu Ali Ibn Sino under the inventory number 726. This unique source consists of 240 pages. The work gives special importance to the stories of the prophets, and consists of stories about 13 prophets mentioned in the Holy Quran, as well as many companions and some sheikhs. A particularly noteworthy aspect is that although the story about each prophet is given under a separate title in the work, some small stories about several prophets are also described in one story to explain a specific issue. The work also contains didactic stories.

Keywords: lithography, Saif Zafari Bukhari, "Durrul Majolisi Turki", story of the prophets, tradition, prophet, Holy Quran, humility, artistic skill, translation

Saif Zafar al-Buxoriyning "Durrul majolis" toshbosmasi Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat ilmiy kutubxonasida 726-inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1910-yil Toshkentdagi G‘ulomiy matbaasida bosmadan chiqarilgan bo‘lib, 240 sahifadan iborat. Kitob Toshkentda chop etilgan bo‘lsa-da, Buxoro qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda “Buxoro toshbosmasi” nomi bilan qayd etiladi. Mazkur asar fors tilida yozilgan bo‘lib, yaratilgan yili haqida ma’lumot mavjud emas. Ushbu kitobni forsiydan turkiy tilga tarjima qiluvchi Eshon Janobi Sulton Sayyid xo‘ja Ibn Mahmudxo‘ja eshon Toshkandiy mashhur Maxdum Qodiriylardan ekanligi manbada aytib o‘tilgan.



“Durrul majolisi turki” asari o‘z davri talablaridan kelib chiqib yaratilgan. Unda asosiy e’tibor Rabg‘uziyning “Qissayi Rabg‘uziy” asari kabi nomlari Qur’oni Karimda zikr etilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalarga qaratilgan. Ammo Qur’ondagi payg‘ambarlarning barchasi zikr etilgan. Jumladan, 12 nafar Qur’ondagi payg‘ambarlar haqida ma’lumotlar keltirilmagan [Boqiyev, 2023:255]

Asar 33 bobdan iborat bo‘lib, dastlabki bobi “Hazrati Odam alayhissalomning jasadi muboraklarini yaratmog‘ini bayonidadur” tarzida sarlavhalangan. Ushbu qissa kitobdagi boshqa hikoyatlarga nisbatan ancha katta bo‘lib, 11 sahifani tashkil etadi. Qissa dastlab, Allohning insonni yaratmoqchi bo‘lganligi va bunda arsh, kursi, samo insonni o‘zlaridan yaratishlarini so‘rab iltijo qilishlari bilan bilan bog‘liq badiiy mulohazalar bilan boshlanadi. Muallif qissa ifodasida aksar iqtibos asosida o‘z fikrlarini asoslagan. Tabiiyki, nomlari Qur’oni Karimda zikr etilgan payg‘ambarlar haqidagi qissada ayni holni kuzatish mumkin. Saif Zafar bu an’anaviy

qissada o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Ya’ni o‘zidan oldin yaratilgan qissayi anbiyo xarakteridagi qissalardan farqli o‘laroq, Allohning insonni yaratishidan maqsadi va uni aynan tuproqdan yaratishining mohiyatiga urg‘u beradi: “Va laqod zayyannas samaad dunya va bimasobiha” deb, sen bul bandangni mendin yaratg‘il”, deb va lekin hammalarini gumoni bul erdiki mandin yaratur deb Hazrat Odam alayhissalom bizlardin yaratur deb har qaysilarini muddaolari shul erdi, ammo zamini karim andin hech ovoz chiqmadi va hech nimarsa demadi, g‘ayri aks shikastalikdin o‘zga hech nimarsa demadi, boshini quyi solib turdi” [Toshbosma, 1900:6]. Mazkur parchaga e’tibor qaratsak, barcha ashyolar: arsh, kursi, samo insonni o‘zlaridan yaratishlarini so‘rab iltijo qiladi, ammo faqatgina tuproq “shikastalikdin o‘zga hech nimarsa demadi, boshini quyi solib turdi”. Demak, Alloh o‘ziga xalifa sifatida yaratmoqchi bo‘lgan insonning tuproq kabi kamtar bo‘lishini xohlagan. Chunki kibr, kabirlik, ulug‘lik faqat Yaratuvchiga xos fazilatdir. Ayni masala islomiy manbalarda, tasavvufda, shuningdek, badiiy adabiyotda keng talqin etilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, turkiy tasavvuf she’riyatining asoschisi Ahmad Yassaviyning “Tuproq bo‘lg‘il, el sani bosib o‘tsin” tarzidagi misralari orqali turkiy-o‘zbek adabiyotida kirib keldi. Shu nuqtayi nazardan Saif Zafar ham mazkur asarida shu masalaga alohida e’tibor qaratgan: “Andin so‘ng Xudovand Karimdin farmon bo‘ldi va aydi: “Ey zamin, sen buncha shikastalikni o‘zingg‘a ixtiyor qilding menga bisyor xush keldi emdi hamma ishlar sandin paydo bo‘lur”, dedi” [Toshbosma, 1900:6] .

Muallif “Mulk”surasi 5-oyatining dastlabki qismi “Va laqod zayyannas samaad dunya va bimasobiha” (Va darhaqiqat, Biz dunyo osmonini chiroqlar (yulduzlar) bilan ziynatlab qo‘ydik) iqtibos sifatida keltirilib, osmon insonni o‘zidan yaratilishini istab Allohga iltijo qilganligini ta’kidlaydi.

Odam (a.s) bilan bog‘liq qissa tarkibida qissa mavzusiga mos holda Sulaymon (a.s) bilan bog‘liq parchani ham keltiradi. Bunda muallif, asosan, kamtarlikda yuksak kamol borligini e’tirof etishni maqsad qilib qo‘yadi: “Endi bul ham bir misoldurki va anga o‘xshash so‘zdurki, vaqtiki, Hazrat Sulaymon alayhissalomning qo‘llarig‘a xosiyatlik uzuk solmoqg‘a ixtiyor qildi. Sulaymon alayhissalom qo‘llarini panjalari bir- birlarig‘a so‘zlar qilib aytishdilarki, ibhomki bosh barmoqdur aydi: “Man hammadin kattamen, albatta, uzukni manga taqar”, derdi va yoni sabbobaki ani shahodat derlar bosh barmoqni yonidag‘i aydi: “Man sizlardin sharofatlikroqdurman uzukni manga solarlar”, dedi. Vustoki o‘rta panjadur ul aydi: “Men sizlarni o‘rtalaringizda kattaroqdurman uzukni manga

solurlar”, dedi. Kichkina panja hech so‘z demadi. Bas farmon bo‘ldiki: “Yo Sulaymon, uzukni kichik panjangg‘a solg‘il, negaki o‘zini zaifroq va kichikroq bildi”. Andin so‘ng, Sulaymon alayhissalom kichik panjalarig‘a aydilarki: “Ey kichik panja, nechun sandin katta panjalar uzukni solmoqni orzu qildilar sen na uchun dam urmading?” Kichik panja aydi: “Ey payg‘ambari xudo, alar o‘zlarini kattalig‘ig‘a havo qildilar man bechora alarni oldilarida zaif va notavonman manga na uchun solursizki?!” dedi. Va bu shikastalig‘i Alloh taologa xush kelib uzukni kichik panjalarig‘a soldurdi” [Toshbosma, 1900:7].

Qissa mohiyatiga e’tibor qaratsak, kibrga berilmaslik, o‘zni kamtar tutish Alloh nazdida ham yuksak maqom sohibiga xos xususiyat sanalar ekan. Shuning uchun muallif Odam (a.s) haqidagi qissada insonning yaratilish tarixi, bunda Alloh o‘ziga xalifa yaratmoqchi bo‘lgan insonni aynan tuproqdan yaratganligi tarixini mufassil hikoya qilish bilan cheklanmay, ushbu o‘rinda Sulaymon (a.s) bilan bog‘liq hikoyatni keltirish lozim deb topilgan. Aytish lozimki, muallif ayni masalaga ancha keng yondashadi, ya’ni yuqoridagi payg‘ambar bilan bog‘liq hikoyatdan so‘ng, vali zotlarga tegishli hikoyatni ham keltirishni maqbul deb biladi: “Va yana bir so‘zdurki, Sulton Boyazid Bistomiy quddasallohu sirrohu Haq subhanahu va taolog‘a munojot qilib aydilarki: “Ey bor Xudoyo Xudovando, sani dargohingga qaysi nimarsa loyiqdurki, amr qilsang men ani qilsam bajo va dil deb”. Bas Alloh taolodin farmon bo‘ldiki: “Uch nimarsa meni haridimda yo‘qdur, agar sanda bo‘lsa kelturgin toki man xaridor bo‘lay”. Sulton Boyazid Bistomiy so‘radilarki: “Xudoyo Xudovando, u uch narsa nimarsa nimadur?”. Bas, Alloh taolodin nido keldiki: “Ul uch nimarsani biri dil shikastalikdur, ikkinchisi shuldurki tilidin har taqsirot o‘tsa tavba qilmoqlikdur, uchinchisi shuldurki o‘zini zaif va bechorahol bilmoqdur” [Toshbosma, 1900:8]. .

Demak, qissada odam yaratishi lozim bo‘lgan unsur tuproq ekanligi ta’kidlangan. Ammo ijodkor Haq taolo odamni yaratish uchun tuproqni shunchaki tanlanmaganligiga urg‘u beradi. Ya’ni xoksorlik, kamtarlik fazilatlari zaminni shunday ulug‘ maqomga ko‘targanligini asoslash maqsadida qoliplovchi qissa orasiga Sulaymon (a.s) va Boyazid Bistomiy hikoyatlarini kiritgan. Muallifning bundan maqsadi asarda didaktik ruhni kuchaytirish, ya’ni insonlarga o‘z asli kabi kamtar, kamsuqum bo‘lishiga undash ekanligi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. در المجالس سيف ظفر البخاري طشقند1329هجري

2. Zilola Amonova, Azizbek Boqiyev. Saif Zafari Buxoriyning "Durrul majolis" asarida Odam (a.s) talqini. Oltin bitiklar. 2024, 2-son.

3. Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning “Durrul majolisi turki” toshbosmasining arxeografiyasi.BuxDU Ilmiy axborotnomasi. 2023.11-son.

4. Amonova Zilola Qodirovna, Boqiyev Azizbek Abdullajon o‘g‘li. Saif Zafari Buxoriyning «Durrul majolis» asarida shayxlar talqini // Tamaddun nuri. 2024, 10 (61).

ISMATULLOH YASSAVIYNING XUSUSIY ARXIVIDAGI “DEVONI HIKMAT” NUSXASIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Nodirxon Hasan,
O‘zMU, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: “Piri Turkiston" nomi bilan mashhur Xo‘ja Ahmad Yassaviy va uning izdoshlarining diniy-tasavvufiy she'riy to‘rtliklaridan iborat "Devoni Hikmat" asarining qo‘lyozma va bosma nusxalarini dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi rasmiy va shaxsiy kutubxonalarda topish mumkin. Shu jumladan, mustabid Sovet tuzumi asoratidan qochib, Turkistondan chet elga hijrat qilgan va hozirda Turkiyada istiqomat qilayotgan, Sultonu’l-Oarifun Xoja Ahmad Yasaviyning 27-avlodidan bo‘lgan Ismatulloh Yassaviy janoblarining oilaviy xususiy arxivida bobokalonlaridan qolgan bir “Devoni Hikmat” qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ushbu ma’ruza matnida janob Ismatulloh Yassaviyning marhamat qilib bizga imkoniyat berganligi tufayli o‘rganish imkoniga ega bo‘lgan ushbu nusxaning tashqi va ichki xususiyatlari, yozuv va nusxa xususiyatlari, mazmuni, boshqa hikmat nusxalaridan farqlari va boshqa jihatlari haqida ma’lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, Turkiston, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Devoni Hikmat, qo‘lyozma, nusxa.

Annotation: It is possible to come across the printed and printed copies of the work of Diwani Hikmat, which includes the verses of Hodja Ahmad Yassawi and his followers, known as Piri Turkestan, in the official and private libraries in many countries of the world. Indeed, the ominous Soviet order of who have emigrated abroad from Turkestan escaped from captivity and appeared ready residing in Turkey, Sultan-ul-arifin Hodja Ahmad Yassawi 27 on one of his generation in the number of İsmatullah Yassawi family private archives from generation grandfather "Diwani There is a copy of Hikmat's manuscript. As Mr. İsmatullah Yassawi gives

us the opportunity to examine this copy, we will be able to examine the copy of the manuscript's external and internal characteristics, its spelling and copying, its content, its differences from other forms of wisdom and its other aspects.

Key words: Sufism, Turkestan, Hodja Ahmad Yassawi, Diwani Hikmat, Handlist, Copy.

So‘nggi yillarda buyuk ajdodlarimizning ilmiy va adabiy merosiga bo‘lgan qiziqish, ularni o‘qish-o‘rganish, tadqiq qilish va xalq ommasi e’tiboriga havola etish ishlari tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, tarix davomida turklarning e’tiqodi, ma’naviyati, madaniyati va adabiyotida benazir mavqega ega bo‘lgan Piri Turkiston Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, asarlari va g‘oyalari keng miqyosda tadqiq etilib, o‘rganilmoqda.

Sultonu’l-orifin Xoja Ahmad Yassaviyning muborak nomi, ta’limotlari va hikmatlari turklar orasida asrlardan buyon ma’lum va mashhurdir. Chunki bu buyuk shaxsiyat tarix davomida O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy va madaniy hayotida o‘chmas iz qoldirgan, nafaqat Turkistonni, balki butun turkiy xalqlarning ruh dunyosini asrlar davomida yoritgan. Shuning uchun Ahmad Yassaviy boshlab bergan diniy-tasavvufiy maktab va hikmatlari asrlardan buyon dunyoning turli hududlarida tadqiqot mavzusi bo‘lib kelgan.

Ma’lumki, Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlarini uning izdoshlari to‘plagan, devon holiga keltirganlar. Qo‘ldan-qo‘lga o‘tgan "Devon-i Hikmat"larni soliklar yod olgan, turli yig‘inlarda hikmat o‘qish Yassaviylik an’anasida bir odatga aylangan.

Hikmat an'anasini davom ettirish va keyingi avlodlarga yetkazish maqsadida, vaqt o'tishi bilan bu devonga boshqa mutasavvif shoirlarning hikmatlari ham qo'shilgan. Shunday qilib, Ahmad Yassaviy yo'lidan borib, unga nazira tariqasida hikmatli to'rtliklar yozish muqaddas bir odatga aylangan va "Hikmat maktabi" nomli tasavvufiy an'ana paydo bo'lgan.

Binobarin, Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatini boshlab bergan mutasavvifdir. Uning hikmatlari xalq tilida, sodda, ravon va yodlash oson, diniy-tasavvufiy mazmunli, ma'no va mohiyat jihatidan boy asarlar ekanligi, bu xususiyatlari bilan asrlar davomida turklarning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlanishiga muhim hissa qo'shganligi shubhasiz haqiqatdir.

Gunoh qilib, tavba qilmay ketganlarni,
Haqdan qo'rqmay g'aflat birla yotganlarni.
Dunyo uchun imonlarin sotganlarni,
Sirot otlig' guzargohda tutar, do'stlar!,

kabi hikmatlarida mutasavvif shoir; Allohdan qo'rqishga, shariat amrlariga rioya qilishga, Janobi Haqni rozi qiladigan xayrli amallar qilib, jannatdan umidvor bo'lishga va Xudoning xolis va muhlis bandalaridan bo'lishga da'vat etadi.

Shuning uchun Fuad Ko'prulu "Devoni Hikmat"ni xalq adabiyoti bilan diniy-tasavvufiy ruhni eng munosib tarzda ifoda etgan ilk asar hamda turk tasavvuf adabiyotining eng qadimiy va eng muhim obidasi deb qabul qilgan [Ko'prulu, 1991, 120].

Asl ma’nosini saqlab qolganligi, maqsad va tamoyilda o‘zgarmasdan davom etganligi sababli "Devon-i Hikmat" ko‘plab san’atkorlar uchun ilhom manbai bo‘lgan. Unda Hakîm Ota Sulaymon Boqirg‘oniy, Kamol Iqoniy, Shams O‘zgandiy, Qul Ubaydiy, Qul Sharif, Qul G‘aribiy, Darvesh Ali, Xoja Ne’matulloh, Qul Umuriy, Shahidiy, Qul Naziriy, Hakim Xolis Toshkandiy, Azim Xoja Eshon, Qul Asad, Bayzo, Xoja Hamid, Qoniy, Qul Shaydo, Shayx Hudoydod, Xoja Bahouddin, Qul Ojiz, Qul Foziliy, Qul Sayfiddin, Soqiy, Miskin Ayyub, Tolibiy kabi oltmishga yaqin so‘fiy shoirning hikmatlari joy olgan bo‘lib, ular tomonidan istinsah qilingan "Devon-i Hikmat"ning turli qo‘lyozma va bosma nusxalarida uchraydi.

Abdurauf Fitrat aytganidek, Ahmad Yassaviyning "adabiyotdagi yo‘li oddiy xalq shoirlarimiz tutgan yo‘ldir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti deb atalgan she’rlar bilan birga" qadam tashlagan [Fitrat, 2000, 31].

Afsuski, XX asrda Turkiston xalqlari ulug‘ pirning hayoti, shaxsiyati, adabiy va fikriy merosini tadqiq qilish, uning tarixiy xizmatlari haqida gapirish imkoniyatidan mahrum etildi. Chunki sovet davrida Ahmad Yassaviy va boshqa diniy-tasavvufiy shoirlarning hayoti va asarlarini o‘rganish va o‘qish butunlay taqiqlandi va xalq xotirasidan o‘chirishga harakat qilindi.

Shu jumladan, minglab muhojirlar singari Sovet asoratidan qochib, Turkistondan xorijga ko‘chib ketgan, hijrat yo‘lida bir necha oy davomida mashaqqat va qiynoqlar chekib, g‘urbat ellarda yashab, nihoyat Turkiyaga joylashgan va hozirda Istanbulda istiqomat qilayotgan, Ahmad Yassaviyning 27-avlodidan bo‘lgan Ismatulloh Ysasaviy janoblarining oilaviy xususiy arxivida bobokalonlaridan qolgan bir "Devon-i Hikmat" qo‘lyozma nusxasi mavjud.

Hurmatli Ismatulloh Yassaviy janoblariga ushbu nusxani o'rganishimizga imkoniyat berganliklari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Bu bo'limda mazkur nusxaning mazmuni, yozuv va nusxa xususiyatlari,

boshqa hikmat nusxalaridan farqlari va boshqa jihatlari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

370 varaqdan iborat ushbu nusxaning birinchi varag‘ida "Sohib Nar Muhammadboy Xo’qandiy. In bor imlo muhkam. Mulla Muhammad Yusufjon kabi qaydlar yozilgan. Ikkinchi varaqda esa:

Sano lil-Xoliqi g'abro vu aflok,

Yaratti qatradin guhari pok,

bayti bilan Turkistonda "Devoni Hikmat"dan so'ng eng ko‘p o‘qiladigan, So‘fiy Olloyorning “Sabotul-Ojizin” manzum asari boshlanadi va 127-varaqda tugaydi.

Hikmatlar 128-varaqdan boshlanadi. Shikasta nasta’liq xati bilan ko‘chirilgan nusxaning har sahifasida she’rlar 15 satrdan iborat. Har varaqda paygirler (qo'shimcha izohlar/hoshiyalar) mavjud. Hajmli bo‘lishiga qaramay, ushbu nusxada Xo‘ja Ahmad Yassaviy mahlasida 53 ta hikmat joy olgan. Har bir hikmatning boshida qizil rangda “Hikmati Hazrat Sultonul-Orifin” yoki “Hikmat-i Hazrat Sulton”, “Hikmati Xo‘ja Ahmad Yassaviy”, “Hikmat” kabi sarlavhalar yozilgan. Sariq rangli Samarqand qog‘oziga yozilgan ushbu qo‘lyozma nusxa ancha eskirgan va yaxshi saqlanmagan.

Hikmatlar qismi “Tammati, tamom shud faqir al-haqir Qalandar Xoja valadi Ismoil Xoja Turkistoniy avlodi Hazrat Sulton ul-orifin (Ahmad Yassaviy) navvara marqadahul-aziz” satrlari bilan yakunlanadi (v.267). Undan so‘ng quyidagi baytlar joy olgan:

Har ki xonad duo tamo dorem,

Zi on ki man bandayi gunohkoram.

Shud ba tavfiqi Xudoye la yanam,

In kitobat ro'zi chahorshanba tamom.

Ma’nosi: Kim bu kitobni o‘qisa, duo talab qilaman, chunki men gunohkor bandaman, hech qachon uxlamaydigan Xudoning yordami bilan bu kitob chorshanba kuni tamomlandi.

268-varaqdan boshlab esa yana O‘rta Osiyoning mashhur tasavvuf shoiri Boborahim Shoh Mashrabning she’rlari boshlanadi. 335-336-varaqlarda shoir Xolisning musaddasi joy olgan. 349-varaqdan boshlab yana Shoh Mashrabning she’rlari davom etadi. 351-352-varaqlarning muhim qismlari yirtilib, shikastlangan. 357-365-varaqlarda So‘fi Olloyorning mashhur munojoti joy olgan.

Nihoyat, qo'lyozma asar 370-varaqda tugaydi. Nusxaning o‘rganilishi shuni ko‘rsatadiki, bu nusxa o‘sha davrlarda eng ko‘p

o‘qilgan, xalqning ma’naviy ehtiyojini qondirgan Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor va Shoh Mashrab asarlari jamlanib, maxsus tayyorlangan.

Nusxada faqat Xo‘ja Ahmad Yassaviy mahlasida yozilgan hikmatlarga joy berilganligi, uning izdoshlarining hikmatlari yo‘qligi, xalq orasida eng ko‘p o‘qiladigan va keng tarqalgan “Bismilloh deb bayon aylay hikmat ayitib”, “Do'stlarig‘a ochmish izim guharini”, “Ko‘nglim qushi uchar doim qanot to‘qub”, “Muhabbatning jomin ichgan devonalar”, “Ishq davosin qilg‘on oshiq giryon bo‘lur”, “Muhabbatning maydonida kezgan oshiq” kabi ko‘plab hikmatlarning mavjudligi va Yasaviy naslining davomchilaridan birining qo‘lida bo‘lishi, ushbu nusxaning muhim xususiyatlaridan deyishimiz mumkin.

Ismatulloh Yassaviy nusxasini, ba‘zi mo‘tabar qo‘lyozma nusxalarga asoslanib, 2018-yilda Toshkentda nashr etgan “Devoni Hikmat” nashrimiz bilan solishtirib, ba’zi farqlarni aniqladik. Bu farqlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

MUQOYASA	
İsmatulloh Yassaviy nusxasi:	**Devoni Hikmat (Toshkent, 2018):**
Ḫalåyiḳdin **keç**dim	Ḫalåyiḳdin **kåç**dım
izlab **yür**düm	izlab **tüş**düm
yürak bağrım **til**dim	yürak bağrım **teş**dım
öttum ğåfil	**özüm** ğåfıl
yaḫşilardin **keç**tim	yaḫşılardın **kåç**tım
münda **çeç**may	munda **åç**may
Åçtim	**Elt**tim
sözlarni **yåy**dim	sözlarni **ay**dım
sözni **ay**dim	sözni **såç**tım
båşini **yanç**tim	båşini **çåp**tım
Arşḳa u**ç**ar	Arşḳa **kon**ar
turub ḳilğil	**yügür**üb ḳılğıl
dargåhida müḳim **tur**ğil	dargåhiga muḳım **bål**ğıl
ḫabar ber**gil**	ḫabar ber**ib**
Debån	**Tevü**
Ötsa	**Keç**sa
asra**gin**	Asra**ğıl**
sen **yürür**san	sen **erür**san

ķıl**ğıl**	ķıl**sang**
cånån **kılı**b	cånån **bölı**b
ayt**måķ**	Ayt**mak**
me’råc **üzra**	me’råc **bårıb**
İşķ otıda **bağrı küyüb**	İşķ otığa **küyüb-yånıb**
tola içgil	**toyå** içgil
karvån **bolub**	karvån **yanglığ**
ğariblarğa	**Haķ Rasul**ğa
miskin	**faķir**
Haķ Mustafå **söz**in	Haķ Mustafå **pand**in
Göyå boldum	**İllå** boldum
Tangrim	**Ega**m
savdåsiğa	**ma’vå**siğa
ķul degan	ķul**man** degan
Behabarlar	**Neçalari**
ḫåb-ı **ğaflat**	ḫåb-i **hayål**
åķüz **dåim åb-i** seldek	åķüz**mading misli** seldek
asli gühar	**misli** gühar
Allåh **zikr**in	Allåh **yådı**n
Har kim	**Kimki**
işķ şaråbın	**şavķ** şaråbın
årtķa	**årķa**
akling årtar	**işķ**ing årtar
Eranlarning **alfåzı**dın ålıb ḫabar	Eranlarni **kilğån**idin ålğil ḫabar
“Bismillåh**din**”	"Bismillåh **deb**"
Cån**ga**	Cån**ğa**
İmånim**a**	İmånim**ğa**
båķ**ğay**	båķ**ar**
Kir**gay**	Kir**sa**

Tasavvuf tarixidan ma’lumki, Turkistonda nish-u namo topgan Ahmad Yassaviyning fikr-qarashlari Anadolu, Dashti Qipchoq (Oltin O‘rda) va Idil-Uralgacha yetib borgan, asrlar davomida bu mintaqa

shoirlarining asarlari uchun ma’naviy ozuqa va ilhom manbai vazifasini o‘tagan.

Shu jumladan, Shimoliy turklar orasida tarqalishini misol qilib keltirsak, tarixda Idil daryosi, Movarounnahrdan o‘tgan buyuk savdo yo‘lining markazi bo‘lgan. Ahmad Yassaviy hikmatlari u hayotligidayoq O‘rta Osiyolik savdogarlar vositasi bilan Idil bo‘yida joylashgan Bulgar davlatida mashhur bo‘lgan. “Nahju’l-Farodis”, “Xusrav va Shirin”, “Jumjuma Sulton”, “Qissai Ovıq” asarlari va Sayfi Saroyiyning asarlarida Xo‘ja Ahmad Yassaviy va Hakim Ota Sulaymon Boqirg‘oniy asarlarining ta’sirini yaqqol ko‘rish mumkin. Bu ta’sir faqatgina Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy asarlarining tili va nazm shakllarining ta’siri bo‘lib qolmay, ulardagi falsafiy fikrlar, so‘fiyona qarashlarning ham adabiyotga ta’siri bilan to‘ldirilgan (Sıbgatullina, 1996, 457).

Prof. Dr. Farid Hakimjonga ko‘ra ham Ahmad Yassaviy va uning izdoshlarining asarlari Bulgar hududida keng o‘rin topib, ta’lim-tarbiya va adabiyot sohasida namuna sifatida qabul qilingan. Unga ko‘ra, Yassaviy hikmatlarining Idil bo‘ylarida keng o‘rin topishi, shoirlar, adiblar va ziyolilar uchun yozma tilning namunalari bo‘lishi bilan birga, ayni paytda yangi shakllanayotgan Tasavvufiy g‘oyalarni o‘rganishda ham namuna bo‘lgan (Hakimjon, 1993, 161-162).

Ahmad Yasaviyning boshqa turkiy qabilalarga ta’sirida asosiy omillardan biri milliy xususiyat va turk tili bo‘lgan. Shuning uchun uning hikmatlari keng omma tomonidan qisqa vaqt ichida qabul qilingan va ularning qalblarini jo‘shtirishga xizmat qilgan. Mutasavvif shoir:

Xushlamaydur olimlar bizni ayg‘on Turkini,
Orif agar eshitsa ochar ko‘ngul mulkini.
Oyat, hadis, ma’niga Turkiy kelsa muvofiq,
Ma’no bilgan olimlar yerga qo‘yar bo‘rkini (Yassaviy, 2006, 142-hikmat),

kabi hikmatlarida turk tilining ko‘ngil mulkiga kira oladigan go‘zal bir til ekanligini, bu til bilan oyat va hadislarning juda yaxshi izohlanganligini, shuning uchun olimlarning bu tilning qudrati oldida ta’zim qilganliklarini ta’kidlagan, boshqalarni ham bu tilda yozishga undagan. Ahmad Yassaviyning turklar tomonidan bugungi kungacha sevib-hurmat qilinishining asosiy sabablaridan biri ham shundadir.

"Devon-i Hikmat"ga she’rlari qo‘shilgan izdoshlari ham Ahmad Yassaviy boshlab bergan Hikmat an’anasini davom ettirganlar, ham turk tilining adabiy jihatdan balog‘atini ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lganlar.

Buning ta’siri bo‘lsa kerak, asrlar davomida istinsah qilinib, ko‘paytirilgan hikmat nusxalari jahonning ko‘plab mamlakatlariga qadar yetib borgan. Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan "Devon-i Hikmat"ning turli qo‘lyozma va bosma nusxalari tadqiqotchilarini kutmoqda.

Xulosa qilib aytganda, buyuk yozuvchi Yahyo Kamol Bayatli, Fuat Ko‘pruluga "Shu Ahmad Yassaviyni bir o‘rganing, ko‘rasizki, bizning milliyatimizni asl unda topasiz", deganda juda haq edi. Haqiqatan ham Ahmad Yassaviyni bilish, faqatgina milliyatimizni emas, balki fikr dunyomizni ham yuksaltiradi, ma’naviyatimizni va shaxsiyatimizni ham kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoja Ahmad Yasaviy. *Devoni Hikmat.* Qo‘lyozma nusxa. Ismatulloh Yasaviyning shaxsiy arxivi.

2. Ko‘prulu, Fuat (1991). *Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar.* – Ankara: Diyanet Nashriyoti.

3. Hakimjon, Farid (1993). "Ahmet Yesevî ve Ortaçağ İdil Boyu Edebi Dili", *Milletlerarası Hoca Ahmet Yesevi Sempozyumu Bildirileri*. 1993-yil 26-29-may, Kayseri.

4. Garayev, Yashar (1993). “Yesevilik ve Türk Milli Kültürünün Tarihinde Onun Yeri”, *Milletlerarası Hoca Ahmet Yesevi Sempozyumu Bildirileri*. 1993-yil 26-29-may, Kayseri.

5. Sibg‘atullina, Elfine (1996). “Ahmed Yesevî Hikmetlerinin Tatar Edebiyatında Akisleri”, *Ahmed-i Yesevî. Hayatı-Eserleri-Tesirleri*. Istanbul: Seha nashriyot.

6. Fitrat, Abdurauf (2000). Tanlangan Asarlar, 2-jild. Toshkent.

7. Xo‘ja Ahmad Yasaviy (2006). *Devoni Hikmat.* Nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan. – Toshkent: “Movarounnahr”.

8. Xo‘ja Ahmad Yasaviy (2018). *Devoni Hikmat.* Nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan. – Toshkent: “Navro‘z”.

“DEVONI KOMIL” MANBALARINING MATNIY TADQIQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Nuriddinov Shahobiddin Babayarovich,
QarDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqola o‘zbek mumtoz shoiri Komil Xorazmiy ijodiy merosi manbalari tahliliga bag‘ishlangan. Unda shoir “Devon”ining qo‘lyozma, toshbosma va nashr nusxalari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: devon, qo‘lyozma, toshbosma, matniy tadqiq, adabiy manba, nashr, lirik janr.

Annotation: The article is dedicated to the interpretation of sources of the literary legacy of the Uzbek classic poet Komil Khorezmy. The author of the article interpreted the manuscripted, lithoprinted and printed publications of the poet's “Devan”.

Key words: devan, manuscript, lithoprint, textual interpretation, literary source, publication, lyric genre.

Xorazm adabiy muhitining yetuk vakili Komil Xorazmiy merosi serqirra ekani ma’lum. U iste’dodli shoir bo‘lish bilan birga mohir xattot va zukko musiqashunos ham edi. Tarjimon sifatida sharq mumtoz adabiyotining sara namunalarini o‘zbekchalashtirgan.

Komil, asosan, mumtoz she’riyatning g‘azal, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, ruboiy, qasida, masnaviy, muammo kabi lirik janrlarida ijod qilib, o‘zidan boy adabiy meros qoldirdi. She’riyatning musabba’, bahri tavil singari kamyob janrlarida ham qalam tebratdi. Adabiy an’anaga muvofiq o‘z asarlarini to‘plab, devon tuzdi. Bugungi kunga qadar shoir devonining o‘nlab qo‘lyozma va toshbosma nusxalari yetib kelgan. Shuningdek, XIX asrning oxiri – XX asr boshida Xorazmda tartib berilgan ko‘plab bayozlarda ham nazmiy asarlari uchraydi. Ayrim she’rlari “Turkiston viloyatining gazeti”da bosilgan. Devoni shoir hayotligidayoq nashr qilingan. Dastlab 1880-81 yillarda Xivada toshbosma usulida bosilgan bo‘lsa, oradan bir necha yil o‘tib, 1895 yili chop etilgan. Bu nashr avvalgisiga nisbatan to‘liqroq. Shoir devoni uchinchi marta 1909 yilda Toshkentda bosilgan. Ta’kidlash kerakki, uchala nashr ham Komil she’rlarini to‘la qamrab olmaydi. Toshbosma nashr bilan bog‘liq bu kabi kamchiliklarning yuzaga kelishida birlamchi sabab – xattot yoki noshir tomonidan devonning mukammal hamda originalga yaqin nusxalarini aniqlab olmaslikdir. Qolaversa, bu nashrlar matnshunoslik aspektida emas, balki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashuv natijasida yuzasiga kelgan. Bu to‘g‘rida rus matnshunosi D.S.Lixachev: “Shu narsa aniqki, matnshunoslik erishgan natijalar aksar hollarda adabiyotshunoslarning qo‘lyozma manbalarni o‘rganmasdan aytgan eng to‘kis xulosalarini ham inkor etadi hamda o‘z navbatida yangi, qiziqarli va mufassal asoslangan tarixiy-adabiy umumlashmalarga olib keladi”, -degan xulosasi asoslidir[Lixachev, 2001:34-35].

Darhaqiqat, mukammal nashrni amalga oshirish uchun adabiy manbani matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish muhim sanaladi. Matnshunos N.Jabborov bu to‘g‘rida asosli fikrni ilgari suradi:

“...muayyan adabiy asar tahliliniamalga oshirishda birlamchi manbalarni chuqur o‘rganmasdan ishonarli ilmiy xulosaga kelish imkonsizdir”[Jabborov, 2019:4]. Haqiqatan ham, adabiy asarning mukammal matnini shakllantirishda, avvalo, matn tarixi, ya’ni manbaning muallifi dastxat nusxasi yoki muallif davrida ko‘chirilgan yoxud muallif davriga yaqin kitobat qilingan nusxani aniqlash, qiyosiy o‘rganish va tadqiq qilish mazkur jarayoning dastlabki talabi hisoblanadi.

Komil devonining bugungi kunga qadar o‘nga yaqin qo‘lyozma nusxalari yetib kelgan bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Qo‘lyozma manbalar orasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1949 va 1025 inventar raqamli nusxalar nisbatan mukammal manbalar sanaladi. Shu bois, devonning 1975 yildagi nashri uchun ushbu ikki nusxa tayanch manba sifatida tanlangan[Komil, 1975:14].

Devonning toshbosma nusxalari orasida Toshkent nashri shu turdagi manbalardan nisbatan afzalligi bilan ajralib turadi. Devon 1909 yilda Yakovlev litografiyasida “Devoni mavlono Komil maa tavorixi shohoni Xorazm” nomi bilan 112 sahifa hajmida nashr etilgan [Devoni Komil, 1909]. Nashr xotimasida uning Kamolxon bin Maqsudxo‘ja eshon va mulla Abdurahmonxo‘ja qori bin Mahmudxo‘ja Buxoriy rahnamoligida, Sirojiddin maxdum (Sidqiy Xondayliqiy) xati bilan chop etilgani qayd qilinadi. Devon nashridan 125 g‘azal, 24 ta muxammas, 6 ta musaddas, 3 ta masnaviy, bitta musamman, 4 ta qasida(ikkitasi Muhammad Rahimxon Feruzga, bittasi Said Muhammad Bahodirxonga, bittasi Toshkent madhiga bag‘ishlangan), 11 ta ruboiy va bitta bahri tavil o‘rin olgan. Hajmi – 2399 bayt. Bizningcha, bu manbada Komil ijodiy merosini to‘liq qamrab olish maqsadi qo‘yilmagan. Qolaversa, ushbu nashrda shoirning bir qancha she’rlari qisqartirishlar bilan chop etilganki, bu nashr uchun asos bo‘lgan qo‘lyozmaning nuqsonli ekani haqidagi xulosaga olib keladi.

Quyida devonning Sharqshunoslik instituti fondidagi 1949 raqamli qo‘lyozmasi, Toshkentda nashr etilgan toshbosma nusxasi hamda 1975 yildagi nashri o‘rtasidagi matniy tafovutlar tahlil etiladi (keyingi o‘rinlarda manbalar nomi *qo‘lyozma, toshbosma* hamda *nashr* тapzida qisqartirib beriladi).

Qo‘lyozma va toshbosmada “Ey gavhari xayolingga ko‘nglum erur sadaf” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azal nashrda 7 bayt shaklida beriladi[Komil, 1975:92]. Quyidagi ikki (7-, 8-) bayt qisqartirilgan:

Yo Rab, xatolarim yuziga fazling et niqob,
Chekkanda hashrgohda ahli uyub saf.

Ham ro‘zi ayla onda habibing shafoatin,

Urg‘usi bahri makrumating mavj birla kaf.

Bizningcha, bu qisqartirishga baytlarda “Yo Rab”, “hashrgoh”, “shafoat” singari diniy-ma’rifiy tushunchalar qo‘llangani sabab bo‘lgan ko‘rinadi.

Nashrda “Ne haz” radifli g‘azal 8 bayt shaklida berilgan. Qo‘lyozma va toshbosmada esa bu g‘azal 9 baytli. Nashrda g‘azalning maqta’si tushirib qoldirilgan:

Haq sanosin, shah duosin aylab o‘lturkim senga,

Emdi, Komil, ishratu lazzoti davrondin ne haz[Komil, 1975:85].

Xuddi shunday ikki manbada ham 11 baytdan iborat “bog‘” radifli g‘azalning 10-bayti asossiz tushirib qoldirilgan:

Gohi gulzor ichra sayr aylab, gahi ashjor aro,

Maskani ayshu nashoti hazrati xon bo‘ldi bog‘.

Bu kabi “tahrir”larga “Haq sanosi”, “shah duosi”, “hazrati xon” singari jumlalar asos bo‘lgani ayon. Nashr amalga oshirilgan davr mafkurasi nuqtai nazaridan bu kabi jumlalarning kiritilmay qoldirilishi, tahlillarda esa qora bo‘yoqlarda berilishi ko‘p uchraydi. Biroq sof ishqiy mavzudagi g‘azallarda ham ayrim baytlarning qisqartirilishi kuzatiladi. Xususan, “binafsh” radifli g‘azal qo‘lyozmada ham, toshbosmada ham 11 bayt. Nashr jarayonida esa g‘azalning quyidagi so‘nggi ikki bayti tushirib qoldirilgan:

Men kiyib taxti zumurradg‘a binafshagun libos,

Charxdin to kisvatin aylar shahi xovar binafsh.

Xusravu firuz o‘lub baxting jahonda toabad,

Aylasun Komil tamosho afsaringda par binafsh[Komil, 1975:77].

Bu o‘rinda o‘quvchiga estetik zavq beradigan, badiiy jihatdan mukammal misralarning qisqartirilishi g‘azalning mazmunan butunligiga putur yetkazganini ta’kidlash lozim.

Shu kabi nuqsonlar toshbosma manbadagi g‘azallar matnida ham kuzatiladi. Ya’ni, qo‘lyozma va nashrdagi matnlarda bir xil shaklda mavjud bo‘lgani holda toshbosmadagi matnda g‘azallarning qisqartirilishini ko‘rish mumkin. Masalan, shoir devonining toshbosma nusxasidagi “Tarabgohi visolingdek bihishti jovidon ermas” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining

Meningdek yuz o‘lar chun bir nigohi qahrnokingdin,

Sengo kim ayta olg‘ay: g‘amzang o‘q, qoshing kamon ermas –

bayti, shuningdek, “Ne xush bo‘lg‘ay bahor ayyomi gulshan ichra subhu shom” deb boshlanuvchi g‘azalning

Man ul gul yuzli, fatton ko‘zlining savdoyisidurman,
Manga nofe’ emas gul yog‘i birla ravg‘ani bodom.

bayti tushirib qoldirilgan. Bizningcha, buning sababi toshbosma uchun devonning biror nuqsonli manbasi tanlangan yoki devonning muallif tomonidan qayta tahrir qilinmagan nusxasidan foydalanilgan.

Xuddi shunday holat quyidagi g‘azal matnida ham mavjud:

Garchi men oni qilurman subh ila shom orzu.
Aylamas hargiz meni ul yori xudkom orzu.
Har dam aylarman oni yuz orzu, lek ul meni –
Qilmadi hech bir layoli birla ayyom orzu.
Garchi yod etmas meni yillarda bir dam, vahki yo‘q,
Qilmog‘on ko‘nglum oni bir vaqtu hangom orzu.
Ro‘zu shab ranjurdur ul la’li maygun hajrida,
Aylamas bu xasta hargiz jomi gulfom orzu.
Vasl jomidin hamisha o‘zgalar sarshor erur,
Lek bu maxmur etar bir umr bir jom orzu.
Garchi yo‘qtur furqatida sabru oromim, vale, –
Aylamas ko‘nglum zamone sabru orom orzu.
Zulfi purchinidin oyru ko‘nglum aylar nolalar –
Kim, ko‘rubdir bir qushekim, aylagay dom orzu.
Daf’ eta olmas sadoim ravg‘ani bodomu gul –
Kim manga ul orazi gul, chashmi bodom orzu.
Kibru naxvat qilma, bo‘l andoq muloyimxo‘ykim,
To seni qilsun hamisha xos ila om orzu.
Istasang munda hayoti soniya bo‘l neknom,
Qilma ul ishni kim etkay seni badnom orzu.
Qolmadi hech orzu Komilg‘a shah altofidin,
Juz tavofi Ka’bai maqsudg‘a ehrom orzu.

Qo‘lyozma va nashrda g‘azal matni bir xil – 11 bayt. Toshbosmadagi matnda esa bir qator tafovutlar ham kuzatiladi.

Birinchidan, asliyatdagi matndan quyidagi ikki bayt (yettinchi va to‘qqizinchi baytlar) qisqartirilgan:

زلف پرچینی دین آیرو کونگلوم ایلار ناله لار
کیم کوروبدور بیر قوشی کیم ایلاگای دام آرزو
کبرُ نجوت قیلما بول انداق ملایم خوی کیم
تا سینی قیلسون همیشه خاص ایله عام آرو

Badiiyatan mukammal bu ikki bayt tushirib qoldirilishi g‘azalning shakliy butunligiga putur yetkazgan. *Ikkinchidan*, toshbosmadagi g‘azal

matnining ayrim misralari kotib tomonidan tahrir qilingan. Masalan, qo‘lyozmadagi

Ro‘zu shab ranjurdur ul la’li maygun hajrida,
Aylamas bu xasta hargiz jomi gulfom orzu –
bayti toshbosmada
La’li mayguni firoqida base ranjurmen,
Aylamas bu xasta hargiz jomi gulfom orzu.
Yoki g‘azalning
Daf’ eta olmas sadoim ravg‘ani bodomu gul –
Kim, manga ul orazi gul, chashmi bodom orzu.
bayti toshbosma matnida
Ravg‘ani bodomu gul ermas sadoyim daf’i,
Kim menga ul orazi gul, chashmi bodom orzu –

tarzida berilgan [Komil, 1909:76]. Bu kabi tafovutlar toshbosma matn uchun asos bo‘lgan manba shoir Komil devonining ilk nusxalaridan biri bo‘lishi mumkin, degan xulosaga olib keladi. Qo‘lyozmadagi g‘azal matni esa keyinchalik muallif tomonidan tahrir qilingan nusxadan olingan.

Ayrim g‘azallar matni toshbosmada to‘g‘ri berilgani holda qo‘lyozmada nuqsonli ekani kuzatiladi. Quyida g‘azalning toshbosma manbadagi matni to‘liq keltiriladi:

Nechuk shahlo ko‘zu ne nav’ ruxsori musaffodur –
Ki, ko‘rgach dilrabolar zarra yonglig‘ noshikibodur.
Sabohat gulshanida orazingdur lolai ahmar,
Fasohat bahrida rangin kaloming durri yaktodur.
Ravodurmu bukim, mahrum etib bechora bulbulni,
Visoling gulshani zog‘u zag‘an xaylig‘a ma’vodur.
Alifdek tuz qadu nundek qoshing mehrobidin har dam,
Tafakkur birla gah nundur qadim, gah o‘ylakim yodur.
Labi jonparvaru jomi visoling hajridin o‘ldim,
Hayotim boisi ne obi hayvon, ne Masihodur.
Desam husnungni gar xurshiddin ahsan, tong ermastur,
Ne anda la’li jonbaxshu, ne qotil chashmi paydodur.
Yona bir qatla ko‘rguzgil bu mahjuringg‘a diydoring –
Ki, ul oy hajridin har kecha nolam charxfarsodur.
Nisori rohing aylarga xirom etsang maqomimg‘a,
Sirishkim bahri ichra dur bila gavhar muhayyodur.
Jamoling partavidan zarrai gar yetmasa, ey mah,
Munavvar qilg‘uchi kulbamni ne mohu, ne bayzodur.
Ilohi, tut oni doim jahon osibidin mahfuz,

Qadi naxliki, ko‘nglum gulshanida sarvi ra’nodur.
Nechuk rashk o‘tig‘a o‘rtanmasun Komil janobingda,
Bori noqislar ondin rutbau izzatda a’lodur[Komil, 1909:33].

Qo‘lyozmada ham, u asosida amalga oshirilgan nashrda ham g‘azaldagi sakkizinchi bayt maqta’dan oldin berilgan. Bu noo‘rin tahrir. Chunki g‘azal matni Nasriddinjon ismiga muvashshah qilingan. Muvashshah talabiga ko‘ra, g‘azaldagi toq misralarning bosh harflaridan ushbu ismni kelib chiqadi. Asarshakli bilan bog‘liq bo‘lgan san’at qo‘llangani ushbu g‘azal muallif tomonidan emas, balki kotib yoki noshirning tahriri bilan o‘zgartirilgan, degan xulosaga olib keladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Komil Xorazmiy poetik merosi hanuzga qadar to‘laqonli o‘rganilgan emas. Mavjud nashrlarga kiritilgan she’rlar ham ma’lum nuqsonlardan xoli emas. Shoir lirik merosi o‘rin olgan qo‘lyozma va toshbosma manbalarni qiyosiy o‘rganish asosida devonning mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratish hamda nashr ettirish matnshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devoni Komil. Qo‘lyozma. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, Inv.№1949.

2. Devoni Mavlono Komil maa tavorixi shohon Xorazm. Toshbosma. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, Inv.№237.

3. Jabborov N. Matnshunoslikning ayrim nazariy masalalari. O‘zbek matnshunosligining nazariy va amaliy muammolari //Respublika ilmiy anjumani materiallari//. – Qarshi, 2019.

4. Komil. Devon. Nashrga tayyorlovchilar: A.Hayitmetov, V.Mo‘minova. – T.: 1975.

5. Лихачев Д.С. При участие А.А.Алексеева и А.Г.Боброва. Текстология и материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Из-дво “Алетейя”, 2001.

MIRHASAN SADOIY DEVONINING IRFONIY TADQIQI

Nazmiya Muxitdinova,
SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Резюме. Статья посвящена определению места и роли творчества известного, но до сих пор недостаточно изученного представителя узбекской литературы конца XVIII –го и первой половины XIX вв. Мирхасана Садои, жившего и творившего в свое время в Кокандской литературной среде. Стихи поэта

проанализированы по рукописи сборника, составленного им самим, определены место и значение творчества поэта в узбекской литературе В лирике Садаи освещаются вопросы суфизма, создаётся художественный образ всесторонне совершенной личности.

Resume: Article is devoted to definition of a place and beaters of creativity known, but still insufficiently studied representative of Uzbek literature of the end of the XVIII and the first half of the XIX centuries Mirkhasan Sadoi living and creating in due time in Kokand literary environment. Verses of the poet are analyzed according to the manuscript of the collection made by him, the place and value of creativity of the poet in Uzbek literature. In lyric Sadai are illuminated questions syufizm, creature the artistic image all-round made to personalities.

Ключевые слова: творчество, литературный круг, художественный образ, совершенная личность.

Keywords: creativity, literary circle, artistic image, ideal personality.

Tasavvufiy she’riyat o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim bir qismini tashkil etadi. Ayniqsa, Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiylarning barakali ijodlari tufayli ushbu yo‘nalishda qalam tebratish, irfoniy g‘oya va maslakni badiiy yo‘sinda ifoda etish hodisasini deyarli har bir o‘zbek shoirining ijodida mushohada etish mumkin. Umumiy ravishda irfoniy g‘oyalar va badiiy ijod munosabatlarini shartli ravishda uch guruhga tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Tasavvuf tariqatida muayyan hol va maqom sohibi bo‘lgan oriflarning she’riyati. Ahmad YAssaviy, Boqirg‘oniy, Boborahim Mashrab, Xo‘janazar Huvaydo kabi valiysifat zotlarning she’r yozishdan maqsadi – ilohiy ma’rifat sir-asrorini badiiy ijod orqali muridlar va ma’rifat talabida bo‘lgan o‘quvchilarga etkazish ekanini hisobga olgan holda ularni shu guruhga mansub deb bilish mumkin.

Tasavvuf ta’limotini puxta egallagan, ammo shoirlik iste’dodi oriflik maqomidan ustun bo‘lgan mutafakkir zotlar she’riyati. Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Ogahiy kabi mumtoz shoirlarning ijodida majoz tariqi va haqiqat asrori qorishiq holda kelgani, ularning merosi tasavvuf va irfon chegaralaridan ham o‘zib, umuminsoniy muammolar va g‘oyalar badiiyatning eng latif namunalari bilan bezangani bizning shu tariqada fikr yuritishimizga izn beradi.

Ijodiy merosida tasavvuf va irfonga oid tushuncha va tamoyillar ham uchrab turadigan shoirlar sirasiga Atoyi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amiriy, Gulxaniy kabi shoirlar uchinchi katta guruhni tashkil etadi. Bu

toifadagi shoirlarning ijodiy merosida inson quvonchu tashvishlari, hayotning turfa jumboqlariga orif yo tarkidunyo qilgan zohid ko‘zi bilanmas, balki haqiqatni anglashda turli raviya va fikriy oqimlarning qarashlaridan foydalanish ustunlik qiladi[1].

Mirhasan Sadoiy devonini ko‘zdan kechirsak, bu masalada ham har bir shoir o‘z individual yo‘nalishga ega bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, Sadoiyning she’riyatida irfoniy g‘oyalar asosida yaratilgan g‘azallar devonning salmoqli qismini tashkil etadi.

Sadoiyning irfoniy mavzularda bitilgan g‘azallarini o‘z navbatida uchta katta guruhga tasnif etish mumkin. Birinchi guruhdagi g‘azallarda shoir tasavvufning asosiy tamoyillari, tushuncha va atamalarining badiiy yo‘sinda ifodalaganini ko‘ramiz. Jumladan, 120-raqamli g‘azalda Sadoiy tariqatning eng muhim bosqichlaridan biri – tavba va istig‘for haqida so‘z yuritadi.

Istig‘for aytish, bilib-bilmay gunohlardan pushaymon bo‘lib, nadomat chekish hamda qaytib bu gunohlarni takrorlamalikka jahd qilish barcha diniy ta’limotlarda, jumladan islom dinida mavjud bo‘lgan muhim ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan hisoblanadi. Tavbani Horis Muhosibiy tariqatdagi hollardan biri deb hisoblagan bo‘lsa, Abu Nasr Sarroj “Al-Luma’ fit-tasavvuf” kitobida uni birinchi maqom deb bergan[2].

Sadoiy g‘azalida tavba tasavvufdagi maqomlardan biri sifatida talqin qilingan. Uning g‘azalida istig‘for kalimasi radif o‘rniga qo‘llanilib, g‘azalning emotsionallik xususiyati yanada kuchaytirilgan:

YOdingni qilmay, yo Ahad, astag‘firu-l-lohal-azim,
Bo‘ldi gunohim beadad, astag‘firu-l-lohal-azim.
Bul sog‘ari ishrat qurub, yurdum ajab, o‘ynab, kulub,
Tavba qilib, ham sindurub, astag‘firu-l-lohal-azim. [Sadoiy. 2010: 72]

G‘azalning oxirigacha Sadoiy “kasri nafs” usulini qo‘llagan holda, qilgan toat-ibodati riyo va xo‘jako‘rsinga bo‘lgani, gunoh va xatolari ko‘pligi, hidoyat topish o‘rniga zalolat yo‘lida tentirab yurgani haqida so‘z yuritib, qalb ko‘zi ochilgan insonning g‘aflat uyqusida kechgan umridan pushaymonlik kechinmalarini go‘zal tarzda bayon etgan. Uning g‘azali ko‘zgu yanglig‘ har bir qalbi ogoh kishining mudrab qolgan tuyg‘ularini uyg‘otib, ezgulik tomonga hidoyat qiladi. Sadoiy va uning maslakdoshlari nazdida tasavvuf eng avvalo go‘zal axloqni kamolga etkazish va shu orqali o‘zlikni anglashdan iboratdir.

[1] Ушбу таснифда Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асаридаги шоирлар таснифига таянилди. Батафсилроқ қаранг: Алишер Навоий. 10 жилдлик. 9-ж. “Маҳбуб ул-қулуб”. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.

[2] Бу ҳақда батафсилроқ қаранг: Н.Комилов. Тасаввуф. –Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2008.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida etti vodiy ta’rifi berilgan. Ushbu vodiylardan talab, ishq, istig‘no va faqru fano tushunchalarining lirik talqinini Sadoiyning g‘azallarida uchratishimiz mumkin. Jumladan, inson ma’naviy-ruhiy kamoloti yo‘lidagi talab kategoriyasining talqinida bir qator baytu g‘azallar mavjudki, ularning tahlilidan Sadoiyning bu boradagi qarashlarini bilish uchun ochqich bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, 83-raqamli g‘azalda shoir kundalik toat-ibodatdagi holatdan farqli o‘laroq, Haqning rizosi talabida ekani, g‘aflat va gumrohlik zulmatida qolganidan hidoyat nuri bilan munavvar yo‘lning talabida bo‘lganini quyidagicha ifodalagan:

Zulmat ichinda qoldim, nuri safo kerak,
Qildim o‘zumga o‘zum, emdi sazo kerak.
Keldi qulog‘imga nido, ul piri dayrdan:
«Har tolibini ko‘nglida bir mudda’o kerak”. [Sadoiy. 2010: 54]

YOr vasli rizosiga talabgorlik tuyg‘usi yuqoridagi g‘azalda zohid, ummat, pir, hidoyat kabi timsol va tushunchalar orqali ifodalangan bo‘lsa, quyidagi g‘azalda ushbu mavzu talqinida majoz tariqida ustunlik qiladi. Boshqacha aytganda, ushbu g‘azalni majoziy muhabbatdagi mayl va istaklarning ifodasi sifatida ham, ishqi ilohiyning majoziy talqini sifatida ham anglash mumkin bo‘ladi. Bu esa, g‘azalning badiiy qiymati, ta’sirchanlik kuchini yanada oshirgan:

Birodarlar, ado bo‘lmas, agar aytsam mani dardim,
Oqardi sochu saqolim, qani yor oldida qadrim?
Surog‘ingni qilib, istab, ayo, ey nozanin dilbar,
Bo‘lub mastu junun har masjidu mayxonaga kirdim,
Tegib bu tig‘i hijroning, vale jonimdin o‘tkardi
CHiday olmay bu dardimga qonim tufroq ila qordim. [Sadoiy. 2010: 105]

Ishq mavzusi lirik she’riyat, jumladan, Sadoiy devonida asosiy o‘rin egallaydi. Uning she’riyatida ham salaflari kabi muhabbat mavzusi ikki talqinda – majoziy sevgi hamda ishqi ilohiyning tarannumida uchraydi. Majoziy ishq deganda biz erkak va ayol o‘rtasidagi muhabbatni tushunmasligimiz kerak. Sadoiy va uning maslakdoshlari talqiniga ko‘ra, ishq – ikki insonning pok tuyg‘ulari, Haqqa etkazuvchi bir bosqich. Zotan, insonni sevgan kishigina Ilohni sevadi, pok qalblarda faqat pok tuyg‘ular makon tutadi. Bunday muhabbatda nafsoniy istaklar, shahvoniy g‘alayonlarga o‘rin yo‘q. Majoziy muhabbat tarannumidagi g‘azallarning tarkibiga diqqat qiladigan bo‘lsak, bularni ham majoziy va ham haqiqiy

muhabbat vasfida bitilgan, deyishga to‘liq asos beradi. Misol uchun, ishq radifli g‘azalga e’tibor qarataylik:

Ohu vovaylo, ko‘rung, bizlarni shaydo qildi ishq,
Sirri bu pinhonlarim bir-bir huvaydo qildi ishq.
Ko‘rsatib guldek yuzini nogahon ul dilbarim,
Bu davosiz dardlar ko‘nglumga paydo qildi ishq. [Sadoiy. 2010: 51]

Bundan tashqari, sof ilohiy muhabbat tarannumiga bag‘ishlangan qator g‘azallar ham borki, ularni tahlil qilish orqali shoirning dunyoqarashi va maslagi haqida yorqinroq tasavvur beradi. SHoir muhabbat mavzusidagi g‘azallarida an’anaviy obraz va timsollarga murojaat qiladi. Ammo ularga yangi ma’no va mohiyat yuklab, muddao ko‘pchilik nazarda tutgan real mahbuba emas, balki ko‘ngilda azal kunida muhabbati jo etilgan go‘zallik va ezgulikning haqiqiy mazhari ekaniga e’tibor qaratadi. Jumladan, “qiz” radifli g‘azalni o‘qigan kishi bu satrlar ayol jinsiga mansub qaysidir go‘zal haqida emas, balki bunda (va umuman, barcha g‘azallarda) ilohiy muhabbat mazhari haqida ekaniga ishonch hosil qiladi. Aytish kerakki, Sadoiygacha bo‘lgan mumtoz she’riyatda qiz obraziga bunday ma’no yuklatilmagan. SHu nuqtai nazardan, Sadoiyning poetik topilmasi sifatida baholash mumkin:

Qoshimga kelib nogoh bir dilbari jonon qiz,
Yo‘liga ravon bo‘ldi bir sarvi xiromon qiz.
Qaddig‘a alif hayron, shahlo ko‘ziga ohu,
Guldek yuzig‘a solg‘on bu zulfi parishon qiz...
Qiz ma’nisini bilmay, ayb ayblama ey zohid,
Hech kim ani ko‘rgan yo‘q, ming pardada pinhon qiz.
Aytur bu Sadoiy qul hasratda qolib doim,
Zotingni bilolmasman, ey qudrati Subhon qiz. [Sadoiy. 2010: 43]

Matla’dan oldingi bayt Navoiyning mashhur “Ashraqat...” g‘azalining quyidagi baytini esga soladi:

Sen gumon qilg‘ondin o‘zga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy aylama mayxona ahlin, zohido[1].

Alisher Navoiy ishq va ilohiy ma’rifat majozi sifatida may timsolidan foydalangan bo‘lsa, Sadoiy husn va go‘zallik mazhari sifatida qiz obrazini qo‘llagan. Ayni shu ma’noni u boshqa bir baytida yanada ochiqroq bayon etgan:

Qiz ma’nisida chandon asrori hama ma’ni,
SHarh aylasa oshiqlar olam bari hayron qiz. [Sadoiy. 2010: 43]

[1] Алишер Навоий. Девон. 4 жилдлик. 1-ж. Ғаройиб ус-сиғар/ Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. – Т.: Тамаддун, 2011. – Б.21.

Ma’lum bo‘ladiki, qiz timsoli shoirning lirikasida turli ma’nolarning sir-asrorini o‘zida mujassam etgan. SHu sababdan, muhabbat mavzusida yozilgan lirik asarlarni ham majoziy, ham irfoniy yo‘sinda talqin qilishga asos bor, deb hisoblaymiz. Qolaversa, ishq mavzusi faqat oshiq va ma’shuq o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi g‘azallardagina emas, balki barcha mavzularda – hamd, na’t, munojot, mav’iza va boshqa mavzulardagi asarlarda ham u yoki bu ko‘rinishda zuhur etadi. Bundan kelib chiqadiki, ishq mavzusi keng ma’noda devondagi barcha asarlarda namoyon bo‘lsa, tor ma’noda biz nazarda tutgan mavzulardagi g‘azallarda o‘z ifodasini topgan.

Foniylik va faqru fano masalasi ham Sadoiyning she’riyatida ko‘p marta tilga olinadi. Fano so‘zi devonda ham lug‘aviy va ham istilohiy ma’nolarda keltirilgan. Dorul-fano tarkibida bu so‘z foniy olam (bu dunyo)ni bildirsa, yakka holatda asosan tasavvufiy ma’noda qo‘llanilgan. Tasavvufiy lug‘atlarda fano bo‘lish – insonning yomon sifatlardan (hasad, riyo, takabburlik, g‘azab, shahvat, manmanlik va h.k.) qutulib, ilohiy sifatlardan bahramand bo‘lish hamda go‘zal xulqlar bilan xulqlanish deb izoh berilgan. O‘zining shaxsiy hayotini ushbu maslak asosida qurgan shoir bu haqda g‘azallarning birida kamtarinlik bilan shunnday yozadi:

Sani ishqingda, ey jono, ado bo‘lgan Sadoiyman,
Kuyub kuldek bu olamdin fano bo‘lgan Sadoiyman. [Sadoiy. 2010: 77]

Tariqat yo‘liga kirgan kishining ko‘ngli hamisha xavf va rijo – qo‘rquv va umid orasida bo‘lishi tabiiy. Imonli kishi har qanday holatda Haq taoloning rahmatidan umidvor va ayni o‘sha holatda uning g‘azabidan qo‘rquv va xavfda bo‘ladi. Umuman olganda, ruhiy sayru sulukda qabz va bast, sabr va shukr, xavf va rijo (umid) kabi tushunchalar doimo yonma-yon keladi. Darveshsifat shoir ma’naviy kamolot yo‘lidagi sinov va balolarni sabr va matonat bilan bartaraf qilib, hamisha ilohiy inoyatdan umidvor bo‘lib yashashi, o‘z toat-ibodatiga emas, balki Haq taolo fazlu marhamatiga tayanishini obrazli tarzda quyidagicha ifodalagan:

Umidlik bandaman, harchand gunohim ko‘b, zalilim bor,
Mani bor aylagon yo‘qdin, biling, shundog‘ jalilim bor.
Xudoyim bir yiqar bu bandalarni, g‘am emang hargiz,
Deyun: «Lo taqnatu» - Qur’on ichinda ko‘b dalilim bor.
Taarruz aylamang harchand, agarchi ko‘b yamondurman,
Bihamdullah, Muhammad mustafo otlig‘ xalilim bor. [Sadoiy. 2010: 38]

Sadoiy g‘azallarida tajrid va tafrid (92-g‘azal), zuhd va taqvo (171-g‘azal), istig‘no (93-g‘azal), balolarga sabr (44-g‘azal), majoziy va haqiqiy

olam (39-g‘azal), shukr (76-g‘azal) kabi tasavvuf she’riyatida keng qo‘llaniladigan tushuncha va tamoyillar badiiy yo‘sinda ifodalangan. Bu g‘azallarning ma’no qatlamlari keng dunyoqarash va irfoniy tafakkur sohibi bo‘lgan shoirning tasavvuf tariqatini puxta o‘zlashtirgani hamda amalda mazkur bilimlarga og‘ishmasdan amal qilganini ko‘rsatadi. O‘z navbatida mazkur g‘azallar davr she’riyatida irfoniy qarashlarning mustahkam o‘rnashgani, ilm va ijod sohiblarining irfon va tasavvuf masalalariga qiziqishlari kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Sharq tasavvuf she’riyatining salmoqli qismini tariqatda yuksak maqomlarga erishgan avliyolar, tariqat shayxlarining badiiy ijodi tashkil etadi. Irfoniy she’riyatni yuksak darajalarga ko‘targan Ahmad YAssaviy, Abusaid Abulxayr, Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro kabi zotlar o‘z navbatida muayyan tariqatning peshvolari, o‘z zamonasida ma’naviy rahnamosi va piru murshidlari hisoblanardilar. Sadoiy va G‘oziy she’riyati esa – muridlar toifasiga mansub darveshlarning ruhiy iztiroblari va evrilishlarining badiiy hosilasi. Ayniqsa, Sadoiyning qator she’rlari o‘z piri murshidi Huvaydoning vasfiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda muridning cheksiz mehr-muhabbati va sadoqatga yo‘g‘rilgan irodati o‘z aksini topgan.

Sadoiy o‘z g‘azallarida piriga nisbatan yor, dilbar, oy kabi an’anaviy timsollar va tavsiflarni qo‘llaydi. SHuning barobarida nozik ishoralar orqali bu satrlar aniq bir kishiga, ya’ni piri – Huvaydoga bag‘ishlanganini bildirib o‘tadi:

Agar dargohingga borsam qilib man sha’nu shavkatni,
Buloqboshidagi yurgon eshigingda gado derlar. [Sadoiy. 2010: 35]

Sadoiyning ijodiy uslubi aynan Huvaydo ta’sirida shakllangani, bu zotning ilmu irfoni, tariqatdagi maqomi, irshodlari hamda barakali badiiy ijodi hamisha mahorat va o‘rnak namunasi bo‘lganini e’tirof etib yozadi:

Sadoiy so‘zlari, jono, sanga hargiz emas manzur,
O‘qub ko‘rgan xaloiqlar degay misli Huvaydodur. [Sadoiy. 2010: 36]

Mazkur mavzuda yozgan she’rlari Sadoiyning tarjimayi holi haqida ham muayyan tasavvur beradi. U g‘azallarning birida ma’naviy kamolot istagida yurgan paytlarida Huvaydoga uchragani, uning ruhiy olamining azamati va qurbatini ko‘rib, istaganini aynan Buloqboshidan topgani, bu zot Sadoiyning hayotida alohida o‘rin egallaganini ta’kidlab, Buloqboshining bu zot sharofati bilan hikmat va ma’rifat bulog‘iga aylangani vasf etadi:

Ozib yo‘llarda man qoldim, piri rahbarga uchrabman,

Javohir konida yo bir qadi gavharga uchrabman. [Sadoiy. 2010: 78]

Murshidning vasfi faqat g‘azallar doirasidagina emas, balki boshqa janrlarda bitilgan she’rlarda ham uchraydi. Jumladan, murabba’lar turkumida shoir pirning huzuriga borib, undan kasbi kamol qilish ishtiyoqini baland pardalarda kuylagan. Pirni ziyorat qilish ulkan ma’naviy ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgani, o‘zining botiniy olamini basirat ko‘zi bilan taftish etib, nuqsonlarini oshkor etgan orif zotning tuyg‘ularining ifoda etish yo‘lida yaratilgan ushbu murabba’ ham davr adabiy hayotida o‘ziga xos bir voqelikka aylangan:

Birodarlar, pir qoshig‘a borg‘um kelur,
Jon ko‘zi birlan ani ko‘rgum kelur.
Umid aylab jamolini ko‘rgan vaqtda,
Ma’rifatning bayonini so‘rg‘um kelur. [Sadoiy. 2010: 123]

Umuman olganda, murabba’ janri Qo‘qon adabiy muhitida rivojlangan janrlardan hisoblanadi. Ayniqsa, Muqimiyning murabba’lari adabiyot tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgani adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Qo‘shimcha ravishda Sadoiyning murabba’lari ham badiiyat va mavzu ko‘lamdorligi bobida adabiy muhitda o‘ziga xos mavqeni egallaganini ta’kidlashni joiz deb topdik.

Pirga murojaat, uni barcha sirlar koshifi sifatida madh etish SHarq mumtoz adabiyotida ko‘p asrlik an’analardan hisoblanadi. Jumladan, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarining muqaddimaviy boblarida ustozi va ma’naviy rahnamosi Abdurahmon Jomiy zikriga alohida bob ajratgan. SHarq g‘azalnavislarining ustozi hisoblangan Xoja Hofiz SHeroziyning g‘azallarida ham pir obrazi keng qo‘llaniladi. Ammo Hofiz SHeroziyning piri kim bo‘lganligi haqida g‘azallarida ham, biografiyasiga oid manbalarda ham aniq ishora bo‘lmagani sababli, she’rshunoslar Hofiz g‘azallaridagi pirni umumlashma obraz, badiiy timsol o‘laroq talqin qilishni ma’qul ko‘radilar. Sadoiy g‘azallarida esa pir – konkret shaxs, tarixiy siymo. Uning ishoralaridan ham bu g‘azallar irfoniy mavzuda bitilishi barobarida g‘azal-bag‘ishlov ekanini anglash qiyin emas:

YUrub cho‘llar aro sarson bo‘lub yo‘ldin ozib ketsam,
Borib bir piri rahbar, sohibi kengashdin so‘rgil.
Mani bechorani toki agar har kim talab qilsa,
Borib ul Turk kentida, Buloqni boshidin so‘rgil. [Sadoiy. 2010: 62]

Ko‘rinib turibdiki, Sadoiy devonida irfoniy matlab va muddaolar uch ko‘rinishda – tasavvuf atalarning badiiy talqini, pir-murid munosabatlarining ifodasi hamda qalandariylik tariqatiga ko‘ngil bog‘lagan shoirning shaxsiy kechinmalari ifodasi o‘laroq vujudga kelgan.

G‘oziyning g‘azallarida esa irfoniy qarashlar uning maslagiga aylangan axloqiy konsepsiyaga bo‘ysundirilgan holda talqin qilinadi. SHunga qarab, Sadoiyni so‘fiy shoirlar sirasiga, G‘oziyni esa tasavvufdan ilhomlangan ijodkorlar toifasiga mansub deb hisoblash kerak. Ushbu ikki devon misolida ham Qo‘qon adabiy muhitida badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchilarining tasavvufga bo‘lgan munosabatlari rang-barang bo‘lgani, bu rang-baranglik fikriy va ijodiy-badiiy xilmaxillikka olib kelganini bilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. 10 жилдлик. 9-ж.–Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Девон. 4 жилдлик. 1-ж. Ғаройиб ус-сиғар/ Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. – Тошкент: Тамаддун, 2011.
3. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Халқ мероси, 2002.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009.
5. Садоий. Девон. Нашрга тайёрловчи Муҳитдинова Н. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

ҚОЗОҒИСТОНДА МУМТОЗ ШОИРЛАР ИЖОДИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (Амир Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳ асарлари мисолида)

Ҳулкар Ҳамроева,
Ўзбекистон давлат хореография академияси доценти,филология фанлари доктори (DSc)
Шаҳло Наралиева,
Қозоғистон Республикаси, Ж.Ташенев номли университет халқаро департамент директори, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мазкур мақолада улуғ шоир ва мутафаккир Амир Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳ ижодининг Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида ўрганилиши тадқиқ қилинади.

Калит сўзлар: Навоий, сўз, мумтоз, ҳайрат, ғазал, она тили, достон, ўзбек адабиёти, мерос, Бобуршоҳ, “Хамса”, “Бобурнома”.

Ўзбекистон Республикаси билан Қозоғистон Республикаси ўртасида “Абадий дўстлик тўғрисида”ги Шартнома имзолаш маросимида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев тўғри таъкидлаганидек, “Умумий тарихимиз, маданий ва маънавий қадриятларимиз, анъана ва урф - одатларимиз бизни бирлаштириб туради. Қозоғистон Ўзбекистон учун энг яқин, ишончли ва давр синовидан ўтган ҳамкордир. Бугунги мураккаб замонда ўзаро муносабатларимиз давлатлараро ҳамкорликнинг намунаси бўла олади, деб ҳеч муболағасиз айтишимиз мумкин” [1].

Икки қардош мамлакат ўртасидаги кўп қиррали муносабатларнинг жадал ривожланаётганлиги халқларимизнинг қалбан яқинлигини билдиради. Ҳақиқий дўстликни ўзаро иззат-ҳурмат юксалтиради. Ўзбекистон ва Қозоғистон Республикалари Президентларининг 2024 йилнинг 9 август куни Астана шаҳрида ўзбек халқининг буюк фарзанди, мутафаккир шоир ва атоқли давлат арбоби Амир Алишер Навоийга ўрнатилган ҳайкалнинг очилиш маросимида иштирок этиши ва нутқ сўзлаши яхши қўшничилик муносабатларини янада мустаҳкамлади. 2020 йилда марҳум қозоқ шоири Несипбек Айтули ҳазрат Навоийнинг буюк асари – “Хамса”ни қозоқ тилига таржима қилиши ва нашр эттириши адабий дўстликнинг янги саҳифасини очди. Китобга Қозоғистон Республикаси Президенти Қосим-Жўмарт Тўқаев томонидан сўзбоши ёзилиши ўзига хос муҳим воқеа бўлди. Икки буюк давлат ва қондош – қариндош икки халқнинг ривожланиш босқичида адабиёт ва маданиятга катта эътибор берилаётгани бежиз эмас. Қозоғистон Президенти Қосим - Жўмарт Тўқаев ўз нутқида Амир Алишер Навоийга юксак эҳтиром билдирди: “Қадим - қадимдан биз халқларимизни бирлаштирувчи умумий қадриятларга эга қардош мамлакатлар эдик.Бизни тарих, тил ва дин бирлаштириб туради. Икки давлат ўртасида анъанавий қардошлик муносабатларини йўлга қўйишда Алишер Навоий шахси алоҳида ўрин тутади. Ўз вақтида Мухтор Ауезов “Алишер Навоий мероси нафақат ўзбек адабиёти учун қимматли, балки Шарқ мамлакатлари адибларига ҳам катта таъсир кўрсатган ”, деб таъкидлаган эди. Буюк шоир асарлари бутун туркий халқларнинг маънавий хазинаси бўлиб хизмат қилади” [2].

Кейинги йилларда улуғ аждодларимиз яратиб кетган бой маданий меросни биргаликда ўрганиш, уларни илмий-назарий

[1] https://president.uz/uz/lists/view/5782
[2] https://president.uz/uz/lists/view/5782

жиҳатдан тадқиқ этиш ва ривожлантириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Зеро, жамиятда ижтимоий онг ўзгариши билан ижтимоий муносабатлар ҳам ривожланиб боради. Бу жараён улкан тўлқин сифатида Ўзбекистон ва Қозоғистон халқларининг яқин қўшничилик, миллатлараро тотувликнинг муштарак мақсадларида намоён бўлаётир. Ҳамкорликнинг муҳим самараси сифатида мунтазам равишда халқаро илмий-амалий конференциялар, маҳорат дарслари, халқаро ҳамкорликнинг энг долзарб мавзуларида давра суҳбатлари, илмий семинарлар, китоб тақдимотлари, кўрик-танловлар, олимпиадалар ташкил этилиши анъанага айланди.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг 5-6-7- синф, 9-10-синф “Ўзбек адабиёти” дарсликларига ҳазрат Навоий асарларидан намуналар киритилган. Ўсиб келаётган ёш авлод улуғ шоир руҳиятини, рубоий, ғазалу достонларидаги сўз фалсафаси ва кўнгил ҳайратини қанчалик кенг ва чуқур англаса, инсоният тарихига шунчалик кўпроқ қизиқади, уни тушунишга, ҳаёт ва ҳалоллик, имон ва эътиқод моҳиятини англашга, инсон ва жамият ўртасидаги муносабатларни ўрганишга ҳаракат қилади.



2

Ўзи қадрин зареар билар

Турку Ажаму Арабда айём,
Ҳар шоири вермишди бир ком.
Ўлмишди Навоийи сухандон,
Манзури шаҳаншоҳи Хуросон.

Фузулий

- муаммоли саволларга матнга таяниб, мавзуга ўз мустақил фикримизни билдирган ҳолда батафсил далилли жавоб берамиз;
- Навоий ҳақида парчаларни таҳлил қиламиз, муаллиф кўзқарашини матндан мисоллар келтириб, тушунтирамиз;
- Шоир ижоди юзасидан савол-жавоб ўтказамиз.

Матнолди топшириқлар: *матнни «Айланма бекат» усули бўйича ўрганинг.*

Ижод оғушида. Бу даврда Ҳиротда адабий ҳаёт жўш урган. Алишер Навоий атрофида Шайхим Суҳайлий, Хожа Осафий, Виноий каби ўнлаб шоирлар, Ҳасан Ноий, Хожа Абдулло Марворий, Қулмуҳаммад Удий, Шоҳқули Ғижжакий каби ўнлаб созандалар, Мирхонд, Хондамир каби тарихчилар, Султонали Машҳадий, Абдужамил Котиб, Хожа Ҳофиз Муҳаммад, Султонали Коший, Муҳаммад Хандон, Мавлоно Ҳижроний каби машҳур котиблар, Беҳзод каби мусаввирлар қизғин ижодий меҳнат билан банд эдилар. Ҳиротда, умуман, Хуросон мулкида маънавий ҳаётнинг бақувват устунларидан Абдураҳмон Жомий билан Алишер Навоий ўртасидаги ижодий ҳамкорлик – устоз-шогирдлик кўп масалаларда ҳамфикрликка олиб келди. Алишер Навоийнинг ўзбек тилидаги дастлабки йирик асарларидан «Ҳилолия» қасидаси Султон Ҳусайн Бойқарога бағишланган бўлса, форсий тилдаги биринчи йирик асари «Туҳфат ул-афкор» (1476) қасидаси Жомийга бағишланган эди.

1470-йилларнинг охирларида Алишер Навоий ўзининг ўзбек тилида ёзган шеърларидан иборат илк девони – «Бадоеъ ул-бидоя» («Бадиийлик ибтидоси»)ни тузди. Мазкур девонда 777 ғазал, 85 рубоий, 52 муаммо, 46 қитъа, 53 фард, 10 туюқ, 10 луғз, 3 мустазод, 5 мухаммас, 3 таржеъбанд, 2 мусаддас бўлиб, бундай мукаммал девонни тузиш Навоийгача камдан-кам ўзбек шоирига насиб бўлган. Алишер Навоий «Бадоеъ ул-бидоя» тузилгандан кейинги даврда ёзилган ўзбекча шеърлари асосида 1480 йилларнинг охирида «Наводир ун-ниҳоя» («Беҳад нодирликлар») девонини тузди. 1841-82 йилларда Алишер Навоий «Чиҳл ҳадис» («Қирқ ҳадис» ёки «Арбаин») асарини ёзади. Бунда Муҳаммад пайғамбар(сав)нинг қирқ ҳадиси тўртлик билан шеърий ифодалаб берилган.

Алишер Навоий мансуб адабий ҳаётда шеърий жанрлардан ғазал, қасида, айниқса, муаммо ёзишга қизиқиш кучли эди. Алишер Навоий форсий девонига 373 муаммо киритган. Шундай адабий майллар туфайли 1485 йил муаммо ёзиш қоидалари ҳақида махсус «Муфрадот» асарини яратди.

Алишер Навоийда ўзбек тилида «Хамса» – беш достон яратиш мақсади ёшлигидан бўлган. Бу мақсадини 1483–85 йилларда амалга оширди. Асар ўзбек адабиёти шуҳратини оламга ёйиб, жаҳон адабиётининг дурдоналаридан бирига айланди.

«Хамса»дан кейин Навоий яна бир қанча асарлар яратди. 1485 йил ўзининг машҳур «Назм ул-жавоҳир» асарини ёзди, бунда биринчи халифалардан бўлмиш Ҳазрат Алининг 266 та ҳикматли гапи рубойи тарона (тўрт мисраси ҳам қофияланган) шаклида баён этилган. Ўша давр китобхонлари, шу жумладан, тарихчи Хондамир бу асарни ғоят юксак баҳолаган.

Алишер Навоий ҳамиша кўпроқ ижодий ва илмий ишлар билан шуғулланиш, бу борадаги режаларини амалга ошириш хаёли билан яшарди. Ҳаёт эса унинг режаларига ўз тузатишларини киритар эди. 1488 йил Сайид Ҳасан Ардашер, 1492 йил Жомий, 1493 йил олим ва шоир Паҳлавон Муҳаммад бирин-кетин ҳаётдан кўз юмдилар. Навоий ўзи учун қадрдон бўлган бу инсонлар хотирасини абадийлаштириш, уларга ўз ҳурматини изҳор этиш учун «Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер», «Хамсат ул-мутаҳайирин» («Беш ҳайрат»), «Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад» номли рисолаларини ёзди. Астрободда ёза бошлаган «Тарихи мулуки Ажам» («Ажам подшоҳлари тарихи») асарини тугаллади (1489).

1490 йил у ўзига замондош шоирлар ҳақида Жомийнинг «Баҳориетон», Давлатшоҳ Самарқандийнинг «Тазкират уш-шуаро» асарлари шаклида «Мажолис ун-нафоис» («Нафислар мажмуаси») тазкирасини тузишга ки-

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, пер

5-синф “Ўзбек адабиёти”[1] дарслигидан шоирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида маълумот ва “Маҳбуб ул-қулуб” асаридан парча ўрин олган. Ўқувчилар мазкур парчани ўқиш орқа ли ундаги тасвир ва иборалар, сўзларнинг ички маънолари билан танишадилар, фикрни баён қилиш йўлларини ўрганадилар. Ўзбекистон Миллий энциклопедиясида қайд этилганидек, “Ҳар бир жумла ўзаро қофиядош. Асарнинг сажъда ёзилиши унга алоҳида бадиий нафосат бағишлаган. Асарга байтлар, рубоийлар киритилиб, улуғ шоир ва мутафаккирнинг ҳаёт ҳақидаги хулосаларини мужассамлаштирган.”[2] Ўқитувчи ўзининг мухтасар маърузасида ўқувчиларга шу уйғунликни ҳамда дарсликдаги матнолди топшириқларни тушунтириб беради:

1. Навоийнинг қандай асарларини ўқигансиз?
2. “Маҳбуб ул-қулуб” сўзининг маъносини биласизми?
3. Асарнинг бундай номланишининг сабабини тушунтиринг.

Юқоридаги саволларга жавоб излаган ўқувчилар анча фаоллашади, асардан олинган “Тавозе ва одоб тўғрисида”ги матн ҳамда Мудбир ва Муқбил ҳақидаги машҳур ривоятни алоҳида қизиқиш билан ўқийдилар. Улардаги фалсафий фикрларни ҳаётий воқеалар билан қиёслайдилар. Ўқитувчи улуғ шоирнинг инсонпарварлик ғоялари, эстетик идеали сифатида инсоннинг ахлоқий сифатлари, халқнинг энг олижаноб фазилатлари ҳақида тушунча беради. Ўқувчиларнинг фикрини сўрайди. Ғоят муҳим тарбиявий аҳамиятга бўлган матн ва ривоятнинг ғоявий мазмуни ўқувчиларга кучли таъсир қилади. Матн якунидаги қуйидаги савол ва топшириқлар уларни қизиқтириб, суҳбат очиқ мулоқотга айланади:

1. Яхшилик ёмонликни енгишига ишонасизми?
2. Инсон қандай ҳолларда адашганлари тўғри йўлга солиши мумкин?
3. “Т” жадвали орқали Муқбил ва Мудбирга тавсиф беринг ва хулосаланг.

Улуғ шоир жамиятдаги ҳар бир воқеликда инсон руҳияти билан боғлиқ ранг - баранг ҳолатларни кўради. Уларни таҳлил қилиш ўқувчиларни олам ва одам муносабатлари билан яқиндан таништириб боради. Бу танишув орқали ўқувчилар яхшилик ва

[1]Ш.Наралиева, Б.Турдикулов, Н.Корганбаева. Ўзбек адабиёти. Умумтаълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик. Қозоғистон Республикаси Таълим ва фан министрлиги тасдиқлаган. Алматы.: “Жазушы” нашриёти, 2017. Б.-122- 123- 124- 125-126-127-128-129-130-131.

[2]Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5- ж. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат нашриёти., 2003. -Б. 553.

ёмонлик ўртасидаги фарқни тушунадилар.

Ўқувчилар икки гуруҳга бўлиниб, матн ва ривоятни қиёслайдилар, таҳлил жараёнида ўзлари дуч келган ҳаётий мисоллардан келтиришади. Мавзу давомида “Маҳбуб ул-қулуб”дан олинган “Саховат ва ҳиммат тўғрисида”, “Саховат қандай қилинади?”, “Ҳилм тўғрисида”, “Тил тўғрисида” каби матнлар ҳам ўрганилади. Ҳазрат Навоийнинг ахлоқий-руҳий, маънавий-маърифий қарашларида инсон моҳияти, инсонпарварлик ғоялари улуғланади. “Маҳбуб ул-қулуб”да инсон бебаҳо хилқат даражасига кўтарилади, ундаги ҳар бир фикрдан ҳикмат ва маънавият ёғдулари таралиб турибди. Қуйидаги савол ва топшириқлар ўқувчиларнинг ақлини, ижодий фикрлаш қобилиятини яна бир бор чархлайди.

1.Гуруҳларда муҳокама қилинг: тавозе ва такаббурлик натижаси нимага олиб келади?

1-гуруҳ. Камтаринлик. 2-гуруҳ. Такаббурлик. 3-гуруҳ. Баҳоловчи.

Ўқувчилар гуруҳларга бўлиниб, қизиқиш билан савол ва топшириқларни бажаришга киришадилар. Муҳокама жараёнида ўқитувчи ўқувчиларга Ҳазрат Навоийнинг қанчалик буюк қалб, юксак салоҳият эгаси эканлигини англатишга уринади.

2. “Ақлли ҳужум”: Муқбил ва Мудбирга хос жиҳатларга янги ўхшатишлар топинг.

3. “Ягона давра” стратегияси асосида “Илмли ва илмсизлар” мавзусида фикр юритинг.

4. “Саховат” сўзига “Синквейн”, яъни беш мисрали шеър стратегиясини қўлланг.(1 – битта от сўз туркуми, 2 – иккита сифат сўз туркуми, 3 – учта феъл сўз туркумига хос сўз, 4 – тўрт сўздан иборат гап, 5 – мавзуга доир бир синоним)

5. “Бизнинг саховатпеша инсонлар” мавзусида “Баҳс - мунозара” стратегиясини ўтказинг.

6. “Балиқ скелети” стратегияси орқали инсоннинг ширинсўзлик ва камтаринлик ҳамда дағалсўзлик ва такаббурлик жиҳатларини таҳлил қилинг.

7. Навоий бобомизга мактуб ёзинг.



девон» деб ҳам аталган. Девон шоирнинг бутун ҳаёти давомида ёзилган шеърларини қамраб олган, уларда Алишер Навоийнинг барча даврларидаги кайфияти, дунёқараши, орзу-умидлари ифодалаб берилган. Тахминан шу йилларда Алишер Навоий форсий шеърларидан ташкил топган «Девони Фоний» («Фоний девони»)ни, форсий тилдаги 2 қасидалар мажмуаларини тузиб, форсий шеърият тараққиётига ҳам ўзининг муносиб ҳиссасини қўшди. Хуросонда форсийзабон халқлар кўпчиликни ташкил этганлиги инобатга олинса, Алишер Навоийнинг бу тилда ҳам самарали ижод қилгани мамлакат маънавий эҳтиёжини яхши ҳис этганлигини билдиради.

1490 йилларнинг ўрталарига келиб мамлакатда ижтимоий-сиёсий танглик кучая бошлайди. Темурийлар хонадонида ҳукмдор ўғиллари ўртасида юзага келган зиддиятлар эса бу тангликни янада кучайтиради. Ҳар бир шаҳзоданинг ўз тарафдорлари бўлиб, уларни муросага келтириш кўп вақт Алишер Навоий зиммасига тушар эди. Бош вазир Низомулмулк эса 1496–1497 йилларда бу оилавий можароларда бир томонлама ҳаракат қилиб, Музаффар Мирзонинг онаси – Хадича бегимга ён босади. Шу асосда Ҳусайн Бойқаро билан Астрободда ҳокимлик қилаётган Бадиуззамон ўртасида ҳарбий тўқнашув юз берди. Саройдаги фитна, жумладан, Низомулмулкнинг қабиҳлиги натижасида Бадиуззаммонинг ўғли, Ҳусайн Бойқаронинг энг севимли набираси, Навоийнинг эса ихлос қўйган шогирди Мўмин Мирзо ҳожиали ўлдирилади. Булар ҳаммаси Алишер Навоий ҳаёти ва кайфиятига салбий таъсир кўрсатади.

Алишер Навоийнинг шеърий даҳоси XV аср охирларига келиб яна жўш урди. У 2 йил мобайнида 2 та йирик асар – «Лисон ут-тайр» («Қушлар тили») достонини ва «Муҳокамат ул-луғатайн» («Икки тил муҳокамаси») номли илмий асарини яратди. Алишер Навоийнинг сўнгги буюк асарларидан яна бири насрий панднома йўсинида ёзилган «Маҳбубул-қулуб» («Қалблар севгани») дир. У Шарқ адабиёти тарихида Шайх Саъдийнинг «Гулистон», Кайковуснинг «Қобуснома», Низомий Арузи Самарқандийнинг «Чор мақола» каби асарлари қаторида туради. Бу асарида Алишер Навоий ўзининг ҳаёт йўлини, бошидан кечирган турмуш машаққатларини ёркин тасвирлаб берган.

1500 йилларга келиб шоирнинг ҳаёт шароити қийинлашиб, соғлиги заифлашиб қолса-да, ижоддан тўхтамади. 1501 йилнинг бошида Навоий касаллиқдан вафот этди. Бутун Ҳирот халқи ўзининг буюк шоири билан хайрлашишга чиқди ва 7 кун давомида мотам тутди.

Навоий ўз ижоди билан ўзбек адабиётининг сўнгги ривожини белгилабгина қолмай, Моваруннаҳр ва Хуросоннинг бутун маънавий маданияти тараққиётига жуда катта таъсир кўрсатди. Унинг асарлари, шеърияти қайта-қайта кўчирилиб, халқ орасида кенг тарқалиб, шоирлар учун мактаб вазифасини ўтади, мадрасаларда кенг ўрганилди.

112

Тушуниш ва саволларга жавоб бериш

1. Навоий ўз атрофида яратган адабий муҳит ҳақида фикр юритинг.
2. Навоийни бу қадар улкан ижодий ишлар қилишга ундаган омил нима эди?

Таҳлил ва талқин

1. Шоирнинг яқинлари ва устозларига муносабатини изоҳланг.
2. Навоийнинг ижодидаги асосий асарларини белгиланг ва нима учун маълум бир асарни белгилаганингизни тушунтиринг.
3. «Фишбоун» усули воситасида гуруҳлараро савол-жавоб ўтказинг.

Баҳолаш ва қиёсий таҳлил

1. Навоийнинг умумтурк адабиёти ривожидаги ўрнини кўрсатинг.
2. Венн диаграммаси асосида Навоий давридаги адабиёт ва замонавий адабиётни қиёсланг.

113

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, пер

Мазкур савол ва топшириқлар устида изланиш ўқувчиларнинг буюк аждодларимиз ҳақидаги тасаввурини кенгайтиради, ўтмиш билан таништиради, уларнинг кўз олдида сўз ва тафаккур оламининг янги қирралари кашф этилади. Ўқитувчи ўқувчиларнинг фикран ўсишларига алоҳида диққат қилади, уларнинг дунёқарашларига яқин бўлган образлар, воқеаларни чуқурроқ таҳлил қилишга йўналтиради. Мавзуга бу каби ёндашиш ўқувчиларда ҳазрат Навоий асарларига қизиқиш уйғотади, инсоннинг табиатини, жамиятнинг ўзига хос тамойилларини билишга ўргатади. Атоқли навоийшунос олим, профессор И.Ҳаққулнинг фикрича, “Алишер Навоийнинг буюклигини билмаслик ўзбек миллатининг маданияти тарихи, миллий-маънавий куч-қуввати ва жаҳон бадиий тафаккурига қўшган буюк ҳиссасини англамаслик билан баробар. Алишер Навоийнинг улуғ сиймоси ул зотнинг руҳонияти, беназир шахсияти ва сўзни санъат даражасига кўтарган ижодкор эканлиги билан белгиланади. Унинг шу замонда – янги асрда ҳам замонавий шоир сифатида ёдга олинаётгани беҳикмат бўлмаса керак” [1].

Мавзу якунида ўқувчилар гуруҳларга бўлиниб, берилган савол ва топшириқларни бажарадилар. Мазкур жонли жараёнда гуруҳ иштирокчилари матнлар ва ривоят хусусида ўз мулоҳазаларини билдирадилар. Ўқитувчи ўқувчиларнинг бир - бирининг фикрларини такрорламаслигини назорат қилиб боради. Ҳазрат Навоийнинг

[1]Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. Тошкент.: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти,2007. Б.-159.

“Саховат ва ҳиммат тўғрисида”, “Саховат қандай қилинади?”, “Ҳилм тўғрисида”, “Тил тўғрисида”ги фалсафий қарашларини ўрганиш жараёнида айниқса, она тили ҳақидаги ҳикматларга алоҳида эътиборли бўлишни уқтиради. Ҳикматларни идрок қилишлари ва уни ўзлаштиришларини, асардан олинган парчаларнинг ўқувчиларга тарбиявий ва эстетик таъсир этишини кузатиб боради.



Тушуниш ва савollарга жавоб бериш

1. Алишер Навоийнинг адабий ва илмий меросини фасларга бўлинишини «Ментал карта» чизмасида акс эттиринг.

Таҳлил ва талқин

1. Навоий «Хамса»сининг бошқа «Хамса»лардан ўхшаш ва фарқли томонларини кўрсатинг.
2. Навоий асарларининг хронологик жадвалини тузинг.

Йиллар	Асарлар

Баҳолаш ва қиёсий таҳлил

1. «Навоий – турк адабиётининг даҳо ижодкори» мавзусида ижодий иш ёзинг.
2. Навоийнинг ҳаёти ва ижоди асосида тақдимот тайёрланг.

120

8

БУГУН ДАРСДА:
- Навоийнинг ғазалларини ифодали ўқиймиз, матн устида ишлаймиз;
- муаллиф кўзқарашини матндан мисоллар келтириб, тушунтирган ҳолда муаллифнинг қаҳрамонларига муносабатини ифодалаш усулларини аниқлаймиз;
- «Назм ва наво» дарсини ўтказамиз.

ҒАЗАЛЛАР

Олибмен тахти фармонимға осон,
Черик чекмай Хитодин то Хуросон.

Хуросон демаким, Шерозу Табриз –
Ки қилмишдур найи қилким шакаррез.

Кўнгул бермиш сўзимга турк, жон ҳам,
Не ёлғуз турк, балким туркмон ҳам.

Алишер Навоий

Оразин ёпқач кўзимдин...

Оразин ёпқач, кўзумдин сочилур ҳар лаҳза ёш,
Ўйлаким, пайдо бўлур юлдуз, ниҳон бўлғоч қуёш.

Қут бир бодому ерим гўшайи меҳроб эди,
Ғорати дин этти ногаҳ бир балолиғ кўзу қош.

Бу дамодам оҳим ифшо айлар ул ой ишқини,
Субҳнинг бот-бот дами, андоғки, айлар меҳр фош.

«Бўсае қилмас мурувват, асру қаттиқдур лабинг»,
Десам оғзи ичра айтур: «Лаъл ҳам бор навъи тош».

121

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, пер

Ҳазрат Навоий, Мирзо Бобурдек даҳо ижодкорлари, улуғ санъаткорлари бўлган миллатнинг ўтмиши ҳам, бугуни ва эртаси ҳам улуғвор эканлиги исбот талаб қилинмайдиган ҳақиқатдир. Таниқли адабиётшунос олим О.Жўрабоев тўғри таъкидлаганидек, “... жаҳонга танилган улуғ аждодимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳ (1483 - 1530) ҳаёти, фаолияти ва қолдирган илмий – адабий мероси нафақат халқимиз, балки умумдунё тамаддунига қўшилган муносиб ҳисса эканлигидан ҳам фахр туямиз” [1].

Улуғ шоир ва шоҳнинг фалсафасига кўра, ҳар қандай тарихий жараён инсон тафаккури ва заковатининг маҳсулидир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур инсоният ҳаётида маънавий тамойиллар, ахлоқий фазилатлар, ватанга муҳаббат олий даражадаги қадрият деб билади. Ҳамда ўзининг бутун умри, бадиий – илмий асарларида, фалсафий теран рубоий ва ғазалларида, сиёсий – тарихий, ижтимоий – маърифий фаолиятида шу тамойилга амал қилади. Ўсиб келаётган ёш

[1] Жўрабоев О. Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросининг жаҳоний ва миллий кўлами. Адабиёт халқнинг юраги. Т.: “АДАБИЁТ” нашриёти, 2021. -Б.72.

авлодни мумтоз адабиёт дурдоналари билан янада мукаммал таништириш мақсадида Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг 5 – синф ва 9– синф “Ўзбек адабиёти” дарсликларига Бобур Мирзо асарларидан намуналар киритилган.

Замонавий педагогик технологияни шахсга таъсир кўрсатиш санъати сифатида қабул қилсак, адабиёт ўқитувчисининг ўқувчини мустақил фикрлашга, фаоллашишга ўргатишдаги масъулияти ниҳоятда улкан эканлигини англаймиз. 5 – синф “Ўзбек адабиёти”[1] дарслигидан буюк саркарда, улуғ шоҳ ва шоир Бобур Мирзонинг ҳаёти ва ижоди ҳақида маълумот ҳамда рубоийларидан намуналар ўрин олган.

Ўқитувчи ўқувчиларни буюк шоҳ ва беназир шоир ижоди ва шахсиятига қизиқтириш, уларнинг образли тафаккури, ижодий тасаввурини кучайтириш мақсадида мавзуни бошлашдан олдин ўқувчиларга бир неча саволлар билан мурожаат қилади. Саволларга жавоб берар экан, ўқувчилар асосан П.Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асари асосида тайёрланган видеофильмга таянаётганини кўрган ўқитувчи Бобуршоҳнинг таржимаи ҳоли ҳақида гапиришдан олдин, уларга бадиий асар ва мемуар асарнинг фарқи ҳақида, буюк саркарда қўлига қалам олганида, “Бобурнома”ни ёзишни бошлаганида ўзи ҳам ёш бола бўлганлиги хусусида тушунча бериб ўтади.

Мавзу бўйича берилган матнолди топшириқларининг ечимини ҳам ўқитувчи ва ўқувчилар биргаликда излашади. Хусусан:

Яхшилик қилиш деганда нимани тушунасиз?

“Бировга чуқур қазисанг, ўзинг йиқиласан” мақолини шарҳланг – каби саволлар ўқувчиларни мулоҳаза қилишга ундайди, Бобур Мирзо руҳий оламини, асарлари моҳиятидаги изтиробу ҳайратлар кўламини, шоҳ ва шоир шахсиятини чуқурроқ англашлари учун ёрдам беради. Зеро, ўқувчининг мустақил фикрлаш қобилияти фақат саналарни, воқеаларни билиш туфайли эмас, балки воқеликнинг таг моҳиятини, ижодкор руҳиятидаги эврилишлар ва товланишларни туйиш натижасида шаклланади. Шу боис шоир ижодини ўрганишда асосий эътибор ўтилаётган матннинг бадиий жозибасини очишга қаратилиши лозим.

[1] Ш.Наралиева, Б.Турдикулов, Н.Корганбаева, Ш.Алиакбарова. Ўзбек адабиёти. Умумтаълим мактабларининг 5 –синфи учун дарслик. Қозоғистон Республикаси Таълим ва фан министрлиги тасдиқлаган. Алматы.: “Жазушы” нашриёти, 2017. Б.-136- 137- 138- 139-140..

Ҳ.Қудратуллаевнинг фикрича, “Заҳириддин Бобурнинг «Бобурнома» асарини адабиётшуносликда адиб бошидан ўтказган кунларининг солномаси сифатида баҳолашади. Бу ҳақиқат. Шу қатори, бу алломанинг ҳаёти, чексиз руҳий ҳолатини унинг рубоийларида ҳам кўрамиз. Ундаги қисқа сатрларда оламжаҳон маъно мужассамлашгани, бошидан кечирган яхши ёмон воқеаларни ўзида акс эттиргани, бу сатрларни нечоғлиқ “Бобурнома” билан ҳамоҳанг, бир бирини мазмунан тўлдириши, уларни чоғиштирганда муаллиф ҳақида янада кенгроқ маълумот беришини кўрамиз”[1].

Адабиёт дарсларида асосий эътибор ўқувчини мустақил фикрлашга ўргатишга қаратилгани ўзининг ижобий натижаларини бермоқда.Бинобарин, шеърий асарларни ўрганишда ифодали ўқиш ҳам муҳим аҳамиятга эга.Ўқувчиларни ғазал ёки рубоийнинг интонацион қурилмасида мужассамлашган муаллиф туйғулари кўпроқ таъсирлантиради. Ўқитувчи саҳифада берилган луғат ёрдамида рубоийни шарҳлаш усулларини ўргатиши жараёнида ифодали ўқиш бошланади. Ифодали ўқишга синфдаги барча ўқувчилар жалб қилинади. Айрим қийин сўзларнинг талаффузидаги хатолар охирида тузатилади, ўқувчиларга такрор ўқиш топширилади.

Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидир,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидур,
Яхши киши кўрмагай ёмонлик ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топқусидур.

“Ҳар кимки вафо қилса - вафо топқусидир, Ҳар кимки жафо қилса - жафо топқусидур” ўта халқчиллиги сабаб, афоризм сифатида эл мулкига айланган.Унинг замирида фалсафий маъно билан бир қаторда, она тилининг бойлиги ва гўзаллиги, ўзига хос миллий бўёқлари ниҳоятда ёрқин ифодаланган. Ифодали ўқиш биринчи навбатда ўқувчиларнинг рубоий мазмунини таг маъносигача тушунганликлари кўрсаткичи саналса, иккинчи томондан ундан олинган эстетик завқ ўқувчини янада кўпроқ ўзига тортади. Ўқувчи ифодали ўқишга тайёргарлик кўриш максадида рубоийни қайта – қайта мутолаа қилар экан, сўзларнинг мағзини чақишга, унинг бадиий - эстетик ва фалсафий моҳиятини англашга уринади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳ рубоийларининг ўзига хос энг муҳим хусусиятларидан бири, унда кичик сюжет орқали катта фикрнинг айтилишидир. Қуйидаги рубоийда муаллифнинг маҳзун

[1] Қудратуллаев Ҳ.. Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт - матбаа акцядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011. -Б.402.

кайфияти, Ватандан айрилиқ азоби бўртиб турибди. Уни мутолаа қилаётиб, изтиробда қолган шоирнинг ички кечинмаларини, ушалмаган армонларини сезиш мумкин:Ҳиндистоннинг забт этилиши, ғалаба нашидасидан кўра, уни ёру диёр соҳинчи кўпроқ қийнайди.

Кўпдин бериким, ёру диёрим йўқтур,
Бир лаҳза-ю, бир нафас қарорим йўқтур,
Келдим бу сори ўз ихтиёрим бирла,
Лекин боруримда ихтиёрим йўқтур.

Буюк шоир, улуғ шоҳ ва темурийзода саркарданинг табиатида Оллоҳ ато этган бағрикенглик, бунёдкорлик, инсонларга яхшилик қилиш, гўзалликка ошно бўлиб, боғу роғлар яратиш, йўддар, масжиду мадрасалар қурдириш иштиёқи баланд бўлган.

Мавзу юзасидан дарсликнинг 140 –бетда берилган савол ва топшириқлар шундай тузилганки, улар нафақат ўқувчига мавзуни тўлиқ ўзлаштириши учун ёрдам беради, балки уни беш аср олдинги тарих билан, дунёни ҳайратга солган буюк Бобурийлар империясининг асосчиси, буюк шоҳ ва улуғ шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижоди ва шахсияти билан яқиндан таништиради, фикрини ўстиради, ўқувчида ўзига – ўзи савол бериш қобилиятини шакллантиради.

“Навоий ва замонамиз”, “Бобурийлар изидан” мавзуларида эссе ёзиш ўқувчиларнинг ижодий фикрлаши ва адабий билимларини янада такомиллаштиради. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг она тили ва адабиёт дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқларини уйғунликда ўстириш, уларда тинглаш, сўзлаш ва тинглаб англаш кўникмаларини шакллантириш масаласига жиддий эътибор қаратилади. Зеро, ўқувчиларнинг нутқ маданиятини ўстириш ва тил бойлигини ошириб бориш учун ёзма нутқ маданияти муҳим хусусиятга эга. Эссе ёзаётганда ўқувчилар ўзларининг улуғ шоир ижоди, унинг ўзбек адабий тилининг асосчиси сифатида амалга оширган буюк ислоҳотлари ҳақида янада чуқурроқ мулоҳаза юритишга, ўз билимларини таҳлил этишга, ҳар томонлама пухта ўйлашга, керакли сўзларни танлай билишга, фикрни тўғри баён қилишда равон жумлалар тузишга ҳаракат қиладилар. Ўқитувчи ўз фикрларини таъсирли баён қилган, мазмунли эссе ёзган ўқувчиларни рағбатлантириб боради.

Матн грамматика ва стилистикага доир савол ва топшириқлар ёрдамида суҳбат, эркин мулоқот йўли билан шарҳланади. Бу каби инновацион усуллар сўзларнинг турли маъно қирраларини кўриш, фарқлаш, ҳис этишга, сўзларни тўғри талаффуз қилиш кўникмасини шакллантиради. 5-6-7-синфларда ўқувчиларни матнга ижодий ёндашишга, баён қилинадиган фикрларга мос сўзларни тезлик билан топа олишга, нутқ давомида фикрни тизимлаштирувчи режа тузиш қобилиятини шакллантириш, ўз фикрини ишонарли ва қатъий ифодалашга ўргатиш муҳим аҳамият касб этади.

Қозоғистон Ёзувчилар уюшмаси раиси Улуғбек Есдавлат тўғри таъкидлаганидек, “Марказий Осиё халқларининг минг йиллик достонлари ва боқий анъаналари бор. Бугун минтақа бўйлаб адабий алоқалар ривожланиш босқичига кўтарилган. Қозоғистонда ўзбек адабиётини ўрганувчилар кўпчиликни ташкил этади. Дарсликларда Алишер Навоий, Заҳириддин Бобур ва бошқа мутафаккирлар ижоди ўрганилмоқда. Халқларимизнинг адабий ҳамкорлиги бизни янада яқинлаштиради”[1; 38].

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, Амир Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби буюк мумтоз шоирлар ижодига муҳаббат ва ихлос ўзбек – қозоқ халқларининг ижодий – маънавий ҳамкорлигини янада чуқурлаштириб, илм – фан, санъат ва маданият соҳасида мулоқот майдонларини кенгайтирмоқда, ўсиб келаётган ёш авлодни комил инсонлар қилиб тарбиялашга ўзининг буюк ҳиссасини қўшмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. https://president.uz/uz/lists/view/5782
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-ж. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002.
3. Рустамий А. Ҳазрати Навойийнинг маънавий олами. – Тошкент: Наврўз, 2014.
4. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ,2007.
5. Мадаев О. Навоий суҳбатлари. – Тошкент.: Ўқитувчи , 2018.
6. Сейданов Қ. Навоий ва Абай. Ўзбек–қозоқ адабий алоқалари. Мақолалар тўплами. – Тошкент: МАШҲУР–ПРЕСС, 2018.
7. Қудратуллаев Ҳ.. Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. – Тошкент: Шарқ, 2011.
8. Жўрабоев О. Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросининг жаҳоний ва миллий кўлами. Адабиёт халқнинг юраги. – Тошкент: АДАБИЁТ, 2021.

9. Наралиева Ш., Корганбаева Н., Турдикулов Б. Ўзбек адабиёти.Умумтаълим мактабларининг 5-синф ўқувчилари учун дарслик. Қозоғистон Республикаси Таълим ва фан министрлиги тасдиқлаган, Алмати, “Жазушы”, 2017й.

10. Наралиева Ш., Корганбаева Н., Алиакбарова Ш. Ўзбек адабиёти. Умумтаълим мактабларининг 6-синф ўқувчилари учун дарслик. Қозоғистон Республикаси Таълим ва фан министрлиги тасдиқлаган, Алмати, “Жазушы”, 2018й.

11. Наралиева Ш., Турдикулов., Корганбаева Н., Алиакбарова Ш. Ўзбек адабиёти. Умумтаълим мактабларининг 7-синфи учун дарслик. Қозоғистон Республикаси Таълим ва фан министрлиги тасдиқлаган, Алмати, “Жазушы”, 2018й.

BADIIY MATNGA MUNOSABAT

Hayitov Shavkat Ahmadovich,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori
Barotova Xurshida Jalolovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi,
Buxoro davlat innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Temuriylar davri o‘zbek matnshunosligi tarixida eng muhim bosqich sifatida talqin qilinganligi, bu sulola vakillaridan mohir matnshunos olim Boysung‘ur Mirzoning ilm-fanga ,xususan, matnshunoslik ilmiga jiddiy ahamiyat berganligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Hirotda matnshunoslik sohasi taraqqiyoti haqida A.Navoiy va Z.M.Boburning ayni mushtarak qarashlari matn tahlillarida batafsil izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Matnshunos, temuriylar davri, nusxa, musavvir, naqqosh, qog‘oz, yozuv, Hirot, Gavharshodbegim.

Annotation: The article discusses the interpretation of the Timurid era as the most important stage in the history of Uzbek textual studies, and the fact that one of the representatives of this dynasty, the brilliant textual scholar Boysungur Mirzo, attached serious importance to science, in particular, to the science of textual studies. The same common views of A. Navoiy and Z.M. Babur on the development of the field of textual studies in Herat are explained in detail in the textual analyses.

Keywords: Textual scholar, Timurid period, copyist, painter, engraver, paper, writing, Herat, Gavharshodbegim.

Matnshunos, manbashunos, adabiyotshunos olimlarimizning tadqiqotlarida Temuriylar davri o‘zbek matnshunosligi tarixida eng muhim bosqich sifatida talqin qilinadi. “O‘zbek matnshunosligi shu davrdan e’tiboran o‘zining ikkinchi bosqichiga o‘tdi, deyish mumkin. Bu davrda ilm-fan, madaniyat bilan birga qo‘lyozma nusxalarga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi” [Sirojiddinov, Umarova, 2015:34-35],–deb yozadilar “O‘zbek matnshunosligi qirralari” monografiyasining mualliflari. Xuddi shunday fikr A. Habibullayevning tadqiqotlarida ham mavjud [Habibullayev, 2000:41-62].

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”(1490-91;1497-98) tazkirasi 7-majlisining 7- fiqrasidan o‘qiymiz: “Boysung‘ur Mirzo – xushta’b va saxiy va ayyosh va hunarparvar podshoh erdi. Xattot va naqqosh va sozanda va go‘yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin orog‘a kirdi, ma’lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”[Navoiy, 1998:166]. 1409-yildan umrining oxiriga qadar (1447) Hirot poytaxti bo‘lgan Movarounnahr, Ozarbayjon, Iroq, Xuroson va Shimoliy Afg‘onistondan tarkib topgan ulkan bir davlatda “ulug‘ xoqon” sifatida saltanat surgan, Sohibqironning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzoning (1377-1447) zamonida Hirot madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy markazga aylangan. Shu qudratli davlatda vazir mansabida faoliyat ko‘rsatgan Boysung‘ur Mirzo akasi Mirzo Ulug‘bek Samarqandda astronomiya maktabini yaratgani kabi Hirotda o‘zining matnshunoslik maktabiga asos solgan. Shuning uchun ham Hazrat Alisher Navoiy yuqorida “Majolisun-nafois”dan keltirilgan iqtibosda kuzatilgani kabi “Xattot va naqqosh va sozanda va go‘yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin orog‘a kirdi, ma’lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay”, - deb yozadilar. Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasida 70 xattot, qog‘ozrez, muzahhib, lavvoh, musavvir, naqqosh va sahhof faoliyat ko‘rsatgani kabi temuriy hukmdor Boysung‘ur Mirzo huzurida 40 nafar xuddi shunday mohir hunar sohiblari – xattotlar, qog‘oz tayyorlovchilar, muqovasozlar, sahifalovchilar, surat chizuvchilar, charm va boshqa matolardan jild yasovchilar, eski kitoblarni ta’mirlovchilar, sahifalar hoshiyasi va yozuv oralariga oltin va kumushdan rang purkab bezatuvchilar qizg‘in ish bilan shug‘ullangan. Ko‘pgina olimlarning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, ulug‘ fors-tojik shoiri Firdavsiy “Shohnoma”sining bir necha qo‘lyozma nusxalari qiyosiy tadqiq qilinib, “Shohnoma”ning mukammal matni tayyorlangan. Boysung‘ur Mirzo mazkur nusxaga “Muqaddima” yozgan.

O‘z zamonasining ulkan ma’rifatparvari yirik davlat va madaniyat arbobi Boysung‘ur Mirzo o‘zi ham mohir xattot bo‘lib, nasta’liq, nasx, kufiy, riqo, suls kabi yozuvlarni yaxshi bitgan. Temuriy Boysung‘ur Mirzoning matnshunoslik mahorati va maktabi haqida mulohaza yuritilar ekan, mavjud tadqiqotlarda muammoning bir muhim tomoni e’tibordan soqit qilinadi. Boysung‘urning madaniy va ilmiy tafakkur beqiyos barq urib gullagan Hirotda shunday yuksak maqomga erishishida onasi Gavharshod Begimning oqilona tarbiyasi va beminnat xizmatlari xususida lom-mim deyilmaydi. Movarounnahrdan Shimoliy Afg‘onistongacha cho‘zilgan ulkan hududda “ulug‘ xoqon” sifatida saltanat surgan Shohruh Sulton mamlakatida Gavharshod Begim (1379-1457)ning o‘rni belgili bo‘lgan. U Chig‘atoy ulusida yuksak e’tiborda bo‘lgan, Chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin Tarxonning qizi bo‘lgan. Shohruh Mirzo uni 14 yoshida, 1393-yilda o‘z nikohiga oladi. Shohruh Mirzoning oqila va tadbirkor ayol Gavharshod Begim bilan tuzilgan nikohidan uch o‘g‘il dunyoga kelgan: Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Mirzo(1394-1449), Boysung‘ur Mirzo (1397-1433),Muhammad Jo‘g‘i Mirzo (1401-1445).

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va boshqa nufuzli manbalarning shahodatiga ko‘ra, qaynotasi Amir Temurning vafotidan keyin asta-sekin davlat ishlarini o‘z qo‘liga olgan Gavharshod Begim eri Shohruh Mirzoning harbiy yurishlarida ishtirok etgan. Viloyatlarga hokim tayinlash, lashkarboshilarni belgilash ham malikaning ixtiyorida bo‘lgan. Qur’oni karim va Hadislar zaminida yuzaga kelgan diniy adabiyotga doir matn shakllarini badiiy adabiyotga nozik tatbiq etgan mohir matnshunos olim Boysung‘ur Mirzo ana shunday ziyrak va zakiy onadan tug‘ilgan. Agar shunday bo‘lmaganda edi, mohir xattot va matnshunos Boysung‘ur Mirzo ham, Boysung‘ur akademiyasi ham bo‘lmas edi. Shayx Muslihiddin Sa’diy yozadilar:

Keskir xanjar bo‘lmas yomon temirdan,
Bog‘dan lola unar, sho‘rxok yerdan xas [Sa’diy, 1968:42].

Asl muddaoga qaytaylik. Temuriylar davrida badiiy adabiyotga, she’riyatga daxldor har bir yig‘inda o‘ta diqqat bilan matn tahlil etilgan. Har bir kichik yoki katta harakat matn mohiyatini chuqur anglashga, chuqur ilmiy-nazariy tahlillarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Hazrat Alisher Navoiyning Nuriddin Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag‘ishlab yozgan manoqibi “Xamsatul-mutahayyirin”da zikr qilinishicha, Hirotning nufuzli xonadonlaridan birida o‘tkazilgan ma’rifiy anjumanda zamonasining xushovoz hofizi Mutahhari Udiy ud asbobi jo‘rligida Hindistonda yashab ijod etgan mashhur forsiygo‘y shoir Xoja Hasan

Dehlaviyning (XIVasr) “Zihi darunai dilro zamon-zamon ba tu mayle”(“Qanday yaxshiki, ko‘ngil ich-ichidan turib-turib senga intiladi”) misrasi bilan boshlanadigan g‘azalini ijro qiladi.

Alisher Navoiy zamondoshlaridan bo‘lgan Mutahhari Udiy ud nomli cholg‘u asbobini g‘oyatda mahorat bilan chalgan. U shu cholg‘u asbobi bilan kuy chalib, uning jo‘rligida qo‘shiq kuylaganida mug‘anniyning shirali ovozi soz sehri bilan qo‘shilib tinglovchilarning ixtiyorini tamoman o‘z tasarrufiga olgan. Shuning uchun ham ulug‘ mutafakkir xonanda va sozandalarning, umuman musiqaga oid san’atlar homiysi Zuhrani g‘oyat ko‘tarinki romantik maqomda Mutahhari Udiyga quyidagicha nisbat beradi: “Mutahhari Udiykim, xushovozliqda Zuhraning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhavzosi bo‘la olur erdi”[Navoiy,1999:17].

Yuqorida eslatilgan bazmda Xoja Hasan Dehlaviyning udning nozik torlariga hamohang satrlari quyidagi baytga yetadi:

Misoli qatrai boron sirishki man hama durr shud,

Chunin asar dihad, alhaq, tulun chun tu suhayle.

Davra ishtirokchilarining barchasi taniqli arboblar, shoir va fozil kishilar, matn ma’nosini, she’r haqiqatini anglashga qodir kishilar bo‘lgan. Ularning ba’zilari hofizga e’tiroz bildirib, ayrimlari tanbih berib ko‘chirilgan baytdagi “dur shud” o‘rniga “xun shud” («qon bo‘ldi») deb o‘qish lozimligini talab qiladilar. Yig‘in ahlining “durr” kalimasi g‘azal mazmuniga muvofiq emasligi xususidagi fikriga faqat Alisher Navoiygina munosabat bildirmasdan sukut saqlaydilar. Anjuman ahli Alisher Navoiyni ham munozaraga tortadi: “Majlis huzzori faqirg‘a dag‘i mashg‘ulliq bunyod qildilarkim: “Sen dag‘i nevchun bu so‘zda as’hob bila muvofiq emassen?” deb, faqir dedim: “Men ul jonibmenkim qoil ado qildi, ya’ni:

Misoli qatran boron sirishki man hama durr shud rostdur, balki mundoq kerak”. Davrada hozir bo‘lganlarning barchasi chuvvos solib shoirga qarshi turishadi. Butun davra ahli bir yon bo‘lib turganida yolg‘iz o‘zi bir tarafda turib fikrini o‘tkazishga ko‘zi yetmagan ulug‘ mutafakkir ishonchli bir kishini hakam qilib garov bog‘lash maslahatini o‘rtaga soladi. Mazkur taklif hammaga ma’qul tushadi: „Barcha ittifoq qilib ayttilarkim, Hazrati maxdum (Abdurahmon Jomiy) olam afozilining hakami, balki hokimidur, alarni musallam tutmas kishi yo‘qtur. Chun so‘z mung‘a qaror topti. Faqir alar bila garav bog‘lab, majlisning kayfiyatin va ul bahsning sababin va ul baytda „xun” lafzi munosibroq yo „durr” lafzi muvofiqroqdur deb, maqsudning isnodin hamul zamon bitib, ul Hazrat xizmatlarig‘a yuborildi” [Navoiy,1999:18].

Zahiriddin Muhammad Boburdek dunyo ko‘rgan, salohiyatli shaxs, yirik davlat va madaniyat arbobi tomonidan: ,,Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolg‘a tegurgay",- deya tavsiflangan Hirotning eng mutaayyin kishilari, arboblari, shoirlari, oliy darajali olimu fuzalolarining Nuriddin Abdurahmon Jomiyni hakam sifatida tanlashida chuqur ichki mantiq bir. Ayni ta’kid temuriylar davri mtnshunoslik ilmiga ham daxldordir. ,, Bir yaxshi zamondin so‘ngra borg‘on kishi javob kelturdi va ul Hazrat bu misrani bitib erdilarkim:

“Suxan “durr” astu taalluq ba go‘shi shah dorad”-

(So‘z-durr (inju), shoh qulog‘iga taalluqi bor).

ul jamoat mulzam bo‘lub, faqirg‘a alarning tarbiyat va madadlari bu nav’ yetti. Ma’lum emaski, hargiz kishi bu nav’ muxtasar javob hech savolda aytmish bo‘lg‘ay. Tonglasi bu so‘z shuhrat tutti. El yod tutib, majolisda naql qilurlar erdi”. Shu birgina dalilning o‘zi temuriylar davrida matnshunoslik ilmiga qanchalik jiddiy ahamiyat berilganligi xususida yorqin tasavvur hosil qiladi. Alisher Navoiy asarlari mag‘zidagi bunday tabiiy, hayotiy lavhalar o‘zbek matnshunosligi tarixini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, buyuk o‘zbek mutafakkirining nozikdid matnshunos sifatida matn tuzish, badiiy asarning mukammal nusxasini tayyorlashga qodir shaxs sifatidagi iste’dodini namoyon qiladi. Matnshunos va xattot sifatida yuksak iqtidorga ega bo‘lmagan ijodkor quyidagi kabi quyma jumlalarni bita olmaydi: “ Yaxshi xat va nuqtadin safhag‘a jamol, andoqki yaxshi yuz sahfasig‘a xattul xol!” [Navoiy, 1999:36]. Ixcham jumla saj’i mutarrafning oliy namunasi bo‘lib, Hazrat Navoiy qalami mohir xattot va chiroyli xat tasvirida sehr va joziba qudratini butun ko‘lami bilan namoyon qilgan.

Alisher Navoiy she’riyatida ma’shuqaning yuzi gulga, lolaga, oyga, quyoshga, gulzorga, olovga, jannatga; yorning labi ustidagi tukchalar (xat) sabzaga, rayhonga, mushkin xatga; seviklining xoli mushkka, zangi bachchaga, hinduga qiyos qilinadi. Bunda esa tasvir asosida turgan ijtimoiy toifa (kotib, xattot), kasb tabiatidan kelib chiqqan ulug‘ adib mushabbih va mushabbihun bihlarni yangi jiloda qo‘llaydi. Oq qog‘oz, sahifalar – yuz, xat(kotib bitadigan yozuv) – lab ustidagi miyiqchalar, xatga qo‘yilgan nuqtalar – xol. Varaq, sahifalar husni – chiroyi xat va unga (xatga) qo‘yilgan nuqtalardan ,xuddiki, go‘zal yuz ko‘rki yor labi ustidagi mayin, qora va xushbo‘y tukchalar va nozik his uyg‘otuvchi yoqimli xol jamolidandir.

Alisher Navoiy matnshunoslik faoliyatining muhim qirralaridan biri ulug‘ mutafakkirning o‘z badiiy ijodi namunalarini tahrir qilish, ma’nolari, badiiyati ustida uzluksiz ish olib borganidadir. Xususan, bu quyidagilarda yorqin namoyon bo‘ladi:

1. Maqta’i bo‘lmagan g‘azallarni maqta’ bilan ta’minlashga doir matn ko‘rinishlari;
2. Avvalgi devonlaridagi ikki g‘azalni bir g‘azal shakliga keltirish orqali amalga oshirilgan tahrir;
3. Matla’ yoki ikki bayti aynan o‘xshash bo‘lib, keying baytlari tamoman boshqa bo‘lgani g‘azallar yuzasidan tahrirlar;
4. Badiiy san’atlar bilan (kompozitsiya yuzasidan) bog‘liq tahrirlar va h.k.

Navoiyshunoslikda Alisher Navoiy g‘azallari variantlarini so‘z yoki jumlarining baytda leksik, sintaktik-semantik, badiiy-semantik, g‘oyaviy-vazifa bajarish, ma’no tashuvchilik kabi vazifalari nuqtai nazaridan ham tadqiq qilingan. Olimlarimizning tadqiqotlarida buyuk mutafakkirning “Badoyeul-bidoya”ga kirgan har bir harfga tegishli g‘azallarni hamdlar va na’tlar bilan boshlashi Sharq devonchiligi sohasiga kiritgan yangiligi sifatida qayd qilinadi. Ulug‘ shoirning g‘azal kompozitsiyasi takomilini ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi matniy talqinlari uning hamdlari, na’tlari, falsafiy-ijtimoiy mavzudagi she’rlari yuzasidan olib boriladi. Tafovutlar g‘azallarda mavzu mazmuning muayyan epizod yoki badiiy lavhadagi funksional xususiyatni bo‘rttirish maqsadini ifodalab, quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlangan:

1. Ma’lum bir so‘z, izofa yoxud izofali so‘z birikmasining mamduhning biror sifatini konkretroq ifodalash maqsadida almashtirish;
2. Biror tashbeh yoki istioraviy tashbehning tasvirlanishi ob’yektning yangi sifatini yuzaga chiqaruvchi va uni mubolag‘a bilan bo‘rttiruvchi so‘z vositasida o‘zgartirilishi;
3. Baytda ba’zi so‘zlarning voqea-hodisa rivojining mantiqiy izchilligini ta’minlash maqsadida almashtirilishi;
4. Ba’zi so‘z va so‘z birikmalarining mamduh vasfini yanada balandroq maqomda amalga oshirish maqsadida o‘zgartirilishi;
5. Badiiy tasvirni yangi usullar bilan yanada boyitish niyatida baytning butun bir misrasi yoki misraning katta qismi o‘zgartirilishi;
6. Izofali so‘z birikmalarining forsiy yoki turkiy etimologiyasini nazarda tutib, ularni xalq jonli tilidagi holatida istifoda etish niyatida o‘zgartirilishi va h.k [Salohiy, 2005:98].

XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson adabiy va ilmiy muhitida Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ijodiy ish bilan nihoyatda band bo‘lishlariga qaramay, G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning ifodasi bilan aytganda “kitob iboratlarini tuzatish, ma’nolarini tekshirishga” ko‘p vaqt sarflaganlari bilan bog‘liq tarixiy dalillar ko‘p.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20jildlik, 14-jild. – Toshkent. Fan,1998. – B.166.

2. A Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20jildlik,15-jild. - Toshkent: Fan,1999.-B.17.

3. Dilorom Salohiy.Navoiyning she’riy uslubi masalalari.-Toshkent.: Fan,2005.- B.98.

4. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent, 2000. – B.41,55,61-62.

5. Sa’diy. Guliston. – Toshkent:Adabiyot va san’at,1968. – B.29

6. Sirojiddinov Sh. Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B.34-35.

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA BAHROM OBRAZI TARIXI

Elmurod Nasrullayev Jumaboyevich,
GulDPI professori, filologiya fanlari doktori
Safarova Hamrooy Qahramon qizi,
GulDPI talabasi

Annotatsiya: Dostonning bosh qahramoni bo‘lgan Bahrom an’anaviy obrazdir. Uning zamiri, bir tomondan, qadim-qadim zamonlarga, mifologiyaga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, tarixga, sosoniylar saltanatiga borib taqaladi. Ushbu maqolada Bahrom obrazi genezisi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kompozitsiya, afsona, genezis, folklor, badiiy to‘qima, munozara, g‘oya, tasvir.

Abstract: Bahram, the main hero of the saga, is a traditional character. His origins, on one hand, date back to ancient times, to mythology, and on the other hand - to history, to the Sassanid kingdom. This article examines the genesis of Bahram's character.

Keywords: composition, myth, existence, folklore, artistic fiction, discussion, idea, character.

“Sab’ai sayyor” ishqiy-sarguzasht dostoni o‘z kompozitsiyasi bilan “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. Doston Bahrom va

Dilorom haqidagi qoliplovchi hikoya va shu hikoyaning kompozitsion silsilasiga bog‘langan yetti mustaqil hikoyadan iborat.

Dostonning bosh qahramoni bo‘lgan Bahrom an’anaviy obrazdir. Uning zamiri, bir tomondan, qadim-qadim zamonlarga, mifologiyaga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, tarixga, sosoniylar saltanatiga borib taqaladi. Navoiy “O‘zining bu dostoniga Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan Bahrom Go‘r afsonasini asos qilib olgan”.[Alisher Navoiy,2016:5] Sosoniylar sulolasida Varaxran V. (418-438) degan bir muddat hukm etdi. (“Varaxran” dardi tilida “Bahrom” shaklida qo‘llanilgan). Rivoyatlarga ko‘ra, u go‘zal (xushro‘y, zebo) qizni o‘ziga bo‘ysundirgan yovuz bir turon hukmdori bilan shaxsan kurash olib borgan. Bahrom Go‘r haqida Eronda ham, Turonda ham yoyilgan bir qator paydo bo‘lgan hikoyalari, to‘qima afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi, u shon-shavkati tufayli tasvir etiladi. Tarixiy Bahrom bilan afsona va rivoyatlardagi Bahrom yig‘indisi shunchalik borib, sosoniylar sulolasi bo‘lgan “Xudoynomak”dan o‘rin oladi. Akademik I. Orbelining fikricha, Bahromning badiiy obraz sifatida keng shuhrat topishi sabablaridan biri Bahrom – Varaxran Veratragnaning momaqaldiroq va jang ma’budi bo‘lgan Vertragnadir (I. Orbeli “Veretragna”ga zamonlantirilgan). Qadimgi rivoyat va afsonalarda Varaxran bilan Vertragna “g‘alabali, mujassamlashib ketgan”[Olim Sharafiddinov,1948 2.12], Vertragna (I. Orbeli va E.E. Bertels ta’kidlaganidek, [И. О. Орбели, 1934 3:194] Kavkaz xalqlari orasida ham keng tarqalgan. “Kosmik Veretragnaning eng erkin, eng hayotiy jizajtlari”, – deydi I. Orbeli, – sof er ko‘zi mavjudotlari bilan bog‘langan kerak edi”. Gruziya, ba’zi ehtimolki, Albaniya, bu jihatlari vaxtang Gurgasal bilan bog‘langanlar. Armanistonda esa shaxzoda Vaxagna kifasiga ko‘chiriladi. Eronda esa ularni Bahrom Go‘r yuziga qabul qildi”. [И. О. Орбели, 1934.3:12-13] Bahrom Go‘r haqida turli-tuman hikoyalar, afsona va rivoyatlar vujudga keladi.

Afsona va rivoyatlardan hamda ezma manbalardan hozirgi foydalanayotgan Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”da Bahrom haqida yaratilgan birinchi doston edi. Firdavsiy o‘z dostonida Bahromning shohlik taxtiga va uning nomini bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator afsona va rivoyatlarni jamlab kiritadi. Firdavsiy Bahromni, bir tomondan, shavkatli, adolatli podsho, vatanparvar bahodir, paxlavon va moxir ovchi sifatida, ikkinchi tomondan, aysh-ishratga, ehtirosga berilib ketgan xudbin va bir qahrli qattiq lashkarli kuch sifatida tasvirlaydi. Firdavsiy dostonida Bahromning sarguzashtlari uning kulfiy kuyovlari bo‘lmish Xonlarning ham bosh qahramoni Bahromning yovuzliklarining tarixiy kismidan eng

sevikli qahramoni,[И. Орбели, 1976, 5:5] “Shohnoma”dan keyin bu obraz yana mashhurlashib, yangi adabiyotdan keng o‘rin oladi.

Nizomiyning “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) dostonidan boshlab Bahrom xamsachilikning an’anaviy bir obraziga aylanib qoldi. Nizomiyning “Haft paykar” dostoni Bahrom haqidagi qoliplovchi hikoya va yetti maxbuza sarguzashtidan iborat. Nizomiy Bahrom va Fitna hikoyasini yaratishda Firdavsiy dostonidagi Bahromdan ko‘proq ijodiy bahramand bo‘ldi. Biroq Nizomiy o‘z oldiga yetti go‘zalning axloqiy-estetik vazifalarini qo‘yar ekan, u qoliplovchi hikoyaning markaziy masalasini kishilar dardi, adolatsizlik hukmronligi uchun kurash g‘oyasini ilgari suradi. Nizomiy boshqa manbalardan, xususan, ozarbayjon folkloridan keng va ijodiy foydalandi.

Nizomiyning keyin Xusrav Dehlaviy “Sakkiz Jannat” dostonini yaratdi. Xusrav Dehlaviy “Bahrom va Dilorom” qoliplovchi hikoyasi bilan yetti malikaning hikoyasini qo‘shib, dostoniga “Hasht behisht” nomini bergan edi. Doston muallifi qoliplovchi hikoyani xohlagan baxsalariga moslashtirib, undagi voqealarni yangicha talqin qiladi. Uning Bahrom sarguzashtlari ramkasiga kiritilgan yetti hikoyasi zamonli yangi xususiyatlar bo‘lib, ularni shoir hind folklori materiallari asosida yaratgan. Bu hikoyalar xushchaqchaqligi va optimistik ruhda yozilganligi bilan ajralib turadi.

Navoiy ham qadar xamsachisi Amir Xusrav ham shu mavzuda “Haft paykar” dostonini yaratgan. Navoiy Ashraf va uning dostoni xaqida “Sab’ai sayyor”ning muqaddimasida, jumladan, bunday deydi:

Garchi bir nuqtayi ashraf ulug‘,
Yaxshi andincha muarraf ulug‘.
Yaxshi bo‘lmoq dedi, g‘am emas,
Kim yomon bo‘lmasa, yomon ham emas.[Olim Sharafiddinov, 1948,2:471]

Shunday qilib, Navoiygacha badiiy adabiyotda Bahrom g‘oyibona katta ijodiy tajriba to‘plangan, adabiy an’ana vujudga kelgan va ma’lum takomil bosqichlarini kechib o‘tgan edi. Navoiy bularni mukammallashtirib, salaflarining yutuqlarini ba’zi kamchiliklarini aniqlab, o‘z dostonining yangi g‘oya va rejalarni belgilab oldi.

...Bu sababdin bu xushi fasona aro,
Balki bu xush navo tarona aro.
Erur andin zehi xohur tab’im,
Kim birov erda bo‘lmag‘ay tag‘yir.[Olim Sharafiddinov,1948 2:477]

Navoiy yangi bir original doston yaratishga muvaffaq bo‘ldi. U Bahrom va Dilorom hikoyasini deyarli yangi planda qaytadan ishlab chiqdi, Bahromning sarguzashtlarini asarning markaziy mavzui qilib sevgi problemasiga to‘la muvofiqlashtirdi, obrazlarni yangicha talqin qildi, dostonga rassom Moniy va Chin san’atgori (u Diloromni asrab olgan ota) obrazlarini kiritdi, xalq ijodi materiallari asosida ta’momila yetti hikoya yaratdi.

Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy dostonlaridagi farq-tafovut [Olim Sharafiddinov,1948: 2] bu shoirning ijodiy-estetik rejasiga va maksadli bilan bog‘liq bo‘lishidan tashqari, Bahrom xarakterining xalq orasida tarqalgan variantlari ko‘p bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Bu hikoyalar turli xil kitoblardan o‘rin olgan edi. Jumladan, Muhammad Avfiyning “Javome’ul-hikoyot” va Labome’ur-rivoyot” asarida Bahrom Go‘r haqida ko‘pgina hikoyatlar bor. Masalan, Nizomiy dostonidagi Bahromning jur’atli bo‘lgan ikki sher o‘rtasida tojni olishi, vazir Rostravshanning xiyonati, ulpon va ot kabi epizodlar, Xisrav Dehlaviy dostonida qabr etilganidek, Bahromning quduqqa tushib ketib g‘oyib bo‘lishi epizodi va boshqalar “Javome’ul-hikoyot”da alohida hikoyalar sifatida berilgan.[Olim Sharafiddinov, 1948.2:34-36] Bunday hikoyalar Navoiy davrida ham keng tarqalgan bo‘lib, turli xarakterdagi kitoblardan, badiiy asarlardan o‘rin olgan.

Bahrom haqidagi mustaqil mujaz hikoyatlar Navoiygacha asarlarda ham bor. “Hayratul-abror”ning XIX maqolatida Bahrom haqidagi juda ibratli bir hikoya keltirilgan. O‘rta asrlik ko‘pgina dehqon kulbasida mehmon bo‘lib tushadi. Bahromning bu xabarligini sezgan sohibi zaqiqlikni o‘zining dehqonning javob so‘zlari [Alisher Navoiy, 2016:134] Bahromning achinishli javobi: “Aysh-ishratdan voz kechadi, adolat bilan mamlakat ishlarini boshqara boshlaydi. “Saddi Iskandariy”da esa boshqa bir hikoya keltiriladi (IV bob). Bahrom ovda bir kylon izidan dan savdogar turli adabiy, hamrohlaridan hiyloklashib, oxiri bir joyiga etib keladi. U yerda o‘rta olachuk va o‘rtada bir daraxt bor ekan. Bahrom daraxt soyasiga o‘tirib, olachuk egalaridan mehmon qilishini so‘raydi:

Dedi ul xalqidin tushgan zamon,
Ki: “Sizga ermegay bu dam mehmon.
Bulingiz muhazar birla mehmonxona,
Ki andin navo topqay ahli niyo”.
Ul yel va ul elidin biru dun edi,
Anlarnı tamavvule ko‘rgu edi.
Necha shax dedi, kilmadi iltifot,

Qazosin birof erdi siri fot.
Kamon o‘q urdi, shunda koylar qatil,
Ki molin sifatig‘a kiltirir sabıl.
Solib ju’s mehmon dimog‘iga dul.
Avvalgi o‘tmishim, tongla tinglagil ne sud?
Baxt birla erkin yurib, ko‘ngli xurrad.
Kishi yulki topgan kiradin tortib inon,
Ayrilg‘a mehridin yurakti kuyg‘on.
Ketib shodlig‘i, ravnaqi farsudamol,
Ebon moziydin farag‘ati osudamol.
Anga berdi behaddu andozasiz mol,
Hamul durr-u tadbir andozasis g‘ushmol.
Qilib ta’na musrifcha behitixo,
Ne kim etg‘ilsa angha berdi baxo...[Муҳаммад Авфи, 1966, 6:773]

Navoiy bahrom haqidagi afsonaviy tarixni “Tarixi muluki Ajam”da, Jomiyzur bahrom haqidagi fasllarda bayon etadi.[Alisher Navoiy, 217-220]

Demak, Bahrom obrazi, bir tomondan, qadimgi mifologiyaga, ikkinchi tomondan, tarixga borib taqaladi, shular zamirida xalq e’tiqodi, afsona va rivoyatlari, ijtimoiy hayot tarzi mujassam bo‘ladi. Bahrom obrazi shakllanishida nafaqat tarixiy bilimlar, balki sarguzashta va qiziqarli xalq kuylari bilan xalq ijodiyoti ham yaqin turadi. U Fir’davsiy dostonida ko‘proq pahlavon bo‘lib tasvirlanadi, Nizomiy dostonida Navoiyda, tarix tomondan, oqil, zamondosh xalq orasuyig‘a yo‘liqqan zolim shoh va aysh-ishratga berilgan xulqining sifatiga gavdalanadi. Nizomiy dostonida uning tovida kulgini quvib, g‘orga kirib g‘oyib bo‘ladi, Navoiy dostonida uni cho‘qqiga chiqib ketib, beomon nishonlaydilar. Bahrom haqidagi dostonida uning er yotadi. U cho‘l bilan ham xalqi bilan ham rozi bo‘lmaydi. Yozuvchi Bahromning taqdiri folklorga xos ochim bilan xotima etiladi. Yadijurd, Bahrom va Nu’mon voqealarining (takror bo‘lmasligi uchun Navoiy bu voqeani dostonning muqaddimasida nihoyatda qisqa bayon etadi), Vaxshavarnak qasri, Bahrom Moniyni yurushuvlari, Bahromning keltirilishi, ravshanlangan yurtdoshi Bahromning diloromligi ul-bibob kabining tashlab ketishi, Xorazmga ilg‘on savdogarining ittifoqida ul Diloromni topib olinishi, etti musiqachidan etti xil sozda tinglagan sabr-u, quvnoq karomat-u, epizodlar va detallar “Sab’ai sayyor”ni, uning kahramonlarining folklorga yaqinlashtiradi. Navoiy “Sab’ai Sayyor”da folklor yanada ko‘proq ilhomlandi va ijodiy undan ijodiy foydalandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu qoliplovchi hikoyaning ikkinchi qahramoni

Dilorom obraziga ham taalluqlidirki, bu obrazning ildizlari, bundan avvalgi bo‘limda aytganimizdek, qadimgi mifologiyaga, Zuhra haqidagi Sharq kosmogoniya mifologiyasiga borib taqaladi. Shu bilan birga Dilorom ko‘pdan-ko‘p xalq ertaklari va dostonlarida ta’riflangan mislsiz go‘zal, sehrlovchi san’atkor sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy, to‘liq asarlar to‘plami, 217-220-b.
2. Olim Sharafiddinov. Bahrom Go‘r obrazi va “Sab’ai sayyor” to‘g‘risida. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. II tom, Xamsa, IV kitob, Sab’ai sayyor, O‘zdavnashr, Toshkent-1948.
3. И. О. Орбели. Бехрам и Азадэ, Ленинград, 1934. 12-б.
4. Е. Э. Бертелъс, Навои. Ташкент, 1941. 194-б.
5. И. Орбели, 5-б.
6. Муҳаммад Авфи. "Лубоб ул-албоб", Душанбе, 1966, 28-29, 34-36-б.

KOMIL XORAZMIY VA AHMAD TABIBIY: AN’ANA VA IZDOSHLIK

Shermuhammad Amonov,

ToshD’TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Feruz hukmronligi davrida Xorazmda hazrat Navoiy asarlari qayta-qayta kitobat qilingan, mutafakkir shoir merosi keng targ‘ib etilgani, barcha shoirlarning hazrat Navoiy ijodidan ilhomlangani ayon. Ahmad Tabibiyning shoir bo‘lib yetishishida Alisher Navoiy qatorida Munis, Ogahiy, Komil kabi ijodkorlarning ta’siri katta bo‘lgan. Bu davrda Xorazm adabiy muhitida mumtoz adabiy an’analar ham shaklan, ham mazmunan davom ettirilib, ijodda turli yangiliklarga qo‘l urilgan. Ana shunday yangiliklar tarafdori bo‘lgan ijodkorlardan biri Ahmad Tabibiydir. Tabibiy salaf ijodkorlar qatorida Komil Xorazmiy ijod namunalari bilan yaqindan tanishib, uni o‘zining ustozi deb bilgan.

Ushbu maqolada Ahmad Tabibiyning Komil Xorazmiy lirik asarlariga o‘xshatmalar yozgani, Komil ijodiy an’analarini davom ettirgani bilan bog‘liq mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, adabiyotshunoslik, shoir, manba, g‘azal, muxammas, mustazod.*

Resume: During the reign of Feruz, the works of Navoi were repeatedly published in Khorezm, the legacy of the thinker poet was widely promoted, and it is clear that all poets were inspired by the work of

Navoi. In addition to Alisher Navoi, the development of Ahmad Tabibiy as a poet was greatly influenced by such creators as Munis, Ogahiy, and Kamil. During this period, classical literary traditions were continued in the literary environment of Khorezm, both in form and content, and various innovations were introduced in creativity. One of the creators who supported such innovations was Ahmad Tabibiy. Tabibi, among his predecessors, was closely acquainted with the creative works of Kamil Khorezmi, and considered him his teacher.

This article presents observations on Ahmad Tabibi's parallels to the lyrical works of Kamil Khorezmi and his continuation of Kamil's creative traditions.

Key words: *Kamil Khorezmi, Ahmad Tabibi, literary studies, poet, source, gazel, mukhammas, mustazad.*

Mumtoz shoirlar ijodida adabiy ta'sir yoki an'ana va izdoshlik masalasi alohida kattagina bir mavzu. Negaki, ijod maydoniga kirib kelgan har bir shoir ustoz so‘z san'atkorlar qalamida takomilga yetgan shakl va ma'no olamidan andoza oladi. Deyarli barcha mumtoz ijodkorlar merosida salaf yoki zamondosh shoirlar she'rlariga o‘xshatmalar, taxmislar mavjudligi ayon. Bu hol, birinchidan, o‘sha shoirning ustoz ijodkorlarga hurmat ko‘rsatish, ular ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lganini anglatsa, ikkinchidan, ijodkor o‘zining salohiyatini namoyon etishi, ular darajasida bo‘lmasa-da, muayyan lirik asarga javob bitishi, an'anani davom ettirishi jihatidan muhim hisoblanadi.

O‘zidan boy adabiy meros qoldirgan, betakror lirik asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga hissa qo‘shgan ijodkor, musiqashunos, xattot, tarjimon, davlat arbobi Komil Xorazmiydir. Shoir hayoti va ijodi yuzasidan sho‘ro davrida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilib, Komil shaxsiyati hamda merosi bilan bog‘liq ko‘plab ma'lumotlar e'lon qilindi. Ta'kidlash kerakki, bu ishlar talab darajasida amalga oshirilgan emas. Negaki, bunday tadqiqotlarda shoirning o‘sha zamon mafkurasiga mos keluvchi ayrim lirik asarlari ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan baholanib, Komil ijodiga yuzaki munosabat bildirilgan. Buni keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar ham ko‘rsatmoqda.

Komil Xorazmiy adabiy merosi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi bo‘yicha endigina tadqiq etilib, shoir adabiy merosi manbalari, ular saqlanayotgan fond va kutubxonalar, shoir lirik merosining janrlar kesimidagi tahlili, ijodiy merosi ko‘lami, ijodkor asarlarining asliyat

va joriy nashrlardagi kamchiliklariga aniqliklar kiritildi[1]. Demak, Komil Xorazmiy lirikasining poetik tadqiqi yechimini kutayotgan ilmiy muammolardan biri, deyish mumkin. Zero, muayyan adib asarlaridagi mazmun va shakl uyg‘unligi, ijodkor mahorati, badiiy san’atlardan foydalanish salohiyati kabi individual poetik tafakkurning namoyon bo‘lishi masalasi adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek mumtoz she’riyati tadqiqida poetik janr, obraz va timsol, mazmun va shakl uyg‘unligi, ijodkor mahorati bilan bog‘liq adabiy-estetik qonuniyatlarning yuzaga kelish omillari qatorida adabiy ta’sir masalasi ham muhim hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining ayrim iste’dodli vakillari yangi ijodiy kashfiyotlar qildilar. Ular o‘zlarini yangi she’riy shakllarda sinab ko‘rdilar, she’riyatda kam uchraydigan badiiy san’atlardan foydalanishga e’tibor qaratdilar. Ana shunday iste’dodli ijodkorlardan biri Ahmad Tabibiy edi.

Ma’lumki, zamondosh shoirlarning ijodiy hamkorlikda qalam tebratishi muayyan adabiy muhitning xos xususiyatlaridandir. Xiva adabiy muhiti bu borada, ayniqsa, o‘ziga xos an’anaga ega bo‘lgan. Tabibiy Komil Xorazmiyning zamondoshi bo‘lib, shoir ijod namunalari bilan yaqindan tanishib, uni o‘zining ijoddagi ustozi deb bilgan, shoir ijodiga hurmat bilan qaragan, undan ta’sirlangan. Ahmad Tabibiy ijodiy merosi tadqiqi uning Komil Xorazmiy she’rlariga o‘xshatma tarzida yozilgan lirik asarlar anchagina ekanini ko‘rsatadi. Ahmad Tabibiy badiiy ijodda o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan va takomilga yetgan adabiy an’analardan unumli foydalandi. Salaf ijodkorlar she’riyatidan ilhomlanib ijodda noyob badiiy va shakliy topilmalar qildi. Tabibiyning badiiy ijoddagi mahorati haqida zamondoshi Xodim bildirgan quyidagi fikrlar e’tiborli:

“Demak, Xorazmda o‘tgan shoirlar ko‘p. Masalan: Birinchi Munshiy degan shoir. Bu kishi men, Bobojon Tarrohning bobosi bo‘lg‘on, ikkinchi Munis, uchinchi Ogahiy, to‘rtinchi Komil Xorazmiy Mirzaboshilar va boshqalar. Agar olar hayot bo‘lub, Ahmadjon Tabibiyni ko‘rsalar edi, olar ham muni shoirlig‘ig‘a taslim qilar edilar. Men Bobojon Tarroh – Xodim Ahmadjon Tabibiyga shu qadar baho berganimni aybga buyurmang. Chunki Ahmadjon Tabibiy shunday kuchli shoir edi. Chunki Muhammad Rahim Ikkinchini ham taslim qildi. Muhammad Rahim

[1] Bu haqda qarang: Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси. Фил. фан. док. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Қарши, 2022.

Ikkinchi ham hech kimga taslim qilmas edi. Ahmadjon Tabibiyga taslim qildi. Shu gap yetarlik bo‘ladi”[1].

Darhaqiqat, Tabibiyning she’riy iqtidori yuksak darajada bo‘lgan. Buni u tomonidan tuzilgan beshta she’riy devon ham tasdiqlaydi. Tabibiy devonlaridagi she’rlar bir-birini takrorlamaydi. Shoir yigirmadan ortiq janr va she’riy shakllarda ijod etgan, 150 ga yaqin turkigo‘y va forsigo‘y ijodkorlarga taxmislar bog‘lagan.

Ma’lumki, Komil Xorazmiyning ko‘plab hofiz-u xonandalar repertuaridan joy olgan mashhur “Lazgi” qo‘shig‘i muxammas shaklida yozilgan bo‘lib, u jami yetti banddan iborat. Matnshunos SH.Nuriddinovning mazkur muxammas nashri va uning asliyati qiyosi yuzasidan shunday yozadi: “Mashhur muxammasning nashrda berilgan quyidagi bandiga diqqat qilamiz:

Yig‘latur oshiqlaring la’l labing xandasi,
Qumriyi nolon erur sarv qading bandasi,
Husnu jamol avjining *axtari tobandasi,*
Ko‘rsa *agar* orazing, bo‘lg‘usi sharmandasi,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisen.

Ikkinchi misradagi “Qumriyi nolon” birikmasi toshbosmada ham shu shaklda xato berilgan. ...Devonning boshqa manbalarida ushbu misraning quyidagi shaklda berilishi to‘g‘ri:

Tubiyu shamshod erur sarv qading bandasi.

Xuddi shu kabi “tahrir” uchinchi misrada ham kuzatiladi. Misradagi *“axtari tobandasi”* birikmasi bevosita shoir nazaridan o‘tgan qo‘lyozma va toshbosmalarda ham, keyin ko‘chirilgan nusxalarda ham *“mehri duraxshandasi”* tarzida uchraydi. Qolaversa, ma’shuqa husnu jamolini nur taratuvchi yulduz (axtari tobandasi)ga emas, balki porlab turgan quyosh (mehri duraxshandasi)ga qiyoslash badiiyat mezoniga ko‘ra to‘g‘ri bo‘ladi. To‘rtinchi misrada qo‘llangan “agar” so‘zi barcha manbalarda “mahi” shaklida qo‘llangan. Avvalgi misra bilan birga tahlil qilinganda “mahi” so‘zi mazmunan tugal fikrni ifodalaydi”[2]. Bu kabi xatoliklar muxammasning boshqa o‘rinlarida ham kuzatilishi Sh.Nuriddinov tomonidan ta’kidlanib, farqlar misollar orqali ko‘rsatib o‘tiladi.

Bizning e’tiborimizni tortgan jihat shuki, Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devonidagi bir muxammas ham mashhur “Lazgi” qo‘shig‘iga hamohang tarzda ijod etilgan. Ya’ni Tabibiy muxammasi

[1] Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдураҳимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 140-147.
[2] Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси. Фил. фан. док. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Қарши, 2022. – Б. 149.

bandlari ham aynan "*So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan*" misrasi bilan yakunlanadi va uning birinchi bandi quyidagicha:

Qaysi dilafgorni sho‘xi sitamgorisan,
Qay tani bemorning la’li shakarborisan,
Qay ko‘zi xunborning qotili xunxorisan,
Qaysi sitam diydaning dilbari g‘amxorisan,
So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Darhaqiqat, "Lazgi" qo‘shig‘i sifatida shuhrat topgan mazkur muxammas nafaqat Komil ijodining, balki she’riyatimizning yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, bu asar Tabibiyning ham e’tiborini tortgan, ayni paytda Tabibiyning Komil bilan ijodiy musobaqaga kirishishiga sabab bo‘lgan. Tabibiy muxammasi quyidagi band bilan yakunlanadi:

Ayladi mushkin qoshing hayrati qadimni yo,
Nishtari kirpiklaring jonima tiyri balo,
Dahrni fikri soching qildi ko‘zimga qaro,
Necha Tabibiy kibi joni fidodur sango,
So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Ahmad Tabibiy ijodida Komil Xorazmiy g‘azaliga yozilgan muxammas she’rlar ham mavjud. Uning Komil g‘azallariga bog‘lagan muxammaslaridan biri shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devonidan o‘rin olgan. Shoir Komil Xorazmiyning:

Sensizin, ey dilrabo, jannatda g‘ilmon o‘lmasun,
Demayin g‘ilmonki, bal jismim aro jon o‘lmasun, – matla’li mashhur g‘azaliga taxmis bog‘lagan bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

To hech kim mendek, g‘ami hijronda giryon o‘lmasun,
Mubtaloyi kulfat behadd-u poyon o‘lmasun,
Xotirimda juz nishot seli armon o‘lmasun,
Sensizin, ey dilrabo, jannatda g‘ilmon o‘lmasun,
Demayin g‘ilmonki, bal jismim aro jon o‘lmasun.

Bu g‘azal aruzning ramali musammani mahzuf *(foilotun, foilotun, foilotun, foilun)* vaznida yozilgan. Tabibiyning ushbu muxammasi ilk bor tabdil etilgani bois, quyida ushbu muxammasning qolgan bandlarini ham to‘liq keltirdik:

Buylakim, chekkumdurur hajringda ozor-u jafo,
Ko‘nglum ichra bazmi vaslingdur hamisha muddao,
Chin so‘zumni fosh qilsam nogahon ishqing aro,

Bo‘lmasa vasling muyassar, ey paripaykar, mango,
To‘boyu Kavsar bila Firdavsi rizvon o‘lmasun.
Xasta jonim yo‘linga bo‘lmish fido, ey gul’uzor,
Odatimdur tortmoq tinmay ano, ey gul’uzor,
Toki sandin ishq aro bo‘ldum judo, ey gul’uzor,
La’l jonbaxshing firoqida mango, ey gul’uzor,
Gulshani jannat ichida obi hayvon o‘lmasun.
Xublardur ko‘rgali husning sanga bilkull asir,
Go‘iyo ul xaylg‘a qilmish sani Tangri amir,
Lutfin afzun aylabon har dam sanga Hayyi Qadir,
Bu jahon gulruxlari bo‘lsun sanga farmonpazir,
Husn iqlimida sandin o‘zga sulton o‘lmasun.
Har kishiga bo‘lsa ozurda alamdin jon-u tan,
Bo‘lg‘ay albatta anga doim vatan baytul-hazan,
Tortibon hijron aro subh-u maso ranji mihan,
Do‘stlar, ***nechun*** *demang tun-u kun parishonholsan,*
Hech kishining dilbari kokulparishon o‘lmasun.
Nogahon dahr ichra paydo bo‘ldi bir sho‘r-u shari,
Xalq bunyodin qo‘pordi ko‘rgon ohi sarsari,
G‘oyat hayronlig‘ ila ahli olamning bori,
Ishq elin qatl etkali chiqmish dedilar bir pari,
Bir xabar oling bizing oshubi davron o‘lmasun.
Ul parivash dilrabo vasli muyassar bo‘lmayin,
Ko‘zlarim ruxsoridin bir tun munavvar bo‘lmayin,
Ey Tabibiy, ishq aro sarshori sog‘ar bo‘lmayin,
Komiloso bodayi vasl labtar bo‘lmayin,
Hech kimsa mubtaloyi ***dardi*** *hijron o‘lmasun.*

Komil g‘azali jami yetti baytdan iborat bo‘lib, Tabibiy g‘azalning barcha baytlariga taxmis bog‘lagan. Shu o‘rinda, Komil g‘azali nashr varianti bilan Tabibiy muxammasi matni qiyoslanganda, ular orasida juz’iy matniy tafovutlar kuzatildi. Bu tafovutlar ayrim so‘zlarning o‘zgachaligi bilan bog‘liq. Jumladan, Komil g‘azalining beshinchi va yettinchi baytidagi bittadan so‘z Tabibiyda boshqacha tarzda qo‘llangan. Ya’ni Tabibiy muxammasi beshinchi baytidagi *“nechun”* so‘zi Komil g‘azalida *“doim”*, yettinchi baytdagi *“dardi”* so‘zi *“jomi”* ko‘rinishida uchraydi.

Ahmad Tabibiy mumtoz adabiy an’analarni davom ettirish barobarida, doimo ijodda o‘ziga xos yangiliklar, badiiy kashfiyotlar qilishga intilgan ijodkor bo‘lgan. Shoirning nafaqat Xorazm adabiy muhitida, balki o‘zbek adabiyoti uchun yangi hodisa bo‘lgan kashfiyoti

mustazod she’rlarga taxmislar bog‘laganida namoyon bo‘ladi. Adabiyotimiz tarixiga oid nazariy adabiyotlarda Ogahiy mustazoddagi bitta yarim misrani ikkitaga aylantirgani, G‘oziy devonida mustazodning boshqa ko‘rinishlari uchrashi, Sultonxon Ado esa mustazodni ruboiy, Tabibiy esa muxammas janriga tatbiq etgani haqida ma’lumot beriladi[1]. Jumladan, adabiyotshunos olim Yo.Ishoqov Tabibiy Navoiyning mustazodiga muxammas bog‘laganini ta’kidlab, Tabibiy muxammasi mustazodining boshlanish va oxirgi bandlarini keltirib o‘tadilar. Biroq Tabibiyning Navoiy mustazodiga qilingan muxammasi manbasi ko‘rsatilmagan.

Xiva “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manba “Tuhfatu-s-sulton” devonining bosma varianti ekanini va ushbu devon tartib berilgandan so‘ng, o‘sha yili toshbosmada bosilgan [Amonov, 2023: 258]. E’tiborlisi shundaki, “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosmada uchta *mustazodi muxammas* mavjud bo‘lib, ushbu she’rlar shoir lirik asarlari jamlangan manbalarda uchramaydi.

Mumtoz adabiyotimiz uchun nisbatan yangi bo‘lgan shoirning mustazodi muxammas she’rlari Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy va Komillarning mustazodlariga bog‘langan. Tabibiy adabiy merosi haqida adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayevning tadqiqotlarida ancha batafsil ma’lumotlar berilgan[2]. Jumladan, F.G‘anixo‘jayev shoirning Navoiy, Munis, Ogahiy, Komil mustazodlariga qilingan taxmislarini ham tadqiq etgan[3]. F.G‘anixo‘jayevning ma’lumot berishicha: “Shoirning (Tabibiyning – Sh.A) Dushanbe shahridagi A.S.Semyonov uy-muzeyida saqlanayotgan 82 inventar raqamli bir devonida g‘azallar bilan bir qatorda mustazodlarga ham muxammas bog‘langan[4]”. Olim o‘z tadqiqotlarida Dushanbe shahridagi A.S.Semyonov uy-muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmani Tabibiyning shu paytgacha taqdiri noma’lum bo‘lib kelayotgan “Tuhfatu-s-sulton” devoni deb ham qayd etadi. F.G‘anixo‘jayevning bu fikrlari asosli. Negaki, hozircha respublikamiz va xorijdagi biror fond va kutubxonada shoirning ushbu devoni qo‘lyozmasi topilgan emas.

[1] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014. – Б. 124-125.

[2] Ғанихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1969. - 123-бет; Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. 80-бет.

[3] Ғанихўжаев Ф. Мухаммаси мустазод // Адабий мерос. – Тошкент: 1981, № 3(19). – Б. 87-93.

[4] Ғанихўжаев Ф. Мухаммаси мустазод // Адабий мерос. – Тошкент: 1981, № 3(19). – Б. 87.

Har vaqtki, no‘sh aylar esang noz bila mul,
Ey nargisi fatton,
Ishq ahli aro tushgusidur nolayi g‘ul-g‘ul,
Majlisda farovon,
Lutfingni mudom aylagamen o‘zga tavassul,
Ey sho‘xi suxandon,
Ruxsorayi gulnoringadur gulshan aro gul,
Bir oshiqi hayron,
Ul oshiqi hayroningadur oshiftayi bulbul,
Tun kun ishi afg‘on.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Xiva adabiy muhitida adabiyot sohasidagi yangiliklar o‘ziga xos tarzda, qizg‘in kechgan. Ayniqsa, hazrat Alisher Navoiy asarlari zamiridagi chuqur falsafiy-tasavvufiy mazmun, mukammal shakliy uyg‘unlik keyingi davr shoirlari uchun maktab vazifasini o‘tagan. Navoiydan keyingi ijodkorlar imkon qadar an’anani davom ettirish va an’ana ichida yangicha poetik topilmalar qo‘llashga, mazmunni takomillashtirishga intilganlar. Ahmad Tabibiy ham ustoz ijodkorlarga ergashib, mavjud janr va shakllar doirasida o‘ziga xos yangiliklarga qo‘l urdi.

Bo‘lg‘usi Tabibiy kibi tafviz ila qoim,
Har kim esa fozil,
Zikr ila tashakkur tilig‘a kelgusi doim,
Haq amrig‘a omil,
Qil sabrg‘a o‘zni tun-u kun sidq ila ozim,
Ey mardumi oqil,
Har noqis-u sifla qoshida bo ‘lma mulozim,
Aqling esa Komil,
Izzat tilasang qone’ o‘lu ayla tavakkul,
Ezidg‘a hama on.

Xulosa qilib aytganda, Tabibiy ham Komil singari badiiy mukammal asarlar yaratishga harakat qilgan. Komil ijod etgan she’riy janrlarning barchasi Tabibiy ijodida mavjud. Masalan, mumtoz adabiyotda eng kam qo‘llangan janrlardan biri bahri tavildir. Bu janrda ijod etish shoirdan katta salohiyatni talab etadi. Ko‘pgina shoirlar ijodida bu janrdagi she’rlarning uchramasligi shundandir, ehtimol. Bundan tashqari, Tabibiy lirik asarlarining aksariyatida Komil Xorazmiy ijodiga hamohanglik kuzatiladi.

Munis, Ogahiy, Komil kabi shoirlar ijodiy merosi nafaqat, Xorazm adabiy muhiti vakillari, balki o‘zidan keyingi barcha qalam ahllari ijodiy kamolotida ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Yuqorida keltirilgan misollar esa

Ahmad Tabibiyning Komil Xorazmiy ijodiga ixlosmand bo‘lgani, uning asarlaridagi barhayot insonparvarlik g‘oyalaridan ta’sirlanganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov, S. (2019). Khamza Poetry: Sources And Text Research. Philology Matters, 2019(3), 14-20.
2. Amonov, S. N. (2024). Navoi And Tabiby: Literary Following. SPAST Reports, 1(1).
3. Normurotovich, A. S. (2023). A Description of the Sources of the Literary Heritage of Akhmad Tabiby. Open Access Repository, 4(2), 305-311.
4. Amonov, S. (2023). Tabibiy debochalari. Oltin bitiglar–Golden Scripts, 2(2).
5. Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдураҳимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011.
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014.
7. Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси. Фил. фан. док. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Қарши, 2022.
8. Ғанихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1969.
9. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978.
10. Ғанихўжаев Ф. Мухаммаси мустазод // Адабий мерос. – Тошкент: 1981, № 3(19).
11. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

ШЕЪРИЙ МАТН ТАҲЛИЛИГА ДОИР МУЛОҲАЗАЛАР

(Лоиқ Шерали ижоди мисолида)

Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович,
академик Бобожон Ғафуров номидаги Хӯжанд ДУ
доценти,филология фанлари номзоди (Тожикистон)
E-mail: **b.fayz.1961@mail.ru** *Тел: (+992) 92 703 66 61*

Аннотация: Мақолада адабий таълимда шеърий матнларни таҳлили қилиш масаласига эътибор қаратилди. Мазкур мавзу замонавий тожик шеърияти-нинг илғор вакилларидан бири Лоиқ Шералининг айрим шеърий матнлари мисолида тадқиқ этилди.

Annotation: The article is devoted to the analysis of poetic works in teaching literature. This topic was illustrated by the example of some poems by Loik Sherali, one of the leading representatives of modern Tajik poetry.

Калит сӯзлар: анъана, ноанъанавий дарс, таржима, эркин таржима, матн, таҳлил ва талқин, антология, дастур, шеърий жанрлар, қиёсий усул, шеърий компонетлар.

Keywords*:* tradition, non-traditional lesson, translation, free translation, text, analysis and interpretation, anthology, program, poetic genres, comparative method, poetic components.

Маълумки, адабий таълимда лирик турга мансуб асарларни матн асосида ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш анча мушкул педагогик жараён ҳисобланади. Таниқли шеършунос олим Сувон Мели “Шеърни таҳлил қилиш қийин иш. Лекин ҳар қандай шеър таҳлил қилиниши керак...”, - деган ӯринли фикрни билдиган эди. Дарҳақиқат, шундагина шеърий асар бадиий фактдан адабиётшунослик фактига айланади ва китобхон онгида тугал қиёфага эга бӯлади. Шунинг учун ҳам турли илмий ва илмий-методик адабиётларда мазкур масалага доир кӯплаб маълумотлар мавжуд. Лириканинг шундай турлари борки, улар ҳақида муайян назарий маълумотларга эга бӯлмасдан туриб, уларни идрок этиш мумкин эмас. Масалан, *маснавий, мухаммас, туюқ, чистон, рубоий, мувашшаҳ ва муаммо* каби мумтоз лирик жанрлар ҳақида назарий маълумоти бӯлмаган ӯқувчи бу турдаги асарлардан таъсирлана олмайди. Бунинг учун ӯқувчиларга олдиндан мазкур лирик турга мансуб бӯлган ҳар бир жанр ҳақида назарий маълумот бериш зарурияти пайдо бӯлади. Энг асосийси, болаларнинг адабий билимини оширмасдан, мавжуд тарихий фактларни ӯзлаштирмасдан,

жамият тарихини англамасдан бадиий сўз санъатини англаб олишга эришиб бўлмайди.

Шу нуқтаи назардан ўқувчиларга бадиий матнлар таҳлили, унинг ўзига хос хусусиятларига доир дастлабки адабий-назарий тушунчалар ҳақида ўрта мактабларда маълумотлар бериб бориш адабий таълимдаги бугунги асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Шу жиҳатдан таниқли методист олим Қозоқбой Йўлдошев таъкидлаганидек: “Бўлажак адабиёт ўқитувчилари бадиий асарни таҳлил қилиш йўл-йўриқларини ўрганмас экан, адабиёт ўқитувчиси ночорлигича, адабиёт дарслари зерикарлигича, асардан чиқариладиган хулоса “ижтимоий насиҳат” лигича қолаверади. [Йўлдошев, 1996: 35].

Мактабда лирик жанрларни ўрганиш ва умуман шеърий асарлар таҳлилига доир мутахассис олимлар томонидан қилинган илмий ва методик характердаги ишларни кузатиш мумкин. Жумладан, А. Ҳожиаҳмедовнинг «Мактабда аруз вазнини ўрганиш» (Тошкент, 1995), А.Зуннуновнинг « 4-10-синфларда адабий-назарий тушунчаларни ўрганиш» (Тошкент, 1974), А.Абдуқодировнинг «Бермоқ тизими таълими» (Хужанд, 2001), «Аруздан беш дарс» (Хужанд, 2001), Қазоқбой Йўлдошевнинг «Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари» (Тошкент, 1996), Боқижон Тўхлиевнинг «Адабиёт ўқитиш методикаси» (Тошкент, 2010), каби яна бошқа мабаларни кўрсатиш мумкин.

Истиқлол даври янги миллий мафкурани юзага келтирди. Бу ҳол мактаб ва маориф тизимида ҳам янги ислоҳотлар зарурлигини кун тартибига қўйди. Жумладан, мактабда адабиёт фанини янги давр талаблари асосида ўрганиш учун энг аввал адабиёт дастури мундарижасини қайта кўриб чиқиш, уларни мукаммаллаштириш вазифаси мутахассислар зиммасига қўйилди. Энг асосийси, бадиий асарларни баҳолашда маълум кўрсатма ва қолиплардан воз кечилди. Мустақиллик даври ўзининг мустақил дарсликларини ҳам яратиш учун имконият яратди.

Атомдан кучли (А.Каххор) бўлган адабиётни мактабда ўқитиш масаласи ҳар бир давр адабий таълимидаги муҳим ва асосий вазифалардан бири бўлиб келган. Собиқ Шўролар давлати инқирозга юз тута бошлаган даврда Россия газеталаридан бирида бир мактаб ўқувчисининг мактуби эълон қилинади. Мактубда: «Мен адабиётни яхши кўраман, аммо мактабдаги адабиёт фанини ёмон кўраман» - деб ёзган эди унда. Ўқувчи қизнинг ушбу мактуби матбуотда кескин баҳс

мунозараларнинг юзага келишига сабаб бўлган эди. Кўплаб адабиёт муаллимлари, мутахассислар, шоир ва ёзувчилар, олимлар мунозарага киришиб, мактабдаги адабиёт дарсликлари чиндан ҳам давр талабларига жавоб бера олмайдиган ҳолатга келиб қолганлигини асосли далиллар билан исботлаб, ўқувчининг эътирози ҳаққоний эканлигини якдиллик билан қабул қилинган. Ва зудлик билан Россия маорифи тизимида адабиёт дарсликлари янгилаш ҳамда сифатини тубдан ўзгартириш борасида аниқ вазифалар белгилаб берилган эди.

Бундай вазият эндигина мустақиллигини қўлга киритган ҳар бир мустақил республикалар маорифи олдидаги муҳим вазифалардан бирига айланди. Қисқа вақт ичида таълим тизимида янги тамойил талаблари устуворлаша бошлади. Жумладан, Тожикистон Республикасида ҳам ўзбек тилида таҳсил олаётган ўқувчилар эҳтиёжини қодириш мақсадида дастлаб «Ватан адабиёти» деб номланган 5–11–синфлар учун мўлжалланган янги ўқув-методик қўлланма мажмуа юзага келди [Абдуқодиров,2003:260]. Мазкур ўқув–қўлланмада тожик адабиёти намояндалари ижодидан танлаб олинган намуналарни ўриганишга эътибор қаратилганлиги билан аҳамиятга эга эди. Ўқувчилар ўзбек адиблари ижодини ўрганиш билан бирга тожик мумтоз ва замонавий адабиётидан берилган намуналарни ҳам ўзбек тилида ўқиб, яқиндан танишиш имкониятига эга бўлишди. Кейинроқ эса ундаги ҳар бир мавзу ва бадиий матнлар турли синфлар учун нашр қилинган адабиёт дарсликлари мундарижасидан ўрин олди.

Жумладан 11-синф адабиёт дарслигида Лоиқ Шералининг ҳаёти ва ижодидан баъзи намуналар берилган бўлиб, улар буганги кунга қадар дастур доирасида ўрганиб келинмоқда [Мўминов, 2019: 201]. Бунда ўқувчилар дастлаб шоир таржимаи ҳоли билан танишиб сўнг унинг «Шоҳнома» илҳомлари», «Ҳайёмнома», «Тош китоб», «Модарнома» каби туркум асарларидан берилган намуналар билан бевосита яқиндан танишиб боради-лар.

Лоиқ Шералининг адабиёт дастури ҳамда дарслигидан жой олган лирик мероси тематик жиҳатдан ғоят ранг-баранглиги билан ўқувчи эътиборини ўзига тортади. Агар « Шоҳнома» илҳомлари »да кўпроқ инсон фожиаларини кўрсатиш орқали одамларни огоҳликка даъват этса, «Модарнома» турку-мидан жой олган ҳар бир шеърда оналарга хос бўлган буюклик ва танҳолик каби фазилатлар ўзга хос бадиий маҳорат билан чизиб берилган. Айниқса, шоир шеърлари матнида Она – Ватан, она – халқ, она – табиат тушунчалари

полифоник тасвир усулини юзага келтира олганки, бу шоирнинг чин маънодаги бадиий кашфиётлари дейишга имкон беради.

Бундан ташқари, Лоиқни Она – Ватан куйчиси эканлигини кўрсатувчи «Ватан тупроғи», « Юксакликлар », « Ифтихор », «Тилак » сингари шеърлари ҳам дастурдан жой олган. Шунингдек, уни чинакам миллий шоир сифатида шуҳратини тараннум этувчи «Она тили» шеърининг ҳам таҳлили ўқувчиларга тақдим этилган.

Биринчи ўринда Лоиқнинг лирик мероси билан ўқувчиларни таништи-риш жараёнида шоир шеърияти сув ичган адабий манбаларни, янада аниқроғи, шоир шеърларининг маънавий заминини аниқ далиллар асосида кўрсатиб бериш мақсадга мувофиқ. Лоиқ бир гал ўзининг шоирлиги хусусида гапириб беришни сўраган мухбирга: « Агар мен ўзимни шоир десам, форс адабиётида шундай шоирлар борки, улар асрлар қаъридан туриб қаҳ-қаҳа отадилар...», - деган эди. Устоз шоирнинг ўзига хос ижоди ҳамда шахсияти ҳақида Асқар Маҳкамнинг Лоиққа бағишланган хотира китобида шундай фикрлар берилган: « У (Лоиқ Шерали – Б.Ф.) форс шеъриятининг сўнгги шогирди эди гўё. Кейин устод мақомига кўтарилди. Лоиқ шогирдлик ёки муридликни сидқидилдан ўтади. Хожа Ҳофиз даргоҳида муридлик қилди. Шайх Саъдийга таҳорат суви берди, буюк Мавлавийнинг остонасини супурди…» [Асқар Маҳкам, 2008:392]. Албатта, бу эътирофда устоз шоирга нисбатан шарқона эҳтиром акс этганлиги маълум бўлади. Аслида Лоиқ шеърияти билан тиллашмоқчи бўлган таржимон ҳамда шоир шеърлари матнини шогирдларига етказмоқчи бўлган ўқитуви педагогик маҳоратига эга бўлиши билан бирга “сўз сеҳиргари” деган номга лойиқ бўлган Ҳофиз Шерозий даҳосидан хабардор бўлиши, Шарқда ахлоқ отаси мақомига эга бўлган Шайх Саъдийнинг панду ўгитларидан баҳраманд бўлган бўлиши, Паҳлавий тилда “Қуръон”,- деган юксак мақомга эга бўлган Жалолиддин Румийнинг маснавийси таъсирида камолга етган бўлиши лозим. Чунки бу бебаҳо чашмаларидан Лоиқ шеърияти доимо сув ичгани аниқ. Шоирнинг қуйидаги мисралари бунга гувоҳлик беради:

Фалак гардишидан оҳ- фиғон ютдик,
Ишқ ичра кўп ғаму кўп армон ютдик.
Оналар кўксидан оқ сут эмдигу
Тарих сийнасидан барча қон ютдик.
Эй, кўзёш, йўлимнинг соф булоғи бўл,
Эй, нола, умримнинг хуш сўроғи бўл.

Кексайган чоғимда ассо бўл, қалам,
Эй, шеър тобутимнинг қўнғироғи бўл.

Бу мисраларда рамз ва образли фикр юксак шоирона усулда баён этилган бўлса-да, Лоиқ Шералининг мумтоз форс-тожик шоирларининг ижод мактабидан сабоқ олганлиги, уларга шогирд тушганлиги бор ҳақиқат. Унинг асарлари билан мукаммал ҳолда танишиш жараёнида бунга гувоҳ бўлиш мумкин.

Иккинчидан, Лоиқ ижодини ўрганишдаги муҳим нуқталардан яна бири унинг асарларидаги анъана, янгилик ва маҳорат масалаларига ўқувчилар эътиборини қаратиш ҳам мақсадга мувофиқдир. Адабиёт доимо анъаналар силсиласида камол топади. Аммо фақат анъаналар билан яшайдиган адабиёт заволга маҳкумдур. Анъана заминида кашфиётлар яратиш, адабиётнинг такомилини, унинг ривожини белгилайди. Шу нуқтаи назардан қаралса, Лоиқ шеърияти тафаккур ва туйғулар товланиши янги-янги намуналардир. Буни шакл ва мазмунда хам ифода имкониятларини излаш, уни реалликка айланлиришда кузатиш мумкин. Замонавий тожик шеъриятида Лоиқ амалга оширган янгилик шундан иборат эдики, у янги мавзу ва ғояларни қадимий форсий шеър қолипида, яъни ғазал, рубоий жанрларида ифода эта олди. Аниқроғи, Лоиқ янги тожик назмида бу адабий шаклларда тоза руҳ ва жон бағишлай олганлигини рубоийлари мисолида ҳам кузатиш ўринлидир.

Учинчидан, шоир асарларини ўқувчиларга янада мукаммалроқ ва янада аниқроқ ҳолатга етказишда, таълим тизимидаги мавжуд қиёсий усулдан фойдаланиш ҳам яхши самара беришини ўз тажрибамиз давомида кузатдик. Лоиқнинг тожик халқининг чин фидойи ўғлони эканлигини, уни ҳақиқий миллий шоир сифатида ўқувчиларга тақдим этишда «Она тили» шеъри ҳар жиҳатдан эътиборлидир. Фикримизча, ушбу шеър таҳлил қилинаётганида худди шу ном ҳамда шу мавзуда ёзилган авар шоири Расул Ҳамзатов ва Ўзбекистон Қаҳрамони ва халқ шоири Абдулла Ориповнинг “Она тилим” шеъларига таҳлил жараёнида эътибор қаратиб, шеърий матнларни қиёсий усулга таяниб таҳлил қилиш муҳим янги илмий хулосалар чиқаришга имконият яратади. Бу эса адабиётдаги адабий таъсир ва ижодий ўзига хослик деб аталган адабий анъанани ўқувчилар янада чуқурроқ англаб етишлари учун имкон пайдо бўлади.

Лоиқ шеъри:
Барча йўқмишлар олдида эса,
Буниси баридан ёмон жаҳонда.

Она тил йўқолган сенинг олдингда,
Гапираверади минг хил лисонда…
Расул Хамзатов шеъри:
Авар сўзин тинглаб кирди менга жон,
Оҳиста тирилдим ва шунда билдим:
Мени тузатолмас ҳеч дори-дармон,
Жонимга Масиҳдир шу она тилим
Майли: ким қай тилдан завқу шавқ олса,
Менинг ўз тилимга минг жоним фидо.
Эрта она тилим агар йўқолса,
Мен бугун ўлишга бўлурман ризо.
Абдулла Орипов шеъри:
Минг йилларким булбул каломи,
Ўзгармайди яхлит ҳамиша.
Аммо шўрлик тўтининг ҳоли
Бошқаларга тақлид ҳамиша.
Она тилим, сен борсан шаксиз,
Булбул куйин шеърга соламан.
Сен йўқолган кунинг шубҳасиз
Мен ҳам тўти бўлиб қоламан.

Келтирилган ҳар учала шеърий матнларда она тилининг қудрати, уни авайлаб асраш, тил ҳар бир миллатнинг мавжуд эканлигини дунёга кўрсата олувчи ва тасдиқловчи муҳим ҳужжат эканглиги бадиий жиҳатдан асослаб берилган.

Тўртинчидан, шоирнинг бетакрор шеърият оламига ўқувчиларни олиб кира олишнинг энг биринчи йўли унинг шеърлари матни ҳисобланади. Шундай экан, адабиёт ўқитувчилари шоир шеърларининг оригинал вариантини ўқувчилар ҳукмига етказа олиши ҳам муҳим эстетик қиммат касб этади. Аввало, болалар бу жараёнда форс-тожик тилининг гўзаллигини, унинг ўзга хос назокатига ҳамда чинакам шеърият тили эканига ишонч ҳосил қилишлари, шубҳасиз.

Бешинчидан, ўқувчиларни Лоиқ Шерали мероси билан ошно этишда унинг асарларини ўзбек тилига маҳорат билан таржима қилган таниқли шоирлар Сирожиддин Саййид, Асқар Маҳкам, Одил Икром, Сайфуллохон Қорхонов, Жамшид Примов ва яна кўплаб таржимонларнинг таржимонлик маҳоратларини таъкидлаш билан бирга уларнинг Лоиқ ижодидан амалга оширган энг сара таржима матнларидан намуналарни танлаб, ўқувчиларга ёд олдириш ҳамда

уларни ифодали ўқишларига эътибор қаратиш замонавий адабий таълимдаги асосий вазифалар сирасига киради. Шу ўринда Лоиқнинг ўзбек тилига истеъдодли шоир ва моҳир таржимон Одил Икром томондан маҳорат билан таржима қилинган қуйидаги “Бу ёмғирли тунда...” шеърини матн асосида кузатиш мақсадга мувофиқдир:

Бу ёмғирли тунда, маҳзун кечада
Онам кулбасини ўйладим бир зум.
Унинг чакка ўтган томини эслаб,
Дилимда бир дунё йиғлади юм-юм.
Балки, рўза тутиб Рамазон ойи,
Қилмаган гуноҳин оқлаётгандир.
Ифтор чоғи шифтдан томган чаккалар,
Балки қулоғига ёқмаётгандир.
Эски жойнамозда ўтириб, балки,
Юракдан Худони ўйлайди ҳамон.
Балки паст овозда Парвардигордан
Сўраб ўтиргандир жаннатдан макон...
Бир вақт қувноқ эди мунғайган онам,
Узун сочлари ҳам тим қора эди.
Сочидан таралган қатиқнинг ҳиди
Бир хазина эди, бир чора эди.
Енгини шимариб тирсакка довур,
Минг битта тадбирни ўйлаб топарди.
Гўё, у тақдирнинг қаттиқ қўлидан
Бизнинг ризқимизни юлқиб оларди...
Онагинам!
Мининг жаннати онам!
Жойинг жаннатлиги гарчанд тайиндир.
Лекин, томдан чакка ўтган бу кунлар,
Билмайман, негадир, жуда ғамгиндир... [Замонавий тожик шеърияти антологияси, 2017:152 -154].

Ушбу шеърда онаизорнинг *кулбаси,* унинг *чакка ўтган томи,* шунинг-дек, *эски жойнамоз*, *рамазон ойи,* унда *тутилган рўза,* Яратганга қилинаётган ҳар тунги *ибодатлар*, *онанинг пажмурда қиёфаси* бир пайтлар узун бўлган *тим қора сочлари* ва улардан таралган *қатиқнинг ҳиди, тирсакка довур шимарилган енг* каби бир-биридан табиий, ҳаётий, миллийлик акс этиб турган тимсолу ташбеҳлар ҳамда бетакрор ҳар бир бадиий детал Лойиқ шеъриятида бадииятга қандай нақшланган бўлса, Одил Икром таржимасида ҳам

худди шундай шеърий матнларга нақши нигор бўла олганлиги билан шеърхон қалбига яқин ҳамда қадрлидир. Бундай тасвирлар ҳар бир шеър ихлосмандини ўзига таниш ва қадрдон бўлган дунё сари етаклайди. Энг муҳими, шеърхонда азиз зот саналган Онаизорни қўмсаш ҳиссини юзага келтиради.

Олтинчидан, шоир таржимаи ҳоли бўйича маълумот беришда унинг умр баёни, шарҳу ҳоли ифода этилган автобиографик мазмундаги матнлардан ҳам ўз ўрнида фойдалана олиш шоир шахсияти билан боғлиқ муҳим нуқталарни янада теранроқ англаш имкониятини беради. Шу ўринда таниқли олим ва зукко шоир Ўзбекистон ёзувчилар иттифоқи аъзоси Сиддиқ Мўминнинг қуйидаги

Билмоқчи бўлсанг гар шоир наслини
Аждодин сроқлаб ёғдирма савол.
Синчиклаб ўқиб чиқ ҳар бир сатрини
Шу эрур мукаммал таржимаи ҳол.

мисралари юқоридаги фикрларимизни тасдиқловчи бадиий матн сифатида хизмат қилади. Бундан ташқари, шоир ҳаёти ва ижодини ўрганишда анъанавий дарс усуллари билан кифояланиб қолмасдан, адабий таълимдаги замонавий ноанъанавий, ностандарт (*машварат дарс, семинар дарс, конференсия дарс, саҳна дарс, крассворд дарс)* каби қатор дарс усулларидан фойдаланиш билан бирга шеърий матн таҳилининг қуйидаги - яъни- образлар бўйича таҳлил, сюжет бўйича таҳлил, шеърий вазн хусусиятига кўра таҳлиллаш, бадиий санъатлар ҳамда асосий ва ёрдамчи шеърий компонентлар бўйича таҳлил қилиш турларидан ўз ўрнида фойдаланиш дарс самарадорлигини таъминлашга хизмат қилувчи усуллардан ҳисобланади.

Ва, ниҳоят, еттинчидан, бошқа мавзулар каби ўқувчиларни Лоиқ Шералининг бой ижодий мероси билан ошно этишга бел боғлаган адабиёт ўқитувчиси ҳар жиҳатдан намуна бўлиши бугунги адабий таълимдаги асосий талабларидан биридир. Айниқса, ўқитувчи имкони борича қуруқ ялтироқ, жимжимадор, насиҳатомуз гаплардан тийилган ҳолда унинг ўрнига шоирнинг бадиий - эстетик оламини “мана мен”,- дея кўрсата олувчи шеъларидан намуналардан кўпроқ ёд билишлари, дарс жараёнида уларни ифодали ҳолатда ўқувчиларга етказа олиш маҳорати болаларда эстетик завқни уйғотада ва уларни гўзаллик оламига ошно этишга хизмат қилади. Шунингдек, дарс жараёнида шоир бадиий маҳоратига ҳам алоҳида эътибор қаратиш зарур бўлади. Бунинг учун адабиёт ўқитувчиси дарсдан ташқари

ўтказиладиган тўгарак машғулотларида, синфдан ташқари тадбирларда шоир ҳаёти ва ижодига доир мавзуларни тизимли тарзда кенгроқ режада ўз ўқувчиларига ўргатиб боришлари адабий таълимдаги эътиборга лойиқ ишлар сирасига киради.

Устоз Лоиқ тўртликларидан бири «Мен дўстлар кўнглига баҳор келтирдим... » деб бошланади. Бугунга келиб ҳар икки қардош ва ён қўшни бўлган – Янгиланаётган Ўзбекистон ва Мустақил Тожикистон Республика-ларида амалга оширилаётган кўплаб хайрли ишлар қаторида китобга ва китобхонликка бўлган эътибор, китобхонлик маданияти билан боғлиқ масалалар бугунги кунга келиб, давлат сиёсати даражасга кўтарилгани қувонарлидир. Бу ҳол эса ҳар бир китобхоннинг қалбга Лоиқ шеърияти каби баҳор ва баҳорий кайфият улашиши, шубҳасиз. Лоиқнинг гўзал ҳамда бой лирик мероси фақат шоирнинг тобути устидаги қўнғироқ бўлиб қолмасдан, балки XX аср замонавий тожик шеърияти кошонасининг баланд овозга эга қўнғироғи янглиқ яна кўп йиллар давомида акс-садо бериб туришига шак-шубҳа йўқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуқодироа А. Ватан адабиёти. – Хўжанд: Раҳим Жалил, 2003.
2. Асқар Маҳкам. Оқ китоб. Роман, шеърий қисса ва бадиҳалар. - Душанбе: Ирфон, 2008. – 544 б.
3. Ваҳҳобов А., Қозихонов М. Таълими адабиёт дар мактаб. - Душанбе: «Маориф», 1988. - С. 280.
4. Замонавий тожик шеърияти антологияси. Тузувчи ва таржимон Одил Икром. - Хўжанд: “Ношир”, 2017. – 336 б.
5. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий назарий асослари. – Тошкент: “Ўқитувчи ”, 1996.- 170 б.
6. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, -Тошкент: “Ўқитувчи ”, 2022.- 350 б.
7. Лоиқ. Куллиёт. 2 ҷилд. –Хўжанд: Раҳим Жалил, 2001- 2008. –С 400.
8. Мўминов Б., Шоназаров Ю., Назаров Э. Адабиёт. Тожикистон ўрта умумтаълим муассасаларининг таълими ўзбек тилидаги 11 – синфи учун дарслик. – Душанбе: “Душанбе - Принт ”, 2019. – 256 б..
9. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Тошкент : Sharq , 2020.- 240 б.
10. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, Тошкент, 2010.- 240 б.
11. Тўхлиева Д. Ғазал таҳлил қилиш методикаси. Монография. - Тошкет, 2023.

12. Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари . (32-китоб) - Хўжанд: Кова, 2023. – 140 б.
13. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси ва муаммоли таълим. Ўқув-методик қўлланма.- Тошкент: Innovatsiya- Ziyo, 2022. – 350 б.

“YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONI MUQADDIMASIDAGI MA‘LUMOTLARNING AMALIY QIMMATI

Mullaxo‘jayeva Karomat Toshxo‘jayevna,
ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: kmullahodjayeva@gmail.com

Annotatsiya: Durbekka nisbat berib kelinayotgan “Yusuf va Zulayxo” dostonining muallifi bilan bog‘liq bahslar hamon tugagani yo‘q. Bu asar dastlab Fitrat tomonidan xrestomatik ma’lumot-matn (1928) sifatida, keyinroq – 1959 yili davrning amaldagi yozuvida chop etildi. Shundan so‘ng ko‘pgina olimlar doston muallifi masalasini aniqlash uchun uning turli nusxalarini o‘rganib, uning muallifi, yozilish tarixi va boshqa jihatlarga e’tibor qaratdilar. Bugun “Yusuf va Zulayxo” dostonining o‘nga yaqin qo‘lyozma nusxalari aniqlangan. Toshkent, Istanbul, Buxoro shaharlari kutubxonalarida saqlanayotgan bu qo‘lyozmalarda asar muallifi ismi, u yozilgan sana va yana ba’zi masalalarda tafovutlar mavjud. Maqola muallifi dostondagi mazkur o‘rinlarni mavjud qo‘lyozmalar asosida qiyosan o‘rganib, dostonning ishonchli deb hisolagani – eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi asosida xulosalarini taqdim etadi.

Olimlar tomonidan asar muallifi sifatida keltirilgan Durbek Balxiy, Ahmadiy Balxiy va Homidiy Balxiy haqidagi ma’lumot va masalalarni o‘rganib, ularga munosabatini bildiradi.

Tadqiqot-maqolada dostonning yozilish tarixi, sanasi, uning manbalari, jumladan, doston muallifi foydalangan nasriy asar muallifi haqidagi fikrlar hamda shu nasriy manba bilan dostonni umumiy tarzda bo‘lsa-da qiyoslab o‘rganilganligi e’tiborlidir.

Kalit so‘zlar: doston, muallif, sana, qo‘lyozma, matn, nasriy manba, nashr.

Annotation: The debate over the authorship of the epic poem "Yusuf and Zulaykho", which is attributed to Durbek, is still ongoing. This work was first published by Fitrat as a reference text (1928), and later in 1959 in the current script of the time. After that, many scholars studied its various copies in order to determine the authorship of the epic, paying attention to its author, the date of writing, and other aspects. Today, about

ten manuscript copies of the epic poem "Yusuf and Zulaykho" have been identified. These manuscripts, which are stored in the libraries of Tashkent, Istanbul, and Bukhara, contain discrepancies in the name of the author of the work, the date of its writing, and some other issues. The author of the article comparatively studies these places in the epic based on existing manuscripts and presents his conclusions based on the oldest manuscript copy of the epic, which he considers reliable.

It studies information and issues about Durbek Balkhi, Ahmadiy Balkhi and Hamidiy Balkhi, cited by scholars as the author of the work, and expresses its attitude to them.

It is noteworthy that the research article studies the history and date of writing of the epic, its sources, including the opinions of the author of the prose work used by the author of the epic, and the general comparison of the epic with this prose source.

Keywords: epic, author, date, manuscript, text, prose source, publication.

Sharq adabiyotidagi syujetlar va obrazlar fondining boyishida Qur’oni karimning o‘rni beqiyos. Islom tarixidagi buyuk siymolar va ularning faoliyati bilan bog‘liq voqea-hodisalar mumtoz adabiyotning mazmunan boyishiga, unda hikmat ohangining teranlashishiga olib keldi. Bu esa insonning dunyoni to‘g‘ri anglashi, tirikliking mohiyatini tushunib yetishi, o‘zini tanishi uchun muhim yo‘l edi.

Ayniqsa, Qur’oni karimning “ahsan ul-qisas”idan ilhomlanish ushbu “go‘zal qissa” mazmunining badiiy ijod qonun-qoidalari asosida rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Albatta, ushbu muqaddas kitobda payg‘ambarlar tarixiga oid voqea-hodisalar tasvir-u tavsiflariga keng o‘rin berilgan. Ularnin bunday tarixi va tasvir-u tavsiflari kitobning turli suralariga sochib yuborilgandek. Faqat Yusuf alayhissalom “qissa”sigina bitta – “Yusuf” surasida mujassam. Bu zot taqdiri tarixining oyatlarda bunday zanjirli barqarorlashishi badiiy tafakkur mahsuli bo‘lgan ko‘plab yirik dostonlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Mangulikka daxldor imon va ishq mavzusini Yusuf alayhissalom taqdiriga bog‘lab yoritish istagida bo‘lgan ko‘plab mualliflar bu suraga murojaat qildilar. Dostonlardagi talqinlar har bir muallifning iste’dodi va ijodiy niyatiga uyg‘unlashib, sayqal topib boraverdi.

Yusuf surasi ko‘plab musulmon shoirlariga ilhom bergan bo‘lsa, Qur’oni karimgacha nozil bo‘lgan samoviy kitoblar – Tavrot va Injil ta’sirida ham Yusuf tarixiga oid qissa va dostonlar yozilgan. Bu sohada tadqiqot olib borgan mutaxassislarning aniqlashicha, ayni paytda dunyoda

bu mavzuda arab, forsiy, turkiy hamda ibroniy va boshqa tillarda bitilgan kitoblar bir yuz oltmishtadan oshadi.

Ular orasida shu paytgacha Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoni alohida ahamiyatga ega. Ushbu asar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hamon yakuniga yetgani yo‘q. Asarning muallifi, asar yozilgan sana, uning yozilish sabablari kabi masalalarda hamon bahslar davom etmoqda. Ushbu kitobni qayta chop etish bahonasida ayrim fikr-mulohazalarni bayon etishni o‘rinli deb bildik.

Zamonaviy kitobxonni turkiy tilda bitilgan bunday serma’no va go‘zal doston bilan dastlab Abdurauf Fitrat tanishtirgan edi. Olim o‘zining “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1928) xrestomatiyasida asardan namuna berib, uning muallifini Durbek deb ataydi.

1959 yili ushbu doston kirill alifbosida keng ommaga taqdim etildi. Katta tarjimon, matnshunos, adabiyotshunos Sh. Sharafiddinov – Xurshid asarni nashrga tayyorladi. Fidoyi matnshunos olim Q. Munirov mas’ul muharrirligi ostida chop etilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoni muallifi Durbek deb ko‘rsatildi.

Biroq o‘tgan asr 70-80-yillaridan boshlab shu kungacha bu asar muallifi haqidagi bahslar to‘xtamadi. Botir Valixo‘jaev, Ergashali Shodiev, Suyima G‘anieva, Fozila Sulaymonova kabi yirik olimlarning tadqiqot-maqolalarida bu dostonning muallifi Durbek yoki u emasligi, hatto, bunday shoir tarixda o‘tmaganligi xususida fikrlar aytildi. Bunday shubha paydo bo‘lishining sabablaridan biri – 1959 yilgi nashrda shoir nomi – taxallusining keltirilmasligi hamdir.

Kirish boblaridan biri – “Kitob nazmining ibtidosi” da shunday baytlarni o‘qiymiz.

Ushbu mushavvash ko‘ngul ayyomi chand,
Qildi qalam no‘k(g)i bilan so‘zni band.

Erdi chu xotir chu musammam bu azm,
Ayladi bu qissani dar silki nazm.

Keltirilgan parchaning ikkinchi baytidagi “dar silki” so‘zi Durbek deb o‘qilishi bilan bog‘liq fikrlar ham aytildi. Ammo mazkur nashrda “dar silki” so‘zi berilgani holda Durbek nomi matn ichida ham uchramaydi. Ehtimol, bu noshirlar boshqa nusxalarga va asosan, Fitrat nashriga suyangan bo‘lsalar, ajab emas. Buning natijasida mazkur “Yusuf va Zulayxo” dostoni Durbek qalamiga mansub, degan fikr adabiyot olamida yoyildi.

Haqiqatni aniqlash uchun to‘g‘ri xulosaga kelishga imkon beradigan asarning mavjud qo‘lyozma nusxalariga murojaat qilishga zarurat bor.

Hozirgi kunda fanga dostonning o‘nga yaqin qo‘lyozmalari ma’lum. Afg‘onistonlik olim doktor Vohidiy Juzjoniy “Homidiy Balxiy – Ahmadiy Balxiy – Durbek Balxiy” deb nomlangan maqolasida bu masalaga oydinlik kiritishga uringan. Turk olimlaridan Xalide Do‘lu ham o‘z tadqiqotlarida qo‘lyozma nusxalar asosida asarning muallifi, uning yozilish tarixi bilan bog‘liq jiddiy kuzatuvlar olib boganiga guvoh bo‘lamiz.

Mavjud nusxalarning ayrimlari haqida ma’lumot bersak. Bu nusxalardan eng qadimiy qo‘lyozma 922-hijriy/1516-milodiy yili Hirotda ko‘chirilgan va hozir Istanbuldagi To‘pqopi saroyi kutubxonasida “R. 832” raqami bilan saqlanmoqda. Ikkinchi qo‘lyozma nusxa 971-hijriy/1563-milodiy yili ko‘chirilgan va u Parij milliy kutoubxonasida “Suppl. No (1365)” raqami ostida saqlanadi. Mazkyr “Yusuf va Zulayxo” dostonining uchinchi qo‘lyozma nusxasi 1024-hijriy/1615-milodiy yilda ko‘chirilgan bo‘lib, Toshkentda Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1433-raqam ostida saqlanmoqda. Ushbu kutubxonada yana uch qo‘lyozma mavjud va ulardan biri 1219- hijriy/1804 milodiy yili ko‘chirilgan. Yana bir qo‘lyozma 1238-hijriy/1822-milodiy yilda va boshqa nusxasi 1266-hijriy/1849-milodiy yilda Buxoroda ko‘chirilgan. E’tibor berilsa, Demak, Istanbul va Parij nusxalari 16-asrga, qolgan nusxalar 17-, 19-asrlarga tegishli.

O‘rganilgan nusxalarda biz asar muallifining nomlari, aniqrog‘i, taxallusi uch xil kelganiga guvoh bo‘ldik – Homidiy, Ahmadiy, Durbek. Agar ularning balxlik ekanligini inobatga olsak, ular – Homidiy Balxiy, Ahmadiy Balxiy va Durbek Balxiydir. Chindan, Balxda bu paytda turkiy tilda ijod qilgan shoirlar ko‘p bo‘lgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida balxlik bir qancha turkigo‘y shoirlar nomini keltirib, ular haqida ma’lumot beradi, baytlarini keltiradi. Mavlono Kamoliy, Mavlono Majnuniy, mavlono Atoyi.... . Afg‘onistonlik tadqiqotchi Hasamuddin Hamdard “Afg‘oniston o‘zbek adabiyoti: shakllanish va taraqqiyot bosqichlari” mavzusidagi yirik tadqiqotida nazm va she’r sohasida temuriylar davri Balxning samarali davrlaridan biri ekanligini ta’kidlab, o‘ndan ortiq balxlik shoirlar haqida ma’lumot beradi.

“Yusuf va Zulayxo”ning eng qadimiy nusxasi hisoblangan Istanbul qo‘lyozmasida quyidagilarni o‘qiymiz:

.... Qissai Yusufni tamom ayla nazm,
Bu ish aro qil bari azmingni jazm.
Sendin o‘tub <u>Homidiy</u> bil ro‘zgor

Qolg‘ay ochun safhasida yodgor.

Parij nusxasida esa shunday yozilgan:

Erdi chu xotirg‘a chu musammam bu azm,

Ayladi bu qissani dar silki nazm.

Jumladan, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, 1959 yili amaldagi yozuvga moslashtirilgan variantga asos bo‘lgan nusxada ham “dar silki” ifodasi qo‘llanilgan.

Buxoroda saqlanayotgan qo‘lyozmada esa Durbek nomi keladi:

Erdi chu xotir chu musammam bu azm,

Ayladi bu qissani Durbek nazm.

Toshkentdagi 185-inv.raqami ostida saqlanayotgan nusxada ham Durbek nomi berilgan.

*Ahmadiy taxallusiga kelsak, bunga dostonning Parij nusxasi ilk sahifasiga bitilgan “*Min mumulikot al faqir Ahmad Nazif al mudarris..." yozuvlar sabab bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. F. Sulaymonovaning xabar berishicha, qo‘lyozmaning 14 b-, 16 b- va 43 b- varaqlaridagi muhrga asoslansak, kitob Turkiyadagi mudarris Nazifiylar mulki (1215-1800) vaqfidan chiqqan va keyinchalik Parij milliy kutubxonasining mulkiga aylangan.

Asarning 922/1516 yili Hirotda ko‘chirilgan va hozirda Istanbulning To‘pqopi saroyi kutubxonasida saqlanayotgan R. 832 nusxasining eng qadimiy nusxa ekanligi bois, unda keltirilgan baytga asoslanib, *asar muallifi Homidiy Balxiy degan xulosaga kelish mumkin.*

Doston qachon yozilgan? – degan savolga javobni ham asarning o‘zidan topish mumkin. Dostonning “Kitob nazmining ibtidosi” deb nomlangan bobida muallif bu asarni Balx shahri qamal qilingan payti yozganini keltiradi. Balxning dunyodagi umm-ul bilod bo‘lgani, u yerda sokin va go‘zal, adolatli hayot kechirishlari haqida gapirgan shoir uning qamal qilinish davridagi fojialarni – o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni iztirob bilan tasvirlaydi. Shahar ichkarisidagi kun kechirish tarzi, odamlar chekayotgan azob-uqubatlar tashqaridagi purne’mat va erkin hayotga zid qo‘yib ifodalaydi. Muallif bu voqealar tasviri asnosida ushbu asarning yozilish ta’rixini ham beradi:

Balx erur, dahrda umm-ul bilod,

Mazhari islom-u taqi adl-u dod.

Jumla akobirning edi manzili,

Sokin erur onda nabi-yu vali.

Bo‘ldi falak gardishidin dori zulm,

Xalqi oning bo‘ldi giriftori zulm.

Zod edi tarixi taqi he-yu dol,
Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol.
Qal’ayi Balx o‘ldi chu darvoza band,
Poyayi zulm o‘ldi bag‘oyat baland.

Ushbu parchada keltirilgan *Zod edi tarixi taqi he-yu dol,/ Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol,* – bayti abjad hisobida: hijriy 812/milodiy 1409 yilni anglatadi ya’ni: “812 =ض+ح+د”dir. Bir nechta qo‘lyozmada, shu jumladan, 1959 yili chop etilgan nashrda ham asarning yozilish tarixi shunday ko‘rsatilgan.

Dostonning Istanbuldagi To‘pqopi saroyi kutubxonasida saqlanayotgan nusxasida esa:

Zod edi tarix dag‘i ayn-u dol,
Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol, – deb bitilgan.

“Zod edi tarix dag‘i (dog‘i/taki) aynu dol,/ Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol” baytdagi abjad hisobida o‘rgansak, asarning yozilish tarixi – vaqti 874-hijriy /1469-1470-milodiy yil ekanligi kelib chiqadi. Abjad hisobida: “874=ض+ع+د”, ya’ni hijriy 874/1469-milodiy yilni ifodalaydi. Parij va Toshkentdagi 7621-raqam bilan saqlanayotgan nusxalarida ham asarning yozilish tarixi shunday keltirilgan.

Demak, bu asarning yozilish vaqti haqida ikki xil ma’lumot mavjud. bor: 1) 1409 milodiy yil; 2) 1469 yil. Bundan tashqari, 1469 yil ta’rix qilib berilgan nashrlarda Husayn Boyqaro madhi ham keladi. Bu alohida tadqiqotlarni talab etadigan masalalardan.

Dostonning yozilish vaqtini yanada oydinlashtirishga yordam beradigan yana bir omil, bu – ushbu bobdagi Balx qamali tasviri. Balx qachon qamal qilingan, – degan savolga javob topish uchun tarixiy manbalarga murojaat qilsak, Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida 874/1469 yili uning qamal qilinganligi haqida ishonchli ma’lumotlar bor.

Balxning 814/1409 yili qamal qilinganligi haqidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarda uchramaydi. Temuriylarning bu taraflarda barqaror hukmronligini boshlash yillarida – Shohrux mirzo davrida Balxning qamal qilinganligi kuzatilmaydi. Shohrux mirzo bu yerga o‘zining ishonchli kishilarini qoldirganligi tarixdan ma’lum.

Shularga asoslansak, asar 874 hijriy /1469 milodiy yili yozilgan, deb xulosa chiqarish mumkin.

Dostonga asos bo‘lgan manbalar haqida shoir ma’lumot berar ekan, kirish qismida ko‘ngliga forsiy tildagi nasriy qissani turkiyda nazmda bitish istagi tushganini shunday yozadi:

Bandayi bechorag‘a shom-u sahar,

Qissayi Yusuf edi andar nazar.
Nasr edi, bu qissa dog‘i porsi,
Erdi anga jon ko‘zi nazzorasi.
Bor edi ko‘ngulda burundin azm,
Turki tili birlam-u qilsam bu nazm.
Ushbu mahalda anga bois magar,
Bo‘ldi yana bir necha sohibnazar.
Bandag‘a dedilar, alarkim bu dam,
Bo‘lg‘ul o‘shul qavlinga sobitqadam.
Qissayi Yusufni tamom ayla nazm,
Turki til birla qilib azm-u jazm.
Qolgay oxir safhasida yodgor.
Sendan o‘shal qissa o‘tub ro‘zgor.

Albatta, asarning ildizi Qur’oni karimga borib tutashadi. Ammo muallif forsiyda bitilgan bir nasriy asardan ta’sirlanib, o‘z asarini turkiyda nazmda bitganini eslaydi. Bu ishda unga atrofidagilar ham madadkor bo‘lganligi e’tiborli. Ushbu nasriy asar, bizningcha, “Piri Hirot” nomi bilan mashhur Xoja Abdulloh Ansoriyning “Anis ul-muridin va shams ul-majolis” asaridir. Turkiy tildagi “Yusuf va Zulayxo” dostoni syujet yo‘nalishi ko‘p jihatdan Ansoriyning qissasiga yaqin. Biroq she’riy doston muallifi qissani o‘ziga xos ifoda yo‘sinida – xos-u avom uchun jozibador tilda va badiiy talqinlarda taqdim etadi.

Abdulloh Ansoriy qissasi syujeti yo‘nalishiga rioya etib doston bitishga intilgan shoir asarni o‘zgacha yakunlaydi. Agar Ansoriy qissasida voqealar Ya’qubning, Yusufning vafoti bilan yakun topgan bo‘lsa, turkiy tildagi bu dostonda Yusufning o‘z og‘alari gunohini kechirishi – barchaning nekbin kayfiyati, holati bayoni bilan xotimalanadi. Ayrim tadqiqotchilar bu holatni asar tugallanmay qolgan, degan fikr bilan tushuntirishga harakat qiladilar. Aslida, unday emas. Bu asar xalqona ruhda, xalqona ohangda bitilgan va uning yakuni ham xalqona asarlarga xos mazmun – orzularning ushalishi bilan yakunlanadi. Ko‘p jihatdan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bu dostonda sabrning, mohiyatda esa imonning faqat yaxshilikka olib borishi kuylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъи баҳрайн. 1-жилд. – Тошкент: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2008.

2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъи баҳрайн. 2-жилд. –Тошкент: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2008.

3. Фозила Сулаймонова. Навоийга нисбат берилган Юсуф ва Зулайхо достонининг Париж қўлёзмаси ҳақида// Адабий мерос, 1973, 3-сон, 152-157 бетлар.

4. Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. Birinchi jild. – Samarqand, 1928, 124- 139 betlar.

5. Ғиёсиддин Ҳумомиддин Хондамир "Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар". –Тошкент: "O'ZBEKISTON", 2013.

6. Маллаев Натан. Ўзбек адабиёти тарихи, биринчи китоб. – Тошкент: "Ўқитувчи" 1976.

7. Halide Cemıl Dolu, Sultan Hüseyin Baykara adina yazilmiş Cagatayca manzum bir Yusuf hikayasi // Turk dili va adabiyoti dergisi. – Istanbul, 1954. 5- jild , 51-58 s.

8. Halide Cemil Dolu. "Yüsuf hikayesi" hakkinda birkaç söz va va bazi türkcea nushalar // Turk dili va adabiyoti dergi. – Istanbul. 1952, 4-son, 431–435 s.

9. "Yusuf va Zulayxo" dostoni. Istanbul To'pqopu saroyi ravon ko'shki 832- sonli qo'lyozma nusxa.

10. "Yusuf va Zulayxo" dostoni. Parij nusxasi. Parij milliy kutoubxonasida "Suppl. No (1365)" raqami ostida saqlanadi.

11. "Yusuf va Zulayxo" dostoni. Aburayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti va Davlat adabiyot muzeyi fondlarida 1433-; 3-185; 5- 7412- raqamlar ostida saqlanayotgan qo'lyozmalar.

12. Vohidiy Juzjoniy Hominiy Balxiy-Ahmadiy Balxiy-Durbek Balxiy. "Yulduz" gazetasi (Afg'oniston), 1983-yil. 253, 254, 255, 256, 257, 258, 259 va 260- sonlari.

ALISHER NAVOIY IJODIDA ADABIY AN'ANA VA AN'ANAVIY OBRAZ TAKOMILI (KOMIL INSON TIMSOLI MISOLIDA)

Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich,
NamDU dotsenti,filologiya fanlari nomzodi
E-mail: msulaymon62@mail.ru **Tel**: + 93 705 25 55
Xoldorova Gulnoza Husniddinovna,
FarDU tayanch doktoranti
E-mail: gulnozaholdarova7@gmail.com
Tel: + 99 978 05 22

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida turkiy adabiyotda mavjud adabiy an'ana va an'anaviy obrazlarning tarixiy takomili xususida so'z boradi. Adib mavjud adabiy an'analar davomchisi

ekanligi qayd etiladi hamda komil inson timsoli vositasida tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy an’ana, adabiy ta’sir, komil inson timsoli, intertektuallik, novatorlik, badiiy tafakkur

Abstract: This article discusses the historical development of literary traditions and traditional images in Turkic literature in the work of Alisher Navoi. It is noted that the writer is a successor of existing literary traditions and is analyzed through the image of a perfect person.

Keywords: literary tradition, literary influence, ideal of the perfect person, intertextuality, innovation, artistic thought

Adabiy an’ana – O‘tmish adabiyoti to‘plagan tarixiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi. Demak, adabiy an’ana doirasiga o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi ham emas, balki uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baholangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namuna deb hisoblagan qismlarigina kiradi. [Quronov,2010: 12]

Demak, adabiy an’ana va novatorlik o‘zaro birgalikda namoyon bo‘luvchi, bir-birini taqazo etuvchi hodisalar hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodi ham, xususan, “Xamsa” dostonlari ham o‘tmish mumtoz adabiyotidagi eng yaxshi adabiy an’analarni o‘zida jamlagan hamda mavzuga yangicha qarashlarni aks ettirgan beqiyos ijod namunasidir.

Forsiy va turkiy adabiyotda mavjud an’ana, badiiy-tasvirlar, muayyan masalaga bir xil munosabatning sezilishi aslida badiiy adabiyotning ana shu ichki qonuniyati bilan bog‘liqligini izohlash mumkin.

Alisher Navoiy ijodiga turkigo‘y salaflarning ta’sirini adabiy an’analar takomili deb tushunish mumkin. Forsiy adabiyotdagi tasvir va poetik vositalarning turkiy adabiyotga olib kirilishini esa adabiy ta’sir istilohi bilan izohlash mumkin.

Adabiy ta’sir – adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo‘lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa. Adabiy ta’sir adabiy-badiiy hodisalarning zamon va makondan qat’iy nazar, o‘zaro aloqada yashashi o‘laroq voqe bo‘ladi. [Quronov,2010: 16]

Istilohga berilgan ta’riflardan quyidagi mulohazalarimiz oydinlashadi:

- Adabiy ta’sir ma’lum milliy adabiyot yoki adabiyotlararo aloqa shaklida, bir davr adabiyoti yoki turli davr adabiyoti o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin;

- Adabiy ta’sir ma’lum bir xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarning kuchayishi ta’sirida yoki til,madaniyat, dunyoqarash uyg‘unligida namoyon bo‘lishi mumkin;

- Har bir ijodkor faoliyatining dastlabki bosqichi o‘zidan avvalgi salaflari ta’siri ko‘zga tashlanishi va bu keyinchalik shu ijodkor uslubi shakllanishiga turtki bo‘lishi tabiiy hol.

- Adabiy ta’sir adabiy aloqalar hosilasi bo‘lib muayyan davr adabiyoti uchun ijobiy hodisa bo‘lishi mumkin.

Endi esa bu mulohazalarimizni Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlariga bog‘laydigan bo‘lsak, bu buyuk beshlik fors va o‘zbek adabiyotidagi adabiy ta’sir hodisasining eng go‘zal namunasidir. Boisi Navoiy yashagan davrdagi til, madaniyatdagi adabiy umumiylik fors adabiyotida mavjud bu mavzuning turkiy tilda inkishofiga turtki bo‘lgan. Bu holatda adabiy ta’sirning ham adabiyotlararo aloqa shaklida hamda turli davr adabiyoti o‘rtasida yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. “Xamsa” adabiy aloqa hosilasi sifatida XV asr uchun noyob hodisa bo‘ldi va turkiy adabiyotning gultojiga aylandi. Lekin shu o‘rinda unutmaslik kerakki, Navoiy adabiy ta’sir va adabiy an’ana muvozanati qonuniyatiga qat’iy amal qildi. O‘zidan avvalgi turkigo‘ylik an’anasini “Xamsa” syujetlari bilan boyitdi.

Fanga fransuz filologi Y.Kristeva kiritgan intertekstuallik terminining mohiyatiga ko‘ra har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatatalar majmuyidir. [Quronov, 2010: 119] Har qanday badiiy asar mavjud vaziyatning muallif qayta idrok etishi natijasida tug‘iladi. Navoiyning “Xamsa” dostoni ham xuddi shunday asar. Voqealar tizmasi, qahramonlar forsiy adabiyot bag‘rida avvaldan mavjud edi. Alisher Navoiy bu voqelikni turkona ruh bilan qaytadan idrok eta oldi. U olamning lisoniy manzarasini so‘z qudrati bilan shu qadar jonlantirdiki, hali-hanuz bu idrok oldida ojizmiz.

Navoiy devonlari haqidagi tadqiqotlarda g‘azallar bir-birini mazmunan boyitib boradigan holda, ya’ni hamd, na’t, ma’vizaomuz tartibda joylashganligi haqida ilmiy dalillar uchraydi. Bu tartibga har to`rt devonda qat’y amal qilingan. Navoiy ijodiyotining barkamolligi aynan shu omil bilan bog‘liq desak, xato bo‘lmaydi. Yuqoridagi baytlar mazmunidan ham anglash mumkinki, Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibiga kirgan barcha dostonlarida ham shu an’anaga to‘liq amal qilgan. G‘azallardagi kabi mazmunan bir-birini boyitib borish an’anasi “Xamsa” dostonlaridagi

barcha qahramonlarga taalluqli jihat ekanligi haqida muayyan xulosalarga kelamiz.

Navoiy Farhod obrazini realistik va romantik dalillar bilan boyitadi. Inson o‘zlikdan qutulmay, Yaratganga yeta olmaydi. Shuning uchun har ikki dostonda ham ilohiy ishq bu yo‘ldagi vosita sifatida ko‘rsatilgan. Aslida Farhod va Majnun ko‘zlagan manzil bir. Komil inson timsoli deb tan olingan Farhod aslida Majnun bo‘lishni, Majnundek bo‘lishni orzu qiladi. Bu uning dostonning kulminatsion nuqtasi, Xusrav bilan bo‘lgan dialogida aniq ochib beriladi.

Hazrat Navoiyning ijodidan ko‘zlagan badiiy maqsadi, niyati ham shu edi. Ishqiy barkamollik fazilatlarini yana-da to‘ldirib, “Xamsa”ning uchinchi dostonini yaratadi. Navoiy har ikki qahramonga ham ilohiy ishq kamoloti libosini kiydirgan. Bu esa adibning barcha asarlarida komil inson timsolini yaratish bosh g‘oyasi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

“Navoiy bir mavzu – majzub solikning majoziy ishqini ikki xil sharoit va adabiy material tasvirida gavdalantirgan. Majnun bilimli, shoir yigit, lekin u juda ojiz, hariflarga, muhitga biroz bo‘lsa-da qarshilik ko‘rsatishdan mahrum. Farhod esa ishq bilan javonmardlikni uyg‘unlashtirgani uchun hunari va jismoniy qobiliyatini ishga sola oladi, qahramonliklar ko‘rsatadi. Xullas, shoir tasavvufiy ishq g‘oyasini ikki xil tarzda tasvirlab bergan. Majnun sulukning maqomot bosqichini o‘tashga ehtiyoj sezmagan, sirga to‘la hol darajasini egallagan solik obrazi. Farhod sarguzashti esa ikki qismdan iborat. Birinchi qism pirga erishish qiyinchiliklaridan tashkil topgan bo‘lsa, ikkinchi qism yorga yetish iztiroblaridir. Ana shu ikkinchi qismda uning avvalda yashirin bo‘lgan ishqi oshkora tus olib, hol martabasiga ko‘tariladi, ya’ni Majnun darajasiga yetadi” [Komilov,2010: 65]

Aslida sof turkiy so‘z bo‘lgan er, eran tushunchasi er kishi, erlar, jasur, mard, botir kabi ma’nolarni bildiradi. Mahmud Koshg‘ariy ham bu so‘zni er – mard, erlik – mardlik deya izohlagan edi. Badiiy adabiyotda er yetuk shaxsiyat egasi va komil inson sifatida tushunilgan. Ahmad Yassaviyning bir qator hikmatlarida ham shunga yaqqol ishora seziladi:

Er bo‘lmasang, o‘lg‘on yaxshi,

Tirik bo‘lmay, qaro yerda so‘lg‘on yaxshi [Yassaviy, 2006: 52]

Alisher Navoiyning er, eran bilan bog‘liq she’riy misralarida ham odatda bu so‘z ilm-u irfon sohiblari, valiy zotlar, oriflarni ifoda etadi. Navoiy bunday so‘zlar bilan ta’riflagan insonlar foniy dunyo lazzatlaridan kechgan,hoy-u havaslardan uzilgan, yuksak taqvo sohiblari bo‘lgan.

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,

Bir yo‘li bo‘lma zabun bu makkor zoli ollida. [Alisher Navoiy, 2006,30]

Alisher Navoiy ijodidagi tilsimotlar bizni hayratda qoldiraveradi. Alisher Navoiyning har bir bayti shohbayt darajasiga ko‘tarilgani, beqiyos ma’nolar maxzani ekanligi bugun umumjahon olimlari tomonidan ham takror-takror e’tirof etilayotganining boisi ham shu bo‘lsa kerak. Alisher Navoiy ijodining turkona ildizlari tahliliga oid bir necha turkum maqolalar nashr etdik. [Xoldorova, 2023: 7-12] Alisher Navoiy ijodidagi har bir g‘oyaning, obrazning, an’anaviy tasvirlarning ildizini turkiy adabiyot bag‘ridan izlash kerak. Chunki yuqorida tahlilga tortganimiz – komil inson g‘oyasi tarannumi ham turkiy tilda yaratilgan eng qadimiy adabiyot namunalariga ham bevosita taalluqlidir. “Devoni lug‘otut-turk”, “Qutadg‘u bilig” asarlarida “er”, “eran” shaklida keltirilgan va mualliflar bir necha o‘rinlarda ularga oid fazilatlar qaydida komil inson g‘oyasi tarannumini sezmaslik mumkin emas. Alisher Navoiy esa mavjud g‘oyani badiiy tafakkuri va qarashlari bilan boyitdi, bu esa buyuk mutafakkir ijodining turkiy manbalarga, turkiy adabiyotga bevosita aloqadorligini, ya’ni Navoiy qaysidir xalq adabiyotini bevosita tarjima qilgan yoki taqlidan yozmaganligini yana bir bor dalillaydi. Chunki bu an’ana va g‘oyalar turkiy adabiyot o‘zanida ham mavjud edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 6-jild. T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 530 б
2. Комилов Н. Сукрот – комил инсон тимсоли. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 7-жилд. 65 б
3. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1995. – 288 б.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr. 2010.
5. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т: Тамаддун, 2018. – 520-б.
6. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: BAYOZ, 2013. – 114 б.
7. Xoldorova G. Navoiyning komil inson timsolini yaratish mahorati.//Journal Research and innavations. 2023. Volume-1.issue 11. – B. 7-12.
8. Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent: Movarounnahr. – B.52
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Б.Тўхлиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 306 б.

НАВОИЙ ИЖОДИДА МАТБУЪ ТАТАББУНАВИСЛИК

Суюнов Мавлонберди Раҳмонович,
академик Бобожон Ғафуров номидаги Хўжанд ДУ
доценти, филология фанлари номзоди (Тожикистон)
***Тел:** (+992) 92 962 23 49*

Аннотация: Мақолада Навоий ғазалларида махсус ўринга эга бўлган матбуъ ғазал ҳақида фикр юритилган. Матбуъ сўзи ёқимли, маъқул, пайравлик қилиши маъноларини англатади. Шоирнинг матбуъ ғазалларидан баъзилари таҳлил қилинди. Шунингдек, улар Ҳофиз Шерозийга эргашиб ёзган татаббулари билан қиёсий таҳлил қилинди.

Annotation: The article discusses the gazelle matbu, which occupies a special place in the gazelles of Navoi. The word matbu means pleasant, acceptable, agreeable. Some of the poet's matbu gazelles are analyzed. A comparative analysis with his works by Hafiz Shirazi is also conducted.

Таянч сўз ва иборалар: матбуъ, ғазал, маҳорат, пайравлик, анъана, татаббу, маҳорат.

Key word sand phrases: matbu, ghazal, craftsmanship, text, payravlik, tradition, tatabbu, mastery.

Алишер Навоий татаббулари унинг ўзбек тилидаги шеърлари жамланган «Хазойин ул-маоний» девонида ҳам мавжуд. Муҳими шундаки, текши-ришлар натижасида Навоийнинг «Хазойин ул-маоний»даги татаббу-ларининг кўпчилиги Ҳофиз ғазалларига битилганлиги маълум бўлди. Бугина эмас, Ҳофиз Навоийнинг умуман ўзбек тилидаги шеърларининг яратилишига ҳам катта таъсир кўрсатганлиги сезилади. Воқеан, буни 1971 йилдаёқ таниқли навоийшунос олим Абдуқодиров Ҳайитметов ҳам қайд этган эди. «Ҳеч шубҳа йўққи, Ҳофиз Навоийнинг ўзбек тилидаги шеърий меросининг яратилишида ҳам жуда улуғ роль ўйнаган» [Ҳайитметов, 1971: 12]. Бу таъсир кўпроқ ғазалнависликда кўзга ташланади. Дарвоқе, Навоийнинг ўзи ҳам етук ғазалнавислар бўлган салафлари Ҳофиз Шерозий, Хусрав Деҳлавий ва Абдураҳмон Жомийни тилга олиб, «Навоий назмига боқсанг эмастур, Бу учнинг ҳолидин ҳар байти холи» [Навоий, 1990: 526]. деган эди. Бунда Навоий тожик тилидаги шеърлари билан биргаликда, ўзбек тилидаги шеърларини ҳам кўзда тутганлиги яққол сезилади.

Айтиш лозимки, бу салафлари орасида Навоий шеъриятига таъсир кўрсатишди Ҳофиз Шерозийнинг мавқеи юксак даражада бўлган. Шунинг учун ҳам Навоий «Хазойин ул маоний» даги

биринчи девони «Ғаройиб ус-сиғар»да замонасининг машҳур қўшиқчиларидан бўлган бир ҳофизга бағишлаган ғазалида унинг ўзига тутган қадаҳини Ҳофиз Шерозий берган шеърият соғарига қиёслайди. Бу билан Навоий Ҳофиз Шерозийнинг шеърият қадаҳидан ичиб, яъни улуғ тожик шоири ижодидан баҳраманд бўлиб, ижодий юксакликларга кўтарилганлигига ҳам ишора қилади: Магарки Ҳофизи Шероз сенки, бир соғар Тутуб Навоийга қилдинг каромат, эй Ҳофиз [Навоий, 1988: 236].

«Хазойин ул-маоний» девонларида Навоийнинг мазмунда ҳам, шаклда ҳам, услубда ҳам Ҳофизга эргашганлиги яққол сезилиб туради. Бу нарса «Ғаройиб ус-сиғар»нинг биринчи ғазалидаёқ акс этиб туришини юқорида айтиб ўтган эдик.

Таниқли навоийшунос А.Ҳайитметов Ҳофизнинг «Ҳадис аз мутрибу май гўю рози даҳр камтар ҷӯ, Ки кас накшуду накшояд ба ҳикмат ин муъамморо» (Гапир чолғучидан, майдан, жаҳон сиррини кам изла. Ечолмас ҳеч киши ҳикмат-ла бу оғир муаммони) байтидаги фикр Навоийнинг «Қадаҳ келтургилу дам урма даҳр сирридин Ки, мубҳам ўлди бу сўз ҳар нечаки айтилди» [Навоий, 1991: 424] байтида деярли таржима қилингандек такрор-ланганини қайд этган эди [Ҳайитметов, 1971: 12]. Олимнинг бу фикрида жон бор. Дарвоқе, Навоийнинг Ҳофиз ғазалларига битилган ўзбекча татаббуларига назар ташланса, уларда мазмунга доир анъаналарни ривожлантиришга алоҳида эътибор берилганлиги сезилади. Бу бежиз эмас. Зеро, Навоий шеърда фикр, мазмун чуқур акс этишига, умуман, назм мазмунли маъноли бўлишига диққат қиларди. Шунинг учун ҳам шоир «Ҳайрат ул аброр» достони муқаддимасида «Назмда ҳам асл анга маъни дурур, Бўлсун анинг сурати ҳарне дурур» [Навоий,1991: 61] дея таъкидлаган эди. Шоир бу борадаги фикрини давом эттириб, сўзнинг, яъни бадиий асарнинг маъноси унинг жони эканлигини, шу сабабли сўз қолипи усиз жонсиз қолипга ўхшашлигини қайд этиб, «сўздаги маъни жоне дурурким, сўз қолиби онсиз қолибе дурур»,-дея ўзининг адабий - эстетик қарашини аниқ ифодалаган эди. Шу сабабли ҳам шоирнинг адабий издошлик фаолиятида матбуъ, татаббунависликка катта ўрин берилган эди.

Матбуъ сўзи ёқимли, маъқул, пайравлик қилиш, мазмунли фикрларни айтиш ёки такрорлаш маъноларини англатади. Шу нуқтаи назардан матбуъ шеър мазмунли, манзур ва ёқимли шеърдир. Умуман олганда эса, матбуъ шеърда мазмун ва шакл бирлигига риоя этилиб, маънонинг етакчи бўлишига диққат қилинади. Навоий

ҳамиша маънонинг етакчилигини ҳисобга олганлиги учун унинг татаббуларида матбуъ жиҳат ҳам кучлидир. Бироқ, бу Навоий татаббуларида бадиий шакл унсурлари назардан четда қолган дегани эмас. Балки матбуъ татаббуларда маъно етакчилик қилади деганидир.

Ҳофизнинг «Мо сархушему бодаи мо дар пиёла кун!» мисраси билан бошланувчи ғазалига [Ҳофиз, 2001: 232]. Навоий битган татаббуларда буни ёрқин кўриш мумкин. Навоий Ҳофизнинг бу ғазалига учта татаббу боғлаган. «Хазойин ул-маоний» таркибидаги «Наводир уш-шабоб» нинг 375-ғазали «Бадоеъ, ул васат»нинг 384 ғазали ва «Фавойид ул-кибар»нинг 378-ғазали шу татаббулар бўлиб, улар маъно жиҳатдан бир бирини тўлдиради.

Аввало айтиш лозимки, Ҳофиз ғазали риндона тасвирга эга. Шеър лирик қаҳрамони бўлган ринд илоҳий ишқ шаробининг хумори. Шу сабабли ўзи ва ўзига ўхшаганларга май қуйиб беришни сўрайди. У илоҳий ишқдан шу қадар маст ва ҳузурга етганки, тоат-ибодат билан шуғулланаётган хонақоҳ пирини харобот, яъни майхонага риёкор сўфийни эса ринд самоъсидан баҳра олишга чорлайди. Ғазал бошдан - охир шундай ишқ туғёни ва унинг завқидан ҳузурланган ринд кайфиятининг тасвиридан иборат.

Навоий Ҳофизнинг бу ғазалига назира боғлар экан, унга матбуъ татаббу нуқтаи назаридан ёндашади. Дастлаб таъкидлаш зарурки, Навоий ўз татаббуъларида Ҳофиз шеърининг радифи «кун», яъни «қил» сўзини сақлаган. Шунингдек, Навоий ҳар учала татаббуъсида ҳам Ҳофиз ғазали қофиясига ҳамоҳанг сўзларни қўллаган. Бундан ташқари, Навоий татаббулари қаҳрамони бўлган ошиқ бир оз риндона хусусияти билан Ҳофиз шеъри қаҳрамонига яқин туради. Аммо уни ринд деб бўлмайди. Чунки татаббулардаги қаҳрамон фаолиятида риндона кайфият кучли эмас. У ўзини ҳақиқий ошиқ сифатида тутади.

Татаббуларда ошиқона тасвир кучли. Шу жиҳатдан улар бир-бирини тўлдиради. Муҳими, уларда маъно жиҳатдан тадрижийлик кўзга ташланади.

«Наводир уш-шабоб» даги татаббу ёр гўзаллигини чизиш билан бошланади. Тасвирдаги ёр ҳаёт гўзали. Упа-элик унга янада чирой бағишлаган. Ошиқ унинг беқиёс гўзаллигидан ҳайратда. Уни томоша қилиб тўймайди. Шоир ёрнинг кийинишига ҳам миллий маъно беради. Унинг «сочида шабнам бурунчак», яъни сочларига ҳам нам, ҳам шабнамдек ялтирайдиган рўмол ташлаб олган. Шунинг учун уни кўрганда «Сунбул узра гар тушар шабнам таажжуб қилмағил» дейди

пирик қаҳрамон. Соч устидан ялтироқ рўмол ташлаб юриш шарқ қизларига, хусусан, ўзбек ва тожик қизларига фазилат. Ялтироқ рўмолнинг шабнам каби товланиши сочга гўзаллик бағишлаган. Бу худди сунбул гулига шабнам тушган ҳолатга ўхшайди. Тасвирда мутаносиб ташбиҳ қўлланган. Сунбул қизга, унинг толалари ёр сочига, барги рўмолга, рўмолнинг ялтираши шабнамга қиёсланиб, ўқувчи кўз ўнгида ёрқин намоён бўла оладиган гўзалнинг қиёфаси чизиб берилган. Тасвир давомида унинг ҳаёт гўзали эканлиги тобора равшанлаша боради. Ошиқ фикрича «ҳусн саҳросида у каби гўзал йўқ. Бунга ошиқ ёрнинг «кийиб синжоби тўн, гулгун ўтук қилдинг хиром» дея ҳайратланиб, «йўқ сенингдек кабки раъно» деган ҳолда ўз эътирофини билдиришидан ҳам англаш мумкин.

Синжоби тўн силовсин ёки сур олмахон терисидан ишланган устки кийим. У ғоятда майин ва чиройли бўлган. Гулгун ўтук эса қизил рангли аёллар этигидир. Навоий даври аёллари либосларидан бўлган синжоби тўн ва гулгун этикларни асосан турк (ўзбек) хотин - қизлари кийишган. Бу либосларни кўпроқ чорвадор ўзбек аёллари кийишган.

Навоий ҳаёт маҳбубасининг гўзаллигини қиёслаб чизишни татаббуь мақтаъсида ҳам давом эттиради:

Кўрмаган бўлсанг, Навоий, сарв уза гул, қил назар
Ким, ул ой гулгуна суртуб, хилъатин қилмиш яшил

[Навоий,1989: 274] . Шоир талқинича, сарв дарахтидаги гулни кўрмаганлар ёрга назар солса уни кўргандай бўлади. Чунки ёрнинг қомати сарв дарахтига ўхшаган тик ва гўзал. Ёр ойдек юзига гулгуна, яъни упа - элик суртиб қизартирган. Натижада,унинг юзи гулга монанд бўлган. Ёрнинг хилъати, яъни устки кийими эса яшил рангда. Бу эса сарв дарахтининг шох ва баргларига ўхшайди. Демак, ёр бошдан - оёқ сарвга монанд. Шоир «ул ой» сўзида истиора санъатини қўллаб, ҳам ёрнинг гўзал қиёфасига, ҳам чиройда ягоналигига ишора қилган. Кўринадики, татаббунинг бошидан -охиригача гўзалликнинг ҳаётий, чуқур маъноли тасвири берилган.

«Бадоеъ ул-васат» даги татаббуда юқоридаги фикрлар ўзгача тарзда ривожлантирилган. Агар «Наводир уш- шабоб» даги татаббуда ёр гўзаллиги қиёслар билан чизилган бўлса, бундаги тасвир тўғридан - тўғри ёрга мурожаат билан бошланган. Лирик қаҳрамон ҳақиқий ошиқ. Ишқ йўлидаги азоблардан унинг қалбида юзлаб яра пайдо бўлган. Аммо унинг қалбини юз яраю юз пора қилган маъшуқ унга бепарво. Бу ҳол ошиқни янада қийнайди. Шу сабабли «эй парий» дея

унга мурожаат қилиб, ўзининг «юз ёралиқ» кўнглига назар ташлашни сўрайди. Матлаъни бошлаган «эй парий» сўзида шоир ҳам ҳаёт маҳбубасини, ҳам илоҳий маҳбуб, яъни Ҳақни ифодалаган.

Ошиқ вужудини ишқ шу қадар эгаллаб олганки, у маъшуқ учун ҳар нарсага тайёр. Шу сабабли ҳам унинг қалби «юз ёралиқ» ҳолга тушган. Маҳбуб синовлар жараёнида ошиқ қалбини шундай даражага етказган. Аммо ошиқ бундан ўкинмайди. У яна қанча синов ва азоблар бўлса ҳам тайёрдир. Шунинг учун ҳам маъшуққа мурожаат қилиб «юз ёралиқ» кўнглига назар ташлаб, «ёрасиз ҳар қайдаким топсанг, ани ҳам ёра қил» дейди. Шоир «ёрасиз» сўзида ҳам ярасиз, жароҳатсиз, ҳам бўлакларга бўлинмаганлик маъносини Берган. Демак, ошиқ фикрича, ишқ унинг қалбини шундай ҳолатга солган. Маъшуқ назар ташлаб, ошиқ қалбида соғ жой топса, ўша жойни ҳам яра ва пора-пора ҳолига келтиришимумкин. Ошиқ бунга ҳам рози. У ҳатто маъшуқнинг ошиғи қалбини пора-пора қилгач, оҳи тутуни билан бўлакларни қоп- қора қилишга ҳам ижозат берган. Шоир талқинича, ошиқ қалби ишқ йўлида пора-пора бўлибгина қолмай, унинг бутун вужуди муҳаббат оловида куйган. Шу сабабли унинг оҳидан ҳам қора тутунга ўхшаш нола чиқади.

Навоий шундан сўнг ўз тасвирининг янада аниқ ва ёркин чиқиши учун мутаносиб ташбиҳга мурожаат қилади. Шоир талқинича, ишқдан пора-пора бўлиб, ошиқ оҳининг тутунидан қоп-қора тусга кирган кўнгил душман қўлига асир тушган ҳинду тўдасига ўхшайди. Зеро, ҳинд сўзи қора маъносини англатади. Ҳиндларнинг ранги тутундан қорайган кўнгилга, тўдадаги одамлар эса алоҳидалик жиҳатидан юрак пораларига монанд. Душман ҳиндулар тўдасини қўлга олгач, уларни ҳар тарафга тарқатган. Ҳиндулар душман қўлида овора бўлгандек, маъшуқ ошиқ дилини ҳам шу ҳолга солган. Ошиқ кўнглига шундай азоб берилишини ўзи истади. Бунинг сабаби шунда эдики, ишққа гирифтор қилиб, уни азобга қўйган аслида кўнглининг ўзи эди. Висолга етолмаган ошиқ ундан ўчини олмоқчи бўлди. Аммо ошиқ олдида кўнгил билан бирга кўз ҳам гуноҳкор эди.

Кўз ҳуснни кўргач, ошиқ кўнглига ишқ тушган. Демак, биринчи айбдор кўздир. Шу сабабли ошиқ дили пораларга бўлиниб, ҳар тарафга ташлангач, «Чун алар овора бўлди, кўзларимни ҳам ўюб, Ўтқа ташлаб, уйларин ҳам тош била юз пора қил» дейди (5, 274). Ошиқ ўзининг бундай қатъий қарорга келиш сабабини «ул икавдин бошима келган балоу ғусса» дин дея очиқ изҳор ҳам этади. Шундан сўнг ошиқфалакка мурожаат этиб, муҳим бир фикрни олға суради.

Кўз ва кўнгил бўлмагач, дейди у, «хўбларга сарвдин қад, меҳрдин рухсора қил». Сарвтик ва тўғри ўсадиган дарахт. Тўғрилик унинг асосий сифати. Шу жиҳатдан у маъшуққа ўхшайди. Бироқ маъшуқ қиёфасида сарвга монандлик бўлса-да, унинг феълида тўғрилик йўқ. Бу-биринчидан. Иккинчидан эса, гўзалларда юксак чирой бўлса-да, уларда меҳр йўқ. Ошиқнинг севгилиси ҳам шундайдир. Шунинг учун ҳам ошиқ барча гўзалларга тик, яъни тўғри қад ва меҳр берилишини илтижо қилади. Агар унинг севгилисида меҳр ва тўғрилик бўлганда, ошиғининг қалбини пора, кўз уйини вайрон қилмаган бўларди. Шу тарзда шоир ишқ жараёнининг ниҳоятда азоблигини кўрсатиб, ҳақиқий васл орзусида бўлган ошиқ маҳбуб азобларига ҳам,бу йўлда дил ва кўз уйининг барбод берилишига ҳам тайёр бўлиши лозимлигини ёрқин бўёқларда чизиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳайитметов А.Алишер Навоий Хожа Ҳофиз Шерозий ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -1971. №5. –Б.8-12.
2. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 6-том. –Тошкент: Фан, 1990.
3. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 3-том. –Тошкент: Фан, 1988.
4. Ҳофиз Ш. Куллиёт. –Теҳрон: Нашри замон, 2001.
5. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 5-том. –Тошкент: Фан, 1990.
6. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 7-том. –Тошкент: Фан, 1991.
7. Навоий А. МАТ, 20 томлик, 4-том. –Тошкент: Фан, 1989.
8. Навоий А. Хазойин ул – маоний. Биринчи девон. Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: TAMADDUN, 2011. – 786 б.
9. Навоий А. Хазойин ул – маоний. Иккинчи девон. Наводир уш-шабоб. – Тошкент: TAMADDUN, 2011. – 735 б.
10. Навоий А. Хазойин ул – маоний. Учинчи девон. Бадоеъ ул – васат. – Тошкент: TAMADDUN, 2011. – 740 б.
11. Навоий А. Хазойин ул – маоний.Тўртинчи девон.Фавойид ул кибар. – Тошкент: TAMADDUN, 2011. – 780 б.

YUSUF ALAYHISSALOMNING UCH KO‘YLAGI

Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich,
University of business and science,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: kurbanovabdulhamid57@gmail.com
Tel. : +998509773870

Annotatsiya: Sharq xalqlari adabiyotida Yusuf alayhissalom haqidagi qissa behad mashhur bo‘lib, “Qissai Yusuf”, “Yusuf va Zulayxo” va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkor asar bitgan. Qissaning lirik she’riyatga ta’siri ham bundan kam emas. Maqola Yusuf alayhissalomning uch ko‘ylagi tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu tafsilning Navoiy g‘azaliyotidagi talqinlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yusuf alayhissalom, turkiy adabiyot, uch ko‘ylak, majoz, haqiqat, tahlil, talqin.

Abstract: The story of Yusuf (peace be upon him) is extremely popular in the literature of the peoples of the East; about one hundred and fifty works of art have been written on this topic under the titles "Kyssai Yusuf", "Yusuf and Zuleikha" and others. The influence of the story on lyric poetry is no less profound. The article is devoted to the image of Yusuf's three shirts, an analysis of the interpretations of this detail in Navoi's ghazals.

Key words: Prophet Yusuf (peace be upon him), Turkic literature, three shirts, metaphor, truth, analysis, interpretation.

Kirish. Yusuf alayhissalom haqidagi qissa jahon adabiyotida behad mashhur ekanligi bilan ajralib turadi. U asrlar davomida arab, fors, o‘zbek, turk, ozarbayjon, turkman, tatar, kurd, gruzin kabi sharq xalqlari adabiyotida qayta-qayta qalamga olinib, ko‘p sonli she’riy va nasriy asarlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. “Qissai Yusuf”, “Yusuf va Zulayxo” va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkornig asar bitgani ma’lum.[1] Birgina turkiy tilda yozilgan “Yusufnoma”larning o‘zi ham qirqdan oshib ketadi.[2]

Qissaning lirik she’riyatga ta’siri ham bundan kam emas. Undagi qator epizod va voqealar qit’a, muxammas, tarje’band va ayniqsa, g‘azal kabi janrlarga mansub she’rlarda tez-tez uchrab, rang-barang holat va

[1] История узбекской литературы. В 2-хтомах. Том I. – Ташкент: Фан, 1967. – С.163.
[2] Х.Г.Короглы. Сюжет о Юсуфе и Зулайхе в тюркиских литературах. // Советское востоковедение 1985, № 6 – С. 18-22.

kechinmalarning ta’sirchan ifodasiga xizmat qilgan. Yusuf alayhissalomning beqiyos husni, ota-bola o‘rtasidagi qaynoq muhabbat, judolik alamlari, tuhmat va xiyonat, quduq va zindon balolari va boshqalar shular jumlasidandir. Umuman olganda, qissaga xos biror voqea yoki tafsil yo‘qki, u lirik she’rlarda ham tasvirga tortilmagan bo‘lsin.

Shulardan biri Yusuf alayhissalomning ko‘ylaklaridir. Ularning voqealar rivoji hamda qissa g‘oyaviy mazmunini ochishdagi o‘rni g‘oyat muhim. Yusuf alayhissalomning uch ko‘ylagi bor. Hikoya qilishlaricha, Ya’qub alayhissalom kenja o‘g‘liga qolgan o‘n bir o‘g‘liga qaraganda qattiqroq mehr qo‘ygan, bu hol ularning ko‘nglida Yusuf alayhissalomga nisbatan kuchli hasad va kin uyg‘otgan edi. Shuning uchun uni yo‘q qilish payida bo‘ladilar. Bir kuni og‘alari lola saylini bahona qilib, Yusuf alayhissalomni dashtga olib keladi. Uni qattiq kaltaklab, eski bir quduqqa tashlab yuboradi. Bir ko‘ylakni echki qoniga bulg‘ab, Ya’qub alayhissalomga aytadilarki, lola sayriga berilib ketibmiz, shu chog‘ Yusufni bo‘ri yeb ketibdi.

Bu qonli ko‘ylak Yusuf alayhissalomning birinchi ko‘ylagidir.

Zulayxo Misrda bir saroy qurdiradi. Uning maqsadi Yusuf alayhissalomni yo‘ldan urish edi. Bir kuni enagasiga amr qiladiki, Yusuf alayhissalomni saroyga boshlab kelsin. Yusuf alayhissalom xilvat haramda bir muddat Zulayxo bilan yolg‘iz qoladi, ehtiroslari g‘alayon qilib, muqarrar gunoh sari qadam tashlaydi. Ammo Yusuf alayhissalom qarshisida avval ota, so‘ng aziz paydo bo‘ladi. Ularning so‘zlarini eshitib, Yusuf alayhissalomning hushi darhol joyiga keladi: Zulayxoni tashlab, tashqariga qocha boshlaydi. Zulayxo uning ortidan quvib, ko‘ylagiga chang soladi. Ammo ko‘ylak yirtilib, Yusuf alayhissalom gunohga botishdan qutulib qoladi.

Bu pora, ya’ni yirtilgan ko‘ylak Yusuf alayhissalomning ikkinchi ko‘ylagidir.

Yusuf alayhissalomdan ajralgach, o‘g‘lining dardu firoqi Ya’qub alayhissalomni qattiq iztirobga soladi. U kechayu kunduz tinmay yig‘lar, judolik alami shu qadar kuchli ediki, uning shiddati Ya’qub alayhissalomning ko‘rar ko‘zlarini ko‘rmas qilib qo‘ygan edi. U o‘ziga bir uy qurib, bu uyga “bayt-ul hazan” – “g‘am uyi” deb nom beradi, butun kunlarini “bayt-ul hazan”da Yusuf alayhissalomning yodi bilan o‘tkazadi. Nihoyat, zamonlar o‘tib, o‘g‘il bilan ota qayta topishadigan kunlar yetib keladi. Yusuf alayhissalom avval o‘zining tirikligini ma’lum qiliish uchun ko‘ylagini bir quldan otasiga berib yuboradi. Qul Kan’onga yaqinlashgan chog‘da o‘g‘lining isi ota dimog‘iga uriladi. U ich-ichidan sezadiki, o‘g‘li

tirik, diydor onlari yaqin! O‘sha ko‘ylakni ko‘ziga surtgan Ya’qub alayhissalomning ko‘zlari qaytadan ochiladi.

Bu ko‘ylak Yusuf alayhissalomning uchinchi ko‘ylagidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O. Davlatov “Alisher Navoiy she’riyatida “Qur’on” oyatlari va hadislar” nomli tadqiqotida Yusuf alayhissalom timsoli, xususan, uning uch ko‘ylagi haqida fikr yuritib, ularning qur’oniy asoslarini belgilashga harakat qiladi.[1]

Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Yusuf alayhissalomning bu uch ko‘ylagi so‘z san’atining ilk davrlaridan boshlaboq qalam sohiblarining poetik nigohini o‘ziga jalb etgan. Xususan, forsiy adabiyotning “Odam atosi” Abu Abdulloh Ro‘dakiy Yusuf alayhissalomning uch ko‘ylagini ta’riflab, quyidagi baytlarni yozgan edi:

Nigorino, shunidastam, ki gohi mehnatu rohat,
Se pirohan salab budast Yusufro ba umr andar.
Yake az kayd shud purxun, duvum shud chok az tuhmat,
Savum Ya’qubro az bo‘-sh ravshan gasht chashmi tar.
Ruxam monad bad-on avval, dilam monad bad-on sonū,
Nasibi man shavad dar vasl on pirohani digar.[2]

(*Ey nozanin nigor, Yusufning mehnatu rohatda o‘tgan umri davomida uch ko‘ylagi bo‘lgan, deb eshitganman.*

Ulardan birinchisi hiyla bilan qonga belandi, ikkinchisi tuhmat bilan chok bo‘ldi, Uchinchisining hididan Ya’qubning yoshli ko‘zlariga nur qaytdi.

Avvalgisi yuzimga, keyingisi dilimga monanddir, (Umidim ulki,) uchinchisi ham vasl chog‘i menga nasib bo‘lgay.)

Uch ko‘ylak tafsili Alisher Navoiy g‘azaliyotida ham keng o‘rin tutgan. Ulug‘ shoir, Yusuf alayhissalom xos boshqa jihatlar bilan bir qatorda, uning ko‘ylaklariga ham tez-tez murojaat qilib turadi. Ma’lumki, she’riyatda kechinma yoki holatni yorqin tasvirlash, uning ta’sir quvvatini oshirish uchun diniy-afsonaviy timsollar sarguzashtlari, ular bilan bog‘liq muayyan voqea va tafsillarga murojaat qilish badiiyatga oid kitoblarda talmeh san’ati deb ataladi. Ammo Yusuf alayhisssalom ko‘ylaklari talmeh bilan birga, rangin tashbeh, istiora, tamsil yoki tanosub bo‘lib kelgan baytlar ham talaygina. “Badoyi’-ul vasat”dan olingan quyidagi baytda ham shu holatga guvoh bo‘lish mumkin:

[1] О.Давлатов. Алишер Навоий шеъриятида “Қуръон” оятлари ва ҳадислар. / Истиқлол даври навоийшунослиги. Ўттиз жилдлик. 28-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – Б. 49–54.

[2] Ахтарони адаб I. Абӯ Абдуллоҳи Рӯдакӣ. Ашъор. – Душанбе: Адиб, 2007. – с. 113.

Yor hajrig‘a davo guldin emaskim, bermas
Kimsaga Yusuf isi qon aro har pora qamis.[1]

Baytda, dastlab Yor gulga (tashbehi aks), o‘z navbatida gul qamis, ya’ni ko‘ylakka (tashbehi izmor) tashbeh qilingan. *Yor hajriga gul davo bo‘la olmaydi*, – deydi shoir, – *Zero, har qonli pora ko‘ylakdan ham kishiga Yusuf isi yetavermaydi*. Baytdagi asosiy timsollar *gul* va *ko‘ylak*. Gul va ko‘ylak aro to‘la muvofiqlik bor. Chunonchi, shoir *qon aro har qamis* der ekan, ayni paytda nafaqat ko‘ylak, shu bilan birga, gulga xos qizillikni ham nazarda tutadi: gul ham qondek qizil. Binobarin, shoir avvalo deydiki, *har qizil qon aro ko‘ylak ham Yusuf alayhissalom ko‘ylagi bo‘lmaganidek, har qizil gul ham Yor hajriga davo emas*.

Ammo gul qon kabi qizil gulgina emas. *Har pora ko‘ylak ham Yusuf alayhissalom isini bermas*, – deydi shoir ikkinchi misrada. *Pora* so‘zining ma’nosi chok, yirtilish. *Pora ko‘ylak* deyilsa ham, u xuddi qizil qon singari, gul bilan ham aloqador. Chunki gulning ochilishi, ulug‘ shoirning quyidagi baytida tasvirlanganidek, gul ko‘ylagining go‘yoki Yusuf alayhissalomning ko‘ylagi yanglig‘ pora-pora bo‘lishidir:

Gul kibi yuz pora xunolud bo‘lg‘an jism ila,
Dard ila mehnat hujumi bazmida pomolmen.[2]

Bu jihatdan anglashiladiki, baytda shoir yana shunday degan: *Har pora ko‘ylak ham Yusuf alayhissalom ko‘ylagi bo‘lmaganidek, har pora* (ochilgan) *gul ham Yor hajriga davo bo‘la olmaydi*.

Baytda ko‘ylakka xos yana bir ma’no bor: *Yusuf isi*. Bu safar bir-biriga mutanosib so‘zlar – *gul isi va Yusuf isi*. Gul isi xushbo‘y bo‘ladi, binobarin, Yusuf isi ham oddiy is emas, balki guldek xushbo‘y is. Ya’ni: *Har qancha xushbo‘y bo‘lmasin, Yusuf isi hajrga davo bo‘lmaganidek, Yor hajrig‘a davo ham gul isidan emas*. Endi baytning mazmunini shunday bayon qilish mumkin: *Har qonli, har pora, har Yusuf alayhissalom isi keladigan ko‘ylak* Ya’qub alayhissalom ko‘zlarining ochilishiga bois bo‘lmaganidek, *har qizil, har pora, har xushbo‘y gul* ham Yor hajriga davo bo‘la olmaydi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy ijodida Haq ishqi, chin oshiqning Haq vasliga yetish yo‘lidagi ranj-mashaqqatlari, kayfiyat-kechinmalarining tasviri yetakchilik qiladi. Ulug‘ shoirning o‘zi bu holatni ko‘zda tutib, “haqiqat asrorini majoz suratida ko‘rsatibmen”, deb yozgan edi. Ammo majoz surati ham bir xil emas, ba’zan u ko‘zga yaqqol tashlanib tursa, ba’zan insoniy kechinmalar pardasi ortiga yashiringan bo‘ladi. Agar

[1] Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.199.
[2] Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.346.

yuqoridagi baytda “haqiqat asrori” kuchli majoz pardasiga yashiringan bo‘lsa, “Navodir ush-shabob”dan o‘rin olgan quyidagi baytda ko‘zga bir muncha ochiqroq tashlanadi:

He ajab ochilsa ko‘r o‘lg‘an ko‘zum Ya’qubdek,
Kim nasimi subh berdi Mohi Kan’ondin xabar.[1]

Baytda Yor *Mohi Kan’on*, ya’ni Yusuf alayhissalom, *oshiq* Ya’qub alayhissalom, *nasimi subh*, ya’ni tong yeli Yusuf alayhissalomning elchisi, *Yorning xabari* esa uning ko‘ylagiga nisbat berilgan. Unda aytilishicha, oshiqning ko‘zlari ko‘r, chunki u, Ya’qub alayhissalom Yusuf alayhissalomdan judo bo‘lganidek, Yor hajriga giriftor bo‘lgan. Ammo u ko‘zlarining ochilishidan umidvor, chunki Ya’qub alayhissalomga elchi Yusuf alayhissalom ko‘ylagini keltirganidek, nasimi subh, ya’ni tong yeli ham unga Mohi Kan’ondan xabar keltirgan.

Baytda Yusuf alayhissalomning ko‘ylagi ham, oshiqning ko‘rligi va ko‘r ko‘zning ochilishi ham majoziy ma’no kasb etgan, ya’ni ular tasavvufiy istilohlardir. “*Ko‘z* deb Haq tajalliysining *shuhudi* (zohiriy ko‘z bilan ko‘rish) va soliklarning Haq tajalliysini idrok etish iste’dodiga aytilur. *Basar* (botiniy ko‘z – ko‘ngil ko‘zi) sifati o‘sha shuhud vositasi ila hosil bo‘lur”, – deyiladi Sajjodiy qalamiga mansub “Farhang-e estelohot va ta’birot-e erfonū” nomli so‘fiyona istilohlarning izohli lug‘atida.[2] Baytda tilga olingan “ko‘r o‘lg‘an ko‘z” shuhud darajasida turgan, ammo hali basar – ko‘ngil ko‘zi darajasiga ko‘tarilmagan ko‘zdir. Garchi zohiran ochiq bo‘lsa-da, “shuhud”ning Ya’qub alayhissalomning ko‘r ko‘zlaridan farqi yo‘q: Ya’qub alayhissalom Yusuf alayhissalom chehrasidan mosuvo bo‘lganidek, u ham Haq jamolining tajalliysini idrok eta olmaydi. Buning uchun unda basar – ko‘ngul ko‘zi ochilishi, ko‘ngul ko‘zining ochilishi uchun esa *nasimi subh* – tong yeli Mohi Kan’on, ya’ni Yordan xabar keltirmog‘i lozim. “Nasimi subh”ning tasavvuf adabiyotida “nasimi Yusuf” degan nomi ham bor. “Nasimi Yusuf suluk egalari uchun tavfiqi ilohiydir”, – deb xabar beradi Sajjodiy.[3] *Tavfiq* esa Haq vasliga yetish yo‘lida solikka yetadigan ilohiy madad, ilohiy hidoyatdir.[4] Aytilganlardan kelib chiqilsa, baytda shoir shunday degani ayon bo‘ladi: *Tong yeli Ya’qub alayhissalomga Yusuf alayhissalom hidini keltirganidek, menga ham tavfiqi ilohiy Yordan xabar berdi, Endi Ya’qub alayhissalomning ko‘zlari ochilib, Yusuf alayhissalom jamolidan bahramand bo‘lganidek, mening*

[1] Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 129.
[2] Сажжодий Саййид Жаъфар. - Фарҳанг-э эстэлоҳот ва таъбирот-э эрфонӣ. - Теҳрон, Таҳурӯ, 1370, с. 302.
[3] Сажжодий Саййид Жаъфар. - Фарҳанг-э эстэлоҳот ва таъбирот-э эрфонӣ. - Теҳрон, Таҳурӯ, 1370, с.762.
[4] А.Қурбонов. “Ҳайрат ул-аброр” “басмала”си бадиияти. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2025, 1-сон. – Б. 46.

ham basirat ko‘zlarim ochilib, Haq jamolini idrok eta boshlasam, ajab emas.

“G‘aroyib us-sig‘ar”dagi 479-g‘azal tarkibida kelgan quyidagi baytda ham shoir ko‘ylak timsolini “majoz surati”da tasvirlagan:

Ko‘nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,

Ey azizim, men ham ul ko‘nglak aro bir tormen.[1]

Ey azizim, – deb Yorga murojaat qiladi shoir. Yorning “azizim” deb atalishi bejiz emas. Bu, bir tarafdan, Unga bo‘lgan ulkan e’zoz va ishqning ifodasi bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, Yusuf alayhissalom sarguzashtlariga ishoradir. Uning ko‘p mashaqqat, ko‘p azob-uqubatlar chekib, oxirida Misr azizi – Misr hukmdoriga aylangani ma’lum. Ulug‘ shoir ana shu nuqtani ham she’rga jo qilgan. *Ey azizim*, – deydi u birinchi misrada, – *jonim dam-badam ko‘ylagingdan Yusufning isini topadi*. Misradagi barcha timsollar majoz libosida namoyon bo‘lgan: Yusuf alayhissalom – Yor, ko‘ylak – Yorga bo‘lgan ishq, Yusuf alayhissalomning isi esa Yorning vaslidir. *Ey Yori aziz*, – deydi oshiq, – *Ya’qub alayhissalomga Yusuf alayhissalomning ko‘ylagidan kelgan hid tiriklik xabarini yetkazganidek, mening jonim ham sening ishqingdan dam-badam visol xabarini topad*i. *SHuning uchun ham meni o‘sha ko‘ylak aro bir ip deb bi*l. Oshiq jonining ko‘ylakning bir ipiga aylanib qolishi vahdat yoki visol – oshiqning Yor bilan qovushuvi, bir bo‘lib ketishidir.

Xulosalar. Alisher Navoiy lirikasida o‘nlab diniy-afsonaviy timsollar mavjud. Ulardan biri Yusuf alayhissalom, xususan, uning ko‘ylaklaridir. Alisher Navoiy ijodi shoirning bu tafsilni o‘z she’rlariga olib kirganligi bilangina emas, balki uning yangi-yangi imkoniyatlarini kashf etib, yangi-yangi ma’nolarda talqin qilganligi bilan ham qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Тўтинчи том. – Тошкент: Фан, 1989.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1990.
4. Ахтарони адаб I. Абӯ Абдуллоҳи Рӯдакӣ. Ашъор. – Душанбе: Адиб, 2007.
5. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида “Қуръон” оятлари ва ҳадислар. / Истиқлол даври навоийшунослиги. Ўттиз жилдлик. 28-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2021.

[1] Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988, 374-бет.

6. История узбекской литературы. В 2-хтомах. Том I. – Ташкент: Фан, 1967.
7. Короглы Х.Г. Сюжет о Юсуфе и Зулайхе в тюркских литературах. // Советское востоковедение 1985, № 6.
8. Сажжодий Саййид Жаъфар. - Фарҳанг-э эстэлоҳот ва таъбирот-э эрфонӣ. - Теҳрон, Таҳурӣ, 1370.
9. Қурбонов А. “Ҳайрат ул-аброр” “басмала”си бадиияти. // Ўбек тили ва адабиёти, 2025, 1-сон.

BOBUR ADABIY MUHITI MANBALARI

Xolikulova Gulsanam Yorqulovna,
SamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan shakllangan Hindiston turkiy adabiyoti uning avlodlari tomonidan rivojlandi, gullab-yashnadi. Maqolada Bobur va boburiylar saroyi atrofida Hindistonda shakllangan adabiy muhit, mazkur adabiy muhitning vakillari, turkiy tildagi ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar “Boburnoma” (Bobur), “Humoyunnoma” (Gulbadanbegim), “Tarixi Rashidiy” (Mirzo Haydar), “Muzakkiri ahbob” (Hasanxoja Nisoriy), “Majolisi Jahongiriy” (Abdusattor bin Qosim Lohuriy, XVIII asr), “Ravzat us-salotin” (Faxriy Hiraviy), «Nafoisul-maosirot» (Sayfi Husayniy) kabi adabiy-tarixiy manbalardagi ma’lumotlar asosida umumlashtirildi. Shu jarayonda mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlarga ham munosabat bildirildi.

Kalit so‘zlar: Bobur adabiy muhiti, Hindiston, turkiy adabiyot, ikki tillilik, adabiy-tarixiy manbalar.

Abstract: The Turkic literature of India, formed by Zahiriddin Muhammad Babur, was developed and flourished by his descendants. The article summarizes information about the literary environment formed in India around Babur and the Baburids' court, representatives of this literary environment, and Turkic-speaking creators based on information from literary-historical sources such as "Baburnama" (Babur), “Humayunnama” (Gulbadanbegim), “Tarikh-i Rashidi” (Mirzo Haydar), “Muzakkiri ahbob” (Hasankhoja Nisori), “Majolisi Jahongiri” (Abdusattor bin Qosim Lohuri, 18th century), “Ravzat us-salotin” (Fakhri Hiravi), “Nafoisul-maosirot” (Saifi Husayni). In this process, a reaction was also expressed to the research conducted on the topic.

Keywords: Babur's literary environment, India, Turkic literature, bilingualism, literary-historical sources.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda tashkil etgan adabiy muhit vakillari haqida ma’lumotlar, ularning adabiy merosi va undan namunalar bir qancha qo‘lyozmalar, tarixiy va adabiy manbalar orqali yetib kelgan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Abulfazl Allomiyning “Akbarnoma”, “Oyini Akbariy” (“Akbar tuzuklari”), Ahmad Hirotiyning “Tabaqoti Akbariy”, Abdulqodir Badauniyning “Muntaxab at-tavorix”, Jahongir bin Akbarning “Jahongirnoma”, Qosim Lohuriyning “Majolisi Jahongiriy”, Abdulboqi Nihavandiyning “Maosiri Rahimiy”, Seydi Ali Raisning “Mir’otil mamolik” kabi tarixiy asarlari; Faxriy ibn Muhammad Amiriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, “Nusxai zeboyi Jahongir”, Javhar Oftobachining “Tazkirat ul-voqeot”, Jahongir podshohning “Tazkirai Jahongir podshoh”, Sayliy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Sodiqbek Afshar Kitobdorning “Majma’ul-xavos”, Aynuddavla ibni Yahyo Sayfi Husayniyning «Nafoisul-maosirot», Mir Alisher Qone’ning “Makolot ush-shuaro”, Aliqulixon Volaning “Riyoz ush-shuaro”, Mirsiddiq Hashmatning “Tazkirat us-salotin”, Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirai Qayumiy” tazkiralari mavzuga doir qimmatli ma’lumotlar va adabiy matnlarni o‘zida qamraganligi bilan ahamiyatlidir.

Hindistondagi turkiy tildagi adabiyot haqidagi ilk ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning **“Boburnoma”**sida uchraydi. Garchi bu asarda yuqorida tilga olingan ijodkorlarning aksariyati nomlari uchramasa-da, asarning (“Boburnoma”ning – X.G.) Hindiston tasvirigacha bo‘lgan qismida tilga olingan Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Abdulloyi, Mir Husayn Muammoiy, Mulla Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy, Hiloliy, Ahliy kabi ijodkorlar va ularning ijodi an’analarining targ‘iboti ham bu yurtda Xuroson va Movarounnahrdagi turkiy va forsiy tildagi adabiyot haqida tasavvur beradi. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 138-139] «Boburnoma»ning 1525-1526-yillar voqealari tafsiloti berilgan qismlari hamda undan keyingi saahifalarida ham tab’i nazmi bo‘lgan yana bir qator shohu shahzodalar, amaldorlar, turli ijtimoiy tabaqadan yetishib chiqqan shoirlar nomi eslatiladi, ular faoliyatiga doir ayrim ishoralar yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, o‘rtaga tashlanadi. Xususan, Shayx Abul Vajd[1] [Vohidov, 2008:

[1] Ayrim adabiyotlarda Shayx Abdul Vohid.

63], Shayx Zayn, Mullo Alixon, Turdibek, Xoksor, Bayramxon, Mirzoxon (Bayramxonning o‘g‘li), Xavofiy, Forig‘iy, Faqiriy, Mavlono Yusufi Tabib, Surx Vadoiy, «Maxzan ul-asror» vaznida masnaviy aytgan Mullo Baqoiy kabi turkiy va forsiyda ijod qiluvchi shoir va yozuvchilarning zikr qilishi yoki Boburning Xo‘ja Kalon bilan turkiy va forsiydagi yozishmalari, shuningdek, o‘g‘illari Humoyun, Komron, Hindolga o‘zining ba’zi tarjimalari, maktub hamda she’rlarini yuborib turganligi ayni adabiy muhitning shakllanish kurtaklarini ko‘rsatadi.[Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 185; Nizomiddinov, 2012: 100-101]

Manbalar ichida Hasanxoja Nisoriyning **“Muzakkiri ahbob”** va Muhammad Haydir Mirzoning **“Tarixi Rashidiy”** asarlari Bobur va uning adabiy izdoshlari tasvirining mufasalligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Hasanxoja Nisoriyning 1566 yilda yozilgan “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Bayramxon, Komron Mirzo, Xoja Kalonbek kabi turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoirlar va ularning hind diyori bilan bog‘liq faoliyati, ijod namunalaridan parchalar keltirilgan.

Shuningdek, tazkirada Mirzo Askariy, Hindol Mirzo, Mirzo Abdulqosim ibn Komron, Nizomiddin Abulbaqo Hindiy, Shayx Boyazid Puroniy, Mavlono Shahobiddin Muammaoiy, Mavlono Fozil Andijoniy, Mavlono Vosifiy, Shayx Zaynuddin, Alibek, Mahram Ko‘ka, Hamdam Ko‘ka, Xojazodai Kobiliy, Mavlono Mahramiy, Amir Muzaffar Turkman, Novidiy Nishoburiy, Mavlono Jomiy Yatimbon, Xoja Yarko, Shayx Muhammad Tohir, Xoja Husayn Marviy, Qosim Arslon, Sahmiy, Qosim Koxiy, Mavlono Zarifiy kabi Markaziy Osiyoning turli viloyatlaridan, ayniqsa, Xuroson va Movarounahrdan Hindistonga, umuman, boburiylar huzuriga borgan ijodkorlar ham tilga olingan va forsiy tildagi she’riyatidan parchalar berilgan. [Hasanxoja Nisoriy] Lekin asarda bu ijodkorlarning turkiy tilda ijodi haqida ma’lumot kuzatilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, mazkur ijodkorlar Bobur va boburiylar atrofida birlashganlar hamda shu adabiy muhitning vakillari sifatida tarixda qolganlar.

Muhammad Haydir mirzoning **“Tarixi Rashidiy”** asarida ham Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ishonarli ma’lumotlar berilgan. Muallif Boburning xarakteri, fazilatlari, maqtovga loyiq jihatlari, ijodkorlik qobiliyati, adabiy merosi, tarjimonligi haqida gapirar ekan shunday yozadi: «U turli go‘zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichidashijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi.Turkiy she’riyatda Mir Alisherdan keyin hech kim uningchalik ko‘p yozmagan. U turkiyda ajoyib totli devon tartib bergan. “Mubayyin”

nomli she’riy asar yaratgan – juda foydali kitob bo‘lib, odamlar uni fiqh dasturamali sifatida qabul qilishgan. [Muhammad Haydar mirzo, 2010: 250]

Boburiylar davri madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni qamragan yozma yodgorliklardan biri Abdusattor bin Qosim Lohuriyning 1612-yili Agra shahrida yozgan **“Majolisi Jahongiriy”** nomli asari [Bekjon]. Asarda Hindistonning o‘sha paytlardagi Yevropa va Movarounnahr davlatlari bilan siyosiy-diplomatik hamda madaniy aloqalari borasidagi ma’lumotlar havola etilgani holda, saroy muhitida turkiy (o‘zbek) tiliga alohida e’tibor qaratilganligiga ham urg‘u berilgan. Bu haqda adabiyotshunos Ismoil Bekjon shunday yozadi: “Chindan ham, o‘z tug‘ilgan vatani va ona tili mavqeini davlat, madaniy hayot maqomida tutgan Bobur vafotidan so‘ng Afg‘oniston, Hindiston kabi o‘lkalarda tug‘ilib o‘sgan keyingi boburiylar avlodida bu xislatlarning paydo bo‘lish jarayonini, bir tomondan, temuriylar sulolasining tarixiy shuhrati tufayli deb tushunib, ikkinchi jihatdan, bu holatni “Boburnoma”ning tarbiyaviy ahamiyati bilan bog‘lasak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz” [Bekjon]. Olim o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, Jahongir bin Akbar “Jahongirnoma” asarida Kobulga ziyorat uchun borgani xotiralarini bayon etish asnosida Jahongirning katta bobosi Bobur podshoh tomonidan o‘z xati bilan ko‘chirilgan “Vaqoe’”sini o‘qib chiqqanini, Hindistonda tug‘ilib-ulg‘ayganiga qaramasdan, turkiycha so‘zlashish va yozishdan benasib emasligini ta’kidlagan, saroyda turkiy tilni o‘qituvchi muallimlar haqida ham ma’lumot bergan. Ko‘rinadiki, Hindiston turkiy adabiyotining saroy atrofida rivoj topishida boburiy hukmdorlarning xizmati beqiyos bo‘lgan.

Manbalardan yana biri **«Nafoisul-maosirot»** nomli tazkira. Bu asar biz uchun yana shu bilan ham qimmatliki, unda Hindistonga safar qilgan hamda u yerda turg‘un bo‘lib qolgan ko‘pgina mashhur o‘rtaosiyolik shoir va mutafakkirlar, jumladan, Bazmiy, Manzariy Samarqandiy, Judoiy Termiziy, Sahmiy Buxoriy, Mavlono Baqoiy Buxoriy, Badi’i Samarqandiy, Mushfiqiy, Nixoniy va boshqalar haqida ma’lumot va axborot yozib qoldirilgan. [Nizomiddinov, 1987: 50-51] «Nafoisul-maosirot» 1904-yili Xorazmda yetuk olim Mulla Sayyid Abdullo bin Avazxo‘ja Eshon tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Asarning tarjimasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zFASHI xazinasida (inv.№810) saqlanadi.

Yana bir manba Faxriy Hiraviyning **“Ravzat us-salotin”** asaridir. Yetti bobdan iborat ushbu tazkiraning “She’rga mayl kursatgan va (she’r) aytgan Samarkand va Xurosonning Amir Temur Kuragon avlodidan

bo‘lgan sultonlari zikrida” nomli uchinchi bobida Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh va uning avlodlari, yaqinlaridan Muhammad Nosir Mirzo, Muhammad Humoyun podshoh, Komron Mirzo, Muhammad Askariy Mirzo, Muhammad Hindol Mirzo, Mirzo Haydar kabilar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.[Faxriy Hiraviy, 2014: 68-75] Lekin ushbu ijodkorlardan Zahiriddin Muhammad Bobur va Komron Mirzoning turkiyda ijod etganligi qayd etilgan, xolos. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur “... turkiy va forsiy ash’orda va aruz va qofiyada yuksak mahorati bor edi... Forsiyda ham ravon va aniq ayta olardi. Ammo turkiy she’riyatga moyilroq edi” [Faxriy Hiraviy, 2014: 68] deya ta’riflanib, ijodidan bir bayt keltirilsa, Komron Mirzoga “... so‘z iqlimida tab’ va dilpazir nazm javohirida turk va tojikning xusravidir” [Faxriy Hiraviy, 2014: 71] deb baho beriladi. Lekin uning turkiy she’riyatidan namunalar keltirilmagan.

Boburning serqirra ijodi va uning davridagi saroy adabiy muhiti ko‘pgina safdosh va yosh qalamkashlarni ilhomlantirib, Hindiston turkiyzabon adabiyotining ravnaqi uchun mustahkam asos yaratdi. Boburning ijodiy va siyosiy faoliyatining eng muhim jihati shundaki, shoh Bobur umrining so‘nggi yillaridagi orzusi – butun Hindistonni yagona kuch ostida birlashtirishga ulgurmagan bo‘lsa ham, ammo shoir Bobur o‘z xalqi adabiyotini osmono‘par Himolay tog‘laridan olib o‘tib, uning badiiyatini Hindistonda kengaytirish sharafiga muyassar bo‘ldi.Turkiygo‘y shoirlarning aksariyati o‘z tillari qatori ayni vaqtda forsiyda ham qalam surganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Тошкент: Фан, 1966.

2. Бекжон И. Бобурийлар маданиятига оид манба. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 2013 йил 23-сон.

3. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.120.

4. Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур қизи. Ҳумоюннома. // Форс тилидан С.Азимжонова тарж. – Тошкент: “Маънавият”, 1998. – Б.104.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Шарқ, -Тошкент: 2002. – Б.336.

6. Иномхожиев Р. XVI аср Ҳиндистон адабий ҳаётида туркий-форсий икки тиллилик. –Тошкент: Фан, 1993. – Б.208.

7. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Тошкент: Sharq, 2010. – Б.720.

8. Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. - Тошкент: Фан, 1987.- Б.54.

9. Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср).– Тошкент: Fan va texnologiya, 2012, - Б.516.

10. Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. Жавоҳир ул-ажойиб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. – Б.192.

11. Ходжаева Т.А.Ўзбекистон ва Ҳиндистон адабий алоқалари тарихидан. –Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2011. – Б.128.

12. Ҳасанов С. Азфарийнинг илмий-адабий мероси. - Тошкент: Адабий мерос, 1977. 9-сон.

13. Ҳасанов С. Мирзо Комрон девони. – Тошкент: Адабий мерос, 1986, 3-4 сонлар.

14. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. Тазкира. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.344.

XOJA HIKOYATLARIDA QOZI TIMSOLI

Mashhura Xasanova,
SamDU dotsenti, filologiya fanlari doktori
Eshpulatova Oqila,
SamDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qozi va qozilichilik masalalari mumtoz hikoyatchilik asosida tahlil etilgan. Mumtoz nasrda qozilar haqidagi fikr-mulohazalar va diniy ishlarda qozining qanchalik muhim o'rin tutganligini bayon qiluvchi hikoyatlar yetakchilik qiladi. Muallif ana shunday hikoyatlar vositasida mavzuni ochib beradi.

Kalit so'zlar: islom dini, shariat, qozi, musulmon

Annotation: This article analyzes the issues of Qazi and qaziliq on the basis of classical storytelling. Classical prose is led by reflections on the Kazakhs and stories that describe how important Kazi played in religious affairs. The author reveals the topic through such stories.

Keywords: Islam, Sharia, Qazi, Musliman

Bilamizki, shariat va diniy ishlar bo'yicha xizmat qilish birmuncha jiddiy bo'lgan. Bunday ishlarni bajarish uchun qozilar tayinlangan. Ular qarorlarini har tomonlama o'ylab ,keyin fatvo berishgan. Mumtoz adabiyotimiz namunalarida ham shariat ishlari bo'yicha tayinlangan ko'plab amaldorlarni ko'rishimiz mumkin. Biz dastlab "Qozi" so'zi qanday ma'no anglatishini bilib olishimiz va aynan mumtoz adabiyotda

shariat ishlari bo‘yicha shug‘ullanuvchi amaldorlar yana qanday nomlar bilan atalishini bilib olishimiz joiz.

"Qozi" so‘zi arab tilidagi "qazo" fe’lidan olingan bo‘lib, "kesish", "ajratish va "hukm qilish” degan ma’nolarni anglatadi. Hanafiy ulamolarining ta’rifiga ko‘ra qonuniy yo‘l bilan xusumatlashayotgan tomonlarni ajratish va nizolarni kesish "qazo" deyilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda qozi musulmon davlatlarida hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sudya, shar’iy mahkama raisi hisoblangan. Qozilik mahkamalarining faoliyati hozirgi sudlar faoliyatiga qiyoslangan. Ya’ni qozixonalar bu zamonaviy sud va sudlov tizimining tarixiy shakli. Turkiy xalqlarda qozi "yorug‘chi" deb atalgan.

Qozilar qilgan ishi va amallarini Sharq tarixi va madaniyatida 1091-yilda yozilgan Nizomulmulkning “Siyosatnoma”(“Siyar ul-muluk”) asaridan bilishimiz va ko‘plab misollar ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarning 6-faslida qozilar,xatiblar va muhtasiblar haqida keltiriladi. Mamlakat qozilarining ahvoli to‘la-to‘kis o‘rganilgan va ularning olimu zohid yoki kambag‘alligi tekshirilib, lekin ko‘p ta’ma qilmaydigan kishilari tarbiya qilinib, shular bilan ish yuritilgan. Agar shunday bo‘lmasa, ishdan bo‘shatib ,boshqa tayinlashgan. Qozilar uchun tayinlangan maoshlarga ham e’tibor qilingan. Zarur darajada maosh tayinlangan. Chunki maosh yaxshi bo‘lsa, ishida ham hallolik ko‘rsatadi, xiyonat qilmaydi. Ularning ishi nozikdir, ular musulmonlarning yaxshiyu yomonliklari ustidan hukm chiqaradilar. Shuning uchun bunday ishlarni nopok kishilarga ishonib bo‘lmaydi, faqat pok va olim kishilarga ishonib topshirish kerak. Viloyat hokimlari qozi va shariat hukmlarini bajarishlari lozim va saroyda shunday olim kishilarni yig‘ib, ularning amru qarorlariga ziyon yetkazmasliklari zarur. Agar shariat hokimi majlisiga biror kim kelishdan bosh tortsa ,uni majburlab olib kelishgan, toki haqiqat ayon bo‘lsin va hech kim hukmdan bosh tortmasin. Odam alayhissalom davridan beri dunyoda har millat va mulklar uchun adolat qilib kelinganligini bilamiz.[1] Shu o‘rinda bir hikoyat keltirilgan. Bir kuni Ammora ibn Hamza xalifa Vosiq majlisida o‘tirgan ekan. Zulm chekkanlarni qabul qilish kunida bir jabr ko‘rgan kishi kelib, mulkini Ammora zo‘ravonlik bilan olib qo‘yganligi to‘g‘risida shikoyat qiladi.

Xalifa Vosiq Ammoraga:

- Turib da’vogar yoniga o‘tir va dalilingni ko‘rsat, - deydi .

Ammora aytadi:

[1] Nizomulmulk “Siyosatnoma” (“Siyar ul-mulk”). Yangi asr avlodi. – Toshkent, 2008. 45-bet.

- Men uning raqibi emasman va agar shu mulk meniki bo‘lsa, ungga hadya qilaman, xalifa meni hurmat bilan o‘tqazgan joyidan turmayman. Obro‘-martabamni bir parcha yer uchun barbod qilishni xohlamayman. – shunda uning yuksak himmatliligi barchaga xush kelgan edi[1].

Podshoh qozisi da’vo qiluvchilarning so‘zlarini o‘zi eshitmog‘i kerak. Musulmon ahli shikoyat qilib kelganda podshoh qozisi hukm chiqarishda qiynalmasligi uchun olim kishi bo‘lishi zarur. Agar qozi turk yoki tojik bo‘lsa, arab va shariat qoidalarini bilmasa, unda noiblardan biri uning ishlarini olib borishga to‘g‘ri kelgan. Hamma qozilar podshohning noibi hisoblanishgan. Har bir shaharda tarozi va narxlarni tartibga soladigan, oldi-sotdi ishlarni biladigan olim va dono kishilardan muhtasiblar(“Qutadg‘u bilig” asarida muhtasib - shariat ishlari bo‘yicha amaldor) qo‘yilgan. Atrofdan olib kelingan mollarni sotishda narxlariga e’tibor qilishi kerak bo‘lgan va sotish payti haridorlarni aldamaslik uchun ular ustida nazorat bo‘lishi shart edi. Podshoh va amaldorlari tomonidan muhtasiblar qo‘llab-quvvatlanib turgan. Bular ortidan diniy ishlar va shariat qoidalari rivoj topgan. Agar noto‘g‘ri qarorlar chiqarilsa, nohaqliklar ko‘p uchrasa, fisqu fasodlar ,odamlar xohlagancha savdo qilishlariga yo‘l ochiladi. Shariat ishlari rivojlanmay, orqaga keta boshlaydi. Shuning uchun ham millatidan qat’iy nazar topshirilgan ishni xato qilmasdan bajarish ularning burchi. Islom qonun-qoidalariga hamisha rioya qilinishi lozim.

Yana bir hikoyatda keltiriladi, G‘aznida novvoylar do‘konini yopib, non sotmay qo‘yishibdi, shunda non qimmat va taqchil bo‘lib qolibdi. Buning natijasida qiynalgan kambag‘al va darveshlar sulton oldiga shikoyat qilib borishibdi. Sulton buyurib xos novvoyini keltiribdi. Uni fil oyog‘i ostiga tashlab, so‘ng fil tishiga bog‘lab Shahar bo‘ylab aylantirib, sulton buyrug‘i bilan jarchilar “kimda-kim non sotishdan bosh tortsa, do‘konini ochmasa, jazosi shu bo‘ladi“. Shundan so‘ng barcha novvoylar do‘konlarini ochishadi, hatto nonlari ortib ham qoladi. Mana shunday donolik bilan chiqarilgan qaror hammasini o‘z iziga tushishiga yordam beradi. Safyon Suriy aytadiki, eng yaxshi sulton din ahli bilan o‘tirib turuvchidir, ulamolarning eng yomoni sulton bilan o‘tirib turuvchisidir.[2]

Har ishning yaxshi va yomoni bo‘lgani kabi qozilarning ham yomonlari bo‘lgan. Bunga sabab davr bo‘lishi ham mumkin. Poshshaxo‘janing “Miftoh ul-adl”(“Gulzor”bilan birga) asaridagi kichik ibratli hikoyalar, mazmunli masalalar orqali bilib olamiz. Poshshaxo‘ja

[1] Nizomulmulk “Siyosatnoma” (“Siyar ul-mulk”). Yangi asr avlodi. – Toshkent, 2008. 47-bet.
[2] Nizomulmulk “Siyosatnoma” (“Siyar ul-mulk”). Yangi asr avlodi. – Toshkent. 2008. 49-bet

yashagan davrda xalq baxtli hayot haqida xayol surib kelgan, lekin o‘sha davr sotsial sharoit bu xayolning ro‘yobga chiqishida to‘sqinlik qilgan. Shu o‘rinda amaldorlarning ham xalqqa jabr-zulm yetkazishlari bo‘lgan. Poshshaxo‘ja o‘z asarida oddiy xalq vakillarini tilga olgan. Bu qahramonlar sofdil, vijdonli, irodali va odil shaxslar sifatida tasvirlangan. Asarda qozilarning ishlari, hatti-harakatlari to‘g‘risida bir hikoyatni keltiradi, tolibul ilm yigit va qozi haqida so‘z boradi. Bir kuni tolibul ilm yigit sulton yoniga arz qilib boradi. Aytishicha, otasidan ko‘p mol qolibdi. Ilm talabi bilan Turkiston viloyatig‘a bormoqchi bo‘lib, qoziga ming qizil tilloni ipakdan to‘qilgan kissaga solib, hatto muhr ham qilib beribdi va ilm olishga ketibdi. Oradan vaqt o‘tib yigit qaytib kelib, qozidan olgan omonatini uyiga olib ketibdi. Uyiga borib ko‘rsa tillo emas mis tangalar chiqibdi. Qozining oldiga qaytib boribdi, lekin qozi muhrlangan kissani ichida nima borligini men bilmayman, deb bosh tortibdi va ont ham ichibdi. Yigit gapini tugatib, sultonga yuzlanibdi. Endi sizga keldim, siz bilursiz. Sulton yigitga ont bergil debdi. Yigit aytibdi: ey sultonim, bu qozining onti bir laklak qush hikoyatiga o‘xshaydi. Nega ont berayin, debdi va qozi laklak qushga nima uchun o‘xshashini aytibdi. Laklak qush ilon yeydigan qush bo‘lib, ilonlarni oyog‘iga changallab olib, yeb ketar ekan. Shunda ilonlar yig‘ilib laklak qushdan qo‘rqib, hamma ilon laklak qush har kuni bir dona ilon yeyishiga kelishibdi. Laklak qush ham rozi bo‘libdi. Vaqt o‘tib laklak qush bolalabdi va bir ilonga qorni to‘ymay qolibdi. Bir kuni ilonlar yig‘ilgan joyga borib, ilonlardan bir nechtasini tutib olibdi va bolalari yoniga uchib ketibdi. Keyin ilonlar buni ko‘rib ,laklak qushga ont ichganini aytishibdi. Laklak qush esa men minora ustida turib, masjidga song‘urman, gunohdan qo‘rqmasman, debdi. Sultonim, qozi bo‘lib ertayu kech odamlar keltirganlarini olib o‘tirgan bo‘lsa, shunday kishi nechun ont ichmasin, debdi. Sulton nima qilishni o‘ylab, oxiri qozining qanday qilib pul solingan kissani ochganini va pulni almashtirganini bilib olibdi. Qozini chaqirib hamma ishlarini bo‘yniga qo‘yibdi. Qozining jazosi esa dorga osilish bo‘libdi. Sulton tolibul ilm yigitga qozi bo‘lishini taklif qilibdi. Lekin yigit, men qozi bo‘lsam, vaqti kelib o‘lsam, iymonsiz ketsam, debdi. Sulton nima uchun yigitning bunday deyishini tushunmabdi va so‘rabdi. Yigit:

Ozarbayjon shahrida bir qozi bor edi. U qozi xastalikka chalinibdi. Ustod bilan ko‘rishga bordik. U qozi tavba qilib,kalimai shahodatni aytib, undan rozi bo‘lisharini so‘rabdi. Shunda ustod qoziga imon keltirding, imon keltirgan o‘lmas, dedi. Qozi kasallikdan tuzalib, o‘lmadi. Keyin qozi bir sharob ichib otga minib borar ekan, oti hurkib, ko‘tarib yerga urdi, shu

zahoti o‘ldi. Qozi bu dunyodan iymonsiz ketdi, debdi. Bu hikoyani tugatgan yigit qozi bo‘lishdan bosh tortibdi[1]. Shu o‘rinda, **Burayda roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:** Nabiy sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: «Qozilik uch xil bo‘ladi: Ularning ikki xili do‘zaxda va bir xili jannatda bo‘ladi. Bilib turib haqsiz tarzda hukm etuvchi qozi do‘zaxda bo‘ladi.Bilmay turib, ammo insonlar huquqini paymol etuvchi hukm qiluvchi qozi ham do‘zaxdadir.Haq hukm etuvchi qozi esa jannatda bo‘ladi».

Xulosa qilib aytganda, Sulton amaldorlari ustidan qanchalik ko‘p nazorat qilib tursa, yolg‘onchi, ochko‘z, iymonsiz kishilar bo‘lmas. Qozilar doim xalqni o‘ylab qaror chiqarsa, din va shariat qoidalariga doim amal qilsa va amalda ham o‘z isbotini ko‘rsatib bersa, xalq ulardan rozi bo‘ladi va ishonadi. Aks holda, zolim qozilar tufayli ko‘plab nohaqliklar bo‘ladi. Diniy va shariat qoidalarini bilmay, ish yuritishlari ko‘p xatoliklarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nizomulmulk “Siyosatnoma”. Yangi asr avlodi. Toshkent, – 2008. – 240 b

2. Poshshaxo‘ja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. ЎzSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent. 1962. – 56 b

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.

SAFARNOMALARDA TARIX VA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

Ne’matova Hulkar Abdulbakiyevna,
JizzaxDPU dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

1325-yilda dunyodagi eng yirik cho‘l – Sahroi Kabirni piyoda kezib, Makkaga safar qilgan, dunyodagi buyuk sayohatni amalga oshirgan arab sayyohi Ibn Battutadir. “Barcha musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan so‘nggi eng buyuk sayyoh” [2.3] o‘z sayohati mobaynida shaxsan tanigan va qabrlarini ziyorat qilgan ikki mingdan ortiq insonlar to‘g‘risida ma’lumot bergan hamda oltmishga yaqin hukmdor va vazirlar bilan tanishgan. Yigirma sakkiz yillik jahongashtaligi davomida Ibn Battuta “sayohatining ko‘lami jihatidan haqli ravishda o‘z davrining eng buyuk sayyohiga aylandi” [2.21]. Ibn Battuta “Sayohatnoma”sining qimmati

[1] Poshshaxo’ja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. ЎzSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent, 1962. 28-bet

shundaki, sayyoh o‘z sayohati mobaynida tarjimonga ehtiyoj sezmay, tashrif buyurgan har qaysi mamlakatning barcha o‘ziga xos tomonlarini benihoya katta qiziqish va qoniqish bilan o‘rganib, ko‘rgan-kechirganlari haqida xuddi Marko Polo singari sinchkovlik bilan batafsil tasvirlash bilan birga, keltirib o‘tgan ko‘plab ma’lumotlarini asoslash maqsadida izlanadi, qolaversa, o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan, ammo kimdandir eshitgan hikoyalarini, albatta, kimdandir yozib olganligini ham ro‘yi-rost yozib o‘tadi.

“Sayohatnoma” o‘n sakkiz fasldan iborat mundarijaning har bir boshlanmasida shu faslga oid xaritalarning ilova qilinishi kitobning o‘qiguvchi uchun yanada aniqroq va mukammalroq ma’lumotlarni yo‘lga kiritishlariga qulaylik sifatida e’tiborga molikdir. Ham ilmiy, ham ma’naviy oziqa berish bilan bir qatorda tarixiy ahamiyatga ega bu kabi asarlarning dunyo miqyosida tan olinishining zamirida buyuk sayyohning matonati va mashaqqati, sabr va bardoshi yotibdi. Chunki ham dengiz to‘lqinlarining vahimali hayqiriqlari, sahro-yu cho‘llarning jaziramalarini zimmasiga olib yo‘lga chiqishni hamma ham eplayvermaydi. Qolaversa, xavf-xatardan himoyalanish, buning ustiga tabiatning injiqliklari hamda turfa yurt insonlarining turfa odat va qarashlari bilan hisoblashishning ham o‘ziga xos mushkulliklari bisyordir. Kitobni katta qiziqish bilan o‘qish asnosida ko‘plab yangidan yangi ma’lumotlarga ega bo‘lish barobarida muallifning kelajak avlod uchun qoldirgan himmatli ma’lumotlari uchun ichki minnatdorlik hissi paydo bo‘lishi aniq. Negaki, unda hayotning naqadar chalkash va murakkab tomonlari, ba’zi o‘rinlarda esa g‘aroyibotlari tasviri aniq dalillar asosida mohirona tasvirlangan. Demak, biz sharq olamida o‘z davrining buyuk sayyohi, deb baralla ayta oladigan Ibn Battuta o‘zining oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oldi: u insoniyat uchun sayohatdan saboh chiqarishning oltin qoidalarini o‘z asariga muhrlab, kelajak avlodlar uchun ulkan ilmiy zahirani qoldirdi.

Sayohat Ibn Battutani mukammallik sari eltdi, vaholangki, uning sayohat qilishdan ko‘zlagan asl maqsadi ham: “Dunyoni ko‘rib ko‘ngil ochish, turli ajoyibotlarni tomosha qilish, mo‘jizalar haqida hikoya tinglash, keng bilim orttirish, qiziqarli odamlar bilan tanishish, taqdirni sinab ko‘rish” [2.11] edi-da. Ibn Battutaning sayohatlari o‘zgacha kechgan. Har bir safarining mahsuli sifatida ham ma’naviy, ham moddiy jihatdan boyib boraveradi. O‘ziga ishonchi ortgani sari yangi manzillarni o‘rganishda yanada kengroq yondashadi, “ham sayohat, ham tijorat” deganlariday yaxshigina savdo ishlari bilan ham shug‘ullanib yuradi. “Yo‘lga chiqqan yo‘ldan topar”,- deya xalqimizda bejizga aytilmaganda.

Musofir odamning dunyoqarashi ham keng bo‘ladi. Muomala-munosabatda ko‘rgan-kechirganlari asosida fikrni umumlashtirib keyin xulosa chiqaradi. Yo‘lchini yo‘l tarbiyalaydi.

Ibn Battuta “Sayohatnoma”sining yana bir ahamiyatli jihati bor. Asarning to‘rtinchi faslida O‘rta Osiyo haqida so‘z yuritiladi. E’tiborlisi shundaki, mamlakatimizning necha ming yillik tarixiga ega mashhur Xorazm shahri (Urganch), Samarqand shahri, Xorazm amiri va qozisining fazilatlari, Xorazm qovuni, Buxoro va boshqa shaharlarning vayron qilinishi, Movarounnahr sultoni haqida tarixiy qimmatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. “Sharqda ham, G‘arbda ham Xorazm qovuniga teng keladigani dunyoda yo‘q. Buxoro qovuni bundan mustasno, undan keyin Isfahon qovuni turadi” [2.363], - deya yuksak bahoga loyiq ko‘radi va o‘zing sevimli mahsuloti ham aynan quritilgan qovun qoqi ekanligini ham aytib o‘tadi. Ushbu mahsulotning xaridorgirligi sabab uni Hindiston va Xitoyga olib borib sotishlari haqidagi muhim ma’lumotni berib o‘tgan. Bunday misollarni o‘qir ekanmiz, benihoya, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi: “Qishloq qayerda-yu, daraxtlar qayerda? Maqolini aftidan Axsi uchun aytganlar. Qovuni yaxshi bo‘ladi. Bir nav qovinini “mirtemuriy” deydilar… Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan paytimda Axsidan, Buxorodan qovun keltirib, bir o‘tirishda so‘ydirdim. Axsi qovunining hech misli yo‘q edi” [3.31] kabi misollarda uslubiy o‘xshashlik borligini payqaymiz. Tarixdan bizga yaxshi tanish bo‘lgan Jaloliddin Manguberdining jasorati ham tilga olingan, muallif ushbu jang tafsilotini kimdandir eshitgan bo‘lib, “hikoya qilishlaricha” [2.366], deb mohirona tasvir etadi.

Muallifning yozish uslubi o‘ziga xos. Garchi eshitgan bo‘lsa-da, ko‘plab hikoyalarini xuddi o‘zi o‘sha jarayonda ishtirok etgandek katta mahorat ila yetkaza olgan. Bu esa asarning badiiy qimmatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ibn Battuta “Sayohatnoma”sini o‘qish jarayonida uning yozilish uslubidagi: “Xorazm yonida Jayhun daryosi oqib o‘tadi. Bu daryo jannatdan boshlanadigan to‘rt nahrning biridir… Xorazmdan chiqaverishda bir zoviya bor. Uni eng buyuk avliyolardan biri bo‘lmish Najmiddin al-Kubro qabri uzra bunyod etishgan… Shahardan tashqarida alloma imom Abul-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning mozori bo‘lib, uning ustida maqbara qurilgan” [2.360], aynan shunga o‘xshash bir qator jihatlari bizga “Boburnoma”ni eslatib yuboradi: “Samarqand shahri ajoyib orasta bir shahardir. Bu shaharning bir xususiyati borki, bunaqasi kamdan-kam shaharda bo‘ladi, ya’ni har hunarmandning alohida bozori bor, bir-biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdir... Olamda yaxshi qog‘oz

Samarqanddan chiqadi. Qog‘oz juvozlariga suv butkul Konigildan keladi. Konigil Siyohob (Qorasuv) yoqasidadirki, bu Qorasuvni Obirahmat ham deydilar” [3.57].

Ibn Battuta olim, mudarris sifatida “sayohati davomida olgan bilimlari tufayli madrasada dars berish huquqiga ega bo‘lib, Makkadagi ilm dargohlarida mashhur yurtdoshimiz Imom al-Buxoriyning “Al-Jomiy as-Sahih” deb nomlangan mashhur hadislar to‘plami bo‘yicha ma’ruzalar o‘qigan” [4.78] bo‘lsa, sayyoh sifatida O‘rta Osiyoning Urganch, Buxoro, Naxshab (Qarshi) va Samarqand kabi yirik shaharlarida bo‘lib, ular haqida boy tarixiy ma’lumot qoldirgan.

Ibn Battutaning “Sayohatnoma”si o‘zining yozilish uslubidagi o‘zgacha yondashuv, tasvirlardagi jonli ifodaning maromiga yetkazilishi, turfa ajoyibotlar haqida hikoya qiluvchi bir-biridan qiziqarli hikoyalarning keltirilishi, atrof-olamning qay yurtda qay tarzda o‘z tarovatini namoyon etishi, o‘zga yurt vakillarining faqat o‘sha xududlargagina xos bo‘lgan mashg‘ulotlari haqida to‘laqonli ma’lumotlarni keltirishdagi fikriy teran mushohalarning berilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatdan olib qarasak, boshqa sayohatnomalardan bir qadar ustunlik jihatlari namoyon etganligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar::

1. Qur’oni Karim. Izohli tarjima. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992-yil.
2. Ibn Battuta. Sayohatnoma. – Toshkent: Sharq NMAKBT, 2012-yil
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008-yil
4. Gadoyev K., Berdiyeva S. Jahongashta sayyoh olimlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012-yil

OLTIN O‘RDADA XIII–XIV ASRLARDA YARATILGAN ADABIY MANBALAR TASNIFI

Sulaymanov Zaxiriddin Ural o‘g‘li,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
E-mail: sulaymonovzaxiriddin@gmail.com
Tel: +998933037794

Annotatsiya: Maqolada Oltin O‘rda o‘zbek adabiyotida XIII-XIV asrda yaratilgan badiiy adabiyot namunalari hisoblanmish agiografik

asarlar birma bir izohlandi. Ularga jahon adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan baho berildi. Asarlarning qisqacha o‘rganilish tarixi, janrlar tarkibi aniqlandi. “Nahj ul-farodis”, “Mu’in ul-murid” kabi asarlarning muallifi borasida adabiyotchilarning mulohazalariga xulosaviy fikrlar berildi. Shuningdek, “Nahj ul-farodis” asarining nusxalari hamda kompozitsion tuzilishi tahliliy yoritildi.

Kalit so‘zlar: agiografik asarlar, rivoyat, hikoyat, hadis, arba’in, diniy-didaktik, to‘rtlik, hikmat.

Annotation: The article explains one by one the hagiographic works, which are examples of fiction created in the Uzbek literature of the Golden Horde in the XIII-XIV centuries. They were evaluated from the point of vie w of world literature. A brief history of the study of the works and the composition of the genres were determined. Concluding opinions were given on the opinions of literary scholars regarding the author of such works as "Nahj ul-farodis" and "Mu'in ul-murid." Also, copies of the work "Nahj ul-faradis" and its compositional structure were analyzed.

Keywords: Hagiographic works, narratives, stories, hadiths, arba'in, religious-didactic, quatrains, wisdom.

XIII-XIV asrlarga kelib mehnatkash xalqning fikrini quruq va’zxonlikdan ko‘ra diniy-afsonaviy voqealarga tortish kuchaya boshladi. Bu davrda turk diyorida islom dini kengayishda davom etdi. Oltin O‘rda adabiyotida muayyan ma’noda diniy asarlarning taraqqiy topishi tabiiy hodisa edi. Chunki, endigina islomiy davlat taomiliga kira boshlagan mamlakat uchun o‘z aholisini pokiza e’tiqodga bag‘ishlovchi asarlar bilan ta’minlash zaruriy hodisa edi. Ma’lum syujet asosiga qurilgan turli-tuman naql-rivoyatlarni badiiy bayon etishga intilish nasriy asarlarning yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo‘ldi. Dinni xalq orasida keng yoyish vazifasini diniy mavzudagi badiiy-didaktik asarlar bajarib berdi.

Oltin O‘rda adabiyotida vujudga kelgan agiografik yo‘nalishda yozilgan asarlardan biri – didaktik mazmunda yozilgan Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” nomli asaridir. Xalq orasida bu asar “Qisas ul-anbiyo” (“Payg‘ambarlar qissasi”), “Qisas ul-anbiyo Rabg‘uziy” (“Rabg‘uziyning payg‘ambarlar qissasi”), “Qisas ul-anbiyo alayhi as-salom” (“Payg‘ambarlar qissasi”) yana “Qisasi Rabg‘uziy” (“Rabg‘uziy qissasi”) degan nomlarda keng tarqalgan.

XIV asrda dunyoga kelgan bu adabiy yodgorlikni o‘rganish o‘z davridayoq boshlangan. So‘nggi ikki asrda bu boradagi ishlar yanada jadallashganini ko‘rish mumkin. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida P.M.Melioranskiy, N.P.Ostroumov, N.F.Katanov,

V.V.Radlovlar tomonidan asarning ayrim parchalari rus tiliga tarjima qilindi, lingvistik sharhlar bilan o‘quvchilarga e’lon qilindi. S.E.Malovning “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar” asarida “Qisasi Rabg‘uziy”ning runik, uyg‘ur yoki arab harflarida berilgan matnlari transkripsiyada (rus yoki lotin harflarida) tarjimasi bilan berilgan, adabiy, bibliografik va lingvistik xususiyatlari qisqacha izohlangan [Малов, 1951: 452].

Professor N.Mallayev asarning muallifi, undagi qissa va hikoyatlarning asosiy g‘oyaviy xususiyatlari haqida umumiy ma’lumotlar berish orqali asarning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini ko‘rsatib berdi [Маллаев, 1976: 230-206]. Shuningdek, V.Yerofeyev, N.I.Ilminskiy, V.R.Rozen, M.M.Gabdereximov, F.X.Arifg‘an, E.N.Najip, E.R.Tenishev, G.G.Fitrat, N.Mallayev, E.Fozilov kabi turkshunoslar bilan birga, I.Jalil, S.Chagatay, K.Gronbich, J.Schinkevitsch, J.Thuri, F.Koprulu, N.E.Voeschoten, M.V.Damme kabi g‘arb sharqshunos turkolog olimlari asar ustida ish olib bordilar.

O‘zbek olimlaridan Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobiga tartib berar ekan, kitobning uchinchi bobiga mazkur asarning “Qisasi Yusuf Siddiq allayhissalom”, “Nuh to‘foni afsonasi”dan parchalar va Luqmoni hakim to‘g‘risidagi uchta hikoyatni kiritadi [Ўзбек адабиёти намуналари, 2013: 79-85]. Shuningdek, 1977-yili chop etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomligining birinchi jildida “Qisasi Rabg‘uziy” haqida keltirilgan ma’lumotda asar haqida muxtasar tahlillar ko‘zga tashlanadi [Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик, 1977: 179-186]. Keyingi yillarda professor N.Rahmonov ham asar ustida bir qancha izlanishlar olib bordi. Asarning yaratilish sabablari, tuzilishi, ayrim hikoyatlar tahlili, badiiy xususiyatlari, asardagi kichik janrlar haqida mulohazalarini bayon etdi [Rahmonov, 2017: 151-171]. Shuningdek, asardagi hikoyat janri bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan M.O.Qurbaniyazovning ham izlanishlari tahsinga loyiq[Қурбаниязов, 2019.]. Yuqoridagi izlanishlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, “Qisasi Rabg‘uziy” asosan, diniy-didaktik mavzularga bag‘ishlangan va payg‘ambarlarning hayoti haqida hikoya qiluvchi agiografik asar.

Oltin O‘rda adabiy muhitida yuzaga kelgan yana bir agiografik asarlardan biri – “Mu’in ul-murid”. Asarning muallifi kim ekanligi to‘g‘risida ikki xil qarash mavjud [Қыдыр, 2018.]. Ushbu masalaga fikr bildirgan holda asar muallifini Shayx Sharif Xo‘ja deb belgiladik, sababi asarning ko‘ngil va nafs bo‘limida quyidagicha to‘rtlik keltirilgan:

Ko‘ngil nafs u ruhdin natija erur
G‘olib bo‘lsa biri angar yuz urur

Biling bu bayon Shayx Sharif Xo‘janing
Mabozi sulukda bitiglik turur [Şeyh Şeref Hoce, 2008, 53].

Ushbu to‘rtlik mazmunidan asar muallifi ayon bo‘lmoqda. Asar xalqni halollik ruhida tarbiyalash, islomiy e’tiqodni yoyish maqsadida dunyoga kelgan. Islom va so‘fiylarning asosiy tamoyillari mavzusidagi asar XIV asrda Xorazm viloyatida dunyoga keldi. Asarning ilmga ma’lum bo‘lgan yagona nusxasi Bursa shahridagi yozma va bosma eski asarlar saqlanadigan kutubxonada saqlanadi. Asar bilan turli yillarda Z.U.Tog‘an, F.Koprulu, J.Ekman, A.Bodrogleti, A.Karamanogli, N.Xalimov, Ch.Go‘klenov, R.Toparli, M.Argunshoh kabi olimlar o‘rgangan, o‘z fikrlarini bildirgan. Kitob diniy-mistik mazmunda yozilgan 407 to‘rtlikdan iborat, mutaqorib bahrida (faulun faulun faulun faul). Bu asar Turkiyada 2008-yilda Recap Toparli va Mustafa Argunshah tomonidan qayta o‘rganildi va chop etildi. “Mu’inul-murid” asari she’riy to‘rtlik shaklida yozilgan bo‘lsa-da, alohida bo‘limlarga ajratilgan, har bir bo‘limga nom berilgan. Asar an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi:

Shukur hamd iloho tuman ming sanga
Musulmon muvahhid yaratting manga
Elig tutg‘uchi sen arig‘ bir-u bor
Tutulmishda qayu qatig‘ bir munga.

Ya’ni “Allohga ming shukrlar bo‘lsinkim, meni Allohning birligiga ishonuvchi musulmon qilib yaratding” deb boshlanadi. Keyingi bo‘limlar: imon bo‘limi; Alloh va uning payg‘ambarini bilish haqidagi bo‘lim; va’z va nasihat bo‘limi; turli xil qonunlar haqida bo‘lim; tayammum haqidagi bo‘lim; zakot bo‘limi; irodat[1] bo‘limi; odoblar bo‘limi; mos (tenglik) haqidagi bo‘lim; suhbat bo‘limi; shariat, tariqat va haqiqat bo‘limi; ko‘ngil va nafs bo‘limi; suluk (tariqatga kirmoq) bo‘limi; Allohga shukr etmoq va zikr qilmoq bo‘limi kabi nomlangan va biz shu nomlanishdan ham bilishimiz mumkinki, asar tom ma’noda agiografik xarakterga ega. O‘zbek adabiyotida bu asar hali yetarlicha o‘rganilmagan. Bu asarni o‘rganish ham Xorazm turkchasini o‘rganishda obyekt vazifasini o‘taydi. Adabiy jihatdan o‘rta asrlar hikmat janrining takomiliga katta hissa qo‘shgan.

Bir qator tadqiqotlarda hikmatga quyidagicha ta’rif beriladi: “**Hikmat** – fikrlash malakasining o‘rta holda bo‘lishi; tatbiq ila amalga oshuvchi, tajriba bilan erishiladigan to‘g‘ri bilim; Haqqa muvofiq so‘z; hamma narsaning eng mukammali; hikmat Allohning lashkari bo‘lib, u orqali Alloh avliyoning qalbiga quvvat bag‘ishlaydi; tasavvufiy she’rlarga

[1] Irodat – 1. Qasd, niyat, xohish, istak. 2. Muridlik uchun pirga qo‘l bermoq, ya’ni o‘z irodasini ustozga topshirmoq. Sharti irodat – muridlik sharti.

hikmat deyiladi. Hikmat – bilimdonlik, donishmandlik, falsafa, maxfiy sir, aql-u haqiqatga to‘g‘ri keladigan nozik ma’noli qisqa so‘z, masal; ashyoning ahvolidan, zohiriy va botiniy kayfiyatidan bahs etuvchi ilm; axloq va haqiqatga doir foydali muxtasar so‘z; Allohga itoat; aql, so‘z va harakatdagi uyg‘unlik” [Ҳасанов, 1999: 47]. Ya’ni “Mu’in ul-murid” asari garchi to‘rtliklardan tashkil topgan bo‘lsa-da, lekin mazmuniy-mohiyat jihatidan hikmatlarga mos tushadi. Adabiyotshunos olim F.Ko‘pruli: “X asrdan boshlab diniy-tasavvufiy asarlarga hikmat deyilgan” deb yozadi [Fuad Köprülü, 2014: 119]. Shunday ekan, bu turdagi asarlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish bugungi tadqiqotchilarimizning oldida turgan vazifalardan biri bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz. Bu davrdagi agiogarfik asarlardan yana biri Hisom Kotibning “Jumjuma sulton” asari hisoblanadi. Asarning bosh g‘oyasi sifatida hukmdorlarni adolatli bo‘lishga chaqirish, saxiy va rahm-shafqatli bo‘lishga undash kabi fikrlar gavdalanadi.

“Jumjuma Sulton” dostoni XIV asrning ikkinchi yarmida Oltin O‘rda hududida Hisom Kotib tomonidan yozilgan. Ayrim ilmiy doiralarda asar Farididdin Attorning “Jumjumanoma” asariga taqlid qilib yozilgan, degan qarashlar mavjud [Абилов, 1984: 231-246]. Bu fikrni inkor qiluvchi olimlar ham talaygina. Masalan, tatar olimi Ramil Islamov maqolasida ikki asarning bir-biridan farqli xususiyatlarini ko‘rsatib bergan [Исламов, 2014: 65-70]. Asar matnining kompozitsion tuzilishini uch qismga ajratish mumkin: 1) boshlanish 2) asosiy qism 3) xulosa. Asarda Odam, Nuh, Xalil, Sufyan, Jamshid, Xusrav, Horun, Namrud, Faridun, Rustam, Asfandiyor, Nushirvon, Mahmud G‘aznaviy, Chingizxon kabi tarixiy shaxslar bilan bog‘liq hikoyatlar mavjud. Asar tatar adabiyotida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan[1]. “Hozirgi vaqtda muzeylarda asarning 26 nusxasi saqlanayotganligi ma’lum. Shularning 18 tasi – Qozon shahar muzeylarida, Boshqurdiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

[1] Амирханов Р. М. Татарская социально-философская мысль Средневековья (XIII – середина XVI вв.) В 2 кн. – Кн. 2. – Казань: Мастер-Лайн, 1993. – С. 20-22.; Әхмәтҗанов М. «Җөмҗөмә дастаны» тәржемәсе // Әдәби мирас. Өченче китап. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1996. – Б. 41-42.; Борынгы төрки һәм татар әдәбиятының чыганаклары / Төзүчесе Хатип Госман. – Казан: Казан ун-ты нәшр., 1981. – Б. 154-170.; Изелбаев М. Кәтиб. «Жөмжөмә солтан» / Баиҗорт әзәбиәте. Алты томда. Т.1. – Өфе: Башкорт, кит. нәшр., 1990. – Б. 198-208.; Исламов Р. Ф. Алтын Урда һәм мәмлүкләр Мисыры: язма мирас, мәдәни багланышлар, – Казан: Матбугат йорты, 1998. – Б. 66-73.; Исламов Р. Письменный памятник татарской литературы XIV в. // «Джумджума султан»: Катановские чтения. – Казань: Мастер-Лайн, 1998. – С. 145-150.; Исламова А. «Җөмҗөмә солтан» дастанының морфологик үзенчәлекләре // Мәгариф. – Казан,1998. –№ 4.– Б. 26-27.; Исламова А.И. Исследование языка тюрко-татарского памятника XIV века «Дастан-и Джумджума султан» Хисама Кятиба: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Казань, 1998. – С 18.; Кятиб Хөсам. Җөмҗөмә солтан: Мәдрәсә шәкертләре өчен татар әдәбияты тарихыннан кулланма әсбап / Текстны басмага әзерләүче: Р.Ф.Иеламов. – Казан: Иман, 2000. – 86 б.; Хисамов Н.Ш. Поэты XIV века Кутб, Хорезми, Хусам Кятиб, Саиф Сараи и социально-философская проблематика их творчества / Средневековая татарская литература. – Казань: Фән, 1999. – С. 82-85.; Eckmann J. Die Kiptschakische literatur. I. Die literatur von Chwarezm und der Golderen Horde / Philologiae Turcicae Fundamenta. – Wiesbaden: Aquis Mattiacis Apud Franciscum Steiner, 1965. – P.292-293.

Tarix, til va adabiyot instituti arxivida – uch qo‘lyozma, Sharqshunoslik institutining Sank-Peterburg filiali fondida – uch nusxada, Parij milliy kutubxonasida asarning bir ko‘chirmasi saqlanadi” [Нуриева, 2011: 77-80].

XIV asrda o‘zbek nasri taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi, bir qancha turkiy tilda diniy-didaktik asarlar yaratildi. Ana shunday asarlardan biri Mahmud ibn Ali al-Bulg‘ari as-Saroyi al-Kardariyning diniy-didaktik mavzuda yozilgan “Nahj ul-farodis” (“Jannatlarning ochiq eshiklari”) asaridir. Asar muallifining ismi – Mahmud ibn Ali. Muallifning al-Bulg‘ari as-Saroyi al-Kardariy degan taxallusini olimlar Mahmudning Bulg‘arda tug‘ilib, Oltin O‘rdaning poytaxti bo‘lgan Saroyda umr o‘tkazgan deb taxmin qiladilar. Lekin, Kardariy degan taxallusga kelganda olimlarning fikrlari uchga bo‘linadi. Z.U.Tog‘an, F.Ko‘prulu, Y.Ekman kabi olimlar al-Kardariy degan taxallusni muallifning eski Xorazm diyoridagi Kardar shaharchasida bilim olganligiga bog‘laydilar[1]. 1930-yilda Qrim nusxasini tayyorlagan Y.Kamol: «*Курдер находится в Хорезме на востоке от Куне-Ургенч между современными Ене-Калеми Чимбаем; в прежнее время он считался известным городом*» – deb, Mahmud ibn Alini Xorazm diyoridan bo‘lgan desa, B.Yafarov: «*Кәрд сүзе күп жирдә Болгар сүзе белән бәйләнеп йори. Ш.Мәржәнинең «Мостафадәл-Әхбар» китабында Кәрд Болгар... искә алына, шулай ук Ленинградта Көнчыгышны өйрену институтында В 344 шифрындагы кулъязма эчендә Кәрд Болгарны мактаган фарсыча шигырь бар. Менә бу мәгълүматлар Болгар илендә берәр авыл я шәһәр яки Болгар шәһәре тирәсендәге район түгелме икән дигән фикергә китерә*» [Нуриева, 1999: 30], – deb, Kardarning Bolgar hududidagi bir yer bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tgan. Shundan keyin, taniqli turkshunos olim E.Najipning “Nahj ul-farodis”ning Sank-Peterburg nusxasida: “*Как известно, многие из казахских родови племен входили тогда в состав Золотой Орды. Племена, входившие в состав «киши жуз» кочевали в непосредственной близости от культурных центров государства в низовьях Волги. «Киши жуз» в свою очередь распадался на 1) «Алим улы»; 2) «Бай улы»; 3) «Жети уру». «Жети уру распадался на семь крупных родов, одним из которых и был род «Курдер». Следовательно, мы нашего автора можем по происхождения связать с родом Курдер. Тогда мы уточнили бы его биографию так:*

[1] Наджип Э. Регионы и этапы формирования тюркских письменных языков и литератур. – Туркестан: Туран, 2007. – 246 с.; Eckmann J. Nehcül-Feradis. Uştmahlarnıng açuq yolı /Cennetlerin açık yolu/. – Ankara, 2004. v s.; Нуриева Ф. «Нахдж ал-фарадис» Махмуда ал-Булгари. – Казань: Фэн, 1999. – 30 с.

Махмуд бин Али родился в Булгаре, жил и творил в Сарае и происходил из рода Курдер” [Наджип, 2004: 248] – deb ta’kidlaydi. Shuningdek, ayrim tazkiralarda, xususan, Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar bo‘stoni”) asarining Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qismida quyidagi mulamma (qit’a)ni keltiradi:

Turkiysin ko‘rub qilurlar erdi tarku tavba ham,
Gar tirik bo‘lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy,
Bovujudi forsi dar junbi she’ri komilash,
Chist ash’ori Zahiru kist bori Anvariy? [Давлатшоҳ Самарқандий, 1981: 189].

Bu mulammadagi **Kardariy** taxallusli shoir hozirgacha bir qancha munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. Maqsud Shayxzoda “Tazkirachilik tarixidan” [Шайхзода, 1968: 37] maqolasida quyidagicha fikrni aytgan edi: “Mazkur qit’ada zikr etilgan Kardariy Xorazm o‘lkasining Kardar qishlog‘ida hijriy 761-milodiy 1359-1360-yilda vafot etgan Mahmud ibn Ali degan shaxs, “Nahj ul-farodis” nomli diniy-axloqiy asar muallifidir. Umrining bir qismini Oltin O‘rda poytaxti Saroy shahrida o‘tkazgan. Asarning bir necha nusxalari saqlanib qolgan. Bu asarning Kardariy tirik vaqtida xorazmlik kotib ko‘chirgan nusxasi Xorazm shevasi va adabiy lahjasining tarixini o‘rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Har holda Davlatshoh turkiy nazm ustasi deb ko‘rsatgan Kardariy degan shoir ana shu Mahmud ibn Alidan boshqasi emas”. Nemis olimi N.Xofman ham Kardariy shaxsi haqida o‘zining olti jildlik “Turk adabiyoti” kitobida ham ma’lumot bergan. Uning fikricha, “bu shoir...mashhur turkigo‘y shoir Mahmud ibn Ali as-Saroyi Bulg‘oriy Kardariydir. Kardar Xorazmda bo‘lgan. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”sidagi qit’asida uni tilga olgan. Tarixda Kardariy taxallusli shoirlar bir emas, bir necha bo‘lgan. Lekin uning turkiy tilda yozilgan “Nahj ul-farodis” asari bizga ma’lumdir” [Fuad Köprülü, 2014: 103-109]. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, “Nahj ul-farodis” asarining muallifi Mahmud ibn Ali Kardariydir.

“Nahj ul-farodis” bizning zamonimizga bir necha nusxada yetib kelgan. Tataristonning markazi Qozonda yettita (N.I.Lobochevskiy nomli kutubxonaning ilmiy nodir kitoblar va qo‘lyozmalar bo‘limida – 4 ta; G.Ibragimov nomli Til, adabiyot va san’at instituti kutubxonasida – 2 ta; Qozon pedagogika universitetida – 1 ta nusxasi saqlanadi, shuningdek, Ufa, Ulyanovsk va Astraxan shaharlarida bittadan nusxalari saqlanadi. Shu bilan birga Sank-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti arxivida “Nahj ul-farodis”ning ikki nusxasi bor [Мәхмүд әл-Болғари, 2002:5]. Jami bo‘lib

hozirgi kunda fan ahliga asarning 12 nusxasi ma’lum, lekin bu nusxalar saqlanishi va ayrim xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Asarning dunyoga mashhur eng eski nusxasi – Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining “Yangi Jami” bo‘limining 879-raqamida saqlanadigan qo‘lyozma nusxasidir. Bu qo‘lyozmaning boshqa nusxalaridan farqi – birinchidan, ko‘chirilish tarixi asar muallifi hali hayot vaqtida amalga oshirilgan bo‘lsa, ikkinchidan, to‘liq nusxada saqlanib qolgan (Bu nusxa 34×25 sm. bichimda, har bir varoq 17 qatordan iborat bo‘lib 222 varaq, ya’ni 444 betni tashkil qiladi). Quyuq qora siyoh bilan yozilgan, ayrim joylariga qizil rang bilan belgilangan bu nusxa muallif tarafidan yozilmagan bo‘lsa ham, uning tirikligida ko‘chirilgan. Nasx san’ati yozuvi bilan ko‘chirilgan qo‘lyozmaning so‘ngida kotib (ko‘chiruvchi): “Bu kitob tarix yetti yuz oltmish birda, Ollohning muqaddas oyi – Jumadul-ula (Jumadul avval) oyining oltinchi kuni (bizning yil hisobi bo‘yicha 1360-yil) yakunlandi. Va bu kitobning muallifi yakshanba kuni o‘tkinchi dunyodan mangulik dunyosiga otlandi”, – deb, asar muallifining ikki-uch kundan so‘ng dunyodan o‘tganligi haqida yozib qoldirgan. Bu qo‘lyozma asosida turkshunos olim Y.Ekman Istanbul nusxasini Turkiyada 1956-yili tayyorladi. Shundan keyin yana bir necha marta nashr qilindi. Bu nusxa asosida keyingi nashrlaridan birini tayyorlagan Semi Tezjan kirish so‘zida quyidagicha ta’kidlaydi: “Janosh Ekman “Nahj ul-farodis”ning “Yani jami” nusxasining turkbosmasini tayyorlab, nashr ettirganda (1956) kirish so‘zida asarning ikkinchi jildini transkripsiyasi bilan tayyorlayotgani haqida xabar beradi. Tarjimon qoralamaga yozgan matniga ko‘ra bu ish 1960-yilda boshlanib, 1964-yilning 15-mayida tugallangan. Uning 1971-yilda vafotidan keyin, Parij nusxasidagi ba’zi farqlarni ko‘rib chiqish va boshlang‘ich bir qismini qayta ishlashdan tashqari bu ish bilan shug‘ullanish uchun imkoniyat topa olmaganga o‘xshaydi. Ekmandan bir yil o‘tib “Nahj ul-farodis” ustida ishlagan va matnining bir qismini 1969-1971-yillarda ba’zi matnlarini nashr etgan Ali Fehmi Karamao‘gli ham vafot etadi” [Nehcül feradıs, 1995]. Bundan ko‘rinib turibdiki, asarning bizga ma’lum bo‘lmagan yana bir nechta nusxasi mavjud.

Shu bilan birga 1928-yilda Qrimda 1390-yilda Muhammad o‘g‘li Qosim tomonidan ko‘chirilgan yana bir nusxa topilgan. Bu nusxa haqida Yalta shahri muzeyida ishlagan Y.Kamol ma’lumot beradi. Lekin asar to‘liq emas, 549 betli qo‘lyozmaning ayrim qismlari yo‘qolgan.

“Nahj ul-farodis” to‘rt bobdan va har bir bob o‘nta fasldan – jami qirq fasldan iborat. Bu asar “qirq hadis” (chihl hadis)ni sharhlagan va har

bir hadisga oid hikoyatlar bilan bezalgan asardir. Bu asar “Qisas ul-anbiyo” turkumiga mansub bo‘lsa ham, payg‘ambarlar tarixi bayonida afsonalar emas, balki tarixiy voqealar, rivoyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Agar “Nahj ul-farodis”ni janr nuqtayi nazaridan belgilash talab etilsa, bu asar bir necha janrlarni – tarixiy voqealar hikoyat, rivoyatlar zaminida berilganini nazarda tutgan holda, didaktik yo‘nalishdagi agiografik janrga mansub deb qarash mumkin. Zotan, hadislarni keng sharhlash asosida yuzaga kelgan hikoyat va rivoyatlarning har biri ma’lum bir g‘oyani – to‘g‘rilik, halollik, rahm-shafqat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Insoniyatni ma’rifatga chorlash, komillik sari da’vat qilish kabi fazilatlarni Mahmud Ali har bir bobda ilgari suradi. Shuningdek, asar kompozitsion qurilishi jihatidan arba’in turkumidagi asarlarga o‘xshaydi.

“Nahj ul-farodis” kompozitsion qurilishi jihatidan arba’inlarga o‘xshaydi, ya’ni yuqorida arba’in yozishning shartlariga o‘xshash qoidani Mahmud Ali asarining kirish qismida izohlab o‘tgan: “Umar o‘g‘li Abdulloh *(raziyollohu anhu)* rivoyat qilur, Payg‘ambardan (s.a.v) andoq yorliqar: qay-u mo‘min va muvahhid mening hadislarimdan qirq hadisni eshitmaganlarga yetkazsa, bilmaganlarga o‘rgatsa Haq taolo u kishini olimlar qatorida sanagay va qiyomat kuni bo‘lsa (amanna va saddaqna) shahidlar qatorida qo‘ygayman va qaysi kishi men aytmagan hadisni mening aytmaganimni bilib, qasd bilan mening uchun yolg‘on gapirib payg‘ambar (s.a.v) aytdi desa, do‘zaxda o‘tiradigan yerini amalda qilsin deb aytdi. Bu hadisga tamashshuk qilib (ergashib) qirq hadisni payg‘ambar (s.a.v) hadislaridan mu’tamat (ishonchli) kitoblardan to‘pladik” [Nehcül feradıs, 1995: 2]. Muallif asarining yaratish maqsadini bayon qilishidan asar arba’in an’anasida yozilganini bilib olish mumkin. Ya’ni an’anaviy qirqtalikka amal qilingan, tematik yo‘naltirilgan va hadislar, albatta, arab tilida va yozuvida keltirilgan hamda tagidan hadisning sharhi ham berilgan. Shu bilan birgalikda asar 40 ta hadislar to‘plami va sharhidan iborat emas, balki hadislarning mohiyatini ochishga yordam beruvchi hikoyat va rivoyatlardan iborat: “…Yana bu hadislarga munosib hikoyatlar – Payg‘ambar (s.a.v) ahvolidan, yana xulofa-i roshidon ahvollaridan, yana ulamo va mashoyixlar ahvolidan bayon qildik va bu kitobni to‘rt bob qildik va bir bobni o‘n fasl qildik va har bir fasl boshlanishida bir hadisni keltirdik, Payg‘ambar s.a.v. hadislaridan jami qirq hadis bo‘ldi” [Nehcül feradıs, 1995: 2]. Bu asarning arba’in janriga xos xususiyatdan ko‘ra badiiy asarga xos xususiyatlarini oshirib turadi. Yuqorida ta’kidlanganidek asar to‘rt bobdan iborat (Har bir bobning mavzu jihatidan nomlari mavjud). Har bir bob 10 ta fasldan iborat. Har bir faslga ma’lum bir mavzu

yuzasidan nom berilib yoritilgan. Asarning yozilish sababi haqida yozuvchi asarning kirish qismida quyidagicha ma’lumot beradi: Birinchi bobi Payg‘ambar s.a.v.ning fazilatlarining bayoni haqida. Ikkinchi bob xulofa-i roshidon, ahli bayt va to‘rt imom fazilatlarining bayoni haqida. Uchinchi bob Haq taolo hazratining buyurgan yaxshi amallari bayoni haqida. To‘rtinchi bob Haq taolo hazratining yaratgan yovuz amallari bayoni haqida. Bu kitobga “Nahju-l-farodis” deb ot berdik, ma’nosi “Jannatlarning ochiq yo‘li” demak bo‘lur. Umidim shuki, bu kitobni o‘qiganlar kitob so‘zlari bilan amal qilgaylar va bu kitob ularga Haq taoloning jannatlariga yo‘l ochgay, unga amal qilganlarga Haq taoloning barakkoti bo‘lg‘ay, Haq taolo bu kitobni tuzgan osiy va jofiy qulini yorlaqag‘ay” [Nehcül feradıs, 1995: 2]. Yuqorida aytilganidek, asar musulmon kishisini tarbiyalashga qaratilgan.

Ko‘rib turganimizdek, asar muallifi Mahmud Ali Kardariy har bir musulmon kishisi bilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlarni asarga kiritishga harakat qilgan. Keltirilayotgan boblar va fasllar bir-biriga mazmunan birikmagan bo‘lsa-da, lekin ularda uzviy bog‘liqlik bor va buni asarni o‘qiyotgan o‘quvchi yaxshi anglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – Москва: Академия наук, 1951. – 452 с.

2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 203-206.

3. Ўзбек адабиёти намуналари / Нашрга тайёрловчи: Абдурауф Фитрат. Масъул муҳаррир: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – В. 79-85.

4. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. I том. / Масъул муҳаррир: В.Абдуллаев – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 179-186.

5. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017. – B. 151-171.

6. Қурбаниязов М.А. XIV аср ўзбек адабиётида ҳикоят жанри тараққиёти (“Қисаси Рабғузий” мисолида): Филол. фанл. бўйи. фалс. докт (PhD)… дисс. – Қарши, 2019. – 154 б.

7. Қыдыр Т.Е. Дешті қыпшақ даласындағы ислами әдебиет. – Астана: «Рухани құндылықтарды қолдау қоры» корпоративтік қоры, 2018. – 186 б.

8. Şeyh Şeref Hoce. Mü’inü’l-mürid. İnceleme-Metin-Çeviri-Dizin-Tıpkıbasım. Hazırlayan: Doç. Dr. Ali Fehmi Karamanlıoğlu. – Ankara: Mart Matbaacılık Sanatları, 2008. – S. 53.

9. Ҳасанов Н.Д. Султон Аҳмад Хазинийнинг “Жавоҳирул аброр мин амвожил биҳор” асари ва унинг яссавийшуносликдаги илмий-тарихий қиммати: Филол. фанл. номз... дисс – Тошкент, 1999. Б. 47

10. Fuad Köprülü. Türk edebiyatı tarihi. – İstanbul: Alfa, 2014. – S. 119.

11. Абилов Ш.Ш. Хөсам Кятибнең «Җөмҗөмә солтан» дастаны // Татар әдәбияты тарихы. Алты томда. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1984. – Б. 231-246.

12. Р.Ф.Исламов. “Дастан-и джумджума султон” Хусама Катиба // Проблемы востоковедения. – Казан, 2014. – № 3 – Б. 65-70.

13. Нуриева Ф.Ш. Атрибуция языка письменных памятников золотоордынского периода. – Астана: Изд-во Сарыарка, 2011. – С. 77-80.

14. Наджип Э. Регионы и этапы формирования тюркских письменных языков и литератур. – Туркестан: Туран, 2007. – 246 с.

15. Нуриева Ф. «Нахдж ал-фарадис» Махмуда ал-Булгари. – Казань: Фэн, 1999. – 30 б.

16. Наджип Э. Культура и тюркоязычная литература мамлюкского Египта XIV века. – Туркестан: Туран, 2004. – 248 с.

17. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони / Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов таржимаси – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 189.

18. Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан // Навоийга армуғон / Нашрга тайёрловчи: Ў.Қўшоқов – Тошкент, 1968. – Б. 37.

19. Fuad Köprülü. Türk edebiyatı tarihi. – İstanbul: Alfa, 2014.. – S. 103-109.

20. Məхмүд әл-Болғари. Нәһжел-фәрадис / Әсәрне басмага әзерләүче Ф.Нуриева. – Казан: Татар. кит. нәшр., 2002. – Б. 5.

21. Nehcül feradıs. I Metin. Tıpkıbasım ve çevriyası: Janos Eckmann. Yayınlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zülfikar. – Ankara: Semih Ofset Matbaacilik Ltd, 1995. – S. 2.

“TARIXI FARG‘ONA” ASARIDA LIRIK JANRLAR TALQINI

Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna,
Qo‘qon DU, f.f.b.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: mukaddassaidakbarova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-7551-3657
Tel: +998908564280
Sobitova Robiyaxon Salohiddin qizi,
Qo‘qon DU talabasi
E-mail: *robiyaxonsobitova04@gmail.com*
Tel: +998917392805

Annotatsiya: Maqolada Is’hoqxon To‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari, asarning yaratilish sabablari, asarning hozirgi o’zbek adabiy tiliga tabdil qilinish masalari yuzasidan ayrim mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, asarda keltirilgan she’riy parchalarning qaysi janrga mansubligi,nasriy bayoni, asarda kelish o‘rni va g‘oyaviy mazmuni, forscha marsiya-ta’rixlarning tarjimasiga ham ahamiyat berib o’tilgan. Marsiya, ta’rix kabi janrlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon To‘ra Ibrat, “Tarixi Farg‘ona”, tabdil, tarjima, she’riy parcha, lirika, nasihat, marsiya, ta’rix.

XX asr o‘zbek ziyolilari orasida o‘zining milliy-ozodlik yo‘lidagi harakatlari bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan ma’rifatparvar adib Is’hoqxon To‘ra Ibrat shoir, yozuvchi, tilshunos, tarixshunos olim, jadid maktabdori, ilk o‘zbek matbuotchilaridan biri sifatida o‘zbek adabiy merosiga munosib hissasini qo‘shgan.

“Tarixi Farg‘ona” 1916-yil - O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan muallifning eng yirik va keng qamrovli asardir.

Ibratning uyida maxfiy g‘aladon bo‘lib, 1937 yil 14 mart tunidagi tintuvda uning siri ochilmagan va Is’hoqxon to‘ra qalamiga mansub bir qator bitiklar, jumladan, “Tarixi Farg‘ona” asarining qo‘lyozmasi ham NKVD e’tiboridan chetda qolgan. Ibrat qizi Zarifaxonga tayinlagan ekanki:

– O‘sha qog‘ozlarni atlas ko‘ylagingday asragin…

Zarifaxon arabiy yozuvdagi “Farg‘ona tarixi”ni avval lotin, keyin kirill yozuviga ko‘chirgan.[1]

Hozirgi kunda asar yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari ham amalga oshrilmoqda, jumladan, “Tarixi Farg‘ona” ning hozirgi o’zbek adabiy

[1] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ishoqxon-ibrat-tarixi-fargona.html

tiliga tabdili ham ishlab chiqildi. Bundan maqsad bugungi kun kitobxonlari ehtiyojlari inobatga olingan holda asar hamma uchun qulay tarzda o'zbek adabiy tiliga o'girish, eskirgan, tarixiy so'zlar, fors-tojikcha, arabcha ifodalarni ommabob ravon tilda ifodalab berishdan iborat.

Tarixi Farg'ona" asari avvalida "Ammo ba'd, bu bandai Xudo va ummati Mustafo alkan ul-lisoni, notavon, a'no Qozi Is'hoqxon sokini qal'ai Xon, a'no To'raqo'rg'on min muzofoti Farg'ona va az iqlimi Turkiston, bu tariqa ayon va bu tarzda bayon qilur…" jumlasini o'qiymizki, demak, Ibrat bu asarni qozilik davrida (u 27 yil To'raqo'rg'on qozisi bo'lgan) yozgan. Bu tarixiy asarda asosan o'zbek davlatchiligi rivojining oqsagan bosqichi, ya'ni xonliklarning tanazzulga yuz tutishi, rus bosqinchiligi kulfatlari keng tasvirlanadi.

Muallifning asarni yozishda o'z ona yurti tarixini to'g'riligicha yoritib berish, insonlarga hech bo'lmaganda tug'ilgan yerining tarixini bilish keraklini ta'kidlash, Farg'ona iqlimi, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shaharlarining vujudga kelish jarayonlarini, Qo'qon xonlari sulolasi, Norbo'taxon, Olimxon, Umarxon, Muhammadalixondan tortib Xudoyorxon, Fo'lodxon ibn Murodxongacha bo'lgan xonlar faoliyati, ularning tutgan siyosati, xalqqa munosabati kabi masalalarini, shuningdek, ushbu davr voqeligini o'quvchiga batafsil bayon etis'h kabi g'oyalarni ilgari suradi va "Tarixi Farg'ona" asarining yozilish sabablarini quyidagicha izohlaydi:

Barcha olamlarni to'liq ko'rib chiqish va kezib chiqish bir bandaga nasib bo'ladigan va mumkin bo'lgan ish emas. Shu bois Qur'onda aytilganidek: «Nam va quruq (ya'ni, har qanday narsa) ochiq-ravshan kitobda bitilgandir».

Xulosa qilib aytganda, inson hech bo'lmasa bashariyat tarixidan bir oz bo'lsa ham bilishi lozim. Eng kamida, odam o'z yurtining tarixini bilishi kerak. Agar bilmasa, tafsir va hadislar hamda tarix kitoblarida bu haqda ochiq-ravshan ma'lumotlar bor: ko'rish va bilish ilmga asoslangan.

Shu sababli, men Farg'ona ahli sifatida o'z yurtim va iqlimimning tarixini yozishga qaror qildim. Kim bir mo'minning qadr-qimmatini tiklasa, go'yo uni hayotga qaytargan bo'ladi, degan hadisga amal qilib, tarixiy voqealarni jamlab, xalq uchun yodgorlik sifatida qoldirdim. Shuningdek, bu kitob siyosiy jihatdan ham muhim bo'lib, tushunarli tilda yozilgan va kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu sababdan umrimning bir qismini tarixlarni o'rganishga bag'ishladim va mana shu

bosqichga yetdim.[1] (Ushbu parcha asarning tabdil qilingan varinatidan iqitbos qilib olindi)

Shuningdek, “Tarixi Farg‘ona” asarida lirik janrlar ham uchraydi. Ular tarkibidan qasida, marsiya, ta’rix(yodnoma), nasihat va ayrim to‘rtliklar o‘rin olgan. Asarda asosiy uchta she’riy janrlar namunasi ko‘zga tashlanadi:

1. Xotifning Umarxonning vafoti va Muhammadalixonning taxtga o‘tirish tarixi haqidagi marsiya-ta’rix;

2. Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo‘qonni egallashi va Muhammadalixon va uning yaqin qarindoshlarining barchasini qatl etishi sababli Fitrat tomonidan forsiyda yozilgan ta’rix;

3. Shavqiyning Mallaxonning ukasi Xudoyorga qilgan nasihatini she’riy shaklda yozgan nasihati keltiriladi.

Marsiya (marsiya) — marsiya(ot)

Biror shaxsning vafoti munosabati bilan uning xotirasiga bag‘ishlab yozilgan motam she’ri; Sharq she’riyatidagi adabiy janrlardan biri.

Biz o‘lim va g‘amginlikning marsiyasini emas, hayot qo‘shig‘ini kuylashimiz kerak! Uyg‘un, Hayot qo‘shig‘i.[2]

1) Yaqin va O‘rta Sharq poeziyasida adabiy janrlardan biri;

2) Biror mashhur kishi yoki keksa oila a’zosi vafoti munosabati bilan g‘am-alam va hasratni ifodalaydigan xalq og‘zaki poetik va musiqa ijodiyotining aza-motam janri.

M: qo‘shiq yoki ashula turi sifatida dafn marosimida hayotdan ko‘z yumgan kishining yaxshi hislatlari, ish faoliyatlari, qarindoshlik aloqalari esga olinib erkaklar tomonidan jo‘rsiz rechitativ yoki kuychan, og‘ir, mungli ohanglarda aytiladi. Marsiyada xalq so‘zlari, g‘azal, ruboiy, muhammas va boshqa asosida shaxs boshiga tushgan kulfat, yakin kishidan judo bo‘lish qismati aks etadi.[3]

Ta’rix (arab. — yuz bergan) — mumtoz adabiyotda mashhur kishilarning tug‘ilishi va vafoti, turli binoinshootlarning qurilishi, kitoblar ta’lifi va boshqa muhim voqea-hodisalar vaqtini anglatuvchi san’at. Ta’rix ko‘pincha u yoki bu mashhur shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan. Ta’rixda qo‘llangan so‘z va iboralar, ularni tashkil etgan arab harflarining abjad raqami bilan qo‘shib hisoblanganda, ma’lum bir sana kelib chiqadi. Ta’rix faqat mustaqil yozilmay, ba’zi bir asarlarning ichida ham keladi.[4]

---

[1] Is’hoqxon To’ra Ibrat, Tarixi Farg‘ona. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. 4-b.
[2] https://izoh.uz/word/marsiya
[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Marsiya
[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BCrix

Quyida asarga kiritilgan Umarxon saroyida ijod qilgan shoirlardan biri Xotifning Umarxonning vafoti va Muhammadalixonning taxtga o‘tirishi sababidan yozilgan 13 baytdan tarkib topgan marsiya-ta’rixi kelitirib o‘tilgan:

Xusravi anjum sipohi man, ki nuri hukmi,
Bud chun xurshidi davru dar mamolik komron.
Dast dodgar az og‘ushi arusoni chaman,
Kard xoliy to nihad bor dush huroni jinon.
Shohidi ayyom bahri motamash boloyi ham, Jomai niliy ba do‘sh afkand bar nuh osmon.
On suxansanji, ki azhon dosht la’lash ihtiroz,
Gashta ast imro’z xoki tiyraash muhri dahon.
Halqai chashmash, ki az ko’hl ul-javohir or dosht, Gasht az dasti qazo xoki siyahiro ravon.
Bar sarash vay afsari zar bud chatri sarvari, In zamonash xok bar farq ast xeshtash soyabon.
Dog‘ shav, ey tab’i savdo, besha dar bozori fikr,
Ba qalam chand ast ajnosi ma’oniy az do‘kon.
Ba’d az in xun kard, ey andishai ma’ni barast, Fursati mazmun guzashtu xatm shud davri bayon.
Nest jo‘z in ma’niyi rangin, ki oxir gasht xun,
Inki ashki so‘rx mebini zi chashmi mo ravon.
Mahfili fazl az bayonash sad shabiston nur dosht, Shud xamush on sham’i nuri o‘ z-mo shud nurfishon.
Shukri o‘ chun diyda pushid az nazargohi vujud, Nuri chashmash chun, nigah bolid dar chashmi jahon.
Bahri favti shoh nisfi xon hashmat dastgoh, Dosht Xotif sayri ta’rixe ba tab’i nuktadon.
Gasht mashhud zamirash in ki bo fanni neku,
«Shah Umar az taxt raft joyi o‘ bigrift Xon».

M a z m u n i:

Sipohi yulduzlar qadar ko’p podshohimki, uning farmon nuri Xuddi aylanuvchi quyoshdek barcha mamlakatlarda hokim edi.

Chaman kelinlari og‘ushidan adolatoli qo‘lini tortdi, Jannat hurlariga yelkasini tutishga ketdi.

Ayyom shohidi uning motami tufayli, To‘qqiz osmon yelkasiga ko‘k joma yopdi.

Og‘zidan la’l sochadigan ul suxandonning,

Bugun og‘ziga qora tuproqdan muhr bosilgan.

Uning hatto javohir tenglasholmaydigan ko‘z qorachig‘i,
Qazo dastidan qora tuproq sari ravona bo‘ldi.
Boshidagi zarrin salla sarvarlik soyaboni edi, Bu zamonda boshida tuproq va g‘isht unga soyabon.
Qizigin, ey tab’ savdosi, fikr bozorida javlon qil,
Qalam bilan ma’nolar do‘konidan bir qancha matoni olib chiq.
Bu dilni xun qiluvchi voqeadan keyin ma’no yo’qoldi,
Mazmun fursati o’tdi, bayon davri oxiriga yetdi.
Faqat shu oxiri qonga aylangan rangin ma’no (mato),
Ya’ni bizning ko‘zimizdan oqayotgan qonli yoshdan boshqasi yo‘q.
Donishmandlar majlisi tunda uning nutqidan yorug‘ bo’lardi,
Endi u sham’ so‘ndi, ammo uning nuri (ya’ni farzandi) hamon bizga yog‘du beradi.
Undan minnatdorlik hissi vujud nazargohidagi ko‘zga surma kabidir,
Uning ko‘zining oqu qorasi (farzandi) tufayli jahonning ko‘zi ravshan bo‘ldi.

Shohning vafoti va baland martabali xon uchun Xotif nuktadon tab’i bilan ta’rix izladi.

Bu go‘zal fan (ya’ni ta’rix) tufayli shu ayon bo‘ldi:

«Shoh Umar taxtdan tushdi va uning joyini Xon egalladi».

Umarxon vafotidan keyin o‘n besh yoshida taxtga o‘tirgan Muhammadalixonni xalq ezgulik va adolat sohibi deb ulug‘laydi, u ko‘plab yurishlaerda, fathlarda ishtirok etadi va “Goziy” nomini oladi. Xonliklar o’rtasidagi ma’lum siyosiy vaziyatlarga ko’ra Buxoro amiri Nasruloxon Qo‘qonga yurish qilib, Madalixonni yengadi va barcha qarindosh-urug‘lari bilan qatl qilib yuboradi.

Shundan so‘ng amir Muhammad Alixonning o‘g‘li Muhammad Amin, rafiqasi va barcha yaqinlarini ham qatl qilishga buyruq berdi. Birinchi bo‘lib Muhammad Alixon o‘ldirildi. Keyin yosh o‘g‘li Muhammad Aminni so‘ydilar. Shunda bolaning onasi chidab turolmay, o‘g‘liga tikilib yig‘lab turdi. U amirga qarab shunday la’nat aytdi:

"Ey zolim! O‘g‘limning nima aybi bor edi? Qizil qonga belandik, sening jazosiz qolishing mumkin emas! Xudoning huzurida sening ustingdan da’vo qilaman! Xonadoning vayron bo‘lsin, o‘zing ham qizil qonga belanib, o‘zingdan ayrilgin!" Shundan keyin barcha qarindoshlari ham qatl qilindi. Bu fojia haqida ko‘plab shoirlar marsiyalar bitgan.[1]

“Tarixi Farg‘ona” asarida muallif Fitratning 9 baytlik forschada yozilgan ta’rixini keltirib o‘tadi:

[1] Is’hoqxon To‘ra Ibrat, Tarixi Farg‘ona. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. 16-17-b.

Hast ravshan ba nazdi o‘ qobil,
Ki darin xobgohi vayrona.
Natavon zistan kase jovid,
Xoh nazdik, xoh begona.
Shud Muhammad Ali poknajod,
Xoni g‘oziy, amiri Farg‘ona.
Az faroxiy ba davri o‘ gashti,
Muflison bar rusumi shohona.
Baski dar sar havoyi ishq dosht,
Bigzaronid umr mastona.
Sadafi mulki tojdoriro,
Hamchu o‘ kas nadid durdona.
Marqadash pur zi rahmati Haq bod,
Anzalallohu fiyhi g‘ufrona.
Shab, ki ta’rixi favti on shahro,
Xost Fitrat zi tab’i farzona
Az sari hush go’ft, ki: «Kunun nest,
Farahe dar diyori Farg‘ona».
M a z m u n i:
Uning nazdida yaqqol ravshandir,
Ki bu vayrona yotoqda (ya’ni dunyoda).
Hech kim mangu yasholmaydi,
U xoh qarindosh, xoh begona bo’lsin.
Pok nasabli Muhammad Alixon,
G‘oziy xon, Farg‘ona amiri olamdan o‘tdi.
Uning davrida farovonlik tufayli,
Qashshoqlar (turmushi) shohona tus oldi.
Boshida ishq havasi bo‘lgani uchun Mastona umr kechirdi.
Tojdorlik mulki sadafida
Hech kim u yanglig‘ durdonani ko‘rmagan.
Qabriga Haq rahmati yog‘ilsin,
Alloh gunohlarini kechirsin.
Kechqurun bu shoh vafoti tarixini
Fitrat o’z nozik tab’idan istadi.
Mulohazakorlik bilan dedi: «Endi qolmadi,
Farg‘ona diyorida shodu xurramlik.[1]

Iskandar Navoiy uchun qanchalik oddiy inson bo‘lsa, u holda temuriylardan barcha jabhalarda unga ergashishga harakat qilishlarini shunchalik talab eta olardi. Iskandar timsolini ikki tomondan yorib berish vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan Navoiy dostonning ayrim boblari tuzilishining juda qiziq shaklini kashf etadi. Har bir bob (juda kam istisnolarni hisobga olmaganda) to‘rt qismga bo‘linadi: 1) bobning asosiy falsafiy g‘oyasini rivojlantiruvchi muqaddima; 2) shu fikr yoki birinchi qism oxirida aytilgan fikrni tasdiqlovchi kichik hikoyat; 3) Iskandarning Arastuga savollari va donishmandning muayyan ilmiy qoidani izohlovchi javobi; 4) Iskandar haqidagi rivoyatning biror bo‘lagini hikoya qiluvchi qism. Namuna uchun dostonning ikkinchi bobini tashkil qiluvchi bo‘limlar: 1) adolat haqida; 2) adolat g‘oyasini tushuntirib bergan Sulton Mahmud G‘aznaviy haqida; 3) Iskandarning adolat nima va qanday qilib hukmdor adolatli bo‘lishi mumkin deya Arastuga bergan savoli va uning javobi; 4) Iskandar jasoratlarining qisqacha bayoni (bu yerda olg‘a surilgan asosiy fikr – Iskandarning faoliyati adolat g‘oyalari bilan yo‘g‘rilganligini ta’kidlash). Bu dostonda ham vazn Nizomiy asos solgan an’anaga ko‘ra tanlangan. Iskandar haqidagi rivoyat qahramonlik ruhi bilan sug‘orilgani bois ozarbayjonlik shoir mazkur doston uchun mutaqoribning azaldan fors

she’riyatida qahramonlik dostonlarini yozish uchun qo‘llanib kelingan vaznini tanlagan. Bu o‘sha Firdavsiyning «Shohnomasi» yozilgan vazn:

V — — | V — — | V — — | V —

An’anaviy kirish so‘zlardan keyin Navoiy o‘quvchi e’tiborini tarixni astoydil va chuqur o‘rganish lozimligiga qaratadi. U Eron yilnomalarining qisqacha bayoni va fors hukmdorlarining tarixchilar tomonidan ko‘rsatilgan to‘rt sulolasi tarixini keltiradi [Shayxzoda M., 1973.149].

Navoiy qadimgi tarix masalalari chalkashib ketganligini ta’kidlaydi, ammo Nasiriddin Abu Said Bayzaviy tomonidan XIII asrning oxirida tartib berilgan «Nizom at-tavorix» (“Yilnomalar tartibi”) nomli yilnomani maqtaydi va uni ishonchga molik jiddiy ilmiy ish hisoblaydi. Navoiy Iskandarning kelib chiqishi haqidagi masala bo‘yicha turli fikrlar borligini eslatadi. Shuning uchun shoir bu masala yuzasidan Jomiy bilan maslahatlashadi. Jomiy unga Nizomiyning naqli (versiyasi) to‘g‘ri, haqiqatan ham Iskandar Filipp (Faylaqus) ning o‘g‘li ekanligini aytadi. Navoiy Iskandarning tarbiyasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Uning tarbiyachisi – Arastuning otasi Niqumohus ismli donishmand. Bo‘lg‘usi buyuk faylasuf bo‘lg‘usi hukmdor bilan o‘z otasi qo‘lida ta’lim olgan. Navoiy bu holatni o‘zi ham bo‘lg‘usi hukmdor bilan birga o‘qigani va keyin uning dono maslahatchisi bo‘lganini eslatish maqsadida bayon qilgani ehtimoldan uzoq emas. Faylaqus o‘lim to‘shagida yotganda, saltanatni Iskandarga vasiyat qiladi. Ammo shahzoda bunday ulkan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan hadiksiraydi. Shuning uchun u kengash chaqiradi va adolatli shoh tanlashni taklif qiladi. O‘tirganlar bu og‘ir yukni aynan uning o‘zi olishini talab qilib turib oladilar. Shu tarzda Iskandar nafaqat o‘zining meros huquqlari, shuningdek, xalq istagiga ko‘ra ham shoh bo‘ladi. Navoiy uning hukmdorligi birinchi kunlarini tasvirlaydi, u qabul qilgan tadbirlar haqida so‘zlaydi. Iskandar barcha sitamgarlarni qattiq jazolaydi, chunki zulmning payini qirqish ezgulikka olib keluvchi yo‘ldir; u xalqni ikki yilga xiroj (er solig‘i) dan ozod qiladi, bozorlarda narxni muvofiqlashtiradi, tarozilarni tekshiradi va savdo tizimi amaliyotiga tamg‘ali qadoqtosh (tarozi tosh) larni joriy etadi. Karvon savdosini yo‘lga qo‘yish uchun savdo yo‘llarida maxsus bekatlar (postlar) tashkil qiladi. Bu parcha – boshdan-oyoq namunali shoh uchun o‘ziga xos harakat dasturi. Navoiy yarim kunni davlatni boshqarish ishlariga, yarim kunni esa xordiq chiqarish va o‘yin-kulguga ajratishini, ammo keyingilari olijanob xarakterda bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. [Ishoqov Y., 1983:109]

Mazkur dostonning boyligi bitmas-tuganmasdir. Bu – chuqur ma’nolarning butun boshli xazinasi, davr siyosiy donishmandligi to‘plami.

Navoiy temuriylarga ishonchli qo‘llanma qoldirmoqchi bo‘ldi va u buni to‘liq uddalash sharafiga muyasar bo‘ldi. Agar ular bundan foydalana olmagan bo‘lsa, bu uning aybi emas. Ta’kidlash joizki, dostonning tili qolgan to‘rt dostonning tiliga qaraganda ham juda sodda va tushunarli. Aftidan, shoir o‘zini mumkin qadar aniq va chuqur tushunishlarini istagan va shuning uchun u fikrni yuksak darajada tiniq ifodalashga harakat qilgan. Yetarli darajada tushunmaslik asosiy falsafiy fikrlar talqiniga ta’sir qilmasligi uchun barcha yorqin timsol, qiyoslash va majozlar dostonning faqat tavsiflovchi qismlarida jamlangan.

Dostonning XV-bobidan boshlab har to‘rt bob o‘zaro ichki bog‘liqlikda, bir mavzu asosida birlashtiriladi. Bu hol asar so‘nggiga qadar davom ettiriladi. O‘zaro umumiylik hosil qilgan mazkur boblarda:

- Iskandar hayotiga oid biror bir voqea bayoni;
- shu voqeaga bog‘liq bo‘lgan falsafiy-axloqiy tushunchalar izohi;
- aytilgan fikrlar isboti uchun hikoyat;
- Iskandar va olimlar (xususan, Arastu) ning savol-javobi keltiriladi.

Adabiyotshunoslikda e’tirof etilganidek, “Saddi Iskandariy” dostoni juda boy va go‘zal lavhalarga ega. Dostondagi falsafiy-tarbiyaviy chekinishlar, hikoya va hikmatlar hayotning barcha ko‘rinishlarini qamrab olgan hamda ularning har biri alohida qiymat va hikmatli mazmun kasb etgan. [Yoqubov I., 2021: 236]

Ayniqsa, shoirning o‘zi “Hikmat” deya nomlagan boblarda bayon etgan fikr-mulohazalari, ilgari surgan g‘oyalari chuqur falsafiy axloqiy xarakterga egaligi bilan boshqa qismlardan ajralib turadi. Asarning “Hikmat” boblari to‘la ma’noda nomini oqlaydi. Ularda tiriklik mohiyati, hayot falsafasi, inson umri, ma’naviy olami, davlat va davlatchilik siyosati, ilm va ma’rifatdan bahs yuritiladi. Dostonda 18 ta “Hikmat” keltirilgan. Ularda Iskandarning yuqorida aytib o‘tilgan masalalar yuzasidan olimlar peshvosi Arastuga, donishi zamon Suqrot va Luqmoni Hakimga bergan savollari hamda u zotlarning bu so‘roqlarga oqillik bilan bergan javoblari, pandu nasihatlari ifodalangan. Bu ifodalar mutafakkir shoir dunyoqarashining naqadar keng va chuqurligini yana bir karra tasdiqlaydi. Chunonchi, shoh Iskandar:

Ne yo‘ldurki, maqsud erur manzili,
Ne ishdirki mahmud erur hosili? [Oybek, 1979: 103].

ya’ni, qaysi yo‘l maqsad manziliga eltadi va qaysi ishning hosili maqtovga arzigulikdir? – deya bergan savoliga donishmand Arastu shunday javob qaytaradi:

Dedi: "Xalqdin o'zni fard aylamak,
Fano ko'yi yo'linda gard aylamak" [Oybek, 1979: 103].

O'zni bilish va o'zni anglash insoniylikning bosh maqsadi. Unga tolib bo'lmoq uchun inson bu dunyo ostonasiga qadam qo'ygan. Xo'sh, bu maqsadga qanday erishmoq mumkin va u qay tarzda amalga oshadi? Bu ulug' alloma saboq berganidek, "Xalqdin o'zni fard aylamak" – olam va olam hodisotlaridan ko'ngilni ozod etish, "fano" – o'zdagi barcha illatlardan forig' bo'lish, "man"lik da'vosidan qutulish orqali yuz ochadi. Biroq bu xammaga ham nasib etmaydi. Shoir yozganidek:

E*rur rohzan kimki ogoh erur,*
Bu yo'lda nekim mosivalloh erur.
Birov shoh vasliga qat' etsa yo'l,
Kerak voqif o'lsa qaroqchidin ul [Oybek, 1979: 104].

Shoir talqinicha, ko'ngli Haqdan o'zga barcha hoyu havasni tark etgan, ogoh odamgina yo'lovchidir. Misradagi ogoh so'zi shunchaki bo'lib o'tgan yoki bo'ladigan ish, voqea-hodisadan xabari bor mazmunini bildirmaydi. Ogoh o'lgandan so'ng qayta tirilish, jazo – qiyomatning haq ekanidan xabardor va unga shak-shubhasiz ishongan kishini tamsil etadi. Eng muhimi, vasl umididagi bu ogoh yo'lovchi yo'ldagi "qaroqchi"dan voqif bo'lishi shart. Baytdagi "rohzan", "Shoh vasli", "qaroqchi" so'zlari ham istiora o'laroq kelgan. Bu orqali shoir o'quvchiga havoyu nafsiga berilmay, Haq ko'rsatmalariga amal qilib, to'g'ri yashagan "rohzan" – bu sinov dunyosidan o'tib boruvchi solih banda jannatiy bo'lib "Shoh vasli" – Alloh jamolini ko'rishdek oliy saodatga erishishi haqidagi qur'oniy oyatlarga ishora etgan. Zero, Qur'oni karimda zikr etilgan "Go'zal amal qilganlar uchun go'zal savob va ziyodalik bordir..." (Yunus. 26), "O'z Robbisiga nazar soluvchilar" (Qiyomat. 23) kabi oyatlar ahli jannatning Alloh taoloning jamolini hijobsiz ko'rishiga dalolat etishi aytilgan. Buni Imom Buxoriy, Imom Muslimdan rivoyat qilingan Payg'ambarimiz (s.a.v) ning: "Albatta, sizlar o'z Robbingizni xuddi manavi to'lin oyni ko'rayotganingizdek ayon ko'rursizlar" hadisi ham tasdiqlaydi. Misradagi "qaroqchi" dan murod nafsdir. Nafsdan ogohlik o'zdan ogohlikdir [Boltaboyev H., 2004:119].

Mutafakkir shoir dostonda shu kabi poetik ifodalar vositasida o'quvchiga o'z hayotini Qur'on – ilohiy dastur, ko'rsatmalar asosida qurishi oliy matlab ekanini uqtiradi. Umumuman olganda, "Saddi Iskandariy" dostonida juda ko'p ma'naviy axloqiy tushunchalar mohiyati xususida so'z borganki, ulardan eng birinchisi, inson hayotining tamali – nafsni tanish, uning qutqularidan qalbni muhofaza qilish bo'lsa, ikkinchisi,

jamiyatni tutib turuvchi asos – adolatni mahkam tutib, davlat boshqaruvini odil nizomga binoan olib borish masalasidir.

Professor Najmiddin Komilov talqiniga ko‘ra, “Saddi Iskandariy” dostonining markaziga qo‘yilgan bosh g‘oya bu - ibrat va ogohlikdir. Navoiy talqinidagi, Iskandar aslida shahzoda emas, balki vayronadan topilgan chaqaloq - onasi uni tug‘ib, so‘ng vafot etgan. Farzandsiz Faylaqus go'dakni topib, uni o‘ziga farzand bilib, parvarish etadi. Tabiatan darveshlar sulukiga ishtiyoqmand, saltanat savdosidan bezor Iskandar zimmasiga jahongirlik missiyasi tushadi. Jahongirlik va fotihlik da’vosi bilan tarix sahnasiga chiqqan boshqa hukmdorlardan farqli o'laroq, Navoiy xalq orzu-istagi va Haq roziligi asosida dunyoda adolatli hukmdorlikni o'rnatish, bilim va aql-zakovat, xayr-u saxovat, mehr-u shafqat tantanasiga erishishni o‘zining burchi deb bilgan Iskandar obrazini yaratdi. Shu sababli, bu dostonning oxiri qayg'uli tugasa-da, Navoiy voqealar bayoni davomida inson va jamiyat, shoh va darvesh, hayot va o‘lim, ustoz va shogird, yaxshilik va yovuzlik, hikmat va hukumat kabi turli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy masalalar ustida mushohada yuritadi. Ana shu xulosalar, qissadan chiqarilgan hissalar tufayli Navoiy tasvirlagan Iskandar jahongir podshohdan ko‘ra, xaloskor, Adolat o'rnatuvchi, tabiati hukmdordan ko‘ra darveshlikka ko'proq moyil, ilm-hikmatga maxzan bo‘lgan ma’ rifatli shaxs sifatida ko‘ngilga o‘rnashadi. [Komilov N., 2001:176]

Alisher Navoiy ushbu dostonida ham boshqa asarlaridagi kabi umri bo‘yi orzu qilgani, uning ideali bo‘lmish – butun hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodatiga bag‘ishlagan odil podshoh haqidagi g‘oyasini eng yorqin va atrofli ifodalaydi. Shuning bilan birga ana shunday shoh ila bog‘liq holda ozodlik, tinchlik, adolat, farovonlik, obodonchilik, ilm-ma‘rifat, fan rivoji kabi ilg‘or g‘oyalarni ham tarannum etadi. Iskandar – Navoiy xayolidagi uning orzu-umidlarining eng sarasini o‘zida mujassamlashtigran romantik obrazdir. Shoir Iskandar obrazini yratishga kirishar ekan, uni eng avvalo o‘z davri va kelgusi avlod shohlari, hukumdorlari uchun ibrat manbai bo‘lishini ko‘zda tutadi. Navoiy dostonga bevosita XV asrdagi siyosiy vaziyat, hayotiy voqealar, o‘sha davr shart-sharoiti, urf-odati, an‘analarini singdiradi.

“Saddi Iskandariy” dostonining ikkinchi asosiy masalasi Navoiy davri uchun mustasno ahamiyatga ega bo‘lgan markaziy davlat g‘oyasini targ‘ib va tarannum etishdir, xalq manfaatiga mamlakat butunligi va osoyishtaligiga qarshi qaratilgan, beboshlik bilan mashg‘uk bo‘lgan prinsipsiz ixtilofchi beklar, vazirlar va shularga o‘xshash boshqalarni

jilovlash, yo‘qotish va mamlakatni idora etish ishini markazlashtirish, odil hukumdor qo‘lida to‘plash g‘oyasini o‘rtaga tashlashdir.

Uchinchi asosiy masala davrdagi ilm ahllarinigina emas, ulardan boshqa ko‘plarning fikr xayolini band etgan va hal etilishi jamiyatning yaxshilanishi va taraqqiy etishiga yordam beradigan bir qancha ilmiy, falsafiy muammolarni yoritishdir. Yulduzlar olami haqidagi, xilqatning to‘rt moddiy unsurdan iborat ekanligi, borliqning o‘zgarishda, rivojlanishda bo‘lishligi; mistik, tarki dunyochilik, tasavvufni rad etish va real tabiatining mohiyati haqidagi fikrlar shular jumlasidandir [Bertels Y.E., 2015:104]

Navoiyning Iskandar misolida avval toju taxtdan nafratlanadigan himmati baland mard shahzodani, keyin esa turli yurtlar va kishilar qalbini mardlik-shijoat va hiyla-tadbir bilan egallagan tadbirkor shoh hamda orifni, so‘ngra ilmi g‘ayibni egallashga intilgan komil insonni va nihoyat, asar so‘ngida bularning barchasidan maqsadi hosil bo‘lmagan, dunyodan quruq qo‘l bilan ketgan ojiz banda siymosi namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunos I.Ismoilov qayd etganidek: “Iskandarni toj-u taxtga havasmand bo‘lmagan, balki taqdir taqozosi bilangina hukumdor bo‘lgan shoh sifatida tasvirlashdan, birinchi navbatda, muallifning o‘zi manfaatdor edi. Iskandarning faqir qiyofaida tasvirlanishi Navoiy fenomeniga xos ma‘rifiy g‘oyalarga qanchalaik mos kelsa, XV asr Xuroson siyosiy muhitida shu qadar zarur edi. Biroq, eng avvalo Navoiy yaratgan Iskandar obrazi kishilar qalbini mardlik va mehr-shavqat bilan, jahon ilmini esa aql va tadbir bilan egallagan orif javonmard inson obrazidir [Ismoilov I., 2023.88].

“Saddi Iskandariy” dostonida tasvirlangan o‘zaro feodal urush va nizolari, mudhish manzaralari, bosh qahramonlarning xazina ishlarida mustahkam tartib o‘rnatishi, olim va fozillar maslahati bilan ish ko‘rishi, har narsada adlga suyanishi va shu kabi lavhalarga e‘tibor berilsa, Navoiy o‘z davri uchun favqulodda muhim masalalar yuzasidan fikr yuritganini ko‘ramiz. Ma‘lumki Navoiy salaflari Iskandarni shoh, olim va payg‘ambar qiyofasida tavsif etganlar. Navoiy esa Iskandarni shoh, olim va olijanob inson sifatida talqin etadi. Iskandarni bezaydigan fazilatlari orasida eng biribchi o‘rinda uning adolatparvarligini madh etadi. Asar qahramoni kishiga ilm, fan yetkazadigan ma‘naviy boylikni toju taxt, javohirlar to‘la xazinalardan ustun qo‘ydi. U butun hayoti, faoliyati davomida olimlar, ustozlari bilan bamaslahat ish ko‘ruvchi tadbirkor shoh. U zulumkor va razil amaldorlarga, xiyonatchi va firbgarlarga keskin shavqatsiz, mehnat kishilari va ilm ahllariga esa benihoya muruvvatli va mehribon. Alisher

Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida ham boshqa asarlaridagi kabi umri bo‘yi orzu qilgani, uning ideali bo‘lmish – butun hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodatiga bag‘ishlagan odil podshoh haqidagi g‘oyasini eng yorqin va atrofli ifodalaydi. Shuning bilan birga ana shunday shoh ila bog‘liq holda ozodlik, tinchlik, adolat, farovonlik, obodonchilik, ilm-ma‘rifat, fan rivoji kabi ilg‘or g‘oyalarni ham tarannum etadi. Shoir Iskandar obrazini yaratishga kirishar ekan, uni eng avvalo o‘z davri va kelgusi avlod shohlari, hukumdorlari uchun ibrat manbai bo‘lishini ko‘zda tutadi. Iskandar Navoiy uchun qanchalik oddiy inson bo‘lsa, u holda temuriylardan barcha jabhalarda unga ergashishga harakat qilishlarini shunchalik talab eta olardi. Iskandar timsolini ikki tomondan yorib berish vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan Navoiy dostonning ayrim boblari tuzilishining juda qiziq shaklini kashf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 11-tom: Saddi Iskandariy. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy / Nasriy bayoni bilan. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Bertels Y.E. Alisher Navoiy / I.K.Mirzayev tarjimasi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. – B. 150-169.
4. Boltaboyev H. Mumtoz so‘z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. – Toshkent: Adolat, 2004.
5. Haqqul I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2011.
6. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
7. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
8. Ismoilov I. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining badiiy xususiyatlari/IV an’anaviy xalqaro ilmiy konfrensiya maqolalar. – Namangan., 2023. – B. 86-92.
9. Komilov N. Tafakkur tuhfalari/Navoiyning ijod olami. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 16-27.
10. Oybek. Navoiyning tarjimai holi/Mukammal asarlar to‘plami: 13-tom. – Toshkent: Fan, 1979.
11. Qayumov A. Asarlar. 3-jild. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2009.
12. Qayumov A. Nodir sahifalar. Navoiyning kam o‘rganilgan ba’zi asarlari to‘g‘risida. – Toshkent: Fan, 1991. – 144 b.
13. Sharq mumtoz poetikasi H.Boltaboev talqinida. – Toshkent, 2008. – 430 b.

14. Shayxzoda M. Asarlar. 6 tomlik: J. 4. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.
15. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994.
16. Yoqubov I. “Saddi Iskandariy” dostoni poetikasi/IV an’anaviy xalqaro ilmiy konfrensiya maqolalar. – Namangan, 2021. – B. 141-149.
17. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2011.

CHUSTIY LIRIKASIDA MAVZULAR RANG-BARANGLIGI

Otaxanova Mahmuda Mamadaliyevna,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sohibi devon Chustiy (Nabixon Xo‘jayev) lirikasining mavzular olami va uning o‘ziga xos tomonlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, shoirning yuksak badiiy mahorati ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ishqiy, didaktik, axloqiy, ijtimoiy, an’ana, mahorat

Annotation: This article analyzes the world of themes and unique aspects of the lyrics of the poet Chustiy (Nabixon Khojayev), whose name is Devan. The poet’s high artistic skill is also revealed.

Key words: romantic, didactic, moral, social, tradition, skill.

Chustiy (Nabixon Xo‘jayev) lirikaning azim yo‘nalishi – aruz vaznida barakali ijod etgan shoir, dostonnavis, dramaturg, shuningdek, mohir tarjimon sifatida XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti tarixidan o‘ziga xos o‘rin egalladi. Chustiy ko‘hna aruz “chirog‘ini” o‘chirmaslikka intilib, mumtoz an’analarga sodiq qolgan holda devonlar yaratdi, bu an’analarning hayotiyligini isbot etishdan to‘xtamadi. Shoirning g‘azal, mustazod, musammatlar, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit’a, tarkibband, tarje’band, chiston kabi janrlarni o‘z ichiga olgan bir nechta devonlari Chustiyning aruz vazni noziklarini chuqur o‘zlashtirganini, yangi zamon g‘oyalarini ifodalashda, ayniqsa, an’anaviy g‘azal shaklidan mohirona foydalana olganini namoyish qildi.

Chustiy lirikasi tuyg‘ularga, chuqur hissiyot tasviriga, yangi va ko‘lamdor fikrlarga, axloqiy-ta’limiy umumlashmalarga boyligi bilan xarakterlidir. Chustiy lirikasining mavzular olami ham nihoyatda xilma-xil. Shoir Jamol Kamol bu haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: “Chustiy g‘azallari mavzu e’tibori bilan rang-barang, tasvir qamrovi keng. Yolg‘iz yor vasli, ishq dardi, bodaning kayfiyati emas, vatan sevgisi, jamiyat

hayoti, zamon og‘riqlari, asr muammosi aks etgan bu manzumalarda” [Kamol J.,2020:92]. Darhaqiqat, shoir lirikasi nafaqat isq-muhabbat va axloq-odob mavzuidagi she’rlari bilan, balki ijtimoiy hayotning turli dolzarb masalalariga bag‘ishlangan she’rlari bilan ham diqqatga sazovordir.

Bu jihatdan shoir she’rlarini shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin: 1) ishqiy mavzudagi she’rlar; 3) axloqiy mavzudagi she’rlar. 1) ijtimoiy (publitsistik) mavzudagi she’rlar.

Chustiy lirikasining aksariyat qismi ishq-muhabbat mavzusidagi she’rlar ekan, ularda yor va uning jamoli tasviri, uning jafokorligi, haqiqiy oshiqqa shafqatsizligi, olijanob, yuksak muhabbatga munosib bo‘lmagan raqibga mehribonligi, unga muhabbat qo‘yganligi va shuning uchun chin oshiqning alam va rashkdan yonishi kabilar tasvir etilgan. Shoir ijodidagi ishq-muhabbat ko‘pincha ijtimoiy, umumiy xarakterga ega. Ijodkor o‘z davrining ko‘zi va qulog‘idir. Bas, shunday ekan, shoirning «men»i, umuman, insonlar, zamondoshlar, g‘azalda tasvir etilayotgan obrazning kechinma va kayfiyatlaridir.

Ishqiy she’rlarda Chustiy har qachon ham bevosita o‘z intim kayfiyatlarini ifodalamay, fikrini boshqa oshiq va ma’shuq tilidan bayon qilgan, boshqacha aytganda, o‘zini sevgi taronachisi deb hisoblagan. Uning she’rlarida mumtoz adabiyotimizda bo‘lgani kabi uch an’anaviy obraz (oshiq, ma’shuqa, raqib) bo‘lib, ulardan oshiq eng asosiy obrazdir. Shunday ekan, shoir asosiy obrazining qay tarzda tasvirlanishiga e’tiborimizni qaratganimizda, Maqsud Shayxzodaning mana bu fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “oshiqona g‘azallarda oshiq obrazi doimo barcha imkoniyatlardan mahrum, benavo, ojiz, sodda, go‘l, aqli past, xoksor bo‘lib tasvirlanadi”[Shayxzoda M.,1972:31]. Oshiq obraziga xos mazkur barcha xususiyatlar Chustiy g‘azallaridagi oshiq obraziga ham tegishlidir. Masalan,

Meni, ey sho‘xi beparvo, unutsang ham unutmasman,
Solib boshimga yuz savdo, unutsang ham unutmasman.
Tilim nomingni tilga olmaguncha so‘zga kelmaydi,
Qilib ming noz-u istig‘no, ununtsang ham unutmasman.[Chustiy, 1988:227]

Yuqoridagi g‘azalning etakchi mavzui insoniy muhabbatdir. Unda oshiq ma’shuqaga bo‘lgan muhabbatining nechog‘li kuchli ekanligini bayon etmoqda.

Chustiy ijodidagi ishqiy g‘azallarning ma’lum bir qismi mahbuba ta’rif-tavsifiga bag‘ishlangan. “Ta’rif bilan tavsifning qo‘shilishidan iborat

bo‘lgan vasf tipidagi g‘azallarning asosiy obyekti ko‘pincha ma’shuqa siymosi, uning butun qiyofasi hisoblanadi”[Is’hoqov, 1983:58]. Shoirning bu boradagi mahorati shu qadar yuqoriki, uning nazaridan ideal mahbuba qiyofasining birorta ham jihati chetda qolmagan. Bir g‘azalda ma’shuqaning barcha tashqi sifatlari izchil tavsif qilinsa, boshqa bir she’rda uning ayrim unsurlariga e’tibor qilinadi. Shoir she’rlarida ma’shuqa husnda barkamol va aqlda betimsol malak sifatida gavdalanadi. Masalan,

Kuli yo‘g‘ cho‘g‘ga o‘xshaydur yuzingiz,
Yurakka o‘t sochar o‘ynab ko‘zingiz.
Meni ayb aylamang yolg‘onchi sen deb,
Bu so‘zni menga o‘rgatgan o‘zingiz. [Chustiy, 1988:103]

Bu g‘azal yor jamoli tasviriga bag‘ishlangan, ya’ni shoir bu g‘azalida ma’shuqaning yuzi, ko‘zi, labi, xoli, sochi, so‘zi va boshqalarni ta’rif-u tavsif etgan.

Ko‘rinadiki, yangi davr g‘azalnavis ijodkori – Chustiy o‘z g‘azallarida insonni, uning muqaddas tuyg‘usi – real ishqni kuyladi, olijanob obraz – oshiq obrazini o‘ziga xos bir tarzda tarannum etishga intildi.

Yosh avlod tarbiyasi masalasi hamma asrlarda barcha xalqlar adabiyotida katta o‘rin tutgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotida ham didaktik asarlar juda ko‘p yaratilgan. Chustiy ham axloq-odob ruhidagi she’rlarini yaratar ekan, she’rlarida yangicha fikrlovchi lirik qahramon – zamonaga ziyraklik bilan boquvchi iqtidorli inson, davr kishisi, yuksak xulq-atvor egasi namoyon bo‘ladi.

Bilamizki, badiiy so‘z – buyuk qurol. Shuning uchun ham buyukki, so‘z bilan odamlarni birlashtirish yoki ularni bir-birlari bilan yuz ko‘rmas qilib yuborish mumkin. Chustiy nazdida ham eng muhim narsa to‘g‘riso‘zlikdir:

Har so‘zki desang, bo‘lsin ul insonga munosib,
So‘zlab netasan bo‘lmasa davronga munosib [Chustiy, 1988:65]

yoki

Qayta-qayta so‘zlasang el ichra donolar so‘zin,
Bo‘lsa so‘z o‘z o‘rnida hargiz xato bo‘lmas emish. [Chustiy, 1988:50]

Xalqimizning “Avval o‘yla, keyin so‘yla” maqoli shoirning “O‘ylab gapir” radifli mana bu g‘azalida o‘zining badiiy talqinini topgan desak, xato bo‘lmaydi:

Dil qulog‘iga dedi bir xush nido, o‘ylab gapir,
Garchi mashhuri zamonsan, mutlaqo, o‘ylab gapir. [Chustiy, 2004:109]

Shoir Chustiyning ota-onani e’zozlash haqidagi g‘azallari ham mazmunan bevosita hadis-u shariflar bilan hamohangdir:

Jonajoningdir otang ham mehribon mushfiq onang,
Bo‘lmasa sendan rizo, xalqing rizo bo‘lmas emish. [Chustiy, 1988:320]

Odamiylik shoir g‘azallarida tez-tez tilga olingan mavzulardan. Ularda barcha insonlarni teng tutib, hurmat qilish, barchaga mehr-muhabbat bilan qarash zarurligi aytiladi:

Ey azizlar, eng saxiy davlatli mezbondek yashang,
Bir-biringizga shirin suhbatli mehmondek yashang. [Chustiy, 1988:77]

Aslida dunyoning foniyligi, inson umrining qisqaligi qayd etilgan quyidagi misralar hayotning shu qonuniyatini bilishga, undan ibrat olib, umrning bekor, behuda o‘tib ketmasligini esda saqlashga qaratilgan:

Barchamiz bu yo‘lda, ammo kim keyin, kim ilgari,
Bilmagan hech qaysi dono kim keyin, kim ilgari [Chustiy, 2004:13]

yoki

Umr naqdini tejang-u aylamang behuda sarf,
Yetmagay mo‘ljalga aslo umr esa isroflik. [Chustiy, 1988:77]

Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona –Vatanga tegishli bo‘lgan har bir narsani muqaddas bilish, o‘zini shu Vatanga daxldor deb his qilish chinakam insonlarga xos fazilatdir. Chustiy g‘azallarida shu xislatlarning nihoyatda ulug‘langanini ko‘rish, kuzatish maroqli:

Vatan deb, xalq deb so‘zlasa davrimda har inson,
Jahon notiqlari ichra uni shirinsuxan derman. [Chustiy,1992:154]

Aksincha, qalbida vatanparvarlik ruhi bo‘lmagan, Vatan uchun yonib yashamaydigan insonlarni shoir qoralaydi va bunday kishilarga Alloh tomonidan ato etilgan umr «esiz», deya hayqiradi:

Kimki Vatanin sevmasa jismidagi jondek,
Jon unga esiz, ul tan emas jonga munosib. [Chustiy, 1988:65]

“Vatan ishqi”, “Gulshanim”, “Vatan ash’ori”, “Ey, Vatan”, “Gulistonim muqaddas” kabi she’rlarida shoir Vatan obrazini yaratadi. Adib Vatan obrazini chizishda usta manzarachi sifatida ham tanildi. Chunki shoir o‘z lirikasida manzara tasviridan mohirona foydalanadi. O‘lkamizning go‘zal tabiatini ehtiros bilan ifodalaydi. Chustiy she’rlarida manzara quruq bezak uchun emas, aksincha, asar g‘oyasini ochishda badiiy vosita sifatida istifoda etiladi:

Bog‘lari shunday go‘zalki, unda yo‘qdir xor-u xas,
Sayragan bulbullar ovozi erur, faryod emas,
Xushhavo, osmon musaffo, shundadir erkin nafas,
Har qadamda uchraturman turli el aylab havas.
Lola sayriga kelurlar, lolazor o‘lkam mening. [Chustiy, 1988:363]

Ijodkor aqidasiga ko‘ra:

Agar el ishqidan bebahra-yu begonadir ko‘ngil,
Guli yo‘q bog‘-u go‘yo bechiroq to‘yxonadir ko‘ngil. [Chustiy, 1992:54]

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi bilan yozma adabiyot doim o‘zaro aloqada bo‘lib, bir-biriga ta’sir etib keladi. Chustiy lirikasining, xususan, axloqiy- ta’limiy mavzudagi g‘azallarining taraqqiyotida ham xalq og‘zaki ijodi boy bir manba, ijodkorlik maktabi bo‘lib xizmat qildi. Shoir maqol va hikmatli so‘zlar, xalq ta’birlarini ba’zan aynan va ba’zan she’riy misralarning poetik talabiga muvofiqlashtirib qo‘llaydi. Ayrim g‘azallarida bir emas, bir necha maqollar ishlatadi:

Yoningdan ketsa mayli, ikki yuzli ba’zi yolg‘on do‘st,
Azizlar deydilar: do‘ppi topilgay, bosh omon bo‘lsa.
El ichra maqol bor, o‘sma ketgay qosh qolur derlar,
Chiroy o‘zgarmagay hech, o‘sma ketsa, qosh omon bo‘lsa. [Chustiy, 1988:50]

Ravshanki, ijodkor maqol va hikmatli so‘zlar kabi injular bilan o‘z g‘azallarining g‘oyaviy mazmunini boyitgan, badiiy qimmatini oshirgan.

Darvoqe, shoir xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ustalik bilan foydalanar ekan, uning ayrim misralari xalq maqollari yoki xalq hikmatlaridek aks-sado beruvchi pandomuz xarakterga ega. Masalan,

Yaxshi kishi yaxshilik ijod etar,
Yaxshi o‘zin yaxshiga ajdod etar.[Chustiy, 2004:85]

Chustiy axloqiy-ta’limiy g‘azallarida inson yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligini uqtirish asnosida odamiylikka zid keluvchi illatlarni qoralaydi:

Nasli odamga yarashmas mutlaqo yolg‘onchilik,
Qilgusi sharmandalikka mubtalo, yolg‘onchilik.[Chustiy, 1994:47]

Chustiy she’riyatidagi do‘stlik, shuningdek, xalqlar do‘stligi va mehnat madhi ham alohida diqqatga sazovordir. U o‘z she’riyatida do‘stlikni hamma narsadan, hatto oltin-javohirlardan ham ustun qo‘yadi:

Do‘stlikning zargarin nazdida oltin bir puchak,
Arzigay zar gar desang dunyoda do‘stlik zargarin.[Chustiy, 1994:76]

Do‘stlikni xasta dillarga malham bo‘luvchi va hatto o‘liklarga jon baxsh etuvchi qudratli vosita sifatida talqin etadi:

Do‘stlik doru, davo bo‘lg‘usi ming bir dard uchun,
Tiklagay jon baxsh etib hatto o‘liklar paykarin.[Chustiy, 1994:76]

Eng muhim xususiyati shuki, Chustiy she’riyatidagi do‘stlik mavzuining doirasi keng, ya’ni shoir lirikasida xalqlar do‘stligi mavzui ham salmoqli o‘rin egallaydi. Adib xalqlar va millatlar o‘rtasidagi beg‘araz do‘stlik va ma’naviy yaqinlikni qadrlab, uni ixlos-u muhabbat bilan tarannum etadi:

Keling tezroq, keling tezroq, qoraqalpoq,
Ko‘rishmoqqa bizlar mushtoq, qoraqalpoq.[Chustiy, 1992:238]

Shu o‘rinda professor M. Nurmatovning quyidagi fikrlarini keltirish ham joizdir: “Chindan ham do‘stlik Chustiy ijodida go‘zallikning bir ustuvor aqidasidir. Bu estetik aqida shoir g‘azaliyotida umumjahoniylik miqyosini kasb etadi. Chunonchi, “Bo‘lsa, bas” sarlavhali mashhur musaddasida olamda quyosh bitta bo‘lgani kabi, butun jahon xalqlari ham mustahkam birodarlik va do‘stlik rishtalari bilan o‘zaro hamjihat va hamnafas bo‘lishlarini orzu qiladi” [Nurmatov, 1992:4].

Bilamizki, ijodkor – davr farzandi. Uning yaratiqlarida, albatta, ijtimoiy hayot ohanglari aks-sado beradi. Ikkinchi jahon urushi masalalari bilan bog‘liq, shuningdek, yurtimizning mehnatkash xalqi va ularning bunyodkorlik qudratini qadrlash, ulardan faxrlanish mavzuidagi Chustiy she’rlarida jamiyat hayotining u yoki bu qirrasi namoyon bo‘lgan. Bu fikrlarimizni adabiyotshunos Sh.Yusupovning quyidagi mulohazalari tasdiqlaydi: “…fashist bosqinchilariga qarshi urush boshlandi. Chustiy domlaning insoniy sevgi nashidasini tarannum etib, qalblarga anvoyi ko‘rkam tuyg‘ular olib kirgan go‘zal qalami qattol jang manzaralarini chizishga, Farg‘onaning yo‘l-yo‘l ipak beqasam to‘ni o‘rniga rangi tuproqqa o‘xshash shinel kiygan o‘zbek yigitlarining o‘q yomg‘irlari ostidagi his-tuyg‘ularini ifodalashga qaratildi”[Yusupov, 2020:57]. Shunday satrlardan misol keltiramiz:

Jonga jon ol, qonga qon ol,
Yovga ot sol, bo‘lsin poymol,
Yurgil chaqqon, O‘zbekiston,
To qolguncha bir qatra qon.[Chustiy, 1988:192]

“Uning paxtakorlar, chorvadorlar, pillachilar, to‘quvchilar, chinnisozlar va boshqalar haqida yaratgan qo‘shiqlarida har bir kasbning o‘ziga xos poeziyasi, tinglovchi qalbini to‘lqinlantiradigan etakchi jihati san’atkorona badiiy talqin etiladi” [Yusupov, 1988:7]. Masalan,

Niholin saqladi sel-u, shamol-u, do‘l-u ofatdan,
Balolar nayzasiga paxtakor ko‘ksi sipar…
Parilardek oq oltin chorladi oshiqlarin imlab,
Eshitgan yuz yashar ham zavq ila o‘ttiz yashar bo‘ldi.[Chustiy, 1988:139]

Chustiy oddiy mehnat kishisining ijtimoiy mehnatini ulug‘lashni, mehnatkash inson obrazini yaratishni hamisha o‘zining diqqat markazida tutadi. U o‘zining “Paxta qasidasi”, “A’lo terimchilarsiz”, “Dard ko‘rmasin qo‘lingiz”, “Bahodirlar”, “Yigit, qizlar”, “Vaqtim chog‘” kabi she’rlarida mehnatni baxt manbai, inson ma’naviy qiyofasini belgilovchi bosh omil sifatida tasvirlab, oddiy kishilarning yaratuvchilik mehnatini ulug‘laydi, mehnatkash insonning qadr-qimmatini baland ko‘taradi:

Paxtadan har bir g‘aram bo‘ldi misoli Ko‘hiqof,
Yo‘q erur bu so‘zda shubha, yo‘q erur bu so‘zda lof. [Chustiy, 1988:113]

Umuman olganda, shoir she’rlarining inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari echimini hal qilishga qaratilgani, umumbashariy g‘oya-maqsadlarga yo‘naltirilganligi uning xarakterli jihatidir.

Xulosa qilib aytganda, Chustiy lirikasining mavzular olami nihoyatda keng va rang-barang. U ishq-muhabbat, axloq-odob, Vatan, do‘stlik, ona, Vatan mudofaasi, tinchlik mavzularida, bulardan tashqari, zamonaviy mavzularda – mehnatkash xalqni kuylash, qo‘riq erlarni o‘zlashtirish, suv inshootlarining qurilishi haqida ajoyib she’rlar bitdi, ularning betakror namunalarini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исҳоқов. Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 58.
2. Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам. Шоир Чустий ижодига чизгилар, хотиралар, эсселар, бағишловлар. Масъул муҳаррир: М.Зоҳидова. Камол Ж. Чустий ва унинг ижоди ҳақида. – Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2020. – 272 б.
3. Чустий. Кўнгил тилаги. (Девон). – Тошкент: Фан, 1994. – 264 б.
4. Чустий. Кўргунча, хайр энди. Танланган шеърлар. – Тошкент: Минҳож, 2004. – 252 б.
5. Чустий. Садоқат гуллари. Девон. – Тошкент: Внешторгиздат, 1992. – 344 б.
6. Чустий. Садоқат гуллари. Нурматов М. Чустий гулдастаси. – Тошкент: 1992. – Б. 4.

7. Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 448 б.
8. Чустий. Ҳаётнома. Юсупов Ш. Халққа бахшида умр. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 7.
9. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. Ғазал мулкининг султони. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 31.
10. Karimova F. Persian divan introductions(prefaces) and their historical development. EPRA International Journal of Multidisciplinaru Research(IJMR) – Peer Reviewed Journal Volume: 6 / Issue 9/ September 2020 // SJIF Impact Factor: 7. 032/ Page: 355-358.

FAQIRIY DEVONIDAN 7 TA MUVASHSHAH G‘AZAL TILGA KIRGANDA

Anvar XO‘JAYEV,
Qarshi davlat texnika universitet katta o‘qituvchisi,
ORCID 0009-0008-1989-6093

Annotatsiya: Shoir Faqiriy devonida mavjud g‘azallar jami 35 nafar tarixiy shaxs nomiga muvashshah bog`langan. Faqiriyning zamondoshlari bo‘lgan kishilar ismlariga bir necha g‘azallarda muvashshah bog‘langan. Maqolada devondan joy olgan shoir Miskinning 1 dona va Faqiriyning 6 dona, jami yettita muvashshah g‘azallari tadqiqotchining diqqatini tortgan. Izlanuvchi tomonidan mazkur muvashshah g‘azallarni obyekt sifatida o‘rganilishi Faqiriy haqida yangi ma’lumotlarni beradi.

Kalit so‘zlar: taraqqiyparvar shoir, devon, muvashshah g‘azal, bayt, toq misra, juft misra.

Abstract: The “muwashshah” ghazals in the divan of the poet Faqiri are associated with the names of 35 historical figures. The names of Faqiri’s contemporaries are widely mentioned in several ghazals. The article examines seven “muwashshah” ghazals from the collection, one of which was written by the poet Miskin and six by Faqiri, who are included in the article. The study of these “muwashshah” ghazals as objects by the researcher provides new information about Faqiri.

Key words: progressive poet, divan, ghazal-“muwashshah”, bait, odd line, even line.

Mumtoz Sharq adabiyotida muvashshah bitish an’anasi qadimdan mavjud bo‘lib u ijodkor badiiy mahoratining mezonlaridan biri bo‘lib

kelgan, uni yuzaga keltiruvchi badiiy san’atni esa “tavshih” deb ataganlar. Latif she’riy san’atlar va shakllar qatorida muvashshah usulida bitilgan lirik asarlar ijodkorlar adabiy merosining eng sara namunalaridan hisoblangan. Tarixan muvashshahga o‘xshash turdagi she’rlar qadimda ham ma’lum bo‘lgani, uning dastlabki namunalari yunon adabiyotidagi “akrostix” san’atiga to‘g‘ri kelishi e’tirof etiladi.

Arab adabiyotida muvashshah IX asr oxiri X asr boshlarida Kordova (Ispaniya)da yashagan arab shoiri Muqaddam ibn Muofo al-Qabriy tomonidan joriy qilinganligi qayd etiladi [Nosirov O., 2:76]. Umuman, muvashshahchilik XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari she’riyati uchun xos xususiyat sanalib, unga zamondosh bo‘lgan ijodkor shoirlarning adabiy merosida ham yetarlicha misollar anchagina.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Xorazm jadidchilik adabiyotining namoyandasi, taraqqiyparvar shoir Faqiriy ijodida ham muvashshahlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Shoirning avtograf devonida ham muvashshahlarning muallif tomonidan ko‘plab yaratilgani ushbu an’ana natijasi ekani kundek ravshan. Uning qalamiga mansub ushbu devonida 83 ta g‘azal, 1 murabba va 1 ta muammo-chistonga muvashshahlar bog‘langan.

Atoulloh Husayniy bu haqda shunday deb yozadi: “Tavshih ajam shuarosi nazdida andin iboratdurkim, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o‘rtasida bir necha harf yoki bir necha so‘z keltirurkim, ul harf yoki so‘zlarni jam’ qilinsa, bir ism yo bir laqab, yo bir misra yo bir bayt bo‘lur yoki anga o‘xshash bir nima hosil bo‘lur va bu san’atni o‘z ichiga olgan she’rni muvashshah derlar” [Husayniy, 1981: 84-85]. Bu an’ana XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida, ayniqsa, keng rivojlandi. Xususan, Toshkent, Qo‘qon va Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlar merosida muvashshah namunalarining ko‘plab uchrashi fikrimizni isbotidir.

Adabiyotshunos A. Muydinova muvashshahchilik an’anasiga bag‘ishlangan tadqiqotida aruz vaznida yaratilgan she’rlardagi muvashshahlarni quyidagicha tasniflaydi: “a) baytdagi toq misralardan; b) juft misralar yoki qofiyali misralardan; s) baytning har ikkala misrasi qo‘shaloq tarzda; d) musammatlarda har bir bandning birinchi misrasi bosh harflaridan ism yoki nom chiqishi” [Muydinova, 2023: 21-22]. Muvashshahlar eng ko‘p uchraydigan lirik janr g‘azal bo‘lib, yuqoridagi tasnifning birinchi shakli, ya’ni baytdagi toq misralarning dastlabki harflaridan kishi ismi kelib chiqadigan muvashshah-g‘azallar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Muvashshahlar, asosan, sof ishqiy mavzuga bag‘ishlanadi. “Muvashshah-g‘azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko‘proq Sharq adabiyotiga xos an’anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi” [Qayumov,1997:45]. Garchi ularda ma’shuqaning ta’rifu tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo‘ladi. Bu borada Maqsud Shayxzodaning fikri juda o‘rinli: “...muvashshah kimning nomiga bog‘langan bo‘lsa, o‘sha g‘azalda ta’riflangan obraz ham aynan mazkur kishining o‘zidir, deb o‘ylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu g‘azalning kimga bag‘ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor bus-butun boshqa bir kishi bo‘lishi mumkin” [Shayxzoda, 1973:101].

Faqiriy “Devon”ida 165 ta g‘azal, 1ta mustahzod, 23 ta muxammas, 8 ta musaddas, 14 ta masnaviy, 7 ta murabba’, 3 ta qasida, 8 ta ruboiy, 6 ta chiston-muammo [Musamuhamedova, 1974:39] mavjud bo‘lib, shulardan 83 g`azal, 1ta murabba’ ва 1ta mu’ammo muvashshah usulida bitilgan. “Devon”da muvashshah g‘azallar faqat insonlar nomiga bog‘langan emas balki “ijtimo’ ber” degan alfoz hamda “samavor” kabi buyum nomi ham chiqishi juda qiziq. Shoir Faqiriy “Devon”ida bitgan 83 nafar g‘azali baytlarida toq misralardan, juft misralar yoki qofiyali misralardan, baytning har ikkala misrasi qo‘shaloq tarzda, murabba va muammolarda har bir bandning birinchi misrasi bosh harflaridan ham shaxs ismi yoki buyum nomi yoki jarayon chiqishi muallifning nechog‘li iste’dod va iqtidorga ega ekanligini ko‘rsatib beradi.

Faqiriy devonda jami 35 nafar tarixiy shaxs nomiga muvashshah bog`lagan. Ayrim kishilar ismlari bir necha g‘azal va muxammasda muvashshah bog‘langan.

Faqiriy o‘z zamondoshlari bo‘lmish Muhammadaminjonga 5ta, Bekjon qori nomiga 5ta, Vaysniyozjonga 5ta, Otamaxdumga 4ta, Abdurahimjonga 4ta, Xudoyberganboyga 4ta, Otajonga 4ta, Muhammadsobirjonga 3ta g`azal va 1 murabba’, Abdullajonga 3ta, Jumaniyozga 3ta, Boltajonga 3ta, Rahimberganjonga 3ta, Musojonga 2ta, Muhammadrahimjonga 2ta, Hasanmurodjonga 2ta, Muhammadkarimjonga 2ta, Muhammadsolihjonga 2ta, Niyozmuhammadjonga 2ta, Yusufjonga 2ta, Muhammadsafojonga 2ta, Sayidnazarga 2ta, Mahmudniyozga 2ta hamda G`anijon, Muhammadniyozjon mirzo, Iskandarjon, Otaliqbek, Allonazarboy, Qodirbergan maxdum, Qalandarjon, Nazar hoji, Hasan Lafas,

Muhammadsharifjon, Sultonjon, Ibrohimjon, Bekjonboy bazzoz kabi ismlarga 1tadan g‘azallarni muvashshah asosida bitgan.

Albatta, bu nomlar shoir mansub bo‘lgan muhit va davraga begona emas. Ya’ni shoir tasodifiy ismlarga emas, balki o‘zi uchun yaqin va qadrli kishilarga hurmat sifatida ularning nomlariga muvashshah bog‘lagan. Yuqoridagi shaxslar bilan birga 6 ta g‘azal juft misralarida shoir o‘z nomiga ham muvashshah bitgan. Mazkur misralarda shoirning ismi Abduroziq, Abduroziq qori, Abduroziq maxdum variantlarida chiqadi.

Zamondoshlaridan 35 nafar shaxs nomiga muvashshah bog`lagan Faqiriy, shulardan 74 ta g‘azalning toq misralarida mazkur kishilar ismlari kelib chiqadigan odatiy muvashshahlardir. Biroq devondagi 9, 11, 12, 24, 32, 46, 52, 68, 121, 131 va 174 tartib raqamli g‘azallar baytlarining toq va juft misralarida mazkur kishilar ismlari takroran yoki ikkita turli ismlar yashiringan.

Faqiriyda g‘azallarning toq va juft misralarda muvashshah bog‘lanishi ham ikki turga bo‘linadi. Birinchi turi bir g‘azalning har misrasida bir tarixiy shaxs ismi takror muvashshah bog‘langan hol uchraydi. Bularga devondagi 24, 32, 46, 68 tartib raqam ostidagi g‘azallar misol bo‘la oladi. Ikkinchi turi bir g‘azalning har misrasida ikki xil turli shaxs ismiga muvashshah bog‘langan hollar ham ko‘p uchraydi. Bularga devondagi 9, 11, 12, 52, 121, 131, 174 tartib raqami ostidagi g‘azallar misol bo‘la oladi.

Devondagi 9 tartib raqamli g`azal sarlavhasida “G‘azali Faqiriy azbaroyi G‘anijon misrai avvalidin mazkur mahbub ismi izhor bo‘lur, misrai soniydin Faqirning ismi namudor bo‘lur” sarlavha ostida:

G‘oyibona xolisanlilloh duo qilg‘um sanga,
Arz holim degali sharmu hayo qilg‘um sanga.
Necha dilbarni ko‘rubman san kibi ermas harif,
Borcha ta’rifing nechuk aytib ado qilg‘um sanga.
Yuz muhabbat birla shod etding bu mahzun ko‘nglimi,
Do‘nma bu mehringg‘a o‘zni oshno qilg‘um sanga.*
Johilu ahmaqlara qildim muhabbat yozu qish,
Rost aytsam, kechdim onlardin vafo qilg‘um sanga.
Istab olamdin topa olmay sen kabi mirzo yigit,
Emdi ixlos ila o‘zni mubtalo qilg‘um sanga.**
Ne muroding bo‘lsa Haq bergay ikki olam aro,
Zor yig‘lab bu duoni borho qilg‘um sanga.
Muncha mehrim qo‘ymas erdim so‘ng so‘rab asling bilib,
Qayda ko‘rsam emdi xidmat beriyo qilg‘um sanga.

Xushso‘z-u xush xulqingga bo‘ldim ajab vobasta man,
Ul sababdin bu g‘azallarni bino qilg‘um sanga.
Zarradek ko‘nglimda yo‘qtur shumlig‘-u behudalig‘,
Rasmi odamgarligingg‘a jon fido qilg‘um sanga.
Vasfing aylab kecha-kunduz hujrada yozg‘um g‘azal,
Yo‘l tushub borsang agar xizmat bajo qilg‘um sanga…
Muncha ixlosig‘a loyiq kel Faqiring yod etib,
Yo fulav yoki chilav xo‘b ijtimo qilg‘um sanga.

G‘azal o‘qilganda toq misralar avvalidan *G‘anijon maxzum*, juft misralar avvalidan *Abduroziq qori* ismlari chiqadi. Bizni devonda Faqiriy o‘z ismiga muvashshah bog‘lagan g‘azallari e’tiborimizni tortdi.

Tadqiqotimizdan shu ma’lum bo‘lmoqdaki, Faqiriy devonidagi 9 tartib raqamli muvashshah g‘azalida toq misralar avvalidan G‘anijon, juft misralardan kelib chiqqan Abduroziq[Faqiriy, №7693:33], Faqiriy 11 muvashshah g‘azalida ham toq misralar avvalidan Mahmudniyozjon, juft misralardan kelib chiqqan Abduroziq[Faqiriy, №7693:34], 52 muvashshah g‘azalida ham toq misralar avvalidan Otamaxdum eshon, juft misralardan Abduroziq[Faqiriy, №7693:70], 121 muvashshah g‘azalida ham toq misralar avvalidan Muhammadaminjon, juft misralardan Abduroziq[Faqiriy, №7693:124], 131 muvashshah g‘azalida ham toq misralar avvalidan Muhammadsolihjon, juft misralardan Abduroziq [Faqiriy, №7693:133], 174 muvashshah g‘azalida ham toq misralar avvalidan tugallanmagan tarzda Muhammadsol…, juft misralardan Abduroziq [Faqiriy, №7693:168] nomi kelib chiqadi. Faqiriy do‘sti shoir Miskinning ushbu devoniga kiritilgan ikkita muvashshah g‘azallaridan biri, ya’ni 61 g‘azalida ham, Abdurroziq [Faqiriy, №7693:42] ismi kelib chiqadi.

Qiziqarli jihati devonda shoir o‘z nomini muvashshah bog‘laganini faqat ikki g‘azalini sarlavhasida bildirib o‘tgan: 9 “G‘azali Faqiriy azbaroyi G‘anijon misrai avvalidin mazkur mahbub ismi izhor bo‘lur, misrai soniydin Faqirning ismi namudor bo‘lur”, 11 “G‘azali Faqiriy azbaroyi Mahmudniyozjon misra’ soniydin Faqiriy”. Qolgan muvashshah g‘azallarda shoir ismini kitobxon o‘zi o‘qib topishini xohlagan shekilli, o‘rganishimiz natijasi buni ko‘rsatib turibdi: “G‘azali Faqiriy az baroyi Otamaxdum eshon”, “G‘azal Faqiriy az baroyi Muhammadaminjon”, “G‘azal Faqiriy az baroyi Muhammadsolihjon”, “G‘azal Faqiriy az baroyi Muhammadsolihjon”.

Avvalgi tadqiqotlarda tadqiqotchi shoir Faqiriyning ismini Abdurazzoq deb hisoblagan. Lekin shoir Miskinning muvashshah g‘azali

va Faqiriyning yuqorida zikr etilgan 6 nafar muvashshahlaridan ko‘rinib turibdiki, Faqiriyning ismini Abduroziq deyish mumkin.

“Devon”da Faqiriyning do‘sti - shoir Miskinning ham 2 nafar muvashshah g‘azali joy olgan. Uning bilan quyida tanishamiz:

42 (78) **G‘azali Miskin az baroyi Abduroziq 61**

Imorat aylangiz ko‘nglum uyin, vayron bo‘lg‘ondur,
Bag‘irlar hajr o‘tidin lahza-lahza qon bo‘lg‘ondur.
Deyurga arzi-holim topmayin bir munisu hamdam,
Anisim, ulfatim hijron aro afg‘on bo‘lg‘ondur.
Lab ochib dard dilni sharh etarga til erur ojiz,
Riyozat kasratidin ko‘zlarim giryon bo‘lg‘ondur.
Agarchi andalibg‘a bo‘lmadi mavjud gul vasli,
Ziyoda shavqi guldin har sahar nolon bo‘lg‘ondur.
Qilolmay doxil o‘zni majlisi oliy guharlarg‘a,
Bu g‘am girdobig‘a Miskin ketib tolon bo‘lg‘ondur.

Yuqoridagi shoir Miskinning 61 raqamli g‘azali baytlarining toq va juft misrasidan “Devon” muallifi Abdurroziq ismi kelib chiqadi.

Faqiriy zamondoshlariga bag‘ishlangan aksar muvashshah g‘azallarida mahvash, ma’shuqa, dildor, dilbar, pari, nozanin, mahliqo, mohtobon gulyuz ramzlari tasvirlangan. She’r mazmunining zamondosh shaxslarga aloqasi yo‘q. Ishqiy g‘azalga kishi nomining keltirilishi shoir g‘azalida nazarda tutilgan ism egasiga samimiy ehtiromini ko‘rsatuvchi munosabat deb qarash kerak.

Shu o‘rinda muvashshahchilikdagi bir jihat xususida ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Muvashshahlarda, asosan, erkak kishilarning ismlari qalamga olinib, ayollar ismi muvashshah qilinishi deyarli uchramaydi. Faqiriyda ham ushbu an’ana buzilmagan.

Faqiriy “Devon”ida ba’zi sabablarga ko`ra tugallanmagan muvashshahlar ham uchraydi. 73 raqamli Hasan Laffas va 174 raqamli Muhammadsolihjon ismlari sahifalar yo`qligi sababli mazkur shaxslar nomlari Hasan…, Muhammadsol… tarzida tugallanmasdan qolgan.

G‘azal Faqiriy az baroyi Muhammadsolihjon 174

Muborak gul yuzungni ko‘rsa har kim beqaror o‘lg‘ay,
Aql-hushi qochib, vasling tilab ishqingda zor o‘lg‘ay.
Harom aylab o‘ziga sandin o‘zga jumla mahvashni,
Bo‘lolmay sen bila hamdam, kuyub beixtiyor o‘lg‘ay.
Manam oydek yuzing ko‘rgach, netay ko‘nglumni oldurdim,
Desam arzim qilurman fahm hamaga oshkor o‘lg‘ay.
Davom bu qayg‘u-hasrat birla bazmi vasling istarman,

Rafiq o‘lsang edi bir kun, zimistonim bahor o‘lg‘ay.
Sabrni pesha aylab, har zamon yod aylaram tinmay,
Inim, holimg‘a rahm et, davlat, umring barqaror o‘lg‘ay.
Alifdek qomating, guldek yuzingni ko‘rmasam bir dam,
Zamon toqat qilolmay, jon-u ko‘nglum intizor o‘lg‘ay.
Labi la’ling sharobin man duogo‘yingg‘a ham xayr et,
Qadam qo‘y kulbama bir kun, imom A’zamki yor o‘lg‘ay...

Qo‘lyozmada 169-172 betlar yo‘qolgan. Lekin shunday bo‘lsa-da, toq misralardan tugallanmagan *Muhammadsol...* hamda juft misralardan *Abduroziq* nomi chiqadi.

Faqiriy ancha serqirra zehnli ijodkor, mohir xattot, naqqosh bo‘lib, o‘z zamonasining ilg‘or fikrlovchi taraqqiyparvar adibi edi. Shoir bitgan g‘azal, muxammas, hajviyotlar va she’rlarini Xiva baldasining ilmli kishilari, musiqashunoslari har ma’raka, majlis, ziyofatlarda xush ovozlik bilan o‘qiganlar. Ushbu haqda shoirning zamondoshi Laffasiy o‘z tazkirasida shunday yozadi:

Faqiriykim ajab xushado erur,
Fasohatlik tili burro erur.
Fazilatda onga monand yo‘q erur,
Hama xalq so‘zidin xushnud erur.
Nechukkim oning she’rin bayon aylasam,
Oning fe’li xulqlarin ayon aylasam.
Dedi bu g‘azalni ham ul xushado,
Ki erdi xush nuqtadonligda yakto.[Лаффасий, 1992:115]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faqiriy. Devon, O‘zFAShI, qo‘lyozmalar fondi, inv. №7693
2. Musamuhamedova P. Faqiriy hayoti va adabiy faoliyati. Filol.fanl.kand… dis. – Toshkent, 1974. – 125 b.
3. Nosirov O., Jamolov S., Ziyoviddinov M. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 182.
4. Muydinova A. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik: an’ana va individuallik. Filol.fanl.b. fals.d-ri... dis. – Toshkent, 2023.
5. Qayumov A. She’riyat jilolari. – Toshkent, O‘qituvchi, 1997. – 128 b.
6. Husayniy A. Badoyi’u-s-sanoyi’. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – 380 b.
7. Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1973.

8. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Ўрганч: Хоразм таҳририят-нашр бўлими, 1992.

TÜRK EDEBİYATINDA KADIN KARAKTERLERİNİN DÖNÜŞÜMÜ, GELENEKSEL ROLDEN BİREYSEL KİMLİĞE

AYNUR BADALOVA,
Azerbaycan devlet pedagoji üniversitesi öğretmeni,
Azerbaycan, Bakü şehri
E-mail: **badalovaaynurrr@gmail.com**

Özet: Kadın karakterler, türk edebiyatının toplumla yüzleştiği en güçlü aynalardan biridir. Türk edebiyatında kadının temsili tarih boyunca sadece estetik bir unsur gibi deyerlendirilmemelidir. Çünkü, kimi zaman efsanevi, kimi zaman mazlum, kimi zaman asi kadın karakterler Türk edebi geleneğinde hep var olmuş ama asıl dönüşüm, onun bir özneye dönüşmesiyle başlamıştır. Bu makalede, İslamiyet öncesi destanlardan günümüzün çağdaş romanlarına kadar kadın karakterlerin temsili, dönemin sosyal yapısıyla ilişkilendirilerek incelenenmektedir.

Anahtar kelimeler: karakter, edebiyat, kadın, toplum, dönüşüm.

Abstract: Female characters are one of the most powerful mirrors that Turkish literature confronts with society. The representation of women in Turkish literature should not be evaluated as merely an aesthetic element throughout history. Because, sometimes legendary, sometimes oppressed, sometimes rebellious female characters have always existed in the Turkish literary tradition, but the real transformation began with her transformation into a subject. In this article, the representation of female characters from pre-Islamic epics to today's contemporary novels is examined in relation to the social structure of the period.

Keywords: character, literature, woman, society, transformation.

Giriş

Edebiyat, yalnızca kurgu anlatmıyor, aynı zamanda bir dönemin vicdanını, değer yargılarını ve değişim arayışlarını da içinde taşır. Bu bağlamda kadın karakterlerin edebiyattaki temsili, tarih boyunca toplumun kadına bakışını yansıtan bir aynadır. Kadın kimi zaman kutsal bir anne, kimi zaman suskun bir sevgili, kimi zaman da zincirlerini kırmak isteyen bir birey olarak karşımıza çıkar. Türk edebiyatında kadın figürü, her dönemin sosyal yapısına göre farklı anlamlar yüklenerek varlığını sürdürmüştür. İslamiyet öncesi destanlardan başlayarak Divan, Halk, Tanzimat, Servet-i Fünun, Cumhuriyet ve nihayetinde modern döneme

1. Azərbaycan dili lüğət tərkibinin zənginliyi;
2. Nizaminin sözyaratma qabiliyyətinə malik zehni və istedadı.

Bu iki xüsusiyyət fars dili lüğət tərkibinin zənginləşməsinə, yeni-yeni ifadə və tərkiblərin yaranmasına səbəb oldu. Qeyd edək ki, azərbaycanlılar bu gün də bu tərcümə metodundan, müasir dövrün ifadəsi ilə desək, kalka üsulundan fars dilində danışan zaman istifadə edirlər".

Maraqlıdır ki, Ə.Məmmədovanın vurğuladığı bu dil faktorunu Nizaminin xələfi olan, türk dünyasının böyük şairi Əlişir Nəvai də üç yüz il sonra "Mühakimətul-lüğəteyn" əsərində verir. O qeyd edir ki, "türk sözlərini yaradanlar nitqlərini daim təkmilləşdirmiş və özəl məfhumları ifadə etmək üçün sözlər yaratmışlar ki, bu sözləri yalnız bu dili bilən izah etdiyi zaman (sartlara (farslara) – M.Şəhla) aydın olur".

Nizami yaradıcılığının məzmun xüsusiyyətləri: Qeyd ediləsi məqamlardan biri də "Xəmsə"də şərt budaq cümlələrinin sintaktik quruluş baxımından dəyişiklərinin izlənməsidir. Burada da "xüsusi şərt şəklinin işlənmə xüsusiyyəti Azərbaycan dilindən edilmiş tərcüməni xatırladır. Diqqət edək, görək türk oğlu türk Nizami nə deyir?

بیاموزم تـــــرا گر کار بندی ،
که بی گریه زمانی خوش بخندی.
چو خندان گردی از فرخنده فالی،
بخـــندان تنگد ستی را به مالی .

/beyamuzəm, to-ra gər kar bəndi,
Ke bigeriye zəmani xəş bexənd.
Ço xəndan gərdi əz fərxonde hali,
Bexəndan təngdəsti-ra be-mali/
(Bir şey öyrədərəm, dinləsən əgər,
Könlün heç ağlamaz, hər zaman gülər.
Xoşbəxtlikdən özün gülən zaman bir
Yoxsula pay verib, onu sevindir)".

Dördüncüsü, alim tədqiqata cəlb etdiyi Nizami "Xəmsə"si ilə bərabər, "Xəmsə"nin müxtəlif əlyazmalarına, qədim mənbələrə, Nizami əsərlərinə müxtəlif dövrlərdə yazılmış şərhlər və araşdırmalara da üz tutmuş, dünyanın tanınmış nizamişünas alimlərinin əsərlərini də tədqiqata cəlb etmiş, bununla kifayətlənməyib, onlara da obyektiv qiymət vermişdir. Özünün də qeyd etdiyi kimi, "tədqiqatçı araşdırmasını elmi arenada birmənalı təsdiqini tapmış, etibarlı mətnlər üzərində aparmalıdır" prinsipinə sadiq qalmışdır. Bunu filoloji tədqiqlərə cəlb etdiyi ədəbiyyatın zənginliyi də təsdiq edir.

Nəhayət, Əsmətxanım Məmmədovanın monoqrafiyasının mükəmməl alınmasının səbəbi artıq özünün təcrübəsi və elmi-pedaqoji fəaliyyəti ilə Azərbaycan şərqşünaslığında öz imzasını atmış məhsuldar tədqiqatçı olmasıdır. Çünki o, şərqşünaslığın təməlini qoymuş müqtədir müəllimlərin yetirdiyi mükəmməl tələbə, fakültənin özünəməxsus elmi-pedaqoji təcrübəsini və ənənələrini yaşadan canlı tarixi və şərqşünaslığın qızıl dövrünün barmaqla sayılacaq qədər az qalmış sonuncu mogikanlarından biridir. Bütün bunlarla yanaşı, Əsmətxanım Məmmədova bu monoqrafiyada illərlə araşdırdığı Nizami irsinə bütün əməyini səfərbər etmiş, Nizami ruhuna dərin ehtiramla hər cümlənin, hər sözün üzərində titrəmiş, "Xəmsə"ni zərgər zərifliyi və dəqiqiliyi, sərraf gözü ilə işləmiş, sözün əsl mənasında, ustad bir alimdir.

Əsərdə Azərbaycan nizamişünaslığında bir çox məsələlərə (xüsusən də fonetik hadisələrə) ilk dəfə toxunulsa da, Ə.Məmmədova qeyd edir ki, "onu demək istərdik ki, Nizami dili sintaktik baxımdan demək olar ki, heç tədqiqata cəlb olunmamışdır. Ancaq bu baxımdan "Xəmsə" məsnəviləri maraqlı faktlarla zəngindir. Tədqiqat boyu Nizami dilinin müxtəlif xüsusiyyətləri, özəllikləri kimi sintaktik tərkibinin araşdırılması, bir tərəfdən şairin söz sənətinin öyrənilməsi cəhətdən maraqlıdırsa, başqa bir cəhətdən onun yaşadığı dövrdə fars dilinin, Azərbaycan dilinin (çünki bir çox dil hadisələri Nizami qələmində dilimizdən kalka üsulu ilə yazdığı dilə çevrilmişdir) müxtəlif cəhətlərinin tədqiqi baxımından da diqqət cəlb edəndir".

Monoqrafiya qeyd etdiyimiz bu mühüm cəhətləri və bir çox özəlliyi ilə nizamişünaslıqda bir yenilik olub Nizami irsinin ilk dəfə olaraq məhz bu istiqamətdə araşdırılmasına bir zəmin yaratmış və gələcək tədqiqatçılara yeni bir cığır açmışdır. İnanırıq ki, əsər bütünlükdə Azərbaycan filologiyasında, xüsusən də nizamişünaslığında çox dəyərli araşdırma olub, həm dilçilik, həm də ədəbiyyatşünaslıqda saysız istinad verilən ən mötəbər mənbə olacaqdır.

Həqiqətdə irrasionalliq və rasionalliğin vəhdəti: Bəşər övladı dünyanı anlamağa başladığı, fikirləşməyi öyrəndiyi andan həqiqət axtarışına çıxır. Həqiqəti axtarmaq həm onun həyatının mənasına çevrilir, həm də xoşbəxtlik haqqında düşüncələrinə bir istiqamət vermiş olur. Bu yolda insanlar daha çox filosofların, mütəfəkkirlərin əsərlərinə üz tuturlar. Həqiqət axtarışı filosofların, müdriklərin bütün dövrlərdə düşündürüb və onların həqiqət haqqında fikirləri sonralar ayrı-ayrı məktəblər, cərəyanlar, təriqətlər yaradıb. Bu cərəyanlardan da yeniləri, daha fərqliləri meydana gəlmişdir. Hər yeni yaranan cərəyanda filosoflar fərqlilikləri ilə bərabər, öz fərdiliklərini təqdim etmiş və bu fərdiliklə fəlsəfəyə yeni nəfəs gətirmişlər.

Sufi fenomenologiya nədir? Elə müasir dövrümüzün fəlsəfəsində öz sözünü demiş alim, akademiyanın müxbir üzvü, fəlsəfə elmləri doktoru Könül Bünyadzadənin illərlə apardığı tədqiqatlarının nəticəsi olaraq yaratdığı, dünya fəlsəfəsi tarixində bir ilk olan yeni fəlsəfi sistem – "Sufi fenomenologiyası" kimi.

Əvvəla qeyd etmək yerinə düşərdi ki, K.Bünyadzadənin indiyə qədər hər biri fərqli mövzularda 15-a yaxın tədqiqat əsəri nəşr edilib. Bu mövzulardan bəzisi ona qədər araşdırılmış olsa da, alim öz tədqiqatlarında əvvəlki fikirləri heç də təkrarlamamış, sözünü demiş, baxış bucağını təqdim etmiş, yeni, deyilməmiş fikirlər irəli sürmüş və nəticədə, öz versiyasını verə bilmişdir. Bu monoqrafiya isə onların belə fövqündə duran bir əsərdir. Çünki fəlsəfədə yeni bir sistemin, yeni istiqamətin təməlini qoymuşdur. Məlumdur ki, hər hansı elm sahəsində yeni söz, yeni ideya vermək alimin üzərinə çox böyük məsuliyyət qoyur. Alim özü də yeniliyi yaratmanın çətinliyini vurğulayaraq qeyd edir ki, "fəlsəfədə söz demək çox çətindir. Çünki bunun üçün özündən əvvəlki sözləri "eşitmək", anlamaqla yanaşı, cəmiyyətə həmin məqam, dövr üçün lazım olan sözü də bilməlisən, yoxsa dediyin hər söz bir məqalə, yaxşı halda kitab səhifəsindən kənara çıxa bilməyəcək" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :19-20].

Adından da göründüyü kimi, Sufi fenomenologiya iki cərəyanı özündə birləşdirir. Müəllif yeni yaratdığı sistemin tərifini belə verir: "Sufi fenomenologiya müasir dövrün böhranında boğulan insana düşüncə üfüqü açmaq üçün yazılmış bir fəlsəfədir. Bu sözlər sufi fenomenologiyanı xarakterizə edən ilk dəqiq ifadədir" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :s.21]. Alim tədqiqatının mənbəyini də əvvəlcədən qeyd edib iki əsas istinad nöqtəsini göstərir: "Sufi fenomenologiyada termin olaraq eydos Hüsserl fəlsəfəsinə istinad edir, ona yüklənən məna isə İslamdan, daha fəqiq desək, sufizmdən qaynaqlanır" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :35].

Kitab eydos üzərində qurulmuş, bir-birinə zəncirvarı bağlanmış eydoslar sistemini təşkil edir. Eydos – nöqtədir. Yaradılışda hər şey nöqtədən başlanır. Yazacağımız sözün ilk hərfini nöqtə qoyaraq, çəkəcəyimiz düz xətti nöqtə qoyaraq, gedəcəyimiz yolun istiqamətini nöqtə qoyaraq başlayırıq istənilən işə. Və bütün hallarda bu kiçik nöqtə böyük ideyaya, böyük hərəkətverici qüvvəyə çevrilərək insan həyatında böyük hadisələrə, dönüşlərə, uğurlara, elmi-texniki inqilablara səbəb olur.

Eydos – nöqtə, eydos – ideya, eydos – şüur, eydos – ağıl və bütün bunlar eydosda birləşmişdir. Eydos – həm də həqiqətdir. Eydosun – həqiqətin irrasionallıq (burada: mücərrədlik, din, irfani elm, görünməyən) və rasionallıqda (burada: elm, dəqiq olan, konkretlik) vəhdətinin sistemli və müqayisəli şəkildə araşdırılıb əsaslandırılması tədqiqatın canını, ruhunu təşkil edir. Bu zaman insan faktoru önə çıxır və "sufi fenomenologiyada eydos və eydedik strulturların dərki vasitəsilə insan universal vəhdətin bir zərrəsi olduğunu dərk edir" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :74].

Professor insan şüurunun hüdudsuzluğunu məhz ali qüvvədən aldığı nurdan olması səbəbində görür və qaranlığa – bilinməyənlərə aydınlıq gətirməklə idrak prosesində mühüm rol oynaya bilir. O, həm işraqilik fəlsəfəsinə istinad edir, həm də öz münasibətini bildirir: "Şihabəddin Sührəverdinin İşraq fəlsəfəsinə görə, hər varlıqda Nurlar Nurundan (Yaradandan – K.B.) bir zərrə var. Sufi fenomenologiyada Nurlar Nuru Yaradan özü deyil, Onun yaratdığı vahid işıq selidir" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :255]

Həqiqətin iraasionallıq və rasionallıqda vəhdəti:

İrrasional və rasional biliklər əsasında verilən iddiaların dəqiq və əsaslı olması tədqiqatın diqqət çəkən cəhətidir. Bunun da səbəbi alimin həm dini-irfani, həm də dünyəvi biliklərə (xüsusən də fizikaya) dərindən vaqif olması, həmçinin mənbələri orijinal dillərdə oxumasıdır ki, kitabın uğurlu alınmasının ilk və vacib şərtidir.

Kitabın uğurlu alınmasının ikinci səbəbi müəllifin həqiqətdə irrasionallığın və rasionallığın vəhdətini Qərb və Şərq fəlsəfəsi müstəvisində həm müqayisəli, həm də müştərək araşdırmasıdır. Bu da filosofun öz mövqeyinə həddən artıq obyektiv və məsuliyyətlə yanaşmasıdır. Ta qədim tarixdən başlayaraq günümüzüdək Şərq və Qərb mütəfəkkirlərindən verilən istinadlar bu monoqrafiyanın dəyərini bir qədər də artırır. Hər iki fəlsəfəni araşdıran müəllif bu qənaətə gəlir ki, "hər ikisində ümumi olan bir proses müşahidə olunur: elmin yalnız rasional biliklərə istinad etdiyini qəbul edərək insanın fiziki və ruhani imkanları birləşdirilmir" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :87].

Kitabın maraq doğuran daha bir xüsusiyyəti elmi və fəlsəfi istilahların bol-bol işlənməsinə baxmayaraq, dilinin aydın, rəvan, hamı üçün anlaşıqlı, oxunaqlı olmasıdır. Çərçivəvari verilmiş mülahizələrdə oxucunun özünün də qeyri-ixtiyari bu mülahizələrə qoşularaq müəlliflə bərabər fikir yürütmək, onunla düşüncələrini bölüşmək hissini keçirməsi filosofun tədqiqat boyu yenə də insan faktorunu vacibliyini vurğulamağından irəli gəlir. "Nüvə və mümkün eydosdan başqa, bütün varlıqlarln strukturuna daxil olmayan, ancaq onunla bərabər var olan ruh və zaman eydosları mövcuddur. Onların mahiyyətini tanıyan və bundan istifadə edən tək varlıq insandır" [Bünyadzadə, 2024. IIc. :53].

Kitabın təkcə alimlər üçün deyil, pedaqoji sahədə çalışan, böyüyən nəslin təlim-tərbiyəsi ilə məşğul olan müəllimlər üçün də nəzəri cəhətdən bir əyanı vəsait kimi əhəmiyyəti çoxdur. Çünki müasir təhsil sistemində pedaqoji işin təşkilinə verilən tələblərin məhz bilik və bacarıqlar üzərində qurulmasını nəzərə alsaq, kitabda bu tələblərin insan təbiətindəki və cəmiyyətdəki roluna dair kifayət qədər nümunələrin yer aldığı görünür. Məsələn, "elmi sistemin qurulmasında yalnız rasional, insan tərəfindən artıq dərk edilmiş və buna görə də ümumiləşmiş biliklərdən istifadə olunur. Bu biliklərin təməlində isə həm də irrasional üsulla qazanılan həqiqətlər durur. Başqa sözlə desək, həqiqətləri mənimsəmək üçün şüur həm fiziki korrelyatlardan, həm də ruhun köməyindən istifadə etməlidir. Hər iki metod paralel, ya da bir-birini tamamlayarsa, elm inkişaf edər və insanlığa xidmət edər" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :85].

K.Bünyadzadə sufi fenomenologiyanı yaratmaqla kifayətlənməmiş, həmçinin onun metodologiyasını da sistemli şəkildə hazırlamışdır. Yəni bundan sonra bu istiqamətdə tədqiqatlar aparacaq tədqiqatçılar üçün də sufi fenomenologiyanın metodoloji sistemini, onların yolunu müəyyənləşdirəcək bir proqramı vermişdir.

Həqiqət axtarışına çıxan və "yeni dövrün əsasını qoyan Dekart həqiqəti dərk etmək üçün müxtəlif elmləri öyrəndiyini, lakin yenə də ona lazım olan elmi tapmadığını bildirir" [Bünyadzadə, 2024. Ic. :20]. Amma bunun əksi olaraq, "Sufi fenomenologiya"nı oxuyan, onu dərk edən hər bir oxucuda kitabın müəllifinin hədəfinə çatdığına inam hissi özünü büruzə verir. Belə güclü məna tutumlu tədqiqatın tezliklə dünya fəlsəfəsində çox böyük marağa səbəb olacağına və yeni-yeni tədqiqatlara yol açacağına inanırıq.

Nəticə:

Alim fars dilinin əsas fonetik qanunu olan fonetik məhdudiyyət qanununu və ondan törəyən fonetik hadisələrin hər birini ilk dəfə olaraq

Nizami “Xəmsə”si əsasında tədqiq edib; Filoloji tədqiqlərdə Nizami “Xəmsə”sinin orijinalında tədqiq edilərək dil və ədəbiyyat məsələlərinin dərindən işlənilməsinə və məna incəliklərinin daha dəqiq verilməsinə nail olunmuşdur; Şair yeni tərkib, ifadələr yaratmaq baxımından fars dilində yazan ən məhsuldar yaradıcıdır; “Xəmsə”də şərt budaq cümlələrinin sintaktik quruluş baxımından dəyişikləri izlənilmişdir.

Dünya fəlsəfəsində bir ilk – yeni fəlsəfi sistem Sufi fenomenologiya yaradılmışdır; Bu yeni sistemdə elm və din vəhdətdə tədqiq edilmişdir; Araşdırmaya həm Şərq, həm də Qərb elm və din xadimlərinin fikirləri cəlb edilmiş və onların müqayisəli tədqiqatı aparılmışdır; Müxtəlif elm sahələri arasında inteqrasiyasına toxunulmuşdur; Tədqiqatın pedaqoji sahədə də tətbiqi müsbət nəticələr verər.

Ədəbiyyat:

1.Məmmədova, Ə. Nizami Gəncəvi yaradıcılığı üzrə filoloji tədqiqlər. Bakı: Elm və təhsil, 2022, 408 səh.

2. Навоий, Алишер 1970, Сочинения (в 10-ти томах) т.X, Ташкент, изд. Фан, 198 с.

3. Bünyadzadə, K. 2024. Sufi fenomenologiya. Bakı, Zərdabi LTD, (iki cilddə), I cild,

4. Bünyadzadə, K. 2024. Sufi fenomenologiya. Bakı, Zərdabi LTD, (iki cilddə), II cild,

KELIN OBRAZINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA FOLKLOR BILAN ALOQASI

Mamadaliyeva Gulnavozxon Dilshod qizi,
NamDU tayanch doktoranti,
E-mail: *gulnavozhan@ gmail.com*
Tel: (+99897) 572-17-71

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek folklorida kelin obrazining shakllanishi, uning tarixiy, ijtimoiy va estetik rivojlanish bosqichlari xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali tahlil asosida yoritilgan. Kelin obrazining asosi sifatida, o‘zbek folklorida o‘rni va ularning hayotbaxshligini ta’minlovchi kategoriya ekanligi e’tirof etiladi va masalaning aynan mana shu tomonlariga e’tibor qaratiladi. Kelin obrazining yaratilishi masalasi umumbashariy hamda milliy qadryatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, o‘zligini namoyish etuvchi jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu obraz orqali o‘zbek xalqining qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari

ifodalangan. Maqolada kelin obrazning tarixiy rivojlanishi, og‘zaki xalq ijodi bilan chambarchas bog‘liqligi, dastlabki ko‘rinishlari va hozirga qadar takomillashgan shakllari o‘rtasida uzviylik mavjudligi xususida fikrlar atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek folklori, kelin obrazi, ayol qiyofasi, qadriyatlar, marosim qo‘shiqlari, doston, ertak, o‘lan, maqol.

Annotation: In this article, the formation of the image of the bride in Uzbek folklore, the stages of its historical, social and aesthetic development are covered on the basis of analysis through examples of folklore. As the basis of the image of the bride, its place in Uzbek folklore and the category that ensures their vitality are recognized, and attention is paid to these aspects of the issue. The issue of the creation of the image of the bride, which embodies universal and national values, and shows its identity, is shown. Also, the values, traditions and customs of the Uzbek people are expressed through this image. The article elaborates on the historical development of the image of the bride, its close connection with oral folk art, the existence of continuity between its initial appearances and its improved forms until now.

Key words: Uzbek folklore, the image of the bride, the image of a woman, values, ritual songs, epic, fairy tale, olan, proverb.

O‘zbek adabiyoti o‘zining boy an’analari va qadryatiga ega bo‘lgan milliy madaniyatning ajralmas bo‘lagidir. Xususan, ayollar timsoli ishtirok etmagan san’at sohasining o‘zi bo‘lmasa kerak. Adabiyotda, aynan, kelin obrazining shakllanishi va taraqqiyoti, xalq hayoti, ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy mezonlarning ifodasi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Kelin obrazi – bu nafaqat oila doirasidagi ayol timsoli, balki butun jamiyatdagi ayollik sadoqati, fidoyiligi va ma’naviyati ifodasi. Bundan tashqari, u xalqning turmush tarzi, axloqiy me’yorlari, urf-odatlari va estetik qarashlariga mos holda shakllanib kelgan. Ayniqsa, bu obrazning tarixiy rivojlanishi xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida — dostonlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, afsonalar va marosim qo‘shiqlarida kelin obrazining eng qadimiy shakllari aks etgan. Bu obrazlar asosan sabr-toqat, itoat va vafodorlik, go‘zallik va mehr kabi asosiy fazilatlar bilan ifodalangan. Xalq og‘zaki ijodida kelinning nomini ulug‘lab, unga xos sifatlar ta’riflanib marosimlarda qo‘shiqlar kuylangan. Masalan, Surxandaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining ayrim joylarida kelinning kuyovning uyiga olib kirishda uy ostonasiga to‘shalgan poyondozni bosib o‘tgandan keyin, qaynonasi “xush keldingiz” aytimini aytadi. Uning atrofidagilari jo‘r bo‘lib “hazorali” deb turishadi.

Hazorali, hazorali,
Oftobim, anbarim xush keldingiz.
Jonim, oltim anbarim, xush keldingiz.
Hazorali, hazorali,
Davlat boshingizda bo‘lsin, xush keldingiz.
Himmat qo‘lingizda bo‘lsin, xush keldingiz.

“Xush keldingiz” kuyovning xonadoniga yangi a’zo bo‘lib kelgan kelinning poyqadami oq bo‘lsin degan ma’noda yatilgan.

Kelinchakning kuyovning yaqin qarindosh-urug‘lari bilan tanishtirish marosimida kelin salom yoki betochar qo‘shiqlar aytilgan.

Ichi qazon kuyasi,
Qanqov gapning uyasi,
Eshitib olsin ammasi,
Sizga salom yor-yor,
Kelin salom yor-yor.

Aslidan “Kelin salom” matni avvaldan bir xil shaklda bo‘lgan, kayvoni tildan, xuddi, yangi kelinning qarindoshlariga mos tushadigan qilib, hozirgina yaratilganday tuyuladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida laparlar nikohdan bir-ikki kun oldin kelin bo‘lib tushadigan qizning uyida ijro etilgan.

Oq jaydari yigitning,
Oq o‘tovi bor ekan.
Oq o‘tovning ichida,
Oy kelinchak bor ekan. [Murodova.M, 2008: 42.]

Bundan tashqari kelin har qanday sinov va qiynchilikka chidamli, hayotning mashaqqatlariga bardoshli ayol sifatida gavdalangan. U ko‘pincha oila qadriyatlariga sadoqatli, eriga va qaynona-qaynotasiga hurmatli shaxs sifatida namoyon bo‘lgan. Bu kabi xususiyatlar, ayniqsa, dostonlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Bu kabi sifatlar ayniqsa, dostonlar tarkibida kelgan o‘lanlarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Alpomish” dostonida Qultoy va Barchin tilidan o‘landa aytib o‘tilgan.

Barchin kelin, yor-yor,
To‘qinganing gilamdir,
Qarchin kelin, yor-yor.
Tikib bergan belbog‘ing,
Ado bo‘ldi, yor-yor.
Belbog‘likka yaraymi,
Charchin kelin yor-yor.
Barchin:

O‘lan aytib bandi bo‘g‘nim, bo‘shatma-chi yor-yor,
Sog‘ suyagim joy-joyidan shovshatma -chi yor-yor,
Dovushingni alpimga o‘xshatmachi yor-yor. [Zarifov.M, 1996: 567]

Shuningdek, “Yusuf va Ahmad” dostonida ham kelin obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu dostonda kelin bilan bog‘liq maqol yoki iboralar va kelin obrazining dunyoqarashi, hayotdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, “Kelishmaganning kelini do‘ng qo‘yar emish”, “Kel-e, kelar gaplarni kelin aytarmish” kabi. Dostonda Gulasal kelin obrazi orqali o‘zbek ayollarga xos bo‘lgan harakterni ifodalab berilgan.

Inson bor ekan, ertak bilan o‘sib ulg‘ayadi, o‘zining qalb qo‘rini ertak bilan boyitadi. Dunyoda ertak bor ekan, odamlar xonadonida chiroq hech qachon o‘chmaydi, ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishar ekanmiz ertaklarida ham kelin obrazini tashqi go‘zallik bilan birga mehribon, oqila va xushmuomala inson sifatida tasvirlanganligiga givoh bo‘lamiz. “Nima eksang, shuni olasan”, “Kulsa-gul, yig‘lasa-dur” va “Tohir va Zuhra” ertaklarida kelin obrazi turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq ertaklarida kelin ko‘pincha kuchli va jasoratli ayol sifatida tasvirlanadi. Bunday ertaklarda kelin ko‘pincha o‘ziga va o‘zining oilasiga, turmush o‘rtog‘iga muhabbat va sadoqatini ko‘rsatgan holda, qiyinchiliklarni yengadi va baxtli hayotga erishadi. Kelin tasviri o‘zbek xalqining qadriyatlari va urf-odatlariga chuqur bog‘liq bo‘lib, oilaviy hayotning yuksakligini, samimiyatini va o‘zaro hurmatni aks ettiradi. Ammo hamma ertaklarda ham bunday tasvirda uchramaydi. Masalan, “Nima eksang, shuni olasan” ertagida kelin obrazi an’anaviy sadoqat, iffat va go‘zallik timsolida emas, balki, ota va o‘g‘ilni bir-biridan ayrimoqchi bo‘lgan, dangasa, qo‘pol va sabr-matonatsiz obraz sifatida tasvirlangan. O‘g‘il nogiron otasiga qarashdan bosh tortgan xotinining gapiga kirib, otasini adashtirib kelish maqsadida uydan olib chiqadi. Hech kim yurmas yo‘lda tosh ustiga o‘tirib turishini, ishlari tugagach olib ketishini aytadi. Shunda chol kuladi. O‘g‘il nega kulyapsiz? – deb so‘raydi. Shunda chol, bir paytlar men ham onagni gapiga kirib, o‘z otamni adashtirib kelgan edim. “Qaytar dunyo ekan” – deb javob beradi. O‘g‘il otasidan bu gapni eshitib: “Nimani eksang, shuni olasang” degan maqol yodiga tushdi. Shundan so‘ng, yigit otasini xo‘rlagani uchun o‘kinib, otasini opichlab uyga qaytadi va o‘zi parvarishlay boshlabdi. [Mahmudov.M, 1997: 97]

Kelin obrazining folklor va yozma adabiyotdagi ifodalanishi o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Folklorda vujudga kelgan qadimiy arxetiplar, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy norma sifatida qaralayotgan

kelinchak timsoli yozma adabiyotda zamon va ijtimoiy voqeliklarga moslashtirilib takomillashtirilgan. Shu bois, adabiy tahlil jarayonida folkloriy manbalarga murojaat qilish, kelin obrazining o‘zgaruvchanlik tabiati va barqaror arxetipik xususiyatlarini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelin obrazi o‘zbek adabiyoti va folklorida tarixan barqaror, ammo zamonaviy sharoitlarda moslasha oluvchi timsollardan biridir. U orqali milliy madaniyat, oilaviy qadriyatlar, ayollik fazilatlari, hamda jamiyatdagi o‘zgarishlar aks ettiriladi. Folklor — bu obrazning ildizidir, yozma adabiyot esa uning tahliliy va zamonaviy talqinidir. Kelin obrazining tahlili o‘zbek adabiy tafakkuri va ijtimoiy ongining shakllanishi tarixini tushunishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov M. O‘zbek xalq ertaklari. Oltin beshik. – Toshkent: Cho‘lpon, 2019. – 232 b.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 270 b.
3. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 517 b.
4. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 100 b.
5. Quronov.D, Mamajonov Z, Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 180 b.
6. Samadov A. O‘zbek xalq ertaklari. Maslahatgo‘y kelin, – Toshkent: Meriyus, 2011. – 48 b.
7. Samandarova L. O‘zbek nasri va nazmida foklor an’analari. – Urganch: Xorazm nashr matbaa, 2023. – 64 b.
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004. – 160 b.
9. Sulaymonov M. Uslubiy qo‘llanma, O‘zbek folklori. – Namangan, 2019. – 99 b.
10. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 390 b.
11. Zarifov M. O‘zbek xalq dostonlar. Alpomish. – Toshkent: Yangiyul Polygraph Service, 2019. – 579 b.

QO‘QON ADABIY MUHITI SHOIRLARI IJODIDA MULAMMA’ ASARLAR

Rasulova Nigora Kurbonovna,
SamDU tayanch doktaranti,
Tel: (97) 578-21-23 (rasulovan1985@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVIII-XIX asrlarda shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti, bu muhitda qalam tebratgan ijodkorlar ijodida ikki til imkoniyatlari asosida yaratilgan mulamma’ asarlar, ularning o‘ziga xosligi xususida to‘xtalib o‘tiladi.

Bu davr adabiyotida zullisonaynlik keng rivoj topdi.O‘zbek tili bilan bir qatorda fors-tojik tilda ijod qilish an’ana tusini oldi. Adabiyotda mavzu ko‘lami kengaydi, ijtimoiy hayotdagi vaziyatlar adabiyotda bo‘y ko‘rsata boshladi. Bu davrda Amiriy boshchiligidagi adabiy muhit gullab-yashnadi. Ikki til asosida mulamma’ usulida she’rlar yozish yuqori bosqichga chiqdi. Mulamma’ usuli g‘azallardan tashqari muxammaslar, musaddaslar, tarje’bandlarda ham keng qo’llandi. Bir she’riy asar tarkibida ikki til elementlarini uyg‘un holda qo’llash ijodkordan katta mahorat talab etadi. Mulamma’ usulida yaratilgan asarlar shoirlarning o’ziga xos mahoratidan darak beradi. Shoirlar tomonidan tartib berilgan devonlarning debocha qismlarida ham mulamma’ usulida yozilgan she’rlarni uchratish mumkin. Davrning Shermuhammad Akmal, G‘oziy, Sadoyi, Maxmur kabi ijodkorlari ijodida mulamma’larning go’zal ko’rinishlari uchraydi.

Kalit so‘zlar: Maxmur, Nodira, Shermuhammad Akmal, G‘oziy ,shir-u shakar, g‘azal, mustazod.

Abstract: This article explores the literary environment of Kokand that emerged in the 18th–19th centuries, focusing on mulamma' (macaronic) works composed by poets who wrote in this milieu using the expressive potential of two languages. During this period, the phenomenon of zullisonayn—fluency in and literary use of both Uzbek and Persian—became widespread. Writing in both Uzbek and Persian gradually turned into a literary tradition. The scope of themes in literature broadened, and contemporary social realities began to be reflected in literary works. Under the leadership of Amiri, the literary circle of the time flourished. The art of composing mulamma’ poems—works interwoven with two languages—reached a high level of sophistication. This stylistic method was not limited to ghazals, but was also widely applied in poetic forms such as mukhammases, musaddases, and tarji'bands. Creating a harmonious integration of two linguistic elements within a single poetic text required

great skill on the part of the poet. These mulamma' works are a testament to the poets' distinct craftsmanship. Such poems can also be found in the introductory sections (debochas) of divans compiled by poets of the time. Beautiful examples of mulamma' poetry can be found in the works of poets such as Shermuhammad Akmal, G'oziy, Sadoyi, and Maxmur.

Keywords: Maxmur, Nodira, Shermuhammad Akmal, G'oziy, shir-u shakar, ghazal, mustazad.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotimizning juda ko'p vakillari zullisonayn – ikki til egasi bo'lib, ikki tilda ham barakali ijod qilganlar. Xususan, Qo'qon adabiy muhitida kamol topgan Gulxaniy, Maxmur, Ma'dan, Nodira, Uvaysiy, G'oziy singari ko'pgina shoirlar o'zbek va fors-tojik tilida chiroyli va yetuk she'rlar bitganlar. Ikki tilli ijodning rivoj topishi xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlikning, madaniy-ma'naviy aloqalarning mustahkamlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga ayrim fors-tojik shoirlari o'zbek tilida ham she'rlar bitganlar. Bu davrda bir she'rni ikki tilda yozib, she'rga o'ziga xos jilo berish an'ana tusini oldi. Natijada mulamma' keng rivoj topdi.

Mulamma'- har misrasi yoki bayti boshqa bir tilda yozilgan she'r[Salayev145].O'zbek adabiyoti tarixida mulamma' san'atining yorqin namunalari Temuriylar davri she'riyatida keng uchrasa ham, bu badiiy san'at Qo'qon adabiy muhiti she'riyatida yanada rivoj topdi. Buning muhim sababi o'zbek va tojik xalqlari uzoq asrlar davomida birga, yonma-yon yashaganligidadir. XVIII asr o'rtalarida o'z iste'dodlari va asarlari bilan o'zbek va tojik mumtoz adabiyoti tarixidan munosib joy olgan Maxmur, Ma'dan, Uvaysiy, Nodira, Shermuhammad Akmal, G'oziy, Nodir Xo'qandiy kabi shoir va shoiralar she'riy ijodda katta nufuzga ega bo'lganlar. Shermuhammad Akmalning 28 banddan iborat muxammasi o'zbek va tojik tillarida yozilgan.Bu muxammasning oxirgi beshliklari quyidagichadir:

Shu'layi havvolasan yo sho'x otashporasan,
Jonima o'tlar yoqib, ko'nglimni o'rtab yorasan,
Gah jafo tig'in olib qo'lg'a, yuragim yorasan,
Goh-gohi rasmi reshi dil bila bemorasan,
Harchi sozi bar dili be kiyna taslim ovarast.
Maryami la'lat masehi bo'sa harjo kard fosh,
Tokay, ey gul, xori hajrat siynaam sozad xarosh,
Sajdayi shukri turo gardand mushtoqon talosh,
Rahm kun bar Akmal oxir butiyi kofir maosh.

Umrho shud dar g‘amat gulxannishini axgarast [Qayumov, 1961:45].

Shu bilan birga Muhammad G‘oziy ham tojik adabiy tilini mukammal egallab, ikki tilda go’zal mulamma’lar yaratgan.G‘oziyning bir bandi o‘zbekcha, bir bandi tojikcha yozilgan musaddasi na’t mulamma’ning yorqin namunasidir.

Orazingdin oftobi olam oro muzmahil,
To’biyi firdavs ermish qomatingdin munfail,
Tishlaring fikri bila ummon aro gavhar xijil,
Kokiling sharmandasidur nofai xuchini chigil,
Assalotu assalom,ey kabai ahli vafo,
Marhabo, ey sayyidi xayrul-bashar, yuz marhabo.

Karda gul az sharmi ruxsori araqnoki taraq,
Mehr az tobi ruxat simob oso dar qabaq,
Az hama xo’boni olam burda dar xo’bi sabaq,
Shud zi imoi sar angishti tu qursi moh shaq,
Assalot,ey muqtadoi avvalinu oxirin,
Vassalom, ey zoti pokat rahmatixil-olamin [Qayumov, 1956: 37].

Shuningdek, G‘oziyning “Ey sho‘xi sumanbari shakarlab” deb boshlanuvchi 9 bandli tarje’bandi ham fors-tojikcha va o‘zbekcha mulamma’ usulida yozilgan bo’lib, 5 bandi fors-tojikcha, 4 bandi o’zbekchadir. G‘oziyning betakror ijodida mulamma’ usulida bitilgan mustazodlar ham uchraydi. Ayrim mustazodlarning birinchi misrasi tojikcha, ikkinchi misrasi o‘zbekcha davom etsa, ayrimlarida teskari holat, ya’ni birinchi misrasi o‘zbekcha va ikkinchi misrasi tojikcha bitilgan:

Dar orzuyi ruyi tu sho‘xi gulbadan,
vey rashki oftob,
Behad jafou javr ila sonsiz balodaman,
holim o‘la xarob.
Yoki
Qilma hazin jonima muncha jafou sitam,
ey sanami lab shakar,
Kusht maro, rahm kun, mehnatu anduhu g‘am,
bahri xudo zudtar [Qayumov,1956: 116-117].

O‘zbek va tojik tilining bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgani Maxmur ijodida ham keng uchraydi.Shoir Maxmur o‘z asarlarini o‘zbek va tojik tillarida yozdi. Shuning uchun Maxmur asarlari o‘sha davrdagi o‘zbek va tojik adabiy tili bilan tanishishga imkon beradi.Maxmurning

o’zbek tilida bitilgan she’rlarida ham fosr-tojik tili elementlarini, forscha izofalarni ko’p uchratish mumkin.Bu holat ijtimoiy muhit ta’sirida, ya’ni bir-biriga qo’shni xalqlarning yaqin madaniy aloqalari natijasida yuzaga kelgan. Maxmur o‘zbek hamda fors- tojik tilida she’r yozish bilan cheklanib qolmay, bir she’rni har ikki til imkoniyatlaridan foydalangan holda erkin yoza olgan. Masalan, Xo‘ja Mir Asad nomiga yozilgan hajviy she’rni olib ko’raylik. Bu she’rning birinchi bayti tojik tilida, ikkinchi bayti o‘zbek tilida yozilgan:

Do‘sh raftam bag ado xonayi shayx-ul umaro,
Xo‘jayi Mir Asad abtari avlodi ano.
Kecha ko‘nglim qushi qildi tama birla havo,
Xo‘jayi Mir Asad dargahiga ayladi jo. [Qayumov,1956: 33]

Qo‘qon adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan vakillalaridan biri bo’lmish Mohlar oyim Nodira ijodida ham mulamma’ turlarini ko‘rish mumkin. Shoiraning “Ey xusho, shisha aro” radifli g‘azalidagi birinchi va beshinchi baytlarida fors-tojik tiliga bitilgan misralar keltirilgan:

Ey xusho shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim, oni har kishi no‘sh etsa bo’lur Xizrnamo
yoki
Ey xush ul rindi mayoshomi siyahmast mudom,
Jomi may ilgida, oldida sabuyu miyno [Jalolov,1980:94].

Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan mulamma’ she’rlari o‘zbek mumtoz adabiyotining boy merosi sifatida alohida o‘rinni egallaydi.

Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida mulamma’ kam uchrasa-da, ayrim shoirlar uni eksperimental uslub sifatida qo‘llashda davom etmoqda. Bu she’riy san’at ijodkordan katta mahorat talab etadi. Mulamma’ning o‘zbek she’riyatida rivojlanishi, asosan, tarixiy-adabiy an’analarga asoslangan bo‘lib, mumtoz adabiyotimiz merosi sifatida bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. Янги аср авлоди. 2010.

2. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

3. Қаюмов А. Махмур. – Тошкент, 1956.

4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Ўзфанакаднашр,1961.

5. Қаюмов А. Fозий. – Тошкент, 1956.

HOFIZ XORAZMIY IJODIYOTIDA G‘AZAL JANRINING ROLI

Sodaliyeva Sayyora Oqiljon qizi
FarDU tayanch doktoranti,
E-mail: husniddinovamuslima2021@gmail.com
Tel: (+99893 601-76-71)

Annotatsiya: Ushbu maqolada g‘azal janrining kelib chiqishi, uning lug‘aviy va adabiy ma’nolari hamda mumtoz o‘zbek adabiyotdagi o‘rni yoritiladi. G‘azalning asosiy mazmuni, uning ishq-muhabbat tematikasi, shuningdek, Hofiz Xorazmiy ijodida g‘azal janrining shakli va mazmuniy xususiyatlari haqida fikrlar keltiriladi. Shoirning g‘azal tuzishdagi mahorati, badiiy san’atlardan foydalanganligi, yor go‘zalligini tasvirlashdagi poetik uslubi va ishqiy iztiroblarni ifodalashdagi samimiyligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: G‘azal, mumtoz adabiyot, ishq va muhabbat, Hofiz Xorazmiy, she’riyat, badiiy tasvir, Sharq adabiyoti, poetik uslub, oshiq va ma’shuqa, adabiy tahlil.

Annotation: This article explores the origin of the ghazal genre, its lexical and literary meanings, as well as its place in classical Uzbek literature. The main themes of the ghazal, particularly love and passion, are discussed alongside the formal and thematic characteristics of the ghazal in the works of Hofiz Khorazmiy. The poet’s skill in composing ghazals, his masterful use of artistic devices, his poetic style in depicting beauty, and his sincere expression of romantic anguish are analyzed.

Keywords: Ghazal, classical literature, love and passion, Hofiz Khorazmiy, poetry, artistic imagery, Eastern literature, poetic style, lover and beloved, literary analysis.

G‘azal (غزل) arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi ayol kishiga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo‘lmoqdir. [Х. К. Баранов. Арабско-русский словар.1958, стр.721]. Keyinchalik bu so‘z adabiy atama sifatida ishq-muhabbat kuylangan lirik she’rga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Biroq xalq orasida “g‘azal” so‘zi umuman she’r, she’riyat va qo‘shiq ma’nosida ham qo‘llangan. Masalan:

Daryolarning ul yuzida
Turgan go‘zal, yor-yor,
Sha’ningizga aytib edim
Bitta g‘azal, yor-yor. [Ўзбек шеърияти антологияси, т. II, 1961, 241]

G‘azal janri, uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘tmish adabiyotshunoslari va shoirlari e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Ular turli adabiy janrlar haqida yozar ekanlar, g‘azal, uning g‘oyaviy-mazmuniy xususiyatlari, badiiy san’atlari to‘g‘risida ham fikr yuritdilar. Jumladan, Abdurahmon Jomiy g‘azalning asosiy mazmuni muhabbat, oshiqning kechinmalari, ayriliq azoblari, visol shodligi va boshqalar tasviridan iborat deb biladi.

Umuman olganda, mumtoz adabiyotimizda g‘azal janri eng ko‘p qo‘llanilgan janr hisoblanadi. Bu janrda ijod qilmagan sohibidevon adabiyotimiz tarixida topilmasa kerak. Alisher Navoiy, Bobur, Lutfiy, Ogahiy kabi ijodkorlar esa g‘azal yozishni san’at darajasiga ko‘tara oldi va uning yangi xususiyatlarini kashf etishdi.

XIV asrda Xorazmda yashab ijod qilgan mumtoz adabiyotimiz vakili hisoblangan Hofiz Xorazmiy ham o‘zbek she’riyatida g‘azal janrining takomiliga har tomonlama: ham shaklan, ham mazmunan katta hissa qo‘shdi. Shoir hatto “g‘azal” radifli she’r ham yozgan. [M.Y. Sulaymonov. Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyatining rivoji (avtoreferat). Toshkent. 1996. 9]

Qachonki aysaman yor uchun yagona g‘azal,

Tushar o‘shul g‘azalim asri oshiqona g‘azal. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 22.]

Yuqoridagi g‘azalda asosan ishq va muhabbat mavzusi ko‘tariladi:

Yor uchun aytilgan yagona g‘azal — bu sevgiga bag‘ishlangan asar.

Asriy oshiqona g‘azal — bu esa uning abadiy sevgi ramzi bo‘lishini bildiradi.

Shu jihatdan, ushbu bayt g‘azalning an’anaviy ishqiy mazmuniga mos tushadi.

Xorazmiyning g‘azal yozishdagi mahorati, asosan, she’rlarining shakliy jihatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, uning devoniga kiritilgan g‘azallarning aksariyati 7 yoki 9 baytdan iborat, ya’ni 1052 ta g‘azalning 883 tasi 7 baytdan, 141 tasi esa 9 baytdan tashkil topgan.

Shoir yozgan g‘azallarining deyarli barchasida taxallus qo‘llagan.

Chunkim ul dildorining zulfinga ko‘runmas qaror,

Ne ajab bo‘lg‘ay agar Hofiz qarore topmasa. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 43.]

Hofiz Xorazmiy Sharq she’riyati an’analarini davom ettirib, mumtoz adabiyotimizdagi g‘azallarning mavzu ko‘lamini kengaytirdi.

Ko‘z yoshim daryo qilib g‘avvostak,ko‘rgil mani,

Ishq bahringa cho‘mub, durdona bo‘ldum oqibat. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 69.]

Bu baytda shoirning ishq yo‘lida chekkan iztiroblari va o‘zini dard dengiziga sho‘ng‘uvchi sifatida ko‘rsatish motivi bor. U ko‘z yoshini daryoga aylantirib, shu daryoda “g‘avvos” bo‘lishini tasvirlaydi. Shu bilan birga, u o‘zini ishq bahridan durdona bo‘lib chiqayotganidek ko‘rsatadi. Ishq yo‘lida iztirob va yuksak natija (durdona bo‘lish) bir-birini to‘ldiradi.

Uning devonida ishq mavzusi yetakchilik qilgani holda, odob-axloq masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tadi.

Xorazmiy g‘azallarining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘pincha yor tasviriga murojaat qilganda, ma’shuqaning go‘zalligini qayta-qayta ta’kidlashni xush ko‘radi, ya’ni ko‘pgina g‘azallarida yorning yuzi, ko‘zi, sochi, labi yoki qomatiga urg‘u berilgan baytlarga takror va takror duch kelamiz.

Yuzining uzra xati sayyot ila hasanot,

Og‘izi chashmayi Hizru obi hayot. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 71.]

Bu baytda shoir sevgilining go‘zalligi va uning yuzidagi nozik belgilarni, og‘zi esa abadiy hayot manbayi — “obi hayot” bilan qiyoslab madh qiladi. Shoir yorni ilohiy go‘zallikka tenglashtirib, uning betakror jozibasini ta’riflaydi.

“Xati sayyot” — arab tilida sayyot (gunohlar), “hasanot (yaxshi amallar)” so‘zlari bilan birgalikda kelib, yuzida qora chiziq (qoshlar) va oq chiziq (yuzning oppoqligi) mukammal uyg‘unlashganini bildiradi. Bu yerda yorning qoshi – qora, yuzining rangi – oq, ularning uyg‘unligi esa xuddi “gunohlar bilan savoblar”dek bir-biriga ta’sir qiladi.

Baytda yorning og‘zi “Chashmayi Hizr” (Hizr chashmasi, abadiy hayot) va obi-hayot (abadiy hayot suvi) bilan qiyoslanmoqda. “Hizr chashmasi” rivoyatlarga ko‘ra, abadiy yashash suvini bildiradi. Shu bilan birga, yorning lablari ham sevgilining “hayotbaxsh” go‘zalligi sifatida tasvirlanadi.

Ushbu bayt yorning betakror husnini tasvirlashga bag‘ishlangan. Yorning yuzi – qorong‘i va oppoq ranglar uyg‘unligi bilan mukammallikka yetgan, og‘zi esa hayotbaxsh “obi hayot”ga qiyoslanib, ishq va sadoqatning ramzi bo‘lib talqin etilgan. Shu tarzda shoirning oshiqona va samimiy nigohi yor husniga bag‘ishlangan, yor esa hayotning o‘zagi sifatida madh qilingan.

Umuman olganda, Hofiz ijodida ham badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Shoirning g‘azallarida tashbeh, tashxis, talmeh,

tajohili orif va ayniqsa, istiora kabi she’riy san’atlarning qo‘llanilganligini quyidagi baytlar orqali dalillaymiz:

To‘lun oytak yuzung uzra nuri imon ko‘rnadur,

Ham shakartak tudoqingda obi hayvon ko‘rnadur. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 106.]

Baytda yuz to‘lin oyga qiyoslanadi. Shoirning yorni “to‘lin oydek” deb tasvirlashi – yorning yuzini to‘lin oyga o‘xshatganini bildiradi. Bu tashbeh yordamida yorning yuzidagi joziba, yorqinlik va maftunkorlik ifodalanadi.

Lablar shakar va obi-hayvon (hayot suvi)ga o‘xshatiladi. Bu esa lablarning shirinligi va hayotbaxshlik xususiyatini ko‘rsatadi. Shoirning lablarni hayot suvi bilan qiyoslashi, yorni tiriklik va hayot manbayi sifatida talqin qiladi.

Baytlar tahlilida tashbeh vositasi yorni yanada go‘zal va jozibali qilib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Yorning yuzidagi nur va lablarning shirinligi badiiy ifodaning asosiy diqqat markazida turibdi.

Baytda yorning yuz va lablari poetik tarzda turli tashbehlar bilan tasvirlangan. Yuz – to‘lin oydek yaltiraydi, lablari esa shakar va hayot suvi bilan qiyoslanadi. Tashbeh vositasi baytning badiiy ifodasini kuchaytirib, yorni mukammal go‘zallik va hayotbaxsh jozibasini ta’minlab beradi.

Shoir ijodida tashbeh san’atining takrorlanmas namunalariga duch kelishimiz mumkin, ya’ni Xorazmiy baytlarida o‘xshamish va o‘xshatilmishni izofali birikma qo‘llash orqali o‘zining so‘z qo‘llash mahoratini ham ochib bergan hamda baytlarning ohangdorligini kuchaytirgan.

La’li labinga *jonni ravon qilmag‘a tilar,*

Hofiz ***kamandi zulfidin*** *emdi topub najot.* [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 71.]

Bu baytda yorning go‘zalligi va shoirning unga bo‘lgan maftunligi poetik tarzda tasvirlangan. Yorning lablari la’l (qimmatbaho qizil tosh) bilan, zulflari esa kamand (ovchi arqoni) bilan o‘xshatiladi. Shu bilan birga, tashbehning o‘ziga xosligi – ya’ni o‘xshamish va o‘xshatilmish yonma-yon keltirilganligi bilan ajralib turadi. “La’li lab” va “kamandi zulf” ifodalari go‘zal tashbehlar bo‘lib, baytning ma’nosini yanada kuchaytiradi.

Bu tashbehlar orqali yorning lablari hayotbaxsh va maftunkor, zulflari esa oshiqni asir qilib qo‘yadigan kuchli joziba sifatida tasvirlanadi. Shu bilan baytda tashbeh vositasi yorning mukammal go‘zalligini yanada yuksak darajada ifodalashga xizmat qiladi.

Shahzodalar gadoying agar bo‘lsa, ne ajab,

Husningga chunki Yusufi Misriy g‘ulom erur. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 123.]

Bu baytda Yusufi Misriy obraziga murojaat qilinadi. Yusuf payg‘ambar muqaddas kitobda va boshqa diniy manbalarda mislsiz go‘zallik va sabr-qaror timsoli sifatida tanilgan. Yusufning go‘zalligi shu qadar jozibali ediki, ayollar uni ko‘rganida o‘zini bilmay qo‘llarini kesib olishadi.

Shoir baytda shunday deydi: “Sening husning Yusufi Misriyning husnidan ham oshib ketgan! Shu sababli, agar hatto shahzodalar ham senga gadoy bo‘lsa, ajab emas”.

Bu yerda Yusufning voqeasi talmeh sifatida ishlatilgan:

- Yusufning go‘zalligi – tarixiy talmeh (qissayi Yusuf).
- Shoir ushbu talmeh orqali yorni Yusufning husnidan ham ulug‘roq qilib tasvirlaydi.

Tilmidur yo qand yoxud to‘tiyi shakkarshikan,

Tishmidur yo gavhari serob yo durri Adan. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 67.]

Ushbu baytda shoir o‘zining sevgilisini juda ham maqtovli va shirador so‘zlar bilan ta’riflaydi. Yorning shirin so‘zlari va husniga qoyil qolgan shoir uning tilini qand, to‘ti qushi yoki shirinliklar bilan, tishlarini esa marvarid va dur (qimmatbaho tosh) bilan qiyoslaydi. Aslida shoir bularning barchasini biladi: yorining lablari ham, tishlari ham oddiy narsalar emas, balki undan-da go‘zal va qimmatli. Shunga qaramay, u bilmagan odamdek savol qilib, go‘yoki shubhalanganday so‘zlaydi. Bu yerda shoirning ataylab “bilmagandek” gapirishi tajohuli orif deb ataladi. Tajohuli orif orqali shoir o‘zining mahoratini, husn va go‘zallikni sharaflash mahoratini ko‘rsatadi. Shu bilan baytning badiiy jozibasi oshib, yorning husniga yanada ortiqcha zavq va hayrat baxsh etadi.

To haq nazar ul suvrati zebog‘a solibdur,

Yuzini ko‘rub moh taqi mehr uyolibdur. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 96.]

Shoir ushbu baytda yorga qarata uning husniga qoyil qolganini ifodalaydi. Yorning husni shu qadar go‘zalki, hattoki Oy (moh) va Quyosh (mehr) ham bu go‘zallik qarshisida uyalib qolgan. Bu yerda tashxis san’ati qo‘llanilgan: aslida Oy va Quyosh inson emas, ular his qilmaydi va uyalmaydi, lekin shoir ularni hayotiy tusda tasavvur qilib, ularga insoniy fazilat – uyalish holatini yuklagan. Shu orqali u yorning husnini yanada oshirib, ulug‘vorlik bilan ta’riflaydi. Shoirning mahorati ham shundaki, Oy

va Quyoshning ham o‘zini yorga tenglashtira olmasligi baytga alohida joziba beradi.

Bundan tashqari, shoirning ko‘pgina g‘azallarida takrir san’atiga murojaat qilish orqali baytlardagi ohangdoshlik va shakl mutanosibligiga erishganligining guvohi bo‘lamiz:

Jarohati jigaru dil uchun davo izday,

Jarohati jigaru dilni tozatar qildim. [Xorazmiy Hofiz. Devon. 1981. 41.]

Ushbu baytda shoir takrir san’atidan foydalanib, ma’noni va hissiyotlarni kuchaytirgan. Takrir — bir xil yoki yaqin ma’nodagi so‘z yoki iboralarni takrorlash orqali ifoda kuchini oshirish san’atidir. Baytda “jarohati jigaru dil” iborasi ikki marta takrorlanib, shu azob, og‘riqning og‘irligi va shoirning uni davolashga bo‘lgan intilishi yanada aniqroq va ta’sirchanroq ifodalanadi.

Birinchi misrada shoir jarohat uchun davo qidirayotganini aytsa, ikkinchi misrada o‘zining shu davo ekanligini, jarohatni tozalab, shifo berayotganini ta’kidlaydi. Takror orqali bayt hissiyoti chuqurlashadi, o‘quvchida shoirning og‘rig‘i va uni yengishdagi iroda kuchliroq seziladi.

Xulosa qilib aytganda, Hofiz Xorazmiy g‘azal janrida o‘zining chuqur hissiyotlari va nozik badiiy uslubi bilan ajralib turadi. Uning g‘azallarida ishq va sevgining turli ko‘rinishlari, ayniqsa, yor go‘zalligi, oshiqning ichki kechinmalari va uning azob-uqubatlari jonli va ta’sirchan tarzda ifodalangan. Hofiz Xorazmiy she’riyati turli badiiy vositalarga boy bo‘lib, yuqoridagi san’atkorona usullar orqali sevgi obrazlarini yanada boyitadi. Shuningdek, uning g‘azallarida oshiqning ruhiy dunyosi va orzu-intilishlari nozik va samimiy ifoda topgan, bu esa o‘quvchida chuqur ta’sir qoldiradi. Hofiz Xorazmiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining ishqiy g‘azal an’analarini davom ettirgan holda, janrning mazmuniy va badiiy jihatdan yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Uning g‘azallari bugungi kunda ham o‘zining estetik va falsafiy qadriyatlari bilan o‘rganilish va baholanishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Х. К. Баранов Х. К. Арабско-русский словар. – Мосвка, 1958. – С. 721.

2. Ўзбек шеърияти антологияси. II. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1961.

3. Xorazmiy Hofiz. Devon. Ikki kitobda. – Тошкент: O‘zKP MK, 1981.

4. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеъриятининг ривожи. Дисс. АР. 1996. – 22 б.
5. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.
6. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Тошкент: Ёзувчи, 2001, – 72 б.

SUHAYLIY TUYUQLARI BADIIYATI

Mamaziyoyeva Ozoda Botirali qizi,
University of Business and Science o‘qituvchisi,
E-pochta: omamaziyoyeva99@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asr boshlarida Namangan adabiy muhiti vakili sifatida ijod qilgan Dadaxon qori Suhayliy tuyuqlarining badiiy xususiyatlari, janr va shakl jihatlari, til boyligi hamda tasvir vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir tuyuqlari orqali ifoda etilgan axloqiy, ma’naviy va xalqona qarashlar, til ohangdorligi va she’rning ichki musiqiyligi chuqur ochib beriladi. Maqolada Suhayliyning istibdod davridagi ijodiy jasorati va uning bugungi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya jarayonidagi ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so‘z: Suhayliy, tuyuq, janr, badiiylik, tajnis, Namangan adabiy muhiti, dialektal variant, tasvir, o‘zbek she’riyati, axloqiylik, xalqchillik.

Abstract: this article analyzes the artistic features, genre and form aspects, linguistic richness and means of imagery of the tuyuks of Dadakhon qori Suhayli, who worked as a representative of the Namangan literary environment at the beginning of the 20th century. The study deeply reveals the moral, spiritual and folk views expressed through the poet's tuyuks, the melodiousness of the language and the inner musicality of the poem. The article also highlights Suhayli's creative courage during the era of tyranny and his importance in today's spiritual and educational education process.

Keywords: Suhayli, tuyuk, genre, artistry, tajnis, Namangan literary environment, dialectal variant, image, Uzbek poetry, morality, folklorism.

Dastlabki ildizlari qadimiy xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lanadigan, ammo alohida adabiy istiloh sifatida o‘rta asrlarda namoyon bo‘lgan turkona kichik lirik janr – tuyuq o‘z misralarida tilning ma’no noziklarini to‘la-to‘kis, betakror holda aks ettirishi, bir so‘zning turli xil mazmun qirralari bilan ham adabiy janrni, ham mavzu dolzarbligini saqlab qolishi

bilan she’r ilmida munosib o‘rin egallay olgan. Shu sabab, bu janrda qalam tebratgan shoirlar soni miqdor jihatdan ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularning ijodiy merosida tuyuqlar miqdor jihatdan salmoqli hisoblanadi. Jumladan, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur kabi zabardast shoirlar bu janrda barakali ijod qilishgan. Ogahiy, Furqat, Muqumiy kabilar esa ularning ishini davom ettirishgan. Biroq XIX-XX asrlarga kelib, ijtimoiy-siyosiy tuzum taqozosi bilan adabiyotimizda tuyuq janrida ijod etgan shoirlar soni barmoq bilan sanarli holatga kelib qoldi. Bu davr adabiy muhiti haqida Mirzo Kenjabek “Ruhning ozuqasi ma’naviyat bozorlaridadir” maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: “Sho’ro davrida ruh ozuqasi bo’lgan ma’rifat, milliy tarix xazinalari, ilohiy haqiqatlar, Qur’oni karim, Hadisi shariflar taqiqlanib, xalqni birgina ma’naviy tayanchi adabiyot bo’lib qolgan edi. Istibdod davrida hayotni “bugun”dan iborat deb bilganlar aldanib qoldi. Ularning sandig‘idan kelajak uchun yozilgan haqiqat asarlari ham chiqmadi. Lekin bir buyuk ibrat, bir buyuk sabr va sabot namunasi bor: biz darsliklardan bilgan va tanigan mashhur yozarlardan tashqari hayotning pinhon qatlamida yana bir toifa zamondosh shoir va adiblar zumrasi bor ediki, ularning nomlari va asarlari istiqlol davridagina xalqqa ma’lum bo’ldi. Alixonto’ra Sog‘uniy, Faqiriy Shahrisabziy, Yo’ldoshxo‘ja Dog‘iy, Narzullohxon G‘aribiy, Dadaxon qori Suhayliy, Qul Aziz Turkistoniy shular jumlasidandir. Istibdod davrida “mulla” va “eshon” degan tamg‘alar bilan xaspo‘shlashgan bu aziz zotlar ijodini adabiyot darsliklariga kiritish endi kelgandir. O‘tmish manzaralari: oddiy hayotiy masalalarda siyosiy aybnomalar taqash, vasvasa bilan xalq ichidan dushman qidirish, bir yog‘du ko‘ringanda yong‘indan bong urish, ayniqsa, muqaddas din ahllarini kamsitish, dushman deb bilish va jamiyatdan chetlatish, odamlarga ko’tarinki hayot baxsh etish o‘rniga, ruhni o’ldirish, shaxslarni parchalash, soxtakorlik – istibdod davridagi hayot tarzi ana shu edi”.

Alisher Navoiy boshlab bergan an’anani munosib davom ettirgan qator XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari, xususan, Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So‘fizoda, Dog‘iy, Suhayliylar ijodida mumtoz adabiy janrlarning masnaviy, g‘azal, mustahzod, qasida, murabba, muxammas, musaddas, musamman, muvashshah, marsiya, ruboiy, tuyuq, ruboiy, qit’a kabi o‘ndan ortiq janrlari uchraydi. Ayniqsa, kitobxonlar qalbini mag‘zi to‘q dilbar she’rlari bilan zabt eta olgan, 13 yoshidayoq jarangdor va yoqimli ovozli murattab qori bo’lib yetishgan Qur’on hofizi Dadaxon qori Suhayliyning ham mavzu jihatdan, ham janr jihatdan xilma-xil bo‘lgan lirikasi alohida e’tiborga va e’tirofga sazovordir. Jumladan, shoirning “Yodgorim” nomli to‘plamida hamd va na’t g‘azallar,

munojot, nasihatlar, masnaviy, muvashshahlar, murabba, muxammas, hajviyalari, turli she’riy yozishmalari, marsiyalari, tuyuq, ruboiy, qit’a kabi 15 ga yaqin lirik janr va shakllar o‘rin olgan bo’lib, ular orasida to’plamiga “muhtammal”lar nomi ostida kiritilgan jami 9 ta tuyug‘i shoirning mumtoz adabiyotning asrlik an’anaviy janrlarini mohirona tarzda XX asrda ham davom ettirganiga guvohi bo‘lamiz. Didaktik ruhdagi misralari uning boy merosida muhim o‘rin tutib, bu mavzu bevosita tuyuqlarida ham o’z aksini topgan.

Xususan:

Hosido, kuysin, xarob o‘lsin o‘yung,
Bo‘lsa bad mundog‘ h(x)ayoling-u o‘yung
Ey yoronlar, hosed ahlidin qachon
Kim yo‘liqsa, chashmi binosin o‘yung.

Mazkur tuyuqda shoir “o‘yung” so‘zining turli nozik ma’nolarini betakror tasviriy vositalar, mazmuniy izchillik, tarbiyaviylik bilan shunday qorishtirganki, natijada o‘quvchi she’rni o‘qish jarayonida tilimizning ma’no rang-barangligiga tan berish bilan bir qatorda o‘ziga yetarlicha ma’naviy ozuqa oladi, kamolot sari ildamlaydi. Ushbu tuyuq aruzning ramali musaddasi mahzuf (paradigamasi: – V – –) vaznida, *a-a-b-a* tarzida qofiyalanib, didaktik mavzuda bitilgan.

– *“o‘y” – uy;*
– *“o‘y” – o‘y (xayol);*
– *“o‘y” – o‘ymoq;*

Quyidagicha xulosa kelib chiqadi: “Hosido, ya’ni hasadgo‘y, agar o‘y-xayoling shunchalik bad (yomon) bo‘ladigan bo‘lsa, uying xarob bo‘lsin. Ey yoronlar (odamlar), qachonki hasadgo‘yga yo‘liqsangiz, (uning) chashmi binosin (ko‘zini) o‘ying”. Ushbu tuyuqning o‘ziga xos tomoni shundaki, tajnis san’atini hosil qilgan birinchi misradagi “o‘y” so‘zi Namangan shahar hududining qarluq lahjasida uchrovchi “uy” so‘zining dialektal varianti hisoblanadi. Suhayliy ijod qilgan davr tili – eski o‘zbek yozuvida “u” tovushi ham, “o‘” tovushi ham yozuvda bitta “و”, ya’ni “vov” bilan ifodalangan. Shuni hisobga olgan holda, agar tuyuqning qo‘lyozma nusxasini ko’zdan kechiradigan bo’lsak, bu orqali Suhayliy bir vaqtning o’zida tajnisning ajib namunasini hosil qilish bilan bir qatorda naqadar xalqchil satrlar yaratganiga guvohi bo‘lamiz.

Yoki:

Gar omon chiqsam bu qishdin yoza man
Yor tashrifig‘a noma yozaman
Kelsa men sori samandin o‘ynatib,

Bistarin zarrin tagiga yozaman.

Yuqoridagi tuyuq Lutfiyning ayni shu mazmundagi misralarini bevosita yodga soladi, ammo farqli ravishda Suhayliy “yozaman” so‘zining bizga ma’lum barcha ma’no qirralarini mahorat bilan yoritishga harakat qilgan. Jumladan,

– *“yoza man” – yozga men;*
– *“yozaman” – yozaman (bitaman);*
– *“yozaman” – yozaman (to’shayman, solaman);*

Ya’ni “Agar bu qishdan (hijron qishidan) yozga omon chiqa olsam, yorning kelishini so‘rab unga noma yozaman (bitaman). Oldimga saman (ot)ni o‘ynatib kelsa, Poyiga zarrin to‘shak yozaman (to‘shayman)”, deydi shoir.

Dilbarim ko‘ksida ikki nori bor,
Shavqidin sunsam alim, der “Nori bor”,
Aydi bir kun “qilma vaslim orzu
Kuyma, ey bechora, hajrim nori bor.”

Bunda tuyuq janrini yuzaga keltirgan:

– *“nori bor” – nori bor (dog‘i bor);*
– *“nori bor” – nari bor;*
– *“nori bor” – o‘t-otashi bor, do‘zaxi bor;*

Ya’ni, adabiyotning an’anaviy mavzusi – ishqiy mavzuda bitilgan: “Dilbarimning, ya’ni yorimning ko‘ksida ikki nori (tug‘ma dog‘i) bor, Shavqidan alimni (qo‘limni) sunsam (cho‘zsam), “nari bor” deydi. Bir kuni aytdiki: “valsimni orzu qilib kuyma, ey bechora (oshiq), chunki hajrimning olovi, o‘ti bor”

Hayoti taqdir va zamonaning ayovsiz sinovlari ostida o‘tgan Suhayliy oila qurib, zurriyot qoldirish, yoki boshqa ishlar bilan nom qoldirish imkoniyatiga ega bo’lmadi. Shu bois bo‘lsa kerak, bir g‘azalida u:

“Suhayliy, har erdin qolur bir nishon,
Men o‘lsam agar, yodgorim qani?”

deb, zorlanadi.

Biroq, fikimizcha, Suhayliydan qolgan bayoz, ijod namunalari avlodlar uchun qoldiriladigan meroslarning eng munosiblaridan biri hisoblanadi. Chunki, u she’riyati orqali yosh avlodni ilm-ma’rifatga chorlaydi, xalqiga, Vataniga munosib bo‘lishga undaydi, halollik, kamtarlik va mehr-oqibat kabi chin insoniy tuyg‘ularni tarannum qiladi. Umid qilamizki, Suhayliy she’rlarinining mag‘zini chaqish, ularni baytma-bayt ham ilmiy, ham badiiy jihatdan tahlil qilish, hayotning har qaysi

mavzusi haqida mohirlik bilan qalam tebrata olgan shoir ijodi va mashaqqatli hayotini tadqiq etish, uni nafaqat ilm ahliga, balki butun o‘zbek xalqiga, ayniqsa, endigina o‘sib-unib kelayotgan, insoniy qarashlari shakllanayotgan – O‘zbekistonning buyuk kelajagi bunyodkorlariga tanishtirish, avvalombor, XX asr o‘zbek adabiyotining ochilmagan yana bir qirrasini ochish, ajdodlar merosiga bo‘lgan yuksak ehtirom belgi bo‘lishi bilan birga, eng asosiysi, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan yuksak marralarni zabt etish uchun yoshlarga hayotiy mayoq bo‘lib xizmat qiladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kenjabek M. Rugning ozuqasi ma’naviyat bozorlaridadur/Yoshlik jurnali. – Toshkent, 2011. – № 5. – B. 7-10.

2. Болтабаева О. XX аср бошларида наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгиланиши: Филол. фан. номз. ...(PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – 148 б.

3. Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол. фан. док-ри ...дисс. – Тошкент, 2005. – 281 б.

4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий саньатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998.

ADABIY MANBALARNI TASNIFLASH MASALASI

Shirinova Nargiza Nuriddin qizi,
ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy manbalarni tasniflash va buning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bayon qilindi. Bunga Alisher Navoiy asarlari misol qilib keltirildi. Bundan tashqari tasniflash uchun yangi tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Tasnif, devon, manba, tazkira, nasta’liq, qasida, hujjat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy manbalarni tasniflash va buning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bayon qilindi. Bunga Alisher Navoiy asarlari misol qilib keltirildi. Bundan tashqari tasniflash uchun yangi tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Tasnif, devon, manba, tazkira, nasta’liq, qasida, hujjat.

Bugungi kunda har bir narsani o‘rganish jarayonida ularni ma’lum bir tizimga solish, tartiblash katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu o‘rganuvchilar uchun qulayliklarni yaratadi. Inson ongi aralash narsalarni o‘rganishdan ko‘ra ma’lum bir tartibga solingan narsalarni o‘rganishga

moyil bo‘ladi. Shundan kelib chiqib tasnif, klassifikatsiya tushunchalariga biroz to‘xtalib o‘tsak. *Tasnif*-(arab.-saralash, tartibga solish), *klassifikatsiya*-ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o‘zaro bir xil tushunchalar sistemasi. Tasnif deyilganda “narsa va hodisalarni ularning o‘ziga xos belgi, xususiyatlariga qarab tur, turkum va sh.k.ga ajratish” [Madvaliyev, 2006:94]jarayoni tushuniladi. Tabiiyki, har qanday narsa hodisalarni tasniflash mumkin va bu jarayonda o‘sha narsa-hodisalardagi o‘ziga xos belgi, xususiyatni farqlash mezoni turlicha bo‘lishi mumkin va demak, ularga tayaniladigan tasnif ham turlicha bo‘lishi tabiiydir. Shunday ekan, hech bir tasnifni to‘la inkor qilish ham mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish ham to‘g‘ri emas. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo‘lib, uning vositasida shu fan doirasida to‘plangan bilimlar qat’iy tartibga solinadi. Fanni o‘rganishda bunday tasnif qulaylik tug‘diradi. Tasnifda bo‘luvchi va bo‘linuvchi tushunchalar o‘zining qat’iy o‘rniga ega bo‘ladi. Tasnif natijasida fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi. Tabiiy va sun’iy tasniflar bir-biridan farq qiladi. **Tabiiy tasnif** obyektlarning muhim belgilariga asoslanadi(mas., kimyoviy elementlarning davriy sistemasi). U ilmiy tadqiqotning natijasi va muhim vositasi bo‘lib, bilish jarayonida katta ahamiyatga ega. **Sun’iy tasnif** asosida obyektlarning nomuhim belgilari yotadi va turli-tuman predmetlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi (mas., kutubxonada kitoblarni alfavit bo‘yicha joylashtirish). Tasnifda mantiqdagi bo‘lish qoidalariga qat’iy rioya qilish lozim. Tasniflash davr o‘tishi bilan o‘rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarimizning rivojlanishiga mos ravishda takomillashtirilib, tuzatilib, rivojlantirilib boriladi. Tasniflash har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi o‘rnini aniqlab beradi. Tasniflash natijasida hosil bo‘lgan bilim predmetning asosiy xususiyatlari hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi va bu bilimlar tartibga solingan bilim hisoblanadi. Bilimlarning kelib chiqishi, ilmlar tartibi, strukturasi va o‘zaro munosabatini o‘rganishda fanlar tasniflashi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu masala bilan o‘tmishda ko‘p olimlar, jumladan, Aristotel, Farobiy, Ibn Sino, Francis Bacon, Dekart, Mil, Spenser, Immanuil Kant shug‘ullangan[O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005].

Yozma manbalarni ham bugungi kunimizga xizmat qildirish uchun manbalarni yig‘ish, tartibga solish, ularning atroflicha tavsiflarini yaratish lozim (tavsif- har bir manbaning asosiy belgilari, xususiyatlari va tarkibi haqidagi muayyan tartibga solingan ma’lumotlar majmuidir). Tavsif jarayonida manbalar, avvalo, ijrosiga ko‘ra xillanib qoladi. Bu xillanish

(tasnif-sinflarga bo‘lish ma’nosida) ularni o‘rganish, tushunish, tadqiq etish, zarur ma’lumotni osonlik bilan topishga imkon yaratadi. Adabiy manbalarni tasniflashni turli olimlar turlicha ko‘rsatadi. Lekin buning yagona usuli aniq belgilanmagan. Alisher Navoiy asarlarini turlarga ajratib guruhlash masalasi olimlar tomonidan turlicha taqdim etilgan. Matnshunos R.Zohid quyidagi tasnifda matnshunos, tilshunos olim Q.Sodiqov variantini asos sifatida olgan va asarlarning xususiyatidan kelib chiqib, ayrim o‘rinlarga qo‘shimcha va izohlar kiritgan.

Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosi tasnifi

I – Devonlar

5. Ilk devon (1465-1466 yillar)
6. Badoe’ul bidoya (1465-1481 yillar)
7. Navodirun nihoya (1480 yil)
8. Xazoyinul ma’oniy (1492-1499 yillar):

- G‘aroyibus sig‘ar;
- Navodirush shabob;
- Badoe’ul vasat;
- Favoyidul kibor

5. Devoni Foniy (1496 yil)

II – Masnaviy yo‘lida bitilgan manzumalar

5. Xamsa:

- Hayratul abror (1483 yil);
- Layli va Majnun (1484 yil);
- Farhod va SHirin (1484 yil);
- Sab’ai sayyor (1485 yil);
- Saddi Iskandariy (1485 yil).

6. Lisonut tayr (1498-1499 yillar)
7. Masnaviy
8. Soqiynoma

III – Tazkiralar

3. Majolisun nafois (1491-1499 yillar)
4. Nasoyimul muhabbat (1495-1496 yillar)

IV– Ilmiy asarlar

5. Mezonul avzon (1492 yil)
6. Risolai muammo (1492 yil)
7. Muhokamatul lug‘atayn (1499 yil)
8. Sirojul muslimin (1499-1500 yillar)

V – Tarixiy asarlar

3. Tarixi anbiyo va hukamo (1485-1499 yillar)

4. Tarixi muluki ajam (1485-1499 yillar)

VI – Ma’rifiy-axloqiy asarlar

5. Arba’in (1481-1482 yillar)
6. Nazmul javohir (1485 yil)
7. Munojot (1499-1500 yillar)
8. Mahbubul qulub (1500-1501)

VII – Manoqiblar

4. Holoti Sayyid Hasan Ardasher (1490-1491 yillar)
5. Xamsatul mutahayyirin (1492-1496 yillar)
6. Holoti Pahlavon Mahmud (1491-1495 yillar)

VIII – Hujjatlar

3. Vaqfiya (1481-1482 yillar)
4. Munshaot (1491-1492 yillar)

IX – Navoiyga nisbat berilgan asarlar

4. Sab’at abhur
5. Risolayi tiyri andoxtan
6. Nazmi aqoid

Ushbu tasnifga ba’zi izohlarni keltirib o‘tamiz. Alisher Navoiy asarlarini turkumlarga ajratib bu tarzda guruhlash shoir va olim adibning ilmiy-adabiy merosini manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga yo‘l ochadi. Shu ma’noda mazkur tasnifning ayrim o‘rinlariga izohlar berib o‘tamiz. Tasnifning “Devonlar” deb nomlangan birinchi qismiga kirgan Alisher Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan “Ilk devon”ni Sultonali Mashhadiy 870/1465-1466 yili ko‘chirgan. U 898/1492-1493 yili Alisher Navoiyning “G‘azaliyot devoni”ni, 905/1499-1500 yili esa shoir she’rlaridan iborat Terma devonni kitobat qilgan. “Badoe’ul bidoya” devoni taxminan 1472-1476 yillar oralig‘ida Xuroson shohi Husayn Boyqaroning iltimosi bilan tartib berilgan. Hozirgacha bu devonning 5ta nusxasi fanga ma’lum edi. Adabiyotshunos olim A.Erkinovning xabar berishicha, bu devonning qo‘lyozma 6-varianti “Istanbul nusxasi” sifatida qayd etildi. Devonning Istambul nusxasi Alisher Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgani bilan ham ahamiyatli. Bunga qadar navoiyshunoslikda ushbu devonning shoir hayotlik davrida ko‘chirilgan Parij, London, Tehron, Boku va Toshkent nusxalari ma’lum edi. Oltita qo‘lyozma 1480–1486 yillar oralig‘ida (muallifning 34-45 yoshlari) kitobat qilingan, ammo ulardagi she’rlar tarkibi farq qiladi. Devon o‘ndan ziyod janrdagi mingdan ortiq she’r (777tasi g‘azal)dan iborat.

Tasnifning “Masnaviy yo‘lida bitilgan manzumalar” deb nomlangan ikkinchi qismiga kiritilgan “Masnaviy” 147 baytdan iborat bo‘lib,

“G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibida kelgan. Shuningdek, “Favoyidul kibar” tarkibidan joy olgan “Soqiynoma” asari ham masnaviy yo‘lida yozilgani uchun ushbu qismda qayd etildi. “Sirojul muslimin” asarining IV qismga kiritilganining boisi bu asarda aqida va fiqh mavzusida bahs yuritiladi. Aqida e’tiqodning tarkibiy qismlaridan xabar beruvchi fan bo‘lsa, fiqh uning amalda namoyon bo‘lish qonun-qoidalarini o‘rgatuvchi ilm sohasidir. Shuning uchun bu kitob tasnifning “Ilmiy asarlar” qismiga kiritildi. Tasnifning “Navoiyga nisbat berilgan asarlar” qismiga kirgan manbalar alohida tadqiqot mavzusidir [R.Zohid, 2023:64].

Adabiy manbalarni tasnif qilish ularni o‘rganuvchilar uchun qulayliklar yaratadi. Bunday tasniflar orqali adabiy manbalar ma’lum bir tartibga solinadi. Tasniflashni yuqorida Alisher Navoiy asarlari misolida ko‘rib chiqdik. Bunday tasniflashdan tashqari mumtoz adabiyot manbalarini tasniflash-turlarga ajratishni quyidagicha amalga oshirishni tavsiya qilamiz:

Yaratilishiga ko‘ra: og‘zaki manbalar,yozma manbalar;

Mazmuniga ko‘ra: ilmiy manbalar, adabiy manbalar, tarixiy manbalar, falsafiy manbalar;

Yo‘nalishiga ko‘ra: adabiyot nazariyasiga oid manbalar, til nazariyasiga oid manbalar

Shakliga ko‘ra: sof nasriy asarlar**,** sof nazmiy asarlar**,** qorishiq (nasriy va nazmiy) asarlar;

Janriga ko‘ra: devon, doston-masnaviy, qasida…

Xat turiga qarab: nasx, nasta’liq;

Hajmiga qarab: kam hajmli asarlar, yirik hajmli asarlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bunday tasniflash orqali adabiy manbalarimiz haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Ularni o‘rganuvchilar uchun dastlabki bosqich bilimlarini bergan va adabiy manbalarga kirib borishdagi ilk qadamni qo‘ygan bo‘lamiz. Shuning uchun bunday tasniflashlar, ayniqsa, adabiy manbalarni o‘rganuvchi matnshunos-tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Zohid. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2023. – 181 b
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti, 2006. – 694 b
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2000-2005y. 234 b

NODIRNING “HAFT GULSHAN” DOSTONIDA ASLIYAT VA TABDIL MUAMMOLARI

A’zamova Shodiya Burxonovna,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda XVIII-XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti vakili bo`lgan Nodir ijodiga mansub “Haft gulshan” dostonining “Birinchi gulshan” qismi tadqiq qilinadi. Tadqiqot ishida asarning 1961-yildagi nashri hamda unga asos bo`lgan O‘zFA ShI asosiy qo`lyozmalar fondida saqlanuvchi №1801 inventar raqamli manba matni o`rtasidagi ba’zi tafovutlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: asliyat matn, manba, doston, gulshan, nashr, transliteratsiya.

Annotation: In this thesis, the part "First flower garden" of the dastan "Haft gulshan," belonging to the work of Nadir, a representative of the Kokand literary environment of the 18th-19th centuries, is investigated. In the research work, some differences between the 1961 edition of the work and the source text under inventory number №1801 stored in the main manuscript fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan are analyzed.

Keywords: original text, source, epic, garden, publication, transliteration.

Qo‘qon adabiy muhitining iste’dodli shoirlaridan sanalgan Nodir ijodida “Haft gulshan” dostoni yuksak mavqe’ga egadir. Asar 1824-25-yilda yaratilgan. To‘rt qo`lyozma va bir toshbosma nusxasi mavjud. “Haft gulshan”ning O‘zbekiston FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondida № 1801 inventar raqami bilan saqlanuvchi nisbatan mukammalroq deb qaralgan qo‘lyozmasi asosida tabdil shakli ham nashr etilgan. Nashrga filologiya fanlari nomzodi Tamila G‘afurjonova tomonidan tayyorlangan. Shoirning ijodini tadqiq etish bo`yicha qilingan asosiy ishlar ushbu olima va akademik Aziz Qayumovga tegishlidir.

A.Qayumov: *“Muhammad Nodir Ho`qandiy qalamiga mansub “Haft gulshan” dostonining (o‘zbek tilida) ilmiy-tanqidiy matni filologiya fanlari nomzodi T.G‘afurjonova tomonidan tuzilgan. Nodirning shu dostoni bo‘yicha bu olima nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan, bu doston matnini nashr etgan.”*, - deydi. Dostonning ilmiy-tanqidiy matni ilm ahliga hozircha ma’lum emas. Bizningcha, olim ushbu fikrlarni T.G‘afurjonovaning asar matnini eski o`zbek yozuvidan joriy alifboga o`girib, qildirgan nashri yuzasidan bergan.

Tabdil (ushbu ibora hozirgi matnshunoslikda transliteratsiyaning o‘rnida ham ishlatilmoqda) ancha puxta ishlangan bo‘lib, asos qilib olingan qo`lyozma bilan uning orasida jiddiy farqlar kam. Tafovutlarning aksariyatini matn ma’nosiga katta ta’sir qilmaydigan jarangli-jarangsiz almashinuvi, doston yozilgan davrdagi til bilan hozirgi o‘zbek adabiy tili qo‘shimchalarining chalkashtirilishi, na’zan tushib qolishi, ba’zida mazmun o‘zgarishiga sabab bo`lgan bo‘g‘iz undoshi h bilan chuqur til orqa undoshi x ning almashtirib yuborilishi kabilar tashkil qiladi.

Asliyat matni bilan uning nashri o`rtasidagi ayrimliklarni asarning “Birinchi gulshan” qismi misolida ko`rib o`tamiz.

Birnichi gulshanning kirish qismida uning hukumat ahli va amirlik xalqiga bag`ishlov, ehson o`rnida ekani aytiladi. Gulshanda odil shoh, adolatparvar podshoh siymosi tasvirlanadi. Unda Qur’oni Karimning An’om su’rasi 160-oyati hamda Rahmon su’rasi 60-oyatlari ham keltiriladi: *“Avvalg`i gulshan ehson maqomida, xirad andalibining tarona sanjlig`i, hukumat ahli va amorat xalqig`a davlat va hashamat sarsabz shajarasi va mukrimat borvar samarasidurur. Oyati man ja’a humo bilahsanati falohu ashru amsoluho (An'om su'rasi 160-oyat. Ma’nosi: “Kim bir yaxshilik qilsa, unga o`n barobar qaytarilur. Kim bir yomonlik qilsa, u faqat qilganiga yarasha jazo olur. Va ularga zulm qilinmas.”). Muhsin shonida hujjati durur qoti’ va karimayi Hal jaza ul ihsan illal ihsan (Rahmon su’rasi 60-oyat. Ma’nosi: “Ehson – yaxshilikning jazosi – mukofoti, faqat yaxshilikdir.” Yoki “Ehsonning mukofoti faqat ehsondir”) mukrim madhida burhoni durur soti’kim jud va karam bashar jinsidin marg`ub va iqtidor ahlidin mahbubroqdur.”* [Nodir, 11a]

Odil podshohlarning xalqiga ehsonli bo`lishi, shoirning esa ul toifaning haqiga duoda yurishi umid qilingani holda, ularga *“agarchi ehson gulzoridin nasimi yetmasa”*, Adan podshohining hikoyati ayni muddao ekani, ta’kidlanadi:

“In’om va na’m(i) ehson zumrasig`a lozim va e’tibor ahlig‘a vojibroq va ko`ngil bulbuli ul toifaning duosig`a mutarannim. Agarchi ehson gulzoridin nasimi yetmasa va jon to‘tisi ul qavmning sanosig`a mutakallim harchand jud va karam shakkaristonidin choshni olmasa, bu mazmun davlatfizo va mafhum(i) hashmat safog‘a Adan podshohining hikoyati munosib va loyiqkim, afvoh va alsunag‘a mazkur va bu muxtara’oti masnu’ag‘a mastur bo`ldi.” [Nodir, 11a]

Ushbu parchaning o`zida ham nashr va asliyat o`rtasida farqlar mavjud:

№	№ 1801 inventar raqamli	Dostonning 1961-yilda joriy

	qo`lyozma (Bundan keyin A nusxa deb beriladi)	yozuvga qilingan nashri (Bundan keyin TN nusxa deb beriladi)
1	عندليبي نينك 11a-7	andalibi 24
2	و 11a-8	“,” 24
3	قاطع 11a-11	qot’ea 24
4	نعم 11a-14	ne’ami 24
5	چاشنی (maza, ta’m; bahra) 11b-2	choshini 24
6	المسه 11b-2	olmas 25

Ishora qilingan hikoyat, Rumda bir g‘isht quyuvchi [Qayumov, 2010: 171] bo`lib, u umri davomida deyarli hech narsaga erisha olmagani, bisotida *bir pashizi* (bir chaqasi) ham yo‘qligi holda hayotdan nokom o‘tgani tasviri bilan boshlanadi:

Bor erdi Rum aro bir xishtrezi,
Bisotida topilmay bir pashizi. [Nodir, 11b]

Asliyatda, ya’ni asosiy A nusxada, خشت ریزی “xishtrezi” (“g`isht” ⇒ “xisht” – g`isht; “rez” – maydalamoq) bo`lgan so`z, tabdilda “hishtrezi” tarzida keltirilgan va bu bilan muallif nazarda tutgan mazmun o`z ifodasini topmagan:

Bor erdi Rum aro bir hishtrezi,
Bisotida topilmay bir pashizi. [G`ofirjonova, 1961: 25]

Bu bechoraning bir o`g`li bo`lib, otasidan keyin, onasiga *“ko`zini ob”, “ko‘ngul gulzorini xunob aylab”*, o‘zining safar istagi borligini bildirib, ijozat so‘raydi.

Onasining astoydil qarshiligiga qaramay, yigit safarga chiqadi:

Safarning mehnati a’zoni ranji,
Erur xor-u vatan, ko‘ngil shikanji.
Anosi man’i uchun qildi ibrom,
Ani ko`ngli qushi tobmadi orom.
Havoyi sayr ani boshig‘a tushub,
Borib savdo eli birla ko‘rushub.
Necha oy yurdi savdogar bila yo‘l,
Tamosho aylabon ko`b dasht ila cho‘l. [Nodir, 12a]

Yuqoridagi parcha yuzasidan ham A va TN nusxalar o‘rtasida farqlar mavjud:

№	A nusxa	TN nusxa
7	کونکل شکنجی 12a-1	ko`ngli shiganji 25
8	منعی 12a-2	man’ 25

9	تابمادی 12a-2	topmadi 25
10	کوب 12a-4	ko`p 26
11	ملکی کا 12a-5	mulkig`a 26

Ushbu farqlar, mazmunga deyarli ta’sir qilmagan, ba’zan vazn uzviyligini biroz shikastlashi mumkin bo`lgan farqlardandir. Ammo so‘z o‘zagida o‘zgarish qilib yuborilsa, mazmunga putur yetadi, yoki kerakli mazmun anglashilmaydi, jumla shubhada qoladi:

Hama so‘rdi Adan mulkiga mahmul,
Qilib savdo eli bir yerg‘a manzil.

№	A nusxa	TN nusxa
12	محمل 12a-5	maxmul 26

“Mahmul qilmoq” - hisoblamoq, yo`ymoq. [Lug`at: 192]

Mazmuni: Karvondagilardan hamma so`radi va savdogarlar Adan manzilida to`xtash uchun hisob olishdi. Agar o`zak مخمل ko`rinishida bo`lsa, *“maxmal” – baxmal, barqut* mazmunini izohga jalb qilishimizga to`g`ri kelardi. Bu esa tahlilda chalkashlikni keltirib chiqaradi.

Yana bir misol:

Kelish-borish aroda bo‘ldi kam-kam,
Ki aqd ila uzuq to bo‘lsa mahkam.
Ilojini tobmadilar ahl(i) takmil,
Shariat hukmi birla g‘ayr(i) tahlil.

№	A nusxa	TN nusxa
13	عقد 13a-1	ahd 27
14	تا 13a-1	gah 27
15	تابمدیلار 13a-2	topmadilar 27
16	تکمیل 13a-2	taxmil 27

“O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”da *“aqd”* so`zi *bog`lash, tugish, tugun, bog‘lanish, nikoh* kabi mazmunlar bilan; *“ahd”* esa *1. va’da, so`z berish, olingan majburiyat; 2. davr, zamon, asr; ham ahd – zamondosh* singari izohlar bilan keltirilgan. So‘z qiyosan uzuqlarning mahkamlanishi xususida ketar ekan, عقد kalimasi bu birikmaga eng munosib davomdir. Ya’ni, uzuqlar bog‘lash bilan mahkam qilinadi.

Shu misraning o‘zida qo`lyozmadagi تا so‘zining o‘rniga asar nashrida “gah”ni qo‘llash, mazmunni yana ham chigallashtirib yuboradi:

13*а* Келиш-бориш арода бўлди кам-кам,
Ки аҳд ила узуқ гаҳ бўлса маҳкам.

Иложин топмадилар аҳли тахмил,
Шариат ҳукми бирла ғайри таҳлил.

[G‘ofirjonova, 1961: 27]

Hikoyatning qolgan voqealariga ko‘ra, bir g‘ani shohning go‘zal qizi notinch turmushi buzilib, otasining uyiga kelgan bo`ladi. Uyida bir muddat yashaydi. Atrofdagilar qiz nikohining buzilib ketmasligi uchun harakat qilishadi. Vaholanki, shariat hukmi bilan iddat chiqqan, qoidasiga ko`ra, qiz boshqa kishiga nikohlanishi, shundan so`nggina o`zining vafosiz, xiyonatkor eriga qayta nikohlanishi mumkin edi. Ammo vaqtincha turmush qurilishi mumkin bo‘lgan yigit shahar aholisidan tanlansa, shoh oilasiga munosib bo`lmas, vaziyat hammaga ovoza bo`lardi. Shuning uchun ham, onasining qarshiligiga qaramay, savdogarlar bilan safarga chiqqan va ayni paytda tilanchi bo‘lib qolgan hech vaqosiz yigitdan qizga bir kun muddatga uylanishini, ertasi kuni unga taloq berishini so‘rashadi. Ma’lum shartlar evaziga yigit rozi bo‘ladi.

Atrofdagi kamolotga yetgan, ilmli insonlar bu masalaga boshqa iloj topa olmadilar. Chunki shariat hukmining yechimlari ham boshqa turli edi-da.

Ushbu komillar asarning qo‘lyozma matnida aynan “ahli takmil” deb berilgan:



[Nodir, 13a]

Mazkur gulshanda, hikoyat avvalida hikoyasi boshlangan, qashshoq sinf vakili bo`lgan kambag‘al yigitning oliy tabaqali shoh qizi bilan tasodifiy oila qurishi, ularning bir-birlariga ko`ngil qo`yishlari, muhabbatlarini uchun kurashishlari, oilalarining saqlab qolinishiga esa aynan Adan yurtining odil podshohi sabab bo`lgani voqealari qalamga olinadi.

Filologiya fanlari nomzodi T.G`afurjonova o‘zining “Nodir va uning “Haft gulshan” dostoni” nomli monografiyasida ushbu gulshanga “Muhabbat va adolat madhi” deb nom beradi. [G‘afurjonova, 1982] Bizningcha ham, bu eng munosib sarlavhadir.

Yuqorida “Haft gulshan” dostonining faqatgina “Birinchi gulshan” qismi asliyat matni va nashri o`rtasida ko`ringan bir necha farqlarga to`xtaldik, hikoyatning qisqacha bayoni va matniy tadqiqini keltirdik. Matniy tafovutlarning nashr va qo`lyozma, qo‘lyozma va toshbosma nisbatlari, o‘zaro umumiy farqlari yuzasidan ilmiy xulosalar, asarning til xususiyatlari, muallif biografiyasini qayta tuzish masalasi kabilar keyingi tadqiqotlarimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **نادر. کتاب هفت کلشن.** O‘zFA ShI Qo‘lyozmalar fondi, inv. № 1801, – 114
2. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1953 й. – 454 б.
3. Қаюмов А. Асарлар. Қўқон адабий муҳити. 7-жилд, 1-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010 йил. 159-226 бетлар.
4. Нодир. Ҳафт гулшан. Нашрга тайёрловчи: Ғофиржонова Т. – Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1961 йил. – 212 б.
5. Ғафуржонова Т. Нодир ва унинг “Ҳафт гулшан” достони. – Тошкент: Фан, 1982 йил. – 95 б.
6. Jalolovna, H. O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE’. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 181.
7. Hamroyeva, O. J. (2022). CLASSIFICATION OF FINE ARTS IN" HADOYIQ US-SIKHR". Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 47-56.
8. Jalolovna, H. O. (2023). SHAMSIDDIN KAYSI RAZI'S" AL-MO'JAM FI MAOYIRI ASH'AR UL-AJAM" IS AN IMPORTANT SOURCE OF POETICS. Academia Repository, 4(11), 81-86.
9. Jalolovna, H. O. (2022). Improvement of the Science of rhyme in treatises of the timurid period. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
10. https://quranenc.com/uz/browse/uzbek_mansour/55

HAMIDJON HOMIDIY FORS -TOJIK SHE’RIYATI TADQIQOTCHISI

Sheraliyeva Rohatoy Abdujabbor qizi,
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada professor Hamidjon Homidiy tadqiqotlariga asoslanib, fors-tojik adabiyotining tarixiy taraqqiyotida katta o‘rin tutgan yirik adib Abulqosim Firdavsiy hayoti va ijodi yoritilgan. Shuningdek, uning mashhur “Shohnoma” asarining yaratilishi hamda ushbu asarning o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari tahlil etilgan. Xususan, ushbu ulug‘ ma’naviy yodgorlik Hasan Muhammad Xomushiy, Nodir Muhammad, Shoh Hijron va Muhammad Ya’qub tomonidan turkiy tilga

nazm va nasr shaklida tarjima qilingani haqida ma’lumotlar keltirilib, ularning ilmiy jihatdan tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: Hamidjon Homidiy, Sharq adabiyoti, fors-tojik adabiyoti, tarjimashunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, mumtoz adabiyot, Abulqosim Firdavsiy, “Shohnoma”.

Annotation: This article discusses the life and creative work of the prominent literary figure Abulqosim Firdawsi, who played a significant role in the historical development of Persian-Tajik literature, based on the research of Professor Hamidjon Homidiy. The article also explores the creation of the epic *Shahnameh* and its translations into Uzbek. In particular, it analyzes how this great spiritual monument has been translated into Turkic languages in both prose and verse by Hasan Muhammad Khomushiy, Nodir Muhammad, Shoh Hijron, and Muhammad Yaqub, relying on scholarly findings.

Keywords: Hamidjon Homidiy, Eastern literature, Persian-Tajik literature, translation studies, textual studies, source studies, classical literature, Abulqosim Firdawsi, *Shahnameh*.

Mumtoz adabiyotshunosligimizda tinib-tinchimas tadqiqotchi va targ‘ibotchi aziz ustozimiz professor filologiya fanlari doktori Hamidjon Homidiyning insonlarga o’rnak bo’la oladigan hayot yo’li, insoniylikka yo’g‘rilgan fe’l-atvori, yuksak insoniy fazilatlari, ezgu ishlari, sermahsul ijodi haqida juda ko’p yozish mumkin. Zero, O’zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik aytganidek:

Allomai zamondir Hamidjon Homid,
Ey, farzand, sen buni doim esda tut.

Bo’lay desang aqli but,
Hamidjon Homid etagin tut.

Darhaqiqat, ilm xususida, olimlar haqida ko’p gapirilgan va juda ko’p yozilgan. Shunday bo’lsa-da, muhtaram ustozimiz Hamidjon Homidiyning ilmlar saroyidagi o’rni haqida ko’p takrorlanmas fikr va mulohazalarni yozish bugungi kun uchun juda dolzarblik kasb etadi, – deb o’ylaymiz. Chunki ustozlari Hamid Sulaymon, Maqsud Shayxzoda, Natan Mallayev kabi yirik adabiyotshunos olimlar qo’lini tutib, ularning yo’lini davom ettirganliklari bois qadr topdi – deb aytish barobarida olimning bir qancha fazilatlarini sanab o’tishni joiz deb bilamiz:

Ustoz, adabiyotshunos olim, zullisonayn ijodkor, mohir tarjimon, matnshunos, publicict, darslik, qo’llanma va dasturlar muallifi, muharrir… .

Bu sifatlarni yana ko’plab davom ettirish mumkinki, olimning keng qamrovli ijodkor ekanligi, ilm-ma’rifat izlaganligi, ma’rifatparvarligi bois sermahsul ijod namunalari ya’ni, qimmatbaho kitoblarining qo’ldan-qo’lga o’tib kitobxonlar, izlanuvchilar e’tiborida ekanligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Sharqning mashhur mutafakkiri, ulug‘ shoir va faylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil: “Ilm va tarbiyani bir-biri bilan bog‘liq hodisa deb bilgan. Chinakam axloqli odamda kuchli bilim bo’ladi, saodatga eltuvchi tengsiz vosita bo’lmagan kishida baxt yo’q”, deydi.

Mehnatkash olim, kamtar va samimiy inson Hamidjon Homidov timsolida har ikkisining mukammal tajassumini ko’ramiz.

Nafaqat o`zbek mumtoz adabiyotining, balki sharq adabiyotining ham zukko bilimdoni Natan Mallayev fors adabiyotining mashhur vakillari Abulqosim Firdavsiy va Nizomiy Ganjaviy haqida narixiy badiiy ocherklar e’lon qilgan edi. Shogirdi Hamidjon Homidovga aynan shu mavzuni davom ettirishni, yani Firdavsiy qalamiga mansub “Shohnoma”ning o`zbekcha tarjimalarini tadqiq etishni maslahat beradi.

Olim o’nlab qo’lyozma manbalarni sinchiklab o’rganish natijasida XVI – XIX asrlarda buyuk Firdavsiy “Shohnoma”si Hasan Muhammad Xomushiy, Nodir Muhammad, Shoh Hijron, Muhammad Ya’qublar tomonidan nazm va nasrda turkiy tilga tarjima qilinganligini aniqlab adabiyotimiz xazinasini boyitdi – desak anglishmaymiz.

Professor Hamidjon Homidov o’zbek va tojik tillarini mukammal bilgan olim. Shuning uchun ham olimning tadqiqotlarida bu ikki til bilan bog‘liq bo’lgan mavzularning ustivor mavqe tutishi bejiz emas. Ayniqsa, Firdavsiy va o’zbek adabiyoti mavzusi olimning katta kuch va bilim sarflagan sohasi ekanligini bilamiz.

Hakim Abdulqosim Firdavsiy forsiy she’riyatda tengi yo’q, jahon adabiyotining eng ulug‘ dostonnavisi sifatida ma’lum va mashhur bo`lgan. Uning “Shohnoma” dostoni jahon adabiyotining durdona asarlaridan biri hisoblanadi. Ulug' shoir ushbu 60 ming baytga yaqin bebaho asarni 30 yil mobaynida, fors tili imkoniyatlaridan keng foydalangan holda yozgan.

Abdulqosim Firdavsiy feodal o’rta asrda yashadi. G`aznaviylar sulolasining hukmronligi-yu, o’zaro feodal urushlar, bid’at bilan tafakkur, jaholat bilan ilm -fan o’rtasidagi kurashlarni ko’rdi. Xalq yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, ilm- fan yutuqlari, san’at va adabiyot obidalari unga kuch-quvvat va tuganmas ilhom bag‘ishladi.

Firdavsiy xalq og‘zaki ijodini, yozma adabiyot va tarix kitoblarini ishtiyoq bilan o’rganadi, qadimgi afsona va rivoyatlarni maroq bilan

tinglaydi, ularni yozib boradi, arab va pahlaviy (qadimgi Eron) tillarini mukammal egallaydi. Ilmga chanqoq va zahmatkash Firdavsiy O'rta Osiyo, Eron, Yunon, Hindiston va arab olimlarining asarlarini qunt bilan o'rganadi va zamonasining peshqadam donishmandlaridan biri bo'lib yetishadi.

Firdavsiy o'z ijodini lirikadan boshlaydi. U she'riyatda katta tajriba to'plab, iste'dodli qalamkash sifatida shuhrat qozongan bir pallada – 35 yoshida "Shohnoma"ni yaratishga kirishdi. Ulug' siymo jahon eposining gultoji bo'lgan "Shohnoma"ning xotimasida o'z umri, she'riy dahosining boqiyligi haqida bunday degan edi:

Binohoi obod gardad xarob,
Zi boronu az tobishi oftob.
Payafkandam az nazm koxe baland,
Ki az bodu boron nayobad gazand.
Namiram az in pas, ki man zindaam.
Ki tuxmi suxanro parogandaam!

Mazmuni:

"Obod binolar yomg'irdan, quyosh nuridan xarob bo'lib ketadi. Biroq men she'rdan shunday bir qasr yaratdimki, u shamoldan ham, yomg'irdan ham zarar ko'rmaydi. Bundan keyin men aslo o'lmayman, chunki so'z urug'ini ekkanman".

Darhaqiat, buyuk alloma Firdavsiy yanglishmadi. Zamonlar o'tdi. Bashariyat tarixi ne-ne hodisa va voqealarni boshidan kechirdi. Biroq ayrim g'oya va tushunchalarning umri tugayotganiga qaramay, Firdavsiyning yuksak qasri – "Shohnoma" ming yillardan ziyod vaqt o'tibdiki, avloddan-avlodga o'tib, yashab kelmoqda. Buning siri shundaki, Abdulqosim Firdavsiy insonning olijanob fazilatlarini, uning zakovati va qudratini, el va yurt oldidagi burchini, baxt va saodat, osoyishtalik va farovonlik uchun kurashini, zulmatga qarshi ziyoning, jaholatga qarshi ma'rifatning g'alabasi muqarrarligini yuksak mahorati bilan badiiy aks ettirdi, xalqning, xalq dahosining manguligini ifodaladi. [Homidiy izohi]

H. Homidiy o'nlab qo'lyozma manbalarni sinchiklab o'rganish natijasida XVI –XIX asrlarda buyuk Firdavsiy "Shohnoma"si Hasan Muhammad Xomushiy, Nodir Muhammad, Shoh Hijron, Muhammad Ya'qublar tomonidan nazm va nasrda turkiy tilga tarjima qilinganligini aniqlab, adabiyotshunosligimiz xazinasini boyitdi, desak yanglishmaymiz.

Mangu barhayot – "Shohnoma" eronlik va barcha forsiyzabon xalqlarning iftixori hisoblanadi. Asar insoniyat yaratilishidan boshlab to Firdavsiy yashagan davrgacha bo'lgan zamonning din, ilm, e'tiqod, axloq,

voqealar va asotirlar tarixi hisoblanadi. Eronliklar uni tarix deb biladilar, unga milliy o’zlikni anglash ramzi sifatida qaraydilar.

Bugungi kunda Sindo’xt va Rudoba farzandlari Qobul va Turkiston hamda Hindistonda bor. Qadimgi Bobuldan tortib, Movarounnahr va hatto Xitoyning turli go’shalarida ham mavjud ekanligi ma’lum. Zero, Faridun jahonni o’g‘illari Eraj, Salm va Turlarga taqsimlab bergandi. Bu o’lkalarda ularning avlodlari bo’lishi, tabiiy. “Shohnoma”da bulardan ayrimlari qisman tasvirlangan .

Tirishqoq va mehnatkash olim Hamidjon Homidiy dastxat manbalar tarkibidan “Shohnoma” syujetlari asosida o’zbek tilida yaratilgan “Qissai Siyovush”, ”Qissai Suhrobi Yal” singari xalq kitoblarini topib, ilmiy iste’molga kiritdi. Serg‘ayrat olim “Yoshlik” jurnalida “Qissai Siyovush” matnini e’lon qildirishga ham ulgurdi.

Hamidjon Homidov 1968-yilda “Shohnomaning bir klassik o’zbekcha tarjimasi haqida” mavzusidagi nomzodlik, 1991-yilda “Firdavsiy va o’zbek adabiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgani yillar davomida amalga oshirilgan mehnatining samarasidir.

Serqirra olim Hamidjon Homidiy ijodiga tasanno aytib, ustozning o`zi Xoja Ahmad Yassaviydan keltirgan baytni eslash o`rinli, deb hisoblaymiz:

Chin olim yostug‘in toshdan yaratdi,
Nima uqdi – ani olamga aytdi.

Olim yigirmadan ortiq adabiyotshunoslikka doir kitob, 10 dan ortiq tarjima asarlar, 10 dan ortiq darslik va qo’llanmalar, 1000 ga yaqin ilmiy va ilmiy ommabop maqolalar muallifi, ko’plab fan doktorlari hamda fan nomzodlarini yetishtirgan allomadir. Olimning yetuklik darajasini uning amalga oshirgan sermahsul ijod namunalari ko’rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Маллаев. Н.М. Абдулқосим Фирдавсий. – Тошкент: Ўзадабийнашр. 1962. – 92 б.

1. Фирдавсий, Абдулқосим. (2012). “Шоҳнома”: сайланма / А. Фирдавсий; нашрга тайёрловчи ва насрий баёни таржимони Ҳ. Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж. Муҳаммад. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2012. – 188 б.

2. Ҳомидов Ҳ. Барҳаёт шеърий қаср. – Тошкент: Фан,1979. – 64 б.

3. Ҳомидов Ҳ. Боқий бўстон таровати. – Тошкент: Адабиёт ва саньат нашриёти, 1986. – 216 б.
4. Ҳомидов Ҳ. “Шоҳнома”нинг шуҳрати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 96 б.
5. Ҳомидов Ҳ. Фирдавсий ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 192 б.

PANDNOMA ASARLARINING VUJUDGA KELISH OMILLARI

Majidov Umedjon Abduraxmonovich,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti, PhD

Annotatsiya: Maqolada “To‘tinoma” va “Qush tili” turkumidagi asarlarni ilk manbalari va ularning paydo bo‘lishi hamda hind ertaklarining pandnoma janridagi asarlarga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “To‘tinoma”, “Qush tili”, “Shukasaptati”, Naxshabiy, Xiromiy.

Annotation: The article explores the earliest sources and origins of works belonging to the “Totinoma” and “Qush Tili” genres, as well as the influence of Indian folktales on the didactic literary tradition.

Keywords: “Totinoma,” “Qush Tili,” “Shukasaptati,” Nakhshabi, Khiromi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida adabiyot va ma’naviyat davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining davlat dasturida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish adabiyotshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar ko‘lamini yanada kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar... buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan mutafakkirlarimiz asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir” deganlari buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarni yanada kengroq o‘rganish uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda.

O‘zbek xalqi tarixi va uning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan g‘aznaviylar davlati o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davlat hozirgi Afg‘oniston, Eron va Markaziy Osiyo hududlarini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, uni buyuk davlat arbobi M. G‘aznaviy (*998–1030*) boshqargan. U X-asrning boshida islom bayrog‘i ostida Shimoliy Hindistonni zapt etadi va asta-sekin mamlakatning boshqa hududlarini ham o‘z tasarrufiga kiritadi. Shu tariqa Hindistonda islom dini keng tarqala boshlaydi va M. G‘aznaviy vafotigacha uning davlati hududlari g‘arbdan Roy va Isfahongacha, shimoldan Buxorogacha, sharqdan janubga Dehli va Hind daryosi irmoqlarigacha bo‘lgan erlarni o‘z ichiga oladi. O‘sha davrda Hindistonda G‘aznaviylar davlati tili arab tili bo‘lgan. Shuningdek, adabiy til sifatida fors tili ham keng yoyila boshlagan. Ana shu davrda Hindistonga Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Eron xalqlarining ham ko‘chib kelishi ortidan bu yurtga mazkur xalqlarning ijod namunalarining kirib kelishi va keng tarqalishi hamda badiiy an’analarning o‘zaro ta’sir doirasining kengayishi va yangidan-yangi asarlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

M. G‘aznaviy vafotidan keyin, uning qudratli saltanati saljuqiylarning ketma-ket qurolli hujumlari natijasida asta-sekin yemiriladi, natijada davlat tepasiga oldin unga tobe bo‘lgan quriylar keladi va 1206-yilda ular xorazmshohlarning zarbalari ostida tarix sahnasidan tushadilar. Shu yilning o‘zidayoq Qutbiddin Oybek o‘zini Shimoliy Hindistonning sultoni va poytaxtni Dehli shahri deb e’lon qiladi. Tarixda keyinchalik bu davlatchilik “Dehli sultonligi” deb atalib, uning rivoji Alovuddin Xiljiy (*1296-1316*) davriga to‘g‘ri keladi.

Shu davrda sultonlik poytaxti Dehli adabiy hayotning markaziga aylanadi. Sulton saroyida Markaziy Osiyolik shoir va adiblar ijod qila boshlaydilar. Ular orasida Naxshabiy va Amir Xusrav Dehlaviyning ustozi Shahobiddin Badavuniy ham bo‘lgan. Shu davr fors adabiyotida Hindiston xalqlari hayoti, xususan, hind adabiyoti syujetlariga bo‘lgan qiziqish kuchaya boshlaydi. O‘z navbatida, hindlar Markaziy Osiyo adabiyoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘zaro adabiy aloqalarning rivojlanishiga o‘zlarining ma’lum hissalarini qo‘sha boshlaydilar. XII-asrning o‘rtalariga kelib, Hindistonda fors tilidagi adabiyot, ma’lum darajada, o‘zining dastlabki kurtaklarini ota boshlaydi. O‘zaro adabiy aloqalarning yanada rivojlanishi Hindiston xalqlarining qadimiy ijod namunalari va folklor asarlariga bo‘lgan qiziqishini tobora oshirdi. XIV-asrga kelib, Dehli sultonlari qadimgi hind qo‘lyozma yodgorliklarini fors tiliga o‘girish masalasini o‘rtaga qo‘yadilar. Natijada, qadimgi hind

yodgorliklaridan astronomiya, musiqa nazariyasiga oid va badiiy asarlar fors tiliga o‘girila boshlanadi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ayniqsa, badiiy asarlarning tarjimasida tarjimonlar erkinlikka, ya’ni asar tarjimasiga ijodkorlik nuqtai nazaridan yondashar edilar. Shunday tarjimalardan birini adib va shoir shayx Ziyovuddin Naxshabiy amalga oshirgan. Bu kitobning nomi “To‘tinoma” deb atalib, o‘z davrida uni rus tiliga Ye. Bertels va qisman o‘zbek tilidagi tarjimalarni R. Obidxo‘jaev va R. Komilovlar amalga oshirgan [Зия ад дин Нахшаби 1982; Тўтинома 1962].

1970-yilda tojik olimi A. Alimardonov uzoq yillar izlanishlardan so‘ng, “Ziyovuddin Naxshabiy va uning “To‘tinoma” asari” mavzuida doktorlik ilmiy ishini amalga oshirib, Naxshabiyning hayoti va ijodini nisbatan mukammal tiklashga muvaffaq bo‘lgan [Алимардонов 1970].

Ma’lum vaqtgacha hind tilidagi “Shukasaptati” (“*To‘tinoma*”) asarining qadimgi sanskrit tilidan fors tiliga ilk tarjimoni Naxshabiy deb hisoblanib kelingan. Ungacha ham bu asar tarjima qilingani haqida xabarlar ma’lum adabiy talqin sifatida qabul qilib kelingan. Biroq, keyingi vaqtlarda bu asarning tarjimasi XIV-asrda noma’lum bir muallif tomonidan ham amalga oshirilganligi haqidagi xabarlar tarqaldi. Lekin bu tarjimaning qo‘lyozma nusxasi qaerda saqlanayotganligi hanuz ma’lum emas edi.

1973-yilda Tehronda “To‘tinoma” “Javohir al-asmor” nomi bilan nashr qilingan kitobda bu asarning hozircha yagona deb hisoblanayotgan XIV-asrda ko‘chirilgan nusxasi Tehron Oliy Majlis kutubxonasida saqlanayotganligi va uning muallifi Imod bin Muhammad Noiri (*yoki Sog‘ariy*) bu asarni o‘z vaqtida Dehli sultoni Alavuddin Muhammad Sultonga (*1296-1316*) taqdim etganligi ma’lum bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “To‘tinoma” ning yangi tarjimasiga sabab bo‘lgan nusxa aynan shu ekanligi ayon bo‘ldi. Demak, Naxshabiy mana shu Muhammad Noiri tomonidan 1313-1316 yillarda amalga oshirilgan tarjima nusxasini istifoda etgan holda “To‘tinoma”ning badiiy jihatdan yuksak darajada o‘ziga xos bayon uslubiga ega bo‘lgan asarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Haqiqatan, muallif asar so‘z boshisida ta’kidlaganidek, “Javohir al-asmor” asarini boshdan-oyoq qayta ko‘rib chiqib, turli shoirlar ijodidan keltirgan 300 taga yaqin parchani o‘zining she’rlari bilan almashtirgan. Naxshabiy dostonlarning ibtido va xulosalariga, asarning syujet va asliyatini saqlagan holda jiddiy o‘zgartishlar kiritgan. O‘z navbatida,

Naxshabiy asarga o‘zining ijodidan kamida beshta hikoyatni kiritganligi asarning go‘zal va jozibadorligi ta’minlanishiga sabab bo‘lgan.

Hind hikoyalari haqida gapirganda, ular uzoq qadimiyatga borib taqalishini alohida qayd etish lozim. Ma’lumki, eramizdan bir necha asrlar oldin yashagan hind adiblari hikoya va masallarni yozib olib, to‘plamlar tuzib kelganlar. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bularning tarkibiga kiritilgan hikoyatlardan tashqari, adabiy asarlardan iqtiboslar va to‘plam tuzuvchilarning shaxsiy ijodidan namunalar ham kiritib borilgan va bu an’ana asrlar davomida davom etib kelgan.

Ma’lumki, Hind xalqi ertaklari og‘izdan-og‘izga turli tillarda ko‘chib yurgan va ular badiiy jihatdan qayta ishlanishi natijasida shu darajaga yetganki, natijada, ularning asl syujeti butunlay o‘zgarib ketgan. Shu tariqa bir hikoyat bir nechtaga, yoki qator hikoyatlar bir hikoyat holiga keltirilib, bayon qilingan. Ana shunday katta o‘zgarishlarga duch kelgan to‘plamlar hind tilidan boshqa tillarga o‘girila boshlangan. O‘z navbatida, tarjimonlar ham o‘quvchiga asarning maqbul bo‘lishini xohlab, ularni tarjimasiga ijodiy yondashganlar va o‘zlari yaratgan hikoyat va parchalarni kiritib, asarni sezilarli darajada o‘zgartirganlar.

Qadimgi hind adabiyotida “To‘tinoma”ning fors tiliga tarjima qilinishiga manba yoki asos bo‘lgan bironta ham ertaklar to‘plami mavjud emas. Aytish lozimki, katta o‘zgarishlarga uchragan “Shukasaptati” [Шукасаптати 1960] nomli sanskrit to‘plami mavjud bo‘lib, uning ham dastlabki tahrirdagi nusxasi yo‘qolgan deb hisoblanadi. Darhaqiqat, bir qator “To‘tinoma” dostonlarigina “Shukasaptati” syujeti bilan o‘zaro o‘xshashliklarga ega. Bu esa ayrim tadqiqotchilarning “To‘tinoma” tarjimasi uchun hozir mavjud bo‘lmagan “Shukasaptati” ning tahrir qilingan nusxasi asos bo‘lgan degan xulosaga kelishga sabab bo‘lgan. Ammo, bu ikki asarning qiyosi shuni ko‘rsatadiki, fors tilidagi “To‘tinoma” ham hind ertaklari to‘plamlari asosida tuzilgan. Bu o‘rinda Muhammad Noiriy va Naxshabiy ham ertaklarni yig‘ib borish orqali hind to‘plovchilari an’analariga rioya qilganlar.

Shunday qilib, “To‘tinoma” badiiy jihatdan yuksak adabiy asar bo‘lib, u hind va fors madaniyatlari zaminida vujudga kelgan.

Mashhur sharqshunos Ye. Bertels “To‘tinoma” haqida gapirar ekan, uni yuksak darajadagi go‘zal tilda yozilganligini ta’kidlab, undagi badiiy vositalar, xususan, ajoyib til va o‘ziga xos uslub vaqt o‘tishi bilan eskirib, “To‘tinoma” ning kelgusi taqdiriga ta’sir etganligini alohida qayd etadi. Ikki asrdan so‘ng bu asarning tili o‘quvchi uchun mushkul, tushunilishi qiyin bir holga kelgan. Bu vaqtda boburiylardan Akbar buyrug‘iga asosan

Naxshabiy qalamiga mansub “To‘tinoma” asarining Abulfazl bin Muborak (*1551–1602*) tahriri ostidagi yangi talqini dunyoga keladi. U asar tilini soddalashtiradi, hikoyatlar sonini 52 taga qisqartiradi. Biroq, bu yangi talqindagi “To‘tinoma” qo‘lyozmasi qaerda saqlanayotganligi hanuzgacha noma’lum [Зия ад-дин Нахшаби 1982,10].

Lekin XVII-asrga kelib A. Muborak yaratgan “To‘tinoma” asari ham davr talablariga javob bermay, yanada soddalashtirilgan va o‘ttiz besh bobdan iborat, yangi tahrirdagi Muhammad Xudodod Qodiriy tomonidan amalga oshirilgan talqini yuzaga keladi [Муҳаммад Худодод Қодирий 1906,80]. Bu talqinga Qodiriy Naxshabiy “To‘tinoma”siga kirmagan o‘zining yangi ikkita hikoyatini kiritgan. “To‘tinoma”ning bu nusxasi sharqdagina emas, yevropa mamlakatlarida ham keng tarqalgan. U ikki marta afg‘on, ikki marta o‘zbek, bengal va turkman tillariga tarjima qilingan. Bulardan tashqari 1792-yil ingliz, 1927, 1934-yillarda esa fransuz va rus tillariga ham o‘girilgan. Rus tilidagi dastlabki tarjima 1826-yili, keyingisi Qodiriy tahriridagi 35 hikoyatdan iborat tarjimasi 1915-yili nashr qilingan [Нахшабий Зияеддин 1915].

Yangi hind tillarida “To‘tinoma”ning bir muncha she’riy va nasriy yozilgan variantlari bor. Birisi Qodiriyning, ikkinchisi Naxshabiyning “To‘tinoma”sidan, uchinchisi esa bevosita “Shukasaptati” hikoyatlar to‘plamidan olingan.

Bu to‘plamning Hindistonda eng mashhuri Haydarbaxsh Haydariyning “Tota kaxani” nomli asaridir. U Hindistonda keng tarqalgan urdu tilida yozilgan. 1801-yilda yozilgan “Tota kaxani” 1803-yili Kalkuttada bosib chiqarildi va shu paytgacha qayta-qayta nashr etilmoqda [Ҳинд эртаклари 1956, 5].

Naxshabiy “To‘tinoma”si tahriridagi nusxaga ham mazmuni, ham shakl va davr nuqtai nazaridan yaqinrog‘i Turkiyada yaratilgan “To‘tinoma” hisoblanib, u Naxshabiynikidan 100 yil keyin Sulton Boyazid uchun tuzilgan. Ushbu asarning tarjimoni va tuzuvchisi dostonni qisqartirib, undagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ttizta hikoyatni saqlab qolgan. Bu nusxa, o‘z navbatida, asrlar mobaynida shohlar uchun turk shahzodalarini tarbiyalashda muhim qo‘llanma vazifasini bajargan.

Naxshabiy “To‘tinoma”sining turli davrlarda Hindiston va Markaziy Osiyoda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari bor. Bu sohada tojik olimi R.Alimardonov katta mehnattalab ishni amalga oshirgan. Olim “To‘tinoma” qo‘lyozmalarining jahon fondlarida saqlanayotgan 85 nusxasini aniqlagan. Shu jumladan, uning 9 ta nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanmoqda. “To‘tinoma” asari qo‘lyozma nusxalarining ko‘pligiga

qaramay uning to‘liq holdagi nashri u yoqda tursin, uning to‘liq tarjimasi ham na sharq tillari, na g‘arb tillariga tarjima qilingan edi.

Ushbu ishni birinchi bo‘lib mashhur sharqshunos Ye. Bertels 1920-yilda “To‘tinoma”ning uchta qo‘lyozma nusxasi asosida amalga oshirgan, lekin asar uning vafotidan keyin 1979-yili D. Bertels tomonidan nashr etilgan [Зия ад-дин Нахшаби 1979].

Naxshabiy yaratgan “To‘tinoma”ga taqlidan asar yozgan, XIX-asrda yashab ijod qilgan shoirlardan biri Qurbon Xiromiydir [Ўзбек адабиёти тарихи 1978, 319].

Xiromiy “To‘tinoma”si maxsus ilmiy-tadqiqot mavzui bo‘lmagan. Lekin bu asar haqida “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobining to‘rtinchi jildida (*Toji Qoraev yozgan*) Xiromiy hayoti va ijodi haqidagi maqolada “To‘tinoma” asari haqida dastlabki ma’lumotlar berilgan. Muallifning ta’kidlashicha, jahon adabiyotida “To‘tinoma” turkumidagi syujetga Xiromiygacha Naxshabiy, Qodiriy, Latifiy kabi ijodkorlar murojaat etib, o‘ziga xos badiiy asarlar yaratganlar. Xiromiy o‘zining “To‘tinoma” dostonini Naxshabiyning shu nomdagi dostoniga taqlidan yaratganligi alohida qayd etib o‘tiladi [Хиромий 1960, 334]. Haqiqatan, Xiromiy aynan Naxshabiy “To‘tinoma”sini o‘z asariga asos qilib olganligi bejiz emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Naxshabiydan keyinroq yaratilgan Qodiriy va Latifiylarning “To‘tinoma”lari ancha ixcham va o‘ziga xosligi jihatidan o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini qozongan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3.Абу Ҳомид Ғаззолий. Тавба китоби. /Таржимон ва луғат тузувчи ф.ф.н. Рашид Зоҳид. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. – 148 б.

4.Алимарданов А. Зияуддин Нахшаби и его «Тути- наме»: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Душанбе, 1970.

5.Арасли Нўшоба. Гулшаҳрий ва Навои //Адабий мерос. – Тошкент, 1980. – № 13. – Б. 17-22.

6.Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965. – 524 с.

7.Зийа ад-дин Нахшаби. Книга попугая (Тути-наме). Перевод с персидского Е.Э. Бертельса / Подготовка к изданию, предисловие и примечания Д.Е.Бертельса. – Москва: Наука, 1982. – 348 с.

8.Имомназаров М. Хожа Қози Пайвандий Ризоий//Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 1998. – № 1. – Б. 76-81.
9.Муҳаммад Худодод Қодирий. Тўтиномаи туркий. – Тошкент. – 80 б.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSON MA'NAVIY KAMOLOTINING BADIIY TALQINI

Ismoilova Fotima Baxriddinovna,
SamDU tayanch doktoranti
E-mail: fotimaismoilova813gmail.com

Annotatsiya: Alisher Navoiy ijodi nafaqat mumtoz adabiyot, balki zamonaviy o'zbek adabiyotining qirralarini ochib berishda o'ziga xos xususiyatga ega. Ijodkor yaratgan asarlarning, ijodi mahsulining cheg-chegarasiz ma'no-mazmunga ega ekanligi, uni hattoki bugungi kun o'quvchisi ham maroq bilan mutolaa qilishi o'zgacha, takrorlanmas o'ziga xos uslub yarata olganidan dalolat beradi. Bugungi XXI asr adabiyoti vakillari faqat buungi zamonaviy hayot taqozo etayotgan mavzularda qalam tebratishdan tashqari, bevosita mumtoz adabiyotimizga, o'rta asrlarda ijod qilgan mutafakkirlarimizga ham murojaat qilishmoqda, ularning nodir namunalaridan bugungi kun o'quvchilari ham ko'proq bahramand bo'lishini istamoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodi XXI asr adabiyotiga ta'siri ko'p qirrali va dolzarb masala. Uning boy ma'naviy merosi nafaqat qadriyat sifatida, balki zamonaviy adabiy tafakkur, estetik qarashlar, ma'naviy-axloqiy tamoyillar shakllanishida ham katta ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy ijodi, uning ma'naviy-axloqiy g'oyalari, insonparvarlik, adolat, ilm-fan va ijodga hurmat kabi qadriyatlar bugungi kun adiblariga ulkan ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi ijodkorlar ham Alisher Navoiy kabi jamiyatdagi axloqiy inqirozga qarshi turish, ruhiy poklik va odamiylik masalalarini ko'tarishda undan "oziqlanmoqda".

Bugungi kunda ko'plab yozuvchi va shoirlar Alisher Navoiy shaxsi va ijodiga bevosita murojaat qilib, qalam tebratishmoqda. Muhammad Ali, Xurshid Davron, Usmon Azim, Abduvali Qutbiddin kabi zamonaviy shoirlar o'z ijodlarida Navoiy ruhiyatini, uning poetikasini zamonaviy shaklda davom ettirmoqda. Yozuvchilardan esa Tohir Malik, Isajon Sulton kabi adiblar Navoiy ijodidan bahra olib, qalab tebratishmoqda. Ushbu

maqolamizda Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani tahlilga tortilmoqda.

Kalit so‘zlar: “oziqlanmoq”, hamd, “Bo‘l”, “Xazoyin ul-ma’oniy”, “Qizil, sorig‘, yashil...”, tarixiy davr, cho‘ng asar, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, ruhiy poklik, insonparvarlik, odamiylik, tasavvuf.

Annotation: Alisher Navoi’s works represent not only classical literature but also play a crucial role in uncovering the nuances of modern Uzbek literature. The uniqueness of the content and the artistic excellence of his works are so profound that even today’s readers are deeply interested in reading and analyzing them, despite the centuries that have passed. His ability to create a unique style and expression proves the timeless nature of his art. In today’s literary process, many contemporary writers refer directly to classical literature and the works of great thinkers from the medieval period, including Navoi, in order to find inspiration and benefit from their legacy.

Moreover, Alisher Navoi’s creativity remains a highly relevant and important topic in the 21st century. His spiritual heritage continues to serve as a source of inspiration. Today’s writers also turn to Navoi's ideas to address moral crises in society and to promote inner purity and humanity in their works.

Nowadays, many writers and poets are directly referring to Alisher Navoi’s personality and creativity in their writings. Muhammad Ali, Khurshid Davron, Usmon Azim, and Abduvali Qutbiddin are among the poets who continue Navoi’s poetic spirit and style in a modern way. Writers such as Tohir Malik and Isajon Sulton are also drawing inspiration from Navoi’s legacy. In our articles, we analyze Isajon Sulton's novel Alisher Navoi".

Keywords: “to be nourished”, praise, “Be”, “Khazoyin ul-ma’ani”, “Red, yellow, green...”, historical period, masterpiece, moral and spiritual ideas, spiritual purity, humanism, human decency, sufism.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va boshqa mutaffakirlarimiz ijodining bugungi kun zamonaviy adabiyoti shakllanishida ham ma’lum ma’noda hissasi bor deya olamiz. Bundan ko‘plab yozuvchi shoirlarimiz “oziqlana olgan”. Biroq bu oziqlanish, madad olish turli ijodkorlarda turlicha shakl va darajada voqe bo‘ladi, uni bir xil qolip va shakllar bilan belgilash qiyin. Masalan, ayrim yozuvchilar ijodida juda yorqin ko‘rinib turadi. Bu xususiyat mohir yozuvchi Isajon Sulton ijodida ham o‘z aksini topdi.

Zamonaviy, mustaqillik davri yozuvchisi bo‘lmish Isajon Sulton o‘zining ko‘plab asarlari bilan kitobxonlarini topa olgan. Ana shunday sara namunalaridan biri “Alisher Navoiy” romanidir. Ijodkor tarixiy roman yozishni maqsad qilarkan, uning oldida ulkan bir mas’uliyat yotadi. Shoir yoki yozuvchi tarixiy mavzuda ijod qilishga bel bog‘larkan, tom-tom kitoblarni, sahifa-sahifa tadqiqot va arxiv materiallarini to‘playdi, ularni chuqur o‘rganadi.

Asqad Muxtor aytganidek, “Odissey arvohlarni o‘zi bilan suhbatlashishga ko‘ndirish uchun ularga o‘z qonidan berib tiriltiradi. Yozuvchi tarixiy shaxslar haqida yozganida shunday qilishi kerak”.[htpps://kh-davron-uz]

Isajon Sultonning bu romanida muallif buyuk shoir hayotining eng muhim bosqichlarini badiiy talqin qilib ochib beradi. Asarda faqatgina tarixiy-biografik faktlar emas, balki shoirning ichki ruhiy olami ham yoritiladi. Navoiy siymosida ma’naviy komillikka intilayotgan inson, doimo o‘zini poklashga, jamiyatga foydali bo‘lishga harakat qilayotgan shaxs tasvirlanadi.

Alisher Navoiy nafaqat o‘rta asrda yashab ijod etgan yashab o‘tgan bir mutafakkir, balki u har bir davr uchun zamon kishisidir. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanini o‘qib boshlarkanmiz, kitobning ilk sahifalaridanoq Alisher Navoiy uslubi kabi Allohga hamd bilan boshlanadi. Allohning yaratuvchilik qudrati, Yaratganga shukronalik hissi, birgina “Bo‘l” degan hukm bilan jamiki mavjudotlarning yaratganligi. Romanda Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan boy merosimiz yaratilish tarixi haqida ishonchli ma’lumotlar berib ketilgan. “Navoiyning Astrobodga surgun qilinishi” masalasiga ham oydinlik kiritadi. Oybek o‘zining Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida buni “markazdan uzoqlashtirish” deb ataydi. Isajon Sulton esa o‘z asarida Navoiyning Xuroson janubiga Astrobod viloyatiga hokim etib tayinlashida uni Hirotdan uzoqlashtirish, “surgun” qilish maqsadi bo‘lmaganini ko‘rsatib bergan. Ya’ni Husayn Bayqaro shu yo‘l bilan janubda tobora kuchayib kelayotgan safaviylarga qarshi munosib himoya o‘rnatishni, bunda Navoiyning mavqei, kuchli siyosatdonlik mahoratidan foydalanishni ko‘zlaydi. Romanning bu bobida Navoiyning naqadar o‘tkir siyosatchi, odil, tashabbuskor rahbar bo‘lgani ham ochib beriladi. [Ilmiy xabarnoma, 2021:5].

Roman qurilishi Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni ichki strukturasiga mos 4 qismdan tashkil topgan: “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoe’ ul-vasat”, “Favoid ul-kibar”. Ya’ni asarda

ayni shu qismlarida Navoiyning bolalik, yoshlik, ya’ni o‘smirlik, o‘rta yoshlik va keksalik davri voqealari boy mahorat bilan qalamga olingan.

Alisher Navoiy hayotida tasavvuf muhim o‘rin tutadi. Romanda shoirning Attor va Rumiy ijodidan ilhomlanishi, bu asarlar orqali qalban uyg‘onishga erishgani ko‘rsatiladi. Bu esa, shubhasiz, uni ma’naviy g‘oyalar targ‘ibotchisiga aylantiradi. [Qayumov, 1991: 91].

Alisher Navoiy tasavvuf va tafakkur orqali insonning o‘z nafsini yengish, qalbni poklash, adolatli va mehribon bo‘lish, donolik sari intilish kabi ma’naviy tamoyillarni ilgari suradi. “Xamsa” tarkibidagi “Hayrat ul-abror” dostonida ma’naviyat asoslari nazariy va badiiy tarzda bayon etilgan bo‘lib, bu orqali Navoiy jamiyatni ham, shaxsni ham, davlatni ham yuksaltirishni maqsad qilgan. [Yo‘ldoshev, 2013: 112].

Shuningdek, yozuvchi romanida Navoiyni nafaqat davlat arbobi va shoir, balki doimiy ruhiy izlanishda bo‘lgan, kamolotga intilgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Asarda Navoiy yoshlikdan boshlab ruhiy poklik, donolik, sabr, tavoze, halollik, kabi qadriyatlarga sodiq inson qiyofasida gavdalanadi. Jumladan, romanda tasvirlanishicha, Navoiy madrasada o‘qib yurgan paytdagi mulohazalari orqali uning tafakkurida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar aks ettiriladi:

U bilim orttirar, ammo bu bilim faqat donolik emas, qalb pokligi uchun zarur ekanini tushunib borardi. [Sulton, 2021: 37].

Asarda Navoiy ijodidagi muayyan bir asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy, ruhiy omillar ham ko‘rsatib beriladi. Romanda ko‘rishimiz mumkinki, juda ko‘p g‘azallarning yaratilishi va uning atrofidagi jarayonlar mahorat bilan tasvirlangan.

“Qizil, sorig‘, yashil...” radifli g‘azali Alisher va Bayqaroning Mashhad safariga otlanganda yaraldi. “Taqdirning yana bir hadyasi mana shu safar chog‘ida zuhur etdi. Ko‘hsordan o‘tilgach, o‘ng tarafda uch xil tusdagi kichik tog‘lar namoyon bo‘ldi. Ularning biri qizil, biri sariq bo‘lib, har ikkisi ham yaydoq, ustida o‘t-o‘lan o‘smagan, uchinchisini esa yosh archalar qoplab olgan, yashilliklarga burkanib ko‘zga tashlanib turardi. Tangri taolo yaratgan qizil, sariq, yashil mo‘jizalarning bunday ajoyib silsilasi yigitcha ongida ajoyib larza paydo qildi. [Sulton, 2021: 93].

“Xamsa” dostoni tarkibidagi “Farhod va Shirin” dostoni yaratilishiga ham bu voqeada bir ishora bor. O‘smirlik chog‘ida Navoiy tog‘asi Kobuliy bilan lola sayliga chiqadi. U yerda tosh kesayotgan sangtarosh bir yigitni uchratib qoladi. Yigit qoyatoshni yo‘nib, vodiyga suv chiqarish uchun mehnat qilayotgandi. U bilan suhbatda shu narsa ayon bo‘ladiki, yigitning ismi Xusrav bo’lib, Navoiy Shirin ham bordir deb ishora qiladi. Yigit ham

tasdiq ma’nosida ulus ichida bior Shirin ismli qiz ham borligini aytadi. Keyinchalik Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yozayotganida shu voqeani yodga olgan va Farhod timsoliga o‘sha o‘zi ko‘rgan va suhbatda bo‘lgan Xusrav ismli yigitni kiritgani ma’lumotlarda aytib o‘tilgan.

Shuningdek, malik ul-kalom Lutfiy 10-12 ming forsiy va turkiy baytini almashmoqchi bo’lgan mashxur baytni yodga olsak:

Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh...

Shom kunduz bosimini ozaytirib, yengillik ola keldi. Qizg‘ish yog‘dular zaiflashib g‘oyib bo‘lar ekan, nimtatir-ko’kimtir tuslar qolganida, yulduzlar ko‘paya bordi. Qushlarning shom sayrog‘i tindi. Samo yulduzlari qaroqdan sizib chiqqan musaffo yosh tomchilar kabi bo‘lib qoldi va ushbu kun botishi, mehr quyoshi, qoramtir-ko‘kish samo va jimirlovchi yulduzlar unga ajoyib tashbeh hadya etishdi. Quyosh botgach, uni sog‘inib yig‘latguvchi bola ko‘zidan sochilgan yoshlar tasavvurda yulduzlarga aylangan.Bu go‘zal o‘y endi she’rga aylanishi kerak edi. [Sulton, 2021: 63].

Bu baytlar Alisher va uning oilasining Hirotdan Iroqqa ko‘chganida, Iroqdan qo‘nim topganida vujudga kelgan edi. Dastlab shu 2 misra yaratilgan bo’lsa-da, bola Alisherning bu bu qadar so‘zlarni nozik ipga tergandek yaratgan misralari tahsinga sazovor. Har qanday bugungi kun o‘quvchisi uchun ilhom bo‘ib xizmat qila oladi.

Alisher Navoiyni Mir Alisher Navoiy darajasiga ko‘targan “Xamsa”ning tugallanishi, “Mukokamat ul-lug‘atayn” muhokamalari, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”- bularning barchasi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida o‘z aksini topgan.

Adib Xayriddin Sulton roman uchun Isajon Sultonga minnatdorchilik sifatida maktub yozadi. Unda shunday so‘zlar qalamga olingan edi:

Bir paytlar rahmatli ustozlarimiz Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratgan betakror asarlardan so‘ng adabiyotimizda uzoq vaqtdan buyon muayyan bo‘shliq vujudga kelgan va cho‘ng bir asarga ehtiyoj bor edi.

Boshqacha aytganda, bizning adabiy avlodimiz Alisher Navoiy haqida o‘z badiiy so‘zini aytishi ko‘pdan buyon kutilmoqda edi.

Siz ana shunday ulug‘vor va mas’uliyatli vazifani jasorat bilan zimmangizga olib, uni yorug‘ yuz ila ado etganingiz bilan chin qalbimdan tabriklayman

Yana romanga qaytadigan bo‘lsak, albatta, bunday ulkan, muazzam asarda juz’iy kamchiliklar bo‘lishi ham tabiiy. Zero yana ul hazrat ta’biri bilan aytganda, “yanglish va xato kishilik shartidir”.

Siz katta bilim va tajribaga, adabiy mahoratga ega adib sifatida yangi asaringizni butun bo‘y-basti bilan, fazilat va nuqsonlari bilan ko‘rib turibsiz deb o‘ylayman. Istardimki, qutlug‘ mavzudagi ushbu romanda hech qanday, hatto kichkina bo‘lsa-da, kamchilik uchramasa. [Sulton, 2021: 509].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mir Alisher Navoiy asrimizning yetuk dahosi, uning boy lirik merosi avlodlarga qoldirilgan ulkan tuhfadir. Bu ulkan shoirimiz ijodi uzoq asrlar davomida adabiyot ixlosmandlari uchun dasturilamal vazifasini o‘tashi shubhasiz. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani orqali kitobxon nafaqat tarixiy shaxs haqida, balki inson ma’naviy komillikka qanday erishishi haqida ham chuqur tasavvurga ega bo‘ladi. Navoiy siymosi orqali badiiy asarda sabr, muhabbat, poklik, donolik kabi yuksak qadriyatlar ilgari suriladi. Bu asar o‘quvchini ruhiy boylik, axloqiy yetuklik va tafakkur orqali “oziqlantiradi”.

Ulug‘bek Hamdam so‘zlari bilan yakunlaymiz: “Binoiydek bo‘lish oson, eplay olsangiz, Navoiydek bo‘ling”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar. – №5. 2021.
2. Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. Muxtor A. Tundaliklar. Uyqu qochganda, htpps://kh-davron-uz
4. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom//Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 10-avgust.
5. Jo‘raqulov M. Alisher Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Yo‘ldoshev M. Navoiy asarlarida axloqiy g‘oyalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2013.
7. Qayumov A. Navoiy siymosi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
8. Abdug‘aniyev B. Isajon Sultonning tarixiy romanlarida ruhiy olam talqini //Adabiyotshunoslik masalalari, 4(12), 56-61, 2018.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAGI DINIY-MA’RIFIY QISSALARDAGI SHE’RIY JANRLARDAN NA’MUNALAR

Sevinch Aliyeva, *JizzaxDPU doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyoti diniy-ma’rifiy asarlarning yaratilishiga hissa qo‘shgan asarlar Sayf uz-Zafar Navbahoriyning “Durr

ul-majolis” va Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarilaridagi badiiy na’munalar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: diniy-ma’rifiy asar, “Durr ul-majolis”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Rohati dil”, Islom dini, tarbiya axloq-odob, badiiy mahorat, she’riy janrlar, Ibrohim ibn Adham.

Abstract: The article examines artistic examples in Sayf uz-Zafar Navbahori's "Durr ul-majolis" and Khojanazar Huvaido's "Rohati dil", works that contributed to the creation of religious and educational works in Uzbek literature.

Key words: religious and educational work, "Durr ul-majalis", "Tarihi anbiyyah va hukamo", "Rohati dil", Islamic religion, education, ethics, artistic skills, poetic genres, Ibrahim ibn Adham.

O‘zbek adabiyoti tarixida diniy-ma’rifiy ruhda yozilgan bir qator asarlar mavjud bo‘lib, ularning ma’naviy qimmati hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Jumladan, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”, Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarlaridir, bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu asarlar yaratilishidan oldin ham O‘rta Osiyo adabiyotida hamda fors adabiyotida ham diniy-ma’rifiy ruhda yozilgan bir qancha ma’lum-u mashhur bo‘lgan adabiyotlar bo‘lgan. Ular fors tilida yoki tarjima holatida o‘qib o‘rganilgan. Shulardan biri bo‘lgan Sayf uz-Zafar Navbahoriyning “Durr ul-majolis” (“Majlislar durdonasi”) asarini keng muhokama maydoniga tortmoqchimiz. Ushbu asar fors tilida yozilgan bo‘lib, 33 bobdan iborat, lekin asar qayerda va qachon yozilganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Asar muallifining ismi ham turli manbalarda turlicha keladi. “Sharqda mashhur bo‘lgan Somibekning “Qomus ul-a’lom” nomli qomusiy asarida muallif haqida qisqa ma’lumot bo‘lib, unda shunday deyiladi: “Sayf ul-Zafar Navbahoriy beshinchi qarni hijriy ulamosindan o‘lib, “Durr ul-majolis unvoni-la bir ta’lifi bordur”. Demak, bu asarga suyanadigan bo‘lsak, bu asar XI asrda tasnif etilgan.”[1] Asarning turli xil qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, Turkiston hududida besh marta o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu nusxalardan to‘rttasi Sharqshunoslik universitetida saqlanmoqda, ulardan uchtasi qo‘lyozma, bittasi bosma holatida, yana bir nusxasi esa Haydarbek Bobobekovning shaxsiy kutubxonasida 163 raqami bilan mavjud. Qo‘limizdagi kitob ham shu beshinchi nusxa asosida tuzilgan bo‘lib, bu nusxa qolgan nusxalardan ko‘ra oldinroq ko‘chirilgan. Bu kitob 1992-yil Toshkent shahrida “Meros” nashriyoti tomonidan Sayf uz-Zafar Navbahoriy “Durr ul-majolis” nomi

[1] Сайф уз-Зафар Навбаҳорий. Дурр ул-мажолис.- Тошкент: «Мерос» нашрёти, 1992. 3-бет.

bilan chop etilgan. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: Haydarbek Bobobekov, Mahmud Hasaniy bo‘lishgan. Bu kitob asarning nusxasiga qaraganda bir muncha soddaroq va izohlar bilan, o‘quvchiga tushunarli qilib tuzib chiqilgan.

“Durr ul-majolis” asari nasriy qissa shaklida yozilgan bo’lsa ham hikoyatlar davomida masnaviy shaklida baytlar ham keltirilgan. Bulardan 2 misrali 26 ta bayt, 4 misrali 12 ta, 6 misrali 2 she’riy na’munalar keltirilgan. Ularning asosiy vazifasi hikoyatlarni yanada ta’sirchanligi hamda badiiylini oshirish hizmat qilgan. Muallif asarning so’ngini 6 misrali masanviy bilan tamomlagan:

Shu ba tavfiqi Xudoyi lo-yanom,
Chun kitobat ro’zi shanba tamom.
Xatti taqdir ast berun az g‘alat,
Az g‘alat xoli naboshad hech xat.
Har ki xonad duo tama doram,
Zon ki man bandam gunohkoram[1].

Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarlari tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, asar insonning komillikka intilish yo‘lida islom dinini asos qilmog‘i, e’tiqodini mustahkamlashga qaratilgan. Asarda keltirilgan fikrlar turli hikoyat va rivoyatlar bilan asoslangan bo‘lib, bu hikoyat va rivoyatlarda payg‘ambarlar, Muhammad s.a.v va ularning sahobalari, o‘tmishda o‘tgan shayxlar hayotlari asosisida yaratilgan. Bu hikoyatlarni mag‘zini chaqib, hozirgi yosh avlodga tushunarli qilib, o‘qiganlarida hech qanday qiyinchiliklarga uchramaydigan holda ularga tatbiq qilish bugungi kundagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Fikrimiz isboti sifatida, adabiyotshunos olim Saidbek Hasan asar haqida yozib qoldirilgan qarashlarini keltiramiz: “Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo‘nalishi islom dinining qisqacha bo‘lsada, tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyatlar orqali o‘quvchi ongi va uning tashqi va ichki dunyosini islom ma’naviyati bilan boyitishga qaratilgan[1]. Asarning yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, asarda g‘azallar janriga mansub namunalar ham uchraydi.

Ma’lumki, “Rohati dil” asaridagi “Ibrohim bin Adham rahmatulloh alayhi” hikoyatining mantiqiy davomi “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrohim bin Adham Rahimahu-l-lohi”(Sulton Ibrohim ibn Adhamning Zulhayo ismli xotini bayonida) bo‘lib, ushbu bobda ijodkor hikoya davomida g‘azal janriga murojaat etib, voqealar rivojida qahramonlar

[1] Сайф уз-Зафар Навбаҳорий. Дурр ул-мажолис.- Тошкент: «Мерос» нашрёти, 1992. 148-бет.

tilidan g‘azaldan namunalar keltirilgan. Asardagi g‘azallar soni 6 ta bo‘lib, bulardan bittasi 3 baytli, bittasi 4 baytli, ikkitasi 5 baytli, bittasi 7 baytli va yana bittasi 16 baytdan iborat(103-110). Keltirilgan 6 ta g‘azaldan 5 tasi radifli, bittasi esa radifsiz qofiyali g‘azal hisoblanadi. G‘azallarning 4 tasi ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun // -V - - / -V - - / - V - - / - V -), 1 tasi hazaji musammani solim (mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun // V - - -/ V - - -/ V - - -/V - - -), 1 tasi esa rajazi musammani solim (mutaf’ilun, mutaf’ilun, mutaf’ilun,mutaf’ilun // - - V- / - - V- / - - V- / - - V-) vaznlarida yaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, adabiyotimizdagi mumtoz qissalarda ham she‘riy janrlarga muroaj etilgan bo‘lib, faqat ular keng muhokama maydoniga tortilgan emas. Bugungi kunda ushbu masala muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайф уз-Зафар Навбаҳорий. Дурр ул-мажолис. – Тошкент: Мерос нашрёти, 1992. – 148 б.

2. Ҳувайдо Х. Роҳати дил. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ нашриёти, 1994. – 119 б.

YUSUF SAKKOKIYNING “MIFTOHU-L-ULUM” ASARINING YURTIMIZDAGI LITOGRAFIK NUSXALARI

Ismoilov Bobur Xudoyarovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Maqolada Yusuf as-Sakkokiyning “Miftaḥ al-Ulum” asarining Yurtimizda saqlanayotgan litografik nusxalari haqida so‘z boradi. Ushbu asar o‘rta asrlarda adabiy-ilmiy tafakkurning yuksak namunasi bo‘lib, unga ko‘plab sharhlar, nazmiy shakllar va qisqartmalar yozilgan. Asosan Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan bir necha litografik nusxalari matnshunoslik jihatidan tahlil qilinadi. Ularning tashqi ko‘rinishi, sahifa soni, yozuv shakli, hoshiyalar, ilmiy tuzilma va bosilgan joyi aniq tavsiflanadi. Har bir nusxadagi fanlar sarf, nahv, maoniy, bayon va badi‘ kabi bo‘limlarning joylashuvi, tartibi va izohli holati ko‘rsatib o‘tiladi. Litografik nusxalarning bu kabi tafsilotli tahlili asarning o‘rta asr musulmon ilmlari tizimidagi o‘rnini aniqlashda va zamonaviy ilmiy ishlanmalarga asos bo‘lishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Abstract: This article discusses the lithographic copies of Yusuf al-Sakkakī’s work Miftaḥ al-Ulum preserved in Uzbekistan. This work represents a high point of medieval scholarly and literary thought and has

inspired numerous commentaries, poetic adaptations, and abridgments. The article specifically analyzes lithographic copies held at the Institute of Oriental Studies from a textual and codicological perspective. It provides a detailed description of their physical appearance, number of pages, script style, marginalia, structural composition, and place of publication. The arrangement and commentary of various disciplines within the work—such as morphology (ṣarf), syntax (naḥw), semantics (maʿanī), rhetoric (bayan), and literary embellishment (badīʿ)—are also highlighted. This detailed analysis of the lithographs serves as an important source for understanding the place of this work within the Islamic intellectual tradition and contributes significantly to modern scholarly research and editions of classical texts.

Yusuf Sakkokiyning “Miftohu-l-ulum” asari butun dunyo bo’ylab mashhur bo‘lib, keng yoyilganidan, unga ko‘plab musulmon diyorlarida sharhlar yozildi, juda ko‘plab qo‘lozma nusxalari ko‘chirildi va litografik nusxalari chop qilindi. Bunga sabab asar o‘z ichiga adab ilmiga oid o‘n ikkita muhim ilmlarni olgan edi. Bu asar yozilgunga qadar, bu sohada bu kabi mukammal asar yaratilmagan edi. Ibn Xaldun aytganidek: «As-Sakkokiyning asari bu sohada har qanday mustaqil ijodga chek qo‘ydi. Endi esa, bizning kunlarimizgacha davom etayotgan sharhlar, glossalar, qisqartmalar va iqtiboslar davri boshlandi» [Ibn Xaldun, 1992:3 jild 174].

Asosan asarning uchinchi qismi ma’nolar qismi mashhur bo‘ldi va keng tarqaldi, sharhlari ham qo‘lozma nusxalari ham ko’proq uchinchi qismga yozildi. Bundan ko‘rinadiki bu davrda balog‘at ilmiga bo‘lgan qiziqish juda yuqori bo‘lgan. Asarga ko’plab shrhlar yozilishi bilan birga uni qisqartma shaklga ham keltirilgan hamda eslab qolish oson bo’lishi uchun nazmga ham solingan.

O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lozmalar fondida «Miftahu-l-ulum” asarining quyidagi litografik nusxlari saqlanmoqda:

11657 raqamli litografik nusxasi tavsifi. Bu nusxa مِفْتَاحُ الْعُلُومِ (miftohu-l-ulum) “ilmlar kaliti” deb nomlangan, muallifi Abu Ya’qub Yusuf Sakkokiy. Usbu nusxa asosiy fondda saqlanadi. Toshbosma 319 sahifa 160 varoqdan iborat. Kitob qattiq karton bilan qoplangan va yaxshi saqlangan. Kitob o‘lchami 27*19 sm, matn 29 qatordan qilib arab tilida yozilgan.

Kitobning birinchi sahifasiga “kitabu miftohu-l-lum” deb yozilgan va uning tagidan Sakkokining vafot yili 626 hijriy deb, uning tagidan esa asar 12 ta ilmni o‘z ichiga olishi yozilgan. Uning tagidan esa 4 misra she’r

bitilib, pastidan birinchi matba’- Misr matba’si deb yozilgan. 1899-90 yillar Ahmad Hoji tomonidan chop etilgan. Unda asarning 3 ta qismi ham to‘liq berilgan. Mazkur toshbosmada quyidagi ilmlar jamlangan. Sarf, nahv, maoniy, bayon, badi’, istiblol, she’r. Ikkinchi sahifada bismillahir rohmanir rohim so‘zi katta qora yozuvda yozilgan va asosiy matn قال الاستاذ الامام البارع العلامة سراج الملة و الدين ابو يعقوب يوسف ابن ابي بكر محمد بن علي سكاكي يعمده الله برحمته در و رضونه. “Ustoz imom, fozil alloma, millat va dinning chirog‘i, Abu Ya’qub Yusuf ibn Abu Bakr Muhammad ibn Ali as-Sakkokiy, Alloh uni rahmati va roziligi bilan siynasin: aytdi”[Yusuf Sakkokiy, 1899:2] deya boshlangan.

Kitobning hama sahifasida tepa tomonida nomerlangan va uning yonida ilmi sarf, ilmi nahv, ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badi’, istibdol, she’r deb yozilgan. Sarf ilmi 40-sahifada tugagan, oxirida birinchi qism tugadi deb Allohga hamd, Muhammad alayhissalomga va u zotning oilasiga salovat aytib tugatgan. 41-sahifadan bismillahni aytib ikkinchi qism deb yozgan, uning pasidan من الكتاب في علم النحو و فيه فصلان - (kitobning nahv ilmida 2 ta fasl bor) deb yozgan. Nahv ilmi 85-sahifada tugaydi. Bu bo‘limni ham hamd va salovot bilan tugatadi. 86-sahifadan maoniy ilmi boshlanadi matn bismillah dan keyin القسم الثالث من الكتاب في علمي المعاني و البيان - .و فيه مقدمة لبيان حدي العلمين و الغرض فيهما و فصلان لضبط معاقدهما و الكلام فيهما (kitobning uchunchi qismida ikki bo‘limning biri bayon ilmi va muqaddimasi hamda bu ikki ilmning maqsadi va u ikki ilmdagi gap, uning o‘rinlarini belgilash haqida 2 ta fasl bor) deb boshlanadi.[1] Maoniy va bayon ilmi haqida ma’lumot beradi va muqaddimasini keltiradi. Ilmi maoniy 175-sahifada tugaydi. 176-sahifadan esa ilmi bayon boshlanadi. Bayon ilmini boshlashda basmala yozilmagan, balki maoniy bilan bayonni bitta balog‘at ilmining ikki qismi, ularni bir-biriga uzviy bog‘liq deb hisoblagani uchundir. Bayon ilmi الفصل الثاني في علم بيان “ikkinchi fasl bayon ilmi borasida” deb boshlangan va 224 - sahifada nihoyasiga yetgan.

Badi’ ilmi 225-sahifadan boshlangan va 229-sahifada Allohga hamd aytib tugatilgan. 229-sahifaning yarmidan esa istiblol ilmi basmala bilan boshlangan va 273-sahifada tugagan. 273-sahifadan she’r ilmi basmala bilan boshlangan, lekin istiblol va she’r ilmining matni bir - biriga qo’shilib ketgan, alohida ajratilmagan. She’r ilmi 315-sahifada tugagan. 316-317-318-sahifalarda mundarija berilgan.

6191 raqamli litografik nusxasi tavsifi. Bu nusxadagi kitob ham asosiy fondda saqlanadi, kitob ko‘k qattiq karton, uning ustiga inventar

[1] Yusuf Sakkokiy. Miftohu-l-ulum.O’zR FA Sharqshunislik institute asosiy fondi. 11657 raqamli toshbosma 86-sahifa.

raqami yozilgan. Mazkur nusxa 1900-1901 yillar Mustafo Abbosiy tomonidan Misrda chop etilgan. Kitob o‘lchami 27.5*18.5 sm, arab tilida 36 qatordan qilib yozilgan. Jildining ichki tomonida eski o‘zbek yozuvida “markaziy Turon kutubxonasining kutubxona nashri 2878 - 4177 toshkent” deb muhr ichida yozilgan. Keyingi sahifada ham 2 ta pechat bor uning birida “Ahmad Is’hoqiy” deb yozilgan. Yana birida “Turon kutubxona qiroatxonasi” deb yozilgan. Kitobning 1-sahifasida Sakkokiy va Suyutiylarning vafoti va she’r yozilgan undan pastda esa , طبع بالمطبعة الميمنية علي نفقة اصحابها مصطفي البابي الحلبي و اخويه بمصر - deb yozilgan ya’ni bu ham Misr, Mustafo Albabi Alhalabiy nashri. Jildning ichki tomonidagi ikkita pechat birinchi sahifadayam bor. Bu kitobda ham 11657 raqamli kitob kabi قال الاستاذ الامام البارع العلامة سراج الملة و الدين ابو يعقوب يوسف ابن ابي بكر محمد بن علي سكاكي يعمده الله برحمته در و رضونه. - deb boshlangan. Lekin bu nashrda qatorlar soni 36 ta. 246-sahifadan iborat. Bu ham 11657-raqamli litografik nusxaga o‘xshaydi. Bunda qatorlar soni ko‘p bo‘lgani uchun sahifalar soni kam. Ushbu nashrni o‘rganish natijasida mazkur nashr 11657 nashr bilan bir xil ekani haqida xulosaga kelish mumkin. Ushbu nashrda sarf ilmi 3-sahifadan boshlanib, 33- sahifada tugaydi. Nahv ilmi esa 33-sahifadan boshlanib, 70-sahifada tugaydi. Lekin bu kitobda fasl nomlari qora rangda emas qavsga olingan. Maoniy ilmi 70-sahifadan boshlanib, 140-sahifada tugaydi. Bayon ilmi esa 140-sahifadan boshlanib, 179-sahifada tugaydi. Badi’ ilmi esa 179-sahifada boshlanib, 182-sahifada nihoyasiga yetgan. Istiblol ilmi 182-sahifadan 217- sahifagacha davom etadi. Va she’r ilmi esa 217-sahifadan boshlanib 246- sahifada tugaydi va ikki sahifa mundarija berilgan. Asarning oxiri يقول راجي عفو ان المسلوي مصححه محمد الراهري الغمراوي `deb yozilgan.[1]

3824 raqamli litografik nusxa Hamid Sulaymon fondida saqlanadi, usti qora rangli, qattiq karton qog‘oz, ustiga inventar raqam yozilgan. Kitobning birinchi sahifasi xuddi 6191 va 11657 inventar raqamli kitob bilan bir xil nashr. 1- sahifada shtamp urilgan va uning ichiga “qo‘lozmalar instituti, bosma kitoblar” deb yozilgan. Toshbosma 1318-yil Misrda chop etilgan bo‘lib kitob hajmi 19.5*28 sm va 250 sahifadan iborat. Asosiy matn 2-sahifadan boshlanadi, 3-sahidan sarf ilmi boshlanib 33-sahifada tugagan. Kitob 36 qatordan iborat. Nahv bo‘limi 33-sahifadan boshlanib 70 - sahifada tugaydi. Maoniy bo‘limi esa 70-sahifadan boshlanib 140-sahifada tugaydi. Bayon ilmi esa 140-sahifadan 179-sahifagacha yozilgan. Badi’ ilmi 179-sahifadan boshlanib 183-sahifagacha davom etgan. Istiblol

[1] Yusuf Sakkokiy. Miftohu-l-ulum.O’zR FA Sharqshunislik institute asosiy fondi. 11657 raqamli toshbosma 246-sahifa.

ilmi 183-sahifadan 217-sahifagacha bo‘lgan sahifalarda joylashgan. Va she’r ilmi esa 217 - sahifadan boshlanib, 250-sahifada tugaydi. keyin yana ikki sahifada mundarija keladi.

12369 raqamli litografik nusxa Hamid Sulaymon fondida saqlanadi, qora kardon bilan qoplangan. Bu ham yuqoridagi nusxalar kabi Misrda chop etilgan. Kitob 1900-1901 yillar Mustafo Abbosiy tomonidan nashr etilgan. Nashr 36 qator 146 sahifadan iborat. Kitob hajmi 27.5*18.5 sm arab tilida yozilgan. Toshbosma Misrda, Maymaniyya matbasida bosilgan bo‘lib, sarf bo‘limi 2-varaqdan 33-varaqqacha davom etgan. Nahv bo‘limi 33- varaqdan 70-varaqqacha bo‘lib, uchinchi bo‘lim bilan birga toshbosmaning to‘la hajmi 346-varaq. Bosilgan sana hijriy 1318-yili, Muharram oyi. Bu toshbosma xoshiyasida ham Jaloliddin Abdurahmon Suyutiyning o‘n to‘rt ilmni jamlagan « النقاية لقراء ة الدرا إتمام » (Nuqoya o‘quvchilari uchun tugallangan bilim) asari keltirilgan

2228 raqamli litografik nusxa ham 12369 - raqamli nusxa kabi Hamid Sulaymon fondida saqlanadi. Abu Bakr Muhammad bin Ali tomonidan Misrda nashr etilgan. Kitob 36 qator 146 sahifadan iborat va ulchami 28*19.5 sm.

3700 raqamli litografik kitob ham yuqorida zikr etilgan kabi asarning to‘liq 3 ta bo‘limini ham o‘z ichiga oladi, asosiy matn 2- sahifadan basmala, hamd, na’t bilan boshlanadi, 3-sahifadan sarf bo‘limi boshlanadi, nahv bzlimi esa, 33-sahifadan boshlanadi, 7- sahifada 3- bo‘lim balog‘at ilmi boshlanadi. Kitobning jildi yumshoq qog‘oz bilan ikki qavat qilib qoplangan bo‘lib, u ham Misrda Mustafo Albabi Alhalabiy tomonidan nashr etilgan. Kitob 250-sahifadan iborat undan keyin yana 2 sahifa mundarija bor. Ushbu kitobning o‘lchami ham 28*19.5 sm. Asar to‘liq boshi va oxiri bor

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Sakkokiyning “Miftaḥ al-Ulum” asari balog‘at, nahv va sarf fanlarining rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan litografik nusxalar mazkur asarning O‘rta Osiyo hududida keng tarqalganini tasdiqlaydi. Nusxlara tarkiban o‘xshash bo‘lsa-da, ularning tashqi bezagi, sahifa soni va dizayni jihatdan farqlari mavjud. Bu tahlillar orqali “Miftaḥ al-Ulum” asarining ilmiy qadri, tarqalish doirasi va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tutgan o‘rni aniqlashtiriladi. Shuningdek, bu nusxalar kelajakdagi nashrlar uchun asosiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotdan ko‘rinadiki, ushbu asar hali ham chuqur ilmiy o‘rganishni talab etuvchi nodir meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ан-Найм ул-кабир. Арабча-ўзбекча луғат. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2014. –Б. 805.

2.Салимахон Рустамий. Балоғат илмида лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларининг ёритилиши монографияси. – Тошкент: Наврўз, 2017. – Б. 170.

3. Қуръони Азим. Шайх Алоуддин Мансур. Мухтасар тафсири. – Тошкент: Шарқ, 2019, – Б. 98.

4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Тошкент: Ҳилонашр, 2021. – Б. 637.

5. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022, – Б. 604.

ابو يعقوب سوسف السكاكى. مفتاح العلوم. دار الكتب العلمية. بيروت.1987. ص. 621

7. ابو يعقوب سوسف السكاكى. مفتاح العلوم. مكتبة مصر. ص. 388 6.

HOFIZ XORAZMIY IJODIY MEROSIDA HIKMATLI FIKRLAR VA ULARINING MAVZU KO‘LAMI

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: shukurjonyeldashbayevna@gmail.com
Tel.: (+99888) 513-10-60

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiyning adabiy merosi, xususan, uning devonidagi hikmatli fikrlar va ularning mavzu doirasi tahlil etilgan. Shoir ijodiy merosining asosiy badiiy-estetik va ma’naviy-falsafiy xususiyatlari tilga olini, bitta qit’ada hikmatli baytlar orqali ifodalangan axloqiy tamoyillar, ijtimoiy-g‘oyaviy qarashlar hamda tasavvufiy tushunchalar zamiridagi umuminsoniy qadriyatlar ochib berilgan. Tadqiqotda shoir ijodida ko‘zga tashlanadigan kamtarlik, samimiyat, sadoqat, qalb pokligi, takabburlikni qoralash va dunyo foniyligini anglatuvchi mazmuniy yo‘nalishlar tematik jihatdan tasniflangan. Shuningdek, M.Sulaymonovning Hofiz Xorazmiy didaktikasi haqidagi ilmiy maqolalari, R.Madaminovaning devon tiliga doir semantik tahlillari hamda I.Mannopovning hikmatnavislik an’analari haqidagi izlanishlariga tayanilgan holda Hofiz Xorazmiyning didaktik pozitsiyasi va badiiy-ma’naviy qarashlari keng yoritiladi hamda Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosi o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o‘ziga xos sahifa

sifatida yoritilib, uning bugungi davrdagi didaktik ahamiyati hamda tarbiyaviy potensiali asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Hofiz Xorazmiy, hikmatli fikrlar, qit’a, didaktika, axloq, ma’naviyat, tarbiya.

Annotation: Abstract. This article analyzes the literary heritage of Hafiz Khorezm, in particular, the wise thoughts in his divan and their thematic scope. The main artistic-aesthetic and spiritual-philosophical features of the poet's creative heritage are mentioned, and the moral principles, socio-ideological views, and universal values underlying mystical concepts expressed through wise verses on one continent are revealed. The study thematically classifies the content areas of the poet's work, such as humility, sincerity, loyalty, purity of heart, condemnation of arrogance, and the transience of the world. Also, based on M. Sulaymonov's scientific articles on the didactics of Hafiz Khorezmi, R. Madaminova's semantic analysis of the Devan language, and I. Mannopov's research on the traditions of wisdom writing, the didactic position and artistic and spiritual views of Hafiz Khorezmi are widely covered, and the creative heritage of Hafiz Khorezmi is highlighted as a unique page in the development of Uzbek classical literature, and its didactic significance and educational potential in today's era are substantiated.

Keywords: Hafiz Khorezmi, wise thoughts, continent, didactics, morality, spirituality, education.

O‘zbek mumtoz adabiyoti uzoq asrlar davomida Sharq madaniy-ma’naviy makonining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo‘lib, unda hikmatnavislik an’anasi alohida o‘rin tutadi. Hikmat so‘zi arabcha “ḥikma” – bilimdonlik, donolik, chuqur aql, haqiqatni anglash degan ma’nolarni anglatadi va bu tushuncha o‘zbek adabiyotida asosan axloqiy, ijtimoiy, falsafiy mazmunli qisqa, lekin ta’sirchan iboralar, she’riy baytlar, ruboiylar, qit’alar orqali ifodalangan. I.S.Mannopov o‘z tadqiqotlarida “o‘zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an’anasining XII asrda vujudga kelganligi, milliy adabiyotimiz ravnaqi va xalqimiz madaniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutganligi”ni [I.S.Mannopov, 2019: 11] alohida ta’kidlaydi.

Mumtoz adabiyotda hikmat yozish nafaqat shoirning ilm-falsafiy salohiyatini, balki uning ruhiy kamolotga intilgan murshidona mavqeini ham namoyon etgan. Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Xoja Hofiz, Hofiz Xorazmiy, Bobur va boshqa mutafakkirlarning ijodida hikmatli so‘zlar orqali hayot mazmuni, mohiyati falsafiy-axloqiy mavzular doirasida teran

ifoda etilgan. Ayniqsa, Hofiz Xorazmiy o‘zining hikmatli fikrlar vositasida avlodlarni ma’naviy kamolot sari yo‘naltirishga intilgan.

XX asrning so‘ngi choragida adabiyotshunos olim, professor Hamid Sulaymon tomonidan shoirning yagona devonining aniqlanishi [H. Sulaymon, 1976: 34–38] bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarga mustahkam zamin yaratdi. Shoir ijodiga bag‘ishlangan turli mavzulardagi bir qator ilmiy manbalar, xususan, M.Yu.Sulaymonov [M.Yu.Sulaymonov, 1996: 160] hamda R.M.Madaminovalar-ning dissertatsiyalari [R.M.Madaminova, 2025: 146] muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Hofiz Xorazmiyning devoni shaklan turli janrdagi she’riy misralardan iborat bo‘lib, unda ishqiy lirika yetakchi mavzu sifatida ajralib turadi. Biroq bu lirika yuzaki tuyg‘ularni ifodalash bilan chegaralanmay, uning vositasida shoir hayotiy, axloqiy va falsafiy masalalarni ham teran yoritadi. Bu jihat ijodkorning badiiy salohiyati, falsafiy tafakkuri va didaktik qarashlarini o‘zida mujassam etishini M.Sulaymonov o‘zining “Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari” [M.Sulaymonov, 1992: 20-22] va “Hofiz Xorazmiy lirikasida didaktik qarashlar” [M.Sulaymonov, 2016: 144-148] nomli maqolalarida ilmiy asosda ochib beradi.

Hofiz Xorazmiyning she’rlari nafaqat ruhiy holatni tasvirlash, balki o‘quvchiga muayyan hayotiy saboqlarni yetkazish, uni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ma’naviy mezonlarni ilgari surishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shoir didaktik g‘oyalarni asosan timsollar, obrazlar va poetik ramzlar vositasida nozik uslubda ifoda etadi. Ayniqsa, ishq mavzusining badiiy talqini orqali u insoniy komillik, axloqiy yetuklik va ruhiy poklik sari yetaklovchi yo‘lni ko‘rsatadi. Jumladan, M.Sulaymonovning “Hofiz Xorazmiy axloq-odob haqida” nomli maqolasida shoirning axloqiy qarashlari, insoniy fazilatlarni ulug‘lashga doir she’rlari tahlil etilib, ularda to‘g‘rilik, sabr, halollik, vafodorlik, poklik kabi qadriyatlar yetakchi mavzular sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan [M.Sulaymonov, 1992: 80-83]. Zero, Hofiz Xorazmiy nazarida, ishq — oddiy hissiyot emas, balki insonni halollik, fidoyilik, sabr-toqat va o‘z ustida ishlash sari boshlovchi yuksak ma’naviy kuchdir. Bu tushuncha tasavvufiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda, shoirning she’rlarida insonning ichki olami, uning ruhiy tarbiyasi va axloqiy kamolotiga doir chuqur g‘oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Devondagi janrlarning xilma-xilligi — g‘azal, qit’a, ruboiy va boshqa shakllar — har birining o‘ziga xos badiiy vositalari orqali shoirga didaktik fikrlarni har tomonlama yoritish imkonini bergan. Xususan, Bu janrlar orqali Hofiz Xorazmiy nafaqat go‘zallik va tuyg‘ular olamini tasvirlaydi, balki har bir she’rida muayyan

hayotiy saboq, ibratli xulosa yoki axloqiy tamoyilni ilgari suradi. Aynan shu jihat uning she’riyatini o‘quvchi ongini boyituvchi, tarbiyaviy ahamiyatga ega manba sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi. Jumladan, devonda keltirilgan hikmatli fikrlarga ega quyidagi qit’a esa Hofiz Xorazmiyning yuksak ma’naviy qarashlari, tasavvufiy tafakkuri, didaktik pozitsiyasi va badiiy mahoratining yorqin namunasi:

Izdar ersang ahl-i izzat, bo‘lsang, ey yor, aziz,
Sidq birla ko‘rguzako‘r barchag‘a mehru vafo.
Dam-badam bir xasta dilni zulm ila ozor agar,
Aylasang, topmag‘asan ko‘nglingda bir zarra safo.
Ushbu so‘zumga guvoh-i haq tilasang holiyo,
Oh ila oyinaning holi erur ravshan guvo.
Kim takabbur qilmasavu topsa miskinlik yo‘lin,
Ahl-i ma’no qoshida uldur haqiqat podsho.
Podshoh-i asr bo‘lsang ham takabbur qilmag‘il,
Oqibat chun tuproq ichra tang bo‘lur shohu gado. [2-kitob, 1981: 290]

Shoir bu yerda insonning ma’naviy kamolot sari intilishi uchun qanday yo‘l tutishi kerakligini hikmatli baytlar orqali bayon etadi. Qit’a tafsirida quyidagi asosiy g‘oyalar ajralib turadi:

1. Samimiyat va mehr-oqibat — insoniy ulug‘lik asosini tashkil etishi. Shoirning fikricha, inson yuksaklikka erishmoqchi bo‘lsa, u avvalo samimiyat va mehr bilan boshqalarga muomala qilishi lozim. Hurmat va izzat nafaqat maqom yoki boylik orqali, balki chin yurakdan odamlar bilan muomala qilish, sadoqatli bo‘lish orqali qo‘lga kiritiladi. Bu jihatni biz qit’aning birinchi baytida aniq ochib berilganligini ko‘ramiz.

“Izdar ersang ahl-i izzat, bo‘lsang, ey yor, aziz,
Sidq birla ko‘rguzako‘r barchag‘a mehru vafo.”

Ya’ni: Agar sen hurmatli va e’zozli insonlar safidan bo‘lishni istasang (ya’ni jamiyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan inson bo‘lishni xohlasang), unda barchaga samimiyat bilan, sadoqat va mehr ko‘rsat. Shoir bu yerda izzat–hurmatning asl manbai — chin qalbdan chiqadigan muhabbat va vafodorlik ekanini ta’kidlamoqda. Mehr va sadoqat — insoniy yuksaklikning mezoni sifatida ifodalanmoqda.

2. Zulm va adolatsizlik pok qalbli insonlarga xos emasligi.

Qit’ada inson qalbining halovat topmasligi, ayniqsa, birovga ozor yetkazish natijasida ruhiy poklikdan mahrum bo‘lishi haqida ogohlantiriladi. Bu tushuncha orqali shoir insoniylik mezonlarini belgilaydi: boshqalarning dardiga befarqlik, zulm, yomonlik oxir-oqibat

pok qalbni qoraytiradi, insonni ma’nan yemiradi. Bu jihatni biz qit’aning ikkinchi baytida to‘liq ifodalanganligini ko‘ramiz.

“Dam-badam bir xasta dilni zulm ila ozor agar,
Aylasang, topmag‘asan ko‘nglingda bir zarra safo.”

Ya’ni: Agar sen vaqti-vaqti bilan biroz ezilgan, xafa bo‘lgan yuraklarni (ya’ni odamlarning qalbini) ozor bersang, ularga nohaq jabr yetkazsang, bunday holatda qalbingda hech qanday poklik va halovat topa olmaysan. Boshqa jihatdan u insonni o‘zgaga qilgan yomonligi aslida o‘ziga zarar keltirishini anglashi kerakligi haqida ogohlantiradi. Shoir zulm — insoniy tubanlik manbai ekanini badiiy ifodalaydi.

3. Qalb pokligi — ma’naviy yuksalish sari yo‘l. Hofiz Xorazmiy ijodida inson qalbi — ruhiy dunyoning markaziy mezoni sifatida talqin qilinadi. Uning nazarida qalb — bu nafaqat his-tuyg‘ular maskani, balki ilohiy haqiqat bilan bog‘lanish, o‘zligini anglash manbai hamdir. Ayniqsa, qit’aning uchinchi bayti — bu g‘oyaning teran badiiy va falsafiy ifodasidir:

“Ushbu so‘zumga guvoh-i Haq tilasang holiyo,
Oh ila oyinaning holi erur ravshan guvo.”

Mazkur baytda shoir insonning chin dard bilan aytgan “*nola*”si hamda qalbning ichki “oyina”dek shaffof holatini Haq (Alloh) oldida eng haqqoniy guvoh sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda “*oh*” — qalb iztirobi, dardning ichki ifodasi sifatida; “*oyina*” esa — qalbning sof, riyodan xoli holatini bildiruvchi obraz sifatida ishlatilgan. Shoirning fikricha, kimki bu so‘zlarning haqiqatini inkor qilsa, guvohlikni odamlar emas, balki ilohiy manbadan izlasin: inson qalbidagi dard va samimiylikdan. Bu g‘oya tasavvufiy tafakkurda alohida o‘rin tutadi. Tasavvufda inson qalbi — “*oyina-i dil*” deb atalib, unda Haq nuri aks etadi. Qalbdagi noaniqliklar, kibr, riyo, hasad kabi illatlar bu oyinani xiralashtiradi. Shoir esa, bu oyinaning shaffof bo‘lishi, ya’ni qalb pokligi — ilohiy haqiqatga yetishishning zarur sharti ekanini eslatadi. Baytdagi “*ravshan guvoh*” — yaqqol va shubhasiz guvohlikni anglatadi. Ya’ni ilohiy haqiqat qarshisida insonning chin yurakdan kelgan oh-u faryodi, pok qalbining holati, eng to‘g‘ri va aniq guvohdir. Bu fikr bilan shoir tashqi ko‘rinish, rasmiy so‘z va kibrli da’volardan ko‘ra, ruhiy halollik, dard va samimiyat ustunroq ekanini ta’kidlaydi.

Hofiz Xorazmiyning bu orqali qalb pokligi insonning ma’naviy yuksalish sari yo‘lini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. U Haq oldida eng oliy guvohlik sifatida yurakning dardli nolasini va qalbning oyinadek tozaligini ko‘rsatadi. Bu nafaqat badiiy obraz, balki axloqiy-ma’rifiy va falsafiy qarashlarning yuksak sintezidir.

4. Kamtarlik — haqiqatdagi ulug‘lik mezoni. Mazkur qit’aning to‘rtinchi baytida Hofiz Xorazmiy insoniy kamolotga eltuvchi asosiy yo‘l sifatida kamtarlik, tavoze va ruhiy beozorlik g‘oyasini ilgari suradi. Shoir shunday deydi:

“Kim takabbur qilmasavu topsa miskinlik yo‘lin,
Ahl-i ma’no qoshida uldur haqiqat podsho.”

Bu baytda shoir o‘ziga xos hikmatli uslubda insonning ijtimoiy maqomi emas, balki ichki fazilatlari, xususan, kibrdan xoli bo‘lishi va kamtarlik yo‘lini tanlashi haqiqiy ulug‘lik mezoni ekanini uqtiradi. “*Ahl-i ma’no*” deb atalgan ruhiy va ma’naviy yetuk kishilar — ya’ni tasavvuf ahli, donishmandlar, so‘fiylar nazarida, haqiqiy podsholik bu dunyoviy kuch yoki boylik bilan emas, balki ruhiy kamol va tavoze bilan o‘lchanadi.

Shoir bu yerda ko‘hna Sharq tafakkuri, ayniqsa Sharq hikmatlariga xos tasavvufiy qarashlarni badiiy shaklda ifodalaydi. Tasavvufda “*faqirlik — boylikning eng yuksak shakli*”, degan qarash aynan shunday ruhiy holatni anglatadi: o‘z nafsini yenggan, kibrdan voz kechgan, kamtarlikda sobit qolgan kishi — haqiqiy ma’naviy yetuk insondir. Zero, ulug‘lik va ijtimoiy obro‘ tashqi mavqe yoki boylikda emas, balki ichki fazilatlar, xususan, kamtarlik, oddiylik va ruhiy halollikda ekanini yuksak badiiy ifoda orqali ta’kidlaydi. Bu esa uning ijodida axloqiy-falsafiy g‘oyalarning chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi.

5. Shoir tafakkurida hayot haqiqati. Hofiz Xorazmiy o‘zining falsafiy-poetik qarashlarida inson hayotining foniyligi, vaqtinchalikligi va bu dunyodagi mavqei-yu mansabning so‘nggi manzilda hech qanday ustunlik bermasligini chuqur ifodalaydi. Ayniqsa, qit’aning so‘nggi baytida bu g‘oya o‘ta keskin, ammo hayotiy va ta’sirchan shaklda bayon qilinadi:

“Podshoh-i asr bo‘lsang ham takabbur qilmag‘il,
Oqibat chun tuproq ichra tang bo‘lur shohu gado.”

Bu bayt mohiyatiga ko‘ra, insonni dunyoviy mavqelardan ko‘ra, ma’naviy holat ustuvor ekanini anglashga chaqiradi. Shoirning fikricha, har kim kibr va g‘ururdan tiyilishi lozim, chunki hamma bir kun tuproq ichida yo‘l oladi. Bu yerda “*shoh*” va “*gado*” (yoki “faqir”) qarama-qarshi ijtimoiy qatlamlar ramzi sifatida ishlatilgan bo‘lib, ularning taqdiri yakunda bir nuqtada — tuproq ostida birlashadi.

Shoir bu bayt orqali ikki muhim haqiqatni ilgari suradi:

Birinchidan haqiqiy yuksaklik — ma’naviy barkamollikda.

Ikkinchidan haqiqiy izzat va sharaf aynan kamtarlik bilan bog‘liq. Kibr esa insonni o‘z mohiyatidan uzoqlashtiradi.

Bu bayt bilan Hofiz Xorazmiy nafaqat adabiy, balki axloqiy saboq ham beradi. U o‘quvchini dunyoqarashni kengaytirishga va insoniy qadriyatlar ustida chuqur tafakkur yuritishga undaydi.

Mazkur qit’a turli mavzularni — ijtimoiy axloq, shaxsiy poklik, ruhiy tarbiya, hayot va o‘lim haqidagi falsafiy mulohazalarni o‘zida mujassam etadi va uni biz quyidagi rasm shaklida izohlashga harakat qildik. (qarang 1.1.rasm)

1.1.-rasm. Mazkur qit’ada aks etgan falsafiy-poetik qarashlar.

Har bir bayt mustaqil hikmatga ega bo‘lsa-da, ular orasidagi mavzuviy va g‘oyaviy uyg‘unlik asarning chuqur mazmunini ta’minlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib mazkur qit’aning mavzu ko‘lamini quyidagi jadval (1.2.jadval) shaklida ifodalash mumkin.

Mavzuviy yo‘nalish	Ilmiy-axloqiy mazmun
Ijtimoiy-axloqiy fazilatlar	Sadoqatli va mehribon bo‘lgan inson jamiyatda hurmat topadi. Samimiyat — ijtimoiy barqarorlik garovi.
Axloqiy tanqid, ijtimoiy adolat	Zulm nafaqat boshqalarga, balki zolimning o‘z qalbiga ham zarar yetkazadi.
Ruhiy-ma’naviy poklik	Pok qalb — Haq bilan bevosita aloqa vositasi. Ichki faryod — qalbning eng rost guvohidir.
Irfoniy-ma’naviy yondashuv	Kamtar inson — ma’naviy ustun. Haqiqiy ulug‘lik faqat kibrdan voz kechganlarda namoyon bo‘ladi.
Tasavvufiy-hayotiy haqiqatlar	Har bir inson, mansabidan qat’i nazar, tuproq bo‘lib yakun topadi. Kibr — eng katta xato.

1.2.-jadval. Hofiz Xorazmiy qit’asidagi asosiy g‘oyalar tahlili.

Mazkur qit’a o‘zining mazmun-mohiyati bilan bir vaqtning o‘zida bir nechta g‘oyaviy-estetik funksiyani bajaradi. Avvalo, u ma’naviy komillikka chorlovchi axloqiy qo‘llanma sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir bu yerda insonni o‘zini ulug‘lash, kibr-u havoga berilish kabi manfiy sifatlardan tiyilishga, buning o‘rniga kamtarlik, tafakkur va hayot mazmuni haqida chuqur mushohada yuritishga da’vat etadi.

Shuningdek, unda ifodalangan fikrlar tasavvufiy-falsafiy tafakkur tamoyillariga hamohangdir. Unda inson hayotining foniyligi, moddiy maqom va mansablarning vaqtinchaligi, hamda haqiqiy ulug‘likning ma’naviy yetuklikda ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Bu jihatlari bilan qit’a tasavvufdagi fanolik va kamtarlik (tavoze) g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Bundan tashqari, baytda ilgari surilgan g‘oyalar o‘quvchini qalban poklanish, ruhiy uyg‘onish va axloqiy yetuklik sari intilishga undaydigan didaktik mazmunga ega. Bu esa uni axloqiy-didaktik manba sifatida talqin etish imkonini beradi. Shoir obrazlar orqali bergan pand-nasihatlar o‘quvchiga badiiy-estetik zavq bag‘ishlash bilan birga, uni hayotiy haqiqatlarni anglashga va shaxsiy takomil sari yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Hofiz Xorazmiy ijodi o‘zbek adabiy merosida kech kashf etilgan, ammo mazmunan nihoyatda boy va teran qatlamlardan birini tashkil etadi. Uning she’riyatida aks etgan hikmatli fikrlar, janr va uslub xilma-xilligi, axloqiy-falsafiy g‘oyalarning ko‘lami bugungi o‘quvchi va tadqiqotchilarni ham o‘ziga jalb etmoqda. Shoirning ma’naviyatga, donishmandlikka, ruhiy poklikka da’vat qiluvchi asarlari har qanday davr uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Hofiz Xorazmiy merosini chuqur o‘rganish, keng ilmiy muhokamaga olib chiqish — nafaqat adabiyotshunoslarning, balki har bir ziyolining ma’naviy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 2-kitob. – Тошкент: O‘zKPMK, 1981. – 312 b.

2. Madaminova R.M. Hofiz Xorazmiy devonining leksik-semantik xususiyatlari: Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD) … diss. – Toshkent, 2025. – 146 b.

3. Mannopov I.S. O‘zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an’anasi va tadriji: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori(PhD) … diss. – Toshkent, 2019. – 150 b.

4. Sulaymon H. O‘zbek shoiri Hofiz Xorazmiy va uning Haydaroboddan topilgan devoni. // Adabiy meros. – Тошкент, 1976. 6-son. – 34-43 b.

5. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiy axloq-odob haqida // NamDUning 50 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy to‘plam. – Namangan, 1992. – 80-83 b.

6. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiyning didaktik qarashlari.//Xalq ta’limi, jur. – Toshkent, 1992. № 10-12. – 20-22 b.

7. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiy lirikasida didaktik qarashlar.//Til va adabiyot masalalari.3-kitob. Filologiya fanlari doktori, professor Begmatov Ernst Azimovich tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan respublika oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining ilmiy maqolalari to‘plami. – Namangan, 2016. – 144-148 b.

8. Sulaymonov M.Yu. Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyatining rivoji: Filologiya fanlari nomzodi … diss. – Toshkent, 1996. – 160 b.

LUTFIY DEVONINING PARIJ NUSXASIDAGI AYRIM G‘AZALLAR MATNIY TADQIQI

Bobomurodova Madina Olimjon qizi,
QarDUi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Lutfiy devoni Parij nusxasidagi ayrim g‘azallari tahlilga tortilgan. G‘azallarning qo‘lyozma hamda nashrlardagi tafovutlari, o‘zgargan misralar, tushirib qoldirilgan baytlar xususida mulohazalar mavjud. Bundan tashqari, shoirninng mashhur “Bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul” radifli g‘azalining 5 bayltli shaklda keltirilganligiga ham guvohi bo‘lishimiz mumkin. Biz ko‘rib o‘tgan ba’zi g‘azallar tahlilini lutfiyshunos olim Erkin Ahmadxo‘jayev o‘zining 1978-yilda bosib chiqarilgan “Lutfiy qo‘lyozma devonining Parij nusxasidagi e’lon qilinmagan g‘azallar” maqolasida ham e’tirof etib o‘tganlar.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, devon, nashr, g‘azal, matniy tafovut.

Annotation: This article analyzes several ghazals from the Paris manuscript version of Lutfiy’s divan. It includes observations on the differences between the manuscript and printed editions of the ghazals, altered lines, and omitted couplets. Additionally, we can note that the poet’s famous ghazal with the refrain “Bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul” is presented in a five-couplet version. The analysis of some of the ghazals we have reviewed was also acknowledged by Lutfiy scholar Erkin Ahmadkhojayev in his article titled “Unpublished Ghazals in the Paris Manuscript Version of Lutfiy’s Divan,” published in 1978.

Key words: manuscript, divan, publication, ghazal textual difference

O‘zbek she’riyatini bir-biridan qimmatli, bebaho nazm bilan boyitgan hassos va mutafakkir shoir Mavlono Lutfiyning adabiy merosi salmoqlidir. Mavlono Lutfiyning she’riyati o‘zining xilma-xilligi, mazmundor va ranginligi bilan o‘quvchiga o‘zgacha estetik zavq bag‘ishlaydi. Tarixdan ma’lumki, bizgacha shoir turkiy devonining 33 qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan bo‘lib, ular Toshkent, Istanbul, Tehron, Moskva, London, Parij kabi bir qator shaharlarda saqlanmoqda. Ular ichida Parij “Milliy kutubxonasi” turk qo‘lyozmalari bo‘limida 981 inventar raqami bilan saqlanuvchi, nastaliq xatida chiroyli ko‘chirilgan “Devoni Lutfiy” muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qo‘lyozmada jami bo‘lib 313ta g‘azal (1b-87b sahifalarda) mavjud. G‘azallarning hajmi turlicha. Jumladan, 7 baytli hamd g‘azal va 20 baytli na’t g‘azaldan tashqari, 5 baytli g‘azallar 104ta, 6 baytli g‘azallar 15ta, 7 baytli g‘azallar 186ta, 8 baytli g‘azallar 1ta, 9 baytli g‘azallar esa 6tani tashkil etadi [Ahmadxo‘jayev, 1978: 81].

Quyida mazkur nusxada keltirilgan bir nechta g‘azallarni Lutfiyning 1965- va 1987-yillarda chop etilgan “Devon”idagi matnlar bilan chog‘ishtirib, matniy tafovutlarini, baytlardagi ayrim o‘zgarishlarni ko‘rib o‘tamiz.

Qo‘lyozmaning 2[b]-sahifasida keltirilgan “Oy yuzung ollida xijil husn eli Rum-u Chin aro” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida quyidagi 2-bayt mavjud:

سینتیک اوغیلنی تینکریدین ادم خاکی یالباریب
صدق ایلا اربعین جیکیب ایستادی ماوطین ارا

Sentek o‘g‘ilni Tengridin odam xoki yolborib,
Sidq ila arbain chekib istadi mou tin aro.

Biroq 1965-yilda chop etilgan “Devon”da [Lutfiy, 1965: 23] nashrida ham, 1987-yilda bosilgan “Sensan sevarim” to‘plamida [Lutfiy, 1987: 10] ham ushbu bayt tushib qoldirilgan.

Xuddi shunday holat qo‘lyozmaning 6[a]-sahifasida keltirilgan “Qani bu shaklu shamoyil falakning oyinda” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalda ham kuzatiladi. Uning 6-bayti qo‘lyozmada quyidagicha:

فلک اونین کوتاریب یرکا جالغای ایدی
یوزونک فوروغینی کورماسه مهرو ایندا

Falak unin ko‘torib yerga cholg‘ay edi,
Yuzung furug‘ini ko‘rmasa mehr-u oyinda.

Ushbu bayt “Devon” nashrida ham [Lutfiy, 1965: 34], “Sensan sevarim” to‘plamida ham [Lutfiy, 1987: 20] uchramaydi. Bundan tashqari, yana bir qator matniy tafovutlar mavjud. Masalan,

کیم آی کوردی سینینک تیک باشیدا مشکین تاج
یا سرو کوردی قدینک تیک قیریم بقایندا
Kim oy ko‘rdi seningtek boshida mushkin toj,
YO sarv ko‘rdi qadingtek Qirim baqoyinda.

Ushbu baytning 2-misrasi nashrlarda quyidagicha keltirilgan:

Kim oy ko‘rdi seningdek boshida mushkin toj,
Va yoki sarv qaddingdek Qrim to‘moyinda.

Qolaversa, 3-bayt:

اولوس ایچینده دورور اوزبیکیم قییات کوزلوک
خیالی توقتامیش اندین کونکل سرایندا
Ulus ichinda durur o‘zbegim qiyot ko‘zluk,
Xayoli to‘qtamish andin ko‘ngul saroyinda.

shaklda keltirilgan bo‘lsa, chop etilgan har ikki nusxada ham:

Ulus ichinda durur o‘zbegim qiyo ko‘zluk,
Xayoli to‘qtamish ondin ko‘ngul saroyinda –

kabi o‘zgarishda keltirilgan. Bu farqlar g‘azalning matniy shakliga ta’sir qilgan, ba’zi so‘zlarni qo‘shish yoki o‘zgartirishlar, jumladan, bayt ham tushib qoldirilgan. Biroq poetik jihatdan uning vazniga daxl qilmagan.

Qo‘lyozmaning 7[b]-sahifasidagi “Ey g‘amza bila ko‘nglum elin qilg‘uchi g‘orat” deb boshlanuvchi g‘azal 6 baytdan iborat:

ای غمزه بیلا کونکلوم ایلین قیلغوجی غارت
اسرو داغی بوزما جو سینینکدور بو عمارت

ایت تیک مینی جان تارتوراتورغنجه مونونک تیک
کوز قاق بیرو کیربوک اوقینا قیلغین اشارت

سین حسن ایلا بای سین جو سینکا فرض دورور حج
قیل تینکری اوجون کعبهً کونکلو من زیارت

یوز سرمه دین ارتوق توتارایرنینک توزینی کوز
تارتیب سالاین بولماسا اندا بو بصارت

یر اوزره ایتاک سودراب اولوب سیزانینک اوجون
توبراق ایلا حر یردا روا بولدی طهارت

بو لطفی نینک آهی اوتیدین کویمادی کونکلونک
کویدوردی فلک بغرینی لیکن بو حرارت

Ammo Lutfiy asarlarining barcha nashrlarida maqta’dan avval kelgan quyidagi bayt Parij nusxasida uchramaydi:

Hajringda ko‘zumning sadafidin to‘kulub dur,
Har damki kelur yodima ul lafzu iborat.

Demak, g‘azalning asl matni 7 baytdan iborat bo‘lib, mazkur nuqson faqat Parij nusxasiga xos va noshirlar nisbatan to‘liq nusxadan foydalanishgan.

G‘azalning 2-baytini nashrlar bilan muqoyasa qilganda ba’zi tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin:

ایت تیک مینی جان تارتوراتورغنجه مونونک تیک
کوز قاق بیرو کیربوک اوقینا قیلغین اشارت

Ittek meni jon torturoturg‘uncha munungtek,
Ko‘z qoq bir-u kirpuk o‘qina qilg‘in ishorat.

Ushbu bayt 1965-yilgi 1987-yilgi nashrlarda:

Ittek **u** meni jon torturoturg‘uncha muningdek,
Ko‘z qoq biru kirpuk o‘qina **qilg‘il** ishorat.

tarzda keltirilgan bo‘lsa, 1960-yilda bosilgan Lutfiy “Tanlangan asarlar”ida:

Ittek **chu** meni jon tortaturg‘uncha munungdek,
Ko‘z qoq biru kirpuk o‘qina **qilg‘in** ishorat. [Lutfiy, 1960: 26]

shaklda keltirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu g‘azalning qo‘lyozmalardagi mukammal variantini topish hamda uni nashrlardagi matn bilan qiyoslash zarurati bor.

Parij nusxasida nuqsonli matnga ega g‘azallaridan yana biri “O‘tluq ko‘zungni ko‘rgali bag‘rim kabob erur” bayti bilan boshlanadi. 1965 va 1987-yillardagi nashrlarda mazkur g‘azal 8 bayt shaklida berilgan. Qo‘lyozmada esa uning quyidagi 4-bayti uchramaydi :

Quvlamag‘il meni eshikingdinki dam-badam,
Shavq o‘lturur ne hojat muncha shitob erur. [Lutfiy, 1965: 95]

Qo‘lyozmaning 14[a]-sahifasidan o‘rin olgan “Hammomg‘a azm aylagach ul sho‘xi sitamgar” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal 7 baytli. Ammo nashrlarda g‘azalning 6-bayti tushirib qoldirilgan:

سو قویغالی ایدی یراماس سیز انکا رضوان
بارمانک اویالورسیز سیزه اندا نی محل بار

Su qo‘yg‘oli aydi bir emassiz anga rizvon,
Bormang, uyolursiz, siza anda ne mahal bor.

Devon qo‘lyozmasining 39[a]-sahifasidagi “Alminnatulillahki, yona yora satashtim” deb boshlanuvchi g‘azali 6 baytli bo‘lib, 1965 va 1987-yilgi nashrlarida 5 baytli g‘azal sirasida keltirilgan. Uning 3-bayti nashrlarda aks etmagan:

هجران تونی حسرت بیلا جان کیم باریب ایردی

کیلدی ینا تن ساری جو دلداره ستاشتیم

Hijron uni hasrat bila jonkim borib erdi,

Keldi yana tan sori dildora satashtim.

Xuddi shunday holat qo‘lyozmaning 49[a]-sahifasida kelgan “Suratin” radifli g‘azal 6 baytdan iborat bo‘lib, ommaviy nashrlarda uning 5-bayti uchramaydi:

اهل معنی ایرماس و روشند کل آینسی

اولکه کورماس بارجه ذرات ایچره سبحان

Ahli ma’ni ermas-u ravshanda gul oynasi,

Ulki ko‘rmas barcha zarrot ichra subhon suratin.

Nashrlar bilan qo‘lyozma nusxani tadqiq qilganimizda, e’tiborimizni tortgan yana bir g‘azal shu bo‘ldiki, Parij nusxasida 2 bayti yo‘q. Bu g‘azal bizga ma’lum va mashhur “Bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul” radifli g‘azalidir. Qo‘lyozmada 5 bayt holida keltirilgan:

مینی شیدا قیلادورغان بو کونکلدور بو کونکل

خوارورسوا قیلادورغان بو کونکلدور بو کونکل

اوق بیکین قامتیمزنی قرا قاشلیغ لار اوجون

متصل یا قیلادورغان بو کونکل دور بو کونکل

مینی یازغورما سیور دیب کیم مینینک حدیم ایرماس

اول تمنا قیلادورغان بو کونکل دور بو کونکل

بارما دیرلار ایشیکی ساری دمادم نیتاین

کوب تقاضا قیلادورغان بو کونکل دور بو کونکل

اوزکا دین کورماکه کوزونک یاشینی ای لطفی

عین دریا قیلادورغان بو کونکل دور بو کونکل

Nashrlarda 5 va 6-baytlar devonning boshqa manbalari asosida quyidagicha shakllantirilgan:

Tori mo‘yin havasin birla qorong‘u kechada

Jonni savdo qilodurg‘on bu ko‘nguldur bu ko‘ngul.

Dushmanu do‘st orasida men g‘ofilni mudom,

Besaru po qilodurg‘on bu ko‘nguldur bu ko‘ngul.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu kabi matniy tafovularga ega bo‘lgan g‘azallar bir talay. Ya’ni ayrim g‘azallar devon matnida to‘liq bo‘lsa, ayrimlari nashrlarda nisbatan mukammal berilgan. Bu esa o‘z navbatida shoir devonining boshqa nusxalarini ham o‘rganish, ulardagi

matnlarni muqoyasa qilish hamda ularning to‘kis varianti tiklash zaruratini ko‘rsatib turibdi. Zero, har bir ijodkor nazmiy merosini tugal holda o‘quvchiga taqdim etish orqali uning mumtoz adabiyotimiz xazinasiga qo‘shgan hissasi bo‘y ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadxo‘jayev E. Lutfiy qo‘lyozma devonining Parij nusxasidagi e’lon qilinmagan g‘azallar//Adabiy meros jurnali. – 1978, №12. – B. 73-89.
2. Lutfiy. Devon. Gul va Navro‘z. Nashrga tayyorlovchi S.Erkinov. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965.
3. Lutfiy. Sensan sevarim… Nashrga tayyorlovchilar: S.Erkinov, E.Fozilov, E.Ahmadxo‘jayev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1987.
4. Lutfiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1960.
5. دیوان لطفی دیوان گادا.Source gallica.bnf.fr / Bibliothèque nationale de France.

“JANGNOMAYI ZUFUNUN” TOSHBOSMASINING ARXEOGRAFIYASI

Shokirova Dilnoza Shuxratovna,
BuxDU magistranti

Annotatsiya. “Jangnomayi Zufunun” asari eski o’zbek tilida, arab yozuviga asoslangan eski o’zbek yozuvida yozilgan bo’lib, unda hazrati Ali roziyallohu anhuning og‘illari Imom Muhammad Hanafiya va shoh Iramning Zufunun ismli qizi bilan jang qilgani haqida so’z boradi. Voqealar Eronda musulmonlar va iymonsizlar o’rtasidagi janglarni ham qamrab oladi. Bu qissa Abdulloh ibn Abbos tomonidan naql qilgan, deb hisoblanadi va xalq qissasi sirasiga mansub hisoblanadi. Bundan tashqari yana bir qancha sahoba va tobeinlar haqida ham badiiy mulohazalar berilgan.

Kalit so’zlar: Jangnomayi Zufunun, Imom Muhammad Hanafiya, Zufunun, toshbosma, nashr, basmala, qo’lyozma, Qur’oni Karim, Taloq surasi, Mullo Mirzo Ahmad Mirzo Karim og‘li, Ilyin nashriyoti, qori Mirzo Ahmad.

Annotation. The work “Jangnomayi Zufunun” is written in Old Uzbek using the Arabic script. It tells the story of a battle between Imam Muhammad Hanafiyah, the son of Hazrat Ali (may Allah be pleased with him), and a girl named Zufunun, the daughter of Shah Iram. The events also encompass battles between Muslims and disbelievers in Iran. This tale

is attributed to the narration of Abdullah ibn Abbas and is considered a folk epic. In addition, the story mentions several other companions (Sahabah) and followers (Tabi'in) of the Prophet.

Keywords: Jangnomayi Zufunun, Imam Muhammad Hanafiyah, Zufunun, lithographic edition, publication, Basmala, manuscript, the Holy Qur'an, Surah At-Talaq, Mullo Mirzo Ahmad Mirzo Karim ogli, V.M. Ilyin Publishing House, qori Mirzo Ahmad

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so’ng, xalqimizning ma’naviy merosi bo’lmish badiiy asarlar, nodir qo’lyozmalar va toshbosmalarni topish, ularni tabdil va tadqiq qilish, nashr etishga sezilarli etibor qaratildi. Bu borada anchagina salmoqli ishlar amalga oshirildi va hanuz davom ettirilmoqda. Qadimiy manbalar eski o’zbek, fors va arab tillarida bo’lib ular arab yozuvida bitilgan. Ushbu qo’lyozmalarni hozirgi o’zbek imlosiga tabdil qilish jadal davom etmoqda. Bu borada Buxoro shahrida joylashgan Abu Ali Ibn Sino nomidagi axborot kutubxona fondida saqlanayotgan nodir manbalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu sa’y- harakatlar natijasida Sovet mustamlakachilik tuzumi davrida unutilgan merosimiz qayta tiklanmoqda va xalqimiz bu ne’matdan bahramand bo’lmoqda. Jumladan, “Jangnomayi Zufunun” qissasi ham nodir manbalarimizdan bo’lib, bu asar xalq qissasi sanaladi. “Jangnomayi Zufunun” toshbosmasi Abu Ali Ibn Sino nomidagi axborot-kutubxona fondidagi 787- Inventar raqam ostida saqlanadi. Bu noyob manba 1904-yilda Toshkent shahridagi V.M.Ilyin nashriyotida bosmadan chiqarilgan. Umumiy sahifasi 128 betdan iborat. Qori mirzo Ahmad tomonidan yozilgan. Ushbu kitob Toshkentda bosilgan bo’lsa-da, Buxoro qo’lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda Buxoro toshbosmasi nomi bilan o’rganilmoqda. Toshbosma betlari sahifaning yuqori qismida arab raqamlari bilan ko’rsatilgan. Ushbu kitob Qur’oni Karimning “Taloq” surasi 3-oyatidan boshlanib, so’ngra Allohga hamd aytilgan. Keyin voqealar hikoya qilinadi. Qissa eski o’zbek yozuvi(arab alifbosida) yozilgan bo’lib, turkiy tilida bitilgan. ”Jangnomayi Zufunun” qissasida ham nasr ham nazmiy misralar berilgan, sarguzasht voqealar tasviri yetakchilik qiladi. Bundan tashqari turkiy so’zlar bilan birgalikda, forsiy, arabiy so’zlar ham ishlatilgan. Toshbosmaning yana bir o’ziga xos jihati uning oxirgi qismida hikoya, bir qator she’r va topishmoq keltirilganligidir. Kitobning dastlabki muqova-sahihasida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

وَمَنْ يَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ فَهُوَ حَسْبُهُ

جنگنامۂ ذوفنون

Joriy yozuvdagi tabdili:

Va mayya tavakkallohu fa huva hasbu, Lillahil hamdu val minna,

In kitob Arabiya va ajamiya musammabihi Jangnomayi Zufunun,

Bo ihtimomi Mullo Mirzo Ahmad Mirzo Karim o'gillarining xarojoti ilan ismi bosma o'landi,

Dar baladai shosh, dar matbai Ilyin, ba husni tab'a, matbu ahli jahon shut,

Dazvolina senzuru Sank-Peterburk 20 -avgusta 1904- goda tipografiya V.M.Ilyin gorod Tashkent.

Joriy yozuvga tabdil qilingan parchadan ma'lum bo'ladiki, asar Toshkentda Ilin matbaasida chop bo'lgan. Asarni chop etishda Mullo Mirzo Ahmad Mirzo Karim o'gillari homiylik qilgan.

Qissaning muqova-sahifasi "Taloq" surasi 3-oyatining bir qismi bilan boshlanadi, ya'ni "kim Allohga tavakkal qilsa, bas, unga U zotning O'zi kifoyadir". O'sha zamon qonun qoidalariga binoan asarlar basmala va qur'on oyatlari bilan boshlangan. Sharq musulmon adabiyotida shakllangan bu kitobatchilik an'anasiga qat'iy amal qilib kelingan. Bu Qur'oni Karim bilan bo'g'liq bo'lib, har bir ijodkor asar yaratar ekan, o'z kitobini muqaddas Qur'oni Karimga o'xshatma sifatida bo'lishini orzu qilib, aynan mazkur kitob boshlanmalarini inobatga olib o'z kitobini yaratgan. Keyin Allohga hamdlar bo'lsin kabi fikrlar keltirilgan. Keyingi satrlar forscha va arabcha bo'lib, bu kitob arabcha va ajamchada bo'lib, "Jangnomayi Zufunun" deb nomlangan deyiladi. Go'zal bosma bilan, dunyo ahli tomonidan bosma (kitob) deb tan olindi." deb fors tilida yozib qo'yilgan. Muqovaning oxiri esa rus tilida bo'lib, unda Sank-Peterburk senzurasi,1904-yil 20- avgust V.M.Ilyin tipografiyasi Toshkent shahri deb yozilgan. Kitobning birinchi sahifasida unvon qismi va matn birgalikda berilganligini ko'rish mumkin. Unvon bu – ilk sahifaning yuqori qismida

joylashtiriladigan bezak bo’lib, mumtoz manbalarimizning barchasida keltirilgan. Ta’kidlash joizki, mumtoz asarlar orasida, hatto, qo’sh unvonli, ya’ni kitobning ikki sahifasi ketma-ket unvon bilan yaratilganlari ham uchraydi. Bunday manbalar qo’sh zarvaraqli manbalar deb ham yuritiladi. Chunki unvon zarvaraq nomi bilan ham yuritiladi. Mazkur toshbosmaning unvon qismi quyidagicha berilgan:



Joriy yozuvdagi tabdili:

Bismillahir rohmanir rohim

Qissayi Zufunun Imom Muhammad Hanifiya birla Zufununni jang qilg‘oni.

Bilinglar va ogoh bo’linglar! Bu qissa andog‘ qissadurki, pur az ajoyib va g‘aroyib qissalarni shirini va shirin so’zlarning nigini! Bu qissani Abdulloh ibn Abbos naql qilibdurlar: Toyinki inqirozi olamg‘a yodgor bo’lsin! Imom Hanifiya va onolari Bibi Hanifa Zufunun birla jang qilg‘onlari va Hazrat Shoh Mardon va sheri Yazdon, Murtazoyi Aillarning imonsizlar birla urush qilg‘onlari.

Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, kunlardan bir kun Imom Muhammad Hanifiya orzuyi shikor qilib, Hazrat Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuni o’g‘lonlari Ismoil va Qosim o’z xizmatkorlari Muqbil, bu uch kishini o’zlariga hamroh qilib asob jabduqni muhayyo qilib sahrog‘a yuzlandilar. Bir tog‘ etagida shikor qilib yurdilar. Nogoh biyobondin bir poyigardi namoyon bo’ldi. Ul gard ichidin bir guruh odamlar chiqib keldi, sanadilar: “Qirq kishi chiqdilar.” Alarning boshi Zufunun pok-domon edi. O’zgalari aning kinazalari edilar. Alarni har biri g‘aroyib otlar mingan. Oldinda, yuguruk ot ustida podshohona liboslar

kiyib sohibjamal Zufunun borar edi: Zufunun va'da qilg'on erdikim: "Har kim meni yerga ursalar, man aning nikohlarida bo'lur man," deb. Ammo olam yuzida anga muqobil hech odam yo'q erdi. Dar bobi balog'at va fasohatda har kimarsa anga barobar kelmas erdi. Dar quvvat pahlavoni Rustami Doston shatta yer erdi. Xush surat va sohibjamollikda xuroni Behisht(ni) taslim qilur edi. Va aning turfa nozik ishlari bor erdi. Aning ta'rif jamolini eshitib atrof olamdin podshohzodalar anga muqobil bo'lolmadi, o'zlari nobud bo'lur edilar.

Ittifoqo ul kun Zufunun ham shikorg'a chiqib erdi. Ul to'g'da Imom Muhammad Hanifiyag'a duchor bo'ldi. Zufunun ko'rdi, aning shikorgohida to'rt kimarsa shikor qilib yurubdur. Aning qahri va g'azabi keldi. Aydi: "Bular qandoq odamlar, mani shikorgohimga kelib saydi shikor qilsalar?! Bu yerlarda odam yursa oyog'i kuyar.Haddi odamzod bo'lurmu buyerg'a kelsa.Mani shikorgohimda shikor qilibdur?!" deb qilichini g'ilofidin chiqorib Imom Muhammad Hanifiyaga ro'baro' bo'ldi va qattiq bong urdiki: "Sen qandoq odamsen? Bu yerda boshingdin qo'rqmay shikor qilursen? Avval nom va nasablaringni bayon qil. Shamshirim damida benomu nishon o'lib ketmagin," dedi.

Imom Muhammad Hanifiyaning Zufununning so'zlariga g'ayratlari keldi. Aydilar ki: "Sherbachchayi zamon, farzandi Aliyyi Sohibqirondurman! Na maholdirki kiyib erkak libosini mardon mardlarining ma'raka maydonida yurursan. Sening vazifang ulardiki, chigit g'o'zasini olsang, oni paxta qilib besh dug bilan bir charx olib burchig`a kirib, charx birla besh dugni bilganing yaxshidur," dedilar.

Shu tarzda boshlangan qissa voqealari birin ketin rivojlanib boradi. Asar tarixiy mavzuda bo'lganligi va unda musulmonlar va islomga e'tiqod qilmaganlar orasidagi jang tasvirlari kuchli badiiy bo'yoqlarda ifodalangan. Ana shu jihatdan asar jangnoma xarakteridagi asarlar sirasiga mansub sanaladi. Asarning ko'p o'rinlarida didaktik xarakterdagi hikoyatlar, voqealar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Jangnomayi Zufunun" toshbosma. – Toshkent, 1904.

2. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. –Тошкент, 2019.

3. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур). – Тошкент: 2004. – 617 б.

4. Ўзбек мумтоз адабиёт намуналари. I жилд (Энг қадимги даврдан XIV давргача). – Тошкент: Фан, 2003. – 332 б.

“BOBURNOMA”DAGI SHE’RLAR POETIKASI

Omonkeldiyeva Maftuna Murodullo qizi,
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburning g‘azallaridagi poetik xususiyatlar, ularning ma’no va mazmun jihatdan tahlili hamda badiiy tasvir vositalari o‘rganiladi. G‘azallarining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlar tizimi va uslubiy xususiyatlari yoritiladi. Bobur she’riyatida tasavvufiy va falsafiy qarashlarning o‘z ifodasini qanday topgani ham tahlil qilinadi. “Boburnoma”da keltirilgan vatan, inson kabi mavzulardagi misralarning o ‘ziga xos tomonlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, g‘azal, poetika, badiiy tasvir, obraz, uslub, tavba, tasavvuf, falsafa

Annotation: This article studies the poetic features of Babur's ghazals, their analysis in terms of meaning and content, and the means of artistic depiction. The main ideological direction of his ghazals, the system of images, and the stylistic features are highlighted. It also analyzes how mystical and philosophical views found their expression in Babur's poetry. The specific aspects of the verses on topics such as homeland and man presented in “Boburnoma” are revealed.

Keywords: Babur, ghazal, poetics, artistic image, style, repentance, Sufism, philosophy

Bobur Mirzo (1483–1530) o‘zbek adabiyoti va tarixida alohida o‘rin tutgan shaxsdir. U nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki iste’dodli shoir sifatida ham tanilgan. Uning adabiy merosi, ayniqsa, she’riyati, o‘zbek klassik adabiyotining muhim qismidir. Bobur o‘z ijodiy faoliyatida Alisher Navoiy, Hofiz Sheroziy, Sa’diy va Jomiy an’analarini davom ettirib, ularni yangi mazmun va shakl bilan boyitgan. Uning she’riyati chuqur ma’no va mazmunga ega bo‘lib, tarixiy, falsafiy, diniy va ma’naviy qarashlar bilan uyg‘unlashgan.

Boburning eng mashhur adabiy asari – “Boburnoma” bo‘lsa-da, uning she’riyati ham alohida e’tiborga loyiqdir. Bobur o‘z g‘azallarida insoniy fazilatlar, axloqiy poklik, tavba, vatan sog‘inchi, muhabbat va dunyoning o‘tkinchiligi kabi mavzularni yoritadi. Shoir o‘z davrining ijtimoiy va siyosiy holatini ham teran tushungan holda, uni badiiy ifoda etgan. Uning she’rlari tilining ravonligi, badiiy tasvir vositalarining serqirraligi va falsafiy chuqurligi bilan ajralib turadi

Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu?
Xasta ko‘nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu? 192-b.

Ushbu misrada shoir butun umriga nazar tashlar ekan, undagi o ‘zining mashaqatli keshmishini aks ettirgandek bo ‘ladi. Yaqin insonlarining xiyonati, yurtdan ayrilish, sargardonlik, dushmanlar kechgan ayovsiz jang, oilaviy munosabatlarning yaxshi emasligi — bularning barchasi Boburning nola-yu fig‘on cheklishiga sabab. Misra savol shaklida, diqqat bilan kuzatgan kitobxon uni shoir o‘ziga berayotganini payqaydi. Bunday ifoda baytning badiiy jozibasini oshirgan. Javr, jafo, dard, balo singari tanosib san’atini yuzaga chiqaradigan so‘zlarni o‘qiganimizda esa har biridan ayri hissiyot tuyamiz.

Boburning g‘azallarida tasavvufiy qarashlarning kuchli ekanligi seziladi. U o‘z she’riyatida dunyoviy va ma’naviy hayotni bir-biriga bog‘laydi, insonning ichki poklanishi va ma’naviy yuksalishiga alohida urg‘u beradi. Uning tavbaga bag‘ishlangan g‘azallari bu jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u erkinlik va poklikka intilish motivlarini ilgari suradi. Bobur may ichishdan voz kechish, dunyoviy lazzatlardan voz kechib, axloqiy mukammallikka erishish haqida yozadi.

Bobur o‘z g‘azallarida insonning ma’naviy o‘sishi, ruhiy poklanishi va dunyoviy hayotning o‘tkinchiligi haqida falsafiy mushohadalar yuritadi. Uning tavbaga bag‘ishlangan she’rlari axloqiy poklik va insoniy mukammallikka erishish yo‘llarini ko‘rsatadi. U may ichishdan voz kechish, ma’naviy poklanish va o‘zini o‘zi anglashni targ‘ib qiladi. Bu jihatlar tasavvufiy g‘oyalarga hamohangdir. Tasavvuf adabiyotida insonning ma’naviy kamol topishi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, Bobur bu g‘oyani o‘ziga xos tarzda ifodalagan. Shoir uchun ichki poklanish va gunohlardan voz kechish faqat shaxsiy intilish emas, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etgan.

Boburning tavbaga bag‘ishlangan g‘azallaridan biri quyidagicha boshlanadi:

Niyati g‘azv ilakim yorubsan,
O‘lmakingni o‘zungga ko‘rubsan.

Bu misralarda shoir dunyoning vaqtinchalik ekanini anglash va inson o‘z hayoti davomida to‘g‘ri yo‘lni topishi kerakligi haqida fikr bildiradi. "Niyati g‘azv" iborasi jihod qilish yoki ichki kurashni anglatib, bu yerda insonning o‘z nafsiga qarshi kurashi tasvirlanadi. Tavba qilish va gunohlardan voz kechish orqali inson o‘z hayotini yaxshilashi mumkinligi g‘oyasi shoirning falsafiy qarashlarini ochib beradi.

Shuningdek, Bobur g‘azallarida uning siyosiy hayoti, janglar va yurtidan uzoqlashganlik kechinmalari ham aks etgan. Hindistonga kelgach, u o‘z yurtini, xususan, Andijonni sog‘inganini ko‘p bora she’riyatida ifoda

etgan. Ushbu maqolada Boburning g‘azallaridagi poetik jihatlar, badiiy san’atlar va uning poetik uslubi tahlil qilinadi.

Boburning vatan sog‘inchi bilan bog‘liq she’rlari esa, ayniqsa, diqqatga sazovordir. U yurtini tark etish, Hindistonda begona yurtda yashash va Andijonning sog‘inchi haqida ko‘plab g‘azallar yaratgan. Bu she’rlarda u faqat shaxsiy kechinmalarini emas, balki vatandan judo bo‘lgan har bir insonning dardini ifoda etadi. Shoir tabiat tasvirlari orqali o‘z hissiyotlarini jonlantirib, o‘quvchiga yetkazadi. Masalan, uning Hindistonda yozilgan g‘azallaridan birida shunday misralar bor:

Ey alarkim, bu Hind kishvaridin
Bordingiz anglab o‘zga ranju alam.
Kobul-u xush havosini sog‘inib
Hinddin garm bordingiz ul dam
Ko‘rdingiz, topdingiz ekin anda

Bu misralarda shoir Hindistonga borish orqali boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklarini, g‘am-tashvishlarini tasvirlaydi. Shoir uchun Hindiston nafaqat siyosiy faoliyat yuritish joyi, balki g‘urbat va hijron ramzi sifatida ham namoyon bo‘lgan. U yerda turib o‘z vatanining so‘lim tabiatini, xushhavo shaharlarini sog‘ingan. Aslida hindiston tabiati ham go‘zal go‘shalardan biri edi, ammo shoir uchun o‘z vatani tuprog‘i qimmatlidir.

Boburning she’riyatida allegorik uslub keng o‘rin olgan bo‘lib, u turli ramz va timsollar orqali falsafiy fikrlarini ifoda etgan. Uning she’rlari faqat tashqi go‘zallik bilan cheklanmay, balki ichki ruhiy olamni ham ochib beradi. Shoir inson ruhiyatining turli holatlarini she’riy ifoda vositalari orqali yoritadi. Misol uchun, uning ko‘plab she’rlarida may va mayxonaga oid timsollar uchraydi. Biroq Boburning she’riyati faqatgina may ichishga da’vat emas, balki undan voz kechish va ruhiy kamolot sari intilishga chorlovchi badiiy ifodadir.

Mastam, ey muhtasib, imro’z zi man dast bidor,
Ehtisobam bikun, on ro’zi ki yobi hushyor.
Tarjimasi:
Qilma bezovta meni, ey muhtasib, mastman bugun,
Istagancha qil so’roq topgan kuning hushyor meni. 58-b.

Mumtoz she’riyatda may detalining o‘rni alohida va may haqiqatan mast qiluvchi chog‘ir emas, ramziy ma’noda ishqdan sarxush ma’nosida keladi. Bu baytda shoir hisob so’rovchidan men sening savollaringga javob beraman, faqat mening xushyor vaqtimda kel, ammo misrani o‘qib shoirning baribir mening bunday kunim yo‘q, men doim ishqdan mastman degan ma’noni sezishimiz mumkin. Baytda yashirin ruju san’ati

qo‘llangandek, bundan tashqari nido, tazod, kabi she’riy san’atlarning bejirim ifodasi keltirilgan.

Bobur she’riyati turli badiiy va falsafiy jihatlar bilan boyitilgan bo‘lib, uning poetikasi chuqur ma’naviy va axloqiy qatlamlarga ega. Shoir o‘z g‘azallarida inson ruhiyati, dunyoqarashi va hayot mazmunini o‘ziga xos uslubda aks ettirgan Boburning she’riy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda Uning poetik tafakkuri insoniyatning abadiy qadriyatlari – muhabbat, vatanparvarlik, ma’naviy poklik va kamolotga erishish yo‘lidagi izlanishlari bilan uyg‘unlashadi

Xulosa qiladigan bo ‘lsak, Zahiriddin Muhammad Boburning har bir misrasini tahlil qilish davomida uning chinakam “dilbar shaxs” ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Keying maqolalar davomida ijodkorning boshqa bir qator ijtimoiy mavzudagi g‘azal va boshqa ijod namunalari tahlil qilish ko‘zlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.

2. Suyunova M. Bobur she’riyati va uning poetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

3. Qosimov B. Bobur – shoir va mutafakkir. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. Aliev N. O‘zbek mumtoz adabiyotining poetik an’analari. – Toshkent: Sharq, 2012.

6. Bertels Ye. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ijodi. – Moskva: Nauka, 1960.

7. Mirzo H. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.

ALISHER NAVOIY–YOSHLAR G‘AMXO‘RI

Erkinova Madinaxon Umid qizi,
ToshDO‘ TAU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida ifoda etilgan axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalar tahlil etilgan. Xususan, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Hayrat ul-abror” dostonining o‘n yettinchi maqoloti asos qilib olingan va undagi axloqiy-

me’yoriy tamoyillar, komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlar chuqur tahlilga tortilgan. Tadqiqot davomida Navoiyning yoshlarga ta’lim berish, ularni halollik, ezgulik, mehnatsevarlik, bilimga chanqoqlik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash borasidagi qarashlari yoritib berilgan. “Hayrat ul-abror”ning mazkur maqoloti asosida Navoiy axloqiy yetuk jamiyatni barpo etish uchun, avvalo, insonni tarbiyalash zarurligini ta’kidlagani e’tirof etilgn. Shu bilan birgalikda, maqolada o‘sha davrda ham yosh avlodning kamoloti, bilim va ma’naviyat bilan qurollanishi masalasi naqadar dolzarb bo‘lganligiga e’tibor qaratilgn. Asarda ilgari surilgan g‘oyalarning bugungi kun tarbiya jarayonida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Xuroson, Hirot, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, ta’lim, tarbiya, yoshlar.

Annotation: This article analyzes the moral and educational ideas expressed in the works of the great Uzbek thinker Alisher Navoi. In particular, the seventeenth article of the epic poem "Hayrat ul-abror", which is part of "Khamsa", was taken as a basis and the moral and normative principles and views on the upbringing of a perfect person in it were deeply analyzed. During the study, Navoi's views on educating young people, educating them in the spirit of such qualities as honesty, kindness, hard work, and thirst for knowledge were highlighted. Based on this article of "Hayrat ul-abror", it is recognized that Navoi emphasized the need to educate a person, first of all, in order to build a morally mature society. At the same time, the article draws attention to how urgent the issue of the maturity of the younger generation, arming it with knowledge and spirituality was at that time. The work emphasizes that the ideas put forward in the work have not lost their relevance in today's educational process.

Keywords: Khorasan, Herat, Hamsa, Hayrat ul-Abrar, education, upbringing, youth.

Xamsaning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”dagi o‘n yettinchi maqolat “Bahor yigitligi nazohatidakim, rayhoni noz parvardlarin mulavvan xullalar bila orosta qilur. Va yigitlik bahori latofatidakim, rayhoniy xat bila oraz gulin gul-u rayhong‘a o‘t solg‘udek perosta etar. Va xazon qarilig‘i burudatidakim, guliston ashjori bila qushlari ondin bebarg-u navo durur. Va qariliq xazoni shiddatidakim, badan gulistonining toza gullari andin barbod-u havo” deb nomlanadi. Navoiy har bir faslning o‘ziga xos go‘zalligini ta’riflashdan oldin quyosh hamal burjiga kirgach, falak olamga o‘z mehribonligini zohir aylashiga ishora qiladi:

Chun hamal ayvonini yorutti mehr,
Dahrg‘a mehr ayladi zohir sipehr. [Alisher Navoiy, 1991:299].

Navoiyning mazkur ta’riflari XIII asr oxirida yashab ijod etgan Nosiriddin Rabg‘uziyning quyidagi misralariga hamohang.

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam Navro‘zi
Kechti Baxman zamharir qish, qolmadi, qori buzi. [Rabg‘uziy, 1993:171].

Dostondagi har bir maqolot mavzu va mazmun jihatidan bir biriga bog‘langan bo‘lib, Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi. “O‘n yettinchi maqolat umrning ikki asosiy bosqichi hisoblanmish yoshlik va qarilik haqida. Bu maqolatda ham Navoiy falsafiy mushohadakorlik bilan so‘zni bog‘ tasviridan boshlab, ko‘klam, yoz, xazon va qish fasllaridagi peyzajni katta mahorat bilan chizadi. Keyingi baytlarda esa, inson umrini xuddi shu holatga qiyoslab, olamdagi barcha narsa kabi inson umri ham zavol topishi muqarrarligini shoirona tilda ifodalaydi. Shu sababli, deyarli har bir maqolatda qayta-qayta ta’kidlangan – umrni g'animat deb bilish hamda uni bekorga o‘tkazmaslik g'oyasi bu maqolatda yanada o‘tkirroq mohiyat kasb etgan”. [Sirojiddinov, 2018:94].

Hazrat Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya ruhidagi insonparvarlik qarashlari oradan necha asrlar o‘tganiga qaramasdan o‘z qimmati va ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, Navoiyning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari bugungi kunga kelib, har qachongidan ham ravshanlashib, tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda Alisher Navoiyning ta’limiy qarashlarini bugungi kunning barcha fan sohalariga asos bo‘lganini ko‘rish mumkin. Xususan, badiiy adabiyot, tilshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, tarix, umumiy pedagogika, falsafa, didaktika kabilar.

Aytish mumkinki, ulug‘ shoirning barcha asarlarida ta’lim va tarbiyaga oid qarashlar ilgari surilgan. Shu ma’noda buyuk beshlik “Xamsa” asari axloqiy-ta’limiy, irfoniy, falsafiy mushohadalarni o‘zida jamlagan adabiy manba hisoblanadi. “Hayrat ul-abror”ning o‘n yettinchi maqolatida inson umri to‘rt faslga qiyoslangan. Ya’ni Alisher Navoiy yoshlikni bahorga, yigitlik davrini yozga, o‘rta yosh davrini kuzga hamda qarilikni qishga o‘xshatadi.

Mag‘zig‘a solg‘uncha xirad sha’mi nur,
Ko‘ngliga tushguncha xiraddin shuur
Toza niholi bo‘lubon sarbaland,
Soda dimog‘i bo‘lubon xushmand,
Anglab anikim, yuzi gulrang erur,

G‘amzasi xunrez-u ko‘zi shang erur. [Alisher Navoiy, 1991:305].
Bog‘ shugufa bila gul tark etib,
Barg bila mevag‘a navbat yetib.
Hiffatidin ta’b nufur aylabon,
Hilm ila idrok zuhur aylabon.
Yuz ming esa jahl-u xato xirmani,
Mash’alai ilm kul aylab bani.
Gulshani hil’atda bo‘lub har shajar,
Ilm-u adab mevasidan borvar. [Alisher Navoiy, 1991:306].
Ikki bukulgan qaddu maddi aso,
Charxi nigun birla xati istivo.
Qolmay og‘iz durjida durri,
Tishlari “sin”, lek kashish birla.
Og‘iz o‘lub durj, vale donasiz,
Tishlar o‘lub “sin”, vale donasiz [Alisher Navoiy, 1991:307].
Bir necha kun ham bu sifat jon chekib,
Qon yutub-u nolai xirmon chekib.
Toki ajal qosidi farmon chog‘i,
Tindurubon ko‘nglini andin dog‘i. [Alisher Navoiy, 1991:308].

Navoiy ta’kidlaganidek, inson umrining har oni bo‘laklarga bo‘lib qo‘yilgan. Zero, har biri bir narsaga mo‘ljallangan: o‘n yoshgacha- erkin hayot kechirishga, yigirmagacha- bilimsizlig-u mastlik bilan band bo‘lish mumkin. O‘ttiz bilan qirq ichida aysh qilish. Inson ellik yoshga borganida taraqqiy qilishi mumkin emas.

Umr kuning qismat etibtur qazo,
Har chog‘i bir ishga qilur iqtizo.
O‘ng‘acha g‘aflat bila pobastliq.
Jahl yigirmigacha mastliq
O‘ttuzu qirq ichra erur aysh-u kom,
Vahki manga ul dog‘i erdi harom. [Alisher Navoiy, 1991:309].

Alisher Navoiyning o‘z davridagi bunday falsafiy qarashlari bugungi zamon bilan hamnafas. Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, har bir insonning yoshligida ilm olishi afzal sanaladi. Agar inson o‘z vaqtida ilmni egallamasa, yoshi o‘tgan sari ilm olishga bo‘lgan ehtiyoji kamayib boradi. Xalqimiz orasida keng tarqalgan “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh kabidir” maqoliga shu o‘rinda tayanish mumkin. Fan va texnika shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda yoshlar qalbida ilm olishga muhabbatni shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Zero, komil shaxsni voyaga yetkazishda ajdodlarimizdan qolgan boy ma’naviy

merosning o‘rni va ahamiyati katta. Alisher Navoiyning maqolot davomida bayon etilgan falsafiy mushohadalarini amaliyotga qo‘llash bugungi avlodning dasturul amali, bosh mayog‘i bo‘lishi darkor, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. –Toshkent: Fan, 1991. – 422 b.

2. Hojiahmetov A. Xamsa. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Sharq, 2016. – 336 b.

3. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 1-kitob. – Toshkent: Yulduzcha, 1993.

4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 520 b.

TURKIY ADABIYOTNING ZABARDAST DARG‘ASI

Yusufaliyeva Muhabbat Akramjon qizi,
ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya: O‘zbek adabiyoti tarixida ilm-ma’rifat olishga bag‘ishlagan olimlar soni salmoqli. Ular qoldirgan ma’naviy meros adabiy manbalar asrlar davomida insoniyat kamolotiga xizmat qiladi. Bir shaxsda turli qirralarning mavjudligi, uning noyob hodisa – fenomen ekanligidan darak beradi. Bunday ilm egalarining nafaqat yaratgan ilmiy merosi, balki bosib o‘tgan ibratli hayot yo‘li kelajak uchun namuna – ibrat vazifasini o‘taydi. Ana shunday serqirra iste’dod sohibi, butun umrini ma’rifat tarqatish ta’lim-tarbiya berish va adabiy manbalarni tadqiq etishga bag‘ishlagan insonlardan biri Hamidjon Homidiydir. Maqolada adabiyotshunos, zullisonayn olim, tarjimon Hamidjon Homidiy ilmiy-adabiy merosi xususida so‘z yuritilgan. Olimning ilmiy merosining qamrovi shu qadar kengki, o‘zbek adabiyoti tarixining eng qadimgi davrlaridan Alisher Navoiy davrigacha bo‘lgan asrlarni o‘z ichiga oladi. Uning tadqiqot usullari matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, mumtoz adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik sohasida olib borgan izlanishlari tadrijiy kuzatilgan. Hamidjon Homidiyning tarjimonlik mahorati, qardosh xalqlar adabiyotini o‘rganishdagi faoliyatiga munosabat bildirilgan. Olim tadqiqotlarining ilmiy-amaliy ahamiyati hamda avestoshunoslik sohasiga qo‘shgan ulkan hissalari, firdavsiyshunoslikdagi topilmalari izohlangan.

Kalit so‘zlar: matnshunos, tarjimon, o‘tmish, qo‘lyozma, an’ana, qiyoslash, adabiy manba.

Abstract: The number of scholars who devoted their lives to science and enlightenment in the history of Uzbek literature is considerable. The spiritual heritage and literary sources they left behind have served the development of humanity for centuries. The presence of various facets in one person indicates that he is a unique phenomenon. Not only the scientific heritage created by such scholars, but also the exemplary life path they have followed serves as a model for the future. One of such versatile talents, who devoted his entire life to spreading enlightenment, education, and researching literary sources, is Hamidjon Hamidiy. The article discusses the scientific and literary heritage of Hamidjon Hamidiy, a literary critic, bilingual scholar, and translator. The scope of the scholar's scientific heritage is so wide that it covers centuries from the most ancient periods of the history of Uzbek literature to the time of Alisher Navoi. His research methods in the field of textual and literary source studies, the history of classical literature, and literary studies are gradually traced. Hamidjon Hamidi's translation skills and activities in the study of the literature of fraternal peoples are commented on. The scientific and practical significance of the scientist's research, as well as his great contributions to the field of Avesta studies and his findings in Firdawsi studies are explained.

Keywords: textualist, translator, past, manuscript, tradition, comparison, literary source.

Butun umrini ilm-ma’rifat olishga bag‘ishlagan hayotdagi har qancha qiyinchilik va mashaqqatlarni sobitlik bilan yengib o‘tgan insonlar oramizda kamchilikni tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, bu tur kishilari butun umrlarini ezgulik yo‘lida baxshida etib, biz kabi yoshlarga o‘rnak vazifasini o‘taydi. Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy ana shunday ilm zahmatlaridan hayiqmagan, bor kuch-g‘ayratini ilm olishga baxshida etgan o‘z davrining allomasi edi. Taniqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi Hamidjon Homidiy 1935-yil 4-oktabrda Namangan viloyati Kosonsoy shahrida etikdo‘z oilasida tug‘ildi. Bolaligi yetimlikning barcha qiyinchiliklari bilan o‘tgan Hamidjon ulg‘ayganda butun kuch-g‘ayratini, qalb qo‘rini ilm olishga bag‘ishlagan, natijada o‘z sohasining yetuk bilimdoni darajasiga ko‘tarilgan. O‘rta maktabni tugatgach, Kosonsoy bosmaxonasida harf teruvchi, gazetaning mas’ul kotibi bo‘lib ishlagan. Hamidjon Homidiy 1954-yil bosmaxona mudiri, 1955-1960-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakulteti talabasi, 1961-yil “Sovet pedagogi” ko‘p nusxali gazeta kotibi,

1962-yil o‘zbek tilshunosligi kafedrasining o‘qituvchisi, 1963-65-yillar o‘zbek adabiyoti kafedrasining aspirant bo‘lib, 1966-yilning oktabr oyidan shu kafedraning o‘qituvchisi bo‘lib xizmat qildi.

Hamidjon Homidiyning adabiyotshunoslikka oid xizmatlari juda keng qamrovlidir. Xususan, olim bir qancha darslik va o‘quv qo‘llanmalari muallifi, 600ga yaqin maqolalar sohibi hamdir. Uning ilmiy maqolalari Tehron, Boku, Olmaota, Dushanbe, Xo‘jand shaharlaridagi majmua hamda qomuslardan o‘rin olgan. Olim ilmiy-ijodiy faoliyati turli yo‘nalishlar bilan mushtarak tarzda bir-birini to‘ldiradi. Mazkur ustuvor yo‘nalishlarni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Hamidjon Homidiy – mumtoz adabiyotning zabardast tadqiqotchisi;
2. Hamidjon Homidiy – matnshunos va manbashunos;
3. Hamidjon Homidiy – avestoshunos;
4. Hamidjon Homidiy – mohir tarjimon;
5. Hamidjon Homidiy – firdavsiyshunos;
6. Hamidjon Homidiy – tazkiranavis [Jo‘rayeva, 2024: 132].

Hamidjon Homidiyning adabiyotshunoslikka oid xizmatlari haqida gap borganda, avvalo, uning “Avesto fayzlari”, “Avesto va tibbiyot”, “Avestoning ilmiy va adabiy qimmati”, “Avestodan Shohnomaga”, “Olis yaqin yulduzlar”, “Ko‘hna sharq darg‘alari”, “Tasavvuf allomalari” kabi bir qancha asarlarini eslab o‘tish o‘rinlidir. Olimning ijodi bu bilangina cheklanib qolmasdan, balki uning qalamiga mansub 10 dan ziyod darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashrdan chiqqanligini, 15 dan ortiq asarlari fors, tojik, rus, uyg‘ur tillariga tarjima qilinganligini ham guvohi bo‘lamiz. Hamidjon Homidiy ijodining asosiy yo‘nalishi, ko‘proq o‘zbek va tojik adabiyoti namunalari tadqiqi bilan uzviy bog‘liq. Xususan, uning 1968-yilda “Shohnoma”ning bir o‘zbekcha klassik tarjimasi haqida” mavzusidagi nomzodlik, 1990-yilda “Firdavsiy va o‘zbek adabiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgani fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Professor Hamidjon Homidiyning muborak 80 yoshlari munosabati bilan 2015-yilda nashr etilgan “Sodiqlik” kitobida taniqli olim va soha mutaxassislari tomonidan bildirilgan e’tirof va qarashlar shuni ko‘rsatadiki, uyqusiz tunlar hisobiga qilingan mehnat, ilmiy izlanishlar o‘zining samarasini, butun bo‘y-bastini ko‘rsata olgan. N. Komilov yozadi: “Zahmatkash olim, professor Hamidjon Homidiy keng ma’nodagi ma’rifatchi olimdir. Chunki uning “Ko‘hna Sharq darg‘alari” kitobida Zardushtdan boshlab Sayyidmubashshirxon Kosoniygacha bo‘lgan turli

davr-u zamonlarda yashagan 73 siymoning tarjimai holi, asarlari, ma’naviy-ma’rifiy ishlari haqida so‘zlanadi. Kitobda sof yangi tadqiqot bo‘ladigan bo‘limlar ancha. Chunonchi, Sulton Mahmud G‘aznaviy haqida bo‘limni olib ko‘ring. Mahmud G‘aznaviy haqida sho‘ro zamonida faqat salbiy fikr bildirib kelingan. Lekin Hamidjon Homidiy talay tarixiy manbalarni o‘rganib, birinchi marta Sulton unvoniga sazovor bo‘lgan Mahmud g‘oyat jasur, ilm-ma’rifatga qayishgan, e’tiqodli podsho bo‘lganini isbotlagan va uning saroyida ijod etgan qator shoirlar, tarixchilar haqida ma’lumot beradi” [Sodiqlik, 2015: 26].

Hamidjon Homidiy qadimiy obida “Avesto”ning o‘ziga xos talqin va tahlillarini amalga oshirgan olim sifatida ham shuhrat topgan. Uning bu boradagi izlanishlarini B.To‘xliyev “Yuksak salohiyat va iqtidor sohibi” maqolasida e’tirof etgan. K.Mullaxo‘jayeva olimning serqirra ijodkor sifatida ustozi Natan Mallayevning “Nizomiy Ganjaviy”, “Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodi” kitoblarini qayta nashrga tayyorlanganini zo‘r faxr bilan yodga oladi [Sodiqlik, 2015: 51]. S.Ashirboyev o‘zining “Hassos olim” maqolasida: “Hamidjon aka 100 dan ortiq ustozlar va 150 dan ortiq o‘zi muloqotda bo‘lgan yoki unga manzur bo‘lgan shoir va yozuvchilar ijodi bo‘yicha lavhalar, tahlillarni to‘plab, kitoblar nashr qildiki, bu ishlar O‘zbekiston ziyolilarining sevimli asarlariga aylandi”, - deb ta’kidlaganda haqli edi [Sodiqlik, 2015: 57]. Hamidjon Homidiy nafaqat ilm egasi sifatida, balki fazilatlarining yuksakligi bilan ham boshqalardan ajralib turgan. Bu haqida akademik Aziz Qayumov shunday yozgan edi. Bu olimning ta’rif va tavsifi bir kitob bo‘lishi mumkin. Hamidjon Homidiyni uning hamkasblari hormay-tolmay ishlaydigan ijodkor, otashqalb ustoz, murabbiy, qadrdon do‘st, hammaga mehribon va yordamga tayyor mutaxassis, nazokatli odob egasi bo‘lmish bir inson sifatida biladilar va hurmat qiladilar [Sodiqlik, 2015: 23-24].

Yozuvchi Tohir Malik qaydlaridan Hamidjon Homidiyning o‘zbek olimlari qatorida muhtasham va munosib o‘rni borligi aniq seziladi. Zamonasozlik, sinfiylik g‘oyalari urchigan bir paytda Hamidjon Homidiy “Sharq allomalari”, “Olis-yaqin yulduzlar”, “Daholar davrasida”, kitoblari misolida o‘zbek millatining buyuk siymolari, darg‘alari borligini isbotlab bergan: “Sovet davrida maktab o‘quvchilariga ulug‘ o‘zbek allomalari haqida gapirilmagni holda, Lomonosov degan zotning ulug‘ olim ekanligi g‘oyat ko‘p uqtirilardi. U rus xalqining dono farzandi sifatida o‘z xalqi uchun katta xizmat qildi. Ammo u kashfiyotchi olim bo‘lmagan, hech nimani kashf etmagan, balki Rossiyadagi fan taraqqiyoti uchun hissa qo‘shgan. U ilm da’vatchisi edi. Rus tilida har yili bu kabi olimlar haqida

“Великие ученые” singari o‘nlab kitoblar nashr etilardi. Ularda Xorazmiy yoki Farobiy kabi ulug‘lar haqida lom-mim deyilmasdi. Bunga ular aybdormi yo bizning o‘zimiz? Albatta, u davr siyosatini ayblash oson. Lekin o‘zimizda ham harakat yo‘q edi. Bu harakatni Hamidjon Homidiy boshlab, bir necha kitob yozdilar, nashr ettirdilarkim, bugungi avlod tarbiyasida bu bebaho xazinaga aylandi. Domlaning bu xizmatlari yosh olimlarga ibrat ham bo‘ldi” [Sodiqlik, 2015:6]. Xudoynazar Asozoda ta’kidlashicha, Hamidjon Hamidov ilmiy faoliyatining boshqa bir jihatini uning ilmiy-badiiy hikoyalari turkumlaridan izlash lozim. Bunday hikoyalar asosan sharqning mashhur allomalari – Borbad Marvaziy, Abu Nasr Farobiy, Mahmud Koshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug‘bek va shu kabi shaxslar hayoti va faoliyatiga bog‘langan bo‘lib, olimning “Uzoq yaqin yulduzlar” (1990) kitobiga kiritilgan [Sodiqlik, 2015: 72].

Shu o‘rinda Mirpo‘lat Mirzoning tajribasida sinalgan haqiqatga ayn tushadigan mulohazalarini keltirish maqsadga muvofiq: “Men hayotni rejali yashab, umrining har kunini qadrlaydigan odamlarga havas qilaman. Agar ularning orttirgan tajribalariga, erishgan muvaffaqiyatlariga, qo‘lga kiritgan yutuqlariga nazar solsangiz, go‘yo ular uchun hammasi silliq kechganday, taqdir saxiylik ko‘rsatib, ularning umr yo‘llarini omadlar-u tayyor yutuqlar bilan siylagandek tuyuladi. Lekin teran mushohada qilsangiz, aslo bunday emasligiga amin bo‘lasiz. Zero, taqdir otlig‘ sirli sinov hech kimni hech qachon “tekinga” siylagan emas. To mudom uning tomonidan har bir muvaffaqiyat, har bir yutuq yuksak intilishlar, metin iroda, sabr va bardosh evaziga “hadya” etilgaydir” (Sodiqlik, 2015, 16-bet). Tadqiqotchi fors va o‘zbek adabiyotining bir-biriga ta’siri va an’analarini mushohada qilib, o‘z qarashlari bilan keng jamoatchilikka olib chiqdi. Shu maqsadda ushbu ikki adabiyotning bog‘liqligi va aloqalarini 10 asr boshlaridan hozirgi kunlargacha tadqiq qildi. Shu jihatdan hatto Sadriddin Ayniy, F.Muhammadiyev, Yu.Akobirov, R.Jalil, H.Nazarov kabi yozuvchilarning asarlarini o‘zbek tiliga ham tarjima qildi. [Sodiqlik, 2015:71].

Xulosa o‘rnida, Hamidjon Homidiy ilmiy-adabiy merosini matnshunoslik va adabiy-manbashunoslik aspekida tadqiq etish zarurati borligini ta’kidlash lozim. Zullisonayn olim Hamidjon Homidiy ilmiy merosini o‘rganish bugungi avlod uchun ham farz ham qarzdir. Zero, eng qadimgi davrlardan Alisher Navoiy davrigacha tadqiqot ishi olib borgan olimning izlanishlari o‘zbek adabiyoti tarixini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva H. Ilm sharafi va olimlik maqomi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2024. – №3. –Б. 131-133.
2. Sodiqlik. Adabiyot uchqunlari. 2025. – B.231.

ALISHER NAVOIY QANOAT VASFIDA

Furqat Mahmudov,
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi insoniy fazilatlar tahlilga tortilgan. Xususan, qanoat va uning mazmun-mohiyati hamda badiiy talqini borasida fikr yuritilgan.Fikr-mulohazalar “Hayrat ul-abror”dostonidagi maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat asosida dlillangan hamda xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: “Hayrat ul-abror”, insoniy fazilatlar, qanoat, maqolat,hikoyat, Muqbil va Mudbir.

Insonni turli-tuman balolardan asrovchi va maqsadga yetaklovchi fazilatlardan biri qanoatdir. Qanoat so‘zining lug‘aviy ma’nosi «mamnunlik», «boriga shukr qilish «, «qanoatlilik «, «kamsuqumlilik bo‘lib , oziga yoki boriga ko‘nish, nafsi tiyiqlik bilan ko‘pga, ortiqchalikka intilmaslik hissidir[Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2008:238].

Alisher Navoiy «Xamsa»sining birinchi dostoni «Hayrat ul – abror»dan
20 ta maqolat o‘rin olgan bo‘lib, ushbu maqolatlarning yettinchisi qanoat va uning inson hamda jamiyat hayotidagi o‘rni masalasiga bag‘ishlangan.

Shoir muhim insoniy fazilatlardan biri sifatida qanoatga yuksak ta’rif beradi. Uning e’tirof etishicha, qanoat insonni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zebu- ziynatlar aslida boyli emas, balki haqiqiy boylik qanoat go‘shasidir. Qanoat oltini hech qachon yo‘qolmaydi. Ana shu oltinni qo‘lga kiritib, shu orqali boyish insonning maqsadi bo‘lmog‘i lozim:

Kimki ishi bo‘ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g‘ani.
Ganju tajammulni g‘ino bilmagil,
Balki g‘ino ganji qanoatni bil.
Naqdi qanoatqa chu yo‘qtur fano,
Jahd et-u bu naqd ila topg‘il g‘ino [Алишер Навоий, 1989:80].

Navoiy so‘zida davom etar ekan, shoh va darvesh obrazlaridagi fazilatlar orqali qanoatning mohiyatini chuqurroq ochishga intiladi:

Shah chu tama’ qildi erur luqmaxoh,
Qonei darvesh erur podshoh.
Shoh, ul emaskim, boshig‘a qo‘ydi toj,
Shoh ani bilkim, yo‘q anga ehtiyoj[Алишер Навоий, 1989:80].

Ya’ni, shoh tamagirlik qilsa, u luqmaxo‘r bo‘ladi; qanoat qilgan darvesh esa podshohdir. Hech narsaga extiyoj bildirmagan, ya’ni Ollohning berganiga , uning muruvvatiga shukr qiluvchi insonlarni shoh, deb bilish lozim.

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi va har qanday vaziyatda qanoat bilan ish ko‘radi. E’tibor qiladigan bo‘lsak, uning nomi ham qanoat so‘ziga yaqindir. Hudhud bo‘lsa, ovqatga o‘chligi va qanoatsiz bo‘lganligidan, garchi boshida toji bo‘lsa ham qushlar ichida elchiligicha qolaveradi. Bundan tashqari, Navoiy, «muhtoj» so‘ziga ham e’tibor qaratib, uning o‘zagida «toj» borligini, toj kiygan har qanday inson shoh bo‘lavermasligini ta’kidlab o‘tadi:

Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktae bu amrda paydo durur:
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoneu anqog‘a muvofiq huruf.
Tu’mag‘a hudhud neki muhtoj erur,
Payk bil, archi boshida toj erur[Алишер Навоий, 1989:81].

Kimki Qorun xazinasiga ega bo‘lib, Jamshid mamlakati, Faridun toji uniki bo‘lib, xayr uchun xazinasining eshigini ochmasa, uning uchun ikki dunyo eshigi berkdir.Ochga ovqat, yalang‘ochga to‘n bergan, qancha boyligi bo‘lsa, shunga qanoat qilgan kishining Tangri oldida ham, xalq oldida ham ayblari doim kechiriladi:

Kimki erur maxzani Qorun aning,
Mulki Jamu toji Faridun aning,
Bazl debon ganj eshigin ochmasa,
Foidasiz durru guhar sochmasa,
Ochga yemak bersa, yalang‘ochga to‘n,
Yuz tilaganlarga mingu birga to‘n.
Qone’ esa onchaki maqdur erur,
Tengriyuxalq oldida ma’zur erur [Алишер Навоий, 1989:84].

Shunday odamlar ham borki, o‘zining hech qanday boyligi yo‘q bo‘la turib qilayotgan sarfi bilan qanoatlanmaydi. Bunday odamlar o‘rinsiz sarf – xarajat qilishga o‘rgangan kishini ko‘rib, o‘shaning qilganini qilishni orzu etadi. Uning xazinasiga qo‘li yetmay turib, o‘shaning ehson va isrofgarchiliklarini havas qiladi. O‘zining oddiy xashagini sarv bilan

yonma – yon qo‘yadi. O‘zi kiyish uchun ustiga palos topa olmaydi, lekin birovlarga naqshli liboslar bergisi keladi. Buning uchun birovlardan qarz oladi-yu, lekin qaytarib bergani tanini topa olmaydi:

Kimgaki andesha bu surat bo‘lur,
Avval anga burch zarurat bo‘lur.
Burch ishidin o‘ziga chu fan topmadi,
Oldi, vale bergali tan topmadi [Алишер Навоий, 1989:84].

Shundan keyin u odamlar orasida sharmanda bo‘ladi Kimki qanoatni mahkam ushlagan bo‘lsa, uning ahvolida bu xildagi qiyinchiliklar yuz bermaydi. Mehnat qilib, ikki chaqa pul topish shoh in’om etgan xazinadan yaxshiroqdir. Navoiy yuqoridagi so‘zlarini dalillagan holda, ibratli bir hikoya keltiradi:

Fors o‘lkasidan ikki do‘st Chin mamlakati tomon yo‘l oladilar. Biri azaldan berilganiga qanoat qiluvchi, ikkinchisi tamagir va qanoatsiz edi. Yo‘l yurishar ekan, ikki do‘stning ko‘zlari, yo‘l bo‘yidagi toshga tushdi. Toshning yarmi yerga kirgan, yarmi tashqariga chiqqan bo‘lib, tashqaridagi qismiga shunday yozuv bitilgan edi: «Kimki qiyinchilikka bardosh berib, toshning orqa tomonini ag‘darsa, unda afsona yozilgan. Afsonaga ko‘ra, atrofda vayrona bo‘lib, uning ichidagi xazinaga faqat uning mashaqqatiga chidagan inson ega bo‘ladi». Tamagir buni o‘qigach, toshning tagini qazishga tushib ketadi. Qanoat qiluvchi esa uning bu ishini ko‘rib, parvo ham qilmasdan: “Qanoat xazinasi – mening hamrohimdir. Kimga tangri ehson bermoqchi bo‘lsa, tosh o‘z-o‘zidan yorilib, uning ostidagi ehson o‘z egasini topishi mumkin”, – deya yo‘lida davom etadi. U yo‘l yurib, tong saharda Chin mamlakatiga yetib keladi. U yerning podshohi vafot etgan bo‘lib, bu xalq tomonidan sir tutilar edi. Ushbu xalqning shunday odati ham bor ediki, vafot etgan podshoh o‘rniga, kimda kim birinchi bo‘lib, saharda mamlakat hududiga kirsa, uni taxtga o‘tqazib, boshiga toj kiydirishar, qo‘liga uzuk taqishar edi. Bunday ehtiromga o‘z-o‘zidan qanoat qiluvchi sazovor bo‘ladi.

Tamagir esa toshning boshqa tomoniga ag‘darib, undagi hikmatli so‘zlarga ko‘zi tushdi. “Kim xomtama bo‘lsa, u dunyoda doim azobda” – deb yozilgan ekan:

Ranj bila yetti chu o‘z jonig‘a,
Toshni evurdi yana bir yonig‘a,
Xatg‘a boqib ko‘rdi bu mastur erur:
“Xom tama’ dahrda ranjur erur” [Алишер Навоий, 1989:84].

Kimki qanoatni tark etishni shior qilgan bo‘lsa, bu tama’ uni el ichida xor qiladi. Izzat tilar ekansan, qanoatni tama’ qil. Qanoat qilganning joyi izzat taxtidadir, deya xulosa chiqariladi.

Navoiyning fikricha, qanoat oltinu kumushlardan ham afzalroqdir. U shunday xazinaki, uni hech kim o‘g‘irlab ham, tortib ham ololmaydi. Insonni yuksak martabalarga olib chiquvchi ham qanoatdir. Zero:

Mulk ila o‘zni demagil arjumand,
Mulki qanoat bila bo‘l sarbaland [Алишер Навоий, 1989:81].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик, 5-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энкциклопедияси, 2008.
2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Ўзбек адабиёти бўстони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
3. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фан, 1971.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар. – Тошкент: Шарқ, 2016.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI

Akmalova Zeboxon Akobirxon qizi,
Alfraganus University talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotini ilmiy asosda tadqiq etishda matnshunoslik va manbashunoslik fanlarining o‘rni, usullari va ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Mumtoz adabiy matnlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan matnshunoslik yondashuvlari — nusxalararo farqlarni aniqlash, matn tanlash prinsiplari, variantlarni solishtirish metodikasi kabi masalalar keng tahlil qilinadi. Shu bilan birga, manbashunoslik fanining vazifalari — tarixiy-adabiy manbalarni tasniflash, ularning ishonchliligini baholash, mualliflik, davr va madaniy kontekstni aniqlash usullari orqali tahlil etiladi. Maqolada Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Mashrab singari mumtoz adiblarning asarlari matnshunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilib, ularning nashrlari, qo‘lyozmalari va tarixiy manbalar bilan aloqasi o‘rganiladi. Ayniqsa, “Xamsa”, “Majolis un-nafois” va “Boburnoma” kabi asarlar asosida matnshunoslik va manbashunoslikning amaliy jihatlari yoritiladi. Shu bilan birga, maqolada Sharq va G‘arb olimlari (A. Bartold, A. Habibiy, Fitrat, V. V. Bartold va boshqalar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozmalar, tarixiy yodgorliklar, tanqidiy matn, Majolis un-nafois, Devoni lug‘otit-turk, orientalistika, tarixiy manbalar.

Annotation: This article explores the role, methods, and interrelation of textual studies (matnshunoslik) and source studies (manbashunoslik) in the scientific research of classical Uzbek literature. It provides an in-depth analysis of the textual approaches used when working with classical literary texts — such as identifying differences between manuscript copies, principles of text selection, and methods for comparing variants. Additionally, the article examines the objectives of source studies, including the classification of historical-literary sources, evaluation of their reliability, and methods for determining authorship, period, and cultural context. The works of classical authors like Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Lutfi, and Mashrab are analyzed from a textual perspective, focusing on their published editions, manuscripts, and connection with historical sources. Particular attention is given to the practical aspects of textual and source studies using major works such as *Khamsa*, *Majolis un-Nafois*, and *Baburnama*. The article also discusses the research conducted by both Eastern and Western scholars (e.g., A. Bartold, A. Habibiy, Fitrat, V. V. Bartold, and others).

Keywords: manuscripts, historical monuments, critical text, philological analysis, *Majolis un-Nafois*, *Divan-i Lughat at-Turk*, oriental studies, historical sources.

O‘zbek mumtoz adabiyoti — turkiy xalqlar madaniyati tarixining eng muhim poydevorlaridan biri bo‘lib, asrlar davomida shakllangan estetik, falsafiy va axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bebaho yozma merosdir. Bu adabiy merosni zamonaviy ilmiy qarashlar asosida o‘rganish, tahlil qilish va tadqiq etish esa matnshunoslik hamda manbashunoslik fanlarining izchil yondashuvlarini talab qiladi. Ayniqsa, mumtoz asarlarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalarda saqlanib kelayotgani, ularning o‘zaro farqlari, ba’zan chalkash va notugallik holatlari mavjudligi matnshunoslik faoliyatining ahamiyatini yanada oshiradi.

Matnshunoslik — adabiy asarlarning asl nusxalarini aniqlash, nisbatan ishonchli va ilmiy asoslangan variantlarini tiklash, tahrir qilish va nashrga tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi soha sifatida filologiya fanining muhim tarmoqlaridan biridir. Bu jarayonda qo‘lyozmalar, toshbosmalar, avvalgi nashrlar va boshqa manbalar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, tanqidiy matnlar yaratiladi. Bu holat, ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Mashrab singari adiblarning merosida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Manbashunoslik esa ushbu matnlarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstini aniqlashga, ularning qanday sharoitda yaratilganini, mualliflik masalasini, davr ruhi va an’anaviy tafakkur bilan bog‘liqligini tushuntirishga qaratilgan. Bu fan tarixiy-adabiy manbalarni tahlil qilish orqali adabiy asarning chinakam tarixiy o‘rnini belgilashda, shuningdek, u orqali davr adabiy maktablari, mafkuraviy oqimlari va madaniy aloqalar haqida tasavvur hosil qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining matnshunoslik va manbashunoslik doirasida o‘rganilishi, ushbu fanlarning o‘zaro metodologik bog‘liqligi va ularni uyg‘un qo‘llash orqali adabiy merosni ilmiy asosda tadqiq etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy asarlar, qo‘lyozmalar, tanqidiy nashrlar va orientalist olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida ushbu ikki fan sohasi bo‘yicha amaliy misollar beriladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotini matnshunoslik va manbashunoslik asosida o‘rganish masalasi XX asr boshlaridan boshlab alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Bu boradagi dastlabki izlanishlar jadid adiblarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida eng ilg‘or namoyandalardan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat o‘zining adabiyotshunoslikka oid asarlarida matnshunoslik va tarixiy manba tahlilini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Fitratning “O‘zbek adabiyoti tarixi uchun materiallar” nomli maqolasi va boshqa ishlari mumtoz adabiy merosni ilmiy asosda baholashda muhim bosqich bo‘ldi.

Sovet davrida ushbu yo‘nalishlar yanada rivojlanib, ilmiy maktab sifatida shakllandi. Xususan, Hayitboy Vohidov, Sirojiddin Ahmad, Ibrohim Haqqulov, Karim Mo‘minov, Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Turg‘un Fayzullayev, Suyima G‘aniyeva, Muhammadjon Shakuri kabi olimlar tomonidan Alisher Navoiy, Bobur, Jomiy, Lutfiy, Mashrab kabi mumtoz adiblar ijodi matnshunoslik va manbashunoslik mezonlari asosida o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida qo‘lyozmalarning tavsifi, matn variantlari, muqoyasa tahlili, tanqidiy nashrlar tamoyillari yoritilgan. Xususan, Suyima G‘aniyevaning “Alisher Navoiy matnshunosligi”, Hayitboy Vohidovning “Matnshunoslik asoslari”, Sirojiddin Ahmadning “Mumtoz adabiyotda manbashunoslik masalalari” nomli ishlari ushbu soha uchun muhim ilmiy asos yaratgan. Bundan tashqari, M. Osim, Z. Maxsumov, H. Sulaymon, G. G‘ulomov kabi olimlar tomonidan Navoiy asarlari qo‘lyozmalari ustida tanqidiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy sharqshunos olimlar – A. N. Kononov, V. V. Bartold, E. E. Bertels, A. Yu. Yakubovskiy, E. N. Nadjib, R. G. Mukminova va boshqalar tomonidan ham turkiy xalqlar yozma merosi, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti matnlari tahlil etilgan. Bu tadqiqotlarda ko‘plab tarixiy manbalar (masalan, Devoni lug‘otit turk, Zafarnoma, Boburnoma) asosida lingvistik va tarixiy manbashunoslik metodlari qo‘llanilgan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek matnshunosligi va manbashunosligi sohalarida erkin ilmiy fikrlash imkoniyatlari kengayib, yangi tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarini qayta ilmiy nashr qilish, Bobur qo‘lyozmalarini tahlil qilish, Majolis un-nafoisdagi tarjimalarni tarixiy manbalar bilan bog‘lash kabi yo‘nalishlarda qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli matnshunoslik (digital philology), matnlarni elektron bazaga kiritish, zamonaviy texnologiyalar orqali qo‘lyozma farqlarini avtomatik aniqlash imkoniyatlari ham paydo bo‘lmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, matnshunoslik va manbashunoslik fanlarining yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolat beradi.

O‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur, tizimli va mukammal o‘rganish uchun matnshunoslik va manbashunoslik fanlarining nazariy va amaliy yondashuvlarini uyg‘un qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Matnshunoslik mumtoz asarlarning ishonchli, tanqidiy asoslangan matn variantlarini tiklash, ularni ilmiy muomalaga kiritish va nashrga tayyorlashda hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘lsa, manbashunoslik ushbu asarlarning tarixiy, madaniy va mafkuraviy kontekstini aniqlashda, ularning davr, muallif va ijtimoiy sharoit bilan aloqasini yoritishda zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida bu ikki fan bo‘yicha salmoqli ilmiy meros shakllangan bo‘lsa-da, mavjud tadqiqotlarni bugungi zamonaviy ilmiy-texnologik yutuqlar bilan boyitish, qo‘lyozmalarni raqamlashtirish, yangi manbalarni izlab topish, ularni solishtirma-tahliliy yondashuvlar asosida chuqur o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Lutfiy kabi adiblarning asarlari ustida olib borilgan matnshunoslik izlanishlarini yangi yondashuvlar bilan boyitish, ularning asarlarini boshqa tarixiy manbalar bilan muvofiqlashtirish orqali manbashunoslikka oid ilmiy izlanishlarni kengaytirish lozim.

Mavjud muammo va imkoniyatlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha matnshunoslik va manbashunoslik izlanishlarini ilmiy maktab darajasida davom ettirish, o‘zaro integratsiyalashgan metodlarni ishlab chiqish va jahon sharqshunosligidagi

ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish orqali adabiy merosimizni yanada chuqurroq o‘rganish, uni zamonaviy ilm-fan talablariga mos holatda tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov H. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 1987.
2. G‘aniyeva S. Alisher Navoiy matnshunosligi masalalari. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Ahmad S. Mumtoz adabiyotda manbashunoslik masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
4. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974.
5. Haqqulov I. Adabiyot nazariyasi va tahlil asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Mo‘minov K. O‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha manbalar. – Toshkent: Fan, 1960.
7. Fitrat A. O‘zbek adabiyoti tarixi uchun materiallar //Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1996.
8. Bartold V.V. Turkiston tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
9. Bertels E.E. Navoiy va uning davri. – Toshkent: Fan, 1968.
10. Doniyorov A. Manbashunoslik va tarixiy manbalar bilan ishlash usullari. – Toshkent: TDYU, 2008.
11. G‘ulomov G. O‘zbek qo‘lyozmalari tarixi. – Toshkent: Fan, 1976.
12. Rajabov A. Mumtoz adabiyot va manbashunoslik asoslari. – Buxoro: BuxDU, 2015.
13. Abdullayeva M. Manbashunoslikka kirish. – Toshkent: Istiqlol, 2004.
14. Karimov E. Sharq manbalarida tarix va adabiyot. – Samarqand: SamDU, 2011

“DEVONI SHAVQIY”QO‘LYOZMASIDAGI MUSADDAS-MUNOJOTDA KA’BA TIMSOLI

Jo‘raboyeva Saboxon Anvarxanovna,
NamDU o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif “Devoni Shavqiy” qo‘lyozmasidagi musaddas janriga to‘xtalib, muqaddas Ka’batullohning tasavvufiy talqinlariga e’tibor qaratgan. Musaddasning baytlarida ifodalangan ishq va dard tushunchalarini munojot usulidagi talqinlariga

urg‘u bergan. Tasavvufiy tushunchalar va Ka’bani dalillash orqali ularning haqiqiy va irfoniy mohiyatini band misralari yordamida qiyoslagan.

Kalit so‘zlar: musaddas janri, sharhlar, ishq, oshiq, dard tushunchalari, majoziy ishq.

Annotation: In this article, author touched upon the genres of musaddas genre “Devoni Shavkiy” and paid attention different aspekts of musaddas type. She commented on the Sufi interpretations of the consepts of love and pain expressed in on the of musaddas. By proving mystical consepts, she compared their real and mystical essence with the help of examples.

Key words: musaddas genre, analysis, consepts of love, pain. The use of metophors, similes, parables and poetic arts in verses.

Tasavvuf ta’limotining ilohiy ishq va insoniy kamolotga yo‘llovchi g‘oyalari Sharq mumtoz so‘z san’atiga shunchalik kuchli ta’sir ko‘rsatganki, bevosita tariqat yo‘liga kirib, o‘ziga bir rahnamo tanlamagan, solik bo‘lmagan shoirlarning o‘zi yo‘q. Hatto mutasavvuf bo‘lmagan qalam ahllari ham mavjud an’analardan ilhomlanib, g‘azal yozmay qolmagan yoki ularning mazmunidan ta’sirlanmagan bo‘lsin. Xususan, Shavqiy Namangoniyning ham adabiy merosida tasavvuf g‘oyalarining g‘azal, muxammas, musaddas kabi janrlarda o‘z ifodasini topgani bejiz emas. Tasavvuf boshdan oxirigacha odob-axloq, ya’ni illatlardan voz kechib, yaxshi fazilatlar bilan ziynatlanmoqdir. Nafsga qarshi kurashmoq va har bir odamga yordam qo‘lini cho‘zmoq, birovga malol kelmaslikdir. Yaratgan bilan birlik hosil qilmoqdir, pokiza qalb sohibi bo‘lmoqdir. Nafsdan holi tarzda Haqqa yetishmoqdir.[1] Bu yo‘lga kirganlarni ahli suluk deb nomlanib, ular har bir zarrada Alloh jamoli tajalli qiladi, deb biladilar. Ya’ni solik o‘z ma’shuqasiga yetish yo‘lida kasbi kamolot hosil qilishi kerak. Bu mas’uliyatli vazifa uning sabrini tarbiyalab, nafsni jilovlash bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Solik har daqiqada nafsi ammoraning makrlaridan qutulish yo‘lini izlaydi, undan uzoq bo‘lishga harakat qiladi. Ayni jihat so‘fiylarning maqomotlardagi darajalarini belgilovchi omil bo‘lib, tavba va zuhd-taqvo komillik eshigiga yetaklovchi kalit vazifasini o‘taydi.

Shavqiy ijodidagi bu jihat nafaqat g‘azallarda, balki uning musammat guruhiga kirgan barcha asarlarida yaqqol ko‘rinadi. Zohid, fano, may, mayxona, obi hayvon, junun, jazba, bayt ul-hazan, sham va parvona, kufr va iymon, jannat-do‘zax, haj, xojar ul-asvad kabi tushunchalar va shoirlar murojaat etadigan payg‘ambarlar, avliyolar,

[1] Uludog‘ S. Tasavvuf terimleri so‘zlugi. – Istanbul, 2005. – S. 512.

majoziy ma’nodagi yuz, bel, qosh, zulf, hol, soch, qosh kabi an’anaviy obrazlar qo‘llanilgani haqiqatan ham uning mutasavvuf insonligidan dalolat beradi. Ayni shu jihat uning musaddaslarida ham xilma-xil tashbehlar, tamsillar shaklida dalillangan:

Ilohiy rahmatingni, man g‘arib qulg‘a qarib ayla,
Zabonimni munojot aylarimda, andalib ayla,
Vujudimni muhabbat ishtiyoqi birla zeb-u zeb ayla,
Mani dil xastani, ishqi muhabbatg‘a muhib ayla,
Ilohi rahmatingni, man g‘arib qulg‘a qarib ayla,
Mani miskin qulingg‘a Ka’ba diydorin nasib ayla.[1]

O‘zbek mumtoz adabiyotida aksar shoirlar ijodida so‘fiylik bila bog‘langan jihatlar insonning shuuriy hosilasi sifatida talqin etiladi. Yaratganning vasliga intilish, qadami gardini ko‘zga surtish yoki yaxshi insonlarning eng xo‘bi bo‘lish kabi tushunchalari Haqni anglash, uning husni ziyosini barcha go‘zal buyumlarda, inson fe’l-atvorida namoyon bo‘lishi, ya’ni mazhar bo‘lishi oshiq uchun pirning ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlari hisoblanib, uning kamolot darajasi aynan shu kabi belgilarga qarab o‘lchangan. Majoziy ishq talabi bo‘yicha ma’shuqa barcha ezgu fazilatlar sohibi, go‘zallik egasiki, unga yetishmoq uchun oshiq o‘zini ma’nan tarbiyalashi kerak. Ayni jarayon sha’riy amallar bo‘lgan namoz, ro‘za va haj kabi bajarilishi lozim bo‘lgan amallar bilan belgilangan. Tariqat shariatni taqozo qilarkan, albatta, inson Allohga munojot aytib,o‘z gunohlari uchun avf so‘rashi kerak. Tavba chaqirig‘i musaddasning so‘nggida har bir bandda takrorlanib kelgan: Ilohi rahmatingni, man g‘arib qulg‘a qarib ayla, Mani miskin qulingg‘a Ka’ba diydorin nasib ayla. Munojot bandaning gunohlaridan ofiyat topish uchun tinmay qilgan ibodat va tavbasi bo‘lib, u chin dildan bajarilsagina insonga halovat bera olishi shoir tomionidan e‘tirof qilingan. Chin dildan qilingan ibodatning bahosi esa, go‘zal ajrlarni umidlantirgan. Demak, bandning mazkur misralari shoirning chin dildan aytagan yolvorishi Allohning rahmatidan umidvor bo‘lishi mazmunida keltirilgan:

Netay miskin qulingman, mustamand zor hayronman,
Ajab savdo tushib boshimga, andin turfa nolonman,
Ko‘ngulg‘a ishtiyoqi Ka’ba tushgan, zori giryonman,
Kuyub ishqi muhabbat o‘ti birla tubta qonman,
Ilohi rahmatingni, man g‘arib qulg‘a qarib ayla,
Mani miskin qulingg‘a Ka’ba diydorin nasib ayla.(46-s)

[1] [1]Девони Шавқий. ЎзФАШИ, Сулаймонов фонди, 1872/I-рақамли қўлёзма,164-в. Keyingi o‘rinlarda shu manbaga murojaat qilinadi va sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

Shoir o‘zini miskin-kimsasiz, mustamand-nolon holini bayon aylar ekan, dardiga davo Allohning uyi bo‘lgan Ka’batullohdagi nurni qalban his qilish istagi ekanligini giryon bo‘lib yurgan inson qiyofasida tasavvur etadi. O‘zini oshiqi sodiq hisoblagan shoir qalbini kuydirgan olov ko‘ngil tubida qonli iz qoldirganini ishora qiladi. G‘aribligi bilan Yaratgan rahmatidan umidlanadi va Ka’ba diydori nasib qilishini o‘tinib so‘raydi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida haj va u bilan bog‘liq fikrlarni adabiy timsol o‘rnida qo‘llanishi tez-tez uchraydigan hodisa hisoblanadi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida Ka’ba, Haram tarifi, Me’roj kechasi tasviri juda keng qo‘llaniladi. Bu jihat shartli ravishda uch yo‘nalishda tadqiq etiladi:

1.Ka’ba tarixiga oid ma’lumotlar.

2.Ka’ba, Haram va unga mansub bo‘lgan narsalarning badiiy tavsifi,

3.Ka’ba, Haram so‘zlarining istiora yoki biror obraz bo‘lib qo‘llanishi.[1]

Shavqiy musaddasida esa Ka’ba so‘zi alohida badiiy obraz bo‘lib kelgan. Go‘yoki u bandaning Yaratgan bilan muloqotini tezlashtiruvchi, amalga oshiruvchi oltin kalit vazifasini o‘tagan. Bunda shoir o‘zini haqiqiy ishqi namoyishini uning vositasida Janobi Haqqa yetib borishiga umid qilgan:

Damo-dam, Ka’batulloh ishqi ko‘ngulg‘a solib tug‘yon,
Yurak-bag‘rim tutashib, yig‘lagayman xalqdin pinhon,
Xaloyiq ayb etar deb qo‘rqaman, gar aylasam afg‘on,
Borib sursam yuzimni qolmas erdi,qalbda armon,
Ilohi rahmatingni, man g‘arib qulg‘a qarib ayla,
Mani miskin qulingg‘a Ka’ba diydorin nasib ayla.(46-s)

Bandda oshiq xalq va xaloyiq so‘zlarini qo‘llash orqali ulardan qo‘rqishini e’tirof etadi. Hatto oh-u fig‘onni ham ulardan pinhon tutmoqni istaydi. Ularni ayb etishidan, malomat qilishidan xavotirlanadi. Misrada ayni kalimalar haqiqiy o‘zini mazmunida emas, johil, ilmsiz olomon o‘rnida kelgan. Xaloyiq nafaqat ayb etadi, balki ishqni anglamay oshiqni maqsadidan qaytarishidan qo‘rqadi. Chunki nodon borliq va insonning hayotga kelishdan maqsadni anglamaganligi uchun mazmunsiz umr o‘tkazadi, haqiqat asrorini anglamaydi, deya ta’kidlaydi shoir:

Kel ey Shavqiy, tilingni, Ka’ba ishqida gudoz ayla,
Haqiqat ishqiyatin kasb aylag‘il, tarki majoz ayla,
Tavof-u Ka’badin jurm-u gunohga chorasoz ayla,
Yetolmak mushkul o‘lsa, tavba qil ajzi niyoz ayla,

[1] С.Рафиддинов. Навий ижодида Каъба тавсифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022, 1-сон. – Б.30.

Ilohi rahmatingni, man g‘arib qulg‘a qarib ayla,

Mani miskin qulingg‘a Ka’ba diydorin nasib ayla.(46-s)

Shavqiyning musaddasida diniy- tasavvufiy jihat ustun bo‘lsa-da, voqealar ta’rif-tavsifdan iborat bo‘lib qolmay, balki shoir shaxsiyatini, ya’ni o‘z gunohlariga tavba qiluvchi, axloqan pok bo‘lgan inson sifatidagi fazilatlarini ochib beruvchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Musammatlardagi borliqning o‘zgacha kashf etilishi muayyan tasvirning mohiyatini aniqlash maqsadida turli timsollarni tanlashga undaydi. Bu jihat Shavqiyning ijodiy merosini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Muxammaslardagi orifona g‘oyalar **Ka’ba, Haj, uqbo, saqar** kabi diniy istilohlarda berilar ekan, ular tasavvufning o‘ziga xos bo‘lgan bosqichlarini Imom G‘azzoliy va Mashrabning “Kimyo” asarlarida ifoda etilgan so‘fiy talqinlar bilan bir xil ekanligini ko‘rsatadi. Tasavvufiy tushunchalar alohida bir g‘azal yoki muxammas bo‘lib kelmagan, balki misralar mazmuniga singdirilgan. Aslida, tasavvufga oid matnlar insonni jisman va ma’nan poklashga xizmat qiladigan bilvosita sabablardir. Demak, ishq bir paytning o‘zida ham oynayi jahonnamo, ham kimyoga tenglashtirilishi bejiz emas. Ishqning kimyoligi shundaki, kimyo misni oltinga aylantirgani kabi Xudo insonni tuproqdan yaratdi, riyozat bilan uning yuzini, nainki yuzini, balki butun vujudini oltinga aylantiradi. Inson yaralgandan boshlab Xudodan ayro tushib, hijron, ayriliq azobida qoladi. Biroq Yaratguvchiga intilish uni tuproq holatidan oltin darajasigacha kamolga yetkizadi[1]. Shavqiy devonidagi musaddasda ham ayni shu jihat Ka’ba timsoli orqali ifodalab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 232b.

2. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – 464 б.

3. Uludog‘ S. Tasavvuf terimleri so‘zlugi. – Istanbul, 2005. – S. 512.

4. Muydinova A.O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik: an’ana va individuallik: Filol.fan.bo‘yicha fals.dok(PhD)diss. – Тошкент, 2023. – 31 b.

5. Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. – Хўжанд: Хўжанд, 1997. – 95 б.

6. Hasanxon Yaxyo Abdulmajid, Husanxon Yaxyo Abdulmajid. Alisher Navoiy. Alisher Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent:HILOL -NASHR, 2014. – B. 44.

[1] S.Olim. “Lison-ut tayr”: haqiqat va majoz sintezi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, 3-son. – B.23.

7. Olim S. “Lison-ut tayr”: haqiqat va majoz sintezi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, 3-son. – B.23.

8. Рафиддинов С. Навий ижодида Каъба тавсифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022, 1-сон. – Б. 30.

“MAJMUAI SHOIRON” XOTIF XO‘JANDIY ZIKRIDA

Toshboltaeva Tojixon Abdilhamidovna,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fazliy Namangoniy tomonidan yaratilgan “Majmuai shoiron” tazkirasida Qo’qon adabiy muhiti shoirlaridan biri Xotif Xo’jandiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida yoritilgan ma’lumotlar yuzasidan tahlillar beriladi.

Kalit so’zlar: Qo’qon adabiy muhiti, “Majmuai shoiron”, tazkira, g’azal, masnaviy, Ho’jand, darj, fazl.

Abstract: The article analyzes the information presented in the commentary "Majmuai Shiiron", created by Fazli Namangoniy about the life and work of one of the poets of the Kokand literary environment, Hatif Khujandi.

Key words: Kokand literary environment, "Majmuai Shiiron", commentary, ghazal, masnavi, Khujand, darji, fazl

Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasi antologiya (she’riy namunalar majmui) xarakterida bo’lganligi bilan e’tiborga molik. Zero, “Majmuai shoiron”gacha bitilgan tazkiralarda, asosan, biror bir shaxs haqida muxtasar ma’lumot berilgani holda, shu shaxsning muayyan bir she’ridan parcha keltirish bilangina kifoyalangan. Hatto ayrim ma’lumotlarda ana shu parcha ham berilmaydi. “Majmua”da esa tamoman boshqacha manzara kuzatiladi. Fazliy ijodkorlar haqidagi ma’lumotlarni she’riy (masnaviy) usulida beradi

Agar shu tariqa shoirlarning darj va fazllari berib borilgani kuzatilsa, har bir ijodkor haqida Fazliy ularning hayot yo’liga to’la muvofiq keluvchi tavsiflarni havola etganligiga ishonch hosil qilinadi.

Xo’jandlik shoir Xotif haqida ma’lumot keltilar ekan, uning “ta’bi ravon” shoir bo’lganligi, Amir Umarxonni madh etuvchi shoir sifatida nom chiqargani, uning so’zlari nihoyatda shirin va mag’izli bo’lgani, mufti va qozilik muhri unga tegishliligi qayd etiladi:

Хӯҷandist Xotif zi ta’bi ravon,
Ba sultoni davron shudi madhi xon.

Kalomash zi mustag’bal va mozist,
Dar on mo’hr mufti va qozist. [Fazliy. Majmuai shoiron.-O’zRFAShi, inv. №9139 toshbosma.11-12]

Kezi kelganda, ta’kidlash joizki, Amiriy rahnamo bo’lgan va Fazliy darj qilgan Qo’qon adabiy muhiti shoirlarining bir nechtasi qadim Xo’jand ahlidan bo’lgan. Bular Xotif, Zinnat, Koshif, Ravnaq, Mutrib, Ma’yus, Roseh, Nuzxat, Sho’xilardir. Adabiyotshunos E. Shodiev o’zining “Fazliy Namangoniy va Xo’jand shoirlari” risolasida zikr etilgan shoirlar va ularning ijodi haqida anchagina ma’lumotlarni keltiradi va tazkiradan o’rin olgan she’rlaridan namunalar havola etadi. Chunonchi, Xotif Xo’jandiy haqida so’z yuritar ekan, tazkirada va boshqa manbalarda Xotif Xo’jandiy haqida berilgan ma’lumotlarni keltirib o’tadi. Ammo tazkirada Xotifga tegishli fazllar va darjlar anchagina bo’lib, bular muqaddima-masnaviyda ham (yuqorida keltirildi), Xotifga tegishli she’r namunalarining har birini keltirishda ham fazllar berilgan. Aniqrog’i, birgina Xotif haqida 26 o’rinda darj va fazl beriladi. Bulardan ba’zilarini keltiramiz.

1. Xotifning “ustina” radifli she’rini keltirishdan oldin quyidagi fazl berilgan:

Man Xotif fazlidin na deyin suxan,
Erur har she’ri misli durri Yaman.
Xayoli daqiqu barjasta erur,
Ko’rgil bu g’azalni nechuk xush bo’lur.[T.B.385]

2.Keyingi fazlda bu shoirning badiiy salohiyati xususida so’z boradi:

Erur Xotif ul shoiri dilpisand,
So’z ayturg’akim, iqtidori baland.
Xayoli aning har na so’zga raso,
So’zida aning hech yo’qtur xato. [T.B.259]

3. Keyingi darj va fazllar Xotif Xo’jandiyning tojikcha she’rlariga berilgan. Xotif zullisonayn shoir bo’lgani ma’lum. Fazliy Namangoniy o’z tazkirasida Xotif Xo’jandiyning “ustina” radifli payrov g’azalini keltirgan. G’azal o’zbekcha bo’lib unda shoirning poetik mahorati qirralari namoyon bo’lgan.G’azaldagi baytlarda shoirona topilmalar, tesha tegmagan o’xshatishlar e’tiborni tortadi:

Belu og’zu qaddidin umrlardurkim o’tar,
Hurdadonlar ichra qilu qol bir mo’ ustina.
Na Skandar ko’rdi ko’zgusinda, na jomida Jam,
Man ko’ron so’z jilvasin mir’oti zonu ustina.
Nish uza la’li mayidur, yokim latofat yoriga,
Chin eli manzum edib yoqutu inju ustina. [T.B.389]

Xotifning bu she’rining asosiy mavzusi oshiqning ma’shuqaga bo’lgan cheksiz muhabbati bayonidir. G’azal majoziy ishq talqiniga bag’ishlangan. Shu ishq bayonida ma’shuqaning eng go’zal sifatlari lirik qahramon tilidan vasf etilib, ma’shuqani go’zallar ichida yakto bo’lib qolishini ko’rsatmoqda. Shu sababdan mazkur g’azaldagi badiiy tasvir vositalari- tamsil, talmeh, o’xshatish - shoir badiiy niyatini ro’yobga chiqarishga to’la safarbar qilingan.

Keyingi o’rinlardagi darj va fazllar tojik tilida berilgan. Mazkurlarda ham shoir Xotifning fazilatlari, badiiy iqtidori, she’riyat sohasidagi alohida xizmatlari tilga olinadi:

a) Zi ash’ori arbobi fazli hunar,
Buvad she’ri Xotif pasanditar.

Mazmuni: Fazli hunar arboblarining she’ri oraisda Xotif she’rlari yoqimliroq bo’ldi.

b) Buvad Xotif az foziloni Xӯҷand,
Latifi pisandidavu arjumand.
Qasoid ba madhi shahi Komron,
Base gufta on fozili nuktadon... [T.B.169-170]

Mazmuni: Xotif Xo’jandning fozillaridan biri hisoblanadi. Eng aziz va latif kishilaridandir. Shohi Komron(Sayyid Umarxon) madhiga qasida bitgan. Nuktadon fozillardan deb ta’riflaydilar.

v) Nazokat ado Xotifi nekrav,
Ba diqqat zi aqron rabuda garav.
Zaki tab’u donou sohibkamol,
Gulafshon buvad z axbori xayol.
Buvad Xotif az foziloni Xӯҷand,
Padaratӯ padar fozilu arҷumand.
Azizu mukarram ba shayxu nabi,
Laqab Xotifu nomash Abdulnabi.
Ba arbobi mantiq nishon doda harf,
Amalho dar ovarda dar nahvu sarf.
Ba davronu sultonu sohibqiron,
Ba ilmu ba donish faridi zamon.
Ba fikri daqiqi xayoli raso,
Navishta g’azalhoi rangin ado. [T.B.180-181]

Mazmuni: Xotif go’zal va samimiy yozadigan shoirlardan hisoblanadi. Uning ta’bi dono va sohibkamoldir. Xayolning chopqirliklari tufayli u istifoda etgan so’zlar gulafshon bo’ladi. Xotif Xo’jand fozillaridan bo’lib, uning ota-bobolari ham azizlar, fozillar bo’lgan. Shayx

va habiblar orasida azizu mukarram bo’lib, uning nomi Abdulnabi taxallusi Xotifdir. Uning har bir satri yuksak mantiqdan nishon beradi. Uning amallari nahv va sarfdan xabar beradi. Sulton Sohibqiron davru davronida donishmandlik va ilmda zamonasining yaktosi bo’ldi. Uning xayolidan to’kilgan daqiq va raso fikrlari bilan g’azallari rangin tus oldi.

g) Xayoliki, Xotif raqam mekunad,
Ba ummidi lutfu karam mekunad,
Zi fazli adab yofta ehtirom,
Ba darbori olӣ girifta maqom... [T.B..218]

Mazmuni: Xotif she’r bitish xayoliga borar ekan, amir va ahli suxandan lutfi karamlar umid qiladi. Shuning uchun adab ahli unga ehtirom ko’rsatadi va oliy maskanda oliy maqomga sazovor bo’ladi.

Shunday qilib, xo’jandlik iqtidorli zullisonayn shoir haqida bunday ijobiy fikrlar Xotif Xo’jandiy qalami qudratiga zamondoshlari juda yuksak baho berganini ko’rsatib turadi. Xotifning har ikki tilda yaratgan asarlari yetuk va barkamol bo’lganini to’la tasdiqlaydi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulkarim Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron / Tuzuvchi Mahmud Hasan. – Toshkent: Fan, 2018. – 338 b.
2. Fazliy. Majmuai shoiron. – O’zRFAShi, inv. №7510 qo’lyozma.
3. Fazliy. Majmuai shoiron. – O’zRFAShi, inv. №9139 toshbosma
4. Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani: Ilmiy tadqiqot / Mas’ul muharrir Habib Sa’dulla. –Namangan: Namangan nashriyoti, 2007. – 467 b.
5. Qayyumov P.D. ”Tazkirai Qayyumiy”: Kitob 2 / Nashrga tayyorlovchi: A.Qayumov. – Toshkent: O’zRFA Qo’lyozmalar instituti tahririy nashriyoti bo’limi, 1998. – 472 b.
6. Qayyumov P. D. “Tazkirai Qayyumiy”: Kitob 3 / Nashrga tayyorlovchi : A.Qayumov. –Toshkent: O’zRFA Qo’lyozmalar instituti tahririy nashriyoti bo’limi, 1998. – 716 b.
7. Qayumov A. Asarlar 10 jidlik. 7 jild: 1 kitob: Qo’qon adabiy muhiti. – Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. – 278 b.
8. Qayumov A. Maxmur O’zbek adabiyoti tarixidan materiallar. – Toshkent: O’zfanakademnashr, 1956. – 138 b.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA DINIY-MA’RIFIY MAVZUNING SHAKLLANISHI VA BADIIY IFODASI

Maxmudova Nargiza Shokirovna,
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida diniy-ma’rifiy mavzuning shakllanishi, uning tarixiy va madaniy ildizlari hamda badiiy ifoda shakllari ilmiy va estetik tahlil qilinadi. Qur’on va hadis ilmining mumtoz adabiyotga ta’siri, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi yirik mutafakkirlar ijodida bu mavzuning badiiy talqini ochib beriladi.

Annotation: This article provides a scientific and aesthetic analysis of the formation of religious and educational themes in Uzbek classical literature, their historical and cultural roots, as well as artistic forms of expression. It examines the influence of the Qur'an and Hadith on classical literature and reveals the artistic interpretation of this theme in the works of great thinkers Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur.

Kalit so‘zlar: Diniy-ma’rifiy mavzu, mumtoz adabiyot, badiiy ifoda, islomiy madaniyat, Qur’on va hadis.

Key words: Religious and educational theme, classical literature, artistic expression, islamic culture, Qur’an and hadith.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunalarida diniy-ma’rifiy mavzular alohida o‘rin tutadi. Bu mavzularning shakllanishi esa tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Xususan, VII–VIII asrlarda arablarning Movarounnahr va Xuroson hududlariga kirib kelishi, islom dinining tarqalishi, arab tili va madaniyatining hukmron mavqega ega bo‘lishi bu jarayonning asosiy omillari sifatida namoyon bo‘lgan.

Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, o‘zbek mumtoz adabiyotining mazun-mohiyatiga Qur’on oyatlari va hadislar ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir o‘z navbatida turli adabiy shakllarda namayon bo‘ldi:

1) Barcha asarlarning lirik qismlari hamd va na’t bilan boshlanishi;

2) Agiografik asarlar shaklida;

3) Munojot shaklida;

4) Shariat ahkomlariga bag‘ishlangan asarlar (Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin”, Boburning “Mubayyin” asarlari);

5) Badiiy tarjimalar (Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, Boburning “Volidiya” asarlari)

6) Arba’inchilik an’anasi;

7) Tarix kitoblari shaklida (“Tarixi anbiyo va hukamo”);

Dastlabki davrlarda islomga nisbatan ehtiyotkorona munosabat mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan bu dinning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlari chuqur anglanib, adabiyotga kirib kelgan. Shu tariqa Qur’on oyatlari va hadislar, islomiy tafakkurning asosiy manbalari sifatida adabiyotning ilhom manbai bo‘lgan. Ayniqsa, Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi buyuk muhaddislar merosi bu boradagi adabiy tafakkurning shakllanishiga metodologik asos yaratgan.

Adabiy asarlarda diniy-ma’rifiy mazmunlar turli janr va shakllarda ifodalangan: hamd, na’t, munojot, arba’in, agiografik asarlar, tarjima risolalar, diniy-axloqiy dostonlar — bularning har biri diniy g‘oyalarni xalq orasida targ‘ib etishda katta ahamiyat kasb etgan. Bu janrlarning barchasi ma’naviy yuksalishga, axloqiy yetuklikka da’vat etuvchi badiiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Na’t – arabcha so‘z bo‘lib tavsif etmoq ma’nosida masdar, sifat va vasf ma’nolarida ism o‘larmoq qo‘llaniladi. Lug‘aviy ma’nosi “Vasf, hamdu-u sano bilan barobar ta’rif tavsif etmoq “ yoki “bir narsning madhini aytib sifatlashdir” degan ma’nolarni anglatadi[1].

“Alisher Navoiyning barcha asarlari ham an’anaviy muqaddima bilan ta’minlangan bo‘lib, ularning xarakteri turlichadir. Bunga “Xamsa” dostonlari, “Nazm ul-javohir”, “Arbain”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarining muqaddimalarini misol keltirish mumkin”[2]. Alisher Navoiy va Bobur deyarli barcha asarlarini hamd va na’tlardan boshlaganlar. Umuman, mumtoz adabiyotda har qanday asarni “Bismillohir rahmonir rahim” oyati bilan boshlash odat bo‘lgan. Shundan so‘ng Alloh hamdi, munojot (Allohga iltijo), Rasulluloh na’ti, kitobning yozilishiga homiylik qilgan shaxsning fazl va martabasi maqtovi, zamona hukmdori madhi keltiriladi. Keyingi o‘rinda asarning yozilish sabablari bayon qilinadi.

“Hamd” so‘zi Navoiy asarlari lug‘atida maqtov, madh, deb berilgan. Islomiy aqidaga ko‘ra esa maqtov faqat va faqat Ollohgagina loyiq, unigina maqtash mumkin va kerak”[3].

Ko‘rinadiki, Allohni ta’rif va tavsif etilgan barcha g‘azallar hamd g‘azallar hisoblanadi. Shoir Allohni hamd g‘azallarida olamni va mavjudotlarni yaratuvchisi ekanligini badiiy til va tasvir orqali ifodalaydi.

[1] F.Iskandarov. Alisher Navoiy dostonlaridagi na’tlar poetikasi. Diss. (PhD). –Toshkent, 2023. –B. 12.
[2] F.Karimova. Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi: Diss. (DSc). –Farg‘ona., 2023. –B. 23.
[3] Z.G‘afforova. Navoiyning hamd va na’t g’azallari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. –B. 4.

Adabiyotshunos Ziyoda G‘afforova hamd g‘azallarni shartli ravishda ikkiga bo‘lib tavsif etgan:

1.Tavhid hamdlar.

2.Munojot hamdlar[1].

Bu ma’lumotni ilk bora “Funun ul-balog‘a” asarida Shayx Ahmad Taroziy aytib o‘tgan[2].

Diniy-ma’rifiy asarlar o‘z zamonasining ma’naviy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ular orqali islom axloqi, sabr-toqat, mehr-oqibat, halollik, tavakkul kabi tushunchalar xalq orasida keng yoyilgan. Bunday asarlar o‘quvchini nafaqat ilohiy haqiqatlarga yaqinlashtirgan, balki uni o‘z nafsini tarbiyalashga, jamiyatda munosib inson bo‘lishga chorlagan. Ayniqsa, Navoiy g‘azallarida ma’naviy yetuklik va ruhiy poklikka intilish holatlari obrazlar orqali yuksak badiiylikda berilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida diniy mazmun bilan badiiy ifodaning uyg‘unligi uni Sharq adabiyoti doirasida alohida ajratib turadi. Shoirlar ko‘pincha ilohiy ishqni insoniy ishq timsolida ifodalab, tasavvufiy ramzlar orqali ruhiy yetuklikka da’vat qilganlar. Bu jihatdan Navoiy va Bobur ijodi islomiy irfonni poetik talqin etishda namunaviy darajaga ko‘tarilgan. Ularning asarlarida Qur’on oyatlarining mazmuni g‘azal va dostonlar ichra hayotiy, badiiy, falsafiy obrazlar bilan uyg‘unlashadi.

Bu turdagi asarlarda sodda, xalq tiliga yaqin, lekin chuqur ma’noli iboralar qo‘llaniladi. Shoirlar og‘ir falsafiy mavzularni ham o‘quvchiga tushunarli, estetik zavq uyg‘otuvchi tarzda yetkazishga harakat qilganlar. Aynan shuning uchun ham Navoiy va Bobur risolalari o‘z davrida keng ommaga tushunarli bo‘lib, diniy-ma’naviy tarbiyada samarali vosita bo‘lgan.

Xususan, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi yirik adiblar ijodida diniy-ma’rifiy mavzular badiiy yuksaklikka ko‘tarilgan. Navoiyning “Siroj ul-muslimin”, “Arbain”, “Munojot” kabi asarlari orqali islomiy bilimlar xalq ongiga tushunarli va badiiy uslubda yetkazilgan. Boburning “Mubayyin” va “Volidiya” risolalari ham diniy-falsafiy mazmunning soddaligi va chuqurligini uyg‘un holda ifoda etadi.

Bu asarlarning badiiy kuchi shundaki, ular diniy ilmlarni nafaqat ma’naviy-ma’rifiy mazmunda, balki estetik zavq uyg‘otuvchi tarzda bayon etadi. Xususan, Navoiy tavhidiy g‘azallarida yoki agiografik hikoyatlarida diniy mazmun bilan badiiy go‘zallikni birlashtirib, o‘quvchini fikr va ruh

[1] . Z.G‘afforova. Navoiyning hamd va na’t g’azallari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001. –B. 4.

[2] A.Hayitmetov, E. Umarov. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1994, 18-mart.

olamiga yetaklaydi. Bu jihat mumtoz adabiyotda diniy mazmunni faqat ma’rifiy vosita emas, balki san’at darajasiga ko‘tarilgan estetik hodisa sifatida namoyon etadi.

Xulosa shuki, O‘zbek mumtoz adabiyotida diniy-ma’rifiy mavzuning shakllanishi islomiy madaniyat ta’siri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u adabiy tafakkurning g‘oyaviy va badiiy poydevorini tashkil etadi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bu yo‘nalishdagi eng yorqin namunalar bo‘lib, diniy-falsafiy g‘oyalarni xalqchil, badiiy va ta’sirchan uslubda ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Karimova. Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi. Diss. (DSc). Farg‘ona., 2023. –B. 23.
2. F.Iskandarov. Alisher Navoiy dostonlaridagi na’tlar poetikasi. Diss. (PhD). Toshkent., 2023. –B. 12.
3. A.Hayitmetov, E. Umarov. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1994,18-mart.
4. Z.G‘afforova. Navoiyning hamd va na’t g’azallari. –Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – B. 4.
5. Karimova F. Praises about Hussein Boykaro in Alisher Navoi’s “Khazoin ul-maoniy” collection. The American Journal of Interdisciplinary Innovations ans Research. Volume: 2 / Issue 12/ December 2020 // Impact Factor: 5.498 / Page: 122-127. ISSN 2642-7478.

TARJIMASHUNOSLIK

ALISHER NAVOIY IJODI OLMON TILIDA

Zohidjon SADIQOV,
filologiya fanlari doktori, professor
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining olmon tiliga tarjima qilinishi va bu borada amalga oshirilgan ilmiy-adabiy faoliyat yoritiladi. Maqolada tarjima jarayonining murakkabligi, olmon sharqshunos olimlari va o‘zbek tarjimonlarining hissasi, xususan, Xurram Rahim tomonidan amalga oshirilgan g‘azal tarjimalari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Navoiyning asarlari G‘arb adabiyoti va madaniyati bilan bog‘liq kontekstda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, tarjima, olmon tili, g‘azal, Xurram Rahim, sharqshunoslik, adabiy aloqalar

Abstract: This article discusses the translation of Alisher Navoi’s literary works into German and highlights the scholarly and literary efforts involved in the process. It explores the complexity of poetic translation, emphasizing the contributions of both German Orientalists and Uzbek translators, especially the poetic renderings by Khurram Rahim. The article also analyzes Navoi’s works within the context of Western literary and cultural traditions.

Keywords: Alisher Navoi, translation, German language, ghazal, Khurram Rahim, Oriental studies, literary relations

OLMONLARNING QARZI…

1998-yilning noyabr oyi, kechki payt soat 17.00 da Berlin Humbold universiteti Bollivur deb ataluvchi tantanalar saroyida O‘zbekistonning Olmoniyadagi madaniyat kunlarining ochilish marosimi bo‘ldi. O‘shanda bu anjumanda ishtirok etish kaminaga ham nasib etgan edi. Minbardan O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov rahbarligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi vakillari: O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, adabiyotshunos olimlardan Nayim Karimov, Shuhrat Rizaevlar, olmon turkshunoslaridan professor Ingeborg Baldauf, Klaus Shyonig hamda Berlin shahar meri janob Eberhard Dibgen, shuningdek, Olmoniyadagi O‘zbekiston elchixonasining mas´ul vakillari joy olishdi. Zaldagi uch yuzdan ortiq ishtirokchilarning aksariyati Olmoniya va nemis tilli mamlakatlar universitetlari Markaziy Osiyo bo‘limi bakalavriat va

magistratura bosqichi talabalari, tadqiqotchi va tarjimonlardan iborat edi. Dastlab, shoir Erkin Vohidov har ikki xalq dillarining bir-biriga yaqinligi, o‘zbek-olmon adabiy aloqalaridagi azaliy an´nalar borasida mazmunli nutq so‘zladi. SHundan so‘ng marosimni olib boruvchi rais, Berlin shahar meri so‘zni shoir Abdulla Oripovga bermoqchi bo‘lib, yon-veridagilar va yig‘ilishda tarjimonlik qilayotgan Ingeborg xonimga qaray boshladi. Negadir Abdulla aka ko‘rinmay qolgandi. Shunda Baldauf xonim olmoniyalik o‘zbekshunos do‘stim Yakob Taubega, keyin menga qarab shoir qaerdaligini so‘ray boshladi. Oradan 5-10 daqiqa o‘tib, Abdulla Oripov zalga zalvorli qadamlar tashlab kirib keldi-da, to‘g‘ri minbarga chiqdi. Uning nutqi anjumanning chinakam kulminatsion nuqtasi (cho‘qqisi)ga aylandi. Chunki o‘zbek shoiri olmonlarga xos qisqa va lo‘ndagina qilib shunday dedi: *“Muhtaram anjuman qatnashchilari, kaminaning kechikib kelishimga jo‘yali asoslarim bor. Men Dantening “Ilohiy komediya” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, G‘arbiy Evropa adabiyoti oldidagi qarzimni uzdim. Erkin aka esa Gyotening “Faust”ini o‘zbekchaga o‘girib, olmon adabiyoti oldidagi burchini bajardi. Endi savol tug‘iladi: nima sababdan olmonlar buyuk mutafakkir Gyote Sharq adabiyoti, jumladan, Navoiy yashagan davr adabiyoti vakillarini o‘ziga pir tutganligi va bu bilan o‘z milliy adabiyoti taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shganligini bila turib, Alisher Navoiyni qoyillatib tarjima qilishmayapti? Ana shu holatdan men xafaman va kerak bo‘lsa, bunday yig‘ilishga kechikib kelishga ma´naviy haqqim bor deb o‘ylayman”.*

Inkor qilib bo‘lmas bundayin ashyoviy dalil oldida hangu mang bo‘lib qolgan butun zal oyoqqa qalqdi, uzoq va guldurosli qarsaklar jarangladi. Ayni paytda Berlin shahar meri olmon turkologlariga qarata “olmonlarning qarzi”ni tezroq qaytarish lozimligini uqtira ketdi… Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, 2003 yilda Olmoniyaning Vyurtsburg shahridagi “Ergon” deb ataluvchi nashriyotda Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha bir qator salmoqli tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan to‘plam yaratildi. Kitobdan “Mir Alisher Navoiy — kechmishga (moziyga) bir nazar” (B.K.Haynkele), “Temuriylarga oid manbalarda o‘zbeklar ifodasi” (YU.Paul), “Boburnoma”da Navoiy obrazi” (K. SHyoning), “Markaziy Osiyo xalqlari ertaklarida Navoiy obrazi” (E.Taube), “XVI asr Chig‘atoy usmonli lug‘ati “Abushqa”da chig‘atoy tilidagi fe´l shakllarining usmonlicha berilishi” (K.Romer), “Navoiyning “Layli va Majnuni” (M.Kirhner), “Navoiy — benavo” (Z.Klaynmihelь), “Navoiy davrida san´at va arxitektura” (Y. Girlihs) mavzuidagi maqolalar joy oldi.

Bugungi o‘zbek tarjimonlari sa´y-harakatlari bilan amalga oshirilayotgan Hofiz Sheroziy, Jomiy, qolaversa, Navoiy asarlari tarjimalarining olmon adabiyoti va ma´naviyati hamda tafakkur taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi miqdoriy hodisa emas, balki hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydigan chuqur ruhiy boylik ekanligini unutmaslik kerak. Chunki ular bilan birga G‘arb ma´naviyatiga bizning islomiy madaniyatimiz, ruhiy poklanish, bag‘rikenglik, komillik kabi bunyodkor G‘oyalarimiz ham kirib bordiki, bizningcha, G‘arb olami olgan bundayin boylik qarzini hali veri qaytara olmasa kerak…

Tarjima bo‘lishlik yo‘lida...

Tarjimashunoslikda she´riy tarjima imkondan xoli narsa, — degan aqida bor. Agar bu o‘rinda tarjima ona tilidan chet tiliga nazarda tutilsa, bu ishning iloji yo‘q, deyiladi. Hatto ayrim tadqiqotchilar uni uddalab bo‘lmas narsa, deydilar. Qaysidir ma´noda bu haq gap. Shuning uchun ham olmonlarda aynan she´riy tarjimaga nisbatan Übersetzung (tarjima) termini o‘rniga Nachdichtung (qayta she´r yaratish) atamasi ishlatiladi.

Ayni paytda, yana bir “yozilmagan qoida” borki, har bir she´r o‘girmasi o‘z o‘rnida istisno bo‘lishi va tarjima deyishga daxldorlik kasb etishi ham mumkin. Biroq bu qoidani Sharq G‘azaliyotini G‘arb tillariga tarjima qilishga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki har qanday tarjima muayyan maqsad-muddao va qabul qiluvchi tilning ehtiyoj hamda qiziqishlaridan kelib chiqadi. Har bir davrning o‘z qo‘shiqlari bo‘ladi, — deganlaridek, har qanday adabiyotning ham muayyan vaqtda hukm suradigan adabiy an´analari bo‘lishi muqarrar. Bu masalani ustoz G‘aybulla as-Salom o‘zlarining “Adabiy an´ana va badiiy tarjima” (qiyosiy-tipologik tahlil) nomli doktorlik dissertatsiyalari [1] va shu nomdagi monografiyalari [2] bilan allaqachon asoslab berganlar. Endi, Navoiyni hozirgi olmon tiliga tarjima qilish masalasiga kelsak, bu ham yuqorida ko‘targan mavzuimizga daxldor muammo. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida, aniqrog‘i, olmon ma´rifatparvarlik adabiyoti hukm surgan kezlarda Gyote, Shiller, Haynelar yaratgan asarlar o‘z davri jahon adabiyotining cho‘qqisini zabt etishga muvaffaq bo‘lganlar. Olmon adabiyoti ana shunday balandlikda turgan bo‘lishlariga qaramay, xususan, ularning etakchisi Yohann Gyote Hofiz Sheroziy va Sharq adabiyoti ulug‘lari oldida o‘zini murid, shogird sanagan payti bo‘laturib, sharqona aruzni tarjima qilish o‘ta qiyinligini e´tirof etgan.

Navoiy asarlarini o‘girish muammosi qayerda?

Butun dunyo tarjimashunoslari e´tirof etishlaricha, chinakam tarjimaga erishish uchun mutarjimdan 3 ta narsa talab qilinadi: asliyat tilini

mukammal bilish, tarjima tilini yaxshi egallagan bo‘lish hamda asliyatda aks ettirilgan voqe´likdan yaxshigina xabardorlik. Navoiy she´riyatini olmon tiliga o‘girish uchun olmon sharqshunos va tarjimonlarining o‘zbek tilini bilishlariga shubha qilmasak bo‘ladi. Shuningdek, tarjima tili ularning ona tili hisoblanadi. Muammo faqat uchinchisida. Ya´ni, asliyatda Navoiy nima demoqchi bo‘lgan? Ana shu jihatni tushunishda to‘siqlar ko‘pligidir. Bir so‘z bilan aytganda, avvalo, G‘arbda Sharq she´riyatini badiiy qayta yaratish an´anasining shakllanmaganligi bo‘lsa, undan keyingisi olmon tili imkoniyatlarining asliyatni qayta gavdalantirishga ojizligi, desak ham xato bo‘lmaydi. Shu bois, Navoiy G‘azallarini olmon tiliga nasriy tarjima qilish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Hamonki, yuqorida biz ta´kidlab o‘tgan haqiqiy tarjima bo‘lishning uchinchi muammosini ijobiy hal qilishga olmon turkshunoslari qurbi etmagan ekan, bunga o‘zbek tarjimonlarining bel bog‘lashlaridan boshqa yo‘l ko‘rinmaydi. Bunday jasoratga etuk tarjimon, olmon tilida o‘z ona tilidek ham so‘zlab, ham yoza oladigan iste´dod sohibi, professor Xurram Rahimning jazm etganligi juda to‘g‘ri ish bo‘lgan. Tabiiyki, Sharq mumtoz adabiyotining oliy namunasi bo‘lmish Navoiy G‘azallarini tarjima qilishdan avval amaliy tajribadan tashqari ruhiy tayyorgarlik ham bo‘lishi lozim. Shu sababdan G‘arb andazasiga muqobil bo‘lishi kutilgan ushbu tarjimalarni boshlashdan oldin o‘zbekistonlik tarjimon mavlono Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Sa´diy Sheroziy, Umar Hayyom kabi sharq shoirlaridan qilingan olmoncha tarjimalarni, qolaversa, Fridrix Ryukkert, Avgust fon Platen, Teodor Shtorm, Gottfriyd Keller, Detlev fon Liliynkron kabi olmonzabon G‘azalnavis shoirlar ijodini o‘rganib chiqdi. Tarjimada G‘azallarning mazmuni, shakli va boshqa janr xususiyatlarini saqlashga baholi- qudrat harakat qilindi.

Tarjimon va olim Xurram Rahimning ta´kidlashicha, Navoiy asarlarining 10 jildlik antologiyasi, to‘rt jildlik Navoiy asarlari izohli lug‘ati, o‘zbek mumtoz adabiyot lug‘ati, o‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘ati va boshqa bir qancha manbalarni, jumladan, shu G‘azallarning adabiyotshunos olimlar Aziz Qayumov, Alibek Rustamov, Najmiddin Komilov, Vahob Rahmonov, Ibrohim Haqqulov, Nusratilla Jumaxo‘ja, Boqijon To‘xliev, Karomat Mullaxo‘jaeva, Zigrid Klaynmixelь, shoira SHarifa Salimova tayyorlagan nasriy bayonlar va maqolalarni o‘rgansa-da, Hazrat Navoiy lisoniy uslubiyoti va ruhoniy salohiyatini daf´atan anglay ololmagan holatlari ko‘p bo‘lgan. Bularning barchasiga vaqt va ilmiy-ijodiy mehnat talab qilinadi. Besh yillik mashaqqatli urinish natijasi bo‘y ko‘rsata boshladi. Tarjima bo‘lishning birinchi va ikkinchi shartlari

nechog‘li to‘g‘ri amalga oshirilganligini bilish uchun olmon tili sohiblari va boshqa o‘zbek tarjimonlariga murojaat qilindi.

Olmoniyaning Humboldt nomidagi Berlin universiteti navoiyshunos olimasi Zigrid Klaynmixel xonim, olmoniyalik folьklorshunos olima va shoira — Nizomiy nomidagi TDPU faxriy doktori Gabriele Keller xonim, o‘zbek olimlari — navoiyshunos olima — filologiya fanlari nomzodi Roviyajon Abdullaeva, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti professori marhum Shavkat Karimov, qolaversa, Otaboy Jumaniyozov, Zohidjon Sodiqov, Shuhratxon Imyaminova, Gulruh Rahimova, Odiljon Safarov, Mirzali Akbarov kabi tajribali va taniqli olimlar hamda tarjimonu tarjimashunoslar e´tiboriga havola qilinib, ulardan olingan taqriz va tavsiyalar asosida Navoiy G‘azallari tarjimasi va tahriri ustida izlanishlar bo‘ldi. Natijada, Navoiy o‘z G‘azallarining olmon tilidagi tarjimalari bilan Gyote yurti bo‘lmish uzoq Olmoniyani zabt eta oldi. Alisher Navoiy tavallud kunining 580 yilligi arafasida Olmoniyadan xushxabar keldi. Berlin shahridagi nashriyotda G‘azal mulki sultoni Navoiy bobomizning 100 ta G‘azali olmon tilida Meine Schwarzäugige [3] nomi bilan chop etilibdi. Yuqorida ta´kidlanganidek, G‘azalni she´riy yo‘sinda hozirgi zamon olmon adabiy tiliga o‘girish qanchalik mushkulligini tasavvur qilish qiyin emas, albatta. Ayniqsa bu G‘azallarni ona tilidan olmon tiliga amalga oshganini hisobga olsak, o‘zbek tarjimonining jur´atini baholashga so‘z ojiz. Birgina “Ne navo soz aylagay” deb boshlanuvchi G‘azalni olaylik. Uning nomidayoq olmonlar tushunishi qiyin bo‘lgan bir qator so‘fiyona so‘z va iboralarning tarjimasidagi qiyinchiliklar mavjudki, buni faqat o‘zi o‘zbekcha-olmoncha tarjima bilan shug‘ullanadigan mutarjimlar aniqroq tasavvur qilishlari mumkin. Agar so‘zma-so‘z olmon tiliga o‘giriladigan bo‘lsa, bu misradan Wie das Musikinstrumente musiziert eine Musik? (Musiqa asbobidan qanday qilib kuy chalinadi) degan ma´no kelib chiqadi. Mutarjim Xurram Rahim nazdida Navoiy muddaosi turganligi tabiiy. Shu bois u o‘z ishiga ijodiy yondashib, “Wie kann die Nachtigall singen?” (Bulbul qandayin xonish qiladi?) tarzida go‘zal tasvir yaratadi. Chunki, bulbul obrazi aynan Navoiyga xos va uningchalik tasvir hanuz boshqa bir shoirga nasib etmaganligi ham haqiqat.

Tarjimadan ilhomlangan olmon rassomi

Alisher Navoyining olmon tilida chop etilayotgan kitobiga musavvir Kristina Olmer xonim chizgan “Wie der Nachtigal die Liebeslieder gehören?” (Bulbulga muhabbat kuyi qanday nasib etdi?) nomli buyuk shoirimiz portreti ham kiritilgan. Bir qaraganda, olmon rassomi yaratgan Navoiy bizdagi an´anaviylariga o‘xshamaydi. Aslida rassomlik ham badiiy

tarjima kabi san´at. Olmon rassomi Kristina mazkur san´at asarining yaratilish tarixini quyidagicha izohlaydi: “2020 yilning dekabr oyida Alisher Navoiy G‘azallarini olmon tilida chop etish ishlariga katta hissa qo‘shgan frayburglik olima, doktor Gabriella Keller xonim menga Navoiy G‘azallari olmon tilidagi nashriga surat chizib berishimni iltimos qildi. Men O‘zbekistonda 2003 yilda bo‘lib, bir dunyo taassurotlar bilan qaytganman. Navoiy siymosini yaratishimda kaminaning O‘zbekistonga, xususan, Samarqandga qilgan sayohatim davomida olgan taassurotlarim muhim o‘rin egalladi. Bundan tashqari, Navoiy G‘azallarining olmoncha tarjimasi ham katta turtki berdi. Men Navoiy yaratgan satrlarni o‘qir ekanman, uning siymosida bir vaqtning o‘zida buyuk gumanist shoir, musiqachi, me´mor, faylasuf hamda donishmand so‘fiy shaxsini ko‘rdim va ana shu jihatlarni uning suratida aks ettirishga intildim. Kamina boshqa hamkasblarim kabi ta´sirchan, vizual (yaqqol ko‘rsatadigan) rassomlar sirasiga kiraman. Mening maqsadimda Navoiy kabi buyuk siymolar makon va zamon tanlamaydi. Chunki ular abadiyatga daxldor”.

Adabiy an’ana davom etadi

O‘rta asrlardayoq Alisher Navoyining “Sab’ai sayyor” dostoni turli tillar, adabiyotlar va sayyor syujetlar vositasida olmon diyoriga kirib borgan bo‘lsa, olmon tilli sharqshunos Herman Vamberi, Martin Hartmanlar XIX asrdagi tadqiqot va tarjimalari bilan Navoiy ijodi olmon tilli mamlakatlarda yanada mustahkamroq o‘rin egalladi. XX asrga kelib olmon adabiyotshunosi Alfred Kurella esa ilk bor “Farhod va Shirin”dan bir faslni vatandoshlariga tanishtirdi. Mazkur an´anani O‘zbekistonda olmon tili muallimi Yo‘ldosh Parda Alisher Navoiyning 20 ta G‘azali va bir qancha ruboiylarini, bugunga kelib esa zabardast o‘zbek tarjimoni Xurram Rahimov zo‘r ishtiyoq ila davom ettirib, Hazrat Navoiyning yuzga yaqin G‘azallarini nemis tiliga o‘girganligi tahsinga loyiq. O‘zi olmon tilida she´rlar yozib yuradigan va bu she´rlarini Olmoniyada chop ettirgan Xurram Rahimning tarjimalarida G‘azallarning mazmuni va ma´nolarigina emas, ayni bir paytda G‘azal janriga oid xususiyatlar nemis tilida imkon qadar saqlab qolingan. Demak, olmon-o‘zbek va o‘zbek-olmon adabiy aloqalariga ko‘prik bo‘lib kelayotgan tarjimachilikka yana bir mustahkam g‘isht qo‘yildi. Bugungi kunda Navoiy G‘azallarini olmon tiliga o‘girgan tarjimon endi Navoiyning shoh asari—“Xamsa”ning nasriy variantini ham tarjima qilishga kirishgan. Ushbu mashaqqatli ishda unga omad tilagan holda ushbu ezgu va mo´tabar ishning bardavom bo‘lishini istab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘aybulla Salomov. Adabiy an’ana va badiiy tarjima (qiyosiy-tipologik tahlil). Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1983.
2. G‘aybulla Salomov. Adabiy an’ana va badiiy tarjima. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Alischer Navoiy. Schwarzäugige. Übersetzung aus dem Usbekischen von Churram Rachimov. Taschkent, 2019.

YAPON OLIMINING ILMIY JASORATI

Otajanov Nematilla,
Impuls tibbiyot instituti,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Buyuk ajdodlarimizning bebaho meroslarini xalqqa to‘la yetkazish uchun ular yaratgan asarlarning ilmiy-tanqidiy matni nihoyatda zarurligini mutaxassislar yaxshi his qilganlar. “Boburnoma” ning tanqidiy matnini yaratish yaqin yillargacha bobur shunoslikdagi eng dolzarb masalaligicha qolaveradi.

Bu ezgu ishni jumhuriyatimiz olimlari ro‘yobga chiqaradi deb umid ham bildirilgan edi. Biroq unday bo‘lmadi. Boburnoma ning tanqidiy matni Boburmirzoning vatanida emas, Yaponiyada yaratildi. Ushbu sharafli yumush atoqli bobur shunos, professor Eyji Manoning zimmasiga tushdi. Deyarli 30 yillik sermashaqqat mehnat samarasi 1995 yilda ilmiy jamoatchilikka taqdim qilindi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy matn, ajdodlar, meros, dolzarb, ilmiy, jasorat, qo‘lyozma, forsiy.

Abstract: Experts have well understood the extreme necessity of a scientific and critical text of the works created by our great ancestors in order to fully convey to the people the invaluable heritage of their ancestors. Creating a critical text of the “Baburnama” will remain the most urgent issue in Babur studies for the coming years. It was hoped that this noble work would be carried out by the scientists of our republic. However, this did not happen. The critical text of the Baburnama was created not in the homeland of Babur Mirza, but in Japan. This honorable work fell to the eminent Babur scholar, Professor Eiji Mano. The fruits of almost 30 years of painstaking work were presented to the scientific community in 1995.

Keywords: critical text, ancestors, heritage, topicality, scientific, courage, manuscript, Persian.

Eyji Mano (1939-y. Aychi prefekturasi, Yaponiya) – tarixchi olim, sharqshunos. Kioto universitetining adabiyot fakulteti (1957-1961-yy.) va aspiranturasini (1961-1966 yy.) tamomlagan. Asosiy tadqiqotlari Markaziy Osiyo tarixi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli xitoy, turk, arab, mo‘g‘ul, fors, sanskrit va boshqa tillarni o‘rgangan. 1968-yilda Osaka Universitetining Osiyo tarixi kafedrasida ishlagan. 1969-1971-yy AQShning Harvard universiteti san’at va fanlar fakulteti aspiranti. Kioto universiteti Osiyo fakulteti dotsenti va professori bo‘lgan. Yaponiyada Temuriylar tarixi bo‘yicha tadqiqotlarni boshlab bergan. 1986 yili “Markaziy Osiyoning 14-15-asrlar tarixi” mavzusida doktorlik ishini himoya qilgan. “Boburnoma”ning Haydarabod va Qozon nusxalari asosida Farg‘ona, 1984-yili Qobul qismini yapon tilida nashr ettirgan.

Eyji Mano “Boburnoma”ning jahon kutubxonalaridan foydalanib, 1995-yilda asarning tanqidiy matnini, 1996 yilda “Boburnoma”ga ko‘rsatkichlar, 1998-yili “Boburnoma”ning yapon tiliga tarjimasini. 2001-yil - “Bobur va uning davri” monografiyasini nashr etdi. 2006 yil “Boburnoma” tanqidiy matni qayta nashrini amalga oshirdi. “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” (Toshkent 1996 -yil), “Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” (Andijon 2008 y.); “Muhammad Haydar Mirzo va “Tarixi Rashidiy” asarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” (Andijon 2011-y.);“O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” (Samarqand 2014-y.) xalqaro anjumanlarida ma’ruza bilan ishtirok etgan. Bobur xalqaro mukofoti (1998-y.), Yaponiya Akademiyasi mukofoti (2005 y.) sovrindori. Olim 2014- yil Yaponiya Akademiyasi a’zoligiga saylangan.

Yaponiyalik mashhur sharqshunos olim, professor Eyji Mano butun hayotini Bobur shohning hayoti va merosini o‘rganishga bag‘ishlagan. U qirq yillik mehnat faoliyati davomida Bobur shoh va boburiylar haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar yaratdi. Eyji Manoning 1995-2001- yillarda Kioto shahrida natr etilgan to‘rt jildlik ilmiy asarlar to‘plami buning tasdig‘idir. Bu asarlarning qisqacha mundarijasi quyidagicha:

Birinchi jild – “Boburnoma”ning arab imlosidagi tanqidiy matni;

Ikkinchi jild – “Boburnoma” konkordansi. Matnda ishlatilgan barcha turkiy so‘zlar va birikmalar alfavit tarzida joylashtirilgan ko‘rsatkichlarining mufassal izohi;

Uchinchi jild – “Boburnoma”ning yapon tiliga qilingan muxtasar tarjimasi;

To‘rtinchi jild – muallifning “Bobur va uning davri” monografiyasi.

Agar dastlabki uch jild bevosita “Boburnoma” haqidagi filologik izlanishlar mahsuli bo‘lsa, to‘rtinchi jildda Bobur yashagan XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan turli voqealar tarixiy va filologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Eyji Manoning “Bobur va uning davri” asari to‘rt qismdan tashkil topgan:

birinchi qism Bobur shoh, va “Boburnoma” xususida;

ikkinchi qism boburiylar va “Tarixi Rashidiy” asari haqida;

uchinchi qism Temur va temuriylar tarixiga bag‘ishlangan;

to‘rtinchi qism esa qo‘shimcha, izoh hamda sharhlardan iborat. Bundan tashqari, ushbu asarda avvalgi uch jildda o‘z yechimini topmagan hamda ularning kirish va izoh qismlarida mavjud bo‘lgan bahsli masalalar qayta ishlangan, ayrim kamchiliklar bartaraf etilgan.

Tanqidiy matnni yaratish jarayonida Eyji Mano dastavval “Boburnoma” haqida ko‘plab maqolalar e’lon qilgan. Angliya, Turkiya, Germaniyada xalqaro anjumanlar, ilmiy seminarlarda “Boburnoma”ning yo‘qolgan qismlarini to‘ldirish borasida “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy”ning o‘zaro yaqinligi”, Texrondagi Saltanat kutubxonasida saqlanayotgan “Bobo‘rning majmualariga doir”, “Boburnoma”ning tanqidiy matnini yaratishdagi nashriy muammolar”, “Boburnoma”ning nomlanishiga doir” kabi mavzularda ma’ruzalar qilgan.

Eyji Mano “Boburnoma”ning U.Erskin tomonidan qilingan tarjimasiga dastlab Kioto universitetida o‘qib yurgan kezlarida qiziqib qolgan. Shu tariqa unda “Boburnoma” matnini asliyatda o‘rganish va tarjima qilishga ishtiyoq tug‘ilgan. Olim “Boburnoma”ni asliyatida to‘liq o‘qish uchun arab, fors va turk tillarini chuqur o‘rgangan. Binobarin, busiz asarni tadqiq etish imkonsiz edi. Talabalik yillari Eyji Mano uchun asarning Haydarobod qo‘lyozma nusxasini, A.S.Beverij xonim tomonidan qilingan mukammal inglizcha tarjimani, “Boburnoma”ning boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan inglizcha, nemischa, fransuzcha tarjimalarini o‘rganish uchun eng qulay va samarali davr bo‘lgan edi, deyish mumkin. Bu borada Akira Xaneda Eyji Manoning yaqin maslahatchisi bo‘lgan.

1969-1972-yillar davomida bir qator xorijiy mamlakatlarda ilmiy safarlarda bo‘lgan Eyji Mano AQShning Harvard universiteti professori Omiljan Pritsak hamda professor Richard Fray qo‘lida tahsil ko‘rgan. Olimning turkiy va fors tillarini o‘rganishida ularning hissasi alohida bo‘lgan. Eyji Mano professor Pritsak bilan “Boburnoma”ning Haydarobod qo’lyozmasini birgalikda o‘qib-o‘rganib chiqqan. Qo‘lyozma juda noyob edi. Dastlab, ular “Boburnoma”ni qismlarga, bo‘laklarga bo‘lib o‘rgangan.

Tadqiqotchi uchun bu juda foydali bo‘lgan.

Eyji Mano 1972-yili Yaponiyaga qaytib, Kioto universiteti G‘arbiy Osiyo tarixi ilmiy jamiyatining a’zosi bo‘ldi. 1977-yili “Boburnoma”dagi ayrim parchalarni yapon tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi. Ayniqsa, kitobdagi Samarqand tarixi tasviri Eyji Manoda alohida qiziqish uyg‘otdi. Keyinchalik temuriylar tarixini yoritishda asardagi ma’lumotlar katta amaliy yordam berdi.

1983-yili “Boburnoma”ning Farg‘ona qismi tasvirini birinchi bor to‘liq holda, 1984-yili esa Kobul qismini yapon tilida nashr ettirdi. Tarjimani amalga oshirish jarayonida Haydarobod qo‘lyozmasi va N.Ilminskiy tomonidan tayyorlangan Qozon nashridan foydalandi. 1986-yili Kioto universitetida fan doktori ilmiy darajasini himoya qilib, G‘arbiy Osiyo tarixi bo‘yicha professor unvoniga sazovor bo‘ldi. Oradan ikki yil o‘tgach, 1988-yili islom madaniyatiga oid manbalarni o‘rganish maqsadida tashkil etilgan katta bir ilmiy loyiha ishtirokchilari tarkibida ish olib bordi. Shundan keyin Eyji Mano “ Boburnoma”ni asliyatda o‘qish uchun kompyuterdan foydalanish masalasiga har tomonlama chuqur kirishdi. Haydarobod qo‘lyozmasini lotin yozuvida kompyuterda yoza boshladi. 1989-90-yillari Hindiston, Istanbul, Parij, London, Shotlandiya (Edinburg)ga qilgan ilmiy safarlari chog‘ida ham “Boburnoma” mavzusi uning diqqat markazida bo‘lgan. Asarning Edinburg va London nusxalaridan mikrofilmlar olishga erishdi. O‘sha paytda Yaponiyada kompyuter texnologiyasining jadal rivojlanishi unga, ayniqsa, qo‘l kelgan edi.

“Boburnoma” matnini yaxlit holda lotin yozuvidan arab alifbosiga kompyuter orqali kuchirishda Tokio universitetining xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘limi boshlig‘i, professor Kayoko Xayashin yaqindan yordam berdi.

Asta-sekin Eyji Mano o‘zida mavjud barcha qo‘lyozmalar asosida arab yozuvidagi matnlarni kompyuter yordamida qiyoslab o‘rgana boshladi. Bu ishda u jiddiy yutuqlarga erishdi. Nihoyat, “Boburnoma” tanqidiy matnini lotin yozuvida emas, balki arab yozuvida yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Eyji Manoni moddiy tomondan Yaponiya ta’lim vazirligi qo‘llab-quvvatlab turdi. 1995-yili “Boburnoma”ning yangi tanqidiy matni dunyoga keldi va olim 1996-yili asarni ko‘rsatkichlar bilan chop etishga muyassar bo‘ldi. Ikki yildan keyin 1998 -yili esa yapon tilidagi tarjimasini nashr ettirdi. Shuning natijasida “Bobur va uning davri” deb nomlangan ilmiy-tarixiy asari vujudga keldi va 2001-yilda alohida jildda bosilib chiqdi. Hozirgi kunda ham nafaqada bo‘lishiga qaramay Eyji Mano

talabalarga dars beryapti. Ta’kidlash kerakki, hozirga qadar Zahiriddin Boburshohning jozibador shaxsiyati va “Boburnoma” asari uni tobora o‘ziga rom etmoqda. Shu sababli ayni paytda “Boburnoma”ning tanqidiy matni ustidagi izlanishlarni davom ettirmoqda.

O‘z vaqtida bu mavzuda ishlar ekan, u Texrondagi “Saltanat” kutubxonasida saqlanayotgan Boburshoh qalamiga mansub qo‘lyozmalardan yetarlicha foydalana olmagan edi. Endilikda ana shu manbalarni ham jiddiy o‘rganib chiqmoqda. Olim Xo‘ja Ahrorning “Volidiya” risolasi asliyatini va Boburshoh tomonidan amalga oshirilgan turkiy tarjimasini qiyosiy tahlildan o‘tkazib, asarning tanqidiy matnini nashr ettirishga tayyorgarlik ko‘ryapti. Eyji Mano, shuningdek, Zahiriddin Boburshohning yana bir muhim asari – “Mubayyin”ning tanqidiy matnini ham oxiriga yetkazishga umid bog‘lagan.

Eyji Mano tanqidiy matn uchun ilmda ma’lum bo‘lgan eng mukammal va ishonchli to‘rt manbani jalb etgan. Bular – Haydarobod nusxasi, Shotlandiya (Edinburg) qo‘lyozmasi, 1857-yilgi Qozon nashri va London qo‘lyozmasidir. Yapon olimi ayni zamonda ayrim shubhali va bahsli o‘rinlarga ravshanlik kiritish maqsadida “Boburnoma” bitilgandan keyin ko‘p o‘tmay fors tiliga qilingan tarjimalardan ham keng foydalanganini qayd etib o‘tadi. “Xuddi shu tufayli, – deb yozadi u muqaddimada, – men matnning katta qismini tiklash imkoniga ega bo‘ldim”. [Mano, 1995: 33]. Olim ayrim qo‘lyozmalar bilan, jumladan, Texronda saqlanayotgan va N.I.Ilminskiyning Qozon nashriga asos bo‘lgan qo‘lyozma bilan bevosita tanishish imkoni bo‘lmaganiga taassuf bildiradi. “Shunday bo‘lsa-da, – deb ta’kidlaydi u, – men ushbu tanqidiy matn uchun eng yaxshi deb hisoblanuvchi Haydarobod va Edinburg qo‘lyozmalarini asos qilib oldim va o‘ylaymanki, bu nashrga kelgusida jiddiy o‘zgartirish kiritish zarurati bo‘lmaydi”. [Mano, 1995: 37].

Tanqidiy matn bilan sinchiqlab tanishish noshirning bu so‘zlarida jiddiy ilmiy asos mavjudligini ko‘rsatdi. Bevosita “Boburnoma”ning qo‘limizdagi tanqidiy matniga kelsak, ta’kidlash joizki, u matnshunoslikning eng so‘nggi yutuqlari darajasidagi tadqiqotdir.

Butun tanqidiy matn davomida Haydarobod qo‘lyozmasi va Qozon nashrining qaysi sahifalariga asoslanilgani ilmiy apparatda izchillik bilan qayd etiladiki, bu hol, xususan, mutaxassislar uchun katta qulayliklar tug‘diradi, zarur o‘rinlarda manbalar bilan qiyoslash imkonini yengillashtiradi. Foydalanilgan yordamchi manbalardagi mavjud tafovut va qo‘shimchalar esa, matnshunoslik talablariga to‘la muvofiq holda har sahifa ostida maxsus belgilar bilan keltiriladi.

Matn uchun tanlangan tayanch manbalar va ularning tasnif-tavsifi, qabul qilingan shartli belgi va qisqartmalar haqida ma’lumotlar yapon va ingliz tillarida yozilgan muqaddimada batafsil bayon qilingan. Bu o‘rinda professor Eyji Manoning qariyb bir yarim bosma taboq hajmida yapon tilida yozgan tadqiqotini alohida ta’kidlashni zarur deb bilamiz. Tadqiqotda “Boburnoma”ga yuksak baho beriladi, uning ilmiy, badiiy, tarixiy ahamiyati ancha misollar orqali tahlil qilinadi hamda bizgacha yetib kelgan nodir qo‘lyozma nusxalari, ularning o‘rganilish tarixi mufassal tadqiq etiladi.

Yapon olimi asarning yaratilish jarayoni, asliy nomlanishi, mavjud tarjimalari haqida teran ilmiy bahs yuritadi, turli tillarda “Boburnoma”ga bag‘ishlab yaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga o‘z munosabatini bildiradi.

Eyji Mano o‘zi tayyorlagan tanqidiy matnning bosh xususiyatlari, turli qo‘lyozma nusxalarida uchrovchi katta-kichik tafovutlarni nashrda ifodalash yo‘llari, yordamchi manbalardan matnga olingan qo‘shimchalar va sahifalar ostiga tushirilgan farqlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot beradi, tanqidiy matn bilan tanishish jarayonida kitobxon nimalarga alohida e’tibor berishi lozimligiga diqqatni tortadi. Mohiyat jihatidan tanqidiy matn uchun ochqich-kalit vazifasini o‘tovchi bu tadqiqot yuqori ilmiy saviyada yozilgan. Unda, jumladan, bizning bobur shunos mutaxassislarimiz tomonidan to hano‘z ilmiy muomalaga kiritilmagan turli tillardagi bir qator manba va tadqiqotlarga ham ishoralar mavjudligi, ayniqsa, qimmatlidir. Tanqidiy matndan, uni tuzishda tayanch manbalar sifatida foydalanilgan asosiy qo‘lyozma va nashrlardan ayrim sahifalarning fotosuratlari ilova tarzida o‘rin olgan.

Qisqasi, yaponiyalik bobur shunos chindan ham katta ilmiy jasorat ko‘rsatib, bevosita amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lgan jiddiy tadqiqotni amalga oshirdi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, katta hajmli ushbu nashr “Boburnoma” tanqidiy matnining faqat birinchi jildidir. Muallif muqaddimada tadqiqotning ikkinchi jildi ustida qunt bilan ishlayotganini, unda, jumladan, P.Shamsiev va S.Mirzayevlar nashri hamda amerikalik professor U.Tekston tayyorlagan tarjimasining mufassal ilmiy tavsifi va tahlili berilishini ma’lum qiladi. Shu munosabat bilan muqaddimadagi yana bir muhim ma’lumot to‘g‘risida ham qisqacha so‘zlash zarurati seziladi. “Boburnoma”ning asl nusxasi taassufki yo‘qolgan. Qachon, qayerda va qay tarzda yo‘qolgani esa noma’lum. A.S.Beverij xonimning shahodat berishicha, “Podshohnoma” asariga tayangan holda “Boburnoma”ning asl nusxasi Shoh Jahonning hukmronligi davrida ham

(1628-1658), shubxasiz, mavjud bo‘lgan. Biroq o‘sha paytdan hozirga qadar asl nusxaning qayerdaligi noma’lum bo‘lib kelmoqda. [Beveridge, 1969: 28].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beveridge A.S. The Babar-nama in English (memoires of Babur), 2 vols, London, 1922, repr. in one volume, London, 1969, P.x2.

2. Mano Eiji. Babur-nama. (Vaqayi). Critical Edition Based on Four Chaghatay Text with introduction and Notes. Kyoto, Shokado; 1995.

3. Mano Eiji. Babur-nama. (Vaqayi). Critical Edition Based on Four Chaghatay Text with introduction and Notes. Kyoto, Shokado; 1995.

4. Beverij A.S. Boburnoma – ingliz tilida. Turkiy asl nusadan inglizchaga tarjima. – London, 1921. – B.38.

5. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: SHARQ nashriyoti, 2002. – B.79.

6. Otajonov N. “Boburnoma” jahon kezadi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1984. – B. 23.

7. Otajonov N. “Boburnoma” G‘arb olimlari tadqiqotlarida //“Bobur va dunyo” jurnali. – 2017, 1-son, – B. 40.

8. Xorijda Bobur shunoslik (Tadqiqot, talqin va maqolalar). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008, 3 b.

AUTENTIV VA ADAPTIV MATNLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(Germaniyaning “Tagesschau” dasturi materiallari misolida)

Saidumar Saydaliyev,
pedagogika fanlari nomzodi, professor
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada matn va matnning asosiy belgilari, matn turlari, autentiv va adaptiv matnlarning xususiyatlari Olmoniyaning “Tagesschau” nomli axborot-informatsion teleko‘rsatuvi misolida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: matn, autentiv matn, adaptiv matn, matn xususiyatlari

Abstract: The article discusses the concept of text and its main features, types of texts, as well as the characteristics of authentic and adaptive texts, using the example of Germany's “Tagesschau“ news and information television program.

Key words: text, authentic text, adaptive text, text features

Matn atamasi deyarli barcha sohalarda, ayniqsa tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, tarix fanlarida keng qo‘llaniladi. Shuning uchun

ham bu tushunchaga turlicha ta`rif va tavsif beriladi. Matnning nazariy masalari bilan matnshunoslik fani shug`ullanadi.

Garchi hozirga qadar tadqiqotchilar matn tushunchasini ta`riflash masalasida umumiy fikrga kela olmagan bo‘lsalarda, matnshunoslik sohasida qilingan ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda quyidagilarni bayon qilish mumkin.

Matn bu, har qanday uzunlikdagi og`zaki yoki yozma nutq namunasi; Tugallangan fikrni ifodalovchi yozma shakldagi gapdan tortib, toki badiiy asargacha bo‘lgan til birligi; Matn bu tilning eng katta birligidir.

Matn tushunchasining mohiyatini aniq tasavvur qilish uchun to‘qima, to‘qilgan, to‘qiladigan mato tushunchasi bilan qiyoslash uni idrok qilishni osonlashtiradi. Matn atamasining ma`nodoshi sifatida ilmiy-metodik adabiyotlarda ko‘p qo‘llaniladigan tekst termini esa to‘qimachilik (tekstil) sohasi bilan uzviy bog`liq. Sodda qilib bayon qiladigan bo‘lsak, “matn“ yoki “tekst“ terminlari to‘qimachilikda keng qo‘llaniladigan ip, ipak, jun yoki tola va boshqa xom-ashyolarning ma`lum tartib-qoidalar asosida to‘qish jarayonining maxsuli, hosilasi sifatida tasavvur qilish mumkin. Xom-ashyoning sifati va uni qayta ishlash jarayonidagi usul va texnologiyalarning rivojlanganlik darajasiga qarab maxsulot baholanadi.

Har qanday matn ma`lum talablarga javob berishi lozim. Bu talablar quyidagilar: ma`lumotni bayon qilishi; matn birliklari o‘rtasida bog`liqlik, uzviylik, ergashish kabi munosabatlarni ta`minlashi; ma`lum qilinayotgan voqea, hodisaning ketma-ket, izchil bayon qilinishi; matn uzul-kesil, tugal fikr anglatishi; matnning qabul qiluvchisida kim, nima, qachon, qayerda, qanday kabi savollarga o‘rin qoldirmasligi lozim. Matnlar yaratilishidan ko‘zlangan maqsadga ko‘ra turli jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Matn (**lotincha**: *textus* – mato; birikma) – ma’lum moddiy tashuvchiga bog‘langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to‘liq ketma-ketligi tushuniladi. **Tilshunoslikda** “matn“ atamasi keng doirada, jumladan, og‘zaki nutq namunalarida ham qo‘llanadi. I. R. Galperin matn tushunchasiga quyidagicha ta’rif beragan: “Matn bu yozma hujjat shaklida ob’ektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir“[Galperin, 1974:67].

Matn, o‘ziga xos tarzda, bir nechta **jumlalardan** tarkib topadi. Keng yoritilgan, murakkab hajmga ega bo‘lgan bir jumladan iborat yozuvni

matn deb atash mumkin emas. Chunki matn bir nechta mustaqil gapga ajralishi mumkin, bunda gap bo‘laklari matnga emas, balki murakkab gapning **sintaksis** qonunlariga ko‘ra birikadi. Asosiy qoida - matn ikki yoki undan ortiq jumladan iborat bo‘ladi. Voqelikdagi bog‘lanish va bog‘liqliklarni aks ettirishi uning semantik yaxlitligini tashkil qiladi. Mavzu esa matnning semantik o‘zagi, uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir. Matnning semantik yaxlitligidan uning quyidagi xususiyatlari kelib chiqadi:

- Matn – bu ma’lum bir mavzudagi bayonat hisoblanadi;
- Matn so‘zlovchi/yozuvchining niyatini, asosiy g‘oyasini ifodalab beradi;
- Har qanday hajmdagi matn nisbatan avtonom bayonotdir;
- Matnda gaplar mantiqiy jihatdan bog‘langan bo‘ladi;
- Matn uchun uning mazmuniga mos sarlavha tanlash mumkin;
- To‘liq matn odatda boshlanish va yakunga ega bo‘ladi.

Autentiv matn deganda (autentiv, autentivlik - asl manbadan olingan, haqiqiy) ona tili sohiblari uchun yaratilgan matnlar nazarda tutuladi. Kommunikativ metod asosida yaratilgan darsliklardagi mavjud matnlar autentivligi bilan eski darsliklardan farq qiladi. Eski darsliklardagi matnlar faqatgina darslik mualliflari tomonidan yozilgan bo'lar edi. Autentiv matn tushunchasi ostida original va aynan yozma yoki og'zaki ko'chirilgan nusha tushuniladi.

Adaptiv matn deganda autentiv matnning kitobxon manfaatiga, bilmiga, qiziqishiga, yoshiga, kasbiga va boshqalarga moslashtirish, soddalashtirish, o‘zgartirish tushuniladi. Matn ustida ishlashning ushbu usuli aloxida maqolaning predmeti boladi deb hisoblaymiz.

Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan masalani Germaniyaning “Tagesschau” axborot-informatsion dasturi materiallari asosida bayon qilishni niyat qildik. Ushbu teleko‘rsatuvning tavsifi quyidagicha:

informatsion ko‘rsatuv dasturi hisoblanadi. Uning original tili (Originalsprache - Deutsch) olmoncha, Janri - xabarlar (Genre - Nachrichten), 1978-yilda tashkillangan, davomiyligi - 20-35 minut, har kuni bir necha marta efirga uzatiladi. Ko‘rsatuv, uning tarixi, konsepti, mazmun-mohiyati, moderatorlari haqidagi batafsil ma`lumotlar ham mavjud [Mehne, 2013]. Ushbu teleko‘rsatuvning til jihatdan soddalashtirilgan - **“Tagesschau in einfacher Sprache”** deb nomlanuvchi adaptiv varianti ham efirga tarqatiladi va Olmoniyada 17 mln. tamoshabin tomonidan ko‘riladi.

Tili soddalashtirilgan xabarlar “Tagesschau in einfacher Sprache” avvalo o‘qish-o‘rganishda qiyinchiligi bor, yoki og`ir kasalliklarga yo‘liqqan insonlar uchun hamda olmon tilini yetarli darajada bilmaydigan fuqarolar uchun mo‘ljallangan. Chunki asl nushadagi xabarlar (die klassischen Nachrichten) har doim ham barcha kishilar uchun tushunarli bo‘lavermaydi. Dasturning bu varianti tagesschau.de/einfache-sprache va ARD-Mediathek YouTube-Kanalda joylashtirib boriladi. Xabarlarning bu variantida adaptiv matnlar efirga uzatiladi.

Adaptiv matnlar o‘qish, yozish kompetensiyalari yetarli darajada rivojlanmagan, murakkab matnlarni har doim ham tinglab ulgura olmaydigan, yoki olmon tilini ona tili darajasida egallamagan kishilar uchun zarur hisoblanadi.

Ko‘rsatuv mavzulari kundalik original ko‘rsatuvlar asosida belgilanadi. Lekin ko‘rsatuvlar mazmuni butunlay boshqa tarzda qayta ishlanadi. Xabar va axborotlar butunlay yangicha uslubda shakllantiriladi. Matnlarning lisoniy va uslubiy jihatlari soddalashtiriladi va sekinlashtirilgan tezlikda o‘qiladi. Matn tuzish, so‘z tanlash, grammatik va uslubiy soddalashtirish nafaqat til nuqtai nazaridan amalga oshiriladi, balki tinglovchilarning bilim darajasi va madaniy hamda ma`naviy imkoniyatlari ham e`tibordan chetda qoldirilmaydi.

Ko‘rsatuv materiallaridagi sodda (einfach) til va oson (leicht) til tushunchalari bir biridan farq qiladi. Sodda til deganda adabiy tilning soddalashtirilgan shakli tushuniladi. Oson til deganda esa qiyinchilik darajasi kam bo‘lgan va so‘zlarning yozilishi va tipografiya jihatdan qat`iy qoidaga amal qilinadigan til shakli nazarda tutiladi. Sodda til oson til shakliga nisbatan ko‘proq so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Tilning ikkala shakli ham katta yoshdagi tamoshabinlarga mo‘ljallangan. Oson til og`zaki nutqni idrok qilishga qiynaladigan tamoshabinlarga axborotni tushunishni yegillashtiradi. Asosiy maqsad Olmoniya va dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar bilan imkoni boricha ko‘proq kishilarni tanishtirishdan iborat.

Matnning sodda til shakli besh prinsip ustivorligida tayyorlanadi. Ular quyidagilar:

- matnda asosan aktiv daraja qo‘llaniladi;
- so‘z birikmalari o‘rniga ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar ishlatiadi;
- imkoni boricha ijobiy kayfiyat berubchi xabardan foydalaniladi;
- sodda matnga muxtoj tamoshabin ko‘zda tutiladi;
- so‘z va jumlalar qisqaligi bilan ajralib turadi.

Til o‘rganish va o‘rgatish nuqtai nazaridan matnlar, ularning turlari haqida ma`lumotga ega bo‘lish, ularning xususiyatlarini bilib olish va ular bilan ishlash, asliy matnlarni soddalashtirish va sodda matnlarni asliy matnlar darajasiga ko‘tarish til o‘rganish samaradorligini ta`minlovchi omillardan hisoblanadi. Bunday matnlar bilan ishlash aloxida maqolaning ob`yekti bo‘ladi desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday mashg`ulotlar fikrni sodda, yoqimli va tushunarli bayon qilish malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johannes Mehne: *Die Nachrichtenjournale "tagesthemen" und "heute journal".* Springer VS, Wiesbaden 2013, ISBN 978-3-658-01649-4.
2. Michael Reufsteck, Stefan Niggemeier: *Das Fernsehlexikon*. Goldmann, München 2005, ISBN 3-442-30124-6.
3. Гальперин, И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р. Гальперин. – Москва, 2007. – 144 с.
4. Galperin I. R. O ponyatii "tekst"//Materiali nauchnoy konferensii "Lingvistika teksta". – Москва, 1974.

ТАРҶУМАИ АШЪОРИ ҒИНОИИ САЪДӢ БА ЗАБОНИ ЎЗБЕКӢ

Муҳаммадзода Ҷурабек Урак,
Номзади илмҳои филологӣ, дотсенти
Донишгоҳи давлатии омӯзгории
Тоҷикистон ба номи Садриддин Айнӣ
Ҷумҳурии Тоҷикистон, ш.Душанбе,
E-mail: ***muhammadzoda_j@mail.ru***

Annotataion*:* The article is dedicated to the translation of lyric poetry of Saadii Sherozi and impact of creation of Saadi to the Uzbek classic literature.

Key words*:* ghazel, translation, poetry, impact, researcher, translator, dictionary, rhyme, quatrain, stanza, qasida, aphorism.

Тарҷумаи ашъори ғиноӣ аз тарҷумаи наср дида, мураккабтар ва дорои вижагиҳои маъноию сохторӣ мебошад. Аз ин рӯ, баъзе муҳаққиқон ва назарияпардозони тарҷума ҳар тарҷумаи муваффақи ашъори ғиноиро «ҳусни тасодуф дар интибоқи ҳолати рӯҳӣ ва таҷрибаи мутарҷим бо ҳолати рӯҳӣ ва таҷрибаи шоир дар лаҳзаи офариниши он шеър» донистаанд (7, 24).

Дар ин замина, агар мутарҷим илми луғат, сарф, наҳв, баён,

маонӣ, бадеъ ва баъзе аносири динӣ, аз ҷумла аҳодисро надонад, дар тарҷумаи шеъри классикӣ, ба хусус осори ғинои Саъдӣ, муваффақ шуданаш ғайри имкон аст. Ҳамчунин масоили дигаре ҳаст, ки дар тарҷумаи шеъри классикии мо донистан ва корбаст кардани он муҳим аст. Аз ҷумла:

- ✓ огоҳӣ аз забон ва адабиёти форсии тоҷикӣ;
- ✓ донистани Қуръон ва аҳодиси набавӣ;
- ✓ бархурдорӣ аз тафосири муҳим ва ҷомеъ;
- ✓ тасаллути комил бар забон ва хатти форсӣ;
- ✓ таҷрибаи кофӣ дар заминаи таҷрибаи тарҷумаи шеъри форсии тоҷикӣ.

Ғазалиёт, қасоид ва дигар анвои шеъри Саъдӣ аз асрҳои XV сар карда, то асри XX ҷузъи адабу фарҳанги ўзбекӣ будааст. Ҳарчанд ин анвои шеъри «шайхи аҷал» то солҳои хафтодуми асри гузашта, «ба сурати пароканда ба ўзбекӣ тарҷума гардидааст» (6, 2), вале таъсири афкор ва осори Саъдӣ ба шеър ва адабиёти ўзбекӣ бузург будааст.

Ибтидои солҳои хафтодуми ӯарни гузашта шарқшиноси маъруфи ўзбек ва донандаи хуби адабиёти форсии тоҷикӣ Ш.Шомуҳамедов бо тарҷумаи осори Саъдӣ, аз ҷумла «Гулистон» ва «Бӯстон» ҷиддан машғул шуд ва дар ин радиф қисмате аз ғазалиёт, қасоид, рубоиёт, муфрадот ва ҳикматҳои ин шоири бузургро ба ўзбекӣ тарҷума кард.

Баъдтар шоири тоҷикзабони самарқандӣ Ҳаёт Неъмат бахше аз ғазалҳои Саъдиро ба ӯзбекӣ тарҷума ва нашр намуд. Ҳоло ҷомеътарин ашъори Саъдӣ ҳамон аст, ки ин ду тарҷумон тарҷума ва нашр намуданд.

Ш.Шомуҳамедов дар китоби осори манзуми Саъдӣ, ки бо номи «Шеъриятидан» дар Тошканд нашр шудааст (1), қисмате аз ғазалиёт, қасоид ва дигар анвои шеъри Саъдиро тарҷума ва чоп кардааст, ки маънии нусхаи аслро ба таври боварбахш ба ўзбекӣ ифода кардааст.

Пеш аз он ки доир ба сифати ин тарҷумаҳо баъзе мулоҳизаҳои хешро баён кунем, доир ба баъзе фазилатҳои тарҷумаи Ш.Шомуҳамедов чанд нуктаро зикркунем:

✓ Ҳунари тарҷумонии ин мутарҷим бар он такя доштааст, ки ҳеҷ таркибу ташбеҳот ва истиороти шеъри Саъдӣ сарфи назар нашудааст ва тарҷумон барои онҳо муодилҳои мушаххаси ўзбекӣ овардааст.

✓ Тарҷумаи ў дар аксар маврид дар заминаи назарияи тарҷумаи меъёр анҷом гирифта, сабки Саъдӣ ҳифз шудааст.

✓ Тарҷумон дар мавридҳои зарурӣ калимот ва ибороти тоҷикиро, ки ба забон ва адаби ўзбекӣ унсият пайдо кардаанд, нигаҳ доштааст, ки ин василае будааст, барои ҳифзи асолати шеъри Саъдӣ дар тарҷумаи ўзбекии он.

✓ Ҳифз кардани сиға ва сохтори калимаҳои форсии тоҷикӣ ва арабӣ дар тарҷума низ аз вижагиҳои кори ин мутарҷим буда, барои ҳифзи сабки шеъри Саъдӣ, ки вазну қофия ва радиф ҷузъи он аст, ёрии бузурге расонидааст.

✓ Тарҷумон дар тарҷума ба ҳамгунии баъзе калимаю таркибҳо, ки дар шеъри Саъдӣ мақоми маънавӣ ва ҳунарӣ доштаанд, риоят карда, дар мавриди наёфтани муодили ўзбекии онҳо асли тоҷикиашро овардааст. Масалан, ѓазали «Эй сорбон…» ва ѓайра.

✓ Ш.Шомуҳамедов имконоти зеҳние, ки дар фарогирии сарчашмаҳои адабию таърихӣ ва илмӣ дошт, дар фаъолияти тарҷумониаш истифода карда, дар бисёр мавридҳо сурати аслии маънавӣ ва суварии шеъри Саъдиро ба забони ўзбекӣ дода тавонистааст. Дар ин замина, корбурди муодилҳои ўзбекӣ ва асл дар тафсили талмеҳоти таърихии фарҳангӣ ва мазҳабӣ аз дастовардҳои ў дар тарҷумаи шеъри Саъдї мањсуб меёбад.

✓Дигар аз вижагиҳои тарҷума ин аст, ки Ш.Шомуҳамедов тавсифҳои Саъдӣ-изофати тавсифии тоҷикиаслро (мисли ороми жоним, ул дилситоним, дилдан ниҳоним, рӯҳи равоним ва ғайра) ҳунармандона ба кор бурдааст.

✓ Дар тарҷумаҳо, агар баъзе лаҳзаҳоро истисно кунем, маънӣ ва ҳунари Саъдӣ бо ҳифз ва такмили дастовардҳои шеъри ўзбекӣ ҳамсон афтодаанд, ки ин вижагии ҳунари ўро мо дар тарҷумаи «Бӯстон»-и Саъдӣ мушоҳида накардем.

✓ Маълум аст, ки шеъри классикии мо аксаран ба забонҳои халқҳои собиқи Шӯравӣ тарҷумаи таҳтуллафзї шуда, дар ин замина, тарҷумаҳои берӯҳу рамақ низ кам набуданд. Бартарии ин тарҷума дар он аст, ки мутарҷим онро аз нусхаи асл анҷом додааст. Ин ҳам аз вижагиҳои усули тарҷумонии Ш.Шомуҳамедов аст.

Дар ин равиш, Ш.Шомуҳамедов яке аз ғазалҳои машҳури Саъдӣ «Эй сорбон…» - ро бо камоли маҳорат тарҷума кардааст, ки ба нусхаи асл хеле наздик аст. Мутарҷим тавонистааст, маънӣ ва ҳунари Саъдиро дар тарҷума дақиқ ифода кунад.

Маълум аст, ки бисёре аз ғазалҳои Саъдӣ мабдаи олии тасвирӣ доранд. Мусиқии шеър, образнокӣ, лафзу киноя, муқоисаи маънавии таърихӣ аз хусусиятҳои хоси шеъри форсии тоҷикӣ, аз ҷумла анвои

шеъри Саъдӣ мебошад. Дар ин маврид унсури вазн низ аз омилҳои муҳими кашфи аслияти шеър аст.

Ш.Шомуҳамедов дар мисоли тарҷумаи ғазали Саъдӣ «Эй сорбон…» асли ҳунари Саъдиро, ки ном бурдем, риоят ва корбаст кардааст. Вазни шеър, маънию образҳо, усули тасвири матни ўзбекӣ бо ғазали Саъдӣ таносуби комил доранд. Барои тасаввуроти комил ҳосил намудан дар бораи тарҷумаи ин ғазал мо нусхаи аслро оварда, онро дар асоси тарҷумаи Ш.Шомуҳамедов бо тарҷумаи ҳамин ғазал аз тарафи Ҳаёт Неъмат муқоиса мекунем.

Ғазали Саъдӣ:

Эй сорбон, оҳиста рон, к-ороми ҷонам меравад,
В-он дил, ки бо худ доштам, бо дилситонам меравад.
Ман мондаам маҳҷур аз ў, бечораю ранҷур аз ў,
Гўӣ, ки неше дур аз ў, дар устухонам меравад.
Гуфтам, ба найрангу фусун, пинҳон кунам реши дарун,
Пинҳон намемонад, ки хун бар остонам меравад.
Маҳмил бидор, эй сорбон, тундӣ макун бо корвон,
К-аз ишқи он сарви равон, гўӣ равонам меравад.
Ў меравад доманкашон, ман заҳри танҳоӣ чашон,
Дигар мапурс аз дил нишон, к-аз дил нишонам меравад.
Баргашт ёри саркашам, бигзошт айши нохушам,
Чун миҷмаре пуроташам, к-аз сар духонам меравад.
Бо ин ҳама бедоди ў, в-аз аҳди бебунёди ў,
Дар сина дорам ёди ў, то бар забонам меравад.
Боз ою бар чашмам нишин, эй дилситони нозанин,
К-ошўбу фарёд аз замин, бар осмонам меравад.
Шаб то саҳар менағнавам в-андарзи кас менашнавам,
В-ин раҳ на қосид меравам, к-аз каф инонам меравад.
Гуфтам, бигирям то ибил, чун хар фуруў монад ба гил,
В-ин низ натвонам, ки дил бо корвонам меравад.
Сабр аз висоли ёри ман, баргаштан аз дилдори ман,
Гарчи набошад кори ман, ҳам кор аз онам меравад.
Дар рафтани ҷон аз бадан гўянд ҳар навъе сухан,
Ман худ ба чашми хештан, дидам, ки ҷонам меравад.
Саъдӣ, фиғон аз дасти мо, лоиқ набуд, эй бевафо,
Токат намеорам ҷафо, кор аз фиғонам меравад (4, 290-291).

<u>Тарҷумаи Ш.Шомуҳамедов:</u>

Эй сорбон, оҳиста юр, ороми жоним борадур,
Тандин дилу жоним олиб, ул дилситоним борадур.

Қолурмен олис бўлиб, бечораю маъюс бўлиб,
Қалбим фироқ тиғи тилиб, то устухоним борадур.
Дердим қилиб найранг-фусун, сиррим этай пинҳон бу кун,
Пинҳон бўлолмас, чунки хун, дилдан ниҳоним борадур.
Саркаш нигоримдин жудо, айшу қарорим бебақо,
Манқалда оташдек қаро дуд бирла қоним борадур.
Чексамда зулм бедодини, ҳам ваъдалар барбодини,
Кўксимда тутгум ёдини, то ки забоним борадур.
Тўхтат бир оз, эй сорбон, корвонни қилма тез чунон,
Сарви равон ишқида жон, руҳи равоним борадур.
Қайт, кўзларимга қўй оёқ, эй дилфириб, кетма йироқ,
Эй нозанин, кўкка бу чоқ оҳу фиғоним борадур.
То субҳки, уйқу билмадим, носиҳни кўзга илмадим,
Аммо атайлаб қилмадим, қўлдан иноним борадур.
Сабр айла дер менга жарас, ёр васлини қилма ҳавас,
Бу менга лойиқ иш эмас, чун хонимоним борадур.
Ундай чиқар жону бу тан, сабил қолур деб, кўк суҳан,
Тинглаган эрдим, энди ман кўрдимки жоним борадур.
Қилма фиғон, эй Саъдиё, ҳеч арзимас ул бевафо!
Тоқатни қўймас бу жафо, ақлу имоним борадур (1, 131).

Тарҷумаи Ҳаёт Неъмат:

Эй сорбон, оҳиста сур, к-ороми жоним борадур,
Дил менда бор эрди, олиб ул дилситоним борадур.
Мен қолдим ундан айрилиб, бечораю ранжур бўлиб,
Ундан олис хор санчилиб, ул устухоним борадур.
Найрангу афсунла ҳар он, дил захмини тутсам ниҳон,
Қолмас ниҳон, чун остиним узра қоним борадур.
Маҳмилни сақла, сорбон, жавр кўрмасин то корвон,
Ишқин солиб сарви равон, рўҳи равоним борадур.
У боргай доманин тортиб, менга ҳижрон заҳрин ортиб,
Мендан нишон сўрма қайтиб, дилдан нишоним борадур.
Қайтар нишони саркашим, ҳам ўтди айши нохушим,
Бошим, учоқ пур оташим, дуди фиғоним борадур.
Ёрим ҳама бедодидан, ҳам аҳди бебунёдидан,
Айрилмайин ҳеч ёдидан, дилу забоним борадур.
Кўз олдига келгин чунин, эй дилситони нозанин,
Ким, доду фарёдим замин то осмоним борадур.
Тун то саҳарлар ухламай, ҳеч кимса пандин тингламай,
Бу юлни қасдан танламай, қўлдан иноним борадур.

Ёрим висоли сабридан, кечмоқ дилдор баҳридан,
Келмас қулимдан гар бу иш, ишдан имконим борадур.
Нечоғлик жон тандин кетар, кўп сўзлагай халқу башар,
Кўрдим кўзим-ла сарбасар, нечоғ бу жоним борадур.
Саъдий, фиғон қилмоқ раво бизга эмас, эй бевафо,
Йуқ тоқатим қилса жафо, дилдан фиғоним борадур (2,29-30).

Аз сездаҳ байти ин ғазали Саъдӣ Ш.Шомуҳамедов ёздаҳтоашро ба ўзбекӣ гардонда, ду байти дигарашро тарҷума накардааст. Ҳаёт Неъмат ҳамаи сездаҳ байтро тарҷума кардааст. Вале тарҷумаи Ш.Шомуҳамедов нисбат ба тарҷумаи Ҳаёт Неъмат имтиёз дорад. Имтиёзи аввал ин аст, ки ин тарҷума ҳам маънан ва ҳам шаклан ба асли худ наздик аст. Вазн, мусиқӣ ва аносири ҳунарии тарҷума низ ба шеъри Саъдӣ қаробат дорад.

Ҳаёт Неъмат ғазалро баъд аз Ш.Шомуҳамедов тарҷума кардааст ва табиист, ки аз тарҷумаи аввал бехабар набуд. Бинобар ин, дар бисёр мавридҳо барои он ки аз тарҷумаи аввал дурӣ ҷўяд, номуваффақона қаринаи худро дар тарҷума хостааст авлавият диҳад ё натавонистааст ё беихтиёр ба нусхаи тарҷумаи аввал наздик кардааст. Масалан, мисраи аввали байти ғазали Саъдиро бо иваз кардани вожаи “юр” ба “сур” тарҷума кардааст, ки нусхаи Ш.Шомуҳамедов ба феъли “рон”, ки Саъдӣ офаридааст, қарин аст.

Дар тарҷумаи мисраи дуюми ин байт низ Ҳаёт Неъмат муваффақ нашудааст. Ибораи «.. в-он дил, ки бо худ доштам…»-и Ш.Шомуҳамедов ба шакли «тандин дилу жоним олиб…» тарҷума шуддаст, ки оҳанг ва маънии фиқраи Саъдиро хеле дақиқ ифода мекунад. Вале интихоби Ҳаёт Неъмат бар сари фиқра «дил менда бор эрди…» афтодааст, ки аз асл фосила гирифта, нармӣ ва назокати шеъри Саъдиро надорад.

Байти дуюм дар тарҷумаи ҳар ду мутарҷим нуқс дорад. Ш.Шомуҳамедов дар мисраи аввали ин байт ба вожаҳои «маҳҷур» ва «ранҷур»-и Саъдӣ муодили муносиб наёфтааст. Вай ба воситаи таркиби “бечораю маъюб” хостааст, маънии вожаи Саъдиро ифода кунад. Вале тарҷума ба таври дилхоҳ набаромадааст, зеро маънои ранҷур маъюс нест. Мисраи дуюми ин байтро Ш.Шомуҳамедов огоҳона ва устодона тарҷума кардааст. Вале Ҳаёт Неъмат ба ҷои таркибҳои «неше дур аз ў», «дар устухонам меравад»-ро бо «Ундан олис хор санчилиб» тарҷума кардааст, ки бо матни аслӣ мувофиќат надорад. Ҳаёт Неъмат аксаран ҳангоми тарҷумаи калима ба маънии

он эътибор додааст.

Бо вуҷуди ин, Ҳаёт Неъмат баъзе байтҳоро нисбат ба Ш.Шомуҳамедов дақиқтар тарҷума кардаст. Аз ҷумла, Ш.Шомуҳамедов байти ёздаҳуми ғазалро аз асл дур тарҷума карда, ҳатто вожаи «љарас»-ро («жарас») кор аз онам меравад-ро«хонумоним борадур» тарљума кардааст, ки дар матни асл чунин ибора мављуд нест. Ба сабаби аз матни асл дурр шудан маънии байти Саъдӣ дар тарҷума ифода нашудааст. Баръакс, тарҷумаи ин байт аз тарафи Ҳаёт Неъмат дақиқ ва ба сабки Саъдӣ мувофиќ аст.

Аз таҷрибаи ин ду мутарҷим метавон ба хулосае расид, ки шояд барои тарҷумаи дилхоҳ ва дақиқ ҳамкории тарҷумонҳо низ муҳим бошад. Яъне, яке камбудии дигареро метавонад ислоҳ кунад.

Ғазали дигари Саъдиро, ки бо мисраи «Зинда бе дӯст хуфта дар ватане» сар мешавад, низ Ш.Шомуҳамедов ва Ҳаёт Неъмат тарҷума кардаанд. Яке аз вижагиҳои ғазали мазкури Саъдӣ саршори ҳикмат будани он аст. Илова барин, баъзе байту мисраъҳо ба сурати зарбулмасалу мақол даромадаанд. Аз ҷумла, дар ин ғазал байти аввал ҳамин хусусиятро дорад:

Зинда бе дӯст хуфта дар ватане –
Масали мурдаест дар кафане (5, 71).

Тарҷумаи Ш.Шомуҳамедов ба асл наздиктар аст:

Дӯстсиз ётмоқ ватанда,
Мисли мурда кафанда (1, 133).

Ҳаёт Неъмат ин байтро чунин тарҷума кардааст:

Тирик ётмоқ дӯстсиз бир ватанда,
Гўёки, бир ўлик эрур кафанда (2, 157).

Чунонки равшан аст, тарҷумаи аввал аз ҷиҳати маънӣ ва сурат бо асл пайванди қавӣ дорад. Ҳамчунин хусусияти зарбулмасалии байти Саъдиро тарҷумон ифода карда тавонистааст. Дар тарҷумаи сонӣ зиёдаравӣ чашмрас буда, хусусиёти сабки Саъдӣ риоя нашудааст.

Бартарии тарҷумаи Ш.Шомуҳамедовро байти зер низ собит мекунад:

Саъдӣ:
З-он шикан бар шикан қабоили зулф,
Ки балоест зери ҳар шиканаш (5, 71).
Тарҷумаи Ш.Шомуҳамедов:
Сочларинг ҳалқа-ҳалқа,
Бало бор ҳар шиканда (1, 133).

Тарҷумаи Ҳаёт Неъмат:

Ва ул зулфи кажи ҳар ҳалқасида,

Ким офатдир шикан андар шиканда (2, 157).

Дар хотимаи ин ғазал Саъдӣ аз ҳунари хеш ифтихор карда, ишорат ба он мекунад, ки ёр ба қадри ӯ намерасад ва сабаби инро дар ду чиз мебинад: ё дили ӯ санг аст ва ё гӯшаш кар. Ин маъниро нисбат ба Ш.Шомуҳамедов мутарљим, Ҳаёт Неъмат равшантар ва ба асл наздиктар ифода карда тавонистааст (1, 133; 2, 158).

Ш.Шомуҳамедов, илова ба қисме аз ғазалҳо, қасидаи «Баҳория», тарҷеъбанд, пораҳое аз «Соҳибия», қисме аз рубоиёт, муфрадот ва ҳикматҳои Саъдиро низ тарҷума кардааст. Ин тарҷумаҳо дар маънӣ ва сурат яксон нестанд. Вале ба ҳар ҳол, тарҷумон кӯшидааст, ки чеҳраи аслии шоирии Саъдиро ба хонандаи ӯзбек намоён кунад. Аз ҷумла, қитъаи машҳури зерини Саъдиро хеле табиӣ ва дилчасп тарҷума кардааст:

Мардаке ғарқа буд дар Ҷайҳун,
Дар Самарқанд буд, пиндорам.
Бонг мекарду зор менолид,
Ки дареғо, кулоҳу дасторам (3, 339).

Тарҷума:

Самарқандлик этдим мен гумон,
Жайхунга чўкарди бир одам.
Дод солиб, зор йиғлаб бўкирар:
«Оҳ кетди қалпоғим, оҳ саллам» (1, 148).

Ш.Шомуҳамедов аз ҷумлаи рубоиёти Саъдӣ фақат шонздаҳ рубоиро интихобан тарҷума кардааст. Рубоиёти Саъдӣ бо хусусияти тасвириаш фарқ дорад, яъне санъатҳои шеърӣ, ба хусус истиораю киноя дар онҳо мақоми хос доранд. Мутарҷим, ба ҳар ҳол, муваффақ шудааст, ки ҳамин хусусияти сабки Саъдиро ҳангоми тарҷумаи рубоиёти ӯ ҳифз кунад.

Рубоии Саъдӣ:

Ваҳ-ваҳ, ки қиёмат аст, ин қомати рост,
Бо сарв набошад, ин латофат, ки турост.
Шояд, ки ту дигар ба зиёрат биравӣ,
То мурда нагӯяд, ки қиёмат бархост (3, 347).

Тарҷума:

Ваҳ, ваҳ қиёматдир бу тикка қомат,
Сарвда топилмайдур бундай латофат.
Зиёратга борма қабристон томон,

Қабр аҳли бошига солма қиёмат (1, 149).

Ҳамин тариқ, Ш.Шомуҳамедов интихобан муфрадот ва ҳикматҳои Саъдиро низ тарҷума кардааст. Муфрадоти Саъдӣ мисли бештарин осори ӯ хусусияти таълимӣ дорад ва тарҷумони огоҳ ҳангоми тарҷума ин тарзи сухани шоирро бояд риоя кунад. Илова бар ин, фардбайтҳои Саъдӣ вазн ва қофияву радиф доранд, ки дар маҷмӯъ сабки нигориши ӯро таъйин мекунанд. Дар ин замина Ш.Шомуҳамедов то ҷое комёб шудааст.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Саъдий Шерозий шеъриятидан. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК, 1976. – 166 с.
2. Саъдии Шерозий. Ғазаллар. – Тошкент: O’qituvchi, 2006. – 211с.
3. Саъдии Шерозӣ. Куллиёт. Иборат аз чаҳор ҷилд. Ҷилди II. – Душанбе: Адиб, 1989. – 416 с.
4. Шерозӣ. Куллиёт. Иборат аз чаҳор ҷилд. Ҷилди IV. – Душанбе: Адиб, 1990. – 304 с.
5. Саъдии Шерозӣ. Саду як ғазал. – Душанбе: Ирфон, 2008. – 113с
6. Саъдий Шерозий. Ғазаллар. – Тошкент: O’qituvchi, 2006. – 211 с.
7. Найдо Ю. Нақши мутарҷим // Нашри дониш, соли 6, шумораи 4, 1365. – С. 18-25.

CHUSTIYNING TARJIMONLIK MAHORATI

Ergash OCHILOV,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
bo‘lim mudiri, filologiya fanlari nomzodi,
E-mail: e-ochilov@mail.ru. Tel: +998946204764

Annotatsiya: Sharq mumtoz she’riyati an’analari yo‘lida aruzda ijod qilgan g‘azalxon shoir Chustiy ijodining unga shuhrat keltirgan yana bir qirrasi tarjimonlik edi. U Abu Abdullo Rudakiy, Sa’diy Sheroziy, Adib Sobir Termiziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Foniy (Alisher Navoiy), Mirzo G‘olib, Mirzoda Ishqiy, Ja’far Iftixor, Parvin E’tisomiy, Ali Sardor Ja’fariy kabi mumtoz va zamonaviy fors-tojik so‘z san’ati mashhur namoyandalarining asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan zabardast mutarjim hisoblanadi. Maqola ko‘p va rang-barang tarjimalari bilan o‘zbek tarjima adabiyoti xazinasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan sermahsul tarjimon mahoratining ba’zi qirralarini yoritishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Chustiy , tarjimon, tarjima, g‘azal, tag‘azzul, qit’a, vazn, badiiy san’atlar, mahorat.

The main goal of teaching English is to develop students' knowledge and skills through linguistic supports. If students are taught to speak in English in a monologue format using linguistic supports, not only will their speaking skills, cognitive interests, and creative skills when working with text be developed, they will also practice speaking English fluently. Linguistic supports are important in teaching students to speak in monologue form. The concept of “support“ is interpreted differently in English language teaching methodologies. In many scientific works, it is considered a stimulus, an impetus for action. Information can be a cause, and the teacher's task is to teach students to speak in a monologue, correctly managing the information they have heard, read, and seen.

In most cases, linguistic supports can organize speech acts, help them develop in a certain direction, and help students avoid making mistakes when speaking. To use the monologue form of speech, the speaker needs a certain content, he must be able to build sentences based on that content, a monologue is an organized form of speech, therefore, not only individual sentences and utterances, but the entire message must be planned and oriented. Linguistic supports have a great influence on students' monologue speech. Currently, in English language teaching, the use of supports as collages is effective in developing students' speaking skills, as it allows for a comprehensive look at an object and its components, and allows for immediate attention. Based on linguistic supports, it is possible to determine the level of cognitive interest of students in monologue teaching, to teach them to speak in monologues, while monitoring the correct perception of the information they have heard, read, and seen, and

to prove the effectiveness of the method in developing cognitive interest and creativity.

To develop oral communication skills, students need to not only acquire new knowledge in each lesson, but also independently search, analyze, and discuss ideas, improving their development skills. Only then will they be able to speak English fluently. Communicative learning technology plays an important role in the learning process. It is up to the teacher's ability to organize various methods and approaches to provide students with fresh information and interesting tasks. If the modern requirement is to know English, teachers use various teaching methods to ensure that their students learn it well. Any method has its own advantages and disadvantages. The advantages of using information innovation technologies based on communicative learning technology are numerous. Teaching English using communicative methods is called preparing students for communicative language competence, which means that students are ready to use English in practice.

The components of communication include:

1) sender;

2) message carrier;

3) communication channel;

4) receiver;

5) message recipient [8, p. 44].

Linguistic communication includes the sender, the message recipient, their linguistic work and the message itself as a product of language.

Unlike practical subject activity, communicative activity is aimed at establishing relationships between subjects. A person's propensity for communication is defined in psychological and pedagogical research as general communicability. To be communicative, a person must have certain communicative skills. Based on the concept of communication created by G.M. Andreeva, we can name a complex of communicative skills.

The main goal of foreign language teaching is the development of communicative speaking skills, that is, the ability to conduct intercultural and intercultural communication between speakers of the same language and a foreign language speaker.

Developing communicative competence in English lessons at the primary level is essential for fostering confident, effective communicators. Through interactive, student-centered approaches, children not only learn a language but also grow in cognitive and social domains. With appropriate

strategies, supportive teachers, and a communicative classroom environment, primary school learners can thrive as young users of English.

References:

1. G.Neuner Uebungstypologie zum kommunikativen Deutschunterricht. Berlin / Muenchen: Langenscheidt, 2010. c. 236
2. G.Neuner Deutsch aktiv. Berlin/Muenchen:Langenscheidt,2012.c.302
3. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Penguin.
4. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
6. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
7. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press.

TARJIMA XALQLAR O‘RTASIDAGI ISHONCHLI KO‘PRIK

Payziyev Komiljon Sobirovich,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda madaniyat va san’at, xususan, adabiyot, tarjimachilikning o‘rni va roli, ahamiyati Ozbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov publitsistikasi misolida tahlil va tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, asliyat, tarjimon, ma’no, mahorat, badiiylik, so‘zma-so‘z, til, madaniyat, adabiyot, sh’eriyat. uslub.

Abstract: Using the example of the journalism of the Hero of Uzbekistan, People's Poet Abdulla Oripov, the role and significance of culture and art, in particular literature, translation in strengthening friendly relations between peoples in our country is analyzed and studied.

Keywords: translation, originality, translator, meaning, skill, artistry, literality, language, culture, literature, poetry. style.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabrdagi Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida so‘zlagan nutqida adabiyot va san’atni, xususan, internet adabiyotini, tarjimachilikni rivojlantiraish bo‘yicha ham qator vazifalar belgilab berilgan edi. Jumladan, unda bugungi kunda mamlakatimizda internetda “O‘zbek madaniyati” portalini yaratib, uning

tarkibida adabiyot, kino, tarix, san'at, fol`klor portali kabi platformalarni tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta'minlash zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Keyingi 2 yilda (2020-2022) ko‘plab xorijiy mamlakatlarda yurtimiz olim va ijodkorlarining 150 ga yaqin kitoblari, fol`klorimiz namunalari nashr etilganligi, ayni vaqtda adabiyotimiz xazinasida dunyoga namoyish etishga arziydigan asarlar ko‘pligi, shuning uchun bu yo‘nalishda ham ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yib, chet ellik noshir va tarjimonlar bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi va Fanlar akademiyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbarlariga alohida dastur ishlab chiqishi vazifasi yuklatildi. Ushbu anjumanda yana tarjima san'atining naqadar mashaqqatli ish ekanini e’tiborga olgan holda shunday zahmatli mehnatni munosib rag'batlantirish uchun ulug' shoir va tarjimon Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish tashabbusi ham ilgari surildi. [1.]

Darhaqiqat, tarjima va tarjimashunoslik masalasi xalqaro munosabatlar, adabiy aloqalar yangi bosqichga ko‘tariloyatgan bugungi globallashgan davrda har qachongidan ham muhim ilniy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois tarjimachilik bilan bog‘liq an‘analarni davom ettirish, ularni bugungi zamonavuy raqamli texnologiyalar sharoitida yanada rivojlantirish, shu orqali o‘zbek madaniyatini, san’atini dunyoga keng targ‘ib etish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Tarjima haqida jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar, risolalar yaratilgan.[4] Biroq shunday bolsada, hali tarjima bilan bo‘g‘liq hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolar ham mavjud. Xususan,axborot texnologiyalari jadal rivollanib borayotgan, “internet matbuoti”, “internet adabiyoti” shakllanayotgan, tarjima dasturlaridan amalda foydalanilayotgan bugungi tezkor zamonda tarjima bilan boliq yangi-yangi muammolar kun tartibidan o‘rin olmoqda. Tarjima haqidagi ilmiy, ommabop adabiyotlar, tadqiqotlar orasida bevosita shu masala bilan shaxsan o‘zi shugullanib, muyyan tajriba orttirgan, turli muammolarga duch kelgan ijodkorlarning fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini tadqiq etish ham ilmiy va ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning ardoqli shoiri Abdulla Oripov nafaqat she’riyat, dramaturgiya, publitsistika, balki tarjimachiklik rivojiga ham o‘zining salmoqki hissasini qo‘shgan buyuk adibdir. U jahon xalqlari adabiyoti yirik namoyondalaridan Dante Alig'eri, A.S.Pushkin, Lesya Ukrainka, Taras Shevchenko, Qaysin Quliev, Maxatiy Ganjaviy, Yegishe Charents,

Nozim Hikmat, Yen'yo Xel`ton, Xalil Rizo, Xarivanshray Bachchan kabi o‘nlab ijodkorlarning asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan qilgan tarjimalari xalqlar o‘rtasidagi madaniy, adabiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. [3]

A.Oripov turli xalqlar adabiyoti vakillarining asarlarini tarjima qilish bilan birga o‘zining qatot adabiy-tanqidiy maqolalarida tarjima bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi yuzasidan ham o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirgan. Quyida shu haqda so‘z yuritamiz.

Tarjimaning asliyatga mosligi masalasi eng ko‘p muhokamalarga, munozaralarga sabab bo‘ladigan muammolardan biri sanaladi. A.Oripov ham 1977-yilda yozilgan “Yuzinchi ma’no” deb nomlangan publitsistik maqolasida buning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash uchun shunday latifa keltiriladi: “Bir kuni bozorda kimdir Xo‘ja Nasriddinning yelkasiga bor kuchi bilan tushirib qolibdi. Nasriddin orqasiga qarabdi. Shunda notanish kishi o‘sal bo‘lib, uzr so‘rabdi: – Kechirasiz, men sizni Toshmat debman. – Hechqisi yo‘q, ba’zan shunaqasi ham bo‘ladi, – to‘ng‘illabdi afandi. Nasriddin kechqurun Toshmatni ko‘rib qolibdi-yu, uzoq o‘ylab o‘tirmay yoniga borib bor kuchi bilan musht tushiribdi. – Nima gap? – hayron bo‘libdi Toshmat. – Omonatingini ol, og‘ayni. Bozorda bir do‘sting mendan berib yuborgan edi, – javob beribdi afandi va ushbu latifadan xulosa qilib: “Menimcha, tarjimonning vazifasi ham Nasriddinnikiga o‘xshash – olingan zarbani xuddi shu darajadagi zarb bilan yetkaza bilishda,” [2] – deydi adib va ushbu obrazli ifoda orqali o‘quvchida tarjimaning eng nozik jihati, ya'ni uning asliyatga qanchalik yaqin va hamohang bo‘lishi zarurligi haqida yorqin tasavvur uyg‘ota olgan.

“Bizda “Qozonda bori cho‘michga chiqadi”, deyishadi. Tarjimon qozonda yo‘q narsani bor qilsa, bu yomon, qozonda borini chiqarolmaslik ming chandon yomonroqdir. Agar tarjimada vazn, ohang, she’riy satrlar va uslub saqlanmas ekan, o‘zining milliy qiyofasini butunday yo‘qotadi”,[2] – deydi A.Oripov va shu orqali tarjimon erkinligida ham me’yor bo‘lishi va unga qat’iy amal qilish shartligini ta’kidlagan. Bu fikrining isboti uchun shoir Armaniston haqidagi she'rini tarjima qilgan muallif “Bosh urib Yerevan darvozasiga” degan misraning ko‘chma ma’no nozikligini his qilmay, “Boshim bilan urdim Yerevan darvozasiga” deb to‘ridan-to‘g‘ri, so‘zma-so‘z o‘girganligini uchun kulgili holat yuzaga kelganligini misol keltiradi.[2]

Adib bu fikrlarini davom ettirib: “Tarjimada she'riy tilning tabiiyligiga qanday erishmoq mumkin? – deya savol qo‘yadi va bu savolga

o‘zi quyidagicha javob qiladi, – So‘zma-so‘z tarjimada uni berish mumkin emas.”O‘zga til” imkoniyatlarini “o‘z tiling” imkoniyatlariga almashtirish bilan ham ish bitmaydi. Uchinchi ma'qul yo‘lni topish – tarjima qilinayotgan tildan badiiy muqobilini axtarish lozim. Bu esa har gal yangidan hal qilinadigan ijod siridir”, [2] – deydi. Bu fikrini yorqinroq, aniqroq tushuntirish maqsadida bir hikoyatni yodga oladi: “Bedilxonlar vaqti-vaqti bilan uning she'rlarini o‘qish uchun yig'ilib turganlar. Shunday gurunglarda bedilxonlardan biri bitta misraning 99 ma'nosini kashf qilishga muyassar bo‘lgan. Uning g'olibligini hamma birday tan olgan. Ammo, kechasi tushida Bedilning o‘zi namoyon bo‘lib, unga minnatdorchilik bildirgach, misraning yuzinchi ma'nosini aytib bergan ekan”.[2] Ya'ni tarjimaning sifati, mukammalligi tarjimonning bilim va saviyasiga, mahoratiga, o‘z ona tilidan tarjima qilinayotgan asl matnda ifodalangan ma'noni bera oladigan so‘z va iboralarni topib ularni o‘rnida qo‘llay olishiga bog'liqlgini ta’kidlagan.

A.Oripovning “tarjimachilikka ijodiyotning birinchi darajali masalalaridan biri sifatida qarash, uning takomili uchun aniq tadbirlar belgilash, yosh va talantli tarjimonlarni tayyorlash, ular safini kengaytirish, bo‘sh va umri qisqa tarjimalarini chop qildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, yozuvchilar uyushmasi qoshida xolisona ish ko‘radigan, tarjimaga arzirli ishlarni tanlab, sifatini nazorat qilib turadigan badiiy kengash tuzish” [3] takliflari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirrziyoyevning Respublika ma’naviyat-ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida so‘zlagan nutqi) //Xalq so‘zi, 2022-yil 23-dekabr soni.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rt jildli. To‘rtinchi jild. – Toshkent: G‘afur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – B.384.
3. Oripov A. Yuzinchi ma’no. // O‘zbekiston madaniyati, 1975-yil 10-yanvar.
4. Oripov A. Orzuga ayb yo‘q. // O‘zbekiston madaniyati, 1969-yil 26-sentabr.
5. Tarjıuma san’ati. 4-kitob, – Toshkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
6. Salomov G‘. Badiiy tarjima haqida o‘y va mulohazalar. // Tarjima san’ati. (maqolalar to‘plami), 3-kitob. – Toshkent: G‘afur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977. – B.53.

7. Левый И. Анализ перевода. // Исскуство перевода. – Москва: Прогресс, 1974. – С.44.

AI YORDAMIDA AVTOMATIK TARJIMA TIZIMLARINI O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLASH

Yuldosheva Nilufar Yusufovna,
Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosida ishlovchi tarjimon dasturlarining ta’lim sohasida qo‘llanilish imkoniyatlari va texnologiyalari tahlil qilinadi. Xususan, chet tillarini o‘qitish, ilmiy matnlarni tarjima qilish, xorijiy adabiyotlardan foydalanish va o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda AI tarjima tizimlarining tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy tarjima platformalari (masalan, Google Translate, DeepL, ChatGPT, Yandex Translate va boshqalar) ta’limda interaktiv o‘qitish, multimadiali darslar tashkil qilish, va til to‘siqlarini yengib o‘tishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, maqolada AI tarjimonlarining afzalliklari, mavjud kamchiliklari va ularni samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektga asoslangan tarjima texnologiyalarining ta’lim jarayonida moslashuvchan, tezkor va qulay vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, tarjima texnologiyalari, AI tarjimonlar, avtomatik tarjima, chet tillarini o‘qitish, til to‘siqlari, ta’lim texnologiyalari, DeepL, Google Translate, interaktiv ta’lim, raqamli vositalar.

Annotation: This article analyzes the possibilities and technologies of using AI-powered translation tools in the field of education. In particular, it examines the role of AI translation systems in foreign language teaching, scientific text translation, the use of foreign literature, and the development of students' language skills. Modern translation platforms (such as Google Translate, DeepL, ChatGPT, Yandex Translate, etc.) are emerging as important tools for organizing interactive lessons, multimedia-based instruction, and overcoming language barriers. The article also discusses the advantages and existing limitations of AI translators and provides recommendations for their effective use. The results of the study demonstrate that AI-based translation technologies serve as flexible, fast, and convenient tools in the educational process.

Keywords: Artificial intelligence, translation technologies, AI

translators, automatic translation, foreign language teaching, language barriers, educational technologies, DeepL, Google Translate, interactive learning, digital tools.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari so‘nggi yillarda ta’lim sohasida innovatsion o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, AI asosidagi **avtomatik tarjima tizimlari** til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishga imkon beradi. Bu tizimlar mashinaviy o‘rganish, neyron tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) texnologiyalari asosida ishlaydi. Ta’lim jarayonida avtomatik tarjima vositalari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- **Chet tillarni o‘rgatishda yengillik:** Talabalar matnlarni o‘z ona tillariga tez va qulay tarzda tarjima qilish orqali yangi so‘z va iboralarni o‘rganishni tezlashtiradi.
- **Ilmiy va ta’limiy manbalarni kengroq o‘zlashtirish:** O‘quvchilar va o‘qituvchilar chet tillarda bo‘lgan ilmiy maqolalar, darsliklar va qo‘llanmalarni tarjima qilgan holda bilim doirasini kengaytiradi.
- **Til to‘siqlarini bartaraf etish:** Turli millat va tillardan bo‘lgan talabalar o‘rtasida muloqotni osonlashtiradi, shu bilan interfaol o‘quv muhitini yaratadi.
- **O‘z-o‘zini o‘qitishda yordam:** Talabalar uy vazifalarini bajarishda yoki mustaqil o‘rganishda tarjimonlardan samarali foydalanish imkoniga ega bo‘ladi.

Ammo, avtomatik tarjima tizimlarining ayrim cheklovlari ham mavjud. Masalan, kontekstni to‘liq tushunmaslik, madaniy va idiomatik ifodalarni noto‘g‘ri tarjima qilish kabi kamchiliklar bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bu texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashda ularning imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olish zarur. Zamonaviy AI tarjima platformalari – Google Translate, DeepL, ChatGPT, Yandex Translate va boshqalar – doimiy rivojlanib, yanada aniqlik va samaradorlikka ega bo‘lib bormoqda. O‘qituvchilar ularni interaktiv darslar, multimediya vositalari va ta’lim jarayonining individuallashtirilgan shakllarida qo‘llash orqali talabalarning til ko‘nikmalarini yaxshilash imkoniyatiga ega. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim sohasida til o‘rganish va xorijiy adabiyotlardan foydalanish ehtiyojini keskin oshirdi. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish, xalqaro ilmiy manbalarni o‘zlashtirish, va madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishda tarjima texnologiyalarining o‘rni tobora muhimlashib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt (SI) asosida yaratilgan avtomatik tarjimon dasturlar ta’lim jarayonida kuchli yordamchi vositaga aylanmoqda[1].

Sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari – masalan, **Google Translate**, **DeepL**, **Yandex Translate**, hamda zamonaviy **AI-chat botlar (ChatGPT, Gemini va boshqalar)** orqali til o‘rganish samaradorligi oshib, o‘quvchilar matnni tezda tahlil qilish, tushunish va tarjima qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Bu texnologiyalar orqali nafaqat oddiy matnlar, balki ilmiy-texnik matnlar, o‘quv materiallari, videodarslar va darsliklar ham real vaqt rejimida tarjima qilinadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) asosida ishlab chiqilgan tarjimon dasturlari ta’lim jarayonida muhim vositaga aylanmoqda. An’anaviy tarjima usullari ko‘p vaqt talab qilgan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy tarjima texnologiyalari tezlik, aniqlik va qulaylik jihatidan ustunlikka ega. Bunday tizimlar o‘qituvchilarga va talabalar, ayniqsa chet tillarini o‘rganayotganlarga katta yordam beradi. Hozirgi kunda ta’limda eng ko‘p foydalanilayotgan sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Google Translate** – keng tillar bazasiga ega, matn, hujjat va rasmli matnlarni tarjima qilish imkonini beradi.
- **DeepL Translator** – tabiiy tilni tushunish darajasi yuqori bo‘lib, ilmiy va murakkab matnlar tarjimasida aniqligi bilan ajralib turadi.
- **Yandex Translate** – rus va MDH davlatlari tillari bilan ishlashda samarali.
- **ChatGPT, Gemini kabi AI-assistentlar** – foydalanuvchining savollariga javob berish bilan birga, kontekstli tarjima qilish, grammatik tahlil qilish va izohlash imkoniyatiga ega[2].

Tarjima texnologiyalari quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda:

- **Chet tillarini o‘rganishda yordamchi vosita sifatida** – matnlarni tarjima qilish, so‘z boyligini oshirish, grammatika va uslub o‘rganishda interaktiv vosita sifatida ishlatiladi.
- **Ilmiy adabiyotlardan foydalanish** – xorijiy maqolalar, darsliklar va ilmiy hisobotlarni tushunish va o‘zlashtirishda yordam beradi.
- **Ko‘p tilli ta’lim muhitini yaratish** – ayniqsa, xorijiy talabalarga o‘qitilayotgan fanlarda tarjima dasturlari til to‘siqlarini bartaraf etadi.
- **Tarjima qobiliyatini rivojlantirish** – talabalar tarjima jarayonini tahlil qilish orqali tarjimonlik ko‘nikmalarini mustahkamlashadi.

Afzalliklar va imkoniyatlar quyidagicha bo‘ladi:

- Real vaqt rejimida tarjima qilish imkoniyati
- Keng til bazasi va ko‘p funksionallik
- Oddiy interfeys orqali oson foydalanish
- O‘qituvchilar uchun darsni tez tayyorlash imkoniyati

• Talabalar uchun mustaqil o‘rganishga rag‘bat

Kamchiliklar va cheklovlar:

• Har doim ham kontekstni to‘liq tushunmasligi mumkin

• Ixtisoslashgan sohalarda tarjimalar noaniq bo‘lishi mumkin

• Til uslubiga, madaniy konnotatsiyalarga e’tibor yetarli bo‘lmasligi

• Internetga bog‘liqlik va ba’zi xizmatlarning pulliligi

• Texnologik yangiliklar va innovatsiyalar

• **Nevral mashina tarjimasi (NMT)**: bu sun’iy neyron tarmoqlarga asoslangan ilg‘or tarjima usuli bo‘lib, jumlalarni mantiqan to‘g‘ri va tabiiy tarjima qiladi.

• **Real-time tarjima**: nutqni jonli tarzda tarjima qilish imkoniyati (Zoom, Skype kabi platformalarda).

• **Ovozli tarjima texnologiyalari**: audio nutqni tanib olib, boshqa tilga og‘zaki tarjima qilish.

• **Adaptiv tarjima tizimlari**: foydalanuvchi uslubiga moslashadigan SI asosidagi tarjimonlar.

• **Ko‘p tilli model (multilingual model)**: bir nechta tilni bir modelda qamrab olish texnologiyasi, masalan, GPT-4, M2M-100 (Facebook AI).

AI yordamida avtomatik tarjima tizimlarining o‘quv jarayonida qo‘llanishining afzalliklari:

• **Ta’lim jarayonini tezlashtirish va soddalashtirish**.

• AI tarjimonlari murakkab matnlarni tezda tushunarli va oson tilga aylantiradi, bu talabalar uchun o‘zlashtirishni yengillashtiradi. Ayniqsa, chet tillarni yangi o‘rganuvchilar uchun tushunishni osonlashtiradi.

• AI tarjimonlari ko‘plab tillarni qo‘llab-quvvatlaydi, shuning uchun ko‘p millatli ta’lim muhitlarida samarali ishlaydi.

Samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

• **Tarjima vositalarini o‘quv jarayonining qo‘shimcha elementi sifatida qabul qilish-** tarjimonlardan faqat yordamchi vosita sifatida foydalanish, asosiy e’tiborni til o‘rganishning asosiy usullariga qaratish.

• **Tarjima natijalarini tahlil qilish va muhokama qilish-** talabalar bilan birga tarjima natijalarini muhokama qilish orqali xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash.

• **Interaktiv darslarda AI tarjimonlaridan foydalanish- t**alabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqot uchun avtomatik tarjima vositalarini jonli darslarda qo‘llash.

• **Til o‘rgatuvchi dasturlar bilan birlashtirish- ai** tarjimonlarini til o‘rganish platformalari va dasturlari bilan integratsiya qilish.

• Kelajak istiqbollari: AI tarjima tizimlari yanada takomillashib, mashinaviy o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash sohalarida yangiliklar bilan boyitilmoqda. Bu ta’lim jarayonini yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va ko‘p tilli qilish imkonini beradi. Kelajakda AI tarjimonlari nafaqat tarjima, balki tahrir, grammatika va talaffuzni o‘rgatishda ham yanada samarali vosita sifatida xizmat qiladi[2].

Xulosa: Zamonaviy ta’limda sun’iy intellekt yordamida ishlovchi tarjima texnologiyalari o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash va ko‘p tilli muhitda ta’lim olish jarayonlarida AI tarjima vositalari samaradorlikni oshiradi, o‘rganish jarayonini qulaylashtiradi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga mustaqil o‘qish, so‘z boyligini kengaytirish, grammatikani tushunish va tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Shunga qaramay, bu vositalar mutlaqo mukammal emas – ularning kontekstni noto‘g‘ri tushunishi, madaniy yoki til uslubidagi nozik jihatlarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Shuning uchun tarjima texnologiyalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va inson omilining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Yu. Yuldosheva. Methods for determining the scientific and creative potential of a teacher. A collection of materials of the international scientific and practical conference program on the topic of: “Problems and solutions for creating a new image of vocational educational institutions based on international experience and raising personnel training to a quality level” 2024, November 9. 740-742 pages.

2. N.Yu. Yuldosheva. Advantages of Crocadile ICT software in fast and easy calculation of algorithms. Advanced international experience in improving the education system international and technical conference. November 22-23, 267-270 pages.

BADIIY MATN TARJIMASI VA UNING MUAMMOLARI

Hamraeva Mavlyuda Djuraevna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matn tarjimasi jarayonidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etishdagi ilmiy yondashuvlar tahlil

qilingan. Badiiy tarjima faqat tillar o’rtasidagi ko’prik emas, balki madaniyatlar, ruhiyatlar va estetik qadriyatlar aloqasi ekanligi ta’kidlangan. Muallif uslubini saqlash, madaniy realiyalarni to’g’ri ifoda etish, tuyg’u va tasvirlarni asl holda yetkazish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Maqola filologlar, tarjimonlar va adabiyotshunoslar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga egadir.

Kalit so’zlar: badiiy matn, tarjima, madaniy realiyalar, muallif uslubi, tuyg’u, obraz, uslubiy tarjima.

Abstract: This article analyzes the specific features of literary text translation and the main challenges encountered in the process. It emphasizes that literary translation is not a mere linguistic transfer but a complex task involving the preservation of the authors style, imagery, cultural realities, and emotional content. The article discusses key issues such as cultural differences, untranslatable expressions, stylistic integrity, and the difficulty of conveying emotions. The author highlights the importance of professional knowledge and cultural sensitivity for translators. This article holds practical and theoretical value for translators, philologists, and literary scholars.

Keywords: literary text, translation, cultural realities, authors style, feeling and emotion image, stylistic translation.

Tarjima – ilm va san’at. Ilm bo’lganda ham, qanchadan-qancha mutafakkirlaru, ilmu-ma’rifat ahlining hayolini asrlar davomida band etib kelayotgan murakkab ilm. San’at bo’lganda ham, san’atlar shohi. Unga teng keladigan san’at yo’q.

Badiiy tarjima axborot tarjimasidan farqli ravishda, so’zma-so’z tarjima qilishni emas, asarning ma’nosi, ruhi, uslubi va tuyg’ularini yanada boy va to’liq tarzda qayta yaratish jarayonidir. Tarjimon muallifning individual uslubini, badiiy tuzilishini va asarning tuyg’u yukini to’liq his qilishi va qayta ijod etishi lozim. Quyida badiiy matn tarjimasining asosiy o’ziga xos xususiyatlari ko’rib chiqamiz:

•Muallif uslubini saqlash muammosi:

Shoir: Erkin Vohidov. [2]

She’r: «Ona tilim»

Masala: Falsafiy-lirik uslubni boshqa tilga tarjima qilishda yuzaga keladigan uslubiy muammolar

Asl matn (o’zbekcha):

Ona tilim — eng fozil, eng latofatli,

Eng muhabbatli, eng beg’ashamatli.

Umrimning bahori, she’rimning joni,

Tilaklarim tili, ko’nglim tarjimoni.

Ruscha tarjima (so’zma-so’z namuna):

Moy rodnoy yazыk — samыy blagorodnыy,

Samыy utonchyonnыy, samыy lyubimыy,

Vesna moey jizni, dusha moego stixa,

Yazыk moix jelaniy, perevodchik moey dushi.

Muammo tahlili:

1. Poetik ritm va musiqa yo’qolishi

O’zbek tilidagi qofiya va ichki ritm: “latofatli – behashamatli“, “joni – tarjimoni“ kabi ovoz uyg’unligi she’rga musiqa bag’ishlaydi. Ruscha tarjimada bu o’xshashlik saqlanmaydi, shunchaki ma’no beriladi.

2. Metaforalarning bevosita tarjimasi

Tilaklarim tili, ko’nglim tarjimoni” — bu o’ta lirik va kuchli metafora. Rus tilida “perevodchik moey dushi” deb tarjima qilinganda qalamga yaqin ma’no saqlanadi, lekin nazariy ifodaga aylanadi, badiiy ta’sir zaiflashadi.

3. Nafosat va tuyg’uni qayta yarata olish muammosi

“Eng latofatli” bu so’zda faqat “utonchyonnыy” emas, balki milliy, qalbga yaqin tuyg’u bor. Tarjimada bu ruhni saqlab qolish uchun faqat leksik emas, poetik qayta yaratish kerak.

Moslashtirilgan to’g’ri tarjima namunasi (poetik qayta ifoda):

Moy yazыk rodnoy — i chestь, i vdoxnovenьe,

Muzыka dushi, lyubvi otkrovenьe.

Vesna moey jizni, jivaya stroka,

Dushi moey golos, mechtы oblaka.

Bu tarjimada:

- Qofiya, ritm va metafora saqlangan,
- Muallifning yurakdan chiqqan tuyg’usi qayta yaratilgan,
- Va o’quvchida asliy ta’sirni qoldiradi.

Abdulla Qodiriyning lirik-ironik uslubini tarjimada saqlash muammosi [3]

Asl matn (o’zbek tilida):

“Otabek uchun bu so’zlar, bu gaplar o’q bo’ldi. Yuragiga botdi. U, balki, u bilan yurakning yig’isi kelib ketdi. Lekin yig’lamadi.”

Ruscha tarjima (taqlidiy):

“Dlya Otabeka eti slova bыli kak strelы. Oni pronzili yego serdtse. Vozmojno, yemu zaxotelosь zaplakatь, no on sderjalsya.”

Muammo tahlili:

1. Qodiriy uslubi – ehtiyotkor, lirik va bir oz dramatik. U “yurakning

yig’isi kelib ketdi“ deydi, bu bevosita emas, obrazli va badiiy ifoda.

2. Rus tarjimada – so’zma-so’zlik va yopiq tarzdagi tarjima sababli Qodiriyning yurakka ta’sir qiluvchi obrazi yo’qoladi.

3. “Yurakning yig’isi kelib ketdi” — bu poetik ibora, u qalb og’rig’ini, ehtirosni, lekin hech qanday hisni ochiq ifoda qilmaslikni anglatadi. Bunday liriklikni boshqa tilda qayta yaratish uchun ekvivalent poetik ifoda kerak bo’ladi

• Obraz va muhitni tarjimada individual yondashuv

– Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi tarjimalarida obraz va muhitni to’g’ri ifoda qilishda turli tillarda individual yondashuvlar kuzatiladi [4] Asar: Chingiz Aytmatov – Jamila Qahramonlar: Jamila, Daniyar Mavzu: Ishq, erkinlik, ichki ozodlik, qishloq muhiti Tillar: Qirg’izcha (asl), ruscha (Tursunzoda tarjimasi).

Misol – Daniyarning kuylash sahnasi:

Asl matn (qirg’iz tilida):

«Daniyar үnүn kөtөrүp, keң talaada jaңыgыp ыrdap jiberdi. Anыn үnү too arasыnan jaңыgыp, jondu tiriltkendey uguldu...»

Rus tilida (A. Tursunzoda):

«Daniyar podnyal golos i zapel. Yego golos razlivalsya po stepi, otrajayasь ot gor, i kazalosь, budto sama priroda ojivala ot yego pesni...»

Tahlil: 1. Obraz – Daniyarning qo’shiq kuylashi orqali uning ichki dunyosi, muhabbati, tabiat bilan uyg’unligi namoyon bo’ladi. Bu faqat harakat emas, balki simvolik holat: uning erkin va pok hissiyotlari qishloq muhitida jonlanadi.

2. Muhit – qo’shiqning tog’lar va keng dalada yangrashi orqali faqat jismoniy muhit emas, balki ruhiy muhit ham berilgan. Rus tarjimoni bu holatni o’z uslublarida qayta ifoda etishgan:

Ruscha tarjimada “sama priroda ojivala” – tabiatning uyg’onishi, badiiy obraz orqali ko’rsatilgan.

3. Individual yondashuv – har bir tarjimon o’z madaniyati va til imkoniyatlaridan kelib chiqib, bir xil voqeani turlicha bayon qiladi. Buning ortida ularning tildagi poetik vositalardan foydalanish uslubi turibdi.

• Madaniy realiyalar muammosi

Dunyo tillari leksik sistemasi tarkibida uchraydigan, ular lug’at boyligining bir qismini tashkil etuvchi milliy realiyalarning tavsif va tasnifi, ularning tilda paydo bo’lish omillari, ayniqsa, milliy realiyalarni tildan-tilga o’girish masalalari soha mutaxassislarining diqqat e’tiborida bo’lib kelayotgan bo’lsa-da, hozirgacha o’zining to’la ijobiy yechimini topgan emas [5]. Ko’pgina badiiy asarlarda xalqning milliy urf-odatlari,

tarixiy va etnografik elementlari aks etadi. Ular tarjima qilinganda ma’lum ma’noda yo'l berish yoki ekvivalent topish zarurati tug’iladi.

Masalan: “Osh”, “Navro’z”, “ Tosh qozon ” so’zlarini boshqa tilga to’liq tarjima qilib bo’lmaydi; ularni izoh bilan berish yoki saqlab qolish kerak bo’ladi.

Misol – “osh” so’zi

Asl matn (o’zbek tilida):

“To’yda osh berildi, dutor sadolari tingladi.”

Ruscha tarjima (so’zma-so’z):

“Na svadьbe podali plov, zazvuchali zvuki dutarы.”

Tahlil: • “Osh” – bu faqat ovqat emas. O’zbek madaniyatida “osh berish” muayyan ijtimoiy marosim, tuyg’u, buyuk ma’naviy an’anadir. To’y, aza, xatna kabi holatlarda osh tarqatilishi muayyan ma’no va ramzga ega.

• “Plov” so’zlari bu madaniy yoki ruhiy ma’nolarni aks ettira olmaydi. Ular faqat taomni anglatadi, uning ijtimoiy konteksti yo’qolib ketadi.

Xulosa: Madaniy realiyalar, jumladan, osh, saharlik, xatna, so’r, chapan, tog’ora, va boshqalarni tarjimada so’zma-so’z berish o’quvchida noto’g’ri yoki nomukammal tasavvur uyg’otadi. Shu sababli, badiiy matn tarjimasida bunday so’zlar uchun: • ekvivalent topish, • izoh berish,

• yoki lotin yozuvida qoldirib, izohni qavs ichida keltirish kabi usullar qo’llaniladi.

Navro’z – bahor bayrami

Asl matn (o’zbekcha): “Navro’zda hamma bir joyga yig’ilib, sumalak tayyorlashardi.”

Ruscha tarjima: “Na Navruze vse sobiralisь vmeste, chtobы prigotovitь sumalak.”

Muammo: • Navro’z so’zini so’zma-so’z “Novыy denь ” deb olish noto’g’ri, chunki bu bayramning ruhiy-ma’naviy, tabiiy va farxli jihatlari ham bor.

• Sumalak ham madaniy realiya, uni “sladkaya pshenichnaya pasta“ deb tarjima qilish mumkin, lekin ma’naviy ramz sifatida (musobaqa, birlik, sabr ramzi) tushuntirilmasa, ma’no kamayadi.

Tosh qozon – qadimiy taom tayyorlash idishi

Asl matn: (o’zbekcha):

Misol • O’zbekcha: “Onam tashqaridan katta tosh qozonni olib keldi, uni otashga qo’ydik.” • Ruscha (soddalashtirilgan):

• “Mama prinesla bolьshoy kamennыy kotel, mы postavili yego na

ogonь.”

• Ruscha (izohli): • “Mama prinesla bolьshoy kamennыy kotel (tosh qozon – traditsionnыy uzbekskiy kazan iz kamnya), mы postavili yego na ogonь.”

Muammo: • “Kamenny kotel” ifodasi so’zma-so’z, lekin to’y oshining ma’naviy qiymati, “tosh qozon”ning simvolik og’irligi tarjimada aks etmaydi. “Tosh qozon” orqali o’tkaziladigan tadbirlar, birga ovqatlanish, mehmonxonlik kabi urf-odatlar o’zbek xalqining madaniy realiyasining ajralmas qismi.

Badiiy matn tarjimasi nafaqat tillararo so’zlarni almashtirish, balki ikki xalq madaniyati, dunyoqarashi va badiiy tafakkuri o’rtasidagi ko’prik vazifasini bajaradi. Bu jarayonda muallif uslubini saqlash, madaniy realiyalarni to’g’ri ifoda etish, tuyg’u va obrazlarni qayta yaratish, poetik musiqa va ritmni yo’qotmaslik tarjimon oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Maqolada ko’rib chiqilgan misollar shundan dalolat beradiki, badiiy matn tarjimasiga so’zma-so’z yondashuv yetarli emas; bunday tarjima matnning ma’naviy-ruhiy yukini kamaytiradi, hatto muallif niyatini noto’g’ri tushunishga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun, badiiy tarjima jarayonida tarjimon nafaqat til mutaxassisi, balki ijodkor sifatida ham harakat qilishi, tarjima qilinayotgan asarning ruhini, muhitini va uslubiy xususiyatlarini his etib, o’z ona tilida uni qayta badiiy yaratishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima murakkab va javobgarlikka boy jarayon bo’lib, u yuqori til madaniyati, badiiy tafakkur va madaniy ko’p qirralilikni talab qiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tarjima nazariyasi va amaliyoti yanada takomillashtirilishi zarur. Bu sohadagi izlanishlar va tajribalar tarjimonlik mahoratlarini mustahkamlash bilan birga, xalqlar o’rtasidagi ma’naviy aloqalarni ham chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.V. Fyodorov. Xudojestvennыy perevod i yego osobennosti. – Moskva, 1983.
2. Vohidov E. Ona tilim (she’rlar to’plami) – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1990.
3. Qodiriy A. O’tgan kunlar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, turli nashrlar.
4. Chingiz Aytmatov. Jamila. – O’zbekcha va ruscha nashrlar taqqoslama tahlili.
5. Salomov G’., Komilov N. Tarjimon mahorati. – Toshkent, 1979.

ÖZBƏK DILINDƏ İŞLƏNƏN NİDALAR (AZƏRBAYCAN DİLİ İLƏ MÜQAYİSƏLİ ŞƏKİLDƏ)

Aynur Cəfərova ,
Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti
Türkoloji mərkəzin türk dili bölməsinin mütəxəssisi,
Bakı/ Azərbaycan
ceferova1987@internet.ru

Xülasə: Dünya dilləri qədim dövrdə az sayda olsada zamanla yeni dillər formalaşmış və bir çox yeni dillər yaranmışdır. Bu dillər bir kökdən törəyən qohum dilləri adlanır, bu qohum dillərə, həmçinin dil ailəsi də deyilir. Qədim dillərdən biridə Türk dilləri ailəsidir. Türk dillər ailəsinə daxil olan dillərdən biridə qarluq qrupuna mənsub olan Özbək dilidir. Özbək dili Özbəkistan dövlətinin rəsmi dövlət dilidir. Özbək dili Türk dilindən sonra ən çox işlədilən ikinci bir türk dilidir. Türk dillərinə nəzər yetirdikdə görürük ki, türk dilləri ailəsinə daxil olan dillər bir-birinə leksik, morfoloji və sintaktik cəhətdən çox yaxındır. Azərbaycan dilində olduğu kimi Özbək dilində də nidalar (ündav) danışanın qorxu, sevinc, kədər, heyrət kimi duyğu və həyəcanını bildirən, həmçinin səslənmə və çağırmaya yarayan köməkçi nitq hissəsidir. Özbək dilində işlənən nidaları incələdikdə bəzi fərqli xüsusiyyətləri olması ilə yanaşı Azərbaycan dilində işlənən nidalara bənzərliyinin, həmçinində ümumui türk dilləri ailəsinə məxsus dil xüsusiyyətlərini özündə daşıdığının şahidi oluruq.

Açar söz: Özbək dili, Azərbaycan dili, Türk dilləri, nidalar, nidaların işlənməsi.

Summary: Although the world's languages were few in number in ancient times, new languages have been formed over time and many new languages have emerged. These languages are called related languages that originate from the same root, and these related languages are also called language families. One of the ancient languages is the Turkic language family. One of the languages included in the Turkic language family is the Uzbek language, which belongs to the Karluk group. The Uzbek language is the official language of the state of Uzbekistan. The Uzbek language is the second most widely used Turkic language after the Turkish language. When we look at the Turkic languages, we see that the languages included in the Turkic language family are very close to each other in terms of lexical, morphological and syntactic aspects. As in Azerbaijani, exclamations (undav) in Uzbek are auxiliary parts of speech that express the speaker's feelings and excitement, such as fear, joy, sadness, surprise,

and also serve to call out and call. When we examine the exclamations used in Uzbek, we see that, in addition to having some different characteristics, they are similar to the exclamations used in Azerbaijani, and also have linguistic characteristics belonging to the general Turkic language family.

Key words: Uzbek language, Azerbaijani language, Turkic languages, exclamations, processing of exclamations

Dünya dilləri ilk dövrlərdə çox az sayda olmuş, zaman keçdikcə bir dildən yeni dilllər formalaşmışdır. Bu gün dünyada 3500- dən çox dil vardır. Bu dillərin çoxu bir kökdən törəyən qohum dillər adlanır, bu qohum dillərinə dil ailəsi də deyilir. Qədim dillərdən biridə ulu Türk dilləri ailəsidir. Türk dilləri ailəsinə daxil olan Özbək dili özünə ən yaxın dil olan Uyğur dili ilə birlikdə türk dillər ailəsinin qarluq qrupuna mənsubdur. Özbək dili həmçinin, Çağatay dilinin bir davamı kimidə özünü göstərir. Özbək dili Özbəkistan dövlətinin rəsmi dövlət dilidir. Özbək dili dünya miqyasında 44 milyon insan tərəfindən həm ana dili , həmdə ikinci dil olaraq işlədilir. Özbək dili Türk dilindən sonra ən çox işlədilən ikinci bir türk dilidir. Özbək dilinin iki növü vardır: Özbəkistan, Qırğızstan, Qazaxstan, Tacikstan, Türkmənistan və Çində istifadə olunan şimal Özbək dili və Əfqənistan, Pakistanda danışılan cənub Özbək dili. Özbəklər 1930 –cu ilə qədər ərəb əlifbasından istifadə etmişlər. 1930-1940 –cı illər arasında latın , 1940 –cı ildən etibarən isə kiril əlibasından istifadə etmişlər. 1992-ci ildən bəri isə yenidən rəsmi olaraq latın əlifbasına keçmişlər.

Türk dillərinin qrammatikasına nəzər yetirdikdə görürük ki, türk dilləri ailəsinə daxil olan dillər bir-birinə leksik, morfoloji və sintaktik cəhətdən çox yaxındır. Bu isə bir daha bu dillərin bir ana dilindən ayrılıb inkişaf etdiyini göstərir. Həm də, onu da qeyd etməliyiki türk dillərində olan yaxınlıq başqa dillərdən seçilir. Belə ki, bu ailəyə daxil olan dillər bir-birindən çox az fərqlənir. Bunu Azərbaycan dilinin morfologiyasına daxil olan nidalarla Özbək dilində işlənən nidaları tarixi müqayisəli metodla müqayisə etməklə görmək olar. Nidalar bir termin kimi ərəb mənşəli söz olub, mənası "çağırma, səslənmə" deməkdir. Nitq hissələri içərisində xüsusi yeri olan nidalar türk dillərində olduqca zəngin və rəngarəngdir. Türkologiyada nidaların hamı tərəfindən qəbul olunmuş vahid təsnifi yoxdur. Nidaların az tədqiq edilməsi, bəzi oxşar cəhətlərinə görə təqlidi və vokativ sözlərin nidalara daxil edilməsi, nidaların spesifik çoxmənalılığının nəzərə alınmaması bu məsələnin həllini çətinləşdirmişdir. Bu baxımdan türkoloji ədəbiyyatda nidaların leksik-semantik bölgüsünə dair mövcud təsniflər qüsurludur. Bəzi əsərlərdə isə nidaların spesifik

çoxmənalılığı nəzərə alındığından verilmiş təsniflər də qismən müvəffəqiyyətli olmuşdur. Azərbaycan dilçiliyində ilk dəfə Mirzə Kazımbəyin 1840-cı ildə yazdığı "Türk-tatar dilinin ümumi qrammatikası" adlı əsərində nida barəsində geniş məlumat verilmişdir. Çox sonralar ali məktəblər üçün yazılan "Müasir Azərbaycan dili" adlı dərs vəsaitində nitq hissələri müstəqil mənasına, morfoloji əlamətinə və sintaktik roluna əsasən müstəqil nitq hissələri (isim, sifət, say, əvəzlik, feil, zərf), köməkçi nitq hissələri (qoşma, bağlayıcı, ədat), nida kimi ayrılmışdır. Lakin qeyd etmək lazımdır ki, dərsliyin müəllifi Muxtar Hüseynzadə yenidən təkmilləşdirdiyi eyni adlı dərsliyində isə nida və yamsılamaları xüsusi nitq hissəsi qrupuna aid etmişdir.[Hüseynzadə. 2007. 268]. Azərbaycan dilində olduğu kimi Özbək dilində də nidalar danışanın qorxu, sevinc, kədər, heyrət kimi duyğu, həyəcanını bildirən, həmçinin səslənmə və çağırmaya yarayan köməkçi nitq hissəsidir. Özbək dilində nidalar " ündav " termini ilə adlandırılmaqdadır. Digər köməkçi nitq hissələrindən fərqli olara Özbək dilində türkmənşəli nidalar daha çoxdur. Bir səsdən, iki səsdən və ya tərkibi nidalar özbək dilində də mövcuddur. Məsələn*: ah, eh, əh, ih, iy, ov uh, oh, ibi, oho, poşt, cim, xəh, xob, xop, heh, hah, huv, vah, xayt, vayboy, himm, ebiy, ah-ah-ah, dad, xuda, fu, eh-he, xaxa-xa* və s. Özbək dilndə istifadə olunan nidalar Azərbaycan dilində olduğundan az fərqlənməkdədir. Belə ki, hiss və duyğuları ifadə edənlər: *åbbå (vay), våh (vay), våy (vay), åh (ah), å (ah, eh), uh, uf, åv (of), tüf (tfu), oho, ättäng (yazıq), dåd (imdad), bäy-bäy (heyrət, və nifrət bildirən nida), esiz (təəssüf), hox-hö (heyrət etmək), bälli (aferin)* [Eynel. 2018. 176].

Azərbaycan dilində nidaları leksik cəhətdən iki qrupa bölmək olar. Emosional nidalar və əmr və müraciət bildirən nidalar. Özbək dilindədə nidaları türk dilçi alimi Mustafa Volkan Coşkun Özbək Türkçəsi Grameri kitabında duyğu nidaları, səslənmə nidaları, göstərmə və cavab nidaları olaraq qruplaşdırmışdır. [Coşkun. 2017.194-199].

Emosional (duyğu) nidaları Azərbaycan dilində olduğu kimi Özbək dilindədə hiss- həyəcan, tələş, əzab, təəssüf, təəcüb vs. hissləri bildirir: Təəccüb bildirənlər: *a (a, e), abba (vay,), afsüs (əfsus), ah (ah), ah (eh) , attang (yazıq)* vs. Özbək dilində 179 nida qeydə alınmış bunların içərisində yalnız 44-ü təəccüb bildirən nidadır [6. .115].

Heyrət, nifrət, acıma bildirənlər: *vay (vay), dad (imdad), bay-bay (boy- boy),darığa (yazıq), ey darığ (yazıq), Vay-da-ad (vay dad)* vs. Təəssüf bildirənlər: *eh (eh), esiz (təəssüf, təəssüf ki), fyüşt (a, eləmi), hayfki (heyif) , üf (öf)* vs.

Əmr və müraciət bildirən nidalar əsasən isimlər və ya

ünvanlardan əvvəl işlənir, xitab, səslənmə kimi işlənirlər: *ayyühannas (ey insan), ey (ey), hay (hey), hav (hey), hay (haray), marhamat (buyurun , xahiş edirəm), poşt (çəkilin)* vs.

Özi addiy bir karnay, Tili yoq, sözlar hay-hay,[Coşkun . 2017. 234]

Özbək dilində Azərbaycan dilindən fərqli olaraq göstərmə ədatları da işlənir, göstərmə ədatları sifət və əvəzliklərdən fərqli olaraq isimləri , şəxsləri deyil hərəkətləri işarə etməklə göstərən sözlərdir. Bunlar *ana, ma, mana* və *ta* nidalarıdır : *Mana, Mayram endi meniki boldi. (Burada, Məryəm artıq mənim oldu). [Coşkun , 2017. 197]*

Özbək dilində cavab nidalarıda işlənir bunlar cümlə içində başqa sözlərlə bağlı olmadan tək başına bir məna ifadə edən sözlərdir: *ari(y) (bəli), albatta(əlbətdə), ha (bəli, hə), havva (bəli), xoş (oldu, bəli), xop (bəli, olar), labbay (bəli, buyur), yoq (xeyr)* vs. Bu nidalar Azərbaycan dilində olduğu kimi Özbək dilində də ən çox dialoqlarda istifadə olunur.

Özbək dilində işlənən nidalar və onun işlənməsi ilə Azərbaycan dilində işlənən nidalar və onun işlənməsini müqayisə edərkən bir daha görürür ki, az bir fərqlə bir –birindən fərqlənsələrdə, oxşar xüsusiyyətləri daha çoxdur. Bu isə ilk növbədə onu göstərir ki, eyni bir kökdən gələn dillər arasında qırılmaz bir bağ vardır, zamanla dəyişilklər olsada dil öz qanunauyğunluqlarını özündə qoruyub saxlaya bilir, bir sözlə bu bağlılıq türk dillərinə daxil olan dillərdə daha güclü və qırılmazdır.

Ədəbiyyat:

1. M. Hüseynzadə. Müasir Azərbaycan dili . Morfologiya, Şərq-Qərb , Bakı 2007.s, 279.
2. Mustafa Volkan Coşkun. Özbek Türkçesi Grameri.Türk dil Kurumu Yayınları, Ankara, 2017, s, 250.
3. Кононов, А.Н. Грамматика узбекского языка. Ташкента, 1948.
4. Prof. Dr. Ahmet Bican Ercilasun. Türk lehçeleri grameri. Akçağ Yayınları. Ankara 2021.s. 1394
5. Eynel, S. Özbək türkçesinde ünlemler, Doktora tezi, 2018, s.115 https:// www.academia.edu /62752549/%C3%96zbek_T%C3%BCrk%C3%A7esinde _%C3%9Cnlemler
6. Türk yazı dilləri, https://ets.anadolu.edu.tr/storage/nfs/TDE303U/ebook/TDE303U-11V3S1- 8-0-1-SV1-ebook.pdf s.176

O‘ZBEK VA INGLIZ FOLKLORSHUNOSLIGIDA MAQOLNING POETIK XUSUSIYATLARI HAQIDAGI QARASHLAR XUSUSIDA

Toshpo‘latova Dildora Ikromjon qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: toshpolatovadildora1@gmail.com
Tel: (+99891) 368-23-44

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va ingliz folklorshunoslarining maqolning poetik xususiyatlari haqidagi qarashlariga munosabat bildirilgan. Xususan, o‘zbek va ingliz maqollaridagi o‘xshash va o‘ziga xos jihatlar tahlilga tortilgan. Jumladan, o‘zbek xalq maqollarining she’riy hamda nasriy shaklda, ingliz xalq maqollarining esa bir va ko‘p deskriptivli ekanligi xususidagi olimlar fikrlari o‘rganilgan. O‘zbek she’riy maqollarida vazn masalasiga ham alohida e’tibor berilishi, ingliz maqollarida esa aksincha, she’riy maqollar mavjud bo‘lmagani sabab vazn emas, balki qofiyaning muhim vosita ekanligi haqidagi fikrlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: poetik xususiyatlar, mushtaraklik va o‘ziga xoslik, vazn hamda qofiya.

Annotation: The article discusses the views of Uzbek and English folklorists on the poetic characteristics of proverbs. In particular, it analyzes the similar and unique aspects of Uzbek and English proverbs. It includes scholars' opinions that Uzbek folk proverbs exist in both poetic and prose forms, whereas English folk proverbs are typically single-line and multi-line descriptive. It is noted that meter is important in Uzbek poetic proverbs, while there are no poetic proverbs in English, making rhyme an important device.

Key words: poetic features, commonality and uniqueness, meter and rhyme.

Maqol har bir xalqning ma’naviy xazinasi hisoblanishi barobarida muayyan xalqning donishmandligini o‘zida mujassam etadi. Har bir xalq tilida yaratilgan maqollarni shakliy tuzilishi, obrazlar tizimi va badiiy tasvir va ifoda vositalari nuqtai nazaridan qiyoslaganda, ularning o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Xususan, o‘zbek va ingliz paremiologiyasida ushbu janrning poetik jihatlari bir-biridan farq qilishi bilan birga, bir qancha mushtarakliklarga ham ega. B.Soatov

maqolga xalq moddiy, ma’naviy madaniyatining o‘ziga xosligini, rivojlanish darajasini ixcham shaklda aniq va lo‘nda aks ettiruvchi janr sifatida ta’rif beradi. [Soatov, 1994:3]. Maqollarning janr spetsifikasi, tuzilishidagi barqarorlik va mazmuniy evolyusiya, badiiy ifoda hamda tasviriy vositalar kabi masalalar haqida fikr yuritadi. O‘z ilmiy izlanishlarida maqollarning janr xususiyatlari haqida chuqur to‘xtalar ekan, u maqollar eng avvalo, real voqelikdagi narsa va hodisalar, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar haqida keng xalq ommasining yoki muayyan miqdordagi kishilar jamoasi, guruhining qat’iy hukmi sifatida yuzaga kelishini ta’kidlaydi. [Soatov, 1994:8].

Maqollarda shakl va mazmun munosabati jahon tillarida turlicha bo‘lib, bu ularning ma’noni chuqur va to‘liq ifodalashda qaysi shakl ko‘proq darajada ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. “Xalq maqollarining shakliy tuzilishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, ko‘pgina tadqiqotchilar xalq maqollari ham nasriy, ham she’riy tuzilishga ega deb hisoblasalar, ayrim tadqiqotchilar maqollar she’riy tuzilishga ega emas deb hisoblaydilar”. [Soatov,1994:79]. Jumladan, M.A.Рыbnikova, M.P.SHtokmar, B.Tilavov, S.G.Lazutin, M.Alimboev, T.Nietullaev, B.Sarimsoqovlar nasriy va she’riy shakldagi maqollar mavjud, degan fikrni yoqlaydilar. [Soatov, 1994:79]. Z.Tomashevskiy, V.P.Anikinlar esa maqollar faqat nasriy shaklda uchraydi deb hisoblaydilar. [Soatov, 1994:79]. O‘zbek paremiologik xazinasida har ikki shakldagi maqollar uchrasa-da, she’riy shakldagi maqollar nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, B.Soatov o‘z ilmiy izlanishlarida bir va ko‘p deskriptivli o‘zbek xalq maqollari poetikasini chuqur o‘rganib, ikki deskriptivli maqollarning boshqa shakldagi maqollarga qaraganda ko‘proq ekanligini ilmiy asoslab bergan.

Ingliz folklorshunosligida maqollarni she’riy yoki nasriy shaklga ajratish emas, balki bir va ko‘p deskriptivli maqollar sifatida o‘rganish tendensiyasi kuchli. Jumladan, A.Dandis, V.Mider va N. Norrikning tadqiqotlarida ushbu yuzasidan to‘liq ma’lumotlar keltirilgan. [Soatov, 1994:45]. Ta’kidlash kerakki, ingliz xalq maqollarida ikki deskriptivli maqollar katta qismdan iborat.

Maqollarning xotirada saqlanib qolishi birinchi o‘rinda ulardagi ritmik ohangdorlik bilan bog‘liq. B.Soatov ta’kidlaganidek, xususan, ohang deskriptiv qutblar orasidagi munosabatlarning zohiriy belgisi bo‘lib, u qisqa tin olish orqali seziladi. [Soatov, 1994:46]. Nafaqat she’riy, balki nasriy maqollarda ham bu xususiyat etakchilik qiladi. Jumladan, *YUlg‘ich yulib to‘ymas* maqolida o‘ziga xos ritmik shakl mavjud. *YUlg‘ich* –

o‘zgalarning, jamoatning mol-mulkini o‘zlashtirishga, shu yo‘l bilan boylik orttirishga, qanday qilib bo‘lmasin, birovdan bir nima undirib, shundan foydalanib qolishga harakat qiluvchi, faqat shuning fikru xayolida yashovchi shaxs, degan mazmunni o‘z ichiga jamlagan yuqoridagi maqol *YUlg‘ich odam yulib olsa ham to‘ymaydi* shaklida bo‘lganda, ohangdorlik yo‘qolardi va uning oddiy nutqdagi gapdan farqi qolmas edi. Nasriy maqollarda ritmik ohangdorlik etakchilik qilsa-da, kuchli istioraviy ko‘chim asosiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday bu maqolda *yulg‘ich* metaforasi yordamida mazmun bo‘rttirib ifodalanmoqda. Nasriy shakldagi maqollar uchun vazn hamda qofiya yot hisoblanadi, buning sababi ularning she’riy shakldagi maqollardan farqli o‘laroq, juda ixcham qolipga ega ekanligidadir. Aksariyat o‘z ma’nosida qo‘llangan maqollar uchun ritmik ohangdorlikning o‘zi etarli hisoblansa, ko‘chma ma’noli maqollarda istioraning ham mavjud bo‘lishi asosiy shartlardandir. Jumladan, *YAntoq gullasa, chilgi pishar; Odobli bola elga manzur;Urushning kengashi yo‘q; YOmg‘ir – ekinning joni; Boshliq bo‘lsang, boshli bo‘l; Er yigitni nomus o‘ldirar; To‘ygan erdan tuqqan er yaxshi; O‘g‘rini qaroqchi urar; Qimirlagan – qir oshar* kabi nasriy maqollarda ritmik ohangdorlik hamda istioraviy ko‘chim yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Nasriy maqollarda vazn va qofiya mavjud emasligining yana bir sababi, ular bir deskriptivli shaklda bo‘lib, bitta mantiqiy qutbdan tashkil topadi. Bir deskriptivli maqollar ustida fikr yuritgan o‘zbek va ingliz paremiologlarining ikki xil nuqtai nazarining guvohi bo‘lamiz. A.Dandis bir deskriptivli maqollar noziddiy munosabatga, ikki va undan ortiq deskriptivli maqollar esa ziddiy va noziddiy munosabatga ega deb hisoblaydi. [Dundes, 1975:970]. B.Soatov esa Dandis ko‘rsatgan “mavzu” va “izoh” usulini yoqlasada, bir deskriptivli maqollarda ham ikki deskriptivli kabi ziddiy hamda noziddiy munosabatga ega ekanligini ko‘rsatib beradi. [Soatov, 1994:47-48]. Zotan, ingliz tilidagi *Opposites attract, The clothes make the man, Better safe than sorry* kabi bir deskriptivli maqollarda ham bunday mantiqiy paradoksni ko‘rishimiz mumkin.

“Maqol janri tarixan bir deskriptivli shaklda paydo bo‘lgan. Falsafiy va badiiy tafakkurning taraqqiyoti jarayonida murakkab hodisalarni qiyoslash yoki bir-biriga zid qo‘yish orqali ibratli xulosalar chiqarish, bizningcha, maqollarda asosan izohlovchi komponentlarning kengayishi evaziga aks eta borgan. SHu tariqa ikki, uch, to‘rt va ko‘p deskriptivli maqollar vujudga kelgan.” [Soatov, 1994:50]. Ushbu fikrlardan

quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin: maqollar dastlab nasriy ko‘rinishda bo‘lgan, vaqtlar o‘tishi bilan ulardagi keraksiz qismlar iste’moldan chiqib, vaqt, zamon va makonga hamnafas qismlar qo‘shilib borgan. Adabiyotning rivoji unda vazn, qofiya kabi unsurlarning paydo bo‘lishiga hamda maqolning she’riy shakllarda qo‘llana boshlashiga sabab bo‘lgan.

O‘zbek xalq she’riy maqollari asosan ikki, to‘rt hamda olti misrali bandlar shaklida tuzilishga ega bo‘lib, barmoq vaznida yuzaga kelgan. Ikki misrali maqollar ikki deskriptivga ega bo‘lib, ko‘p holatlarda binar zidlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi: *Bor bo‘lsa etar, Yo‘q bo‘lsa ketar; YOshga – xizmat, Qariga hurmat; Kuyovni o‘g‘il bil, kelinni – qiz*. B.Soatovning nuqtai nazariga ko‘ra, o‘zbek xalq maqollari besh bo‘g‘inli vazndan tortib, o‘n to‘rt bo‘g‘inli vazngacha keng qo‘llanilgan. Bizningcha, o‘zbek paremiologik xazinasida *Oz so‘zla, ko‘p tingla; YOshdan – xato, Kattadan – uzr; Ilmli o‘zar, Ilmsiz to‘zar;* kabi uch va to‘rt bo‘g‘inli vazndagi maqollar ham mavjud. Ular ko‘pchilikni tashkil etmasada, ixchamligi tufayli tezda esda qoladi. O‘zbek maqollarida eng ko‘p uchraydigan vazn etti bo‘g‘inli bo‘lib, ulardagi turoqlar nisbati 4+3 shaklidadir. O‘zbek xalq paremiologik xazinasida klassik shoirlarning maqolga aylangan hikmatlarida esa aruz vaznining shaklu shamoyilini ko‘ramiz. Xususan, Navoiy qalamiga mansub ko‘plab maqollar bunga yaqqol misol bo‘la oladi: *Sihhat tilasang ko‘p ema, Izzat tilasang ko‘p dema.*

Ingliz xalq maqollarida vaznga urg‘u berilmasa-da, Sulaymon alayhissalom ahdlarida (Proverbs of Solomon) she’riy shaklda keltirilgan misralar hisobiga vazn masalasi alohida tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Alter hamda Anneke Viljoen hamdlar she’riy shaklda bitilgan degan xulosaga keladilar: *A wise son brings joy to his father, but a foolish son brings grief to his mother*. Lekin ko‘plab bibliyashunoslar hikmatlarda vazn emas, balki ritmik-sintaktik parallelizmlar ustunligi haqida fikr bildiradilar.

Qofiya ingliz maqollarida doimiy uchrovchi ritmik vosita hisoblanadi. Buning asosiy sababi qofiya sabab maqollar oson yodda qoladi. S.Saketning fikricha, poetik vositalarning folklordagi, xususan, maqollardagi vazifasi takror yordamida mazmunni kuchaytirishdan iboratdir. [Sackett, 1977:143-153]. Bu erda nafaqat leskik yoxud fonetik takrorlar, balki qofiyadagi bir xil yoki o‘xshash bo‘g‘inlar takrori ham nazarda tutilmoqda. U orqali maqolning semantik tasviriga yo‘l ochiladi. Reka Benzes Djon Xeyvudning *Proverbes* (1546) to‘plamidagi bir qancha qofiyalangan maqollarning hozirgi kunda ham iste’molda ekanligiga qofiyani sabab qilib ko‘rsatadi. [Benczes, 2019:133-144]. Jumladan, *Cut*

your coat according to your cloth, Better be envied than pitied, A little pot is soon hot kabi ingliz tilida koʻp qoʻllanuvchi maqollarning ilk manbasi Xeyvudning maqollar toʻplamiga borib taqalishining guvohi boʻldik: *I shall cut my cote after my cloth Sonne, Better be envied then pitied, folke sey It is wood [mad] at a woorde, little pot is soone whot.* [The Oxford Dictionary of Proverbs, 2008:120;48;303]. Demak, maqollarning asrlar osha avloddan avlodga oʻtib kelishida qofiya ham oʻziga xos oʻrin tutadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соатов Б. Ўзбек халқ мақолларининг жанр хусусиятлари ва поэтикаси. – Тошкент:Фан, 1994. – 123б.
2. Dundes A. On the structure of the Proverb // Proverbuim, № 25. – 1975. – P. 970.
3. S. Sackett J. Poetry and folklore: some points of affinity//The Journal of American Folklore 77. – P.143-153.
4. Reka Benczes. The name of the game: Rhyme and alliteration in multi-word expressions // Argumentum 15, 2019. – P.133-144.
5. The Oxford Dictionary of Proverbs. Edited by Speake J. Fifth Edition. – Oxford University Press, 2008. – 625 p.

QORAQALPOQ VA INGLIZ TILLARIDA ETIKA KONSEPTLARINING TARJIMADAGI MUAMMOLARI VA MADANIY ADEKVATLIK

Muratbayeva Umida Taumuratovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq va ingliz tillarida etika konseptlarining tarjimasida uchraydigan madaniy muammolar va tarjimada adekvatlik masalasi koʻrib chiqilgan. Muallif etika konseptlarining lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilib, ularni tarjima qilishdagi asosiy toʻsiqlar — madaniy tafovutlar, til strukturasidagi farqlar va tarjimonning madaniy kompetensiyasi haqida soʻz yuritadi. Misollar orqali har ikki til va madaniyatdagi asosiy etik tushunchalar taqqoslanadi. Tarjimada madaniy adekvatlikka erishish yoʻllari, kontekstga mos metafora va idiomalardan foydalanish zarurati asoslanadi.

Kalit soʻzlar: etika konseptlari, madaniy tafovut, lingvokulturologiya, adekvatlik, tarjima muammolari, metafora, idiomalar

Annotation: This article explores the cultural challenges and issues of adequacy in translating ethical concepts between Karakalpak and English languages. The author analyzes the linguocultural characteristics

of ethical concepts and discusses major obstacles in translation, including cultural differences, linguistic structure disparities, and the translator's cultural competence. With comparative examples, the article highlights key ethical terms in both languages and emphasizes the importance of achieving cultural adequacy through the use of context-sensitive metaphors and idioms.

Keywords: Ethical concepts, cultural differences, linguoculturology, adequacy, translation problems, metaphors, idioms.

Etika konseptlari xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o‘zida aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklardir. Har bir til o‘z xalqining etik kontseptini aks ettirganligi sababli, bu konseptlarning tarjimasi murakkablik tug‘diradi. Qoraqalpoq va ingliz tillari o‘rtasida etika bilan bog‘liq konseptlar tarjimasida madaniy tafovutlar sezilarli bo‘lib, ularni adekvat tarzda yetkazish tarjimon oldida qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Etika konseptlari – bu til va tafakkur birligida shakllangan, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar me’yorini belgilovchi kontsept tizimidir. Bu konseptlar nafaqat axloqiy mezonlarni bildiradi, balki ular milliy mentalitet, tarixiy tajriba va madaniy xotiraning til orqali ifodalangan ko‘rinishidir. Har bir til o‘z xalqining hayot tarzi, diniy qarashlari, urf-odatlari va ijtimoiy tuzilmasi bilan uyg‘un holda etika konseptlarini shakllantiradi. Shu sababli, bir til va madaniyatda muhim hisoblangan etik birliklar boshqasida mutlaqo boshqa mazmunga ega yoki butunlay mavjud bo‘lmasligi mumkin. Lingvistik nuqtai nazardan, konsept – bu til birliklari orqali ifodalanadigan, inson ongida shakllangan murakkab ma’no tuzilmasidir. Etika konseptlari esa aynan axloqiy tushunchalarni aks ettiruvchi konseptlar turidir. Ular o‘z ichiga quyidagi sohalarni oladi:*or-nomus, uyat, halollik, hurmat (respect), sadoqat, modesty (kamtarinlik), honour (sharaf), integrity (halollik, poklik).* Bu tushunchalar tilshunoslikda lingvokulturologik birliklar deb yuritiladi, chunki ular til orqali madaniy va axloqiy kontseptni yetkazadi.

Etika konseptlarining madaniy ildizlari turli jamiyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan: Qoraqalpoq madaniyatida ***“or”, “uyat”, “izzat”*** kabi tushunchalar jamiyatning ijtimoiy nazorati, urf-odatlar va kollektivning fikriga asoslangan. Bu kontsept patriarxal va jamoaviy tafakkurga xos.

Ingliz madaniyatida esa ***“individual erkinlik”, “shaxsiy fazilat”, “axloqiy mustaqillik”*** asosiy mezonlar bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *“mind your own business”* yoki *“freedom of speech”* kabi iboralar

individual etikani ifodalaydi. Shu bilan birga, tarixiy tajriba ham etik konseptlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mustamlakachilik, diniy islohotlar, industrial inqiloblar va boshqa tarixiy jarayonlar orqali xalqning etik kontsepti qayta shakllangan bo‘lishi mumkin.

Til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, etika konseptlarini tarjima qilishda bu jihatlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, qoraqalpoq tilidagi “uyat boldi” degan ibora ingliz tiliga oddiy “It was shameful” shaklida tarjima qilinsa-da, bu iboraning ijtimoiy bosim va kollektiv bahoni anglatadigan konnotatsiyasi yo‘qoladi. Bu kabi hollarda so‘zma-so‘z tarjima yetarli bo‘lmaydi.

“Modesty” – kamtarlik, haddan oshmaslik, o‘zini mahtamaslik (bu xususiyat Britaniya madaniyatida ijobiy baholanadi): *“Don’t blow your own trumpet”* – o‘zingni o‘zing maqtama.

1. Madaniy adekvatlik – bu tarjimaning asl kontekstdagi madaniy mazmunni to‘liq yetkazishidir. Bunday adekvatlikka erishish uchun tarjimon faqat tilni emas, balki manba va maqsad til madaniyatini chuqur bilishi lozim. Ma’noni yo‘qotmaslik uchun tarjimada madaniy kontekstni hisobga olmaslik, xatolik va tushunmovchiliklarga olib keladi. Etika konseptlarini tarjima qilayotganda kontekstga mos metafora, idiom yoki izohli tarjima usuli qo‘llaniladi. ‹‹Qozon o‘z holiga qo‘yilsin, vaqtida pishadi»—so‘zma-so‘z tarjima: “Let the pot boil by itself, it will cook in time” (tushunish qiyin) uning ma’nosi “Be patient, things will work out in due time”. Qoraqalpoq tilida: ***“Er jıgıt ar menen tuwıladı, ar menen óledi”*** [Axmetjanov Z.K. Ocherki po natsionalnoy konseptologii. —Almatı: Yeltanim, 2012. —19 s.] – bu ibora milliy etik qadriyatni ifodalaydi. Ingliz tilida bunga yaqin ibora: ***“A man of honour would rather die than lose his dignity”,*** bunda ma’no mos kelsa-da, konnotatsiya farqlidir, sababi obroli yigit qadr-qimmatin yoqqatgannan o’lgani afzalroq mano’da yaniy qadr-qimmatin yuqori qo’ymoq mano’sin beryapti. Shuningdek, ingliz tilidagi ***“Mind your manners”*** iborasi qoraqalpoq tiliga “Odob saqla” tarzida tarjima qilinadi, lekin bu hamisha kontekstga bog‘liq bo‘ladi.

Tarjima nazariyasida konseptlar va madaniy ma’lumotlarni yetkazish muammosi

Tarjima – bu faqatgina lingvistik akt emas, balki madaniyatlararo muloqotning murakkab shaklidir. Har bir til o‘zining madaniy konteksti, mentaliteti, urf-odatlari va kontsepti bilan shakllanadi. Shu sababli, tarjimada faqat so‘zlar emas, balki ularning ortidagi konseptual va madaniy ma’lumotlar ham yetkazilishi lozim. Ayniqsa, etik kontsept bilan

bog‘liq ifodalar tarjima jarayonida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Peter Newmark fikricha, “Tarjimon nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos ham bo‘lishi kerak. Har bir so‘z, har bir ibora o‘z madaniy konnotatsiyasiga ega va bu konnotatsiyani boshqa tilda to‘g‘ri yetkazish tarjimonning asosiy vazifasidir” [Newmark, A Textbook of Translation, 1988, p. 94].

Etik kontsept kabi konseptlar universal ko‘rinishda bo‘lishi mumkin – masalan, “hurmat”, “sadoqat”, “vijdon” – lekin ularning semantik hajmi va ijtimoiy maqomi madaniyatdan madaniyatga farq qiladi. Ingliz tilidagi “privacy” yoki “personal space” kabi etik kontsept, qoraqalpoq tilida o‘z to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentiga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu esa tarjimonni dinamik adekvatlik uslubidan foydalanishga majbur qiladi.

Eugene Nida bu holatni “functional equivalence” deb ataydi va shunday deydi: “A good translation does not merely transfer words, but recreates meaning within the receptor language's cultural system.” [Nida, Toward a Science of Translating, 1964, p. 159]. Shuningdek, Lawrence Venuti tarjimaning madaniy ong bilan bog‘liqligini ko‘rsatib, tarjimani “shaffof vosita” emas, balki “kultural intervensiya” deb baholaydi [Venuti, The Translator's Invisibility, 1995, p. 14]. Unga ko‘ra, tarjima har doim dominant madaniyatning bosimi va tarjimonning ideologik pozitsiyasi ostida amalga oshadi. Demak, etik konseptlar tarjimada oddiy semantik konversiyadan ko‘ra, kontekstual va madaniy interpretatsiyani talab qiladi. Bunda tarjimon madaniyatlararo vositachi rolini bajaradi.

- **Etik kontseptning tarjimada deformatsiyalanish sabablari**

Etik kontsept tarjima jarayonida deformatsiyaga uchrashi – tarjima nazariyasida keng muhokama qilinadigan muammolardan biridir. Bu holat natijasida original matnda mavjud bo‘lgan etik ma’no, emotsional yuklama yoki ijtimoiy konnotatsiya tarjima matnida to‘liq yoki aniq aks etmasligi mumkin. Bu esa madaniy noaniqlik va kommunikativ xatoliklarga olib keladi.

Bu holatning bir necha asosiy sabablari mavjud:

1. Lingvistik strukturadagi farqlar

Qoraqalpoq va ingliz tillarining grammatik va leksik tizimlari tubdan farqlanadi. Ingliz tilida qisqa, betaraf ko‘rinadigan iboralar (masalan, “You should be ashamed”, “I don’t care”) – qoraqalpoq tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, keskinlik yoki hurmatsizlik sifatida talqin qilinadi. Bu esa “ma’no yo‘qotilishi” yoki “emotsional ortiqcha yuklama” holatiga olib keladi [Baker, In Other Words: A Coursebook on Translation, 2011, p. 43].

2. Madaniy tafovutlar

Etik kontsept har bir jamiyatda turli ijtimoiy, diniy, tarixiy omillar asosida shakllanadi. Masalan, G‘arbda shaxsiy erkinlik asosiy qadriyat sanalsa, qoraqalpoq madaniyatida jamoaviy mas’uliyat va katta-kichikka hurmat birlamchi o‘rinda turadi. Shu bois ingliz tilidagi “Don’t tell me what to do” kabi iboralar tarjimada nafaqat grammatik, balki madaniy nojo‘ya holatni yuzaga keltiradi.

3. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi

Tarjimon faqat tildagi so‘zlarni emas, balki ularning ortidagi kultural ma’lumotlar qatlamini ham tushunishi lozim. Aks holda, u literal tarjimaga o‘tib ketadi va bu natijada deformatsiya yuz beradi. Venuti bu holatni “etno-tsentrik tarjima” deb ataydi va bu orqali tarjimonning manba madaniyatni o‘z madaniy me’yorlariga bo‘ysundirib yuborishini tanqid qiladi [Venuti, 1995, p. 21].

4. Senzura va normativ cheklovlar

Ba’zida tarjimon diniy, siyosiy yoki ijtimoiy nozik mavzularni tarjima qilishda aynan original ma’noni emas, balki yumshatilgan yoki madaniy jihatdan maqbulroq variantni tanlaydi. Masalan, ingliz tilida bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinsiy konnotatsiyali etik iboralar qoraqalpoq madaniyatida diniy yoki axloqiy me’yorlarga mos kelmasligi sababli tarjimada tushirib qoldiriladi yoki umumiyroq mazmunda beriladi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq va ingliz tillarida etika konseptlarining tarjimasi ko‘p jihatdan madaniy tafovutlarga bog‘liq. Til faqat aloqa vositasi emas, balki xalq tafakkuri, qadriyati va mentalitetining aksidir. Shu sababli, tarjimada madaniy adekvatlikka erishish tarjimonning asosiy vazifasidir. Bu esa nafaqat til bilimini, balki lingvokulturologik bilimlarni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmetjanov Z.K. Ocherki po natsionalnoy konseptologii. – Almatı: Yeltanim, 2012. – 19 s.
2. Baker, Mona. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. London: Routledge.
3. Bassnett, Susan. (2014). Translation Studies. 4th ed. Routledge.
4. Hatim, Basil & Mason, Ian. (1997). The Translator as Communicator. London: Routledge.
5. Katan, David. (2004). Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators. 2nd ed. St Jerome Publishing.
6. Newmark, Peter. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.

7. Nida, Eugene A. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: Brill.
8. Venuti, Lawrence. (1995). The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge.

ISAJON SULTONNING "OTA QASIDASI" VA LI MI ENING "ONA, SIZ…" ASARLARIDA OBRAZLAR TIZIMI

Muratova Dilorom,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Isajon Sultonning "Ota qasidasi" hikoyasi va koreys yozuvchisi Li Mi Ening "Ona, siz…" telenovellasi qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, unda ijodkorlarning obraz yaratish mahorati, olam va odam haqidagi qarashlari, oilaviy qadriyatlar masalasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: postmodernizm, obraz, mahak toshi, assotsiyativ sujet, muallif nutqi, personaj nutqi.

Abstract: The article presents a comparative analysis of the story "Ode to the Father" by Isajon Sultan and the telenovela "Mother, You..." by Korean writer Lee Mi-eun, which examines the creators' skill in creating images, their views on the world and man, and the issue of family values.

Keywords and expressions: postmodernism, image, gemstone, associative subject, author's speech, character's speech.

O'zbek-koreys xalqlarining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib, umuminsoniy qadriyatlardan biri – ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikrom ko'rsatish, hurmatlarini joyiga qo'yish kabi oilaviy qadriyatlar sanaladi. Bu kabi oilaviy, umuminsoniy qadriyatlar jamiyatning ko'zgusi bo'lgan badiiy adabiyotda o'zi aksini topishi adabiyot deb atalgan tilsimning o'zi kabi hayratlanarli holat hisoblanadi.

O'zbek va koreys adabiyoti xazinasida oila va oilaviy qadriyatlar tasvirlangan asarlar bisyor. Biroq zamonaviy adabiyotning o'z o'quvchisini darrov topadigan o'tkir, siqiq, sevimli janri bu – hikoyalar. Ushbu janrda barakali ijod qilgan ikki yozuvchi Isajon Sulton va Li Mi E zamonaviy nasrda o'zining munosib o'rniga ega ijodkorlardir.

Postmodernizm yo'nalishida qalam tebratayotgan adib Isajon Sulton asarlari haqida professor A. Rasulov "Akslar falsafasi"da shunday deydi: "Ozod" romanidan va hikoyalaridan anglashiladiki, Isajon Sulton milliy o'zlik deb atalgan ma'naviy xazinaning – konning mohiyatini anglab

yetmoqda, sharq-musulmon falsafasi, nafosatshunosligi, adabiyotshunosligining vorisi sifatida o‘zining postmodernistik asarlarini yaratmoqda. “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari, “Munojot” qissasi va turli hikoyalarida shu usul belgilari sezilib turadi [1.428]”.

Darhaqiqat, biz tahliliga kirishayotgan “Ota qasidasi” hikoyasining nomlanishidayoq postmodernizmga xos xususiyatlar bor. Shu o‘rinda qasida so‘zining ma’nosiga e’ribor qaratsak:

Qasida (ar. nazmiy asar turi**) –** Sharq mumtoz adabiyotidagi she’riy janrlardan biri, ko‘pincha biror shaxsning (odatda hukmdor yoki oliy martabali kishining) madhiga bag‘ishlangan, shuningdek, falsafiy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy mazmundagi, ko‘tarinki ohangli…she’riy asar [2.257].

“Ota qasidasi” – otalar sha’n-shavkatini ulug‘lovchi tarannumimi yoki otaning ayol zotiga bag‘ishlangan qasidasimi?

Isajon Sultonning “Ota qasidasi” – nasrda yozilgan oila deb atalgan uch ustunni tutib turuvchi **ota-ona** va **farzandlar** haqidagi madhiya.

Assotsiyativ sujet asosida yozilgan bu asar an’anaviy hikoya ichida hikoya tarzida qoliplangan. Muallif nutqi orqali bayon etilgan birinchi hikoya *“bir yupun kishining kelishi, eshik oldidagilardan bir nima so‘rab, javob olgach, yo‘lida davom etishi”* haqida bo‘lsa, “*bu odamning onasi, ayoli, qizlari bor”*ligi to‘g‘risidagi ikkinchi hikoyada personaj nutqidan foydalangan holatda asar qahramoning lirik kechinmalari beriladi [3.114-115].

Asarda adib hashamatli restoranning *“ko‘kish zarhal kiyim kiygan ikki baquvvat darbon”* va *“usti yomg‘irda anchayin ivigan, do‘ppi kiygan o‘rta yashar, ...sochlari oqargan, poyafzali ham ancha uringan bir kishi”* o‘rtasidagi konflikt uchqunidan mohirona foydalanadi. Turli rakurslardan qaraganda namoyon bo‘ladigan **O‘g‘il – Er – Ota** obrazlarini yorqinroq tasvirlashda xotira-xayol, monolog-muhokama kabi tasviriy vosita usullaridan ustalik bilan foydalanadi. Hikoyamiz qahramonlari ismsiz. Biri – deyarli yarim asrlik umri tasvirlangan “*butun umrini, topgan-tutganini, bor-u yo‘g‘ini ota-onasiga va oilasiga sarf qilib yuborgan”* o‘g‘il – er – ota, qolganlari – Ona, Rafiqa, Qiz va ikki Darbon. Ular adabiyot deb atalmish ko‘zgu in’ikosining olamdagi umumlashma obrazi.

“O‘zini anglagan, o‘zgani anglaydi”,– deydi donolar. Inson hayotda o‘zini anglashga intililib yashaydi, hayotning in’ikosi bo‘lgan adabiyotning asosini ham shu mavzu tashkil etadi. Isajon Sultonning “Ota qasidasi” hikoyasi bosh qahramoni “aqli to‘lishgach” barcha solih farzandlar singari *“xasta onasining oyoqlarini yuvib, ko‘ngli tusagan narsalarini olib kelib, og‘ziga ovqat tutib yonida o‘tiradi”,* onaning oilaviy hayotda ham,

jamiyatda ham muhim o‘rin tutuvchi insoniy fazilatlarini shunday madh etadi:

“*Qadringni endi bilmoqdaman, onam. Qadring shunchalarki, agar bu dunyoda sen bo‘lmasayding, men ham bo‘lmas edim. Sen bir sirli-sehrli mahak toshimiding, hayotimni, olamimni o‘zgartira oladigan?”*

Qadimda oltin va kumushning tozaligini qora tosh – mahak toshi orqali aniqlaganlar. Ijodkor asar qahramoni tilidan “bir g‘ovak tosh”ga gavharlik qiymatini bergan onalarni qadr-qimmatni oshiruvchi sehrli mahak toshiga qiyoslaydi.

“Bir yo‘nilmagan gavhar emasmidim, o‘zining qiymatini, nimaligini bilmagan, fikrlashni ham bilmaydigan bir g‘ovak tosh”.

Ijodkorning personaj nutqidan o‘rinli foydalanishi ona – ayol – qiz obrazlar uchlik tizimi tuzilishida muhim rol o‘ynaydi.

Hikoyada monologik nutq orqali berilgan poetik takrorlar o‘g‘ilning onaga qarata: *“Dunyoda hech bir kas sen kabi bo‘lolmasligiga endi aqlim yetadi”, “Bu yorug‘ olamda shuncha yil yashasam-da, zotingning qanchalar ulug‘ ekaniga aqlim yetmasa nima qilay?”* tarzidagi samimiy iqrori yoki otaning qiziga “*Dunyoda hech bir kas sen kabi bo‘lolmasligiga endi aqlim yetmoqda”, “Bu yorug‘ olamda shuncha yil yashasam-da, qanchalar ajoyib mo‘jiza ekaningga mahliyo esam, nima qilay?”, “Ey onam mening, ey donom mening!”* ko‘rinishida berilishi ona va qizning bir paytning o‘zida ham o‘g‘il, ham ota bo‘lgan asar bosh qahramoni hayotida nechog‘lik o‘ringa ega ekanini ta’kidlaydi. Sharqona oriyatga yo‘g‘rilgan *“...umrimda yana bir halovat qo‘rg‘oni bor esa, u – oilam bo‘ldi”, “Mana shu g‘alati charxpalak aro umrim o‘tib borar ekan, hayotimda yana bir ayol paydo bo‘ldi!”* kabi jumlalarda rafiqa tasviri chizilgan.

Barcha o‘zbek otalari xarakteriga xos bo‘lgan jihatlar farzandlariga bo‘lgan mehrni pinhon tutish va uni ro‘yi rost amalda ko‘rsatmaslik kabi xususiyatlar *“... ammo bisotimdagi eng shirin so‘zlarim baribiram ichimda qolib ketgan. Ota o‘zining hissiyotlarini tiliga chiqaravermasligi kerak der edim-da. O‘zim bilgan hamma shirin so‘zlarim faqat sengagina atalganini ham, o‘z jonimdan ko‘ra seni ustun qo‘yishimni ham bilmasding”* ko‘rinishida tasvirlanadi. Otaning farzandiga bo‘lgan mehri ona mehridan ko‘p bo‘lsa, bo‘ladiki, also kam bo‘lmaydi, biroq bu mehr otalar qalbining tub-tubidan o‘rin olgan bo‘lib, kam holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Katta falsafiy fikr ifodalashga xizmat qilgan peyzaj – kuzda saf-saf bo‘lib uchib ketayotgan qushlar tasvirida ramziylik mujassam. Unda bu o‘tkinchi hayotda biz uchun qadrli bo‘lgan inson – Otaning ham kun kelib

huddi uchar qushlardek bizni tark etishiga ishorat bor: *“Bir kuni tong saharda, seni shirin uyqungdan to‘satdan uyg‘otishganida, men ham shu qushlar kabi qaygadir uchib ketgan bo‘laman!”*

“Ota qasidasi” hikoyasi tugundan boshlanadi. Tugun ikkinchi hikoyada yechiladi. Yechim ikkinchi hikoyadan so‘ng, muallif nutqi orqali suratan dabdaba-yu, asasalarga burkangan, siyratan yupun bo‘lgan “*muhtasham otelning muhtasham kiyimli malaylariga mana shu gaplarni yetkazib qo‘yishdan iborat*”:

“*Yana…sochlari barvaqt oqargan o‘rta yashar bir kishini ko‘rib qolsangiz, Yaratgan Egamdan nigohingizga teranlik, qalbingizga tiniqlik so‘rab iltijo qiling!*

Axir, u – Otadir!

Ajabo, butun umrini, topgan-tutganini, bor-u yo‘g‘ini ota-onasiga va oilasiga sarf qilib yuborgan, hozir esa, g‘ofillar qarshisida bir dam muztar bo‘lib qolgan shu zotga bir og‘iz taskin so‘zi topa olarmikansiz?

*Topolmasligingizga ishonchim komil! Topolmasangiz, hech bo‘lmasa bir jilmayib qo‘ying. Bas. Yetar!”*tarzida beriladi. Hikoyada yozuvchi o‘zbek otalari obrazini berish orqali o‘zbek oilalaridagi qadriyat – farzandlariga mehribonlik, g‘amxo‘rlik, maslahatgo‘ylik, qattiqqo‘llik, talabchanlik, hissiyotlarini yuzaga chiqarmaslik, bir sirda turish kabi xususiyatlar tasvirlanadi.

Millat ayoldan – onadan boshlanadi, deydilar. Millati, ellati, dini, irqidan qat’iy nazar dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o‘xshaydi. Fikrimizning isboti tariqasida adiba Li Mi E qalamiga mansub “Ona, siz…” telenovellasini o‘qish jarayonida yana bir bor amin bo‘lamiz. Asarda ona obrazi juda chiroyli tasvirlangan bo‘lib, koreys millatiga mansub onalarning xarakteri, ichki va tashqi dunyosi o‘ziga xosligi, oilaviy qadriyatlar tasviri bilan ajralib turadi.

“Ona, siz…” asari ham assotsiyativ sujet asosida yozilgan, hikoyachi Ona siymosini yoshlik, navqironlik, keksalik kabi vaqt oralig‘ida namoyon bo‘ladigan kelin – ona – qaynona obrazlari orqali yorqinroq tasvirlaydi [4.70]. “Ona, siz…” novellasida koreys ayoli, koreys onasi tasvirlangan bo‘lsa-da, asarda *yigirma bir yoshda ikki o‘rim sochi chambarak qilib turmaklangan mag‘rur boshini xiyol eggancha, o‘zi biror marta ham ko‘rmagan janob Kimga turmushga chiqishi* xuddi o‘zbek millatiga mansub ona tasvirlangan novellani o‘qiyotgandek taassurot paydo bo‘ladi o‘quvchida: (Yigirma olti yoshda) *Butun borliq kumush qor bilan burkangan kunda siz bu oilaga o‘g‘il-qiz nabiralar tuhfa qildingiz. Sulolaning kattalari sizni oila a’zosi sifatida endi chinakamiga qabul*

qilishdi. Munosabatlar iliqlashdi. O‘zbek oilalarida ham farzand oilaning tayanchi hisoblanadi.

(O‘ttiz ikki yoshda) *O‘g‘lingizning qorni og‘ri qoldi. Siz harorati baland bolangizni orqangizga opichlab oldingiz-da, yayov yo‘lga chiqib, qishloqdan ancha uzoqda bo‘lgan shahar shifoxonasiga yarim tunda yetib bordingiz.*

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan joy olgan “Gilam paypoq” hikoyasida istimasi baland, hushini yo‘qotayotgan o‘g‘lini qor guppullab yog‘ayotgan paytda sarpoychan – quruq kalishning o‘zini kiygan alfozda tabibga olib boradi.

Adiba Li Mi E “Ona, siz…” telenovellasida ham Isajon Sultonning “Ota qasidasi” kabi insoniyatning ota-onasi oldidagi tuganmas qarzi naqadar aqoqsizligi ta’kidlash bilan yakunlanadi: “*Farzandlaringiz oyoqqa turdi. Ular Sizning hayotingizdan uzoqlashib ketdi. Sizning o‘tmishingiz, chekkan zahmatlaringiz ularning hatto tushiga ham kirmaydi. Aslida sizning yuzingizni bezab turgan chuqur ajinlarda, kumushga aylangan sochlaringizda bizning bolalik tashvishlarimiz bor. Biz sizdek munis ayolni “ona” deb ataymiz”.*

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, oilaviy qadriyat sifatida qadrlanuvchi farzandi oromi, baxti, qayg‘usi yo‘lida jonini fido qilishga qodirlik dunyodagi barcha ota-onalarga xos xususiyatdir. Ota-onalardagi bu xislatlarni ulug‘lashni har ikkala ijodkorlar ham o‘z oldilariga maqsadi qilib qo‘yishgan edi va tom ma’noda bu maqsadlariga erishishdi. Ushbu asarlar orqali ota-ona siymosidagi odamiylik, mehr-muhabbat, farzandi kamoli yo‘lida o‘zni qurbon qilish, insoniylik tushunchalari anglashiladi. Ushbu ikki asar ota-onalarni sharaflagan qasida bo‘lib butun jahon ma’naviy xazinasi boyitajak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulton Isajon Ozod: roman va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2012.

2. Ўзбек тилининг изоҳли сўзлар луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.

3. Султон И.Боғи Эрам. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2015.

4. 행복한 세상 KBS한국방송 2002.

UZBEK AND ENGLISH FOLK LEGENDS IN POSTFOLKLORE PROCESSES: MODERN LEGENDS

Abdurashidova Kamola Abdurasul qizi,
PhD student of the 3rd stage of the ADU

Abstract: The article provides a comparative analysis of the specific features of “modern legends,“ formed as a result of the interaction of Uzbek and English folk legends. The study identifies the following features of Uzbek “modern legends,“ created based on the typology of “urban legends“: fictional reality, genre flexibility, novelty in plot and composition, the space of modern characters, and real events.

Keywords: folk legends, post-folklore, “urban legends,“ “modern legends,“ plot, American folklore, artistic-compositional, new, modern, “Yalmog'iz kampir,“ internet, computer, website, real.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan “zamonaviy afsonalar”ning o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda “shahar afsonalari” tipologiyasi asosida yaratilgan o‘zbek “zamonaviy rivoyatlari”ning quyidagi xususiyatlari aniqlandi: badiiy reallik, janr moslashuvchanligi, syujet va kompozitsiyadagi yangilik, zamonaviy personajlarning joylashuvi, real voqealar.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, postfolklor, “shahar afsonalari”, “zamonaviy afsonalar”, syujet, Amerika og‘zaki folklor, badiiy-kompozitsiya, yangi, zamonaviy, “Yalmog‘iz kampiri”, internet, kompyuter, veb-sayt, real.

Introduction: Legends are distinguished by a unique artistic and compositional style, incorporating a series of traditional epic motifs and a composition of images. The style of expression is characterised by imaginative fiction. In these texts, the narration of reality based on fiction has reached a level that can be considered epic. Uzbek folk legends are characterised by their unique imagery and artistic style, which incorporates poetic expressions, linguopoetic signs, and compositional elements that collectively contribute to creating a particular aesthetic. Motifs involving magic occupy a special place in legends. The significance of the miraculous in the narrative is widely regarded as the primary artistic indicator of a legend.

The study of folk legends involves a meticulous examination of their classification and artistic compositional features. Folk legends represent a genre that facilitates the narration of ancient historical and mythological

events in a believable and imaginary form. Analytical findings demonstrate that Uzbek and English legends exhibit common features, such as verbalisation, anonymity of the author, and traditionality, which contribute to the formation of cultural identity. The conclusions of the study emphasise the importance of oral folk art in the formation of cultural identity and the preservation of historical heritage.

In the context of Uzbek folklore studies, the term “legends“ is employed exclusively to denote traditional legends. This assertion is corroborated by the substantial contributions of esteemed scholars such as K. Imomov, U. Jumanazarov, M. Juraev, and Sh. Turdimov, S. Ruzimboev, M. Rakhmonova, M. Rizaeva, and A.M. Bakimbetov [1]. However, in the context of Uzbek folklore studies, such terms as “city,“ “new,“ and “modern“ legends were not utilised and were not the subject of any research. Nevertheless, in Uzbek folklore studies, the state and functional features of epic genres of Uzbek folklore in post-folklore processes were studied by B. Rakhmonov. In this study, opinions are expressed about the state of the legend genre in post-folklore conditions, alongside other epic genres such as fairy tales, epics, and legends. In the second paragraph of the third chapter of his research, entitled “Historical Destiny of the Genres of Legends, Tales, and Narratives,“ the folklorist B. Rakhmonov writes: “The absence of a stable poetic form, the strength of the fabulatic narrative, and the absence of metaphors and epithets are characteristic features of the legend genre.

It is evident that reality, in its true form, does not align with any of the criteria characteristic of the aforementioned myth. This observation indicates that the creation of legends is not possible based on a new reality. In contemporary society, the actions and spiritual experiences of individuals do not align with the traditional framework of mythical and exaggerated fiction. Consequently, the present state of the legend genre is confined not to the creation of new ones, but to the performance of works created in earlier times [2].“ The scholar also includes the genre of legends among the genres that have faded in post-folklore processes, that is, ceased to be created. However, the study of “new,“ “urban,“ and “modern“ legends, which emerged as a result of the transformation and evolution of the traditional legend genre in American and Russian post-folklore processes, demonstrates that such legends also exist in Uzbek post-folklore. Drawing upon the extant theoretical and methodological works in American and Russian folklore studies, it can be posited that, despite the obsolescence of the traditional legend, there are contemporary legends that

draw upon modern reality, modern space and time (chronotope), as well as mythological thinking and fictional fiction that are informed by contemporary conditions. The present task is to substantiate that “modern legends,“ formed in the post-folklore conditions of the legend genre, have already formed, but their “internet legends,“ the form of “parody,“ and various modifications are in the process of formation.

In the context of American folklore from the latter half of the 20th century, the term “urban legend“ (city, city) began to emerge, and scholars began to utilise such legends as “new“ (new) and “modern“ (modern) legends. The term “urban legend“ (city, city) is specific to folklore. It denotes a genre of folklore that has evolved based on traditional legends, incorporating elements of modern reality, contemporary space and time (chronope), as well as mythological thinking and fictional fiction based on modern conditions, oral fabulistic narration. Despite the utilisation of “modern legends“ under diverse appellations across various literary works, it was deemed imperative to designate such legends, stemming from fictional narratives grounded in contemporary reality, as “modern legends.“ The rationale behind this phenomenon can be traced back to the concept of “urban legend“, a term employed in contexts about cities, towns, and similar urban agglomerations in America, Great Britain, and Russia. The nomenclature of such legends is often attributed to their purported connection with aspects of city life, thereby lending them a certain degree of veracity within the context of contemporary reality.

Moreover, such legends are called “new“. After all, they are based on the description of a new reality, and “modern“ because they are connected with modern space and time. However, such legends, formed in the processes of Uzbek post-folklore, are connected not only with urban life, but also with the description of events of modern reality, related to villages and various places. Therefore, the word “modern“[3] captures the essence of such legends better than new, urban attributes.

The difference between American “urban legends“ and Uzbek “modern legends“ lies in the fact that the place of reality (topos) is located in various places in the city (restaurants, cafes, railway stations, streets, etc.) and any place today (city, village, field, shed, remote area, suburbs, etc.) [4].

To prove our point, let's analyse the legend: The main events take place on the first of August. Pointing to the steel scissors whose blade had turned into a drill, the Korean man tells how the witch threatened him: “A Korean family, busy sewing clothes, suddenly noticed that someone was

frying meat and onions in a cauldron on the winter stove of a lonely house in the middle of a field, that is, suddenly a crackling sound was heard from the hallway of the big house, whose door was closed. Stunned by this unexpected, unusual situation, the Koreans exchanged glances for a moment, and the man of the house slowly opened the door and looked into the hallway to see what was happening. Strange, there's no one here! And the hearth is empty!? The Korean, unable to understand, quietly closed the door and, looking at his wife and children, asked, “Did you hear that voice? They unanimously agreed. Koreans continue their work. This time, the Korean man rushed into the corridor. Unfortunately, no one is there. Dissatisfied, the Korean goes out through the corridor to check the summer hearth. There's no one there either - the cauldron and the hearth are empty! Stunned by what has happened, the Korean tailor returns to his family and asks them again: -Did you hear his voice too? And once again, the family answered in the affirmative. The Korean had no choice but to continue sewing. After a while, the sound of another person cooking could be heard in the hallway. This time, it was a Korean man running into the corridor with a pair of steel scissors in his hand. He ran so fast that as soon as he left the door, he bumped into an elderly woman standing in the hallway. The Korean, caught off guard by the unexpected embarrassment, begins to apologize to the old woman: “Oh, oh, dear aunt, I apologize to you, please forgive me now! Because you have to win the customer's favor! Otherwise, I'll kill you and your whole family! The Korean man, angered by the old woman's rude behavior, also said to himself: “What is this crazy old woman saying to me?!“ - He also threatened her by hitting her on the chest with the tip of his long steel scissors and said: “Get out of here!“ That's when the old woman easily pulled the scissors from the Korean's hand, stuck her right fingers into his crutch, and with her left hand, holding the blade, twisted it once - those steel scissors twisted like wire and took the shape of a drill. At that moment, the Korean's mind began to work: - This old woman is no ordinary person! She is a witch! The tailor immediately repented and said: “Mother, I didn't recognize you, forgive me! I will do whatever you say! After saying, “We're leaving this place today!“, the old woman gave him back her scissors and silently went out. In the plot of this demonological story, factors such as the evidence-based description of the terrible events that occurred in the life of Abdullah Bobojon, the participation of people who are contemporaries of the listener, and the fact that the events take place in specific places also served to increase the credibility of the events in the story.

From the above analysis of modern myths and demonological stories, it can be seen that these two genres have common and different aspects. In the example of the two genres above, the protagonists are common to people of the recent past, while the antagonists are different. That is, in demonic tales, the competing characters harm the main character. In Uzbek folklore, there are also “modern legends“ that were created in post-folklore processes, but they have not yet been the subject of research. The study of “modern legends“ allows us to study the formation of their various genre modifications and parodies.

The typology of the plot of American “urban legends“ and Uzbek “modern legends“ is reflected in the representation of reality based on fictional fiction, genre characteristics, plot and composition, the fact that the characters are people of the modern world, and the fact that the events take place in real places of our time. The difference between American “urban legends“ and Uzbek “modern legends“ is that the place of reality (place-topos) is located in different places in the city (restaurant, café, railway station, street, etc.) and any place in our present (town, village, field, shed, remote place, suburb, etc.). The typology of the plot of American “urban legends“ and Uzbek “modern legends“ is reflected in the presentation of reality based on fiction, genre characteristics, plot and composition, the fact that the characters are people of the modern world, and the fact that the events take place in real places of our present. The difference between American “urban legends“ and Uzbek “modern legends“ lies in the fact that the place of reality (topos - place) is located in various places in the city (restaurant, café, railway station, street, etc.) and any place in our present (town, village, field, shed, remote place, suburb, etc.). While American “urban legends“ involve people and ghosts from our everyday life, Uzbek “modern legends“ involve supernatural characters: ghosts, demons, giants, fairies, and Khizr. One of the peculiarities of Uzbek “modern legends“ is that they reflect the nationality and peculiarities, mythological views of the nation that created them.

Kaarina Koski, commenting on the transition of traditional legends to an intertextual form in the context of post-folklore, notes that “... although the role of the listener and the preceding speech context can also influence legends, forcing the narrator to change the traditional interpretation. Thus, variations occur mainly in the area and the timbre. However, when the same legends are transmitted by photocopy, email, or web pages, the mode changes significantly. Such a regime change also has a strong impact on the role of the narrator and the listener, reducing the role of direct

feedback“[6].

As a result of the strengthening of the Internet and social networks in post-folklore processes, very similar copies and variants of “modern legends“ are created with the help of modern computers. As a result of the alienation and extinction of American 'urban legends' from cultural life, genre modifications have emerged, which have undergone various changes and continue to exist in different forms, and can be found on popular websites such as www.urbanlegendcls.about.com, www.snopes.com, www.hoaxbuster.com. Different sites have a corpus of different texts, referred to by terms such as Bogus Warning, Chain Letter, E-mail, Hoax, that are close to “Modern City Legends“, which are parodies of various genre modifications of “Modern Legends“.

CONCLUSION: In conclusion, as a result of the empowerment of the Internet and social networks in post-folklore processes, identical copies and variants of 'modern legends' are created using modern computers. As a result of the decline and disappearance of American urban legends from cultural life, genre modifications have emerged that have undergone various changes and continue to exist in a different form. While American “urban legends“ are about people and ghosts from our everyday life, Uzbek “modern legends“ are about supernatural characters: ghosts, demons, giants, fairies, and Khizr. One of the peculiarities of “modern legends“ is that they reflect the nationality and realities, mythological and religious views of the nation that created them.

Список литературы:

1 Комилжон Имомов Афсона жанри. // ЎТА. 4.-с. 6.-7.-б. 2.-т. -. Т. “. 1. 3.-3.-б. И. К. Ў. х. п. -. Т. Ф. 1. 7.-7.-б. И. К. Ў. х. н. п. –. Т. Ф. 2.

2 Р. Б.М., Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари. Филол. фан. доктори (DSc)..., Тошкент, 2021., p. Б.179..

3 K. ABDURASHIDOVA, «Post-Folklore Processes and 'Urban Legends',» CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, т. Volume: 04 Issue: 05, May 2023.

4 A. K.A, «“Zamonaviy afsonalar” folklor janri sifatida,» TIL VA ADABIYOTI TA'LIMI, т. 1, № 5, pp. 88-91, 2024.

5 A. A. Ғудда., Саҳифалар, Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи., 2020., pp. 21-бет. [07.01.2024 20:13].

6 K. K. F. w. U. Savolainen., «The Legend Genre and Narrative Registers / Genre – Text – Interpretation Multidisciplinary Perspectives on Folklore and Beyond Edited,» Finnish Literature Society • SKS, 2016..

7 A. K.A, «СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ КОНЦЕПЦИЙ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ИЗУЧЕНИЮ НАРОДНЫХ ЛЕГЕНД.,» BuxDU, т. 11, pp. 41-48, 2024.
8 в Асотирлар ва ривоятлар“ pp. 62-бет..
9 B. B. (. C. (. v. Donovan, (1989):(1981, 1986, 2002),.
10 https://literaryterms.net/when-and-how-to-write-an-urban-legend/#:~:text=Urban%20legends.
11 A. K.A, «Composition and Chronotoping of Traditional,» JOURNAL OF ADVANCED LINGUISTIC STUDIES, T. %1 из %2VOL. 11, NO. 2, JUL-DEC 2024 (ISSN 2231-4075), pp. 681-695, 2024.
12 N. K. Ruziyev, «THEME TYPES OF UZBEK FOLK TALES AND THEIR REFLECTIONS,» Scientific reports of Bukhara State University:, T. %1 из %2 Vol. 5: Iss. 56, Article 14. , № volume 5, pp. 154-166, 12-26-2021.

“BOBURNOMA” DA UZILGAN YIL VOQEALARI BAYONI XUSUSIDA

Abdullayeva Barno Umidullo qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti,
Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Asarning yozilishi yoki tartib berilish vaqti haqida turli xil mulohazalar mavjud. Muallifning esa bu to‘g‘rida aniq bir ishorasi yo‘q. Shunga qaramay, “Boburnoma”ni mutolaa qilish, xorijiy tillardagi tarjima va tadqiqotlarni o‘rganish asardagi manbalar, yil voqealaridagi misollar, yozilish uslubini o‘rganish, undagi ikki xillikni diqqat bilan ko‘zdan kechirish kitobning 1525-1530 yillar orasida bitilganiga ishonch uyg‘otadi.

Kalit so‘zlar: asar, mulohazalar, ishora, tarjima va tadqiqot, uslub, xotira.

Abstract: There are various opinions regarding the time when the work was written or compiled. The author himself does not provide a clear indication about this. Nevertheless, through a careful reading of the “Baburnama“, as well as studying its translations and research in foreign languages, analyzing the sources mentioned, examples of events by year, and its writing style, and closely examining the duality present in the text, one is led to believe that the work was written between 1525 and 1530.

Key words: book, opinions, indications, translation and research, style, memoir.

“Boburnoma” ning yozilishi yoki tartib berilishi vaqti haqida turli xil mulohazalar mavjud. Asarning o‘zida esa muallif bu to‘g‘rida aniq bir ishora qilmagan. Shunga qaramay, “Boburnoma”ni mutolaa qilish, undagi dalil va yozilish uslubini diqqat bilan ko‘zdan kechirish shundan dalolat beradiki, u 1518-1519 yillarda yozila boshlanganga o‘xshaydi. Bunday da’voning asosiy sababi shundan iboratki, asarning bizgacha yetib kelgan varianti yozilish nuqtai nazaridan ikki xil uslubga ega. **Birinchisi,** 899 hijriy /1493-1494 milodiy yillar voqealarining bayonidan - 914 hijriy /1508-1509 milodiy yillar bayonigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab olsa, **ikkinchisi** 925 hijriy /1519 milodiy yildan - 936 hijriy /1529-1530 milodiy yillargacha bo‘lgan vaqtdagi voqealarning bayoniga mansub [O‘zbek adabiyoti tarixi, III tom, 1978]. Bu ikki xillikning mohiyati shundaki, birinchi davr hodisa-voqealari ma’lum darajada umumiy tarzda bayon qilinib, ba’zan o‘sha yil voqealari hikoyasi ichida keyingi yillarda sodir bo‘lgan voqealar ham tilga olinsa, ikkinchi davr hodisalarini yozishda muallif vaqtni konkret ko‘rsatishi, oylargina emas, balki kunlarning, haftaning qaysi kuni ekanini, va hatto, ba’zan voqea kunning qaysi vaqtida sodir bo‘lganini alohida ta’kidlashga e’tibor qiladi. Shu jihatdan qaratganda, **birinchi** davr hodisa-voqealari hotiralar asosida bitilgani, **ikkinchisi** esa voqealar sodir bo‘layotgan paytda ketma-ket bitilib borilgani seziladi. Jumladan, Bobur 909 h./1503-1504 m. yil voqealari haqida so‘z yuritgan bobda shunday jumla uchraydi: “Odinapur qo‘rg‘onining olida, janubiy tarafida, bir balandida tarixi to‘qquz yuz o‘n to‘rtta bir chahorbog‘ soldim, Bog‘i Vafog‘a mavsum, rudqa mushrif, rud qo‘rg‘on bila bog‘ning orasidadur, norunji va turunji va anari bisyor bo‘lur” [Boburnoma, 2002].

Yoki 911 h./1505-1506 m. yil voqealari bayonida quyidagi gap ham bor: “Tarix to‘qquz yuz o‘n yettida men Samarqandni olg‘onda Muhammad Valibek va Darvesh Ali kitobdor mening qoshimda edilar” [Boburnoma, 2002]. Yana bir dalil: Bobur 911 h./1505-1506 m. yil voqealari bayonida Husayn Boyqaroning nabiralaridan bo‘lmish Qosim Husayn Sulton haqida so‘z yuritib, shunday yozadi: “Hindustonda mening mulozamatimga keldi. Raana Sanganing g‘azvida bor edi. Badavunni anga berildi” [Boburnoma, 2002]. Bu misollardan ravshanki, Bobur o‘z asarini keyingi yillarda yoza boshlagan, shuning tufayli voqealar bayonidagi voqealarning birin-ketin yuz berishi hamma vaqt izchil davom etmagan.

Ikkinchi guruhdagi misollar bilan ham tanishaylik. Bobur 925 h/ 1519 m. yil voqealarini bayon qilar ekan, endi u keyin keladigan tarixiy

sanalarga murojaat etmaydi (yuqorida ko‘rilganiday), balki, aksincha, bundan oldin sodir bo‘lgan voqealar va tarixiy sanalarga murojaat etish hodisasi uchraydi. Jumladan, xuddi shu bobda (ya’ni 925 h. yil voqealari bayoni bobida) Bobur oldin sodir bo‘lgan voqealarni eslab yozadi: “Tarix to‘qqiz yuz o‘nda (1504-1505) Qobulga avval kelgan yilikim (qizig‘i shundaki, xuddi shu 910 h. yilida sodir bo‘lgan voqealarning bayoni “Boburnoma”da yo‘q), Hindistonga kirmoq doiyasi bila Xaybardin o‘tub, Parshovar (Pashovor) kelganda Boqi Chag‘oniyoniyning sa’yi bila qo‘yig‘i Bangash sarikim, Ko‘hat bo‘lg‘ay, yurub… Duki bila chiqildi”. [Boburnoma, 2002]

Yoki voqealar sodir bo‘lgan vaqtning konkretlashuvi ham xuddi o‘sha yildan boshlab qo‘zga tashlanaveradi. Jumladan, 925 h. yil voqealari bayoni quyidagicha beriladi: “Dushanba (1509-1510) kuni muharram oyining g‘urrasida Chandoval jultasining oyog‘ida qattiq zilzila bo‘ldi…Panjshanba kuni muharram oyining to‘rtida buyuruldikim, cherik eli jiba kiyib, yarog‘lanib, otlang‘aylar… Odina kuni, muharram oyining beshida farz vaqtida farmon bo‘ldukim…” [Boburnoma, 2002]

Yana: “Tush bo‘la ko‘chub, Savod suyini o‘tub, namozi digardin ertaroq tushuldi. Namozi xuftanda otlanib, ildam yuruduk. Oftob bir nayza bo‘yi chiqqanda Rustam turkman… xabar kelturdi”[Boburnoma, 2002] va boshqalar. Aytilganlar va yuqorida keltirilgan misollar asarning yozila boshlangan vaqtini aniqlashga ko‘maklasha oladi.

Shunday qilib, “Boburnoma”dagi bayon uslubi, voqealarni tasvirlash, vaqtini ko‘rsatish kabi masalalarga tayanib, shuni ta’kidlash mumkinki, Bobur o‘z asarini yozayotganda, birinchidan, xotiralarni bayon etish uslubi asosida (925 h. yilga qadar voqealar) ish tutgan bo‘lsa, ikkinchidan esa voqealar izidan borib, ularni qayd etish yo‘lidan ustalik bilan foydalangan. Ikkinchi holatni Boburning o‘zi ham go‘yo qayd qilmoqchi bo‘lganday bo‘ladi. Zero, u 925 h. yili voqealari bayonining bir o‘rnida shunday yozadi: “Otlanur choq Boboxon axtachi yaramasroq ot tortti, achig‘imdin bir musht yuziga urdum. Binsir* (binsir-to‘rtinchi barmoq) barmog‘im tubidin sindi. Ul fursatta xeyli og‘rimadi. Kelib, yurtqa tushganda xeyli tashvish berdi. Bir necha mahal xeyli riyozat torttim. Xat bitiy olmas edim, oxir chur* butti” [Boburnoma. 2002]. Demak, u shu yillarda o‘z asarini tartibli ravishda yoza borgan. Ba’zan esa kutilmagan sabablar tufayli uzulish bo‘lib ham turgan. Ammo, shunisi xarakterliki, u shaharda bo‘lmasin, safarda bo‘lmasin yozishini tark etmagan (chodirda yozayotganida shamol va yomg‘ir bo‘lib, qog‘ozlarining sochilib ketganligi haqidagi epizodni eslash kifoya). Bu

dalillarning hammasiga diqqat qilganda, shunday xulosa chiqarish imkoniyati tug‘iladi.

“Boburnoma” ning 925 h. yildan so‘nggi yillarga qadar bo‘lgan hodisalar bayoni voqealar ketidan ularni qayd qilib borish, qog‘ozga tushirish natijasida yozilgan bo‘lsa, 1527 yildan keyin, ya’ni Raana Sanga ustidan g‘alaba qozonib, Shimoliy Hindistonda hokimyatni mustahkamlagan Bobur ana shu voqealarning sistemali bo‘lishi va o‘z sarguzashtlarining butunligini saqlash, Hindistonga ega bo‘lishgacha bosib o‘tgan yo‘lini - 899 h. yildan 914 h. yilgacha bo‘lgan voqealarni xotira va esdalik tarzida yoza boshlagan. Shuning natijasida bu yillardagi voqealar bayoni protsessida ularning yozilish davri hodisa va hayotiy epizodlari ham o‘z aksini topgan.

Demak, “Boburnoma” da voqealar bayonidagi **ikki xillik** ana shu holat bilan bog‘liq bo‘lib, bu asarning nuqsoni emas, balki fazilatlidir. Chunki agar asar faqat xronologik uslubda bitilganda, unda bayonning bir xilligi voqealarni tushunishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu esa Boburning adabiy-estetik qarashlariga, badiiy adabiyotga nisbatan bo‘lgan talablariga muvofiq kelmasdi. Chunki Boburning o‘zi murakkab va tushunilishi qiyin, jimjimador yozishni emas, balki sodda, ravon hamda ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan asarlar ijod qilishning tarafdorlaridin edi. Shu jihatdan qaraganda “Boburnoma”ning ham ana shu tartiblar asosida yaratilganligi tasodifiy hol emas, albatta.

“Boburnoma” da **ikki xil** bayon uslubi qo‘llanilgan ekan, bu adabiy-estetik talablar natijasi bo‘lishi bilan birga, asarning ilmiy- badiiy qimmatini oshiruvchi vosita hamdir. Agar “Boburnoma” ga faqat memuar - esdalik - tarix deb emas, balki ma’lum estetik ehtiyoj va prinsiplar talabining natijasi sifatida maydonga kelgan asar deb qaralsa va muallif ham ana shunday bir adabiy-badiiy ehtiyoj nuqtai nazaridan, ma’lum g‘oyani ifoda etish shaklini tanlagan deb o‘ylansa, unda ba’zi bir masalalar, xususan, asarning tuzilishi va qamrab olgan material mezoni oydinlashib qoladi.

“Boburnoma” dan ravshanki, unda 899 h./1493 h. - 1494 m. yildan 936 h./1528-1529 m. yilgacha bo‘lgan voqealarning hammasi izchil bayon etilmagan. Unda 899 h. dan 909 h. yilgacha, 911 h. dan 914 h. yilgacha, 925 va 926 h. yillar hamda 932 h. yildan 936 h. yilgacha bo‘lgan voqealar bayon etilgan bo‘lsa, 910, 915-924,927,928,930,931 h. yillardagi voqealarning bayoni yo‘q. Asardagi bu uzilish olimlarimizni turli taxminlar, gipotezalarga chorladi, bu haqda har xil fikrlar o‘rtaga tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек адабиёти тарихи, 5 томлик, 3-tom. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 66-67.
2. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Фан, Шарқ, 2002. – Б. 109-110.
3. Life of Babur, emperor of Hindustan. An abridgment by R.M.Caldecott, London, 1845: Memoirs of Babur, emperor of India. An Abridgment by F.G.Talbot, London, 1879.
4. Белинский В.Г. Пол.собр.сп, Т.Р. – М.: 1953. – Б. 433.
5. Memoires de Baber. Paris. – 1872.-Preface, pp.i,ii.
6. Babur Nama, Journal of Emperor Babur. Translated from the Chaghatai Turkish by A.S. Beveridge. Abridged, edited and introduced by Dilip Hiro, Penguin Books, 1-5 p.
7. Babur-nama (Vaqayi), Critical edition based on four Chaghatay texts with introduction and notes by Eiji Mano, Kyoto, Syokado, 1995, p.xix.
8. Boburnoma. Dehli, 1974. – 444-b
9. Bobur.Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 259-b.
10. N.Otajonov. “Boburnoma” jahon kezadi. – Toshkent, 1984. – 77-b.
11. Bobur. Z.M. Boburnoma. – Toshkent, 2002. – 191-b
12. Notes in the MSS of the Turki text of Babar’s memoirs (Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland), pp. 444-445
13. Annete S. Bevridge MSS of Turki text of Babar Memoirs, JRAS October 1905,1907.
14. Royal Asiatic society. July, 1900, pp. - 439.

“VESILAT UN-NAJOT” ASARI MISOLIDA BADIIY TARJIMANING SEMANTIK VA LUG`AVIY MUAMMOLARI

Nizomjonova Zarina Nizomjon qizi,
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqola badiiy matn tarjimasi va uning muammolari haqida bo‘lib, “Vasila al-najot“ asari misolida tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik noaniqliklar, lug‘aviy tafovutlar va madaniy muammolarni tahlil qiladi. Maqolada diniy va badiiy matnlarning tarjimasi uchun kontekstual tahlil, ekvivalent so‘zlarni tanlash va izohli tarjima kabi usullar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, asar mazmunining to‘g‘ri ifodalanishi uchun tarjimonning tilga bo‘lgan chuqur bilimidan tashqari madaniy va diniy kontekstni hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Maqola, tarjimonlarga badiiy matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan

qiyinchiliklarni yengishda yordam beradigan tahliliy yondashuvni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn tarjimasi, semantik noaniqliklar, tarjima muammolari diniy matnlar, ekvivalent so‘zlar, kontekstual tahlil, madaniy tafovutlar, tarjimonning mahorati, tarjima va ma’naviyat.

Annotation: This article addresses the challenges of literary translation, focusing on the semantic ambiguities, lexical differences, and cultural issues encountered during the translation process, exemplified by the work “Vasila al-najot.“ The article discusses contextual analysis, the selection of equivalent words, and the use of explanatory translation when dealing with religious and literary texts. It emphasizes the importance of considering cultural and religious contexts alongside the translator’s deep linguistic knowledge to accurately convey the essence of the work. The article offers an analytical approach that helps translators overcome the difficulties encountered in translating literary texts.

Key words: literary translation, semantic ambiguities, translation challenges, religious texts, equivalent words, contextual analysis, cultural differences, translator's proficiency, translation and spirituality.

Tarjima insoniyat tafakkurining eng qadimiy va muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, badiiy matn tarjimasi nafaqat til, balki madaniyat, mentalitet va estetik qadriyatlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Badiiy asarni boshqa tilda ifoda etish jarayonida tarjimon muallif uslubini, obrazlar tizimini, matnning estetik ohangini imkon qadar asliga yaqin shaklda yetkazishi zarur bo‘ladi. Bu esa ko‘p hollarda murakkab tarjima muammolarini yuzaga keltiradi.

Turkiy xalqlar adabiy merosida muhim o‘rin tutgan asarlardan biri bu — Sulaymon Chalabiy qalamiga mansub “Vasilat-un Najot” (“Najot vositasi”) asaridir. Ushbu asar Muhammad (s.a.v.) hayotiga bag‘ishlangan mavlud janridagi diniy-didaktik doston bo‘lib, o‘zining mazmuniy teranligi va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Asarning turkiy tillarga, jumladan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida bir qator tarjimashunoslik muammolari yuzaga kelgan.

Badiiy matn tarjimasida uchraydigan muammolar

Badiiy matnni tarjima qilish – oddiy til o‘girish emas, balki murakkab ijodiy jarayondir. Chunki bunday matnlar nafaqat axborot, balki estetik mazmun, obrazlar, ohang va madaniy konnotatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois tarjimon faqat til bilimiga emas, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va estetik didga ham ega bo‘lishi lozim. Tarjima jarayinida bir qancha muammolar yuzaga keladi. Jumladan,

Birinchi muammo – lug‘aviy tafovutlardir. Har bir tilning o‘ziga xos leksik zaxirasi bo‘lib, ayrim so‘zlar tarjima tilida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu ayniqsa diniy-ma’naviy tushunchalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, uslubiy xususiyatlarni yetkazishdagi qiyinchiliklar ham muhim muammo hisoblanadi. Muallifning ohangdor tili, obrazli ifodasi yoki she’riy tuzilmasini tarjimada asliga yaqin shaklda saqlab qolish har doim ham oson emas.

Uchinchidan, madaniy va mafkuraviy tafovutlar badiiy tarjimada chuqur iz qoldiradi. Asarda aks etgan tarixiy yoki diniy kontekstni boshqa millat vakiliga to‘liq tushunarli shaklda yetkazish tarjimondan yuqori darajadagi tafsiriy yondashuvni talab qiladi.

To‘rtinchidan, she’riy matn tarjimasining o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Qofiya, ritm, badiiy vositalarni saqlash yoki ularning funksional ekvivalentini topish – bu murakkab va muallifga sadoqat bilan yondashishni talab qiladigan jarayondir.

Ayniqsa, diniy-didaktik asarlarda tilning ohangdorligi, muallif uslubi va madaniy konteksni to`laqonli yetkazish katta mas`uliyat talab qiladi.

“Vasilat-un Najot” asarida quyidagi satr uchraydi:

Her nefesde Allah adın di müdam
Allah adıyla olur her iş tamam.
Bir gez Allah dise ışk ile lisan
Dökülür cümle güneh misl-i hazan [Süleyman Çelebi. 1:28]

Tarjima:

Har nafasda Allohning ismidir mudom
Alloh ismi ila bo`lur har ish tamom
Bir kez Alloh desa til ishq bilan
To`kiladi barcha gunoh misli xazon.

Tahlil quyidagicha bo`ladi:

1. Lug‘aviy tafovutlar:

Asl turkcha matndagi “Işk” so‘zi o‘zbek tiliga “ishq” yoki “sevgi” deb tarjima qilinadi, ammo uning chuqur diniy va ma’naviy ma’nosi bor. Tarjimada “dilning ishi“ ifodasi bu ma’noni saqlaydi, lekin “Işk“ning ruhan yuksakligini, qalbning Allohga bo‘lgan muhabbatini to‘liq aks ettiradigan ekvivalentni topish biroz qiyin. Boshqa tarjimalarda, masalan, “sevgi” so‘zi ishlatilganida, asl matnning ma’naviy qiyofasi o‘zgarishi mumkin.

2. Uslubiy xususiyatlar:

“Her nefesde Allah adın di müdam” — bu satrda kuchli muqim ritm

mavjud. O‘zbek tiliga tarjima qilishda ushbu ritmni saqlab qolish qiyin. “Har bir nafasda Allohning ismi bilan” tarjimasi ancha soddalashgan va ohangni yo‘qotadi. Ushbu badiiy uslubiy jihatni saqlash uchun turli badiiy vositalarni ishlatish kerak. Shu uchun tarjimada “Har nafasda Allohning ismidir mudom” degan jumla berilgan.

3. Madaniy-ma’naviy tafovutlar:

“Dökülür cümle güneh misl-i hazan” satrida “hazan” so‘zi o‘rta asrlar turk adabiyotida kuz faslini va undan olingan tasavvurdagi tushkunlikni bildiradi. Bu so‘z o‘zbek tilida “qish“ yoki “kuz“ deb tarjima qilinishi mumkin, lekin “hazannoma” kabi tushuncha diniy kontekstdagi ma’noni to‘liq ifodalay olmaydi. Bu madaniy tafovutlar tarjimachi uchun jiddiy muammo tug‘diradi. Shu boisdan tarjimada xazon so`zi orqali ikki ma`no ifodalab ketilgan.

4. She’riy shaklni saqlash:

Ushbu satrlarning she’riy tuzilishi, qofiya va ritmni o‘zbek tiliga to‘g‘ri o‘tkazish juda murakkab. “Dökülür cümle güneh misl-i hazan” jumlasining to‘liq she’riy va ritmik tuzilmasini o‘zbek tiliga ko‘chirishda ba’zan she’rning shakli o‘zgaradi.

Tarjimada she’riy tuzilma, ritm va qofiya saqlanib, asl matnning ma’no va estetik ohangi aynan yetkazilishga harakat qilindi. Bu tarzda tarjima qilish badiiy va diniy ma’nolarni aks ettiradi.

“*Vasilat-un-najot”tarjimasi misolida muammolar tahlili*

Badiiy matn tarjimasida uchraydigan muammolar orasida lug‘aviy va uslubiy xususiyatlar, madaniy-ma’naviy tafovutlar hamda she’riy shaklni saqlash muammolari alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, diniy-didaktik asarlarda bu murakkabliklar yanada sezilarli bo‘ladi. “Vasilat-un Najot” asarida **“Muhammad (s.a.v.) ruhining yaratilishi”** [Süleyman Çelebi.1:35] haqidagi bo‘lim ham ana shunday tarjima qiyinchiliklarini ko‘rsatadi.

Asl turkcha matn:

Çünkü Hâk evvelliğin bildün ayân
Dinle imdi kılayın sun'ın beyan
Hak Teâlâ ne yarattı evvela
Cümle mahlukdan kim ol evvel ola
Hem sebeb olmuş ola bu varlığa
İşk ile dinleyenin iy Hak yarlığa

Mustafâ rûhını evvel kıldı var
Sevdi anı ol Kerîm ü Kirdgâr

Tarjima:

Chunki Haq azaldan ayon qildi,
Endi tingla, haqiqatni bayon qildi.
Haq taolo avval nimani yaratdi,
Barcha mavjudotdan uni oldin yaratdi.
Bu borliqqa aynan u sabab edi,
Qalb bilan tinglaganga Haq rahm qildi.
Avvalo Mustafo ruhin paydo qildi,
Uni sevdi Yaratuvchi, Saxovatli zot.

Parcha tahlili:

1. Lug‘aviy tafovutlar: Asarda ishlatilgan “Kerîm ü Kirdgâr” iborasi turkiy she’riyatda Allohning sifatlari sifatida ishlatilgan: “Kerîm” – saxovatli; “Kirdgâr” – yaratuvchi. O‘zbek tilida bu sifatlarni aynan saqlash qiyin, ba’zi tarjimalarda “Kerim” so`zi sobit, o`zgarmas deb beriladi. Biroq bunda mazmunning chuqur falsafiy qirrasi yo‘qolishi mumkin.

2. Uslubiy xususiyatlar: Matndagi “Qalb bilan tinglaganga” iborasi diniy-ma’naviy mazmunni aks ettiradi. Bu iborani “ishq bilan tinglaganga” deb berish ham mumkin edi, lekin “qalb bilan” ifodasi ruhiy-estetik jihatdan chuqurroq. Tarjimada bu ohangni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Madaniy-ma’naviy tafovutlar:

“Mustafâ rûhını evvel kıldı var” satrida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ruhining yaratilishi butun mavjudotdan avval bo‘lgani ta’kidlanadi. Bu islomiy aqidani to‘g‘ri aks ettirish uchun tarjimada diniy-falsafiy mazmunni saqlash zarur.

4. She’riy shaklni saqlash:

Asl matnda muqim ritm va qofiya mavjud. O‘zbek tilidagi tarjimada ham bu ohangdorlikni saqlashga harakat qilingan. Ayrim iboralar uzunligi sababli ritmda farq bo‘lishi mumkin, lekin mazmunni yo‘qotmaslikka e’tibor berildi.

Ushbu tahlil “Vasilat-un Najot” asaridagi tarjima muammolarining murakkabligini ko‘rsatadi. Badiiy matnni asliga yaqin ifodalash uchun nafaqat lug‘aviy bilim, balki madaniy va diniy bilish qobiliyati ham muhimdir.

Semantik noaniqliklar va tarjima muammolari

Semantik noaniqliklar, tarjima jarayonida eng ko‘p uchraydigan va tarjimonni eng ko‘p qiynaydigan muammolardan biridir. Bu asar yoki matnning aniq bir ma’noga ega bo‘lmasligi yoki turli talqinlarga ega

bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Semantik noaniqliklar, ayniqsa, badiiy va diniy matnlarni tarjima qilishda ko‘rinadi, chunki bu turdagi matnlar ko‘pincha ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstga tayanadi.

“Vasilat-un Najot” asarida semantik noaniqliklar, asarning diniy, falsafiy va badiiy mazmuni bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Asarda ishlatilgan ba’zi iboralar va so‘zlar turli kontekstlarga qarab turlicha talqinlarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa tarjimada noaniqliklarga olib keladi.

Misol uchun, asarda ishlatilgan “Haq evvelliğin bildün ayân” iborasi, turkiy she’riyatda “Haqning avvalgi ilmiga ayon bo‘lgan” degan ma’noni anglatadi. Ammo o‘zbek tiliga tarjima qilinganida, bu ibora turli talqinlarda bo‘lishi mumkin. “Haqning avvalgi ilmiga ayon bo‘lgan” degan talqin asl matnning ma’nosini saqlashga qaratilgan, lekin bu ibora ba’zi o‘quvchilar tomonidan “Haqning avvalgi yaratuvchilik rejasiga ayon bo‘lgan” tarzida ham tushunilishi mumkin. Bu esa semantik noaniqlikka olib keladi.

Tarjimonning asosiy vazifalaridan biri – semantik noaniqliklarni bartaraf etish va matnning asl ma’nosini aniq ifodalashdir. Badiiy matnlar ko‘pincha bir nechta ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar, ramzlar va metaforalarga boy bo‘ladi. Bu matnning original ma’nosini to‘g‘ri saqlab qolish uchun tarjimonda aniqlik va moslik zarur. Tarjimon turli tillar o‘rtasidagi semantik farqlarni hisobga olishi kerak. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘z va iboralar, turk tilidagi so‘zlarga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, bu esa tarjimada noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, “İşk ile dinleyenin iy Hak yarlığa” iborasida “işk“ (ishq) so‘zi aslida sevgining chuqur, ilmiy va diniy ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida esa “ishq” so‘zi ko‘pincha faqat dunyoviy sevgi bilan bog‘lanadi, shuning uchun “Qalb bilan tinglagan” shaklida tarjima qilish to‘g‘riroq bo‘ladi. Biroq, bu ham ba’zi o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi mumkin.

Tarjimon semantik noaniqliklarni kamaytirish uchun quyidagi yo‘llarni qo‘llashi mumkin: 1. Kontekstual talqin: Tarjimon matnni yaxshilab o‘rganib, uning kontekstini to‘liq tushunishi kerak. Bu semantik noaniqliklarni to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

2. Ekvivalent so‘z va iboralar tanlash: Badiiy matnni tarjima qilayotganda, tilning o‘ziga xosligi va madaniyati hisobga olinishi kerak. Tarjimon o‘zbek tilidagi mos keladigan so‘z va iboralarni tanlashga harakat qilishi lozim.

3. Izohli tarjima: Ba’zi semantik noaniqliklar izohlar orqali bartaraf

etilishi mumkin. Agar biror ibora yoki so‘zning aniq ma’nosini to‘liq ifodalash qiyin bo‘lsa, tarjimon izohlarni qo‘shishi mumkin.

Badiiy matn tarjimasi jarayonida semantik noaniqliklar, lug‘aviy tafovutlar va madaniy muammolarni to‘g‘ri tahlil qilish juda muhimdir. “Vasilat-un Najot” asari misolida ko‘rib chiqilgan tarjima muammolari, asar ma’naviy va diniy mazmunining saqlanishi uchun tarjimonning ko‘plab qobiliyatlarini talab qiladi. Matnni aniq va to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon nafaqat tilni, balki madaniy, tarixiy va diniy kontekstni ham chuqur tushunishi zarur.

Tarjimada semantik noaniqliklarni bartaraf etish uchun kontekstual tahlil, ekvivalent so‘zlarni tanlash va izohli tarjimadan foydalanish kabi usullar muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning estetik va ma’naviy jihatlarni saqlashga intilishi, matnning asl mohiyatini o‘zgartirmasdan uning o‘ziga xosligini saqlab qolish imkonini beradi.

Shu bilan birga, diniy matnlar, xususan “Vasilat-un Najot” kabi asarlar, o‘zidagi chuqur ilmiy va ruhiy ma’no bilan tarjimaga alohida yondashuvni talab qiladi. Bu turdagi asarlarni tarjima qilishda nafaqat til, balki ma’naviy va diniy bilim ham zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, badiiy matn tarjimasi nafaqat so‘zlarni o‘zgartirish, balki bir tilning ma’naviy, estetik va madaniy xususiyatlarini boshqa tilga to‘liq aks ettirish jarayonidir. Bu jarayonda tarjimonning mahorati va tajribasi asosiy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Süleyman Çelebi. Mevlid (Vesılet-ün-Necât). İstanbul, 1990.
2. Aftondil Erkinov. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari (qo‘llanma) Toshkent: O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, 2019.
3. Mahmud Hasaniy, Alimullo Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. Toshkent:Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012.
4. Boltayeva O. Xilvatiy ijodini o‘rganishda qiyosiy-tipologik tadqiq metodidan foydalanish. 2023. 23-noyabr.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ МОДАЛЬНЫХ ЗНАЧЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Турсунова Д.А.,
магистрант Хожандского государственного университета

Annotation: This article analyses ways of expressing modal meanings in English. To determine the ways of expressing modal meanings, this article analyzes the method of comparative analysis of the using of the category of modality in English and Tajik. The main lexical indicators of objective modality are the moods of the verb. Various modal verbs can also be used. In English, these words include: may, must, shall, should, will, ought, need. And in the Tajik language, concepts such as: *ҳақиқатан*, *мумкин*, *даркор*, *лозим*, *бояд.*

***Key words*:** expressing, modal meanings, modality category, modal verb

Отечественные и зарубежные лингвисты определили следующие виды модальности в языке: объективная (онтологическая), субъективная и внутрисемантическая. Для того чтобы определить способы выражения модальных значений, в данной статье анализируется метод сопоставительного анализа использования категории модальности в английском и таджикском языках. Основными лексическими показателями объективной модальности являются наклонения глагола. Также могут использоваться различные модальные глаголы. В английском языке к ним можно отнести слова: *may, must, shall, should, will, ought, need*. А в таджикском языке такие понятия как: *ҳақиқатан, мумкин, даркор, лозим, бояд.*

Наклонение глагола, взаимосвязанное с предикативной сущностью высказывания, является основным лексическим средством выражения объективной (онтологической) модальности. Поэтому модальные глаголы и словосочетания, являясь самостоятельными словами предложения, выступают как полноправные части содержания высказывания.

Проведем сопоставительный анализ трех основных форм категории наклонения, представленных в английском языке: изъявительное (Indicative), сослагательное (Conjunctive), повелительное (Imperative).

В таджикском языке представлен другой ряд категории наклонения, отличный от английского языков: сиғаи хабарї

(изъявительное), сиғаи шартї – хоҳишмандї (сослагательное), сиғаи амрї (повелительное), сиға эҳтимолї (предположительное).

Сопоставительный анализ показывает, что изъявительное наклонение (Indicative, сиғаи хабарї) выражается как категория, которая определяет аналогию между реально существующими фактами действительности и содержанию фразы. В работе «Синтаксис немецкого языка» В.Г. Адмони пишет: «Изъявительное наклонение, по сложившейся традиции, определяется как категория, выражающая соответствие между содержанием высказывания и действительностью. Эта форма обозначает сказуемое отношение, выраженное в глаголе, как реальное с точки зрения говорящего.

Такое значение имеют все формы времен и залогов изъявительного наклонения по всей его парадигме» [1, 143].

Поскольку изъявительное наклонение (Indicative, сиғаи хабарї) относится к реальным явлениям действительности, его также иногда обозначают как нейтральное (амодальное) наклонение.

Индикатив (форма глагольного наклонения, служащая выражением представления о реальности) в английском языке, как правило, противопоставляется конъюнктиву и императиву (глагольная форма, служащая выражению представления о нереальности). На это обращает пристальное внимание Т.Б. Алисова в труде «Дополнительные отношения модиуса и диктума»: «Конъюнктив претерита в плане оценки реальности сказуемного отношения в предложении выражает различные степени нереальности этого отношения. Введение ирреальности в элементарное предложение всегда связано с наличием каких-либо семантических компонентов (либо в контексте, либо в самом этом предложении), которые, так или иначе, мотивируют введение соответствующей ирреальной характеристики сказуемного отношения в предложении» [2, 37].

Надо отметить, что основные случаи употребления конъюнктива для выражения ирреальности действия обусловлены наличием тех или иных связей, которые указывают, что предполагалось сообщить о реальном явлении, но это желание не было реализовано в связи с появлением дополнительных причин. Поэтому возникло высказывание, не соответствующее реальному явлению, то есть содержащее ирреальность. При всем прочем это явление возникает тогда, когда существует или отсутствует возможность выверенного составления конкретной фразы, как в

лексическом, так и в семантическом плане.

Как уже было отмечено, базовую основой реальности или ирреальности составляет категория глагольного наклонения. Но взаимодействуя с категорией времени, она создает дополнительные модальные возможности предложения. Такие сочетания категорий способны выражать субъективно-объективные отношения в языке. Так, употребление слова глагольного наклонения в настоящем времени является определяющей константой в отношении сказуемого, могущего носить такие оттенки содержания, как неполное утверждение или одна из форм сомнения.

Впрочем, вопрос о применении повелительного наклонения в соответствии с целью высказывания до настоящего времени не нашел единодушной оценки лингвистов и остается в языкознании спорным. Так, императив является, по существу, побудительным стимулом к действию и отражает совет или просьбу, с которым в диалоге обращается один носитель языка к другому. Императив несет в себе не конкретное действие, а лишь призыв к нему, сообщает о пожелании. Именно на таком функционировании глагольной формы настаивал Д.А.Штелинг. Это явление лежит в плоскости, скорее, субъективной, а не объективной модальности [4].

В таджикском языке форма конъюнктива является формой выражения объективной модальности. С функционированием других позиций связана реализация различных оттенков семантики субъективной модальности.

Глаголы сослагательного наклонения (сиғаи шартї – хоҳишмандї) обозначают действие, реализация которого связана с пределенным условием, при наличии такого определенного условия. Одним из основных форм и признаков данного наклонения в таджикском языке является аорист.

Глаголы повелительного наклонения (сиғаи амрї) выражают просьбу, приказания и волеизъявления субъекта действия.

Глаголы предположительного наклонения (сиғаи эҳтимолї) выражают действие, которое указывает на предположение, допустимость, сомнение говорящего в осуществлении какого-либо действия или состояния. В отличие от английского языка, глаголы данного наклонения имеют все возможные временные формы.

Все эти явления подробно отражены в учебнике «Грамматика таджикского языка» [6, 205-209].

В научной литературе по лингвистике не определен единый

подход к причастности определенной языковой категории в целом к одной из форм модальности – объективной или субъективной. Хотя, повторимся, что категория наклонения является базовой парадигмой объективной модальности, но границы между видами модальности в языке зачастую размыты и неопределенны.

В.З. Панфилов в своей работе «Роль модальности в конструкции предложения и суждения» пытался свести это противоречие к общему знаменателю. В частности, он писал: «В пределах объективной модальности различается алетическая и деонтическая модальности. Алетическая модальность выражает в предложении возможность и необходимость с точки зрения реальных условий и состояний. В случае деонтической модальности в предложении выражается возможность или необходимость с точки зрения общественных норм, этических принципов. И тот, и другой вид объективной модальности выражается в языке как лексическими, так и грамматическими средствами. При этом, хотя один и тот же способ может использоваться для выражения и того, и другого вида, наблюдается тенденция к их специализации» [10,40]. Однако эта попытка ограничилась призывом приобщить наметившуюся тенденцию к нормам языка, но не решила проблему четкого разграничения даже в рамках объективной модальности. Поэтому автор добавляет следующее определение: «Грамматические средства (система наклонений) используются в основном для выражения алетической разновидности объективной модальности. Деонтическая модальность формами наклонения выражается сравнительно редко» [10,41].

Более устойчивой прослеживается тенденция определения модальности в английском языке. Возможно, это объясняется тем, что в этом языке наблюдается стройная иерархия модальных глаголов. Например, глагол *shall* (быть должным, обязанным) содержит в себе определенную меру ответственности индивидума перед собой и обществом. А глагол *dare* (иметь разрешение) содержит значение необходимости выполнить свой долг перед социумом. В то же самое время глаголы *can, may* (иметь возможность) и *must* (быть должным) уже выражают как возможность, ответственность, так и необходимость выполнения определенных обязательств. Одновременно с вышеназванными значениями, глагол *can* в некоторых случаях может быть использован в функции глагола *dare,* а глагол *may* – глагола *shall.* Это происходит

в ситуациях, когда возможность и необходимость не являются осознанными, а могут выражать диктат руководства, социума, определенного человека.

Способом передачи модальности предположения в английском языке – сочетание модального глагола и инфинитива (глагольное сказуемое). В учебнике «Грамматика английского языка» приводится следующая трактовка: «В английском языке сочетание модальный глагол плюс инфинитив трактуется двояко: а) как составное (или сложное) глагольное сказуемое; б) как сочетание глагола с дополнением» [4, 310].

Следовательно, в английском языке для полного выражения данной категории необходимо наличие инфинитива. Это положение конкретизирует в своем труде «Грамматика текста» О.И. Москальская: «Если предположить, что грамматизация представляет собою процесс с наличием последовательных ступеней и переходных форм, то на данном этапе сочетание модального глагола и инфинитива возможно определить как устойчивые словосочетания с грамматической направленностью» [9, 186].

Как известно, вопросом взаимодействия лексем в составе предложения углубленно и последовательно занимался известный лингвист В.В. Виноградов. В частности, этим автором введен в языкознание термин «типизированное словосочетание», которое в труде «Исследования по русской грамматике» он рассматривает «на стыке лексики и грамматики, так как они выражают грамматические значения лексическими средствами» [5,558] Рассмотрим несколько примеров модального предположения:

- Я могу сам решить эту проблему;
- Я хочу научиться водить машину;
- Я умею вышивать гладью;
- Думаю, что быть в состоянии постоянного поиска – это увлекательно;
- Иметь право доступа к документам в архиве – это возможность изучить предмет более глубоко;
- Иметь возможность двигаться – огромное благо.

Проанализировав эти примеры, приходишь к выводу, что категорию предположения представляют как модальные глаголы, так и глагольно-именные элементы языка.

В работе «К вопросу о делении суждений по модальности» А.В. Исаев дает следующее определение: «Группу слов, выступающих в

функции модификаторов модальных отношений между субъектом и признаком, составляют слова типа *надо, нельзя, должен, можно, намерен,* называемые предикативными наречиями или предикативами. По своим лексико- семантическим особенностям предикативы распадаются на несколько разрядов, одним из которых является разряд модальных предкативов» [8,85]. Проследим, как используются эти лексемы в живом языке:

- Надо выполнить это задание;
- Нельзя есть немытые фрукты;
- Студент должен быть внимательным;
- Можно рассмотреть этот вопрос с другой точки зрения;
- Я намерен написать реферат к следующему семинару.

Мы привели ряд предложений, в которых использованы модальные предикативы. Из приведенных примеров можно сделать вывод, что модальные предикативы, в основном, сочетаются с инфинитивом и обладают обобщенным характером лексического значения, который выражает различные оттенки отношений между модальным предикативом и инфинитивом. С другой стороны, модальный предикатив является, по сути, значением, которое определяет уровень отношений между субъектом высказывания и признаком конкретного предмета или явления.

В речи прослеживается прямая зависимость модального предикатива от существительного в именительном или дательном падеже. Приведем несколько примеров:

- Я должен заботиться о своих немолодых родителях;
- Я готов к предстоящему экзамену;
- Это можно отложить на завтра;
- Надо подумать, как лучше воспользоваться этой возможностью.

Из анализа данных примеров мы убеждаемся, что в аспекте вышеназванной зависимости можно охарактеризовать модальные предикативы как личные или безличные, которые относятся или к области утверждения, или предположения.

Проводя сопоставительный анализ определения модальности предположения в английском языке, выявляется, что тяготеющим к глаголу модальным предикативам аналогичны модальные глаголы can, may. Из этого можно сделать вывод, что модальные предикативы по способам употребления в языке абвивалентны модальным глаголам, и они выражают различные степени модальности

возможности, предположительности или необходимости в высказывании. В то же самое время, модальные глаголы имеют специфические морфологические, синтаксические и семантические признаки, позволяющие относить их к отдельным группам по своим языковым значениям. Они выявляют связи, по которым явление, действие или состояние имеет отношение к реальной действительности, и выражают такие модальные категории, как предположение, возможность, желательность, необходимость и т.д., то есть, по сути, представляют собой вспомогательные глаголы.

Логично, последовательно и конкретно данные особенности рассмотрены в работе «Теоретическая грамматика английского языка» О.Г. Почепцова: «Специфика модальных глаголов (МГ) состоит в том, что они отличаются резко выраженной потребностью в обязательном, при этом четко определенном по своей морфологической структуре окружении. Обязательным окружением для МГ служит инфинитив, являющийся неотъемлемой характеристикой данных элементов в синтагматической цепи. Именно в синтаксическом поведении проявляется семантическое своеобразие МГ, которые, будучи глаголами неполной предикации, «притягивают» инфинитив для получения законченного смысла» [11,267].

Следуя этим выводам, можно констатировать, что в английском языке такие модальные глаголы, как *can, may, must, dare* используются для выражения какого-либо состояния, продиктованного объективными причинами. Например, во фразе «The woman might go in for sport», подлежащее (the woman) выражается состояние некоего действия, а не конкретные действия того, кто произнес эту фразу. В работе «Очерк функционального синтаксиса русского языка» ее автор Г.А. Золотова акцентирует внимание именно на такую позицию модального глагола: «Такие значения не представляют собой разновидности основного модального значения предложения, но образуют особый аспект модальных «внутрисинтаксических» отношений в высказывании» [7, 84]. Сравнительный анализ показывает, что в английском языке существует широкий круг языковых средств, выражающих категорию модальности. К ним можно причислить также глагольные сочетания, выраженные словами*: to have not to* и т.д.

Модальные модификаторы подчеркивают тончайшие нюансы реальности, ирреальности, возможности, достоверности,

уверенности, сомнения и т.д. Участник диалога может выразить разнообразными средствами языка уровень познаний, отношение к предметам, явлениям действительности. В той же мере он может выразить недоверие, скептическое отношение к теме беседы, неуверенность в высказанном утверждении.

В процессе изучения, ознакомления с каким-либо предметом или явлением действительности, индивидум проявляет такие способности мышления, которые свидетельствуют о степени достоверности, соответствия высказывания реальной действительности. В таких случаях применительна категория субъективной модальности. Причем, высказанное мнение может находиться далеко от истины и выражать только личностное отношение. Формально-грамматическое выражение такие ситуации в русском языке проявляется в интонировании речи и использовании модальных служебных слов, таких, как вероятно, несомненно, конечно и т.д., которые, как правило, подчеркивают категоричность или проблематичность высказывания. Приведем примеры использования вышеназванных модальных служебных слов:

- Вероятно, мы еще встретимся (возможность);
- Несомненно, этот вывод верный (реальное утверждение); - Конечно, завтра будет дождь (ирреальное утверждение).

Исследование категории предположения затрудняет то, что границы между значениями объективной и субъективной модальности размыты, а для их выражения могут быть применены похожие или одинаковые лексико-семантические средства. По существу, их определяет степень познания индивидумом одного и того же предмета или явления действительности и способ выражения объективной модальности возможности или субъективной модальности проблематичности посредством применения глагольных форм. Например, высказывание «Саид может снять изображение на видеокамеру» можно трактовать двояко: как суждение возможности или проблематичности, то есть, что Саид действительно может выполнить работу видеооператора, или он, вполне возможно, сделает эту работу.

Итак, рассмотрев пути и способы выражения модальных значений в языке, мы пришли к выводу, что они разнообразны, разноплановы по сфере своего применения, и могут заключать в себе тончайшие нюансы семантики и грамматики.

Использованные литературы:

1. Адмони В.Г.Синтаксис немецкого языка. – М., 1973. – С. 143.
2. Алисова Т.Б. Дополнительные отношения модуса и диктума // ВЯ, 1971. – № 1. – С. 54-68.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 487.
4. Бархударов Л.С, Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. Изд-е 4-е, испр. - М.: Высшая школа, 1978. – С. 137-138, 423.
5. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке // Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – С. 53 - 87.
6. Граматикаи забони тољикї. – Душанбе, 1982. – С. 429.
7. Золотова Г.А. Очерки функционального синтаксиса русского языка. – М.: Наука, 1973. – С. 351.
8. Исаев А.В. К вопросу о делении суждений по модальности // Логико-грамматические очерки. – М., 1961. – С. 85.
9. Москальская О.И. Грамматика текста. – М., 1981. – С.186.
10. Панфилов В.З. Роль модальности в конструкции предложения и суждения // ВЯ, 1977. – № 4. – С. 40.
11. Почепцов О.Г. и др. Теоретическая грамматика английского языка. – М., 1971. – С. 267.

FARMASEVTIK TERMINOLOGIYANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Akromov Ulugbek Sharodiddinovich,
f.f.f.d,(PhD)

Annotatsiya: Farmatsevtik terminologiya – farmatsiya va tibbiyot sohalarida qo‘llaniladigan atamalar tizimi bo‘lib, dorilar, ularning tarkibi, shakli, ta’siri, qo‘llash yo‘llari va ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog‘liq terminlarni o‘z ichiga oladi. Bu terminlar uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, ularning kelib chiqishi qadimiy tsivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Mazkur maqolada farmatsevtik terminologiyaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy manbalari yoritiladi.

Kalit so’zlar: Farmatsevtik terminologiya, dori vositalari nomlari, farmakologik atamalar, dori shakllari, retsept y, ozuvi, lotincha atamalar, farmatsevtik lug‘at, tibbiy terminologiya, farmakopeya atamalari, dozalash terminlari, xalqaro nomlash tizimi (INN), farmatsiya tili.

Abstract: Pharmaceutical terminology is a system of terms used in the fields of pharmacy and medicine, which includes terms related to drugs, their composition, form, effect, methods of application and production technologies. These terms have gone through a long historical development, and their origin dates back to the era of ancient civilizations. This article discusses the formation, stages of development and main sources of pharmaceutical terminology.

Keywords: Pharmaceutical terminology, names of drugs, pharmacological terms, dosage forms, prescription, dosage form, Latin terms, pharmaceutical dictionary, medical terminology, pharmacopoeia terms, dosage terms, international nomenclature system (INN), pharmaceutical language.

Farmatsevtika – bu dori vositalarini yaratish, ishlab chiqish, tekshirish, ishlab chiqarish, saqlash va qo‘llash bilan shug‘ullanuvchi tibbiyot sohasi hisoblanadi. Bu sohaga oid terminologiya esa mutaxassislar o‘rtasida aniq va tushunarli muloqot bo‘lishi uchun juda muhimdir. Farmatsevtik terminologiya – bu dori vositalari, farmakologik moddalarning nomlanishi, dozasi, qo‘llash usullari, farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini ifodalovchi atamalardir. Farmatsevtik atamalar tibbiyot va farmatsiya sohalarida ishlovchi mutaxassislar o‘rtasida aniqlikni ta’minlaydi. Xususan, dorilarning to‘g‘ri buyurilishi, dozalanishi, saqlanishi, kontrindikatsiyalari va yon ta’sirlari haqida aniq tushuncha shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.

Farmatsevtik atamalar tarixi insoniyat tarixining eng qadimiy davrlariga borib taqaladi. Dastlabki tibbiy va dorivor bilimlar qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalarida shakllana boshlagan. Bu davrlarda shifokorlar va tabiblar o‘simlik, hayvon va mineral moddalardan dorilar tayyorlashgan[1].

Qadimgi Misrda miloddan avvalgi 16-asrga oid “Ebers papirus” deb nomlangan manbada 700 dan ortiq dorivor modda va ularni qo‘llash usullari bayon etilgan.

Qadimgi Yunonistonda esa Gippokrat va keyinchalik Galen asarlarida farmakologik tushunchalarning birinchi ilmiy asoslari yaratilgan.

Aynan Galen tomonidan ishlab chiqilgan dori tayyorlash uslublari bugungi kunda ham “galenik preparatlar” deb ataladi. Bu terminologiya farmatsiyaning ilmiy asoslarini qo‘ygan ilk yondashuvlardan biri hisoblanadi.

[1] Karimov Sh.M., Xayitov X.A. — *Farmakologiya asoslari* (2019)

Farmatsevtik terminologiyaning asosiy qismi lotin va qadimgi yunon tillariga borib taqaladi. Bu holat quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

O‘rta asrlarda lotin tili Yevropada fan, tibbiyot va ilmiy yozuv tili sifatida keng tarqalgan. Farmatsevtik retseptlar, dori nomlari va tibbiy hujjatlar ko‘pincha lotin tilida tuzilgan. Ko‘plab ilmiy asarlar, ayniqsa Ibn Sino, Paracelsus, Avitsenna, Galen va boshqalar tomonidan yozilgan asarlar lotin tiliga tarjima qilinib, terminologiyaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Masalan, dorilarning shakllari (tablētta – tabletka, unguentum – maz, solutio – eritma) va ular bilan bog‘liq atamalar bugungi kungacha lotincha shaklida saqlanib qolgan[1].

Islom olamida farmatsevtik terminologiyaning rivoji o‘rta asrlarda islom olamida farmatsiya ilmi yuksak darajada rivojlanadi. Ibn Sino, Ar-Roziy, Al-Biruniy kabi allomalar tomonidan yozilgan asarlar farmakologiya va dorishunoslik fanining boyib borishiga sabab bo‘ldi. Bu davrda ko‘plab arabcha va forscha farmatsevtik terminlar shakllandi. Keyinchalik bu terminlar Yevropaga arab tilidan o‘tgan va farmatsevtik leksikonga singib ketgan. Masalan, “alkogol”, “aliksir”, “sirup” kabi so‘zlar arab tilidan kirib kelgan atamalardir.

XVII-XIX asrlarda farmatsiya fanining rivojlanishi bilan birga, yangi atamalar ham shakllandi. Kimyo fanining taraqqiyoti natijasida moddalarning tuzilishi, reaktsiyalari va farmakologik xususiyatlariga asoslangan atamalar joriy qilindi.

XIX-XX asrlarda: Xalqaro farmakopiyalar ishlab chiqila boshlandi.

INN (International Nonproprietary Names) – xalqaro dori nomlash tizimi paydo bo‘ldi. Farmatsevtik sanoat rivojlanishi bilan birga, tijorat nomlari va brend atamalari keng qo‘llanila boshladi. Hozirgi davrda farmatsevtik terminologiya:

Xalqaro standartlarga asoslangan (IUPAC, WHO-INN).

Gen terapiyasi, biotexnologik dorilar, sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan dori vositalari bilan bog‘liq yangi terminlar shakllanmoqda.

Elektron retseptlar, onlayn farmatsiya tizimlari orqali atamalar ham raqamli kontekstda ishlatilmoqda.

Farmatsevtik atamalar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

- **Farmakologik atamalar**: Moddalarning organizmga ta’siri, farmakodinamiya, farmakokinetika (masalan, *absorbsiyalash*, *metabolizm*, *yarim hayot davri*).

[1] Qodirov A.S., Karimov S.Q. — *Tibbiyot va farmatsiya atamalari lug‘ati* (2018)

- **Dozalash bilan bog‘liq atamalar**: *Doza, dozalash intervallari, maksimal doza, minimal samarali doza*.
- **Dori shakllari**: *Tabletka, kapsula, suspensiya, maz, in’yeksiya*.
- **Qo‘llash yo‘llari**: *Oral, intravenoz, intramuskulyar, dermal, sublingval* va boshqalar.
- **Kimyoviy va savdo nomlar**: Har bir dori moddasining kimyoviy nomi va tijoratdagi savdo nomi mavjud bo‘ladi (masalan, *Paratsetamol* – faol modda, *Panadol* – savdo nomi).

Farmatsevtik terminologiyaning asosiy qismi lotin tiliga asoslangan bo‘lib, bu xalqaro miqyosda yagona tushuncha shakllantirishga yordam beradi. Retseptlar ko‘pincha lotincha yoziladi (masalan: *Rp.: Paracetamoli 500 mg*)[1].

So‘nggi yillarda biotexnologik dorilar, gen terapiyasi, nanoformulyatsiyalar kabi sohalarning rivojlanishi bilan yangi atamalar paydo bo‘lmoqda. Bunga *biosimilarlar*, M*RNA vaktsinalari*, *target terapiya* kabi terminlar misol bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda Farmatsevtik terminologiya asrlar davomida qadimgi madaniyatlar, diniy-ilmiy maktablar va zamonaviy fan yutuqlari asosida shakllanib kelmoqda. Bu terminologiyaning ildizlari lotin va yunon tillariga borib taqaladi, biroq uning tarkibi doimiy yangilanib, global va zamonaviy ehtiyojlarga moslashib bormoqda. Farmatsevtik atamalarni chuqur o‘rganish nafaqat farmatsiya sohasi mutaxassislari, balki barcha tibbiy xodimlar uchun ham zarurdir, chunki bu bilimlar orqali sog‘liqni saqlash tizimi yanada samarali ishlaydi.

Farmatsevtik terminologiya bu tibbiy axborotning aniq va ishonchli uzatilishini ta’minlaydigan vosita bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimida muhim rol o‘ynaydi. Tibbiyot va farmatsiya sohasi mutaxassislari bu atamalardan to‘g‘ri va aniq foydalanishni o‘rganishlari zarur. Ayniqsa, dorilar bilan ishlashda, retsept yozishda va bemorga tushuntirish berishda farmatsevtik terminologiyani puxta bilish xatolarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Sh.M., Xayitov X.A. Farmakologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot, 2019.
2. Sharipova D.U. Farmatsiya texnologiyasi va dori shakllari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

[1] Jo‘rayev A.T. ─ Farmakognoziya va dori moddalari terminologiyasi (2022)

3. Mamatqulov U.N. Farmatsevtik kimyo va terminologiya asoslari. – Samarqand: SamDIF nashriyoti, 2020.
4. Qodirov A.S., Karimov S.Q. Tibbiyot va farmatsiya atamalari lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston tibbiyot nashriyoti, 2018.
5. Jo‘rayev A.T. Farmakognoziya va dori moddalari terminologiyasi. – Buxoro: BuxDUI, 2022.
6. Машковский М.Д. Лекарственные средства. – Москва: Новая волна, 2018.
7. Латинский язык для фармацевтов: Учебник / Под ред. Н.Л. Шуваловой. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
8. Ефремов С.М. Фармацевтическая терминология. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2020.
9. Фармакопея Российской Федерации (Государственная фармакопея), последняя редакция.

TEODOR DRAYZER IJODIGA BIR NAZAR (“BAXTI QORA KERRI” ASARI MISOLIDA)

Babaqulov Yunus Fayzullayevich,
Fan va texnologiyalar universiteti dosent, f.f.b,f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika adibi T. Drayzer ijodi “Baxti qaro Kerri” asarining yaratilish va voqealarning real hayot bilan bog‘liqligi, amerika jamiyatidagi iqtisod va inson omili masalalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Romantizm, realizm, baxt, ruhiy iztirob, iqtisod inson hayotini beqarorlashtiruvchi omil.

Abstract: This article focuses on the creation and connection of the events of the American writer T. Dreiser's work "Happy, Carrie" with real life, the issues of the economy and the human factor in American society.

Keywords: Romanticism, realism, happiness, mental anguish, the economy as a destabilizing factor in human life.

“Baxti qaro Kerri” ko‘p jihatdan avtobiografik asar deb aytish mumkin. Roman voqealari T.Drayzer nafaqat yaxshi bilgan, balki o‘zicha mehr qo‘ygan Nьyu-York va Chikago shaharlarida bo‘lib o‘tadi. O‘n sakkiz yashar Karolina Miber – Kerri – porloq kelajak izlab Chikagoga yo‘l oladi. Xo‘sh, 1887 yili Chikagoga kelgan o‘n olti yashar Teodorning maqsadi ham shu emasmidi? Kerrining ish qidirib shahar kezishi, uning qo‘rquvlari va uyatchanligi bo‘lg‘usi yozuvchi ilk bor shaharga kelgandagi boshidan kechirgan hissiyotlarning xuddi o‘zi. Kerri haqiqatda ham

Teodor turli vaqtda yashagan tumanda istiqomat qiladi. Kerri hayoti, uning yuksalishi tarixi ko‘p uchraydigan hol bo‘lib, Amerika jamiyati hayotidan bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Qishloqdan ulkan shaharga sodda, to‘g‘ri niyatli Kerri kapitalistik jamiyat ma'naviyatiga duch keladi – bu yerda orzular faqat pul evaziga ro‘yoga aylanadi. Yaxshi kiyinmoqchimisan – puldan cho‘z, ko‘ngilocharlik qilib, quvnoq yashamoqchimisan – yana mulla jiring o‘zat! “Eh, pul, pul, pul! Ularga ega bo‘lish naqadar zo‘r! Puli ko‘p bo‘lganida barcha muammolari bir pasda hal bo‘lardi-ya”. Kerri zarur mablag‘ni to‘g‘ri yo‘l bilan, haqqoniy tarzda ishlab topishga intiladi, ammo tez orada og‘ir mehnat evaziga faqat faqirona kun ko‘rishi mumkinligiga ko‘zi yetadi. Shunda “boylik vasvasasi” aqldan ustun keladi va Kerri kommivoyajer Druening o‘ynashiga aylanadi. Uning xohish-istaklari ma'lum vaqtga qadar qondirildi. Ammo yanada ko‘proq pul va boylik orzusi, yangi ko‘ngilocharliklar Kerrini Gerstvud quchog‘iga yetaklaydi. Kerri u bilan avval Kanadaga, so‘ng Nьyu-Yorkka qochib ketadi. Afsuski, Gerstvud bilan yaqinlik qizga na farovonlik va na baxt keltirdi. U yana ish qidirishga majbur. Bu gal baxt unga qulib boqadi – Kerri aktrisa bo‘lib ishga kiradi va tez orada muvaffaqiyatga erishadi.

Bir qarashda bu voqeada g‘ayri oddiy, viktorian ma'naviyati tarafdorlarining g‘azabini qo‘zg‘atadigan hech narsa yo‘qdek tuyuladi. Roman ma'nosi birmuncha sodda, oddiy stilistik vositalar yordamida yaratilgan bo‘lib, ammo voqealar rivoji ancha qizg‘in va dramatik kechinmalarga to‘la.

“Haqiqatda ham, - deb qayd etadi taniqli amerikalik tanqidchi M.Geysmar,- Drayzerning mehr va achinish hissi bilan to‘la ushbu romanini birinchi marta o‘qib chiqqaningizda nima uchun bu kitob asr boshida bunchalik shov-shuvga sabab bo‘lib, deyarli o‘n yil davomida nashriyotdan nashriyotga ko‘chib yurganini tushunish qiyin”.

Shu bilan birga, romanning nashr etilish, aniqrog‘i, ta'qiqlanish tarixi bir muncha o‘ziga xosdir. Drayzer o‘zining dastlabki romani ustida ishlashni 1900 yili tugatadi va do‘stlarining maslahatiga ko‘ra qo‘lyozmani “Xarper end brazers” nashriyotiga taqdim etadi. Nashriyot may oyi boshlarida qo‘lyozmani rad etib, uni qaytarib beradi. Xatda noshirlar asarni “realizmning ... buyuk namunasi” deb e'tirof etish bilan birga u tijorat nuqtai nazaridan o‘zini oqlamaydi deb hisoblaydilar. Yozuvchining ba'zi do‘stlari roman unda voqelik aynan real tasvirlanganligi sababli rad etildi deb hisoblardilar.

T.Drayzer shundan keyin qo‘lyozmani “Dabldey Peydj end kompani” nashriyotiga yo‘llaydi va bu yerda uni birinchi bo‘lib amerikalik taniqli realist-yozuvchi Frenk Norris qo‘liga tushadi. Uning “Maktig” romani endigina xuddi shu nashriyot tomonidan chiqarilgan edi. F.Norris “Baxtiqaro Kerri”ni munosib baholaydi va firma egalariga uni nashr etishni tavsiya qiladi. Tez orada nashriyot yozuvchi bilan shartnoma to‘zadi va qo‘lyozmani terishga yo‘llaydi. T.Drayzer quvonch va yangi rejalarga to‘lib Nьyu-Yorkka yo‘l oladi va yangi roman ustida ishlashga kirishadi. U har yili bittadan kitob yaratish niyatida. Ammo shu payt noxushlik ro‘y beradi. Nashriyotning Yevropada bo‘lib, shu sababli “Baxti qaro Kerri” bilan tanish bo‘lmagan egalaridan biri sayohatdan qaytib, roman korrekturasini o‘qib chiqadi va uni axloqqa zid deb topib, u sotilmaydi degan qarorga keladi. Uning bu fikrini xotini ham tasdiqlaydi. Noshirlar o‘zaro muhokamadan keyin yozuvchidan o‘zlarini romanni nashr etish majburiyatidan ozod qilishini so‘rab murojaat qiladilar. Biroq Drayzer nashriyot egalarini shartnomani qisman bo‘lsa ham bajarishga majbur etadi: kitob 1250 dona tiraj bilan chop etiladi. “Reklama – savdoni yuritishi”ni yaxshi bilgan noshirlar kitob reklamasini yo‘lga qo‘ymay, bo‘ysunmas muallifga saboq berib qo‘yishga qaror qiladilar. To‘g‘ri, bunday sharoitda F.Norris jurnal va gazeta tahririyatlariga romanning 127 nusxasini taqriz olish maqsadida jo‘natadi.

Romanga ko‘plab taqrizlar olindi va ularning ba'zilarida roman “adabiy asar, inson mavjudligi falsafasi namunasi sifatida romanni daholar darajasida yaratilgan” deb qayd etilgan edi. Shunday bo‘lsa ham savdo reklamasi yo‘lga qo‘yilmaganligi ta'sirini ko‘rsatdi – ko‘tara va chakana kitob savdogarlari kitobga buyurtma bermadilar. Romanning bor-yo‘g‘i 456 nusxasi sotildi, xolos. Yozuvchi bu zarbadan yana o‘zoq yillar o‘ziga kela olmay yurdi: uning ikkinchi romani faqat o‘n ikki yildan so‘ng chop etildi. Ba'zi amerikalik tanqidchilar, ular qatorida yozuvchining tarixchisi (biografi) U.A.Svanberg uqtirishicha, mahalliy kitobxonlar “Baxti qaro Kerri”ni “o‘qishni istamadilar”. Ammo haqiqat bu yerda emas: kitobxonlarga “roman bilan tanishish” imkonini bermadilar, chunki kitob do‘konlarida kitobning bironta ham nusxasi jo‘natilmadi. “Baxti qaro Kerri” o‘ziga xos ta'qiq ostiga olinib, amerikalik kitobxonlar bu ajoyib asarga munosib baho bergunlariga qadar ancha vaqt o‘tib ketdi.

Nihoyat, 1907 yilning bahoriga kelib “Baxtiqaro Kerri” Amerika Qo‘shma Shtatlari kitob do‘konlari peshtaxtalarida paydo bo‘ldi. Hamon uni ta'qiqlash to‘g‘risidagi talablar ora-sira yangrab turgan bo‘lishiga

qaramay, mamlakat matbuoti romanning ijobiy jihatlari, fazilatlarini ko‘rsatib o‘tib, uni ajoyib, “daho asar” deb ataydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allen U. Traditsiya i mechta: Kritich,obzor angl i Amerik, prozы s 20-x gg.do segodn. dnya.-M,1970.
2. Bruks V. V. Pisatelь i amerikanskaya jiznь, t. 2. – M., 1970.
3. Gaysmar M. Amerikansaiye sovremenniki. – M.,1976.
4. Zasurskiy Ya. N. Amerikanskaya literatura XX veka: Izd-vo Mosk. Un-ta, 1984.
5. Istoriya amerikanskoy literaturы: V 2 ch. – M., 1971.
6. Literaturnaya istoriya SShA: V 3t – M., 1978. – T. 2.

MAHMUD SHABISTARIY VA UILYAM BLEYK IJODIDA BADIIY MAHORAT

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi,
O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleyk poeziyasidagi badiiy mahorat va novatorlik muhokama etiladi. Ushbu ilmiy maqolaning obyekti sifatida “Gulshani Roz” va “Ma`sumlik va Tajriba qo`shiqlari” asarlari olingan. Ushbu asarlardagi obrazlarning tasviridagi mohirlik, go`yaviylik va psixologizm masalalari boshqa badiiy adabiy tur va janrlardan birmuncha farqlidir. She`rlarda uchragan obrazlarning umumiylik va xususiylik aspekti va badiiy mahoratning tarkibiy qismi sifatida ham ayni asarlarda namoyon bo`ladi.

**Kalit so`zlar:** badiiy asar, psixologizm, gumanizm, novatorlik, obrazlilik, badiiy tasvir vositalari, funksional- g`oyaviylik.

Annotation: This article discusses the artistic mastery and innovation in the poetry of Mahmud Shabistari and William Blake. The objects of this scholarly study are “Gulshani Raz” and “Songs of Innocence and Experience”. The skill, symbolism, and psychological depth in the depiction of images in these works differ significantly from those in other literary forms and genres. The aspects of generality and specificity in the imagery, as well as their function as components of artistic mastery, are clearly reflected in these works.

Keywords: literary work, psychologism, humanism, innovation, imagery, literary devices, functional-ideological content.

Kirish. “Yozuvchi badiiy mahorati yozuvchining o‘ziga xos olami, badiiy asarni yaratish sanatkorligidir. Ijodkorning badiiy mahorati asar

tilining mohirona berilishida, obraz yaratishida, badiiy tasvir vositalaridan o‘z o‘rnida, mohirona foydalanishida, asar kompozitsiyasini to‘g‘ri va tizimli shakllantirish kabilarda yaqqol namoyon bo‘ladi”. [G.I.Halliyeva, 2019: 36]. Bu yondashuv orqali biz badiiy asar tahliliga oid jarayonlarni shakllantirishimiz lozim.

Ushbu ikki yozuvchining asarlaridagi badiiy mahorat masalalarining umumiy xususiyati shundaki, har ikkalasi ham insonning ichki va tashqi kurashlarini, uning ijtimoiy va psixologik holatlarini yoritishga intilgan. Shabistariy va Bleykning badiiy olamida nafaqat individual ruhiyat, balki jamiyatning psixologik holati ham ifodalanadi. Har ikki yozuvchi o‘z asarlarida chuqur psixologik izlanishlar va insonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni tasvirlaydi, bu esa ularning badiiy poetikasini yanada boyitadi va rang-baranglashtiradi.

Shunday qilib, tadqiqotimizda badiiy mezonlarga asoslanib, yozuvchilarning hikoyalari tahlil qilinadi. Ma’lumki, yozuvchilarning badiiy mahoratini o‘rganishda poetikaning quyidagi mezonlari muhim ahamiyat kasb etadi [А.Б.Темирболат, 2011: 16].

1. Gumanizm (Insonparvarlik).
2. Estetik tuyg‘uni shakllantira olish.
3. Hayotiy haqiqatga sodiqlik.
4. Chuqur mushohada.
5. Muallif g‘oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi.
6. Umumlashtirish va tipiklashtirish.
7. Badiiy detallarning aniqligi va qaysidir g‘oyaga xizmat qilishi.
8. Syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat.
9. Qahramonlar ichki dunyosining mahorat bilan ochib berilishi.
10. Asar tilining boyligi va rang-barangligi.

Tadqiqotimiz doirasida adiblarning mahoratini yoritish maqsadida ularning asarlarini gumanizm, estetik tuyg‘uni shakllantirish, hayotiy haqiqatga sodiqlik, syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat hamda qahramonning ichki dunyosini ochib berish kabi mezonlar asosida tahlil qilishni rejalashtirdik.

Har bir ijodkor o‘z asarlarini san’at darajasiga ko‘tarishni maqsad qilib qo‘ygan holda, butun ijodi davomida shu yo‘nalishda izlanadi va ijod qiladi. Ushbu yuksak maqsadlarga erishish esa katta mahoratni talab etadi. Shubhasiz, ijodiy mahoratning eng muhim jihatlaridan biri obraz yaratish san’atidir.

Yozuvchi ma’lum g‘oya asosida to‘plagan alohida faktlarni o‘zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalbidan o‘tkazib, ko‘pchilikka xos qilib umumlashtiradi. Ya’ni, aniq g‘oyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to‘qiydi, umumlashtiradi va jonli, tabiiy va betakror go‘zal narsani yaratadi. Yaratgan asari (lavhasi) o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon boladi, kitobxon o‘y-xayollarini o'ziga tamoman band etadi [U. Hotamov, 2013: 73]. U. Hotamovning yuqoridagi fikri asarga yozuvchiking ichki dunyosi, badiiy olami, gaminstik xislatlari bevosita ta`sir etishi tavsiflangan.

Metodolodiya. Professor Ahmad Dar ham Shabistariyni yozuvchi sifatida birlamchi baxolar ekan yuqoridagi U. Hotamovga hamohang, fikrlarni beradi: “Mahmud Shabistariy avliyolik (valoyat) va payg‘ambarlik (nubuvvat) mohiyatini tasvirlashda tasavvufiy yozuvchilarning umumiy yo‘nalishiga ergashadi.” [B. A. Dar, 1966: 839]. Bu firklardan ma`lum bo`ladiki, shoir o`z asarida nafaqat yozuvchilik mahorati balki, shayx o`laroq ma`naviy dunyosini ham o`z asarida maujassam etkani shubhasizdir.

Tasavvuf adabiyoti takomiliga katta hissa qo`shgan va sufizm g`oyalari namoyondasi Mahmud Shabistariy va uning “Gulshani Roz” asaridagi obrazlar tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, undagi tasavvufiy obrazlar zamirida ramziy, shaxs va ilohiy -fantastik obrazlarga duch kelamiz. Shoirning har bir she`rida ushbu obrazlar katta mahorat bilan tasvirlanadi. Masalan, “Gulshani Roz” asarining oltinchi savolida Shayx mistik haqiqatni izlashda aqlning foydaliligini ochiqchasiga inkor etadi. U inson haqiqat sirini bilishi mumkin bo‘lgan “aql chegarasidan tashqari yo‘l” borligini ta’kidlaydi. Insonning bu intuitiv quvvati uning ichida yashirin bo‘lib, xuddi tosh ichida yashiringan olovga o‘xshaydi. Bu ichki olov alanga olganida, butun olam yorishib, nurlanadi.

Bilimning qiymati haqida o‘ninchi savolda Shabistariy shuni aytadiki, bilim deganda u dunyoviy hokimiyat va obro‘ orttirish vositasini nazarda tutmaydi, chunki bunday maqsadlar haqiqiy tasavvuf ruhiyatiga zid. Bilim faqat insonni to‘g‘ri amal sari yetaklaganida foydalidir, bu amal esa qalbdan tug‘ilishi lozim.

“Gulshani Roz” matni 69 ta boshlang‘ich misra bilan ochilib, unda asarning yozilish sabablari va maqsadi hamda butun asarning falsafiy mavzulari qisqacha yoritiladi. “Asarning epilog qismida esa Shabistariy o‘z uslubining tarkibiy qismlarini ta’kidlab, she’rlarni yaratishda aqlga asoslangan, vahiy orqali yetkazilgan va ma’naviy bilimlardan foydalanganini qayd etadi. [Sayeh Meysami, 2020: 36.]

Shoir asardagi ramziy va ilohiy obrazlardan teng nisbatda foydalanagan, biroq shaxs obrazlariga ko`p murojaat etmagan bo`lsada, “Insonlikni anglash”ga ba`gishlangan 3-savol javobida “Men” va “Sen” tushunchalari orqali shaxs aspektiga urg`u berib o`tadi. Bu obrazlar insonning ruhiy kamolotga erishish jarayonini tasvirlaydi. Ikki qadamli sayohat ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lining ramziy tasviridir. Demak, Shabistariy 1ta she`rida kamida 10ta obrazni bir she`riy muhitda jonlantirolgani va ularning xususiyatlarini she`riy mazmunda mohirona qo`llaganini ko`rishimiz mumkin. O`z- o`zidan obrazlar namoyon bo`lishini bir kontekstda badiiy tasvirlashda va stilistik vositalarda qo`llashdagi mahoratga guvoh bo`lamiz.

XX asr ingliz romantik adabiyotida besh taniqli ijodkor — Uordsvort, Bayron, Kolridj, Persi Shelli va Kits — adabiy tadqiqotlarda yetakchi shoirlar sifatida e’tirof etilgan. Uilyam Bleykning ushbu davr ijodkorlari qatoridan o‘rin olishi juda qiyin kechgan, chunki ko‘pchilik uning asarlarida romantizm uslubini tan olmagan. Biroq, shoir o‘zining bolalik sahnalari, tabiat mo‘jizalari va tasavvuriy obrazlari orqali bu beshlikka oltinchi sifatida qo‘shila oldi. Uning “Ma`sumlik qo`shiqlari” vaqt o‘tishi bilan romantizm davrining muhim to‘plamlaridan biriga aylandi [M. Natarajan, 2019: 8]. Bleykning she’riyatidagi ramziy obrazlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, “Yashil aks- sado” she’ridagi bolalar obrazi buni yaqqol ko‘rsatadi. Romantik adabiyotda tabiat alohida o‘rin tutadi va inson uchun ilohiy ne’mat sifatida talqin etiladi. Bu jarayon aynan sanoat inqilobi avj olgan paytda yuz bergani bejiz emas. Ushbu davr shoirlari tasviriy san’at, xususan, rassomchilik bilan ham yaxshi tanish bo‘lgani sababli, ularning tasviriy uslubi oldingi davrlar ijodidan jonli va ta’sirchan bo‘lib chiqdi. Ayniqsa, Bleykning asarlarida tasavvur kuchi tafakkurdan ustun ekani yaqqol seziladi. Uning mistik dunyoqarashi esa zamondoshlari tomonidan g‘ayritabiiy sifatida qabul qilingan.

Uilyam Bleyk o‘z qahramonlarining hissiy yoki psixologik holatini aks ettirish uchun tabiat dunyosini yorqin tasvirlash orqali ko‘p metaforalar, allegoriya, epitetdan foydalanadi. Uning qahramonlari atrofidagi dunyoni tasvirlash usuli ko‘pincha ularning ichki kurashlarini aks ettiradi. Uilyam Bleykning she`rlarida juda ko‘p qahramonlar o‘zlarini kuchsiz yoki zaif his etadilar. Bunday obrazlar orqali yozuvchi inson ruhining eng nozik jihatlarini ochib beradi. Masalan, Lamb (Qo`zichoq), “Little boy Lost” (“Kichkina yo`qolgan bola”), “Infant Sorrow” (“Bolakayni anduxi”), “Mo`ri tozalovchi” (“Chimney Sweeper”) she`rlaridagi bosh qahramonlar bunga yorqin namunadir [Britaniya

romantik adabiyoti, 2021: 31]. Uilyam Bleykning she`rlarida, ayniqsa, hayvonlar yoki tabiatning qahramon sifatida namoyon bo‘lishi, insonning o‘z zaifligini va kuchini qanday topishi haqida chuqur tahlil o‘tkazadi.

Ilohiy tabiat g‘oyasi hayvonlar va o‘simliklarga oid motivlar bilan she’rlarda aks sado beradi. Shaxsiylashtirilgan tabiatga zid ravishda, Bleyk odamlarga hayvon va o‘simlik xususiyatlarini ataylab taqdim etadi [Tetyana Kozlova, 2023:7.] Bleykning odamlarni tabiat orqali qanday tasvirlaganini o‘xshatish va metaforalar orqali ko‘rish mumkin, bu yerda tabiat manba, inson esa nishon domeni sifatida bog‘langan: “Keksa soqchilar... / qor kabi oppoq” (*Muqaddas payshanba*). She’rlarda bolalarni qo‘zichoq, qush, gul bilan taqqoslovchi o‘xshatishlar orqali nasroniy ramziylik ko‘p uchraydi: “Onalarining bag‘rida / uyasidagi qushlardek” (*Aks-sado bergan maysazor*), “London shahri gullari!” va “qo‘zilarning olomonlari” (*Muqaddas payshanba*), yoki “kabutardek oh-voh” (*Beşik qo‘shig‘i*da baxtli uxlayotgan bola haqida). Bunday tasviriy havolalar Iso Masih, begunohlik va himoya tushunchalarini anglatadi hamda Bleykning she’rlarida inson, tabiat va Xudoni bog‘lash uchun doimiy ravishda takrorlanadi.

Shoirning mohartining amaliy natijasi albatta, uning she`rlarida inikosini topadi. Bu o`rinda biz Mahmud Shabistariyning “menlikning” anglash, ya`ni “Insoniylik nimada?” deb nomlangan 3- she`rga ham mazmunan, ham g`oyaviy, ham hajman bir biriga yaqin “Ma`sumlik qo`shiqlari” qismidan olingan “Insoniy mavhumlik” (“Human Abstract”) she`rini tahlilga tortamiz (3-ilova). Birlamchi obyektda amalga oshirganimiz kabi, bu she`rdagi obrazlarning tipologik xususiyatlarini birma bir tadqiq etib chiqamiz.

Natija va muhokama. Bu she`rda ham aniq mistik obraz ishlatilgan bo`lib turli funksional- ideologik ma`nolar tashiganiga guvoh bo`lamiz. Bu obrazlar ezgulik va yovuzlikning tabiiy muvozanatini yoki uni buzish natijasida paydo bo‘ladigan oqibatlarni ifodalaydi. Bleyk she’rlarida abstrakt tushunchalarni jonlantirish keng uchraydi. Bu she’rda ham inson axloqining qanday shakllanishi va qanday buzilishi allegorik tarzda tasvirlangan.

Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleykning she’riyati va undagi badiiy mahoratini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ramziy obrazlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har ikki shoirning tasavvur kuchi tafakkuridan ustun ekanligi yaqqol seziladi.

Ayniqsa, tabiat va insoniyat o‘rtasidagi munosabat tasvirlangan misralarda bu holat ko‘zga tashlanadi.

2. Uilyam Bleyk ijodida ishora va metaforalari poetik fikrni chuqur ifodalashga xizmat qilsa, Shabistariy ijodida jonlantirish va allegoriya ustunlik qilishadi.

3. Shabistariy poeziyasida ruhiy barkamollik, ma`naviy yetuklikka ilohiy va ramziylikda aks etsa, Uliyam Bleyk tabiatga va hayotga bo‘lgan mehr va muhabbat insonlarning nigohida aks ettirgan.

Xulosa. Shunday qilib shuni aytishimiz mumkinki, Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleykning she`rlarida obraz yaratish mahorati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, har ikki yozuvchi ham inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish orqali kuchli, haqiqiy va psixologik jihatdan kompleks obrazlarni yaratadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. A. Dar. Musulmon falsafasi tarixi. 1966.
2. Britaniya romantik adabiyoti. Indira Gandi Milliy Universiteti. IGNOU. 2021. B. 31.
3. G.I.Halliyeva, Qiyosiy adabiyotshunoslik. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2019.
4. Hotamov U. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent. – B. 73.
5. Shabistariy M. Gulshani Roz. Unitilgan kitoblar. 1880.
6. Natarajan M. “Romantik adabiyot” o`quv qo`llanma. Alagappa Universiteti. 2019. – B. 8.
7. T. Kozlova. Ut pictura poesis: Uilyam Bleykning she’riy dunyoqarashida so‘z va tasvir sintezi. ACNS Konferensiyalar to‘plami: Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar. 2023.
8. S. Meysami. Haqiqat Nuqtasi va Zohiriy Ko‘rinish Doirasi. Tasavvufshunoslik jurnali. 2020.
9. U. Bleyk. “Ma`sumlik va Tajriba qo`shiqlari”. London. Picadelliy. 1866.
10. А.Б.Темирболат. Поетика литературы. Учебное пособие. – Алматы. 2011.

ГЛАГОЛЫ-НЕОЛОГИЗМЫ КАК ОБЪЕКТ ТЕКСТОЛИНГВИСТИКИ (НА МАТЕРИАЛЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА)

Ziyadullayev Ilhom Oblakulovich,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

Annotation: This paper examines German verb-neologisms (*googeln*, *liken*, *sharen*, *downloaden*, etc.) as objects of text linguistics. The study is based on the analysis of 500 digital and media texts (social networks, blogs, forums), using corpus methods, semantic and pragmatic approaches. It reveals key functions of verb-neologisms: actualizing discourse, marking digital culture and community membership, economizing language, and text stylization. They act as genre markers (headings, instructions, advertisements), shape text rhythm and emotional tone, and enhance coherence and interactivity. Their strong integration across registers-from informal speech to official contexts-and their impact on genre and textual structures are demonstrated. The findings underscore the importance of verb-neologisms as text-forming units and indicators of linguistic change in the era of digital communication.

Keywords: German language, neologism, verb neologism, text linguistics, digital communication, discourse marker, pragmatics.

Аннотация: В статье исследуются глаголы-неологизмы современного немецкого языка (*googeln*, *liken*, *sharen*, *downloaden* и др.) как объект текстовой лингвистики. Анализ проводится на основе 500 текстов цифровой и медийной коммуникации (соцсети, блоги, форумы), с применением методов корпусного анализа, семантического и прагматического подходов. Установлено, что глаголы-неологизмы выполняют ключевые функции: актуализуют дискурс, маркируют принадлежность к цифровой культуре и определённым сообществам, экономят речевые средства и стилизуют тексты. Они выступают жанровыми маркерами (заголовки, инструкции, рекламные сообщения), формируют ритм и эмоциональную окраску текста, способствуют когерентности и интерактивности. Выявлена их высокая адаптация в языке — от разговорной речи до официальных контекстов — и их роль в трансформации жанров и текстовых структур. Результаты подчёркивают значимость глаголов-неологизмов как текстообразующих единиц и индикаторов языковых изменений в эпоху цифровой коммуникации.

Ключевые слова: неологизм, глагол-неологизм, текстовая лингвистика, цифровая коммуникация, дискурс-маркер, прагматика.

Глаголы-неологизмы представляют собой уникальный объект исследования в области текстовой лингвистики, который позволяет анализировать динамику языка и его адаптацию к современным реалиям. В немецком языке неологизмы часто возникают как результат социокультурных изменений, технологического прогресса и влияния других языков [Nikula, 1986: 102]. В данной статье мы рассмотрим природу глаголов-неологизмов, их функции и роль в текстах, а также проанализируем примеры, их происхождение и влияние на язык.

Неологизм — это новое слово или выражение, которое еще не вошло в общий обиход или официальные словари. Глаголы-неологизмы могут возникать через различные механизмы: калькирование, заимствование и переосмысление существующих слов. Их изучение важно для понимания изменений в языке и общества.

Неологизмы в немецком языке можно классифицировать по нескольким критериям:

- Заимствованные неологизмы: слова, пришедшие из других языков (например, *„downloaden“* от английского *„to download“*).
- Кальки: переведенные слова, сохранившие структуру оригинала (например, *„Handy“*, обозначающее мобильный телефон, изначально не имело аналогов в немецком языке).
- Активные неологизмы: активно используемые в речи (например, *„googeln“*).

Пассивные неологизмы: которые начали устаревать и уходить из обихода. В немецком языке многие неологизмы появляются в результате технологических новшеств. Например, глагол *„googeln“* (гуглить) стал широко использоваться в разговорной речи для обозначения поиска информации в интернете. Другие примеры включают [Franke, 2006: 164]:

- **„Sharen“** (делиться) — использование в контексте социальных сетей.
- **„Liken“** (лайкать) — оценка контента в интернете.
- **„Streamen“** (стримить) — передача данных в реальном времени, часто используется в контексте видео и музыки.

Неологизмы не только обогащают язык, но и отражают изменения в обществе. Например, во время пандемии COVID-19

возникли новые термины, такие как *„Homeoffice“* (домашний офис) и *„Social Distancing“* (социальное дистанцирование), которые стали частью повседневной лексики.

Глаголы-неологизмы выполняют несколько ключевых функций в текстах и играют важную роль в процессах коммуникации и понимания. Их влияние на текстовую лингвистику можно рассмотреть через несколько аспектов:

Глаголы-неологизмы добавляют новые слова и выражения в язык, что способствует обогащению лексического запаса. Они позволяют более точно и выразительно описывать современные явления и концепты, которые ранее могли быть недоступны из-за отсутствия соответствующих терминов. Важно отметить следующие моменты:

Неологизмы, как правило, отражают современные реалии, такие как технологии, общественные движения или культурные изменения. Например, слова, связанные с цифровыми технологиями, становятся все более распространенными в текстах, что позволяет авторам точно передавать свои мысли и идеи.

Неологизмы часто используются в узкоспециальных или профессиональных областях, таких как информационные технологии, медицина или маркетинг. Это позволяет специалистам более эффективно общаться в своей области, используя термины, которые понятны только им [Годжаева, 2014: 158].

Использование глаголов-неологизмов может указывать на принадлежность говорящего к определенной социальной группе, субкультуре или поколению. Это создает множество возможностей для анализа текста и его восприятия:

Включение неологизмов в речь может сигнализировать о том, что говорящий принадлежит к определенной группе, которая активно использует эти термины. Например, молодежь часто использует сленговые неологизмы, что подчеркивает их идентичность и принадлежность к молодежной культуре.

Неологизмы, заимствованные из других языков, могут указывать на влияние глобализации и межкультурных коммуникаций. Например, использование английских терминов в немецком языке отражает влияние англоязычной культуры на немецкоговорящие страны.

Глаголы-неологизмы являются показателями динамики языка и его изменений. Они демонстрируют, как язык адаптируется к новым условиям существования и меняющимся социальным реалиям:

Неологизмы показывают, что язык постоянно развивается и изменяется в ответ на социокультурные изменения. Это позволяет лингвистам исследовать, как и почему язык меняется со временем.

Когда новое слово или выражение становится популярным, это может привести к изменению грамматической структуры языка. Например, некоторые неологизмы могут изменить правила использования предлогов или порядок слов в предложении, что может привести к изменению синтаксиса.

Глаголы-неологизмы часто обладают особой эмоциональной или стилистической окраской, что влияет на восприятие текста.

Использование неологизмов может помочь создать определенную атмосферу или настроение в тексте. Например, автор может использовать молодежный сленг, чтобы подчеркнуть непринужденность и современность своей работы. Неологизмы могут быть использованы для выражения индивидуальности автора и его стиля. Это позволяет читателю лучше понять личные взгляды и предпочтения автора, что может сделать текст более привлекательным и запоминающимся [Тошалиева,1998:12]. Глаголы-неологизмы играют важную роль в медиа и рекламе, где эффективная коммуникация является ключевым фактором успеха:

Неологизмы могут привлекать внимание читателей или зрителей благодаря своей новизне и оригинальности. Это особенно важно в рекламной сфере, где необходимо выделиться среди множества аналогичных предложений.

Использование глаголов-неологизмов может помочь более точно передать информацию о продукте или услуге, что может повысить эффективность рекламной кампании.

Глаголы-неологизмы играют значительную роль в текстовой лингвистике, обогащая язык, подчеркивая социальный контекст, демонстрируя динамику языка и влияя на эмоциональную окраску текстов. Их использование в медиа и рекламе также подчеркивает их важность в современном обществе.

Исследование неологизмов позволяет глубже понять, как язык реагирует на изменения в культуре и обществе, а также как он служит средством выражения идентичности и креативности. Современная языковая реальность характеризуется высокой степенью

динамичности, обусловленной как внутренними, так и внешними факторами развития общества.

В этом контексте глаголы-неологизмы в немецком языке представляют собой уникальный лингвистический и текстолингвистический феномен, находящийся на пересечении лексикологии, грамматики, прагматики и анализа текста. Они выступают не просто новыми словами, а активными участниками текстообразовательных процессов, выполняя широкий спектр коммуникативных и дискурсивных функций [Schwarz, 2006: 126].

В процессе исследования было установлено, что глаголы-неологизмы обладают мощным функциональным потенциалом в текстах цифровой и медийной коммуникации. Они не только номинируют новые действия, обусловленные развитием технологий и глобализацией, но и служат маркерами социальной принадлежности, жанровой специфики, эмоционального окраса и прагматического намерения автора текста.

С текстолингвистической точки зрения, глаголы-неологизмы способствуют:

- созданию связности и когерентности текста;
- отражению актуальности и новизны коммуникативной ситуации;
- формированию особого стиля и тональности общения;
- усилению выразительности и эффективности речевого воздействия.

Также важно подчеркнуть, что глаголы-неологизмы активно функционируют как элементы языковой игры, иронии, молодежного сленга и одновременно проникают в официальную, академическую и институциональную речь, что указывает на их высокую адаптивность и степень интеграции в языковую систему.

Таким образом, анализ глаголов-неологизмов в немецком языке с позиций текстолингвистики позволяет не только выявить новые механизмы текстопорождения, но и глубже понять, как язык отражает и формирует современные способы коммуникации. Это открывает широкие перспективы для дальнейших исследований в следующих направлениях:

- сопоставительный анализ глаголов-неологизмов в разных языках (например, немецком, русском, узбекском);
- изучение рецепции и адаптации неологизмов среди разных социальных и возрастных групп;

- исследование влияния глаголов-неологизмов на трансформацию жанров и текстовых форм в интернет-дискурсе. [Ахмедов, 2018: 11]

Глаголы-неологизмы — это не просто модные слова: это индикаторы изменений, двигатели языка и инструменты создания смысла в современном тексте. Их изучение в рамках текстолингвистики представляет собой важный вклад в понимание эволюции языка в эпоху цифровой трансформации и межкультурной коммуникации.

Использованные литературы:

1. Nikula H. Valenz und Text // Deutsch als Fremdsprache. – Leipzig. – №23:5. 1986, – 268 S.
2. Schwarz M. Einführung in die kognitive Linguistik. – Tübingen: A. Francke Verlag, 2006. – 238 S.
3. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.
4. Годжаева Н. Неологизмы современного немецкого языка // Вестник Кемеровского государственного университета. – Кемерово, 2014. –№3 (59). –Т. 2. – С.281.
5. Ахмедов А. Ҳозирги немис тили лексикасида инновацион жараёнлар. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер.автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 22.
6. Franke W. Einführung in die Sprachwissenschaft. – Hamburg: Helmut Buske Verlag, 2006. – VIII, – S. 280

TIL O‘ZLASHTIRISHDA UNDOSH TOVUSHLAR KLASTERI BO‘YICHA XULOSALAR TAHLILI (CHET EL TADQIQOTLARI NATIJALARI ASOSIDA)

Saidaxmedova Odinaxon Ibroximjon qizi,
Filologiya bo‘yicha falsafa fanlari doktori, dots.v.b
Toshkent amaliy fanlar universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada undosh tovushlar o‘zlashtirilishi, tovush o‘zlashtirishdagi tartib, tovushlar talaffuzida klasterlarning yuzaga kelishi masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *tovush o‘zlashtirish, talaffuz, undoshlar klasteri, ikki elementli undoshlar klasteri, portlovchi va sirg‘aluvchi tovushlar o‘zlashtirilishi*

Abstract: The article discusses the issues of consonant acquisition, the order of sound acquisition, and the occurrence of clusters in the pronunciation of sounds.

Keywords: *sound acquisition, pronunciation, consonant cluster, two-element consonant cluster, acquisition of explosive and gliding sounds*

Tovush o‘zlashtirish hodisasi psixolingvistika sohasida eng qiziqarli masalalardan hisoblanadi. Bu bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar o‘tkazilgan. S.Makleod va boshqalar undosh tovushlarning o‘zlashtirilishi bo‘yicha qilingan tadqiqotlardan olingan 10 ta xulosani sharhlaydilar. Bu xulosalar tovush o‘zlashtirishda qanday jarayonlar kechishi haqida aniqroq tasavvur beradi. Quyida xulosalar va ularning sharhi keltiriladi: [McLeod, S., van Doorn, J., & Reed, V. A. (2001)]

1. *Ikki yoshli bolalar undosh tovushlarni hosil qilishi mumkin, ammo bu klasterlar kattalar nutqi bilan bir xil shaklda bo‘lmaydi.* 2 yoshli bolalarning fonologiyasini o‘rgangan tadqiqotchilar ularning undosh tovushlarni yaratish qobiliyati haqida fikr bildiradilar [Dodd, 1995b; Dyson, 1988; Stoel-Gammon, 1987; Watson & Scukanec, 1997a, 1997b]. Biroq bolalarning undosh tovushlarni yaratishga bo‘lgan urinishlari atrof-muhit tilidagidan farq qilishi aniqlandi. Masalan, Dyson (1988) tadqiqotida 2-3 yoshli sinaluvchilarning aksariyatida bolaning o‘zigagina xos bo‘lgan tovushlar klasteri mavjudligi (*fw, kb*) aniqlangan. Repertuardagi so‘z boshiga tegishlilari asosan (*sn, kw, gw, bw, pl, bl, st*) bo‘lsa, so‘z yakunidagi klasterning asosiy qismi burun tovushlari ekani qayd etilgan (nd, nt, nk).

2. *Bolalar nutqida so‘zning yakuniy undoshlari klasterlari odatda so‘z boshida keladigan undoshlar klasteriga qaraganda ertaroq paydo bo‘ladi* [Chervela, 1981; Dyson, 1988; Macken, 1977; Watson & Scukanec, 1997b]. Ushbu xulosa bo‘yicha tadqiqotlar turlicha natijani qayd etganini kuzatish mumkin. Masalan, Watson va Scukanec (1997b) tadqiqotida 2;6 yoshdagi ishtirokchilar nutqida so‘zning boshlang‘ich klasterlari [pw, bw] so‘z-yakuniy undosh turkumlaridan [-nd, -ts] kamroq ekanini ta’kidlaydilar. Bolalarning grammatik morfemalarni o‘zlashtirishi asosiy sabab sifatida ko‘rsatiladi (masalan, ko‘pliv va o‘tgan zamon qo‘shimchasi). Biroq keyingi tadqiqot natijalarida buning aksi ekaniga ishora mavjud. S.Makleod, J.Durn, V.Rid o‘tkazgan tajriba natijalarida kuzatish uchun tanlab olingan bolalar nutqida so‘z boshida keluvchi undoshlar klasteri so‘z yakunida keladiganlaridan avvalroq uchrashini qayd etishadi hamda *sn, bw, pw, bl, tw* kabi klasterlar *-nt, -nk* kabi klasterlardan avvalroq paydo bo‘ladi degan xulosaga kelishadi. Bundan

tashqari, avvalgi tadqiqot ishlariga munosabat bildirib, so‘z oxirida keluvchi klasterlarni aniqlashga qaratilgan stimullarning miqdori so‘z boshida keladiganlaridan ko‘p ekani natijaga ta’sir qilishi hamda noto‘g‘ri xulosaga olib kelganligi qayd etiladi.

3. *Ikki elementli undoshlar klasterlari uch elementli klasterga qaraganda avvalroq o‘zlashtiriladi* [Smit va boshq., 1990; Templin, 1957]. Bu uch elementli undoshlar klasterlarida uchraydigan fonemalarning qiyinchilik darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

4. *Portlovchi tovushlarni o‘z ichiga olgan klasterlar sirg‘aluvchi undoshli klasterlarga qaraganda avvalroq o‘zlashtiriladi.* [Ingram, 1976; Smit va boshq., 1990; Smith, 1973; Templin va boshq., 1973;]. Masalan, Templin (1957) ning 4 yoshli bolalar nutqida barcha portlovchi + titroq tovush klasterlarini (*gr* dan tashqari) 75% foiz aniqlik ko‘rsatkichida talaffuz qila olishini qayd etgan, ammo Pauell va Elbert (1984) tomonidan qayta tahlil qilinganda bolalar nutqida hech qanday sirg‘aluvchi + titroq klasterlari uchramagan. S.Makleod o‘tkazgan tajriba natijasi esa bu xulosani rad etadi hamda sirg‘aluvchi undoshli klasterlar portlovchi undoshli klaster bilan bir vaqtda o‘zlashtirilishi, qolaversa, sirg‘aluvchi undoshlar klasterlar portlovchililarga qaraganda miqdor jihatdan ko‘proq ekanini aniqlaydi.

5. *Yosh bolalar odatda undoshlar klasterining bir elementini aytmaydi* [Dodd, 1995b; Dyson & Paden, 1983; Grunwell, 1981; Haelsig & Madison, 1986; Hodson, 1982; Ingram, 1989; Olmsted, Preissers, 1978; Robert va boshqalar. Burchinal, & Footo, 1990; Shribberg & Kwiatkowski, 1980; Watson & Scukanec, 1997a]. Bu holat klasterni qisqartirish deb ataladi. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sari klasterlarning qisqarishi kamayadi. Klasterning qisqarishi va bolaning yoshi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik aniqlangan bo‘lib, 1;6 yoshdan 1;9 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun klasterning o‘rtacha qisqarishi 93% dan 2;2 yoshdan 2;5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 51% ga tushganligini aniqlagan.

6. *Omonimiya yosh bolalarning undosh tovushlarni yaratishga urinishlari tufayli yuzaga keladi* [Leinonen-Davies, 1988; McLeod, van Doorn, & Reed, 1996, 1998]. Omonimiya klasterning qisqarishi natijasida yuzaga keladi (masalan, [bÓd] ham *bread*, ham *bed* uchun ishlatiladi); bunga zid ravishda omonimlar klaster yaratish natijasida ham paydo bo‘lishi mumkin (masalan, *snall* so‘zi *snail* va *nail* so‘zlarini ifodalash uchun ishlatiladi) [McLeod va boshqalar, 1998].

7. *Klasterni soddalashtirish, ya’ni (Smit, 1993; Watson & Scukanec, 1997a), klaster elementlari talaffuz qilinadi, lekin elementlardan kamida*

bittasi maqsadli fonemaga mos kelmaydi [Grunwell, 1987] (masalan, [bwÓd] yoki [bErÓd] so‘zi *bread* ifodalashda qo‘llanadi). [Bortolini & Leonard, 1991; Dyson & Paden, 1983; Higgs, 1968; McLeod, van Doorn, & Ried; Dyson va Paden, 1983]. Metateza kam uchraydi, masalan, [aks] *ask* so‘zi o‘rnida qo‘llangan (Olmsted, 1971).

8. *Undosh tovushlar klasterini egallash bosqichma-bosqich bo‘lib, tipik rivojlanish ketma-ketligi mavjud.* Dastlab bolalar undosh klasterlardan birini talaffuz qilmaydi (qila olmaydi), keyin klasterlarni saqlab qoladi, biroq bu klaster til tizimidagidan farqlanadi va oxirgi bosqichda bola undosh klasterni to‘g‘ri talaffuz qilishni boshlaydi [Grinli, 1974; McLeod va boshq.]. Bu jarayon, ayniqsa, so‘z oxirida keluvchi klasterlar talaffuzida yaxshiroq ko‘zga tashlanadi.

9. *Klasterni qisqartirish – klasterni soddalashtirish – klasterni to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud.* A.Dyson va E.Paden buni “tartibli to‘plamlar” deb atashgan. Bolalar so‘z boshida keluvchi undosh klasterlarni o‘zlashtirish uchun quyidagi tartibli to‘plamlarni qabul qilishlari mumkin:

a. Klasterni qisqartirish → to‘g‘ri talaffuz [Dyson & Paden, 1983].

b. Klasterni qisqartirish → bir segment buzilgan yoki almashtirilgan → to‘g‘ri talaffuz [Dyson & Paden, 1983; Greenlee, 1974; Smit, 1993; Watson & Scukanec, 1997a]

c. Klasterning hech bir elementini talaffuz qila olmaslik → bitta elementni talaffuz qilish (klasterni qisqartirish) → ikkita elementni talaffuz qilish (klasterni soddalashtirish) → to‘g‘ri talaffuz [Greenlee, 1974; Elbert & McReynolds, 1979].

A.Daysen va E.Padenning tartibli to‘plamlar konsepsiyasi M. Uotson va G.Skukanek tomonidan 2;0 dan 3;0 gacha bo‘lgan 12 ta bolada o‘tkazilgan tajriba natijalari ma’lumotlari asosida shakllangan. Unga ko‘ra, bola nutqida klasterni soddalashtirishning ko‘payishi klasterni qisqartirishning kamayishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgan va keyinchalik klasterni soddalashtirish ham kamaygan. Xuddi shunday, 2 yoshdan 9 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqi o‘rganilganda yosh bolalarda klasterning qisqarishini, katta yoshdagi bolalarda klasterni soddalashtirish va undan ham katta yoshdagi bolalarda undosh tovushlar klasterini to‘g‘ri talaffuz qilingani qayd etilgan.

10. *Oddiy rivojlanish ketma-ketligi mavjud bo'lsa-da, undosh klasterlarni o‘zlashtirishda sezilarli individual o'zgarishlar mavjud* [Dyson & Paden, 1983, Donahue, 1986; Smit va boshq., 1990, Templin, 1957]. Umumjahon rivojlanish ketma-ketligi va umumiy tendentsiyalari haqidagi

ma'lumotlar bolalarni solishtirish mumkin bo'lgan rivojlanishning umumiy modelini yaratish uchun muhim bo'lsa-da, individual farqlarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bir tomondan, rivojlanish universallari, ikkinchi tomondan, individual ta'lim va o'zgaruvchanlik o'rtasidagi munosabatlarni tushunish orqali rivojlanishning yaxlit ko'rinishiga erishish mumkin.

Ushbu xulosalar o‘zbek tilida undosh tovushlar o‘zlashtirilishi, tovush o‘zlashtirishdagi tartib, tovushlar talaffuzida klasterlarning yuzaga kelishi jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dyson, A. T., & Paden, E. P. (1983). Some phonological acquisition strategies used by two-year-olds. Journal of Childhood Communication Disorders, 7, 6–18.
2. McLeod, S., van Doorn, J., & Reed, V. A. (2001). Consonant cluster development in two-year-olds: General trends and individual difference. Journal of Speech, Language, and Hearing Research, 44, 1144–1171.
3. Preisser, D. A., Hodson, B. W., & Paden, E. P. (1988). Developmental phonology: 18-29 months. Journal of Speech and Hearing Disorders, 53, 125–130.
4. Smit, A. B. (1993). Phonologic error distributions in the Iowa-Nebraska articulation norms project: Word-initial consonant clusters. Journal of Speech and Hearing Research, 36, 931–947.
5. Watson, M. M., & Scukanec, G. P. (1997a). Phonological changes in the speech of two-year olds: A longitudinal investigation. Infant-Toddler Intervention, 7, 67–77.

Mundarija

1.	Jabborov N.	O‘zbek matnshunosligi: yechimini kutayotgan muammolar.....	5
2.	Asadov M.	Chustiyning muxammasnavislik mahorati.....	12
3.	Shodmonov N.	Shayboniy va uning devoni xususida.....	17
4.	To‘xliyev B.	«Tazkirat ush-shuaro» – adabiyotshunoslikning nodir manbasi.....	27
5.	Binnətova A	Xəlil Yusiflinin “Şah Ismayil Xətayinin həyati və sənət dünyasi” araşdirmasinin təhlili.....	34
6.	Adizova I.	Marg‘ub she’riyat.....	42
7.	Yusupova D.	Furqat musabba'sining janr xususiyatlari.....	52
8.	Karimova F.	Forsiy debochalar va ularning tarixiy taraqqiyoti.....	60
9.	Hamroyeva O.	“Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist”ning yaratilishi va asos manbasi.....	67
10.	Amanova Z. Boqiyev A.	“Durrul majolisi turkiy” asarida kamtarlik talqini.....	79
11.	Nodirxon Hasan	Yasavıynıng xususıy arxıvıdagı "Devonı hıkmat" nusxasıga doır ba'zı mulohazalar	83
12.	Nuriddinov Sh.	“Devoni Komil” manbalarining matniy tadqiqiga doir ayrim mulohazalar.....	90
13.	Muhiddinova N.	Mirhasan Sadoiy devonining irfoniy tadqiqi.....	96
14.	Hamroyeva H. Naraliyeva Sh.	Qozog‘istonda mumtoz shoirlar ijodining o‘rganilishi.....	104
15.	Hayitov Sh. Baratova H. Ahmadova M.	Badiiy matnga munosabat.....	115
16.	Nasrullayev E. Safarova H.	Sab’ai sayyor dostonida Bahrom obrazi tarixi.....	121
17.	Amonov Sh.	Komil Xorazmiy va Ahmad Tabibiy: an’ana va izdoshlik.....	126
18.	Fayzulloyev B.	She’riy matn tahliliga doir mulohazalar. (Loiq Sherali ijodi misolida).....	135
19.	Mullaxo‘jayeva K.	“Yusuf va Zulayxo” dostoni muqaddimasidagi ma‘lumotlarning amaliy qimmati.....	144

20.	Sulaymonov M. Xoldarova G.	Alisher Navoiy ijodida adabiy an’ana va an’anaviy obraz takomili (komil inson timsoli misolida)……	151
21.	Suyunov M.	Navoiy ijodida matbu” tatabbunavislik…….	156
22.	Qurbonov A.	Yusuf alayhissalomning uch ko‘ylagi……..	162
23.	Xolikulova G.	Bobur adabiy muhiti manbalari…….	168
24.	Xasanova M. Eshpo‘latova O.	Xoja hikoyatlarida qozi timsoli……..…	173
25.	Ne’matova H.	Safarnomalarda tarix va tarixiy shaxslar talqini…….....	177
26.	Sulaymanov Z.	Oltin o‘rdada XII-XIV asrlarda yaratilgan adabiy manbalar tasnifi.....	180
27.	Saidakbarova M. Sobitova R.	“Tarixi Farg‘ona” asarida lirik janrlar talqini…….....	191
28.	Musayev D.	Naxçıvan və Qərbi Azərbaycanın xalçaçılıq sənətinin tarixi.....	201
29.	Abdurahmonov A.	Navoiy lirikasida qizil rang…….	207
30.	Məmmədova Ş.	Azərbaycan və özbək dillərində mətnşünasliq problemlərinin müqayisəli tədqiqi.....	211
31.	Velide Şıxəliyeva	Fövzi Akrəm tərzioğlunun “Tuz ve Balam nürden” dastaninda folklor motivləri.....	216
32.	Sulaymonov M. Sheraliyeva R.	Hamidjon Hamidov – manbashunos olim.....	224
33.	Cəfərova S.	Ziya Göyalp yaradiciliği.....	228
34.	Nuralieva A.	Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bosh qahramon obrazi talqinlari....	234
35.	Otaxanova M.	Chustiy lirikasida mavzular rang-barangligi.....	245
36.	Xo‘jayev A.	Faqiriy devonidan 7 ta muvashshah g‘azal tilga kirganda.....	252
37.	Badalova A.	Türk edebiyatinda kadin karakterlerinin dönüşümü, geleneksel rolden bireysel kimliğe.....	259
38.	Ҳакимова Г.	Корбурди санъатҳои бадеӣ дар ашъори Камолуддин Ҳусайни Хоразмӣ.....	263
39	Jo‘rayeva H.	Husayn Boyqaro merosi Aziz Qayumov talqinida.....	270

40	Sulaymonova H.	“Rasail ul-Xorazmiy” asarining turkiyadagi qo‘lyozma nusxalari xususida.....	275
41	Majidova Sh.	İki fundamental monoqrafiya: Əsmətxanım Məmmədova və Könül Bünyadzadənin qələmində.....	280
42	Mamadaliyeva G.	Kelin obrazining tarixiy rivojlanishi va folklor bilan aloqasi.....	288
43	Rasulova N.	Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida mulamma’ asarlar.....	293
44	Sodaliyeva S.	Hofiz Xorazmiy ijodiyotida g‘azal janrining roli.....	297
45	Mamaziyoyeva O.	Suhayliy tuyuqlari badiiyati.....	303
46	Shirinova N.	Adabiy manbalarni tasniflash masalasi.....	307
47	A’zamova Sh.	Nodirning “Haft gulshan” dostonida asliyat va tabdil muammolari.....	312
48	Sheraliyeva R.	Hamidjon Homidiy fors -tojik she’riyati tadqiqotchisi.....	317
49	Majidov U.	Pandnoma asarlarining vujudga kelish omillari.....	322
50	Ismoilova F.	Alisher Navoiy asarlarida inson ma’naviy kamolotining badiiy talqini.....	328
51	Aliyeva S.	O‘zbek mumtoz adabiyotidagi diniy-ma’rifiy qissalardagi she’riy janrlardan na’munalar.....	333
52	Ismoilov B.	Yusug Sakkokiyning “Miftohul-ulum” asarining yurtimizdagi litografik nusxalari....	336
53	Kurbanova Sh.	Hofiz Xorazmiy ijodiy merosida hikmatli fikrlar va ularining mavzu ko‘lami.....	341
54	Bobomurodova M.	Lutfiy devonining Parij nusxasidagi ayrim g‘azallar matniy tadqiqi.....	349
55	Shokirova D.	“Jangnomayi zufunun” toshbosmasinining arxeografiyasi.....	354
56	Omonkeldiyeva M.	“Boburnoma”dagi she’rlar poetikasi.....	359
57	Erkinova M.	Alisher Navoiy–yoshlar g‘amxo‘ri.....	362
58	Yusufaliyeva M.	Turkiy adabiyotning zabardast darg‘asi.....	366
59	Mahmudov F.	Alisher Navoiy qanoat vasfida.....	371
60	Akmalova Z.	O‘zbek mumtoz adabiyotida matnshunoslik va manbashunoslik masalalari.....	374

61 Jo‘raboyeva S. “Devoni Shavqiy” qo‘lyozmasidagi musaddas-munojotda Ka’ba timsoli..... 378
62 Toshboltayeva T. “Majmuai shoiron”da Xotif Xo‘jandiy zikrida..... 383
63 Maxmudova N. O‘zbek mumtoz adabiyotida diniy-ma’rifiy mavzuning shakllanishi va badiiy talqini..... 387

T A R J I M A SH U N O S L I K

64 Sadiqov Z. Alisher Navoiy ijodi olmon tilida..... 391
65 Otajanov N. Yapon olimining ilmiy jasorati..... 397
66 Saydaliyaev S. Autentiv va adaptiv matnlarning o‘ziga hos xususiyatlari (Germaniyaning “Tagesschau” dasturi materiallari misolida)..... 403
67 Муҳаммадзода Ҷурабек Урак Тарҷумаи ашъори ғиноии саъдӣ ба забони ӯзбекӣ…….. 407
68 Ochilov E. Chustiy ning tarjimonlik mahorati..... 415
69 Сангинова А. Предикативные средства выражения глагола to own в английском языке и его таджикские эквиваленты..... 421
70 Rashidova F. Psychological drama in “Wuthering heights” by emily bronte..... 426
71 Назар Диана Жумахан Назарке Development of students' communicative competences in english lessons in primary school..... 431
72 Payziyev K. Tarjima xalqlar o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik 439
73 Yuldosheva N. AI yordamida avtomatik tarjima tizimlarini o‘quv jarayonida qo‘llash..... 443
74 Xamraeva M. Badiiy matn tarjimasi va uning muammolari 447
75 Cəfərova A. Özbək dilində işlənən nidalar (azərbaycan dili ilə müqayisəli şəkildə)..... 453
76 Тошпўлатова Д. Ўзбек ва инглиз фольклоршунослигида мақолнинг поэтик хусусиятлари ҳақидаги қарашлар хусусида..... 457
77 Muratbayeva U. Qoraqalpoq va ingliz tillarida etika konseptlarining tarjimadagi muammolari va madaniy adekvatlik..... 461

78	Muratova D.	Isajon Sultonning “Ota qasidasi” va Li Mi Ening “Ona, siz…” asarlarida obrazlar tizimi.....	466
79	Abdurashidova K.	Uzbek and english folk legends in postfolklore processes: modern legends.....	471
80	Abdullayeva B.	“Boburnoma” da uzilgan yil voqealari bayonidagi ikki xillik – uning fazilati, ilmiy badiiy qiymatini oshiruvchi vosita hamdir.....	477
81	Nizomjonova Z.	“Vesilat-un najot” asari misolida badiiy tarjimaning semantik va lug`aviy muammolari.....	481
82	Турсунова Д.	Способы выражения модальных значений в английском языке.....	488
83	Akromov U.	Farmasevtik terminologiyaning rivojlanish tendensiyalari.....	496
84	Babaqulov Yu.	Teador Drayzer ijodiga bir nazar (“Baxti qora kerri” asari misolida).....	500
85	Mannonova F.	Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleyk ijodida badiiy mahorat.....	503
86	Зиядуллаев И.	Глаголы-неологизмы как объект текстолингвистики (на материале немецкого языка).....	509
87	Saidaxmedova O.	Til o‘zlashtirishda undosh tovushlar klasteri bo‘yicha xulosalar tahlili(chet el tadqiqotlari natijalari asosida).....	514

O‘ZBEK FILOLOGIYASIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI

mavzusidagi

II XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

2025-yil 13-14 iyun

1-kitob

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarda keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga, hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik mualliflarning zimmasidadir.

Adadi 50 nusxa. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
Bosma tabog‘i 32,7. «Times New Roman» garniturasi.
“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.